

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI



TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTTI

**FARMASEVTIK ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL QILISH VA
SIFAT MENEJMENTI KAFEDRASI**

**DORI VOSITALARINI SIFATINI TA'MINLASH FANIDAN
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi: 500000 - Sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

Ta'lif sohasi: 510000 - Sog`liqni saqlash

Ta'lif yo'nalishlari: 5510500 – Farmatsiya (turlari bo'yicha)



O`zbekiston Respublikasi Sog`lijni saqlash vazirligi

Toshkent farmatsevtika instituti

Farmasevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti kafedrasи

DORI VOSITALARINI SIFATINI TA'MINLASH FANIDAN

O`QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 500000 - Sog`lijni saqlash va ijtimoiy ta'minot

Ta'lim sohasi: 510000 - Sog`lijni saqlash

Ta'lim yo'nalishlari: 5510500 – Farmatsiya (turlari bo'yicha)

Toshkent – 2021

Dori vositalarini sifatini ta'minlash fanining o'quv uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsusus ta'lim vazirligining 2019 yil 12-08dagi 231-son buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

- | | |
|------------------|--|
| F.S.Jalilov | - TFI, Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti kafedrasi, farm.f.n., dotsent. |
| D.T.Gaibnazarova | TFI, Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti ifedrasi, farm.f.n., dotsent |
| E.E.Raximova | TFI, Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti afedrasi assistenti |

Taqrizchilar:

- | | |
|----------------|--|
| N.T.Farmonova | - Toshkent farmatsevtika instituti farmakognoziya kafedra mudiri, farmatsevtika fanlari nomzodi, dotsent |
| A.F. Do'smatov | - "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirli Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining "Ilm izlanishlarni tashkillashtirish, yangi dori vositalarini yaratish Xalqaro standartlar va innovation texnologiyalarni joriy etish bo'lim boshlig'i farm.f.d., dotsent |

Modulning o'quv uslubiy majmuasi sanoat farmatsiyasi soha uslubiy kengashining 2021 yil 21-08 dagi 1-son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Soha uslubiy kengashi raisi

V.R.Xaydarov

Modulning o'quv uslubiy majmuasi institut Markaziy uslubiy Kengashning ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. 2021 yil "29" iyundagi 11-son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi



Z.A. Yuldashev

Modulning o'quv uslubiy majmuasi institut Kengashining 2021 yil "29" iyundagi 11-son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Kengash kotibi

V.R.Xaydarov

MUNDARIJA

I.	KIRISH.....	6
II.	O`QUV MATERIALLARI.....	7
1-2-Mavzu:	Fanga kirish. Dori vositalari sifatini ta'minlash konsepsiysi, uning asosiy yo'nalishlari va bosqichlari. Sifat va uning qismlari. Sifatni rivojlanish bosqichlari.....	7
3-4Mavzu:	Dori vositalari sifatini ta'minlashdagi xalqaro standartlar. Maxalliy va chet eldan kirib kelayotgan dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi	15
5-Mavzu:	Farmatsevtika korxonalarining nazorat tahlil laboratoriyalarda sifatni boshqarishtizimi.....	29
6-Mavzu:	Dori vositalarining sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan tahlil usullarini tavsiyi.....	35
7-Mavzu:	Dori vositalarining sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan tahlil usullariga qo'yilgatalablar.....	39
8-Mavzu:	Farmatsevtik ishlab chiqish. Substansiyalar sifatini baholash.....	46
9-Mavzu:	Dori vositalarining hayotiy davrida sifatni ta'minlash.....	55
10-Mavzu:	Tabiiy xom ashyodan tayyorlangan dori vositalari sifatini ta'minlash.....	59
11-Mavzu:	Me'yoriy hujjatlarni metrologik ekpertizasini tashkil qilish va o'tkazish tartibi.....	64
12-Mavzu:	Steril dori vositalarini sifatini nazorat qilish.....	67
13-Mavzu:	Jixozlar tozaligi va uni aniqlashda qo'llaniladigan analitik usullar.....	75
14-Mavzu:	Dori vositalarini ishlab chiqarishda boshlang'ich materiallar va qadoqlov vositalari.....	85
15-Mavzu:	Spetsifikatsiyalar	91
16-Mavzu	Sinov laboratoriyalarda sifatni ta'minlash.....	
17-Mavzu	Standart operatsion jarayonlar (SOJ) ning dori vositalarini sifatini ta'minlashda ahamiyati.....	
18-Mavzu	Standart operatsion tizimlarning sifat kursatkichlarini aniqlashda qo'llanilishi.....	
19-Mavzu	Dori vositalari sifatini ta'minlashda qomlaniladigan reaktivlar, indikatorlar, jixozla asbob-uskunalar sifatini ta'minlash.....	
20-21-Mavzu	Farmatsevtik ishlab chiqish. Substansiyalar sifatini baholash.....	
22-23-Mavzu	Tabiiy xom ashyodan tayyorlangan dori vositalari sifatini nazorat qilish	
24-Mavzu	Steril dori vositalarini sifatini ta'minlash.....	
25-Mavzu	Ko'z tomchilarini sifatini ta'minlash.....	
26-Mavzu	Jixozlar tozaligi va uni aniqlashda qo'llaniladigan analitik usullar.....	
27-28- Mavzu	Yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplari.....	
29-Mavzu	Me'yoriy hujjatlarni metrologik ekpertizasini tashkil qilish va o'tkazish tartibi Yaxsishlab chiqarish amaliyoti (GMP).....	
30-31-	Qattiq dori turlarini sifatini ta'minlash.....	
32	Yumshoq dori turlarini sifatini ta'minlash.....	
33	Tashqi maqsadlar uchun ishlataladigan dori turlarini sifatini ta'minlash...	
III.	LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI UCHUN MATERIALLAR.....	101
1-Mavzu:	Dori vositalarini sifatini ta'minlash faniga kirish, maqsad va vazifalari. GMP, ICH qoidalarini qiyosiy o'rganish.....	101

2-Mavzu:	Dori vositalari sifatini ta'minlashda foydalaniladigan sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda	105
3-Mavzu:	Dori vositalari sifatini xalqaro standartlarga qiyoslab baholash.....	108
4-Mavzu:	Fenotiazin hosilalari guruhiga kiruvchi dori moddalarning chinligini aniqlashda farmakopeyaviy nazorat usullari..(USP, EuroPh, BPh).....	113
5-Mavzu:	Dori vositalari sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan reaktivlar, indikatorlar, jixozla asbob-uskunalar sifatini ta'minlash.....	114
6-Mavzu:	Dori vositalarining sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan fizikaviy tahlil usullariga qo'yiladigan talablar.....	119
7-Mavzu:	Dori vositalarining sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan kimyoviy tahlil usullariga qo'yiladigan talablar	121
8-Mavzu:	Dori vositalarini sifatini baholashda qo'llanadigan farmakopeyaviy usullar. Chinlikni aniqlashdagi xromagen reaksiyalar. (rangli reaksiyalar).....	126
9-Mavzu:	Dori vositalarini sifatini baholashda qullanadigan farmakopeyaviy usullar. Chinlikni aniqlashdagi xromagen reaksiyalar. (cho'ktiruvchi reaksiyalar).....	128
10-Mavzu:	Farmatsevtik tahlilda buffer tizimlar	129
11-Mavzu:	Faol farmatsevtik substansiylar sifatini ta'minlash. Sulgin substansiyasi tahlili...	133
12-Mavzu:	Faol farmatsevtik substansiylar sifatini ta'minlash. Yurak glikozidlari guruhiya kirgan substansiya tahlili	137
13-14-Mavzu	Vitaminlar guruhiga kirgan substansiylar va dori vositalari tahlili	140
15-16Mavzu:	Alkaloidlar guruhiga kirgan substansiylar va dori vositalari tahlili.Semestr nazorat ishi.....	142
17-Mavzu:	Standart operatsion jarayonlar (SOJ) ning dori vositalarini sifatini ta'minlashdagi ahamiyati.....	145
18-Mavzu:	Dori vositalarining hayotiy siklida sifatini ta'minlash	149
19-Mavzu:	Dori vositalarini olishda foydalaniladigan xom ashyo sifatini baholash	153
20-Mavzu:	Tabiiy xom ashyodan tayyorlangan dori vositalari sifatini ta'minlash. Dori vositalar sifatini ta'minlash bosqichlari.....	155
21-Mavzu:	Steril dori turlarini ishlab chiqarishda sifatini ta'minlash.....	158
22-Mavzu:	Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayonida sifatini ta'minlash. Ko'z tomchil dori preparatlarining sifatini ta'minlash.....	162
23-Mavzu:	Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayonida sifatini ta'minlash. In'yeksiyon eritmalar sifatini ta'minlash.....	170
24-Mavzu:	Dori vositalarini ishlab chiqarishda boshlang'ich materiallari va qadoqlov vositalari.....	171
25-Mavzu:	Dori vositalarini sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan tahlil usullari.....	173
26-27-Mavzu	Qattiq dori turlarini ishlab chiqarish jarayonida sifatni ta'minlash.....	175
28-Mavzu:	Dori vositalari tahlilida kislorod oqimida kuydirish usullarining qo'llanilishi.....	179
29-Mavzu:	Murakkab tarkibli dori vositalar tahlili. Ringerlok in'eksion eritmasi.....	183
30-Mavzu:	Murakkab tarkibli dori vositalar tahlili. Tabletka dori shakli.....	186
31-Mavzu:	Yumshoq dori turlarini sifatini ta'minlash.....	188
32- Mavzu:	Uchuvchan dori vositalarini tahlilida GX qo'llanilishi: dori vositalari tarkibidagi qoldiq organik erituvchilarni aniqlash. Kamforaning spirtli eritmasi.....	
33- Mavzu:	Dori vositalarini tahlilida kompleks usullarni qo'llanilishi (xromatospektroskopiya xromatofotoelektrokolorimetriya).....	
IV.	MUSTAQIL TA'LIM ASHG'ULOTLARI.....	193
V.	GLOSSARIY.....	199
VI.	ILOVALAR	206
5.1.	Fan	207

	dasturi.....	
5.2.	Fan Ishchi dasturi.....	220
5.3.	Tarqatma materiallar.....	233
5.4.	Testlar.....	235
5.5.	Baholash mezoni.....	255
VII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	262

I. KIRISH

O‘zbekiston Prezidentining belgilab bergen vazifalari asosida mazkur soha yuzasidan xorijiy oliy o‘quv yurtlarining dasturlari o‘rganildi va tahlil etildi. Tahlil natijalari asosida ishchi dasturga o‘zgartirishlar kiritildi. Mazkur ishchi o‘quv dasturi OO‘MTV ning 2013 yil 2 avgustdagি 278 – sonli “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari-ning davlat ta’lim standartlari asosida fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi” togrisidagi buyrug‘ida keltirilgan talablari va 2011 yilda tasdiqlangan namunaviy dastur hamda xorijiy adabiyotlar asosida qayta ishlab chiqildi. Jumladan, “Farmatsevtik maxsulotlarning sifatini sifatini ta’minalash tizimi: nazorat qilish, sifatini ta’minalash (karta Shuxarta) va sifat menejmenti” va “Steril farmatsevtik maxsulotlarning sifatini nazorat qilish” mavzulari yangi adabiyotlardan kiritildi.

1. Hozirgi kunda dori vositalarini sifatini ta’minalash fani muxim axamiyatga ega bo‘lib, bunga sabab dori vositalarining sifatiga qo‘yilayotgan talabning ortib borishidir. Ya’ni sifat olingan oxirgi maxsulotda emas balki uning xom ashyyodan boshlab to bemorga etib borgunigacha bo‘lgan barcha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Fanni o‘rganish davomida – GMP, GLP, GCP, ISO, ICH standartlari va PIC/S ko‘rsatmalariga e’tibor qaratiladi. (Quality assurance of pharmaceuticals : a compendium of guidelines and related materials. Vol. 2, Good manufacturing practices and inspection. – 2nd ed. 2010 y.)

Fanni o‘rganish natijasida kerakli bilim va amaliy ko‘nikmalariga ega bo‘lgan farmatsevt, MX talablari asosida dori vositasini sifatiga baho bera olish malakasini egallashdan tashqari dori vositalarini ro‘yxatga olish, ularni olishda foydalanilayotgan xom ashyo, texnologik jarayondagi oraliq mahsulotlar, jixozlar, binolar, saqlash sharoitlari, tashilishi sifatini baholash, dori vositasini olinish jarayonida xavfsizlikni ta’minalash, xar bir jarayon uchun standart operatsion tadbir rejalarini, texnologik reglamentlarni tuzish, ro‘yxatdan o‘tkazish masalalarini ham hal eta oladi. Dori vositalarining sifatini ta’minalashlashda qollaniladigan zamonaviy usullar. Ularning nazariy asoslari vaamaliy qollanilishi, qollanilaniladigan kimyoviy va fizik- kimyoviy usullarini tanlashni organish va amaliyotga tatbiq etish uchun bilim va ko‘nikmalarga ega bolish kabi omillar muhim ahamiyatga ega

II.NAZARIY MATERIALLAR

1-2-MAVZU: FANGA KIRISH. DORI VOSITALARI SIFATINI TA'MINLASH KONSEPSIYASI, UNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA SIFATNI RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

Reja:

- 1 Sifatni ta'minlash konsepsiyasi
- 2 Farmatsevtika sohasidagi sifat tizimi (FST)
- 3 Sifatni ta'minlovchi elementlar
- 4 Sifatni nazorat qilish bo'limi (SNQB)

Tayanch iboralar: *sifat, farmatsevtika, dori vositalari, konsepsiya.*

1.1. Sifatni ta'minlash konsepsiyasi

Bugungi kunda mahsulotlarning sifatini ta'minlash muammosi inson hayoti havfsizligini iqtisodiy, sotsial va ekologik jihatdan oshirishning muhim omillaridan xisoblanadi. Mavjud adabiyotlarda va amaliyotda sifat tushunchasiga turlicha ta'rif berilgan.

Masalan, standartlash bo'yicha halqaro tashkilot ISO 9000:2000 standartida "sifat" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: *sifat* - o'ziga xos xususiyatlarni talablarga mos kelish darajasi.

Dori vositalarining sifat mezonlari (**WHO bo'yicha**):

- faolligi va havfsizligi;
- me'yorlar, sinovlar va usullar bo'yicha sifat ko'rsatkichlari talablarga javob berishidir.

Dori vositasining sifati (**FDA AQSH**):

- qo'llanishga yaroqliligi (havfsizlik, samaralilik, foydalanish uchun qulayligi);
- mahsulot va jarayonlar haqidagi ilmiy echimlarning etarliligi;
- iste'molchilar talablariga mosligi.

Dori vositalarining sifati – dori vositalari Davlat sifat standartiga dori vositalarining mos kelishi (RF ning "Dori vositalari to'g'risida"gi qonuni).

Xozirgi kunda dori vositalari muomalasidagi sifat tushunchasini mustahkamlaydigan asosiy xuquqiy hujjat bu O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi qonunidir (2009 y). Unga ko'ra *dori vositalarining sifati* – dori vostasiga belgilangan maqsadga muvofiq ist'emolchilar talablarini qondirish qobiliyatini beruvchi xususiyatlar yig'indisi va uning me'yori hujjatlarda ko'rsatilgan talablarga javob berishidir.

Dori mahsulotining talab darajada sifatli bo'lishiga erishmoq uchun faqatgina uni ishlab chiqarish jarayonini tekshirish yordamida emas, balki tadqiqotlarning har bir bosqichida, ya'ni xom ashyo, olinish usuli, foydalanilayotgan reaktivlar va asbob uskunalar-jihozlar, tahlil usullari, ro'yxatdan o'tkazish, saqlanishi, tashilishi, tarqatilishi, klinikagacha va klinikadan so'ngi tadqiqotlar va boshqa bosqichlarda sifat nazorati olib borilishi kerak bo'ladi. Qayd etilgan bosqichlarning barchasida dori vositasi yoki yarim tayyor mahsulotning sifati saqlanishi lozim. Ana shundagina dori vositasining havfsiz va samarador bo'lishiga erishish mumkin bo'ladi.

Havfsizlik va samaradorlik is'temolchining aynan ma'lum bir dori vostasidan qanoatlanishini ifodalaydigan omillardan xisoblanadi. Ya'ni samaradorlik inson organizmiga dorining ijobjiy ta'sirini belgilasa, havfsizlik esa uning bezararligini ifodalaydi. Agar har bir dori vositasining tirik organizmga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatishini e'tiborga oladigan bo'lsak, unda u faqat aynan mo'ljallangan bemorga nisbatan havfsiz deb e'tirof etiladi.

Demak, "*dori vositasining sifati*" quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi:

- samaradorlik

- havfsizlik
- axborot
- saqlanish muddati
- qo'llash qulayligi
- estetikligi

Bugungi farmatsevtika bozori o'z boshidan globallashuv va integratsiya jarayonlarini o'tkazmoqda. Hech bir davlat kasalliklarni davolash uchun jamiki dorilar xajmini ishlab chiqara olmaydi. Har bir davlatning boshqaruv idoralari o'zida ishlab chiqarilayotgan yoki xorijdan kelayotgan dori vositasini ro'yxatdan o'tkazadi yoki marketingiga ruxsat beradi. Har bir davlat o'zining farmatsevtika muomalasini boshqaruvchi tashkilotga ega va bu tashkilot dori vositalarini ekspertizadan o'tkazgandan so'nggina uni sotishga ruxsat beradi.¹

1.1. Sifatni ta'minlash konsepsiysi

Sifatni ta'minlash konsepsiysi GMP talabi asosida va GXPNi hisobga olgan farmatsevtik mahsulotni sotuvgaga chiqarish tizimi bo'lib, u keng qamrovli tashkiliy jarayonlar yig'indisidan iborat. Mahsulotning hayot siklini to'la ifodalashi, ya'ni uning sifati, yaratilishi, ishlab chiqarilishi, ishlab chiqarish loyihamalarini tuzish, sifat nazorati va sotilishi kabi barcha bosqichlarda teng ta'minlashi zarur. Mazkur tizim sifatni erkin nazorat qilishni ta'minlaydi va tartibga solib turadi.

Sifatni ta'minlash konsepsiyasining asosiy mazmuni - sifat mahsulot tayyor bo'lgan xolida emas balki uning yaratilishi jarayonining barcha bosqichlarida to'la ta'minlanishi kerak.

Sifatni ta'minlash konsepsiyasining omillari

Farmatsevtik sifat tizimining Konsepsiysi, tashkil etilishi va hujjatlashtirilishi tushunarli va ishlatishga qulay, shuningdek konsepsiya elementlari mahsulotning har bir hayotiy bosqichlari uchun mos bo'lishi kerak.

"Sifatni ta'minlash" tushunchasi "sifatni nazorat qilish"dan farq etadi: sifatni nazorat qilishda oxirgi natijada mahsulotning sifatli qismi sifatsizdan ajratiladi. Sifatni ta'minlash mahsulot sifatini yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Mahsulot sifatini ta'minlash korxona rahbariyatining asosiy vazifalaridan xisoblanib, turli bo'limlar xodimlari, shuningdek distribyutor va ta'minlovchilarining ishlab chiqarishning barcha bosqichlarda ishtiroy etishini va javobgarligini talab etadi.

Dori vositalarining sifatini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

- dori vositalari GMP va GLP talablari asosida ishlab chiqarilgan va tekshirilgan;
- dori vositalarini tayyorlash va sifatni nazorat qilish jarayonlari aniq yoritilgan va GMP qoidalariga mos kelishi;
- rahbariyatning javobgarligi va vazifalari aniq;
- kerakli xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarish, etkazish va ishlatilishi bo'yicha tadbirlar o'tkazilgan;
- yarim tayyor mahsulotning nazorati va validatsiyasi o'tkazilgan;
- tayyor mahsulot to'g'ri ishlab chiqarilgan va tasdiqlangan usullar yordamida tekshirilgan;
- DV uchun ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha ishlab chiqilgan ma'lumotnomasi (registratsionnoe dose) talablari asosida har bir dorining turkumi tekshirilgan bo'lishi va tasdiqlangan shaxs ruxsatisiz mazkur mahsulot sotilmasligi;
- DV yaroqlilik muddati, saqlash, tashish, tarqatish va x.k davrida uning sifati o'zgarmasligini kafolatlovchi barcha tadbirlar o'tkazilgan;
- sifatni ta'minlash tizimining yaroqliligi va faollilagini doimiy baxolash imkonini beruvchi sifat auditni va/yoki o'z-o'zini tekshirish (samoinspeksiya) tizimi mavjud bo'lishi kerak.

1.2. Farmatsevtika sohasidagi sifat tizimi (FST)

1- Quality assurance of pharmaceuticals : a compendium of guidelines and related materials.Vol. 2, Good manufacturing practices and inspection. – 2nd ed. 2010 y.

GMP EC, WHO va ISO 9001 sifat menedjmenti talablarini integratsiyalash maqsadida namunali farmatsevtik sifat tizimi bo'yicha ICH Q10 tavsiyanomasini ishlab chiqdi.

Unga ko'ra FST ning 3 ta asosiy maqsadi belgilab berilgan:

- Mahsulotni sotish
- Bunda patsientlar, soha mutaxassislari, xuquq-tartibot organ vakillari tomonidan, ichki va tashqi istemolchilarga sifatlari dori vositasini yetkazib berish uchun tizimi ishlab chiqish kerak va bu tizim tatbiq etilishi, qo'llab-quvvatlab turilishi lozim.
- Tizimli nazorat tashkil etish va qo'llab-quvvatlash
- Jarayonlarning ishlashini, belgilangan talablarga mos kelishini doimo ta'minlash, mahsulot sifati va ishlab chiqarish jarayonini nazorat etish, hamda monitoringini olib boruvchi tizim ishlab chiqish va undan foydalanish kerak.
- Doimiy takomillashtirish
- Mahsulot sifati, texnologik jarayonni muntazam yaxshilab borish, o'lchamlar o'zgaruvchanligini kamaytirish, farmatsevtik mahsulot sifatini modernizatsiyalash va yaxshilash usullarini tanlab olish zarur.
- FST quyidagi 4 qismdan tashkil topgan:
 - GMP ning asosiy elementi
 - ISO 9001:2008 ning asosiy elementi
 - ISO 9001:2008 ning qo'shimcha elementi:
 - mahsulot sifati va texnologik jarayon monitoringi
 - tuzatish/ogoxlantirish harakati (SARA)
 - rahbariyat tomonidan tahlil qilish
- farmatsevtik sifat menedjmentiga kiruvchi yordam beruvchi omillar:
bilimlarni boshqarish
- sifat sohasidagi havf-xatarlar menedjmenti.

Qayd etilgan qismlar farmatsevtik mahsulot hayotiy davrining barcha bosqichlariga, hattoki farmatsevtik ishlab chiqish jarayoniga ham taalluqlidir.

Farmatsevtika sohasida sifat tizimining rivojlanishi uch bosqichdan iborat: *sifat nazorati, sifatni ta'minlash va sifat menedjmenti (boshqarish)*.

Sifat tizimi (AQSH) bu mahsulot va xizmatlarni iste'molchilar talabini qondirishda sifatliligini ta'minlaydigan resurslar, jarayonlarni tashkillashtiradigan boshqaruvni aniqlaydigan, shakllangan biznes amaliyotidir ("Sifat tizimi: GMP talablari" FDA, sentyabr 2004y).

Sifat tizimining ahamiyati shundaki, bunda farmatsevtik ishlab chiqarish soxasida GMP talablarini yanada chuqurroq va faolroq qo'llash imkonini yaratadi, shuningdek tekshiruv vaqtida nazoratchi tomonidan faqatgina sifatni ta'minlash tizimining mavjudligi tekshirilmay, balki GMP talablariga to'liq rioya qilinayotganligi ham nazoratga olinadi.

Birinchi bosqich sifat nazorati – *Quality control- QC* bunda asosan boshlang'ich materiallar va tayyor mahsulot sifati nazorat etilar edi. Bu tizim faqatgina ishlab chiqarilgan Yaroqsiz mahsulotni aniqlashga asoslangan bo'lib, uning sifatni ta'minlash konsepsiysi asosini iste'molchi faqat yaroqli mahsulotni olishi kerak degan g'oya tashkil etadi.

Sifat nazorati GMP ning bir qismi bo'lib, u dori vositasining sifatini kafolatlab beruvchi quyidagi vazifalar bilan bog'liq:

- namunalar olish,
- spetsifikatsiyalar,
- spetsifikatsiyalar talablari asosida tajribalarni o'tkazish,
- ishlarni tashkil etish,
- hujjatlashtirish,
- mahsulotlarni sotuvga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni tashkil etish.

Ikkinci bosqich **sifatni ta'minlash** *Quality Assurance -QA* XX asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. Avvallari dori vositalari faqatgina dorixonalarda sanoqli tayyorlangan va bunda quyidagicha

zanjirli bog‘lanish kuzatilgan: vrach (retsept yozadi) - farmatsevt(dori tayyorlaydi)-bemor (qabul qiladi), uning sifatini nazorat qilish oson bo‘lgan, ya’ni farmatsevt o‘zi dori tayyorlagan va o‘zi tekshirgan.²

Keyinchalik ishlab chiqarishning yuqori texnologiyalarning paydo bo‘lishi, kimyo, farmakalogiya, mikrobiologiya soxasidagi yutuqlar, kimyoviy sintezning rivojlanishi, dori turlarining va assortimentining ko‘payishi natijasida farmatsevtik bozorining murakkab zanjiri yuzaga keldi: ishlab chiqaruvchi vrach taqsimlash tarmog‘i: ulgurji savdo tashkilotlari dorixona muassasalari bemorlar yoki ularning oila a’zolari. Mazkur holatda “sifatni taminlash” tushunchasi paydo bo‘ldi.

Sifatli mahsulot yaratilishini boshqarish uchun alohida tizim kerak – ushbu tizim “Sifatni ta’minlovchi tizim” deyiladi. Sifatli mahsulotni ishlab chiqarishni kafolatlash uchun korxonada “Sifatni ta’minlovchi tizim” tashkil etilgan bo‘lishi kerak. Ushbu tizim dori vositalari yoki boshqa mahsulotni ishlab chiqarish korxonasidagi yoki xizmat ko‘rsatish muassasasida tashkil etilishidan qat’iy nazar bir xil sifatni kafolatlashi aniq.

Faqatgina samarador “Sifatni ta’minlovchi tizim” tashkil etilgan korxonada boshqa standartlar talabiga javob beradigan dori vositasi yoki tibbiyot buyumlarining sifati birdek to‘liq kafolatli bo‘lishi ta’minlanadi.

Farmatsevtik sifat tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- jarayonlar o‘lchamlari va mahsulot sifatining monitoringi;
- oldini olish va tuzatish bo‘yicha faoliyat olib borish;
- rahbariyat tomonidan o‘zgarishlarni boshqarish va tahlil qilish;
- farmatsevtik sifat tizimi doirasida monitoring olib borishda indikatorlar tasdiqlangan va foydalilanayotgan bo‘lishi kerak.

“Sifatni ta’minlovchi tizim” ning asosiy maqsadi – bu:

1) ishlab chiqariladigan mahsulot xususiy talablarga doimo javob berishini ta’minlash;

2) “talabga javob bermaydigan” mahsulotni ishlab chiqarishga imkon qoldirmaslik.

Mahsulot sifatini nima kafolatlay oladi? Ushbu tushuncha ishlab chiqarilgan mahsulotni faqat uni o‘ziga xos xususiyatlari talabidan kelib chiqib baholash noto‘g‘ri va bu tor ko‘lamda yondoshishlikni yuzaga keltiradi.

Nafaqat tayyor mahsulot, balki uni ishlab chiqarilishi va sotilishiga ta’luqli bo‘lgan barcha jarayonlar maxsus talablarga javob berishi kerak. Ushbu talablar aniq qilib korxonaning ichki hujjatlarida yozilgan bo‘lishi lozim: xom ashyo va materiallar sifatiga qo‘yiladigan xususiy talablar; asbob-uskunalarga qo‘yiladigan talablar hamda yarim tayyor va tayyor mahsulotga qo‘yiladigan talablar, malakali xodimlar, har jarayon rejalashtirilgan, jarayonlarni olib borish sharoitlari, standart ishlab chiqarish va boshqaruv jarayoni, shuningdek boshqa umumiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablar majmuasi.

Korxona hujjatlarida keltirilgan talablar majmuasi butun ishlab chiqarish bosqichlari hamda mahsulot sifatiga birdek ta’sir ko‘rsatadi. Korxonadagi mavjud hujjatlarga asoslanib ishlab chiqarishning barcha jarayonlarini tashkil etilganida va ushbu hujjatlarda keltirilgan maxsus talablarga rioya qilinganida tayyor mahsulot to‘liq kafolatlangan, sifatli deb tan olinadi.

Mahsulot sifatini kafolatlash uchun ishlab chiqarish korxonasida mahsulot sifatiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan jarayonlar va ushbu jarayonlarda ishtrok etadigan xodimlar keltirilgan talablarga to‘liq javob berishi lozim va bunga isbot ham bo‘lishi, hamda barcha faoliyat hujjatlashtirilishi kerak.

Sifatsiz mahsulot ishlab chiqarmasligi uchun chora-tadbirlar ishlab chiqarilgan va har bir ishlab chiqarish jarayoni bosqichida paydo bo‘lgan muammoni to‘liq hal etadigan mutaxassislar belgilangan bo‘lishi kerak. Ushbu hodimlar vaziyatni to‘liq tushinishi, muammoni hal eta olishi

2- Quality assurance of pharmaceuticals : a compendium of guidelines and related materials.Vol. 2, Good manufacturing practices and inspection. – 2nd ed. 2010 y.

hamda Yaroqsiz bo‘lib qolgan mahsulotni nima qilishni va qayerga joylashtirishni oldindan bilishi kerak.

Ushbu tamoillarga amalda rioya etilishi korxonada “Sifatni ta’minlovchi tizim” ning mavjudligidan, samaradorligidan, hamda xodimlarning o‘z vazifasini to‘la bajarilishidan dalolat beradi.

Har bir mayjud tizimlar kabi “Sifatni ta’minlovchi tizim” ham korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini ta’minlovchi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan va bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan boshqa bo‘limlar bir butun tizimni tashkil etadi.

Farmatsevtika sohasida sifat tizimi rivojlanishining uchinchi bosqichi bu sifat menejmenti hisoblanadi.



2-rasm. Farmatsevtik ishlab chiqarishda sifat menedjmentining asosiy elementlari

Mahsulot sifatini boshqarish tizimining asosiy elementlari

Mahsulot sifatini boshqarish tizimining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi:

- mahsulotni sotish uchun ruxsat olish jarayoni
- xodimlarni boshqarish jarayoni (vazifalari, malakasini oshirish tizimi)
- kerakli hujjatlarni boshqarish
- ichki audit
- tashqi audit
- kontrakt asosida bajariladigan ishlar (texnik ishlanmalarni tuzish va muxokama qilishdagi ishtiroti)
- reklamatsiyalarni ko‘rib chiqish
- qaytarilgan mahsulotlar muomalasi
- mahsulotni qaytarish tizimi
- ist’emolchi va yetkazib beruvchini tanlash
- chetlanishlarni boshqarish
- o‘zgarishlarni nazorat qilish
- kvalifikatsiya va validatsiya ishlarini tashkil qilish
- tuzatish va oldini olish ishlar bo‘yicha tizim (SARA)
- sifat bo‘yicha sharxlar
- sifat uchun havf-xatarlarni boshqarish

1.3. Sifatni ta’minlovchi elementlar

Ishlab chiqarish korxonasida “Sifatni ta’minlovchi tizim” ni tashkil etishda bir qancha asosiy majburiy elementlar ishtirot etadi. Quyida ushbu elementlarni ko‘rib chiqamiz.

Sifat bo‘yicha siyosat

“Sifatni ta’minlovchi tizim” ni tashkil etish korxonada sifat bo‘yicha siyosatni shakllantirishdan boshlanadi. Korxona rahbariyati, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini ta’minlash maqsadida asosiy yo‘nalishi va maqsadni oldindan rejalashtirishi lozim. Ushbu hujjat katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, shu sababli uni shior kabi barcha ko‘rishi uchun osib qo‘yish lozim. Sifat borasidagi korxona siyosati butun korxona ishchilariga tushunarli bo‘lishi kerak. Rahbariyat va xodimlar ushbu siyosat bilan tanishgan va qo‘llab-quvvqtlangan bo‘lishi kerak.

Korxonaning ishchi xodimlari “Sifatni ta’minlovchi tizim” ni tashkil etish va amalga oshirishda asosiy bosh bo‘g‘inlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun “Sifatni ta’minlovchi tizim” ni korxonada joriy etishda sifatni oshirish bo‘yicha qo‘yiladigan talablar barchaga tushunarli bo‘lishi ushbu tizimni ijobjiy o‘zlashtirilishi garovidir. “Sifatni ta’minlovchi tizim” ni samarali ishlashida bir fikrga ega jamoa bo‘lishi va o‘zgarishlar ham jihatlikda o‘ztakazilishi kerak.

Xodimlar javobgarligi va vakolatlari

Ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini ta’minlashda ishchi xodimlarning javobgarligi, vakolati va bir-biri bilan ish yuzasidan muloqotga kirishishi aniq bo‘lishi, korxonadagi xodimlar vakolati va javobgarligi tashkiliy chizma (sxema) va xodimlarning lavozim yo‘riqnomalari asosida belgilangan va hujjat orqali tasdiqlangan bo‘lishi kerak.³

Korxonaning tashkiliy chizmasi (sxemasi) ni qanday tushunish lozim?

Sifatni ta’minlash tamoillarini aniqlash uchun ishlab chiqarishda qaysi faoliyat mahsulot sifatiga bevosita ta’luqligini aniqlash kerak.

Albatta, bu dastlab – umumiy rahbariyat (direktor) mahsulot sifatiga javob beruvchi shaxs; ishlab chiqarish bo‘limi yoki bo‘limlari va omborxona, sifat nazorati bo‘limlari, hujjatlarni yuritish bo‘limi, savdo bo‘limi – xom ashyo va materiallarni hamda asbob-uskunalarini sotib olish uchun me’yoriy bo‘lim, tayyor mahsulotni sotuvga chiqarishga mas’ul – logistika bo‘limi – injenerlik xizmati – injenerlik va asbob – uskunalarini o‘lchov – nazorati uchun mas’ul bo‘lim, marketing bo‘limi – is’emolchi bilan ishlash bo‘limi. Bu ro‘yhatni yanada davom ettirish mumkin. Masalan, ilmiy – ishlab chiqarish korxonasi bo‘lsa, unda albatta ilmiy tekshirish bo‘limlari bo‘ladi va hokazo. Korxona rahbariyati albatta har bir bo‘limlardan qay biri ishlab chiqariladigan mahsulot sifatiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatishini biladi va shu sababli o‘zi tashkiliy chizmaning tarkibini (elementlarini) belgilaydi. Chizmada bo‘limlarni bir-biri bilan bog‘lanishi va ularni bir-biriga bo‘ysinishi ko‘rsatilishi kerak.

Keyingi bosqich - boshqaruvi bo‘limlari boshliqlari uchun lavozim yo‘riqnomasini tuzish va tasdiqlashdir. Lavozim yo‘riqnomalarini tuzishda har bir rahbarning etarli vakolatlar bilan ta’minlanganligiga e’tibor berish kerak. Masalan, 1-jadvalda ishlab chiqarishga javobgar shaxs majburiyatlarining eng minimal ro‘yhati keltirilgan. Agar xodim ushbu ro‘yhatda keltirilgan vazifalarga ko‘ra ko‘proq vakolatga ega bo‘lsa, unda ro‘yhat to‘ldirilishi lozim.

Ayrim xollarda lavozim yo‘riqnomasiga to‘liq amal qilish – korxonada sifatsiz muhsulot ishlab chiqrilishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda korxona rahbariyati ushbu masalaga echim topishi zarur va bunda bo‘lim boshlig‘i vakolatiga putur etmasligi kerak.

1-jadval

Ishlab chiqarishga mas’ul shaxsning vakolati va majburiyatları

Majburiyatlar	Vakolatlari
- mahsulot sifatiga javob erish;	- ishlab chiqarish jarayonini to‘htatishi umkin, agar:
- hujjat asosida mahsulot ishlab chiqarilishiga mas’ul.	- ishlab chiqarish sharoiti hujjatda keltirilgan sharoitga to‘g‘ri kelmasa;
- ishlab chiqarish rayonlarini me’yoriy-texnik va maxsus hujlar asosida bajarilishini ta’minlash;	- kerakli xom ashyo bo‘lmasa; - bevosita ishlab chiqarish jarayonlarni nalga oshiradigan va kerakli kasbiy mahoratga ega

3- ³ Комментарий к руководству европейского союза по надлежащей практике производства лекарственных средств для человека и применения в ветеринарии: Правила, регулирующие лекарственные средства в Европейском Союзе. / Под. ред. С.Н. Быковского, И.А. Василенко, С.В. Максимов. –М. : Изд-во «Перо», 2014.-488с.

<ul style="list-style-type: none"> - mahsulot, jarayonlar va fat tizimi bo'yicha yuzaga kelgan uammolarni ro'yhatga olishi; - ishlab chiqarish jarayonini 'g'ri va o'z vaqtida hujjatlashtirilishi; - ishchi xodimlarini ivfsizlik texnikasi va sanitariya gigiena bidalariga rioya qilishga mas'ul. 	<ul style="list-style-type: none"> - bo'lgan xodimlarni tanlab olishda ishtirok etish; - ishlab chiqarish jarayoni va kerakli xnologik bosqichlarni amalga oshirish uchun ijjalalar tizimi, ularni kelishish yoki tasdiqlash; - o'zi yo'qligida o'z o'rniiga o'rinsar belgilash.
---	---

Sifatni ta'minlash uchun amalga oshiriladigan ishlar va vakolatlar taqsimlangandan so'ng, sifatli mahsulot ishlab chiqarish jarayonini aniq ijro etadigan xodimlar zimmasiga yuklatiladi.

Har bir ishga qabul qilinadigan xodim lavozim yo'riqnomasi bilan tanishishi va o'z roziligini tasdiqlashi kerak. Lavozim egasi bo'lgan xodim o'z majburiyatlari, vazifalari va vakolatlarini bilmasligi mumkin emas. Korxona mavjud yuridik qonun-qoidalarni hisobga olib, yuz berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz voqealar va mas'uliyatsizlikni oldini olishi lozim.

Ko'pincha shtatida ko'p sonli ishchilar bo'lgan korxonalar tashkiliy chizma va lavozim yo'riqnomalarini tuzishda, ayniqsa, sifatni ta'minlash tizimi talablarini hisobga olib tuziladigan hujjatlarni tuzishda qiyinalishadi. Bu vaziyatda bir xodim yakka tartibda bir-nechta vazifani bajarishiga to'g'ri keladi. Vaziyatdan oson chiqib ketish uchun: - birinchi navbatda mahsulot sifatiga bevosita ta'lulqli vazifalarni aniqlash lozim, keyingi bosqichda aniq bir shaxs, masalan hujjatlar bo'limi boshlig'i, logistika va marketing bo'limini ham boshqarishi mumkin va xokazo. Biroq mavjud xalqaro va mahalliy me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda ish yuritilsa – bunda ishlab chiqarish va sifat nazorati bo'limlarini bir xodim boshqara ololmasligi amalda ta'kidlangan.

1.4. Sifatni nazorat qilish bo'limi (SNQB)

Sifatni nazorat qilish bo'limi (SNQB, otdel kontrolya kachestva- OKK) korxona direktoriga bo'ysunmaydigan erkin faoliyat yurituvchi bo'lim hisoblanadi (sifatni ta'minlash bo'yicha Direktor). Mazkur bo'lim korxona direktori buyrug'iga ko'ra tuziladi yoki tarqatib yuboriladi. Bo'lim boshlig'i korxona direktori buyrug'i asosida tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Bo'lim boshlig'i lavozimiga boshqaruv bo'limida kamida 3 yil faoliyat yuritgan, oliy ma'lumotli farmatsevt, kimyogar-texnolog, biotexnolog va shifokorlarni tayinlash mumkin. SNQB boshlig'i o'z o'rindbosariga ega va uning faoliyati SNQB boshlig'i tomonidan belgilab beriladi. Bo'lim o'rindbosari va boshqa lavozimlarga SNQB boshlig'i tavsiyasi va direktor buyrug'i asosida ishga qabul qilinadi va lavozimidan ozod qilinadi. Bo'lim o'z faoliyatida korxonaga va sifatni nazorat qilishga oid qonunlar, uslubiy qo'llanmalar, bo'yruqlar va ishlab chiqarishdagi sifatni nazorat qilishga oid hujjatlar bilan ishlaydi. Quyida sifatni nazorat qilish va sifatni ta'minlash bo'limlarining tashkiliy chizmasi keltirildi.



3-rasm. Sifatni nazorat qilish va sifatni ta'minlash bo'limlarining tashkiliy chizmasi

Mavzu yuzasidan savollar

1. O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi qonuni
2. Sifatni ta'minlash konsepsiyasi
3. Sifatni ta'minlash konsepsiyasining omillari
4. Farmatsevtika sohasidagi sifat tizimi
5. Dori vositalarini ishlab chiqarishning GMP va GLP talablari
6. Sifat nazorati
7. Sifatni ta'minlash
8. Sifatni ta'minlovchi tizimi
9. Sifat menedjmenti
10. Sifatini boshqarish tizimining asosiy elementlari
11. Sifatni ta'minlovchi elementlar
12. Ishlab chiqarishga mas'ul shaxsning vakolati va majburiyatlar
13. Sifatni nazorat qilish bo'limi (SNQB-OKK - otdel kontrolya kachestva)

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

3-MAVZU: DORI VOSITALARI SIFATINI TA'MINLASHDAGI HALQARO STANDARTLAR

Reja:

1. Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti (WHO)
2. Insonlar uchun qo'llaniladigan dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazishga qo'yilgan xnik talablarni uyg'unlashtirish (garmonizatsiyalash) bo'yicha Halqaro onferensiya (ICH)
3. Standartlash bo'yicha Halqaro tashkilot (ISO)
4. Farmatsevtik inspeksiyalar (GMP bo'yicha inspektorlar) bo'yicha hamkorlik onvensiyasi (PIC)
5. Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti (GMP)

Tayanch iboralar: WHO, ICH, PIC, GMP, GMP bo'yicha inspektorlar.

DV dunyoning barcha mamlakatlarida talab etiladigan universal mahsulot bo'lib, uning sifati inson organizmiga havfsizligi va samara-dorligi bilan belgilanadi. DV ning dunyo bozoridagi narxi 600 milliard AQSH dollardan ortiq baholangan (2009 y), 12% millatlararo farmatsevtik kompaniyalar o'zning mahsuloti bilan qarriyb dunyo farmatsevtika bozorining 80% ni ylanrab olgan va u DV ga dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan mahsulot sifatida qarashga olib kelmoqda. Bu esa

turli region va mamlakatlar o‘rtasida dori vositalari muomalasi sohasidagi barcha me’yoriy va qonun chiqaruvchi aktlarni uyg‘unlashtirish zarur ekanligini taqazo etmoqda.

Bugungi kunga kelib dori vostalari muomalasi sohasida hujjatlarni tartibga solish bo‘yicha bir qancha halqaro va regional tashkilotlar faoliyat yurgazmoqdalar, masalan Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO), farmatsevtik injenering halqaro assotsiatsiyasi (“International Society for Pharmaceutical Engineering”- ISPE), “farmatsevtik inspeksiyalar (GMP bo‘yicha inspektorlar) hamkorlik sxemasi” (“Pharmaceutical Inspection Cooperation Scheme” -PIC/S), halqaro farmatsevtik tashkilot (FIP), regional: DV ro‘yxatdan o‘tkazishga qo‘yilgan texnik talablarni uyg‘unlashtirish (garmonizatsiyalash) bo‘yicha Halqaro konferensiya – ICH (International Conference of harmonization, www.ich.org), Osiyo janubi-sharqiy davlatlarining hamdo‘stlik tashkiloti (ASEAN), Yevropa farmakopeyasini yaratish bo‘yicha Konvensiya va b.

Dunyoning ko‘pgina davlatlarda tibbiyotda qo‘llashga ruxsat etilgan va foydalanishga kirib kelayotgan DV ning sifati ularni ishlab chiqarish jarayonini litsenziyalash orqali ta’minlanmoqda. Bunda DV yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti - GMP - Good Manufacturing Practice (DV ishlab chiqarish va sifatini nazorat qilishni tashkil etish qoidalari) tamoyillarining talablari asosida ishlab chiqarilishi kerak bo‘ladi.

Dori vositalarining dunyo bozori talablariga mos kelishini tasdiqlash uchun muayyan sertifikatlashtirish jarayonini o‘tkazish zarur. DV muomalasi sohasidagi sertifikatlashtirish ularning sifati, havfsizligi va samaradorligi, shuningdek sifatni ta’minalash va sifatni boshqarishni mosligini tasdiqlash bilan bog‘liq. Halqaro bozordagi savdo-sotiq uchun DV ni sertifikatlashtirish tizimi WHO tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy qismi bo‘lib GMP talablariga mos kelishi xisoblanadi. GMP talablariga rioya qilishdan tashqari ishlab chiqaruvchilar uchun mamlakatda dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi va ularni doimiy tekshiruvchi (2 yilda 1 martadan kam bo‘lmagan) inspeksiya tizimi tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lishi zarur.

2.1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO)

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) Birlashgan millatlar tashkilotining maxsus agentligi sifatida 1948 yilda tashkil topgan. Bugungi kunda 192 ta davlat mazkur tashkilotga a’zo. Uning faoliyatini dunyoning ayrim regionlarida joylashgan 6 ta regional byurodan tashkil topgan shtab-kvartira sekretariati boshqaradi. Tashkilotning salmoqli ishlari a’zo-davlatlar tomonidan olib boriladi. Mazkur ishlarni Sog‘liqni saqlash vazirliklari, markazlar, WHO ekspertlari va boshqa manfaatdor tashkilotlar va mutaxassislar bajaradilar.

WHO ning strategik maqsadi quyidagilardan iborat:

- o‘lim, kasallanish va ishga layoqatsizlikni kamaytirish;
- sog‘lom hayot kechirish tarzini qo‘llab – quvvatlash, atrof-muhit va kasalliklar bilan bog‘liq bo‘lgan havf-xatar omillarini kamaytirish;
- sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish;
- ilg‘or sog‘liqni saqlash tashkilotlarinining siyosatini yurgazish va tashkil etish.

WHO ning Ustaviga (Konstitutsiyasi) binoan uning vazifalariga eng avvalo oziq-ovqat, dori, biologik va boshqa mahsulotlar uchun halqaro standartlarni ishlab chiqish kiradi. Uning me’yoriy hujjatlari majburiy hisoblanmaydi, balki ulardan foydalanish xarakteri milliy darajada, ya’ni WHO ga a’zo har bir davlatning qaroriga ko‘ra majburiy, tafsiya darajasida hal etiladi. Tashkilot takliflar, uslubiy ko‘rsatmalar va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’ruzalar tayyorlaydigan ekspertlar qo‘mitalarining ishlarini tashkil etadi va rahbarlik qiladi.

DV uchun ishlab chiqilgan talablarni uyg‘unlashtirish (garmonizatsiya) uchun taklif etilgan tashkilot materiallaridan GMP va GCP qoidalari, farmatsevtik mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartib - qoidalari bo‘yicha takliflar, turg‘unligi va bioekvivalentlikni o‘rganish bo‘yicha uslublar, dori vositalarini ishlab chiqarish korxonalari va ularni tarqatish yo‘llarini inspeksiyadan (tekshiruvdan) o‘tkazish, Halqaro farmakopeyalar, halqaro biologik standartlarni tuzish kabi faoliyatini alohida e’tiborga loyiq deb takidlash joiz.

2.2. Insonlar uchun qo‘llaniladigan dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazishga qo‘yilgan texnik talablarni uyg‘unlashtirish (garmonizatsiyalash) bo‘yicha Halqaro konferensiya (ICH)

Butun dunyoda farmatsevtik ishlab chiqarishda globalashuv jarayonining rivojlanib ketishi, turli davlatlardagi har xil milliy standartlarning mavjudligi dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazishni

qiyinlashishiga olib keldi va bu 1989 yilda WHO ning Parijda dori vositalarini tartibga solish bo'yicha bo'lib o'tgan konferensiyasida mazkur masala o'z echimini topishiga sabab bo'ldi. 1990 yilda AQSH, Yevropa hamjamiyati (EH) va Yaponiya davlatlari agentligining tartibiga solish organlari namoyondalari va ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasi tomonidan garmonizatsiyalash bo'yicha Halqaro konferensiya - **ICH** tashkil etildi (www.ich.org) (ICH Jenevadagi farmatsevtik ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasining Halqaro federatsiyasi shtab-kvartirasida joylashgan).

Bugungi kunga kelib ICH tarkibiga 6 ta a'zo, 3 ta nazoratchi (ovoz berish xuquqiga ega emas) va farmatsevtik ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasining Halqaro federatsiyasi (IFPMA) kirgan.

ICH boshqaruvi organida EH, AQSH va Yaponiyadan ikkitadan vakil, bittasi davlatning nazorat organi tomonidan, ikkinchisi esa mazkur davlatning innovatsion farmatsevtika ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasi-tomonidan faoliyat yurgazadilar. Shuning uchun ushbu tashkilotni ba'zida "uch tomonlama tashabbus" deb ham ataladi.

1. EH dan:

- dori-darmonlarni baholash bo'yicha Yevropa agentligi (EMEA);
- farmatsevtik ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasining Yevropa federatsiyasi (EFPIA);

2. AQSHdan:

- dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha Adminstratsiyasi (FDA);
- AQSH farmatsevtika ishlab chiquvchi va ishlab chiqaruvchilari assotsiatsiyasi (PhRMA);

3. Yaponiyadan:

- Yaponiya SSV (MHW)dori vositalari va tibbiy texnika, mehnat va ijtimoiy masalalar bo'yicha Agentligi va sog'liq soxasi bo'yicha Milliy ilmiy instituti;
- Yaponiya farmatsevtik ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasi (JPMA).

ICH ning kuzatuvchilariga WHO, erkin savdo qilish Yevropa Assotsia-siyasi va Kanada SSV kiradi.

Bugungi kunga kelib ICH raxbariyati quyidagi 4 ta asosiy yo'nalish bo'yicha faoliyat yuritmoqda:

havfsizlik – S (Safety, bezopasnost)

samaradorlik – E (Efficacy, effektivnost)

sifat – Q (Quality, kachestvo)

soxalararo hujjatlar – M (mejditsiplinarnye dokumenty)

ICH ning asosiy maqsadi:

- inson, biologik va material resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish;
- innovatsion preparatlarni tatbiq etish jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish;
- sifat, samaradorlik va havfsizlikni ta'minlashga rioya qilgan holda Yangi dori vositalardan ko'proq foydalanishni amalga oshirish.

ICH ning vazifalari:

- dori vositalarini amaliyotga tezlik bilan kirib kelishini va bemorlarga tez etib borishini ta'minlash maqsadida tartibga soluvchi organlar va ishlab chiqaruvchilar o'rtaida konstruktiv dialog olib borish maqsadida forumlar tashkil etish (dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazishdagi farqlar);
- dori vositalarining monitoringini olib borish va uyg'unlashgan (garmonizatsiya) texnik talablarni Yangilash;
- uyg'unlashtirish (garmonizatsiyalash) yordamida terapiya va Yangi texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish texnik talablardagi farqni olib tashlash;
- uyg'unlashtirilgan (garmonizatsiyalash) yo'riqnomalarni tushuntirish va tarqatish;
- talablarni umumlashtirish.

Insonlar uchun dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazishga qo'yilgan texnik talablarni uyg'unlashtirish (garmonizatsiyalash) texnik muxokamalar, Davlat nazorati, ICH doirasidagi konsultatsiyalar, matnlarni tayyorlash va tasdiqlash, ICH qarorlarini milliy organlar tomonidan qabul qilinishi orqali amalga oshiriladi. ICH doirasida dori vositasining havfsizligini - klinikagacha bo'lgan sinovlar (zaharlilik, kanserogenlik, farmakokinetika, toksikokinetika, reproduktiv

zaharlilikni o‘rganish), klinik sinovlarni o‘tkazish bo‘yicha rejalarini tuzish, havfsizlik monitoringini olib borish, klinik sinovlarni o‘rganish rejasini tuzish va nazorat qilishda kommunikatsiya muammolari (faolliligi) va sifat (turg‘unlikni o‘rganish, analitik usullar validatsiyasi, yot moddalarga sinovlar o‘tkazish, farmatsevtik ishlab chiqarish va spetsifikatsiya) kabi savollarga echim topiladi.⁴

ICH Q10- maqsadlari:

- “Mahsulotning bozordagi aylanmasi”- ishlab chiqarish, iste’molchi talablarini ta’minlash (registratsionnoe dose)

- mahsulot sifati va nazoratning jarayonga nisbatan holati
- yaxshilanishlarning uzlusizligi ta’siri
- GMP talablarining ICH bilan bog‘liqligi.

Dori vositalari sifatini nazorat qilish

- ICH Q9 (upravlenie riskami kachestva) «Sifat: mahsulot ishlab chiqarish va iste’molchiga etib borguncha bo‘lgan jarayonni talabga javob berish darajasi» (ICH Q6A)

- ICH Q6A «Talablar: bemorlar kutayotgan natijalarni beradigan talablar va mahsulot ishlab chiqarish va iste’molchiga etib borguncha bo‘lgan jarayonga qo‘ylgan talablar».

- ICH Q6A «Sifat: qo‘llanishga tavsiya qilingan dori moddasi va dori preparatining yaroqliligi».

shunday qilib ICH doirasidagi uslubiy qo‘llanmalarni tuzishda asosan WHO, Yaponiya, Yevropa ittifoqi davlatlari va AQSH ning klinik sinovlarni o‘tkazish bo‘yicha qoidalardan (GSP) foydalanilgan va unda mazkur hujjatlarning uyg‘unlashuvi o‘z ifodasini topgan.

2.3. Standartlash bo‘yicha halqaro tashkilot (ISO)

Standartlash bo‘yicha Halqaro tashkilot (**International Organization of Standardization- ISO**) (www.iso.org) Birlashgan millatlar tashkiloti (OON) tomonidan 1946 y oktyabr oyida tashkil etilgan.

Uning asosiy vazifasi - halqaro savdo-sotiq va ilmiy-texnikaviy tariqqiyot rivojlanishiga ko‘maklashadigan halqaro standartlarni (tavsiyanomalar) ishlab chiqish. Jami ISO tarkibida 100 qo‘mita-a’zolar, ulardan tashqari a’zo-muxbirlari bor (rivojlanayotgan mamlakatlar uchun). Halqaro standartlarni (tavsiyanomalar) ishlab chiqish uchun qator komissiya va qo‘mitalar tashkil etilgan va tasdiqlangan. Bularga:

- Halqaro elektrotexnika komissiyasi (MEK) tibbiyot elektrotexnika vositalarining havfsizligini belgilab beradigan standartlarni ishlab chiquvchi qo‘mita.
- Me’yorashtirish bo‘yicha Yevropa qo‘mitasi (EKN),
- Elektrotexnikaviy me’yorashtirish bo‘yicha Yevropa qo‘mitasi (EKEN),
- Sifatni nazorat qilish bo‘yicha Yevropa tashkiloti (EOKK) va boshqalar kiradi.

MEK va ISO da jami tashkil etilgan:

Tibbiyot mahsulotlarini standartlash bo‘yicha 14 texnika qo‘mitasi; sekretariatlar - 7 tasini Germaniya, 3 - AQSH, 2 – Buyuk Britaniya, 1-shvetsiya va 1- Daniya olib boradi.

ISO ilk bor 1987 y Britaniya standarti 5750 asosida ISO 9000 sifat tizimi bo‘yicha halqaro standartini ishlab chiqdi. 1994, 2000 va 2008 yy mazkur standart qayta ko‘rib chiqildi va unga standart sifatida emas balki sifat menedjmenti tizimi (SMT) sifatida qaraladigan bo‘ldi.

ISO ning tashkiliy tizimi *rahbar organlar va. texnik qo‘mitalardan iborat. Rahbar organlarga General assambleya va kengash kirsa, texnik qo‘mitalarga texnik raxbar byuro, komitetlar osti va texnik konsultativ guruxlar kiradi.*

ISO 9000 seriya qoidalari 190 tadan ortiq mamlakatlar qabul qilgan. ISO 9000 seriya qoidalari mahsulotning hayotiy davrini barchasini o‘z ichiga olib, unda sifatga qo‘yladigan talablar iste’molchining shaxsan ishtirokida ishlab chiqiladi. Sifatni ta’minlashning an’anaviy usullarida sifat

1. ⁴ V.N. Abdullabekova, A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev “Dori vositalarini sifatini ta’minlash” o‘quv qo‘llanmasi, Toshkent, 2016y. (Toshkent, 2016. Ro‘yxatga olish raqami №26-107.OO’MTV ning 2016 y 22 yanvar 26-sonli buyrug‘i).

bilan bog'liq bo'lgan muammolarni turli xil tuzatishlar kiritish yordamida hal etilar edi. Endilikda mazkur qoidalarga muammolarni echish bo'yicha talablar kiritildi.

shuningdek, audit jarayoniga ham o'zgartirishlar kiritildi. Agar avvalari auditorning vazifasi faqatgina sifatning qo'yilgan standartda keltirilgan talablarga mos kelishini tekshirishdan iborat bo'lsa, endilikda ISO standartlarining Yangi tahririda SMT tarkibiga sifatni doimiy ravishda mukammallashtirish jarayonini kiritib borish talab etiladigan bo'ldi. Shunday qilib, auditor faqatgina sifatning qo'yilgan standartda keltirilgan talablarga mos kelishini tekshiribgina qolmay, balki olingen natijalarni tahlil etib, doimiy ravishda sifatni oshirib borish ustida ham o'ylashi talab etildi.

Bugungi kunda Yangi ISO 15378:2006 hujjat ishlab chiqildi. Mazkur standart farmatsevtika sohasi ekspertlari ishtirokida ishlab chiqilgan bo'lib, u sifat menejmenti ISO 9001:2000 va tibbiyot mahsulotlagini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va birlamchi o'ram materiallarni yetkazib berish bo'yicha GMP tamoillarini o'z ichiga olgan.

ISO 9000 – 3 ta asosiy standart va turli xil rahbar yo'riqnomalarni o'z ichiga oladi.

- ISO 9000:2005 Sifat menejmenti tizimi – Asosiy qoidalar va lug'at;
- ISO 9001:2008 Sifat menejmenti tizimi – talablar (sertifikatlashtirish uchun qo'llaniladigan halqaro standart);
- ISO 9004:2009 Sifat menejmenti tizimi - faoliyatni yaxshilash bo'yicha takliflar (doimiy yuqori yutuqlarga erishish uchun tashkilot rahbariyati sifat menejmenti tizimidan qanday foydalanish kerakligi ifodalangan).

ISO 9004:2009 da ICHQ10 dan foydalanish takliflari berilgan bo'lib, uning asosida PDCA (Plan-reja, Do-bajar, Check-tekshir va Act - harakat qil (vozdeystvuy)) majmuasi yotibdi.

2.4. Farmatsevtik inspeksiyalar (GMP bo'yicha inspektorlar) bo'yicha hamkorlik konvensiyasi (PIC)

Mazkur Konvensiya 10 ta Yevropa davlatlari va Avstraliyaning Sog'liqni saqlash milliy organlari tomonidan 1970 yilda imzolangan. **PIC** ning asosiy maqsadi:

- GMP bo'yicha inspeksiyalarni o'zaro tan olish;
- GMP talablarini uyg'unlashtirish;
- farmatsevtik inspeksiyalar tizimining bir xilligini ta'minlash;
- GMP inspektorlarini tayyorlash;
- ma'lumotlar bilan almashish;
- o'zaro ishonch.

O'tgan asrning 90 yillar boshlarida YYevropa ittifoqi va PIC o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga keldi. Bunga sabab PIC a'zosi bo'lgan ba'zi Yevropa ittifoqi davlatlariga Konvensiyaga a'zo bo'lmoqchi bo'lgan Yevropaga kirmagan davlatlar bilan bitim tuzishga ruxsat berilmadi. Bu vaqtida mazkur davlatlar bilan bitim tuzish huquqi faqat PIC a'zosi bo'limgan Yevropa Komissiyasiga berilgan edi. Shuning uchun PIC ni kengaytirish maqsadida 1995 yilda farmatsevtik inspeksiyalar bo'yicha hamkorlik sxemasi –PIC/S tuzildi. PIC/S tarkibiga davlatlar emas balki GMP qoidalariiga rioya qilishni ta'minlovchi PIC/S a'zosi bo'lgan 26 ta davlatning inspektorlari kirdi.

PIC/S ning maqsadi:

- GMP bo'yicha inspeksiyalar sohasidagi mas'ul davlat organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlash;
- mas'ul davlat organlari o'rtasida ma'lumotlarni taqdim etish va tajriba almashish;
- GMP inspektorlari va ekspertlarini tayyorlashni muvofiqlashtirish;
- dori vositalarini ishlab chiqaruvchilarni inspeksiyalash jarayonlari va texnik standartlari, shuningdek dori vositalari sifatini nazorat qilish laboratoriyalardagi nazoratni uyg'unlashtirish va takomillashtirish;
- GMP ni rivojlantirish, uyg'unlashtirish va qo'llab-quvvatlashda ko'maklashish;
- global uyg'unlashtirish maqsadida ekvivalent standartlar va jarayonlar hisobiga mas'ul davlat organlari o'rtasida kooperatsiyani kengaytirish.

PIC/S dori vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning GMP talablariga javob berishini tekshiruvchi davlat organlarini inspeksiyalovchi nufuzli halqaro organ bo'lib, inspeksiyalash tizimi,

GMP talablariga mos kelishi haqida xulosa berish; qonuniy talablarning bajarilishi yuzasidan nazoratni, shuningdek inspektorlar va ekspertlarni tayyorlashni ta'minlaydi.

3-jadval

PIC va PIC/S farqlovchi tomonlari

Ko'rsatkich	PIC	PIC/S
qabul qilingan shakli	konvensiya	sxema (tizim)
davlatlarning hamkorlik shakli	rasmiy shartnoma	tasdiqlanmagan shartnoma (norasmiy)
xuquqiy status	bor	yo'q
hamkorlik ob'ektlari	mamlakatlar	sog'lijni saqlash tashkilotlari
asosiy maqsadi	GMP talablari bo'yicha kshirishlarni tan olish	ma'lumotlar almashinushi

2.5. Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti - GMP - Good Manufacturing Practice

GMP – bu sifatni ta'minlash tizimining bir qismi bo'lib, u mahsulotni doimiy ishlab chiqarilishini va sifat standartlari asosida nazorat etilishini ta'minlaydi. GMP qoidalari birinchi navbatda har bir farmatsevtik ishlab chiqarishda bo'lishi mumkin bo'lgan va tayyor mahsulotning nazorat partiylarini tekshirishlar yordamida yo'qotib bo'lmaydigan havf-xatarni kamaytirishga qaratilgan.

GMP ning ilk qoidalari 1963 yilda AQSH da qabul qilingan va tadbiq etilgan. Unga ko'ra:

- dori vositasi sifati tayyor mahsulot tahlili orqaligina ta'minlanmaydi;
- u dori vositasini ishlab chiqarish jarayonida ta'minlanishi lozim;
- bu jarayonni nazorat qilish lozim;
- GMP farmakopeyaviy nazoratni oshiradi.

Ya'ni GMP bu:

- faqtgina eng yaxshi mahsulotlarni ishlatish;
- o'z vazifalarini to'liq va sidqildan ado etadigan yuqori malakali xodimlar;
- sifatni ta'minlash;
- bajarilishi lozim bo'lgan jarayonlarni rasmiylashtirish, ular asosida bajarish va nihoyat bajarilgan ishlarni rasmiylashtirish;
- xujjatga mos ravishda sifatli mahsulotni ishlab chiqarish kafolatini beruvchi texnologiyalardan foydalanish;
- havf-xatarni oldini olish;
- tozalik va gigienaga amal qilishdir.

Bugungi kunda GMP qoidalardan 40 tadan ortiq mamlakatlar foydalanmoqdalar va 140 taga yaqin mamlakatlar tan olganlar. Ishtirokchi mamlakatlarning mahalliy GMP qoidalari ham mavjud «Soglasheniya po farm kontrolyu» (**GMP PIC**), Yevropa Ittifoqi davlatlarining GMP qoidalari (**GMP EU**), **GMP ASEAN** (**Janubi-sharqiy Osiyo** davlatlari ishtirikchilarning Assotsiatsiyasi), shuningdek WHO ning halqaro talablari (**GMP WHO**) shular jumlasidandir.

GMP elementlari DV hayotiy davrining barcha bosqichlarida tadbiq etilmoqda, ya'ni yaxshi laboratoriya amaliyoti GLP- Good Laboratory Practice, G(Q)CLP - Good (Quality) Control Laboratories Practice, GCP -Good Clinical Practice - yaxshi klinika amaliyoti, GDP-Good Distribution Practice -yaxshi ulgurji savdo amaliyoti (raspredelenie), GSP // GTDP - // Good Storage Practice // Good Trade and Distribution Practice – yaxshi saqlash, sotish va distributsiya amaliyoti,GPP - Good Pharmaceutical Practice - yaxshi farmatsevtika amaliyoti(apteka), GRP - Good Regulation Practice- yaxshi tartibga solish amaliyoti, GEP – Good Education Practice- yaxshi ta'lim olish amaliyoti va GXP-Good X Practice (kodekslar standarti).

GMP talablari asosida ishlab chiqarishning qat'iy nizomlari:

- GMP talablari asosida dori preparatlarini ishlab chiqarish (sifatini nazorat qilish, sifat xatoliklari boshqaruvi) orqali dori vositalari sifatini ta'minlash;
- sifat standartlari asosida mahsulot ishlab chiqarilayotganligi va nazorat qilinayotganligini bildiradigan, sifatni ta'minlovchi tizim mavjudligi.

I qism. Dori vositalarini ishlab chiqarishdagi asosiy talablar:

- sifat boshqaruvi (Quality Management)
- xodimlar (Personal)
- jihozlar va joy (Premises and equipments)
- hujjatlashtirish (Documentation)
- texnologik jarayon (Production)
- sifatni nazorat qilish (Quality Control)
- shartnoma asosida ishlash (Contract manufacture and analysis)
- reklama qilish (Complains and product recall)
- ichki nazorat (Self Inspection)

II qism. Dori vositalari ishlab chiqarishda faol farmatsevtik tarkibga qo‘yilgan talablar (API):

sifat boshqaruvi (*Quality Management*)

- sifatni ta’minlash
- ishlab chiqarishga qo‘yilgan talablar (GMP)
- mahsulot sifati tahlili
- sifat menejmenti (yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoliklar)

xodimlar (*Personal*)

- umumiy talablar
- asosiy xodimlar
- malakasini oshirish
- xodimlar gigienik talablari

jihozlar va joy((*Premises and equipments*)

- joy
- Umumiy talablar
- Ishlab chiqarish zonası
- Saqlash zonası
- Sifatni nazorat qilish zonası
- Qo‘sishma zonalar
- Uskunalar

Hujjatlashtirish (*Documentation*)

- Umumiy talablar
- Zaruriy hujjatlashtirish
- Spetsifikatsiyalar
- Ishlab chiqarish texnologiyasi va texnologik instruksiya
- Qadoqlash instruksiyasi
- Ishlab chiqarilgan seriya bayonomasi

Texnologik jarayon (*Production*)

- Umumiy talablar
- Validatsiya
- Xom ashyo
- Oraliq texnologik jarayon va qadoqlanmagan mahsulot
- Qadoqlash materiallari
- Qadoqlash jarayoni
- Tayyor mahsulot
- Sifatsiz va qaytarilgan mahsulotlar

Sifatni nazorat qilish (*Quality Control*)

Sifatni nazorat qilish laboratoriysi talablari

- hujjatlashtirish
- Namuna olish
- Tahlil o‘tkazish

- Barqarorligini o‘rganish
shartnoma asosida ishslash (*Contract manufacture and analysis*)

- buyurtmachi
- ijrochi
- shartnoma

Reklama qilish va so‘rovlar (*Complains and product recall*)

- tamoil
- Reklama qilish
- so‘rovlar

Ichki nazorat (*Self Inspection*)

Tamoyillari

GMP WHO (WHO, TRS № 908, 2003) talablari

- Dori ishlab chiqarishda sifat boshqaruvi
- Sifatni ta’minlash
- Farmatsevtik preparatlarni talablar asosida ishlab chiqarish
- Sanitariya va gigiena
- Kvalifikatsiya va validatsiya
- Reklama qilish
- Mahsulot to‘g‘risida so‘rovlar
- shartnoma asosida ishlab chiqarish va nazorat tahlilinio‘tkazish
- Ichki nazorat va audit
- Xodimlar
- Malaka oshirish
- Xodimlar gigiyenasi
- Joy
- Uskunalar
- Xom ashyo va mahsulot bilan muomala
- Hujjatlashtirish
- Ishlab chiqarish jarayonining asosiy qoidalari (texnologicheskiy protsess)

Mavzu yuzasidan savollar

1. Dori vostalari muomalasi sohasida hujjatlarni tartibga solish bo‘yicha Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti roli
2. Dori vositalari sifatini ta’minlashda halqaro standartlar. GMP qoidalari
3. GMP talablari asosida ishlab chiqarishning qat’iy nizomlari
4. Dori vositalari sifatini ta’minlashda halqaro standartlar. ICH tavsiyalari
5. tayyor mahsulot va Yangi substansiyalarning turg‘unligini o‘rganishda ICH tavsiyalari
6. Dori vositalari sifatini ta’minlashda halqaro standartlar. ISO talablari
7. Farmatsevtik inspeksiyalar (GMP bo‘yicha inspektorlar) bo‘yicha hamkorlik konvensiyasi-PIC
8. Farmatsevtika sohasiga halqaro standartlarni joriy etishni muvofiqlashtirish bo‘limi va uning vazifalari

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo‘jaev - Dori vositalari sifatini ta’minlash. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.

3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.

4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

4-MAVZU: MAXALLIY VA CHET ELDAN KIRIB KELAYOTGAN DORI VOSITALARINI RO‘YXATDAN O‘TKAZISH TARTIBI

Reja:

1. Farmatsevtik mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish
2. AQSH da dori vositalarini qayd etish
3. Yevropa Hamdo‘slik davlatlarida farmatsevtik mahsulotlarni ro‘yxatdan tkazish tartibi

Tayanch iboralar: *ro‘yxatdan o‘tkazish, sifatni nazorat qilish, farmatsevtik maxsulotlar.*

Dori vositalarini ishlab chiqish, ularning xususiyatlarini (fizik-kimyoiy, farmakologik) o‘rganish, ishlab chiqarish, sotish va b. sohadagi globallashuv jarayonlari dori vositalari havfsizligi, faolligi va sifatiga qo‘yilgan halqaro talablarni kuchayishiga, shuningdek uyg‘unlashuviga olib kelmoqda.

Farmatsevtik mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish dori bozorini barcha ko‘rsatkichlari bo‘yicha muvofiqlashtirishda asosiy vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi: ruxsat etilgan vositalar ro‘yxati, ularning faolligi, havfsizligi va sifati, vrachlar va bemorlar uchun yo‘riqnomalar va b. Farmatsevtik mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazishning xozirgi kundagi asosiy maqsadi ishlab chiqaruvchining bergen ma’lumotlari asosida mazkur mahsulotni bozorga chiqarishga ruxsat berish kabi muammoni hal etishdan iborat va u GMP qoidalari bilan uzviy bog‘langan.

WHO ning ma’lumotlariga ko‘ra ko‘pgina davlatlar farmatsevtik mahsulotlar muomalasi sohasida kuchli nazorat tizimiga ega.

3.1. Farmatsevtik mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish

Farmatsevtik mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish quyidagi vazifalarni o‘z ichiga olgan: xuquqiy asosi, qayd etish siyosati, ro‘yxatdan o‘tkazish talabnomasining turlari va xajmi, ro‘yxatdan o‘tkazish uchun tayyorlanadigan hujjatlarni rasmiylashtirishi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni, ro‘yxatdan o‘tkazgandan keyingi o‘zgartirishlar va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi taskilot.

Bugungi kunda dori vositalarini qayd etish jarayoni quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

1. qonuniy asoslari;
2. qayd etish siyosati;
3. ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnama turlari va ko‘rinishi;
4. qayd etish uchun to‘plangan hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar;
5. qayd etish jarayoni;
6. ro‘yxatdan o‘tgandan keyingi o‘zgartirishlar;
7. qayd etuvchi organ.

Mazkur ketma-ketliklarni amalga oshirishda ma’lum regional va milliy farqlar ham mavjud, masalan, Amerika, Yevropa va boshqa mustaqil (Norvegiya, Avstraliya va b.) modellarni olish mumkin. Ba’zi davlatlarda ushbu jarayon farmatsevtik mahsulotlarni litsenziyalash, ba’zilarida – ularni sotish uchun yoki olish uchun ruxsat berish, yoki maqullash (AQSH) deyiladi. Yevropada bu jarayon milliy va regional bosqichlarda amalga oshiriladi va EH davlatlarining barchasiga taaluqli bo‘lib, uni mustaqil ekspertlar amalga oshiradi.

Dori vositalarini qayd etishning qonuniy assoslari. Dori vositalarini qayd etish jarayoni dori vositalari to‘g‘risidagi qonunlarning markaziy qismini tashkil etadi. Davlat dori vositalarini sotish va tarqatishni, shuningdek qaysi dori vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish kerakligini tartibga soladi. Rivojlangan mamlakatlarda ro‘yxatdan “dori vositasi” emas balki “farmatsevtik (yoki dorivor)

mahsulot”, ya’ni ma’lum ishlab chiqaruvchining tayyor dori vositasi o’tkaziladi. Substansiyalar esa ro‘yxatdan o’tkazilmaydi, ammo farmakopeya talablari (yoki master-fayl) asosida baholanadi. Qonunda qayd etish organlarining vazifalari, qayd etish hujjatlari va ularga qo‘yilgan talablar, ularni ko‘rib chiqish qoidalari va muddatlari belgilangan bo‘ladi.

Dori vositalarini qayd etish siyosati. Dori vositalarini qayd etish siyosati dori vositalari to‘g‘risidagi qonunlarda belgilab berilgan. Bu siyosat liberal (EH davlatlarida kabi) yoki cheklovchi bo‘lishi mumkin. Masalan, Yevropa direktivalariga ko‘ra dori vositasi faqat faolligi, havfsizligi yoki sifati bo‘yicha talablarga to‘g‘ri kelmasa qaytarilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda dori vositasining farmatsevtik bozorda xuddi shunday o‘xhashi bo‘lganligi yoki narxi balandligi sababli ro‘yxatdan o’tkazmasligi mumkin emas (bunday davlatlarda qayd etilgan dori vositalarining soni 25-25 mingtani tashkil etadi). Norvegiyada esa faqatgina Yangi orginal dori vositalari ro‘yxatdan o’tkaziladi (qayd etilgan dori vositalarining soni 5 mingta).

Dori vositalarini ro‘yxatdan o’tkazish uchun talabnomalar va ko‘rinishi. Bugungi kunda qayd etish organlarida dori vositalarini ro‘yxatdan o’tkazish maqsadida talabnomaning 3 xil ko‘rinishi mavjud:

- to‘liq talabnomalar (innovatsion yoki orginal preparat uchun);
- qisqartirilgan talabnomalar (djeneriklar uchun);
- qayd etilgan preparat talabnomasiga o‘zgartirishlar yoki qo‘shimchalar.

Djeneriklar uchun qayd etish jarayoni qisqartirilgan ko‘rinishda amalga oshiriladi va odatda “havfsizlik” va “faollik” bo‘yicha hujjatlar talab etilmaydi. Taqdim etilayotgan hujjatlar to‘plami “ro‘yxatdan o’tkazish uchun dose – registratsionnoe dose” deb yuritiladi. Ro‘yxatdan o’tkazish uchun dose 4 ta asosiy bo‘limlardan iborat: “rezyume dose- dose rezyumesi”(mahsulot va uni ishlab chiqaruvchi to‘g‘risida ma’lumot), “sifat”(mahsulotning fizik, kimyoviy va farmakologik xususiyatlari, ishlab chiqarish va nazorat to‘g‘risida ma’lumotlar), “havfsizlik”(klinikagacha bo‘lgan sinovlar, hayvonlarda yoki b. o‘rganilgan tibbiy-biologik xususiyatlari) va “faollik” (klinik sinovlar natijalari).

Xozirgi kunda ICH talablari asosida “Umumiy texnik hujjat” (общий технический документ-СТД Директива Евросоюза 2003/63/ES от 25 июля 2003 г) ishlab chiqilgan.

“Umumiy texnik hujjat”(СТД) 5 moduldan tashkil topgan:

- 1-modul - regional adminstrativ ma’lumot;
- 2-modul – sifat, klinikagacha va klinika bo‘yicha rezyume va umumlashtiruvchi ma’lumot;
- 3-modul –“sifat” bo‘limi;
- 4-modul –klinikagacha bo‘lgan sinovlar to‘g‘risida xisobot;
- 5-modul –klinik sinovlar to‘g‘risida xisobot.

Shu erda rezyume va umumlashtiruvchi ma’lumot to‘g‘risida aytib o‘tish joiz. Rezyume mustaqil ekspert tomonidan tuziladi va imzolanadi, unda ro‘yxatdan o’tkazish maqsadida ma’lum bo‘lim ma’lumotlarining yaroqliligini baholash natijalari keltirilgan bo‘ladi. Umumlashtiruvchi ma’lumot esa ariza bergen tashkilot tomonidan ishlab chiqiladi va bunda dose tarkibi umumlashtiriladi.⁵

Qayd etish uchun to‘plangan hujjatlarga talablar. Qayd etish uchun to‘plangan hujjatlarning tarkibi va xajmi, shuningdek tayyorlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar ko‘pgina davlatlarda qonunosti aktlarda belgilagan bo‘ladi. Mazkur talablar sifat tizimining muhim elementlaridan hisoblanadi. Ro‘yxatdan o’tkazish uchun dose (регистрационное дозе – RD) tayyorlangan hujjatlarini tekshirish, ro‘yxatdan o’tkazish jarayonini yengillashtiradi va tezlashtiradi.

Talablarni 2 ta toifaga bo‘lish mumkin: 1.bor bo‘lgan ma’lumotlar (ishlab chiqarish jarayonining bayoni, tatqiqotlarni (turg‘unlik, biosamaradorlik, farmakologik, toksikologik va b.) olib borish uslublari va ularning natijalari keltirilgan;

1. ⁵ V.N. Abdullabekova, A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev “Dori vositalarini sifatini ta’minlash” o‘quv qo‘llanmasi, Toshkent, 2016y.

(Toshkent, 2016. Ro‘yxatga olish raqami №26-107.OO‘MTV ning 2016 y 22 yanvar 26-sonli buyrug‘i).

2.EH ning instruktiv-uslubiy ko‘rsatmalari. Ular bir qancha bo‘limlarda (A.I.S va D) yoritilgan bo‘lib, o‘nlab hujjatlarni o‘z ichiga olgan. Mazkur hujjatlarda Yangi preparatlarning farmatsevtik, farmakologik, ekologik va klinik tatqiqotlar muammolari, shuningdek ishlab chiqarishga tayyorlash va sifatni ta’minlash kabi masalalar yoritilgan bo‘ladi.

Dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni. Dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoniga taqdim etilayotgan hujjatlarni ko‘rib chiqish qoidasi va muxlati, to‘liq talabnomaga (innovatsion yoki orginal preparat uchun), qisqartirilgan talabnomaga (djeneriklar uchun), qayd etilgan preparat talabnomasiga o‘zgartirishlar yoki qo‘sishimchalar kiritish, apellyasiya mexanizmining mavjudligi, qayd etish to‘lovlari va boshqa elementlarni kiritish mumkin.

Dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazishda ba’zada qisqartirilgan jarayoni qo’llaniladi, bunda dori vositasining farmatsevtika bozorida tezlik bilan paydo bo‘lishi tibbiyot yoki sotsial amaliyotda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunday dori vositalari uchun ro‘yxatdan o‘tkazishning barcha bosqichlarida ushlanib turishlar olib tashlanadi, klinik sinovlarning 3-fazasi tugallanmasdan so‘tish huquqi beriladi. Ushbu holatda klinik sinovlarning 3 -fazasi 4-fazaga aylanadi.

Talabnomalarni ko‘rib chiqish tashqi ekspertlar va nazorat tizimi tomonidan amalga oshiriladi. AQSH da bunday ishlarni davlat organlari amalga oshiradi.Ba’zan taqdim etilayotgan hujjatlar to‘plami bir necha nusxalarda bo‘ladi va bunda ular turli rangdagi jildlarga joylashtiriladi. Masalan, spetsifikatsiyalar va analistik uslublar qizil rangdagi jildga, ishlab chiqarish bayoni-ko‘k jildga, farmakologik-yashil rang va x.k. Bunday saralash registratsion organlarning texnik xizmatchilariga qulaylik yaratadi, ya’ni ularni rangiga qarab osongina taqsimlash imkonи bo‘ladi: spetsifikatsiyalar – nazorat-tahlil laboratoriylariga, ishlab chiqarish bayoni – GMP inspektorlariga va x.k. Shu tufayli bunday hujjatlarni tekshirish tezlashadi.

Dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida eng qiyin tomonlaridan biri bu talabnomalarni ko‘rib chiqish muhlatidir. Belgilangan 6 oy muxlat o‘zini oqlamadi, shuning uchun qayd etish jarayonini bosqima-bosqich ko‘rib chiqish tizimi joriy etildi (talabnomaga hujjatlarini ko‘rib chiqish reglamenti - Yevropacha tizim), ya’ni har bir bosqichga alohida vaqt ajratiladi (jami 210 kun), etishmayotgan hujjatlarni etkazish uchun ketgan vaqt umumiy vaqtdan olib tashlanadi (“soatning to‘xtab qolishi” tamoili).

Ro‘yxatdan o‘tgandan keyingi o‘zgartirishlar. AQSH va EH davlatlarida sifatsiz mahsulotlarni chiqarish havfi va istemolchiga havf tug‘dirishi darajasiga qarab ruxsat etilgan o‘zgartirishlarning aniq tasnifi keltirilgan.

EH davlatlarida o‘zgartirishlar 2 turga bo‘lingan: muhim bo‘lmagan I (A va V) jami 47 turi va II-muhim bo‘lgan (Yangi talabnomaga talab etiladi). Bunday xollarda tartibga soluvchi organ bilan dastlabki ruxsat kelishib olinadi, muhim bo‘lmagan xollarda esa to‘g‘ridan – to‘g‘ri o‘zgartirish kiritiladi.

- Agar dori vositasi uchun Yangi tarkib tanlangan bo‘lsa, Yangi talabnomaga taqdim etiladi, Yangitdan qayd etiladi va Yangi shaxodatnomasi beriladi, shaxodatnomasi muxlati unga berilgan vaqtdan boshlab xisoblanadi.

- Muxim bo‘lmagan o‘zgartirish yoki qo‘sishimchalar uchun tartibga soluvchi organdan ruxsat olinadi va o‘zgartirish uchun talabnomaga taqdim etiladi.Bunda avvalgi qayd etish raqami qoladi va muxlati o‘zgartirilmaydi.

- Muhim bo‘lgan o‘zgartirishlar haqida tartibga soluvchi organga xabar beriladi va agar organdan rad etish javobi olinmasa (masalan 2 oy), unda o‘zgartirishlar organning ruxsatisiz ham amalga oshiriladi.

- Unchalik muhim bo‘lmagan o‘zgartirishlar so‘ngi habarlarda keltiriladi va ular yillik xisobotlarga kiritiladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazish organi. Rivojlangan mamalakatlar tajribasi va WHO ning tavsiyalariga ko‘ra dori vositalarining ro‘yxatdan o‘tkazish organi SSV qoshida bo‘lib, sohaga taaluqli bo‘lgan barcha masalalarini o‘z qo‘liga olgan institut yoki agentlik ko‘rinishidagi mustaqil organ bo‘lishi kerakligini ko‘rsatdi. Aksariyat xollarda mazkur nazorat organlarining nomi va vazifalari qonunlashtirilgan bo‘lib, ularning byudjeti parlament tomonidan tasdiqlanadi. Organning rahbari

SSV dan ham yuqori darajada bo‘lgan tashkilot tomonidan tayinlanadi va olib tashlanadi. Ya’ni SSV nazorat organining faoliyatiga ta’sir ko‘rsata olmaydi.

SSV asosan organning faoliyati, talabnomalarni ko‘rib chiqish muddatlari, qabul qilinayotgan qarorlar yuzasidan umumiy nazorat olib boradi, tibbiyotga kerak bo‘lgan dori vositalarini qaytarilmasligi va faolligi kam bo‘lgan dori vositalarini ro‘yhatdan o‘tkazmaslikni kuzatib turadi.

Dori vositasini qayd etish uchun taqdim etilayotgan hujjatlar konfedensial bo‘lib, ularni hattoki farmakopeya qo‘mitasi va komissiya ham ko‘rishga yoki ekspertiza qilishga haqqi yo‘q, garchi spetsifikatsiyalar loyihamalarini tekshirishda tegishli mutaxassislar qatnashishlari mumkin. Shuning uchun organ xodimlari va tashqi ekspertlar tegishli shartnomalarni imzolaydilar.

3.2. AQSH da dori vositalarini qayd etish

AQSH da dori vositalarini qayd etish, ishlab chiqarish korxonalar inspeksiyasi, maxalliy va import qilinayotgan barcha mahsulotlar sifatini nazorat qilish bo‘yicha FDA – food and drug Administration shug‘ullanadi. Umuman olganda AQSH da dori vositalarini qayd etish tizimi majud bo‘lmay, u erda “maqullash” deb ataladi va dori vositalarining reestri ham mavjud emas. Nazorat markazlashgan xolda olib boriladi. Federal ahamiyatga ega bo‘lgan qonunlar va farmoyishlarni AQSH kongressi (milliy davlat organi) tasdiqlaydi, uning ijrosi esa FDA tomonidan ta’milanadi. Dori vositalarining sifatini nazorat etish bo‘yicha 4 ta federal qonun ishlab chiqilgan:

Federal Food, Drug and Cosmetic Act

Generic Drug Enforcement Act

Fair Packigning and Labelling Act

Public health Services Act

Dori vositalarini qayd etish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- Yangi dori vositasining klinik sinovlarini o‘tkazish uchun talabnama (IND);
- Yangi dori vositasi uchun arznama (NDA);
- Yangi dori vositasi (jenerik) uchun qisqartirilgan arznama (ANDA);
- dori vositasining master-fayli uchun talablar (DMF).

3.3. Yevropa Hamdo‘stlik davlatlarida farmatsevtik mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi

Yevropa Hamdo‘stlik davlatlarida farmatsevtik mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazishda quyidagi huquqiy asoslarga tayaniadi:

Qarorlar (postanovlenie-regulations) barcha EH davlatlariga majburiy xisoblanadi va ular milliy standartlar tarikibiga kiritilishi shart emas.

Qoidalar (rules) va ko‘rsatmalar (guidelines) barcha EH davlatlariga majburiy xisoblanadi.

Direktivalar (directives) barcha EH davlatlariga majburiy xisoblanadi va ular milliy standartlar tarikibiga kiritilishi shart.

Qarorlar (decisions) barcha EH davlatlariga majburiy xisoblanadi .

Takliflar (recommendations) barcha EH davlatlariga majburiy emas, ammo ularidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Dori vositalari ustidan Davlat nazorati EH ga a‘zo mamalakatlarining davlat organlari hamda farmatsevtik inspeksiyalar (faoliyat PIC/S tomonidan muvofiqlashtiriladi) tomonidan amalga oshiriladi. Dori vositalari muomalasini muvofiqlashtiruvchi qoidalar 9 jilda ifoda etilgan. Masalan, 2 jilda dori vositasini qayd etish uchun kerak bo‘ladigan xujjalalar ro‘yxati, qayd etish dosesi (obiq‘iy texnicheskiy dokument-common technical document-CTD), 3 jilda dori vositasining sifati, bezararligi va faolligi bo‘yicha ICH ning yo‘riqnomasi, 4 jild-GMP ning umumiy va xususiy talablari va b.

Yevropa davlatlarida farmatsevtik mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazishda mintaqaviy va milliy standartlar uyg‘unlashtirilgan, va ahamiyatli joyi shundaki, mahsulotni ro‘yxatdan o‘tkazilayotganda talabnomaga ishlab chiqaruvchiga bog‘liq bo‘lмагan ekspertlarning mazkur dori vositasining “sifat”, “havfsizligi” va “faolligi” to‘g‘risida bergen xulosalari ilova qilinishi kerak. Shuningdek, Yevropa modelining o‘ziga xos tomonlaridan biri bu “sifat” bo‘limining “farmatsevtik ishlab chiqarish” qismi, sifat “dose” bo‘limida spetsifikatsiya qismini Yevropa farmakopeyasini xisobga olgan xolda baholash, dozalangan dori vositalari uchun xom ashyo sifatida foydalaniladigan

farmatsevtik substansiyalarning sifatini ta'minlash-ning o'ziga xos xususiyatlari – "Masterfayl"(DMF) ning Yevropacha varianti va "Yevropa farmakopeyasining sertifikati"dir.

Yevropa Davlatlarida farmatsevtik mahsulotlarning yagona bozorini tashkil etish maqsadida EES/2309/93 qaror bilan 1995 y Yevropa parlamenti tomonidan tibbiyot mahsulotlari sifatini nazorat etish bo'yicha Yevropa agentligi tashkil etildi –The European Agency for the Evaluation of Medical Products – EMEA.

EMEA asosiy vazifasi:

- tibbiyot mahsulotlarining sifatini ob'ektiv baholashni ta'minlash muammolari bo'yicha shug'ulanayotgan ilmiy salohiyotdan foydalanish;
- soha mutahassislarini va iste'molchiga dori vositalari haqida kerakli ma'lumotlarni taqdim etish;
- yagona Yevropa bozoriga kirib kelayotgan Yangi dori vositasini iste'molchiga etib borishi jarayonini ishlab chiqish;
- Farmakonadzor tashkiloti tomonidan dori vositalari havfsizligini nazorat etish.

EMEA 2 ta ilmiy qo'mita va doimiy faolyat yurituvchi sekritariyatdan tashkil topgan (dori vositalarini patentlash va veterinariya uchun qo'llaniladigan mahsulotlar bo'yicha).

Yevropa Davlatlarida dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish va sotish uchun litsenziya olish bo'yicha 4 jarayon qabul qilingan: markazlashgan va markazlashmagan, milliy va o'zaro tan olish jarayoni.

Markazlashgan jarayon asosan biotexnologik va innovatsion yo'l bilan olingan, hamda orfan (kam uchraydigan kasalliklar) dori vositalari uchun qo'llaniladi. Farmkompaniya EMEA ni qayd etishdan 7 oy oldin markazlashgan jarayon asosida o'z dori vositasini ro'yxatdan o'tkazishi haqida xabardor qiladi. Mazkur davlatning nazorat etuvchi organining eksperti hujjatlarni ilmiy o'r ganib chiqadi va xisobot tayyorlaydi. Hujjatlar STD formatda tayyorlanadi. Ro'yxatdan o'tish uchun tayyorlangan hujjatlar taqdim etilayotgan ma'lumotlarning to'liqligiga yaxshilab tekshiriladi (210 kun). Agar davlat mazkur dori vositasiga extiyoj sezsa u ekspertiza jarayonining tezlashtirilgan turidan foydalanishi mumkin (150 kun). Ekspertiza tugagandan so'ng arizachiga xulosalarini jo'natadi. Xulosa ijobjiy yoki aksi bo'lishi mumkin. Agar javob ijobjiy bo'lsa dori vositasi uchun ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida shaxodatnomasi beriladi va 5 kundan so'ng talabgor dori vositasi to'g'risida ma'lumot, yorliqlash va tibbiyotda qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi (EH 20 xil tilda) taqdim etishi kerak bo'ladi. EMEA har yili ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha olib borgan ishlari yuzasidan ma'lumotlarni chop etadi.

Har bir EH davlati o'zining qayd etuvchi milliy organi va tizimiga ega. Bunda farmkompaniya EH xoxlagan davlatida o'z mahsulotini qayd etishi mumkin.

Markazlashmagan jarayonda farmkompaniya dori vositasini ro'yxatdan o'tkazish maqsadida bir vaqtning o'zida talabnomani bir necha davlatlarga taqdim etishi mumkin. Dori vositasi bir davlatda ro'yxatdan o'tgandan so'ng keyinchalik EH ning boshqa davlatida ham tan olinishi mumkin (o'zaro tan olish). Dori vositasini ilk qayd etgan mamlakat referent davlat bo'lib xizmat qiladi va u boshqa davlatlarga bu haqda habar beradi. Dori vositasining sifati, havfsizligi va faolligi bo'yicha olingan xulosalar nusxalarini boshqa qiziqqan davlatlarga etkazadi. Dori vositalarini bozorda sotishga ruxsat olish uchun ularni ro'yxatdan o'tkazish uchun kerak bo'ladigan barcha hujjatlar taqdim etiladi: javobgar shaxs, kerak bo'lsa ishlab chiqaruvchi korxonaning doimiy turar joyi, dori vositasining nomi, sifati to'g'risi ma'lumotlar, olinish texnologiyasi, terapevtik faolligi, dozasi va b., shuningdek o'zi yashayotgan davlatda dori vositasini sotish uchun olgan ruxsatnomasi, uchinchi davlat tomonidan mazkur dorini sotish uchun berilgan boshqa ruxsatnomalar, ekspertlarning xisobotlari va hujjatlar ekspertizasi.

EMEA taqdim etilgan hujjatlarni yaxshilab tekshiradi, kerak bo'lsa boshqa ekspertlarni taklif etadi. Ruxsatnomasi 5 yilga beriladi. Dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish va litsenziya olishning markazlashmagan turida bir davlatda dori vositasini sotish uchun litsenziya olgan farmatsevtik kompaniya Yevropa hamdo'stligi a'zosi bo'lgan boshqa davlatlariga olingan ruxsatnomani tan olishlarini so'rab murojaat etadi.

Havf xatarlarni oldini olish maqsadida EH davlatlaridagi doimiy ravishda ishlab chiqaruvchi korxonalarida GMP talablari bo'yicha tekshiruvlar olib boriladi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Dori soxasidagi standartlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish
2. Farmatsevtik mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish.
3. Dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnomaga turlari va ko‘rinishi
4. Dori vositalarini qayd etishning qonuniy asoslari.
5. Dori vositalarini qayd etish siyosati
6. Dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnomaga turlari va ko‘rinishi
7. Qayd etish uchun to‘plangan hujjatlarga talablar
8. Ro‘yxatdan o‘tgandan keyingi o‘zgartirishlar
9. Dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni
10. Farmatsevtik mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish. Halqaro tajriba

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minalash. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

5-MAVZU: FARMATSEVTIKA KORXONALARING NAZORAT TAHLIL LABORATORIYALARIDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMI

Reja:

1. Farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish
2. Sifatni nazorat qilish bo‘limi faoliyatining tamoillari
3. Nazorat tahlil laboratoriylarida (dori vositalari sifatini nazorat qilish markazlari) dori vositalari sifatini nazorat qilish

Tayanch iboralar: *Sifatni nazorat qilish bo‘limi, Nazorat tahlil laboratoriysi, dori vositalari sifatini nazorat qilish markazlari.*

5.1. Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish

Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish deganda mahsulotni belgilangan tartibda ishlab chiqarilishini ta’minalash va tayyor dori vositasini ishlab chiqarish hayotiy davrini nazorat etib borish tushiniladi va u quyidagi qismlardan iborat:

- sifatni ta’minalash
- yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti
- sifatni nazorat qilish.

Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarida seriyalab (turkum) chiqarilayotgan dori vositalarining texnologiyasi va sifatini nazorat qilishda asosiy hujjat bu ishlab chiqarish reglamentidir. Mazkur reglament ishlab chiqaruvchi korxona bilan sohaning ilmiy-tadqiqot institutlari hamkorligida ishlab chiqiladi. Reglament tarkibida dori vositasining sifatiga qo‘yilgan talablar keltiriladi va ular xuddi FM, VFM va KFM kabi huquqiy hujjat bo‘lib hisoblanadi. Belgilangan talablarni bajarilishi sifatni nazorat qilish bo‘limiga yuklatiladi. Sanoat reglamenti bosqichma-bosqich ishlab chiqiladi:

1. Laborator reglamenti (laboratoriya sharoitida ishlab chiqarish).

2. Tajriba – sanoat reglamenti va loyixa hujjatlari asosida (tajriba uchastkasida dori vositasini ishlab chiqarish va uning sifatini baholash).

3. Tajriba-sanoat reglamenti va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari asosidagi loyiha hujjatlari bo'yicha Yangi dori moddasi yoki dori shaklini ishlab chiqish (puskavoy reglament).

4. Sanoat reglamenti.

Sanoat reglamenti bir necha qismlardan iborat, jumladan texnik va analitik nazorat o'tkazish qismi. Mazkur qismda sifatni nazorat etish tartibi aniq qilib belgilangan, ya'ni nazorat ob'ekti va vositalari, nazorat etilishi shart bo'lgan o'lchamlar, ularning me'yorlari, tozalash usullari va takrorlanishi.

Mazkur reglamentning "ishlab chiqarish nazorati" qismida nazoratning bosqichma-bosqich o'tkazilish tartibi va ketma-ketligi bayon etiladi. Texnologik jarayonning tahlil uchun namuna olish nuqtalari va namunalarni tahlil qilish usullari, shuningdek tekshirilishi shart bo'lgan o'lchamlar ro'yxati keltiriladi. Reglamentda yana xom ashyo, yarim tayyor, oraliq mahsulot, yordamchi vositalar va tayyor mahsulotlarni nazorat qilish tizimi yoritiladi, xom ashyo va yordamchi vositalar nazorati ishlab chiqarishdan avval olib boriladi.

Reglamentning "oxirgi (tayyor) mahsulot tavsifi" bo'limida mahsulotning xossalari, turi va qadoq shakllari, turg'unligiga ta'sir etuvchi omillar (yorug'lik, namlik, kislород va karbonat angidridi, bosim, rN va x.k.) va b. bayon etiladi.

Qayd etilgan xolatlarda eng muhim o'rinni analitik tahlil usullari egallaydi. Analitik tahlil 3 xil darajada olib boriladi:

Birinchi lokal daraja - faqat bitta jarayon (bitta reaksiya, bug'latish, filtrlash va b.) nazorat etiladi. Mazkur holatda oraliq mahsulot hosil bo'ladi va u keyingi tozalash bosqichiga o'tkaziladi. Bunday holatlarda tezkor usullar, ya'ni jarayonni to'xtatib qo'yolmaydigan refraktometriya, kolorimetriya, rN metriya, GSX va YUSSX uslublardan foydalaniadi.

Ikkinci bosqichda nazorat yoki analitik tahlil texnologik jarayonning barcha bosqichlarida, shuningdek tozalash va ajratib olish kabi jarayonlarda olib boriladi. Ushbu bosqichda yarim tayyor mahsulot hosil bo'ladi. Ushbu holatlarda sellektiv fizika-kimyoviy usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: xromatografiyaning barcha turlari, spektrofotometriya, polyarografiya, potensiometrik titrash va b. Mazkur nazoratning maqsadi keyinchalik ishlab chiqarishda tuzatish mumkin bo'lgan o'lchamlarni aniqlashdir.

Nazoratning eng yuqori 3-darajasida tayyor mahsulotning sifati va sonini, shuningdek xom ashyo va energiyaning sarf-harajatini ham aniqlash imkonini berishi lozim. Tahlillar MH (FM, VFM, KFM) asosida olib boriladi va bunda usulning selektivligi hamda aniqligi ahamiyatga ega bo'ladi.

Ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida analitik nazoratni olib borish sifatni nazorat qilish bo'limi yoki texnik nazorat bo'limi (SNQB) zimmasiga yuklatiladi. SNQB yuqori malakali xodimlar, zamonaviy asbob-uskunalar to'plami, reaktivlar, MH da keltirilgan analitik usullar va bosqichli nazoratni o'tkazish yo'riqnomalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.⁶

SNQB xodimlari tasdiqlangan yo'riqnomalar aosida xom ashyo, yordamchi va qadoqlovchi mahsulotlar, yarim tayyor va tayyor mahsulotlardan namuna oladilar va MH muvofiqligi bo'yicha kirish nazoratini olib boradilar.

SNQB tarkibi ishlab chiqarish xajmi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Uning tarkibiga ko'pincha nazorat tahlil (kontrolno-analiticheskaya), biologik, toksikologik va boshqa laboratoriylar kiradi. SNQB korxona direktoriga bo'ysunmaydigan erkin faoliyat yurituvchi bo'lim hisoblanadi (sifatni ta'minlash bo'yicha Direktor). Bo'lim korxona direktori buyrug'i asosida tuziladi va tarqatib yuboriladi. SNQB boshlig'i korxona direktori buyrug'i asosida tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. SNQB bo'limi boshlig'i sifatida boshqaruv bo'limida 3 yil faoliyat yuritgan, oliy ma'lumotli farmatsevt, ximik-texnolog, biotexnolog va tibbiyot xodimlarini tayinlash mumkin. SNQB boshlig'i o'z o'rindbosariga ega va uning faoliyati SNQB boshlig'i tomonidan

1. ⁶ V.N. Abdullabekova, A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev "Dori vositalarini sifatini ta'minlash" o'quv qo'llanmasi, Toshkent, 2016y.

belgilab beriladi. O‘rnbosar va boshqa lavozimlarga xodimlar SNQB boshlig‘i tavsiyasi va direktor buyrug‘i asosida ishga qabul qilinadi va lavozimidan ozod qilinadi. Bo‘lim o‘z faoliyatida korxonaga va sifatni nazorat qilishga oid qonunlar, uslubiy qo‘llanmalar, bo‘yruqlar va ishlab chiqarishdagi sifatni nazorat qilishga oid hujjatlar bilan ishlaydi.

5.2. Sifatni nazorat qilish bo‘limi faoliyatining tamoillari

Farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida yaxshi laboratoriya amaliyoti sifatni ta’minlash tizimining eng asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib hisoblanadi, u GMP talablari asosida tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatishi kerak. Korxonada sifatni ta’minlash tizimi faol ishlashi uchun sifatni nazorat qilish bo‘limi (SNQB) va sifat nazorati laboratoriysi tashkil etilgan bo‘lishi kerak. Sifatni nazorat qilishga qo‘yilgan talablar sifat menejmenti tizimining bo‘linmas qismi bo‘lib hisoblanadi.

Korxonada sifatni nazorat qilish uchun tegishli tuzilish, shtat va hujjatlar mavjud bo‘lishi kerak, chunonchi:

- instruksiyalar va ishlarni to‘g‘ri bajarish uchun SOJ (SOP)
- xizmat vazifikasi bilan bog‘liq bo‘lgan instruksiyalar
- hujjatlar aylanishining tartib qoidalari
- uslubiy ta’mnot.

SNQB va laboratoriya kerakli xonalar, jixozlar, asbob-uskunalar, reaktivlar, standart namunalar, jonivorlar va materiallar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

SNQB ning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- kirish nazorat
- ishlab chiqarishning bosqichli (postadiyniy-operatsionnyiy) nazorati
- xodimlar nazorati
- atrof-muhit nazorati
- ishlab chiqarish binolari va jixozlarining nazorati
- tayyor mahsulot nazorati
- to‘g‘rilash harakatlarining nazorati
- shikoyatlar nazorati.

Tarozlar turgan joy vibratsiya va elektromagnit nurlanishlardan yiroqda joylashgan; namunalar olinadigan va xromatografik asbob-uskunalar joylashgan xonalarda tortadigan mo‘rilar bilan ta’minlangan; namunalar olinadigan, spektral va xromatografik asbob-uskunalar joylashgan xonalar bir – biridan ajratilgan, shuningdek, arxiv namunalar, reaktivlar, standart namunalarni saqlash xonalari alohida joylashgan bo‘lishi lozim.

Mikrobiologik va fizik-kimyoviy tahlil laboratoriyalari alohida-alohida joylashgan, mikobiologik laboratoriya xonasi havoni tozalovchi blok va havoni tortib oluvchi mo‘ri bilan jixozlangan bo‘lishi kerak.

Laboratoriyalarda foydalanilayotgan asbob-uskunalar, tahlil usullari barchasi validatsiyalangan bo‘lishi lozim. Shuningdek, asbob-uskunalar, barcha qo‘llanilayotgan kimyoviy o‘lchov idishlari Davlat standartining reestriga kiritilgan va sertifikatlashtirilgan bo‘lishi talab etiladi. O‘lchov asboblari yilda bir marta kalibrani turilishi kerak.

Nazorat tamoillari:

- malakali xodimlarning bo‘lishi
- rahbariyatga so‘zsiz bo‘ysinish
- sifatli ish
- ichki audit

SNQB korxonaning boshqa bo‘limlari, jumladan korxona rahbariyati, mas‘ul shaxs va sifatni ta’minlash kabi bo‘limlar bilan hamkorlikda ishlaydi. Laboratoriyalarda faoliyat yuritayotgan xodimlar doimiy ravishda o‘z malakalarini oshirib borishlari lozim. Buning uchun malaka oshirish rejasi tuziladi, malaka oshirish imtixon topshiriladi va attestat olish bilan tugallanadi.

SNQB ning vazifalari:

- Dori vositalari ishlab chiqarishini tashkil etish, loyixasini tuzish, muxandislik tizimi, jihozlanganlik darajasi, atrof-muhit ta’siri, namuna tanlash, tajribalarni olib borilishi, usullarni validatsiyalash va hujjatlashtirish

- Hujjatlar asosida har bir ishlab chiqarilayotgan mahsulot seriyasining sifatini ta'minlash
- VFM talabiga javob bermaydigan dori vositalarining ishlab chiqarishni to'xtatish
- Analtik tahlilda har bir jarayonning standartlar asosida to'liq bajarilishini ta'minlash
- Ishlab chiqarishda sifatini ta'minlaydigan jarayonlarni samaradorligini oshirish
- Xom ashyo, qadoqlov materiallari va yarim tayyor mahsulotlarning sifatliliginini ta'minlash
- Tayyor mahsulot sifatini nazorat qilish, saqlanish jarayonidagi turg'unligini kuzatish
- Xom ashyo, qadoqlov materiallari va yarim tayyor mahsulotlarning sifatliliginini hujjatlashtirish
- Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni boshqaruv bulimiga ma'lum qilib, ularni hal etish yoki jarayonni to'xtatish
- Ishchi instruksiyalarni ishlab chiqish (SNQB faoliyatiga tegishli standart operatsion jarayon -SOJ).
- Texnologik reglamentlar asosida dori vositalari sifatini ta'minlanayotganini ichki nazorat va audit o'tkazish bilan aniqlash
- Joy va jihozlarning validatsiyasida qatnashish.
- Xodimlarning malakasini oshirish va attestatsiya jarayonida qatnashish.
- Ishlab chiqarilayotgan dori vositasi uchun me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish (FSP, texnologik reglamentlar, spetsifikatsiyalar) va o'zgartirishlar kiritish
- Mahsulot sifati hisobi, ishlab chiqarilgan mahsulot talabga javob bermagan taqdirda tahlil xatoliklarini aniqlash, ishlab chiqarishdagi muammolarni hal qilish va hisobini olib borish.
- Dori vositalari ishlab chiqarishda mikrobiologik monitoring o'tkazish
- Texnologik jarayonda ishlatiladigan maxsus kiyimlar nazorati
- Tozalangan va in'eksiya uchun ishlatiladigan suvning biologik, fizik-kimyoviy nazorati
- Sifatsiz bo'lgan dori vositalarning yo'qotilishini ta'minlash
- Har bir seriya mahsulotlarning namunalarini talab etilgan sharoitlarda arxivda saqlash
- Yangi analitik tahlil usullar sifatini nazorat qilishni ta'minlash va ularni validatsiyalash
- Qadoqlash va yorliqlashni nazorat qilish
- Mahsulot turg'unligi nazoratini ta'minlash
- Mahsulot sifatiga tegishli reklamatsiyalar ishlab chiqish.

Nazorat tahlil laboratoriysi ixtiyorida mahsulot sifatiga qo'yilgan talablar va ularni tahlil usullari keltirilgan hujjatlar, me'yoriy hujjatlar (FM, VFM, KFM, DF, TH), o'lchov vositalari va asboblarni ishlatish bo'yicha, tadqiqotlar natijalari va ma'lumotlarni saqlash tizimini belgilovchi va tahlillarni olib borish tartibi keltirilgan hujjatlar bo'lishi kerak. Shuningdek qayd etish tizimiga, jumladan tahlil uchun tushgan dori vositalarining namunalari, tahlil natijalari, xisoblari, tahlil protokollari, namunalarni olgan shaxslarni qayd etish va x.k.

5.3. Nazorat tahlil laboratoriylarida (dori vositalari sifatini nazorat qilish markazlari) dori vositalari sifatini nazorat qilish

Dori vositalari sifatini nazorat qilish markazlari (yoki laboratoriylar) regional akkreditatsiyadan o'tkazilgan bo'lishi va u tashkiliy-uslubiy, shuningdek ishlab chiqarish kabi faoliyat yurgazadi. Markaz faoliyati bo'yicha litsenziyaga, xodimlari esa akkreditatsiyadan o'tgan bo'lishi kerak. Uning vazifalari SSV tomonidan belgilangan bo'lishi kerak.

Kimyo-farmatsevtik, radiofarmatsevtik, hayvon va o'simliklardan olingen gormonlar, vitaminlar, ferment preparatlar, antibiotiklar, tashxis qo'yish uchun mo'ljallangan vositalarning davlat nazorati SSV qoshidagi bosh boshqarmasi tomonidan dori vositalarini standartlash va ekspertiza qilish Davlat markazi yoki boshqa akkreditatsiyadan o'tgan Markazlar orqali amalga oshiriladi.

Davlat nazoratidan O'zbekistonda ishlab chiqarilgan va import orqali kelayotgan barcha dori vositalari, tibbiyot texnikasi va tibbiyotda ishlatiladigan mahsulotlar o'tkaziladi.

Dori vositalari sifatining Davlat nazorati quyidagi tartibda olib boriladi:

- dastlabki nazorat;
- keyingi tanlab nazorat o'tkazish;
- arbitraj nazorat.

Dastlabki nazoratdan quyidagi dori vositalari o‘tkaziladi:

- O‘zRSSV tomonidan birinchi marta tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan;
- sanoatda birinchi marta seriyalab ishlab chiqarilayotgan;
- birinchi marta Yangi texnologiya bo‘yicha olingan Yangi dozada, dori shaklda va tarkibda seriyalab ishlab chiqarilayotgan;
- sifati yomonlashgani sababli Bosh Boshqarma tomonidan shu nazoratdan o‘tkazish talab etilgan dori vositalari.

Ishlab chiqaruvchi korxona Yangi dori vositasini ishlab chiqarish haqida bosh Boshqarmaga ma’lum qilib, undan dastlabki nazorat o‘tkazish va preparatni qayd etish haqida ruxsatnomasi olishi, dastlabki seriyalardan (5 ta dan kam bo‘lmagan) namunalar yuborishi kerak.

Seriylardan dastlabki nazorat uchun namunalar olish ishlab chiqaruvchi korxonadagi nazorat qiluvchi xizmat tomonidan olib boriladi. Namunalar Boshqarmaga tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha yuboriladi. In’eksion eritmalar va ko‘z tomchilari mavjud instruksiyalar talabiga binoan «Механические включения» ko‘rsatkichi bo‘yicha tekshirilgan bo‘lib, olingan natijalar nazorat tahlil laboratoriyalari tomonidan Boshqarmaning ko‘rsatmalariga asosan yozma ravishda keltirilgan bo‘lishi kerak, hamma ishlab chiqarilgan dori vositalarining namunalarini Boshqarmaga O‘zRSSV da qayd etilgan ularning dori moddasi (substansiya), shuningdek ularning sifatini baholovchi hujjat bilan birgalikda taqdim etiladi. Qayd qilish guvoxnomasini yoki ruxsatnomasini olmaguncha barcha seriyalab ishlab chiqarilgan dori vositalari sotuvga ruxsat etilmaydi. Dori vositasi sifatida (5 ta seriyadan kam bo‘lmagan) me’yoriy hujjat (MX) talablariga javob bergen taqdridagina Boshqarma tomonidan ushbu dori vositasi dastlabki nazoratdan keyingi nazoratga o‘tkaziladi. (yozma ravishda “qayd qilish varaqasi”).

Agar dori vositasining sifati talabga javob bermasa, u dastlabki nazoratdan yana qayta o‘tkaziladi, bunda seriyalar soni Boshqarma tomonidan ko‘rsatiladi. Dastlabki nazorat shartnomasi asosida ekspertiza markazi tomonidan o‘tkaziladi.

Keyingi tanlab o‘tkaziladigan nazoratdan barcha seriyalab chiqariladigan dori vositalari o‘tkaziladi.

Ushbu nazoratdan o‘tkazish uchun namunalar ishlab chiqaruvchi korxonaning sifatini baholovchi mutaxassislar tomonidan dori vositasini olishning barcha bosqichlarida, ya’ni xom ashyodan tortib to saqlash jarayonigacha olib boriladi.

Tayyor mahsulot sifatni baholovchi Davlat standarti – Davlat farmakopeyasining “Tabletkalar”, “In’eksion dori turlari” va boshqa umumiylar maqolalari, shuningdek xususiy me’yoriy hujjatlar (VFM, FM) bo‘yicha baholanadi.

Xozirgi kunda sanoatda ishlab chiqarilgan dori vositalari dorixona retsepturasining 95% dan oshig‘ini tashkil etib, ularning ishlatilishi yanada oshib bormoqda. Sanoatda ishlab chiqariladigan dori vositalarining farmatsevtik tahlili birinchi navbatda ishlab chiqaruvchi korxonaning NTB (nazorat texnik bo‘limi (OTK)) da, keyinchalik NTL (nazorat tahlil laboratoriyalarda (KAL)) olib boriladi.

Sanoatda ishlab chiqariladigan dori shakllari, individual dori moddalardan farq etib, ular ko‘p komponentli, ya’ni ta’sir etuvchi moddalar bitta bo‘lmay, bir nechta, shuningdek ular tarkibida to‘ldiruvchilar – shakar, kraxmal, talk, glyukoza, natriy gidrokarbonat va boshqalar ham bo‘lishi mumkin. To‘ldiruvchilar indifferent bo‘ladilar, ammo ularning fiziko-kimyoviy xossalari tanlangan tahlil usuliga, dori vositasining turg‘unligiga, tashqi ko‘rinishiga, saqlanishiga ta’sir etishi mumkin. Shuning uchun sanoatda ishlab chiqariladigan dori vositalarining tahlil usullarini tanlash nixoyatda katta ahamiyatga ega va bunda ushbu dori vositasi tarkibiga kirgan har bir dori moddaning fizikaviy-kimyoviy xususiyatlari e’tiborga olinishi kerak.

Namunalar ushbu korxonaning nazorat qiluvchi xizmati va Boshqarmaning (farminspeksiya) vakillari bilan birgalikda olinadi. Namunalarni shuningdek Boshqarmaning ko‘rsatmasiga binoan boshqa korxonalarining vakillari bilan birgalikda ham (davolash korxonalar, dorixonalar) olish mumkin.

Namunalar qadoqlangan birliklar bo‘yicha tashqi ko‘rikdan (qadog‘i va yorlig‘i buzilmagan) o‘tgandan so‘ng 3 ta bosqichda olinadi:

1-bosqich: qadoqlangan o‘ramlardan (yashik, qop, korobka va b.) birlik olish;

2-bosqich: o‘ramlar ichidagi qadoqlangan (flakon, banka, korobka va b.) birlik olish;

3-bosqich: birlamchi qadoqdagi mahsulotdan namuna olish (ampula, flakon, tub va b.).

Birlamchi qadoqdagi mahsulotning tashqi ko‘rinishi tekshirilgandan so‘ng sifatni MH asosida sinovlardan o‘tkazish maqsadida namuna tahlillar olib borish uchun etarli miqdorda olinadi.

O‘rtacha namuna olish “o‘rtacha namuna olish akti” bilan tugallanadi. Aktda dori vositasining nomi, seriya tartib raqami, dori vositasining tahlil uchun olingan umumiy miqdori ko‘rsatilishi shart. Akt SNQB boshlig‘i va nazorat-tahlil laboratoriyasi vakili (yoki talabgor) kiritilgan xayat tomonidan tuziladi va imzolanadi.

Namunalar korxonaning xati, o‘rtacha namunani olish haqidagi akti hamda ushbu dori vositasining sifatini tasdiqlovchi hujjatlar bilan birgalikda Markazga yuboriladi. Dori vositasining sifati talabga javob bermagan taqdirda Boshqarma ishlab chiqaruvchi korxonaga yozma xulosa va tahlil bayonnomasini taqdim etadi.

Arbitraj nazorat o‘tkazish. Dorilar sifati to‘g‘risida shubha tug‘ilib, uni yetkazib beruvchi korxona bilan qabul qilib oluvchi muassasa o‘rtasida kelishmovchiliklar bo‘lganda arbitraj nazorat o‘tkaziladi.

Davlat inspeksiyasi tibbiyot sanoati va farmatsiya birlashmasiga qarashli barcha muassasalarda dori moddalari sifati ustidan nazorat o‘tkazishni tashkil qiladi va uning qay darajada yo‘lga qo‘yanligi, korxonalarning dorilar ishlab chiqarish jarayonida Davlat standartlari, texnik shartlar, Davlat farmakopeyasi va boshqa meyoriy hujjatlar talabiga rioya qilishini tekshirib turadi. Davlat nazorat inspeksiyasi meyoriy hujjati bo‘lmagan yoki unda ko‘rsatilgan talablarga to‘la javob bermagan dori-darmon va tibbiyotga zarur texnika vositalarini ro‘yxatdan chiqarish hamda ularni taqilash huquqiga ega.

Kirish nazoratidan korxona omborxonasiga kelib tushgan barcha xom ashyo va yordamchi mahsulotlar o‘tkaziladi. Ulardan namunalar olinadi. Namunaning bir qismi tahlil uchun ishlatiladi, ikkinchi qismi esa 3 yildan kam bo‘lmagan muddatda saqlanadi. Yordamchi mahsulotlar 3 yil saqlanadi.

Tahlil natijalari ijobjiy bo‘lgan taqdirda material-texnik ta’minoti bo‘limiga xom ashyonini ishlab chiqarish bo‘limiga o‘tkazish uchun ruxsat beriladi. Bunda xom ashyonini “ishlatish mumkinligi to‘g‘risida xabar xati” rasmiylashtiriladi.

Agar tahlillar natijasi salbiy bo‘lsa SNQB ga xabar beriladi, SNQB “talablarga javob bermasligi to‘g‘risida xabar xati” rasmiylashtiradi va xom ashyonini “Yaroqsiz” deb yorliqlanadi. Yaroqsiz deb topilgan mahsulotga akt tuziladi va uni buyurtmachi, ta’minlovchi va arbitraj nazorati vakillari imzolaydilar.⁷

Bosqichma-bosqich (operatsion) korxona ichidagi nazoratini o‘tkazish tartibi. Mazkur nazorat ishlab chiqarish tarkibiga kirib, u jarayonni nazorat etish va kerak bo‘lganda ishlab chiqarish parametrlarini tuzatish uchun mo‘ljallangan jarayondir. Bosqichma-bosqich korxona ichidagi nazorat ishlab chiqarish reglamentiga texnologik jarayonlarning mosligini tekshirish va parametrlardan chetlanishlarni o‘z vaqtida aniqlashni amalga oshiradi.

Tanlab nazoratni o‘tkazishda quyidagi vasifalar amalgaga oshiriladi:

- me’yoriy hujjat talablariga uskunalar tavsifi va nazorat-o‘lchov apparatlarining mos kelishi;
- texnologik jarayonlarning rioya etilishi va oraliq mahsulotlarning sifati;
- texnik hujjat talablariga xom ashyo va yordamchi mahsulotlarning mos kelishi;
- ish joylarida me’yoriy hujjatlarning mavjudligi va ularning xolati;
- ish joylari va sexlarning sanitar xolatlari.

Mazkur nazorat bevosita ishlab chiqarish sexlarida sex xodimlari, kerak bo‘lsa sex yoki uchastka boshlig‘i ishtirokida olib boriladi.

1. ⁷⁷ V.N. Abdullabekova, A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev “Dori vositalarini sifatini ta’minalash” o‘quv qo‘llanmasi, Toshkent, 2016y.

(Toshkent, 2016. Ro‘yxatga olish raqami №26-107.OO‘MTV ning 2016 y 22 yanvar 26-sonli buyrug‘i).

Nazoratlarning yana bir turi bu xodimlar nazoratidir. Bunda ularning belgilangan talab asosida ishlab chiqarishdagi o‘z kasbiga mosligi, gigiyenasi, texnologik kiymini kiya olish va undan foydalana olishi kabi tomonlari nazorat etiladi.

Xodimlarning kvalifikatsiyasiga qo‘yilgan talablar korxonalarda ishlab chiqilgan kasbiy yo‘riqnomalarda, gigienik talablar esa korxonadagi ichki farmoyishlarda belgilangan bo‘ladi va ular xodimlarga etkaziladi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish
2. Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarida analitik tahlil
3. Sifatni nazorat qilish bo‘limi faoliyatining tamoillari
4. SNQB ning asosiy vazifalari
5. Nazorat tahlil laboratoriyalarida (dori vositalari sifatini nazorat qilish markazlari) dori vositalari sifatini nazorat qilish
6. Dori vositalari sifatining dastlabki nazorati
7. Dori vositalari sifatining keyingi tanlab nazorati
8. Dori vositalari sifatining arbitraj nazorati
9. Kirish nazoratini o‘tkazish tartibi

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro’yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minlash. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

6-MAVZU. DORI VOSITALARINING SIFATINI TA’MINLASHDA QO‘LLANILADIGAN TAHLIL USULLARINING TAVSIFI

Reja:

1. Usulning aniqligi yoki to‘g‘riligi (accuracy) va o‘zaro mos kelishi (precision)
2. Usulning o‘zgarmasligi (turg‘unligi) yoki ishonchliligi (robustness or ruggedness)
3. Usulning chiziqliligi va diapazoni (linearity u range), o‘ziga xosligi yoki nlanganligi (specificity, selectivity)

Tayanch iboralar: *Usulning aniqligi yoki to‘g‘riligi, usulning o‘zgarmasligi, usulning tanlanganligi.*

Analitik usullar quyida keltirilgan tavsiflar bo‘yicha belgilanadi va aniqlanadi. Ushbu tavsiflarning hammasi qo‘llanilishi shart bo‘lmay, ko‘p narsa usulni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadga bog‘liq bo‘ladi.

- aniqligi yoki to‘g‘riligi (accuracy)
- o‘zaro mosligi (repeatability), takroriyligi (takroriylik, laboratoriya ichidagi takroriylik va qaytaruvchanlik)
- o‘zgarmasligi yoki ishonchliligi (robustness or ruggedness)
- chiziqliligi (linearity)
- diapazoni (range)

- o‘ziga xosligi (precision)
- sezgirligi (sensitivity)
- aniqlash chegarasi (detection limit - DL)
- moddaning miqdorini aniqlash chegarasi (quantification limit).
- tanlanganligi (selectivity)

6.1. Usulning aniqligi yoki to‘g‘riliqi (accuracy) va o‘zaro mos kelishi (precision)

Usulning aniqligi yoki to‘g‘riliqi (accuracy) - Ushbu usul yordamida olingan natijalarning haqiqiy qiymatga mos kelishi yoki qay darajada yaqinligi bilan belgilanadi. Mazkur ko‘rsatkich etalon (farmakopeyaviy) usul bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

A. Miqdoriy tahlil usulining aniqligi yoki to‘g‘riliqi (assay) *Substansiylar uchun usulning to‘g‘riliqini belgilash.*

1. Tozalik darajasi ma’lum bo‘lgan etalon moddani baholash va olingan natijani aniq qiymat bilan solishtirish;
2. Avvaldan aniqligi ma’lum bo‘lgan boshqa va muqobil usullar yordamida olingan qiymatlarni solishtirish yo‘li bilan;
3. Usulning qaytaruvchanligi, chiziqliligi va xususiyligi ma’lum bo‘lgan taqdirda uning aniqligi yoki to‘g‘riliqi haqida xulosa beriladi.

Tayyor dori turlari uchun usulning to‘g‘riliqini belgilash

1. Aniq miqdordagi substansiyanı saqlovchi dori vositasini baholash;
2. Dori vositasi tarkibida aniqlanayotgan ingridientlar miqdori qo‘sishimchalar qo‘sish yordamida, yet birikmalarning namunalari bo‘lmaganida yoki ularning tuzilish formulasi noma’lum bo‘lgan xollarda to‘g‘riliqi aniq bo‘lgan boshqa analitik usuldan foydalanib olingan qiymatlarni solishtirish yo‘li bilan;
3. Usulning qaytaruvchanligi, chiziqliligi va xususiyligi ma’lum bo‘lgan taqdirda uning aniqligi yoki to‘g‘riliqi haqida xulosa beriladi.

V. Dori turidagi yet aralashmalar tarkibiga aniq miqdorda yet aralashma qo‘shilgan substansiya namunalari yoki dori vositasini baholash yoki to‘g‘riliqi aniq bo‘lgan boshqa analitik usuldan foydalanib olingan qiymatlarni solishtirish yo‘li bilan aniqlanadi.

S. Usulning to‘g‘riliqini aniqlash mezonlari. To‘g‘rilik 9 tadan kam bo‘magan tahlil natijalariga ko‘ra analitik soxa atrofida kamida uch xil konsentratsiyada baxolanishi lozim. (3 xil konsentratsiyada 3 martadan qaytarilib). Usulning to‘g‘riliqi analit usulda topilgan modda miqdorini ma’lum bo‘lgan qiymatga nisbatan olingan foiz miqdori bo‘lib hisoblanadi.

Usulning o‘zaro mos kelishi (precision) - o‘rtacha qiymatdan ayrim olingan natijalarning chetlanishi bilan o‘lchanib odatda standart chetlanish bilan ifodalanadi. Bir xil material namunalarining natijalari asosida 3 xil darajada aniqlanadi.

- **takroriyligi (repeatability)** - bir xil sharoitda (aynan bir xil reaktivlar, uskunalar, o‘lchamlar, laboratoriya) bitta analitikning qisqa vaqt oralig‘ida tahlil usulini qo‘llash natijasida olingan qiymatlari orasidagi yaqinlikdir (hamma sharoit bir xil);

- **laboratoriya ichidagi takroriylik** - qaytariluvchanlik turli sharoitda, odatda bitta laboratoriyalarda bir xil turkum modda namunasini, turli tahlilchilar, turli xil uskunalardan foydalanilgan xolda har xil vaqtida tahlil qilishi natijasida olingan qiymatlarning bir-biriga mos kelishi orqali baxolashdan iborat (bitta laboratoriya, har xil sharoit) ;

- **laboratoriylar ichidagi qaytaruvchanlik** - qaytariluvchanlik turli sharoitda, odatda turli laboratoriyalarda bir xil turkum modda namunasini, turli tahlilchilar, turli xil uskunalardan foydalanilgan xolda har xil vaqtida tahlil qilishi natijasida olingan qiymatlarning bir-biriga mos kelishi orqali baxolashdan iborat (turli laboratoriyalarda).

Takroriylik (repeatability): bir xil sharoitda qiymatlarning o‘zgarish darajasi bo‘lib, u 2 xil usulda aniqlanishi mumkin:

- kamida 9 ta namunadan 3 xil konsentratsiyada (masalan, 85, 100 va 105% har biri uchun 3 tadan namuna);

- yoki 100% konsentratsiyada 6 ta namunaning miqdoriy tahlili o‘tkaziladi.

Namunalar iloji boricha bitta analitik tomonidan bir xil sharoitda olinishi kerak.

Mohiyati - usulning chetlanishini baholashdan iborat.

Laboratoriya ichidagi takroriylik (intermediate precision) bir xil sharoitda omillarning ta'siri natijasida tahlil qiymatlarining o'zgarish darajasi xisoblanadi.

Qaytariluvchanlik (reproducibility) - tahlil qiymatlarining o'zgarish darajasi xisoblanadi, u standart chetlanish, kiymatning o'zgarish koeffitsienti va ishonchlilik oralig'i bilan ifodalanadi. Qaytariluv-chanlik mazkur usulni ishlab chiqish jarayonida aniqlanib, tanlangan o'lchamlarda usulning ishonchli ekanligini tavsiflaydi. Tahlil sharoitida olingen o'lchamlar bir-biridan farq qilgan taqdirda tahlil usuliga tegishli izox beriladi. Xromatografik usullarda qaytariluvchanlik erituvchilar sistemasining yaroqlilik o'lchamlari bilan kafolatlanadi.⁸

6.2. Usulning o'zgarmasligi (turg'unligi) yoki ishonchliligi (robustness or ruggedness) - tahlil sharoitining (ish sharoiti yoki tashqi sharoit omillarining) o'zgarishidan qatiy nazar tahlil usulidan foydalanib bir xil turkum modda namunasi tahlil qilinganda, tegishli (yuqori darajada) to'g'rilikdagi va aniqlikdagi qiymatlarini ola bilishdan iborat. Mazkur ko'rsatkich usulni ishlab chiqish jarayonida aniqlanadi va u konsentratsiyaga bog'liq. Bir xil turkum modda namunasi turli sharoitlarda tahlil qilinadi va kerak bo'lganda sharoitlar sun'iy tarzda o'zgartirilishi mumkin.

Agar usul tashqi sharoit yoki boshqa omillarga (analitikning tajribasi, havoning namligi va temperaturasi, reagentlar, rN muxiti, qo'zg'aluvchan faza va b.) ta'sirchan bo'lsa, unda usul bayonida ushbu xolat ko'rsatilishi kerak. Agar mazkur xolatlar ko'rsatilmagan bo'lsa, masalan harorat, u xolda quyidagi (Yevropa farmakopeyasi) qiymatlardan foydalaniladi:

- liofil quritish -15 gradusdan past;
- sovutgichda 2 dan 8 gradusgacha;
- sovutgich yoki boshqa sovuq sharoit 15 dan 25 gradusgacha.

6.3. Usulning chiziqliligi va diapazoni (linearity u range), o'ziga xosligi yoki tanlanganligi (specificity, selectivity)

Usulning chiziqliligi namunalardagi tahlil qilinayotgan modda konsentratsiyasiga to'g'ri proporsional bo'lgan qiymatlar bera olish qobiliyati. Usulning diapazoni esa tahlil qilinayotgan moddani tegishli to'g'rilik, aniqlik va chiziqlikda aniqlay olishning quyi va yuqori konsentratsiyalari oralig'idir. Bu tafsiflar tegishli diapazonagi turli konsentratsiyalarga ega bo'lgan modda namunalarini (kamida 5 ta) ushbu usul yordamida tahlil qilish orqali aniqlanib, agar moddaning konsentratsiyasi va olingen natija orasidagi nisbat chiziqli bo'lsa (to'g'ri chiziqning qiyalik burchagi), standartlash kalibrangan grafik yordamida ta'minlanadi.

Usulning o'ziga xosligi yoki tanlanganligi (specificity, selectivity) – tahlil namunasidagi boshqa komponentlar ta'siridan xoli ravishda tahlil qilinayotgan moddani aniqlay olish qobiliyatidir. Boshqa komponentlar texnologik aralashmalar, moddaning parchalanish mahsulotlari, tahlil qilinishi lozim bo'lgan moddadan boshqa ingradientlar bo'lishi mumkin. Tanlanganlikning mavjudligi yoki mavjud emasligi tegishli miqdordagi boshqa komponentlar qo'shib va qo'shmasdan olingen natjalarni o'zgarish birligi bilan baxolanadi. Boshqa komponentlar ma'lum va ular bor bo'lgan taqdirda, namunani berilgan tahlil usuli yordamida tahlil qilish orqali olingen natjalarni tahliliga xalaqt berishi mumkin bo'lgan moddalarni qo'shmasdan tayyorlangan model namuna tahlili natjalari bilan solishtirib tanlanganlik aniqlanadi. Qo'shimcha komponentlar identifikatsiyalanmagan yoki ularni topish qiyin bo'lgan xollarda esa toza aniqlanuvchi moddani ajratib olib tanlanganlik o'lchanadi.

Tanlanganlik tekshiriluvchi namuna va dori shaklidagi dori moddanı identifikasiyalash, yet aralashmalarni va miqdorini aniqlashda qo'llaniladigan usullarni validatsiya qilinganda aniqlanadi.

6.4. Usulning sezgirligi (sensitivity) va analitik soxasi

Usulning sezgirligi (sensitivity) – konsentratsiyadagi eng kichik o'zgarishlarni ham qayd eta olish qobiliyati bo'lib, kalibrangan grafikdagi og'ish demakdir. Usulning sezgirligi moddaning chinligini aniqlash chegarasi va miqdorini aniqlash chegarasi bilan ifodalanadi.

1. Йоахим Эрмер, Джон Х., Мак Б., Миллер. Валидация методик в фармацевтическом анализе. Примеры наилучших практик, 1-е изд.: Пер. с англ. - М. : Группа компаний ВИАЛЕК, 2013-512с.

A. Moddaning chinligini aniqlash chegarasi (Limit of detection) – tahlil qilinayotgan moddaning indentifikatsiyalash mumkin bo‘lgan miqdoridan iborat bo‘lib, aniqlash talab etilayotgan tajriba sharoitida turli usullarda (vizual, signal/shum, natijalarning standart chetlanishi va og‘ish burchagi, kalibrlangan grafik yordamida) olib boriladi. Bu miqdoriy chegara namunadagi aniqlanuvchi moddaning konsentratsiyasi bilan (masalan mkg/l. larda) ifodalanadi. Aniqlash uskuna yordamida olib borilsa fondagi halaqit beruvchi omillarni (signal-shum) ham e’tiborga olish lozim. Moddaning chinligi aniqlanganda uning aniqlash chegarasi foizlarda yoki grammning millionadan bir ulushlarida **rrm** ifodalanishi ham mumkin. Nouskunaviy usullarda moddaning aniqlash chegarasi vizual usul bilan aniqlansa, uskunaviy usullarda esa tahlil qilinayotgan moddaning qayd etish mumkin bo‘lgan eng kichik konsentratsiya belgilanadi. Bunda moddaning analitik va fon signallarining nisbati 2:1 yoki 3:1 bo‘lishi kerak. Uskunaviy usullar uchun moddaning aniqlash chegarasi standart chetlanish qiymati va kalibrlangan grafikdagi og‘ish burchagi bilan belgilanadi.

$DL = 3,3\sigma / S$, bu erda σ - natijalarning standart chetlanishi, S - kalibrlangan grafikning og‘ish burchagi.

V. Moddaning miqdorini aniqlash chegarasi (quantification limit). Tegishli aniqlik va qaytaruvchanlikda moddaning eng kam (minimal) miqdorini aniqlash mumkin bo‘lgan xususiyat. Moddaning miqdorini aniqlashning chegarasi tahlil qilinayotgan moddaning namunadagi konsentratsiyasi (foizlarda yoki **rrm**) bilan ifodalanadi. Ushbu o‘lcham namunadagi konsentratsiyasi juda kichik bo‘lgan moddaning miqdorini aniqlash usulini tavsiflaydi (dori moddasidagi yoki dori shaklidagi yot aralashmalarni) va tahlil qilinishi lozim bo‘lgan moddaning miqdori kamayib boruvchi namunalarda, tegishli to‘g‘rilik darajasiga erishish mumkin bo‘lgan eng kam miqdoriy darajani aniqlash orqali o‘lchanadi. Bu o‘lcham vizual yoki uskunaviy usul bilan standart chetlanish kattaligi va kalibrlangan grafikdagi og‘ish burchagini xisoblash yo‘li bilan aniqlanishi mumkin.

$QL = 10\sigma / S$ bu erda σ - natijalarning standart chetlanishi, S - kalibrlangan grafikning og‘ish burchagi.

Ko‘philik xollarda modda miqdorini aniqlash chegarasi, uni identifikatsiyalash chegarasi qiymatidan kamida ikki marta ko‘p bo‘ladi.

Usulning analitik soxasi - tegishli to‘g‘rilik va qaytariluvchanlikni ta’minlovchi, chiziqli bog‘lanish kuzatilgan, tahlil qilinayotgan moddaning konsentratsiyadagi yuqori va quyi chegaralari oralig‘idan iborat. Odatda usulning analitik soxasi xam tahlil natijalari ifodalangan birliklarda foizlarda yoki million bo‘laklarda ifodalanadi. Usulning analitik sohasi aniqlanganda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- namunadagi yoki dori turidagi tahlil qilinayotgan moddaning miqdorini aniqlash uchun, aniqlanuvchi qiymatning 80-120 %;
- «bir xilda dozalanganligi» ko‘rsatkichi uchun aniqlanuvchi qiymatning 70-130% i;
- me’yoriy hujjatda keltirilgan «eruvchanlik» ko‘rsatkichini aniqlash uchun aniqlanuvchi qiymatning $\pm 20\%$ oralig‘ida;
- dori moddasasi tarkibidagi yot aralashmalarni aniqlash uchun aniqlanuvchi qiymatning 50-120% i oralig‘ida.

Agar dori moddasining miqdori bilan uning tarkibidagi yot aralashmalar bir vaqtida aniqlanadigan bo‘lsa va buning uchun 100% li standart namunadan foydalansila, usulning analitik sohasi me’yoriy hujjatda ko‘rsatilgan darajada uning 120% igacha oraliqda belgilanadi.

Tizimning yaroqliligi - ko‘pgina analitik usullarning integral xosilasi bo‘lib, tahlilni bajarish sharoitida uning qay darajada ishonchli ekanligini ko‘rsatadi. Tizim yaroqliligining o‘lchamlari tahlil jarayonida ba’zi bir ichki laboratoriya o‘zgarishlari bo‘lgan holatda ham usulning validligiga amal qilinishini ta’minlaydi. Masalan, YUSSX usulida tahlil qilinuvchi eritmaning barqarorligi, qo‘zg‘aluvchan fazaning rNi, uning tarkibi, kolonkalarning turi, harorat, oqim tezligi kabi o‘zgarish ehtimolligi qo‘proq bo‘ladi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Dori vositalarining sifatini ta’minlashda qo‘llaniladigan tahlil usullarining tavsifi
2. Usulning aniqligi yoki to‘g‘riligi (accuracy)
3. Substansiylar uchun usulning to‘g‘riligini aniqlash.

4. Usulning to‘g‘riligini aniqlash mezonlari.
5. Usulning o‘zaro mos kelishi
6. Usulning qaytariluvchanligi
7. Usulning o‘zgarmasligi (turg‘unligi) yoki ishonchliligi
8. Usulning chiziqliligi va diapazoni
9. Usulning sezgirligi
10. Usulning analistik soxasi

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro’yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minlash. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

7-MAVZU: DORI VOSITALARINING SIFATINI TA’MINLASHDA QO’LLANILADIGAN TAHLIL USULLARIKA QO’YILGAN TALABLAR

Reja:

1. Analitik usullarning ishlash qobiliyatini tekshirish
2. Analitik usullar attestatsiyasi (validatsiyasi)
3. Analitik usullarga qo‘yilgan talablar

Tayanch iboralar: *Analitik usullar, usullar attestatsiyasi -validatsiyasi.*

Farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida muhim bo‘g‘inlardan biri bu nazorat tahlil laboratoriyalari va ularda qo‘llaniladigan tahlil usullari hisoblanadi. Tahlil usullari nafaqat materiallar, oraliq va tayyor mahsulotlar sifatini baholashda, balki tozalash jarayonlarini attestatsiya qilishda va boshqa xolatlarda ham qo‘llaniladi.

Farmatsevtik vositalar yoki dori preparatlaridagi ayrim ingridient-lar uchun ularning saqlanish muddati davomidagi havfsizligi va samarador-ligini kafolatlovchi analitik nazorat usullari bo‘lishi shart.

Aslida bunday nazorat dori preparatini ishlab chiqish vaqtida qabul qilinib, validatsiyadan o‘tkazilgan usullarga binoan amalga oshiriladi. Bu esa sifat spetsifikatsiyasining farmatsevtik mahsulot tarkibidagi ta’sir etuvchi moddaning biologik tavsifini belgilash bilan bir qatorda sotuvga chiqarilgan tayyor dori vositalari uchun ham qo‘llash mumkinligini kafolatlaydi. Preparatning biotibbiy ekspertizasi tugallangach, mahsulotning barcha keyingi turkumlarining sifati ushbu sertifikatsiyalar bo‘yicha baxolanadi. Analitik validatsiyadan asosiy maqsad tanlab olingan analitik usul yordamida ishonarli va qaytariluvchan natijalar olishga erishishdan iboratdir. Usulning qo‘llanish sharoiti va usulni qo‘llashdan qo‘zlangan maqsad aniq belgilab olinib, bu tamoyillar ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llaniladigan barcha farmakopeyaviy va nofarmakopeyaviy usullarga tegishli bo‘ladi.

Analitik usul turli sharoitlarda, turli xil asboblarda va turli xodimlar tomonidan bajarilganda bir xil natijalar berishi kerak. Buning uchun usulning o‘zi unga qo‘yilayotgan talablarga javob berishi, asoslangan va tasdiqlangan bo‘lishi, asbob-uskunalar ko‘zda tutilgan tartibda ishlashi, xodimlar o‘z sohasini bilishi va vijdonan ishlashi lozim. SHuningdek, analitik usullar, jixoz va asbob-uskunalar

attestatsiyadan (validatsiyadan) o'tgan, aynan ushbu usul hamda asbob-uskunalarni tekshirish imkonini beruvchi usulning ishlash qobiliyati baholangan bo'lishi kerak.

Analitik usullar va asbob-uskunalarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi keskin farq qiladi.

Analitik usullar farmakopeyaviy va nofarmakopeyaviy usullarga bo'linadi.

Farmakopeyaviy usullar farmakopeyalarda keltirilgan bo'lib, ular turli davlatlarda turlichadir. Bugungi kunda farmakopeyaviy usullarga bir xil umumiy yondashuv talab etilmoqda. Bunday yondashuvlar AQSH farmakopeyasi (USP), Evropa farmakopeyasi, shuningdek WHO va ICH hujjatlarida keltirilgan. Farmakopeyaviy usullar "compendial method" deb ataladi.

AQSH va Evropa farmakopeyalarida, boshqa hujjatlarda keltirilgan farmakopeyaviy va boshqa amaliyotda o'zini oqlagan usullar asoslangan va attestatsiyadan o'tgan bo'ladi. Bunday usullarni foydalanish joyida attestatsiyadan o'tkazish talab etilmaydi. Ushbu ko'rsatmalar AQSH va Evropa farmakopeyalarida, shuningdek GMP qoidalarida keltirilgan. Ammo ularning muayyan joyda ishlash qobiliyati tekshiriladi. Farmakopeyaviy va nofarmakopeyaviy usullarning muayyan joyda ishlash qobiliyatini tekshirish tartibi turlicha bo'lib, ular 4 - jadvalda keltirilgan.⁹

4 – jadval

Farmakopeyaviy va nofarmakopeyaviy usullarning muayyan joyda ishlash qobiliyatini tekshirish tartibi

Analitik usul	Ishlab chiquvchilar	Foydalanuvchilar
farmakopeyaviy:		
- attestatsiya (validatsiya)	Ishlab chiqish tarkibiga ritilgan	yo'q
- ishlash qobiliyatini tekshirish	ha*	ha
nofarmakopeyaviy :		
- attestatsiya (validatsiya)		Ishlab chiqish tarkibiga kiritilgan Ha*
- ishlash qobiliyatini tekshirish		Ishlab chiquvchi foydalanuvchi bo'lib xizmat qiladi.

*** attestatsiya vaqtida usulning ishlash qobiliyati tekshiriladi.**


USP ga muvofiq yangi ishlab chiqilgan usulga ishlab chiquvchi quyidagi ma'lumotlarni taqdim etishi lozim:

- usulni ishlab chiqishning asoslanishi (rationale), uning imkoniyatlari (capability) va ma'lum usul bilan solishtirishi, uning boshqa usuldan afzallik tomonlari;
- usulning batafsil bayoni, operatorning uni takroriy o'tkazish imkoniga egaligi; reaktivlarni tayyorlash, xisoblash formulalari, extiyotkorlik choralar va b.;
- usulga qo'yilgan talablarni asoslab beruvchi attestatsiya uchun zarur bo'lgan sinchiklab tuzilgan barcha hujjatlar.

Foydalanuvchining vazifalari:

korxona o'zi tahlil usulini ishlab chiqmaydi, u faqat ishlab chiqilgan va tasdiqlangan usulni o'z sharoitida tekshirib ko'radi (asbob-uskunalar, xodimlar, xujjatlashtirish va b.) va uni to'g'ri ishlayotganligini ko'rsatib beradi. Bu jarayon "verification" ya'ni analitik usulning ishlatilishini tekshirish deb ataladi.

1. ⁹ Йоахим Эрмер, Джон Х., Мак Б., Миллер. Валидация методик в фармацевтическом анализе. Примеры наилучших практик, 1-е изд.: Пер. с англ. - М. : Группа компаний ВИАЛЕК, 2013-512с.



Farmakopeyaviy usulning ishlamaslik sabablari: yomon asbob-uskuna, xodimlar o‘rgatilmagan, kerakli materiallarning yo‘qligi va b.

Nofarmakopeyaviy usullar – bu yuqorida qayd etilgan hujjatlar tarkibiga kiritilmagan usullar. Mazkur usullar asosan yangi dori vositasini ishlab chiqish, klinik sinovlarni o‘tkazish vaqtida ishlab chiqiladi va attestatsiyadan o‘tkaziladi. Agar ushbu yangi dori vositasini korxonada ishlab chiqarish ko‘zda tutilayotgan bo‘lsa, u holda ishlab chiqilgan tahlil usulidan foydalanish mumkinligini isbotlashi kerak bo‘ladi. Nofarmakopeyaviy usullar dori vositalarini ishlab chiqaruvchi yoki boshqa tashkilot tomonidan ishlab chiqilishi mumkin, u nazoratchi organ tomonidan tasdiqlangan va registratsiya uchun dose tarkibiga kiritilgan bo‘lishi kerak. Bunday usullar uchun farmakopeyalarda attestatsiyadan o‘tkazish tartibi belgilangan bo‘ladi (masalan, mikrobiologik tahlil usullari uchun AQSH va Evropa farmakopeyalarida).

Ba’zi xollarda alternativ usullardan ham foydalanish mumkin. Bunda ushbu usuldan foydalanishning sababi va asoslanishi kerak bo‘ladi.

7.1. Analitik usullarning ishlash qobiliyatini tekshirish

Analitik usullarning ishlash qobiliyatini tekshirish tartibi (verification procedure) USP (1226) da keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

- laboratoriya kerakli asbob-uskunaning mavjudligi, to‘g‘ri o‘rnatilgan, kalibrovka qilingan, ishga solingen va sozlangan;
- xonalar yoki joylarning tozaligi, tahlil natijalariga halal bermasligi;
- farmakopeyada keltirilgan reaktivlardan foydalanilgan;
- usullar bo‘yicha hujjatlar;
- ishning nazorati yo‘lga qo‘yilgan va olingan natijalarning ikkinchi shaxs tomonidan tasdiqlangan (o‘z ko‘zi bilan ko‘rib);
- tahlil usuli bo‘yicha aniq va to‘g‘ri ishlayotgan va o‘rgatilgan xodimlar;
- etalon materiallar bo‘yicha ishlash qobiliyatini tekshirilgan;
- tahlil natijalari to‘g‘ri rasmiylashtirilgan bo‘lishi kerak.

Qayd etilgan ishlar bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

Ba’zi xollarda usulning murakkabligiga yoki xodimlarning tayyorgarlik darajasi yoki tajribasi etarli bo‘lmaganda qo‘srimcha ishlar bajariladi yoki hammasi ham tekshirilavermaydi.

7.2. Analitik usullar attestatsiyasi (validatsiyasi)

Analitik usullar attestatsiyasi ushbu usulni ishlab chiqqan shaxs yoki korxona xodimlari tomonidan olib boriladi. Attestatsiya – bu usulning o‘rnatilgan talablarga mos kelishini tasdiqlashdir. Analitik usullarni attestatsiyadan o‘tkazish uchun qo‘yilgan umumiy talablar ICH va WHO dasturlarida, xususiy talablar esa farmakopeya maqolalarida (monografiyalar) keltirilgan.

Dori vositasining sintez jarayoni, tayyor dori vositasi tarkibi va analitik usulga o‘zgartirishlar kiritilganda takroriy attestatsiya o‘tkaziladi.

5 - jadval

ICH va WHO dasturlari asosida usullarning attestatsiyadan o‘tkazish tavsiflari

Analitik vsifi	usul	Chinligi aniq-lash	YOt aralashmalarni aniqlash			Tahlil: -eruvchanligi(faqat lchash) -tarkib/faolligi
			miqdorini iqlash	me'yori bo'yicha iqlash	korzat	

Aniqligi	-	+	-	+
ishonchliligi: -takroriyligi	-	+	-	+
-laboratoriya hidagi o'xshashligi		+ (1)	-	+ (1)
xususiyligi (2)	+	+	+	+
aniqlash chegarasi	-	-(3)	+	-
miqdoriy tahlil e'yori	-	+	-	-
Chiziqliyli	-	+	-	+
Diapazon	-	+	-	+

SHartli belgilari:

- odatda baholanmaydi;

+ odatda baholanadi;

(1) qaytaruvchanlik aniqlansa laboratoriya ichidagi aniqlik tekshirilmaydi;

(2) bitta analistik usulning xususiyligi etarli darajada bo'lmasa boshqa yordamchi usul bilan kompensatsiyalanadi;

(3) ba'zi xollarda talab etiladi.

6 - jadval

USR asosida usullarning attestatsiyadan o'tkazish tavsiflari

tavsifi	I kategoriya	II kategoriya		III kategoriya	IV kategoriya
		miqdorini aniqlash	me'yori bo'yicha nazorat		
aniqligi	ha	ha	*	*	yo'q
mos kelishi	ha	ha	yo'q	ha	yo'q
xususiyligi	ha	ha	ha	*	ha
aniqlash chegarasi	yo'q	yo'q	ha	*	yo'q
miqdoriy tahlil me'yori	yo'q	ha	yo'q	*	yo'q
chiziqliyli	ha	ha	yo'q	*	yo'q
diapazon	ha	ha	*	*	yo'q

* aniq test uchun talab etilishi mumkin

I kategoriya - Qadoqlanmagan dori moddalar hamda tayyor dori vositasi tarkibidagi ayrim faol ingridientlarni tekshirishga mo'ljallangan usullar.

II kategoriya - Dori moddasi xamda tayyor dori turi tarkibidagi yot aralashmalar miqdorini aniqlashga mo'ljallangan usullar.

III kategoriya - Tayyor dori turining sifatini baholash uchun «Ervchanlik», «bir hilda dozalanganligi» kabi ko'rsatkichlarni aniqlash maqsadida foydalaniladigan usullar.

IV kategoriya – identifikatsiyalash uchun testlar.

7 - jadval

Balk formadagi kimyoviy substansiyalar uchun foydalaniladigan analistik usullarni attestatsiyadan o'tkazish mezonlari

usul	aniq- gi	chi- q-li- gi	tak- rla- shi	qay- ta- vchan k	o'zig xos- gi	aniq- sh gi	modda iqdorini	analit va zim rg'un-ligi	tur- un-ligi
------	-------------	---------------------	---------------------	---------------------------	---------------------	-------------------	-------------------	--------------------------------	-----------------

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Identifika-yalash	-	-	-	-	+	-	-	-	-
Fiz-kim tahlil: -yorug‘likni itish	-	-	+	-	-	-	-	-	-
-zarrachalar attaligi	-	-	+	-	-	-	-	-	-
-va b.	-	-	+/-	-	-	-	-	-	-
Yot moddalar ulfatlilik, og‘ir etallar)	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Kation va nionlar tarkibi: -eruvchanlik sti	+	-	+	-	+	+	+	-	-
-ionose-lektiv ektrod	+	+	+	-	+	+	+	-	-
-atom spektrosopiyasi	+	+	+	-	+	+	+	-	-
Tarkib: -yupqa qatlam xromatografiya (UQX)	+	-	+	+	+	+	-	+	+
YUSSX	+	+	+	+	+	+	+	+	+
GX	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Suv miqdori: -uritishda assaning o‘qotilishi	+	-	+	-	-	-	-	-	-
-K.Fisher o‘yicha titrlash	+	-	+	-	-	-	-	-	-
Kimyoiviy tahlil: -titrlash	+	-	+	+	-	-	-	+	-
yorug‘likni itish	+	+	+	+	-	-	-	+	-
xromatografiya	+	+	+	+	+	-	-	+	+
Erituvchilar qoldig‘ini niqlash GX	+	+	+	+	+	+	+	+	+

8 - jadval

Tayyor dori vositalari uchun foydalilaniladigan analitik usullarni attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari

usul	aniqli	chi-q-lili-gi	tak-r-lani-i	qay-ta-vchan	o‘ziga-sligi	aniq-sh-egasi	modda-iqdotini-niqlash	analit-va-zim-rg‘un-ligi
Identifika-yalash	-	-	-	-	+	-	-	-

Erurvchanlik: -tarkibni zgartirmay	+	+	+	+	+	-	-	+
-tarkibni zgartirib	+	+	+	+	+	-	-	+
Konservantlar hlili: -yorug'likni itish	+	+	+	+	-	-	-	+
- xromatogra- ya	+	+	+	+	+	-	-	+
Tarkib: -yupqa qatlam omatografiya (UQX)	+	-	+	+	+	+	-	+
YUSSX	+	+	+	+	+	+	+	+
GX	+	+	+	+	+	+	+	+
Faol ingri- entlar tahlili: -yorug'likni itish	+	+	+	+	-	-	-	+
-xromatogra- ya	+	+	+	+	+	-	-	+

7.3. Analitik usullarga qo'yilgan talablar

Ayrim ingradient (dori moddasi yoki yordamchi modda) yoki dori shakli uchun spetsifikatsiyani asoslash uchun analitik usullar bo'yicha tavsiya etilgan har qanday ma'lumot uchta asosiy bo'limni o'z ichiga oladi.

1. Tadqiqot uchun tavsiya etilgan usul boshqa usullar bilan solishtirilib ko'rilgan bo'lishi kerak. Agar tavsiya etilayotgan usul o'zgacha bo'lsa ilmiy asoslab berilishi lozim. Amaldagi usul boshqa usulga almashtirilgan taqdirda, solishtirish ma'lumotlari qo'rsatiladi.

2. Usulning bayoni to'liq berilib, etarli malakaga ega bo'lgan xodim osonlik bilan bajara oladigan bo'lishi kerak. Talab etilayotgan reaktivlarni tayyorlash atroflicha yoritilgan yoki chop etilgan manbalarga ishora berilgan bo'lib, lozim bo'lgan standart namunalar xaqida to'la ma'lumot berilgan bo'lishi kerak. Usul analitik kimyoning barcha ma'lum bo'lgan tamoillariga asoslangan bo'lsa, natijalarni xisoblash formulalarini keltirish shart emas, ammo usul nisbatan murakkab xollarda xisoblash formularini keltirilib, formulaga kirgan belgilarning tavsifi ko'rsatiladi.

3. Validatsiya ma'lumotlari qo'llanilayotgan ma'lum bir usulga tegishli bo'lgan har bir analitik tavsif, tajriba ma'lumotlari bilan muxokama qilinib mustaxkamlanadi. Dori preparatini ro'yxatga olish uchun tavsiya etilgan ma'lumotlar belgilangan farmakopeyaviy usullarni qo'llash natijasida olingan va bu farmakopeyaviy usullar avval tegishli tartibda validatsiyadan o'tkazilgan bo'lsa, validatsiyani tasdiqlovchi ma'lumotlar tavsiya etilmasa ham bo'ladi. Tadqiqot materiali dori shakli bo'lgan taqdirda olingan ma'lumotlarni tasdiqlovchi ma'lumotlar bo'lishi kerak.¹⁰

Analitik usul bayonida quyidagilar bo'lishi kerak:

- namunalarni olish tartibi (namunaning xajmi va miqdori, namunani olish metodikasi, namunalar joylashtiriladigan konteynerlar, namunalarga dastlabki ishlov berish ko'rsatmalari va b.);
- kerak bo'lganda namunalarni ayrim saqlash sharoitlari;
- reagentlarga talablar;
- asbob-uskunalarining bayoni;

4- ¹⁰ Quality assurance of pharmaceuticals : a compendium of guidelines and related materials.Vol. 2, Good manufacturing practices and inspection. – 2nd ed. 2010 y.

- asbob-uskunalarning ishlash qobiliyatini tekshirish uslubi (metodika);
- usulning ishlash qobiliyatini tekshirish uslubi (metodika);
- nazoratni olib borish sharoitiga talablar, reaksiyalarni olib borish sharoiti va ulardan foydalanish;
- ehtiyyotkorlik choralar;

Olingen natijalarga ishlov berish, kerak bo‘lganda statistik usul, etalon namuna va materiallar ko‘rsatiladi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Dori vositalarining tahlilida qo‘llaniladigan farmakopeyaviy usullar
2. Dori vositalarining tahlilida qo‘llaniladigan nofarmakopeyaviy usullar
3. Analistik usullarning ishlash qobiliyatini tekshirish
4. Analistik usullar attestatsiyasi (validatsiyasi)
5. Tahlil usullarining attestatsiyadan o‘tkazish tavsiflari
6. Balk formadagi kimyoviy substansiyalar uchun foydalaniladigan analistik usullarni attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari
7. Tayyor dori vositalari uchun foydalaniladigan analistik usullarni attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari
8. Analistik usullarga qo‘yilgan talablar

Foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minlash. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

8– MAVZU: FARMATSEVTIK ISHLAB CHIQISH. SUBSTANSIYALAR SIFATINI BAHLASH.

Reja:

1. Substansiyalarning fizik xususiyatlari
2. Substansiyalarning sifatiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar va ularning tahlili
3. Substansiyalarning havfsizligiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar va ularning tahlili

Ko‘pgina xorijiy davlatlarda substansiyalarga tayyor mahsulotlarni olishda foydalaniladigan yordamchi moddalar kabi xomashyo sifatida qaraladi. Ularni ba’zi xorijiy manbalarda faol ingridiyentlar deb atalmoqda. Bunga tibbiyot amaliyotida sanoatda ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalarining (95% gacha) hamda dorixonalarda ekstemporal tayyorlanadigan dori vositalarining (5% gacha) ishlatilayotganligi, shuning hisobiga substansiyalardan dori vositasi sifatida kam foydalanilayotganligi sabab bo‘lmoqda. Shuning hisobiga substansiyalarning sifatiga e’tibor kamayib ketdi. Substansiyalarning sifatiga javobgarlik asosan tayyor dori vositalarini ishlab chiqarayotgan ishlab chiqaruvchilar zimmasiga yuklatilgan. Farmatsevtik mahsulot ishlab chiqaruvchilar turli yo’llar bilan olingen substansiyalarning fizik-kimyoviy va texnologik (yot aralashmalar, polimorfizm, kristallar ko‘rinishi va b.) xususiyatlarini o‘rganish yuzasidan izlanishlar olib bormoqdalar. Olingen natijalar asosida spetsifikatsiyalar tuzib chiqiladi.

Bugungi kunda substansiyalarning sifatiga qo‘yilayotgan talablar tayyor dori vositasining sifatiga

qo‘yilayotgan talablar bilan bir qatorda oshib bormoqda: miqdori 0,1% dan ortiq bo‘lgan barcha organik yot moddalarni identifikatsiyalash, o‘ta havfli aralashmalarni aniqlash, erituvchilar qoldig‘i, radionukliotidlar, og‘ir metallar va b. miqdorini aniqlash, shuningdek tahlil usullarni takomillashtirish, validatsiyalash, standart namunalardan foydalanish va h.k.

Xorijda substansiylar tayyor dori vositalari kabi ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi. Ko‘pgina davlatlarda tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan substansiylar (listed) ro‘yxati mavjud. Ular o‘zi emas balki boshqa preparatlar tarkibiga kiritilgan holda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Shu bilan birgalikda, sanoati yuqori darajada rivojlangan davlatlarda ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talab etilayotgan hujjatlar tarkibida faol ingridiyentlarning sifat spetsifikatsiyasi, olinish manbayi, olinish texnologiyasi, kirish nazorati kabi ma’lumotlar talab etiladi. Ko‘pincha tayyor dori vositasini ishlab chiqaruvchi korxona substansiyalarni sotib oladi. Bunda nazorat organiga substansiyalarni ishlab chiqaruvchi ta’minlovchi yetishmayotgan hujjatlarni (drug master file-dori preparati uchun asosiy dose) taqdim etadi. Shu kabi hujjatlar yordamchi moddalar, yorliqlovchi mahsulotlar uchun ham tavsiya etiladi. Eng qizig‘i shundaki bunday hujjatlar muvofiqlashtiruvchi organlar tomonidan tekshirilmaydi va tasdiqlanmaydi. Ammo ular ishlab chiqarish korxonasini inspeksiya qilinayotganda e’tiborga olinadi.

Substansiylar ishlab chiqaruvchi korxonalarga litsenziya berish va inspeksiya qilish turli industrial davlatlarda turlicha olib boriladi. Ba’zi davlatlarda (AQSH) litsenziya berilmaydi, lekin doimiy inspeksiya qilinadi. Ba’zi yevropa davlatlarida (Finlyandiya, Angliya, Italiya) ham litsenziya beriladi, ham inspeksiya qilinadi. Sifatini nazorat qilish qoidalari turli davlatlarda turlicha, masalan AQSH da namunalar olish va ularni tekshirish shart, ayniqsa agar ular chet davlatlarida ishlab chiqarilgan bo‘lsa, Yevropa davlatlarida esa xususiy laboratoriylar tomonidan substansiylar tanlab tekshiriladi.

Farmatsevtik ishlab chiqarishning 6 ta tizimi mavjud:

- xomashyo;
- joy va jihoz;
- ishlab chiqarish;
- tahlil laboratoriyasi;
- qadoqlash.

“Farmatsevtik ishlab chiqish” haqida ICH ning ICH Q8 bo‘limida alohida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra mahsulot va uni ishlab chiqarish to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish tartibga soluvchi organlarga ishlab chiqarishning qaysi holatlarini qanday nazorat etish kerakligi va shunga yarasha moslashuvchi yo‘l topish imkonini yaratadi.

Mazkur mahsulotni ishlab chiqaruvchi davogar uning dozasi, shakli va texnologiyasi aynan ushbu preparat uchun yaroqli ekanligi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berishi kerak. Bunda faol farmatsevtik ingridiyent (FFI) haqida, to‘ldiruvchilar, qadoq va ishlab chiqarish to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Mazkur vositalar mahsulotning sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va natijada nazorat strategiyasini belgilab beradi.

10-jadval

ICH Q8 ga muvofiq dori preparatini ishlab chiqish jarayonida inobatga olinishi kerak bo‘lgan jihatlar

**Dori preparati
komponentlari**

Inobatga olinishi kerak bo‘lgan jihatlar

Faol farmatsevtik gridiyent Faolligi yoki texnologiyasiga (eruvchanlik, suv miqdori, zarralar kattaligi, istallar xususiyatlari, biologik faolligi va o'tkazuvchanlik) ta'sir etuvchi har unday fizik-kimyoiy va biologik xususiyatlar.

Ushbu xususiyatlar orasidagi bog'liqlik.

Dori vositasi tarkibidagi ta'sir etuvchi moddalarning (agar tarkibda bir nas bir necha birikmalar saqlasa) bir-biriga mos kela olishi.

Dori vositasi tarkibidagi ta'sir etuvchi moddalar va to'ldiruvchilarning birriga mos kela olishi.

To'ldiruvchilar, ordamchi moddalar

Mahsulot sifatiga (turg'unligi, biologik jihatidan bir-biriga mos kela olishi, xnologikligi) ta'sir etishi mumkin bo'lgan to'ldiruvchilarni hamda ularning onsentratsiyasi va xususiyatlarini tanlash.

Bir necha to'ldiruvchilardan foydalanilganda ularning bir-biriga mos kela ishi.

Saqlanish muddati davrida to'ldiruvchining o'zgarmaslik xususiyati.

To'ldiruvchining bezararligi to'g'risidagi ma'lumot adabiyotlardagi a'lumotlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

10-jadvalning davomi

Texnologiyani ishlab chiqish

Ishlab chiqish jarayonlari bo'yicha dastlabki konsepsiyadan kirgi loyihagacha bo'lgan kritik sifat ko'rsatkichlarini iqlashni o'z ichiga olgan rezyume.

Substansiya texnologiyasiga kirgan to'ldiruvchilarni asoslash.

Klinik bezararligi, ta'sir faolligi, biologik jihatdan bir-biriga os kela olishi, biologik ekvivalentligi asosida foydalanilgan xnologiyalar bo'yicha tadqiqotlar rezyumesi.

Klinik sinovlar va dastlabki foydalanilgan texnologiyalar uningdek savdoga mo'ljallangan texnologiyalar o'rtasidagi har unday o'zgarishlarni tushintirish.

Savdoga mo'ljallangan texnologiyalar munosabati bilan ichki va tashqi qo'llanish bo'yicha olib borilgan solishtirma dqiqotlar rezyumesi .

Har qanday dizayn xususiyatlarining bayoni va undan iydalanishning asoslanishi.

Ruxsat etilgan dozadan yuqori iza (передозировка, которая не побряется)

Mahsulot faolligi va bezararligi, ruxsat etilgan dozadan iqori dozani asoslash va uning qiymatlariga ta'rif berish.

ishlab chiqarish jarayoni

Ishlab chiqarish jarayonining sodda variantini, shuningdek iydalanish uchun mo'ljallangan jihozzlarni tanlash sabablarini oslash.

Ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish maqsadida ilidatsiyalash va uzluksizligini o'rganish.

Jarayonning monitoringi va nazoratini talab etuvchi kritik urametrlarini aniqlash.

Har qanday o'zgarishlarni o'rganish va muhokama qilish.

Talab etilgan sifatga ega bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish zimini baholash.

Qadoqlash tizimi (saqlash iaroiti va katta miqdordagi ahsulotni tashish)

Qadoqlash tizimini asoslash (saqlash sharoiti va katta iqdordagi mahsulotni tashish) shartlari

Substansiyalarning fizik xususiyatlari

Bugungi kunda DV 90% xorijdan keltirilayotgan substansiyalar ishlab chiqarilmoxda (asosan, Xitoy va Xindiston davlatlari).

Ma'lumki, DV sifati substansiyaning sifati bilan uzviy bog'liqdir. Substansiyalarning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu zarralar shakli va kattaligi, ularning polimorf xususiyatidir.

Substansiyalarning kristallari katta, kichik va amorf bo'lishi mumkin. Moddalarning amorf ko'rinishi kristallik turiga qaraganda rivojlangan yuzaga ega, shuning uchun ular havo kislorodi yoki namlik ta'siri natijasida tezlik bilan destruksiyaga uchraydi.

USP substansiyalarning kristallik holatini mikroskop yordamida aniqlash usuli keltirilgan (97 monografiya). RF da esa u "tasvirlanishi" ko'rsatkichining ichiga kiritilgan va faqat ma'lumot uchun keltirilgan.

Substansiyalarning polimorfligi ularning farmako-texnologik, biofarmatsevtik xususiyatlari va turg'unligiga ta'sir ko'rsatadi. Polimorf moddalar turlicha farmakologik faoliyka ega. Polimorfizm molekular massasi 350 dan kam va suvda kam eriydigan moddalarga xos. Masalan, karbomazalin, rimantadin gidrochlorid, indometatsin va b.

Substansiyalarning ushbu holati rentgenostruktur va difraktometriya tahlil usullarida, shuningdek erish haroratini aniqlash yordamida amalga oshirniladi. Hozirda 140 taga yaqin moddalar uchun polimorfizm xosligi aniqlangan (indometacin, nimodipin, Phenobarbital, pentobarbital, tetracaine hydrochloride va b.).

ICH Q6A da polimorflik xususiyatiga eag bo'lgan substansiyalar uchun talablar keltirilgan. Unga ko'ra agar dori muddasi uchun polimorflik aniqlangan bo'lsa (elektron mikroskopiya, differensial skanerlash kolorimetriya usuli, termooptik tahlil, IQ-spektroskopiya, rentgenostruktur tahlil usullari yordamida), u holda ularning farqlari (eruvchanlik, erish harorati, turg'unligi bo'yicha) belgilangan va havfsizlik, faollik va boshqa farmakologik xossalari o'rganilgan bo'ladi.

Substansiyalarning polimorfligini nazorat qilishda "yot moddalar", "eruvchanlik", "moddalar turg'unligin o'rganish" usullaridan foydalilaniladi.

Ma'lumki, tabletkalarni ishlab chiqarishda ta'sir etuvchi va yordamchi moddalarning sochiluvchanligi, to'kiladigan massasi, presslanishi kabi ko'rsatkichlar aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar ularning zarralar kattaligi va dispersligi bilan bog'liqdir. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri presslash usuli uchun izometrik shaklga ega bo'lgan kristallar eng maqbul hisoblanadi. Aminalon tabletkalari uchun kristallar kichik bo'lishi kerak. Glibenklamid uchun esa mikronizirlangan kristallar to'g'ri keladi. Xuddi shu holat atsetilsalitsil kislotasi uchun ham xos ekan, bunda uning qo'shimcha xossasi kamayib farmakologik faolligi kuchayadi.

Etambutol gidrochlorid (suvda yaxshi eriydi) va rifampsin (suvda kam eriydi) shamcha va surtma tarkibidan ajralib chiqishiga zarralar kattaligi 65–90 mkm oralig'ida bo'lishi kerak.

Agar zarralar kattaligi moddaning eruvchanligi, turg'unligi, va biologik samaradorligiga ta'sir ko'rsatib, mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasining kritik ko'rsatkichi bo'lib hisoblansa, uni MH tarkibigi kiritish zarur.

Moddalar dispersligi elash, mikroskopiya, zarralarning lazer analizatori, lazer difraktometriya usullari yordamida aniqlanadi.

Ko'pgina substansiyalar xiral moddalar hisoblanadi. Ularning ratsemat yoki enantiomerlari mavjud bo'lib, faqat bittasi DV tarkibiga kiritilgan.

Ratsemlarning farmakologik faolligi past, bitta enantiomer saqlagan DV kichik dozalarda chiqariladi (amlodipin besilat – levamlodipin, omeprazol – ezomeprazol va b.).

EF da agar ham ratsemat ham enantiomer ruxsat etilgan bo'lsa, ratsemat monografiyasiga "burish

burchagi” (“testlar”) hamda “identifikatlash” bo‘limida esa kerakli havola beriladi. Agar faqat enantiomer berilgan bo‘lsa, unda “identifikatlash” bo‘limida “burish burchagi” yoki “enantiomer tozalik” testiga havola etiladi. Xiral birikmalar xiral suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida aniqlanadi.

Substansiyalarning sifatiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar va ularning tahlili

Substansiyalarning yana bir sifat ko‘rsatkichlaridan biri bu ularning tozaligi (kimyoviy va mikrobiologik).

Kimyoviy yot moddalar (YOM) quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- organik (sintez va substansiyalar texnologiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan, parchalanish mahsulotlari):
- noorganik (sulfatlar, xloridlar);
- erituvchilar qoldig‘i.

EF da organik YOM “related substances” test nomi bilan keltirilgan. Agar ushbu test bilan organik YOM ni aniqlash imkonи bo‘lmasa, u holda boshqa spetsefik test yordamida naiqlanadi.

EF va ICH Q6A da yo‘riqnomalarida YOM ularning zaharliyligi, farmakologik faolligi, kunlik maksimal dozasi, qabul qilish davomiyligiga qarab kiritiladi. Agar YOM miqdori belgilangan me’yordan yuqori bo‘lsa, uni nazorat etish talab etiladi. Agar uning miqdori $>0,10\%$ va kunlik maksimal dozasi $>1,0$ mg bo‘lsa, u faqat identifikatsiya qilinadi.

Agar YOM miqdori belgilangan $>0,15\%$ yoki kunlik maksimal dozasi $>1,0$ mg bo‘lsa, unda u faqat kvalifikatsiya qilinadi, ya’ni YOM ning biologik havfsizligi yoki belgilangan me’yordagi YOM larning profilini belgilovchi umumiy zaharliylik, genotoksik sinovlar, klinik muhim qo’shimcha ta’sirlari to‘g‘risida ma’lumotlar olinadi va baholanadi.

11-jadval

YOM me’yorini aniqlash va o‘rnatish mezonlari

DV tarkibidagi substansiyaning maksimal kunlik dozasi, kun/g	YOM nazorati alab etiladi, agar ning miqdori,%	Identifikatlash zarur, agar uning miqdori >0,10% yoki kunlik ste’mol >1,0 mg bo‘lsa (2 dan kam) >0,05%	Kvalifikatsiyalash erak, agar uning miqdori >0,15% yoki kunlik ste’mol >1,0 mg bo‘lsa (2 dan kam) >0,05%
≤ 2	$>0,05$		
>2	$>0,03$		

EF ga “Specified impurity”, “unspecified impurity” va “other detectable impurities” tushunchalar kiritilgan.

“Specified impurity” – “Specified impurity” monografiyasida atroflicha ko‘rsatilgan va me’yori belgilangan yot modda bo‘lib, u identifikatsiya qilingan yoki qilinmagan bo‘lishi mumkin.

“Unspecified impurity” – monografiyasida individualno ko‘rsatilmagan va uning miqdori umumiy me’yor bilan belgilanadi. Masalan, “har qanday yot modda”, “har qanday boshqa yot modda”, “boshqa yot moddalar”, “har qanday dog” va b.

“Other detectable impurities” – kimyoviy tuzilishi aniq muayyan yot moddalar. Ularni aniqlash usuli monografiyada keltiriladi (jadval) va miqdori belgilangan me’yordan oshmaydi. Bunda yot moddalarning eng kichik miqdorni ham aniqlash imkonini beruvchi xromatografik usullar (YUSSX, YUSSX mass–spektrometrik detektor bilan) va standart namunalardan foydalilanadi. Ba’zida qimmat baho standart namunalardan foydalanish o‘rniga substansiyalarni “sun’iy eskirtirish” – stress

sharoitlarda moddalarni qisman degradatsiya qilish usulidan foydalaniadi. Mazkur usul RF ning DF 12 nashirida drotoverin gidroxlorid, amlodipin, nalgin, kaptopril va b. moddalar tarkibidagi yot moddalarni aniqlash uchun keltirilgan.

Noorganik yot moddalar. Mazkur yot moddalar substansiyalarning kimyoviy sintezi jarayonida foydalaniilgan kuchli ishqor va kislotalar, katalizatorlar, jihozlarning elementlari, boshlang‘ich mahsulot, reaktivlar, filtr materiallarning qoldiqlari va b.

Ushbu yot moddalar (xloridlar, sulfatlar) o‘zi zaharli emas, ammo ularni aniqlash substansiyalarning tozaligini belgilaydi. Agar kationlarni individual aniqlash ehtiyoji bo‘lmasa, unda “sulfatlari kul” (0,1% dan oshmasligi kerak) sinovi o‘tkaziladi. Ba’zida kationlarni zaharli bo‘langanlari sababli aniqlash talab etiladi “og‘ir metallar” ko‘rsatkichi qo‘rg‘oshin, qalay, vismut, kadmiy, kumush, mis, molibden, vanadiy, platina, palladiy va b. Ularni aniqlash usuli rangli cho‘kmalarni (sulfidlar) hosil bo‘lishiga asoslangan.

EMEA va Ph Eur me’yoriy hujjatlarida YOM ning substansiyadagi miqdori va me’yori DV ning kunlik dozasi, davolash davomiyligi, qo‘llash usulubiga qarab belgilanadi.

Agar substansiya sintezida metall katalizatordan foydalaniilgan bo‘lsa, u holda metallni aniqlash atom-absorbsion yoki emission spektrometriya usullari substansiya spetsifikatsiyasi tarkibiga kiritiladi (12-va 13-jadvallar).

12- jadval

Og‘ir metallar me’yorini aniqlash va o‘rnatish mezonlari

Kunlik oza, kun/g	Davolash lavomiyligi, kun	“Og‘ir metallar” ko‘rsatkichini kiritish
>0,05	>30	kiritiladi, me’yor – 20 ppm
>0,05	>30	kiritiladi, me’yor – 10 ppm
>0,05	>30	kiritiladi, agar parenteral dori preparatini tayyorlash uchun io‘ljallangan bo‘lsa, me’yor – 10 ppm, boshqa vaqtarda - me’yor – 20 ppm
>0,05	>30	kiritilmaydi

13- jadval

Og‘ir metallarning substansiyadagi ruxsat etilgan me’yorlari

Sinf	Dori preparatini kiritish yo‘li
------	---------------------------------

	Peroral qo‘llash		Parenteral kiritish		Ingalyatsiy a
	PDE*, mkg/kun	Me’yor, ppm	PDE, mkg/kun	Me’yor, ppm	PDE, mkg/kun

1-sinf: sezilarli havf tug‘diruvchi metallar

1A-sinf: Pt,Pd	100	10	10	1	Pt:70
1B-sinf: Ir,Rh,Ru,Os	100**	10**	10**	1**	-

1C-sinf: Mo,Ni, Cr,V	250	25	25	2,5	Ni:100 Cr(VI):10
-----------------------------	-----	----	----	-----	---------------------

2-sinf: havfliligi past metallar Cu, Mn	2500	250	250	25	-
---	------	-----	-----	----	---

3-sinf: havfliligi juda past metallarFe,Zn	13000	1300	1300	130	-
---	-------	------	------	-----	---

Izoh:

*—Ruxsat etilgan kunlik doza

**—Qayd etilgan sinf metallar yig‘indisining miqdori ko‘rsatilgan me’yordan oshmasligi kerak.

Agar DV 30 kundan kam bo‘lgan muddatda qo‘llanilsa, YOM ning yuqori me’yori belgilanadi. DV ni ishlab chiqarish jarayonida YOM lar yo‘qligi isbotlangan bo‘lsa, u holda doimiy tanlab o‘tkaziladigan nazoratga almashtirilishi mumkin. Mazkur holatda DV ning 6 ta tajriba seriyasi yoki ketma-ketlikda ishlab chiqarilgan 3 ta sanoat seriyasi tarkibidagi YOM miqdori belgilangan me’yorning 30% dan oshmasligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etiladi.

Organik erituvchilar qoldig‘i. Ushbu YOM me’yori organik erituvchilarning zaharliligi, har kundagi ruxsat etilgan miqdori, DV ning maksimal kunlik dozasi va davolinishning davomiyligi bilan aniqlanadi. Agar erituvchi 2 sinfga mansub bo‘lib, undan foydalanish DM ni tozalash jarayonigacha ko‘zda tutilgan bo‘lsa va uning yo‘qligi isbotlansa, erituvchi qoldig‘ini nazorat qilish talab etilmaydi.

Odatda, substansiya xorijdan olinadi va uning ishlab chiqarilishi nazorat etilmaydi, shu sababli foydalaniqan barcha 1-va 2-sinf erituvchilari qoldig‘ini nazorat qilish (gaz xromatorgafiyasi) me’yoriy hujjatga kiritilishi shart.

Dori moddalarning sifat ko‘rsatkichlarini va/yoki havfsizligini kimyoviy, fizikaviy yoki fizik - kimyoviy usullar bilan bir qatorda biologik tahlil usullaridan ham foydalaniлади.

Substansiyalarning havfsizligiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar va ularning tahlili

Biologik tahlillar qo‘ylgan maqsadga qarab 2 sinfga ajratiladi:

- dori moddalarning havfsizligini baholash uchun qo‘llaniladigan usullar;
- dori moddalarning biologik yoki farmakologik faolligini aniqlash usullari.

Birinchi guruh usullar umumiy farmakopeya maqolalarida keltirilgan bo‘lib, ular asosan dori moddalarning havfsizligini nazorat qilishda qo‘llaniladi.

Ikkinci guruh usullar esa har bir dori modda uchun individual bo‘lib, uning xususiy farmakologik xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi va dori moddaning miqdori uning (standart moddalardan foydalanib) faolligiga qarab baholanadi.

Mikrobiologik tozalik. Sterillik. Ushbu ko‘rsatkich substansiya steril dori shaklini olish uchun qo‘llanilganda tekshiriladi.

Ko‘pgina substansiyalar (neyrotrop, antidepressan, sedativ, antigistamin, gipotenziv va b.) mikrobiologik tozalikni tekshirish jarayonida antimikrob xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ularning antimikrob xususiyatlari test-shtammlarda o‘rganilishi shart, mikrobiologik tozalikni tekshirish jarayonida ularning antimikrob xususiyatini neytrallash lozim.

ICH yo‘riqnomasida “mikrobiologik tozalik” ko‘rsatkichini spetsifikatsiya tarkibiga kiritish, substansiyaning har bir seriyasini testdan o‘tkazish yoki tanlab nazorat qilishning “yechim daraxti” usuli keltirilgan. Bungi kunda barcha chetdan kirib kelayotgan substansiyalarning mikrobiologik tozaligini tekshirish majburiyidir.

Pirogenlik va bakterial endotoksinlar. Mazkur sinovlar parenteral (inyeksiya uchun va infuzion) preparatlar yoki ularni tayyorlashga mo‘ljallangan substansiyalar uchun majburiy farmakopeyaviy test hisoblanadi va dori vositalarining sifati hamda tegishli havfsizligini ta’minlaydi. Sinov natijalari hattoki farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarining texnologik madaniyatining darajasini belgilaydi va undan texnologik jihozlar, shuningdek ba’zi tibbiyot texnikasining tozaligini tekshirishda foydalaniлади.

Pirogen moddalar yok pirogenlar bu – tashqaridan kirgan yoki organizmda hosil bo‘lgan bezgak yoki isitmani chaqiruvchi moddalardir. “Pirogen” – grekcha so‘z bo‘lib, “pyretos” – harorat, “pyros” – olov ma’nosini bildiradi. Bu ibora ilk bor 1876 - yil chirigan go‘shtdan olingan moddaga nisbatan qo‘llanilgan. 1923-yil ushbu modda bakterial kelib chiqishga (bakterial endotoksinlar, kimyoviy

jihatdan protein kompleksi - lipopolisaxaridlar) egaligi ekanligi va u qon tizimiga tushganda isitmani chaqirishi aniqlangan. Bakterial endotoksinlar mikroorganizmlarning hayoti va parchalanishidan hosil bo'lib, ularning ta'siri juda kuchli, haroratning ko'tarilib ketishiga hatto 10–9 ham yetarlidir. Ushbu moddalar nafaqat isitma chaqiradi, balki organizmning immun tizimini ham ishdan chiqaradi.

Pirogenlikni aniqlash uchun quyonlardan foydalilanadi. Mazkur test ko'pgina farmakopeyalarning tarkibiga kiritilgan. Ammo ushbu usulning kamchiliklari bor, masalan:

- faqat sifat o'zgarishlari (ruxsat beriladi yoki yo'q), hayvonlarning holatiga bog'liq;
- quyonlarda pirogenlarga individual sezgirlik mavjud, bu sezgir lik vaqtga qarab o'zgarishi mumkin;

-ba'zi inyeksiyon dori vositalari, texnologik jihozlar va materiallarning pirogenligini aniqlash mumkin emas: radiofarmatsevtik preparatlari, spetsifik haroratni ko'taruvchi (vaksinalar, platsenta preparatlari, metilen ko'ki va b.) yoki tushiruvchi (kalsiy glyukonat, kortikosteroidlar, neyroleptiklar va b.) preparatlari, hayvonlar fizioligik holatini o'zgartirib yuboradigan preparatlari (narkoz uchun, tinchlantruvchi va sedativ vositalar, yurak glikozidlari va b.) organizm sezgirligiga ta'sir etuvchi preparatlari va b.

Hozirda pirogenlikni aniqlashda yuqorida qayd etilgan usul bilan bir qatorda "bakterial endotoksinlar" testidan foydalanimoqda. Ushbu usul bakterial endotoksinlarni qonni ivishini chaqirishiga asoslangan.

LAL (Limulus Amebocyte Lysates)-test (gel-tromb test). Gramm-manfiy bakterial endotoksinlar (lipopolisaxaridlar) miqdorini aniqlash. LAL-test hozirgi kunda dori moddalarining pirogenligini aniqlashda eng ishonarli, kelajagi bor usul bo'lib xizmat qilmoqda. Bu usul yuqori sezgirlikka egaligi, oddiyligi, ishonchliligi, qaytaruvchanligi bilan katta ahamiyatga ega. Bunda sinovlar qisqa vaqt ichida bajariladi. Bu esa uning arzonligini ko'rsatadi, shuningdek inyeksiyon dori moddalarini ishlab chiqarishda pirogenligini bosqichma-bosqich nazorat etishga imkon beradi.

Amyobalar lizatining endotoksinlar bilan beradigan reaksiyasi 1964-yilda AQSH da aniqlangan bo'lib, u amyobotsit Limulus polyphemus (qadimgi dengiz hayvoni-mechexvost) lizati va endotoksin o'rtasidagi reaksiyaga asoslangan. *Limulus polyphemus* qon tomirlari ichiga bakteriyalarning kiritilishi qonning ivishiga va uning natijasida hayvonning o'limiga olib kelgan.

Reaksiya natijasida endotoksin lizatning loyqalanishiga olib keladi va gel hosil qiladi.

Ilk bor bu test 1980-yilda AQSH ning XX Farmakopeyasiga "bakterial endotoksinlarni aniqlash" nomi bilan kiritilgan.

LAL-test – tekshirilayotgan eritma tarkibidagi endotoksin miqdorini aniqlashga imkon beradi. Buning uchun noma'lum miqdorda endotoksin saqlagan eritmaning LAL-reakтив bilan hosil qilgan reaksiyasi solishtiriladi. Konsentratsiya 1 ml (TB/ml) endotoksin birligida o'lchanadi.

LAL-test yana suvda kam eriydigan birikmalarining pirogenligini tekshirishda, farmatsevtik moddalarini tayyorlash, eritmalar, xom- ashyolarni validatsiyalash, standart (konsentratsiyasi aniq bo'lgan) endotoksin eritmasi bilan hosil qilgan reaksiyasi bilan farmatsevtika ishlab chiqarishda, shuningdek bosqichli nazorat uchun ishlatalidi.

Ushbu usulning kamchiliklaridan biri bu gramm-musbat bakterial endotoksinlar va nobakterial pirogen moddalarini aniqlash imkon yo'qligidir.

Nafaqat DV balki substansiylar tarkibidagi pirogen moddalarini aniqlash zarur. Sababi ba'zi pirogen moddalar issiqlikka chidamli bo'lib, ularni yuqori haroratda inaktivatsiya qilish kerak. Ammo steril DV ishlab chiqarishda bunday haroratni qo'llab bo'lmaydi. Shuningdek, ba'zi bakterial pirogenlar 2500C haroratda bosim ostida 30 minut davomida inaktivatsiyaga uchraydi. Ko'pgina endotoksinlar kataklari 0,22 mkm membranalni filtrlar orqali o'tib ketadi.

Agar klinikagacha bo'lgan sinovlar yordamida substansiyaning apirogenligini va ishlab chiqarish jarayonida nobakterial priogenlar bilan ifloslanmasligi isbotlangan bo'lsa, u holda uning sifati LAL test usulida nazorat etiladi. Bu ma'lumotlar qayd etish dosesida keltirilgan bo'lishi zarur.

Me'yoriy hujjatlarda faqat bitta test: yoki pirogenlik, yoki bakterial endotoksinlarga o'tkaziladi.

"Anomal zaharliliylik" – belgilangan tartibda ruxsat etilgan zaharlilik me'yordan oshib ketish

darajadir.

DV ning sifati yomonlashganda anomal zaharlilik kuzatiladi. Bu ko'rsatkichni aniqlashda sichqonlardan foydalaniladi. Anomal zaharlilik 2 xil holatda kuzatilishi mumkin: fiziko-kimyoviy yo'l bilan nazorat etiladigan va etilmaydigan.

Birinchi holatda ta'sir etuvchi modda miqdorining oshib ketishi, texnologik yot moddalar, zaharli erituvchilar qoldiqlari, dori vositasini noto'g'ri saqlaganda hosil bo'luvchi zaharli yoki noma'lum yot moddalar.

Odatda, anomal zaharliylik qon, inson yoki hayvon a'zolari yoki to'qimalaridan, mikroorganizmlar yoki ularning hayoti davomida paydo bo'luvchi mahsulotlar, dorivor o'siliklardan olingan va parenteral DV olish uchun mo'ljallangan substansiyalarda tekshiriladi.

Shuningdek, DV ni ishlab chiqarish jarayonining GMP talablari asosida olib borilmagan taqdirda ushbu ko'rsatkich aniqlanishi lozim.

Gistamin (depressor moddalar) ni aniqlash. Bu ko'rsatkich faqat qon tomirlari ichiga yuboriladigan substansiyalarda bemorlarning dori vositasini qabul qilganida arterial bosimni tushib ketishining oldini olish maqsadida aniqlanadi (ishlab chiqarish jarayonida bexosdan dori vositasi tarkibida gipotenziv (depressor) modda hosil bo'lishi ehtimoli).

Bunday hollarda hayvon va inson to'qimalaridan yoki mirobiologik sintez yo'li bilan olingan organopreparatlar (antibiotiklar) ayniqla havfli hisoblanadi. Ular tarkibida yuqori faol depressiv moddalar – gistamin, bradikinin, peptidlar va b. bo'lishi mumkin. Masalan, platsenta ekstraktlari, antibiotiklar va b.

Gistaminga o'xhash ta'sirni aniqlash dengiz cho'chqasining ajratib olingan ichagida (gistamin) (1-usul) – *in vitro* olib boriladi. *in vitro* (2-usul) mushuklarda (depressor moddalar) 1-usulda olingan natijalarni to'ldirish uchun olib boriladi.

Saqlanish muddati (3 yildan kam bo'lган) 20% ga o'tib ketgan va muddati (3 yildan ko'p bo'lган) 70% ga qolgan substansiylardan DV ni ishlab chiqarishda foydalanishga ruxsat etilgan. Ammo xalqaro tajribaga ko'ra, faqatgina turg'un bo'lмаган, biologik/biotexnologik yo'l bilan olingan substansiylar va antibiotiklarning saqlanish muddati o'rnatiladi. Boshqa vaqtarda qayta nazorat davri (re-test period) belgilangan. Agar u to'g'ri belgilangan tartibda saqlangan bo'lsa, bu davr ichida spetsifikatsiyada keltirilgan ko'rsatkichlar saqlanish jarayonida o'zgarmasligi kerak va bu substansiya DV ishlab chiqarishda ishlatalishi mumkin. Belgilangan davr o'tgandan so'ng substansiya MH talablari asosida to sifati yaroqsiz bo'lguniga qadar qayta tekshiriladi. Agar qayta nazorat davri o'rnatilgan bo'lsa, u holda ishlab chiqaruvchi substansiyaning sifatini har doim ham foydalanishdan oldin tekshirishi shart emas.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Substansiylar sifatiga ta'sir etuvchi omillarni keltiring.
2. Farmatsevtik ishlab chiqish nima?
3. Dori preparatini ishlab chiqish jarayonida inobatga olinishi kerak bo'lgan jihatlarni aytинг.
4. Dori vositalarining havfsizligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni aytинг.
5. Dori vositalari faolligiga ta'sir etuvchi sifat ko'rsatkichlarini aytинг.
6. Substansiylar tarkibida uchraydigan yot aralashmalar nima?
7. Substansiylar sifatini baholashda qo'llaniladigan tahlil usullarini tushuntiring.
8. Substansiylarning polimorfizmi nima?
9. Substansiylarning biologik tahlil usullarini tushuntiring.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo‘jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

9-MAVZU: DORI VOSITALARINING HAYOTIY DAVRIDA SIFATNI TA’MINLASH

REJA:

1. Dori vositalarining hayotiy davri
2. Dori preparati ishlab chiqish

Tayanch iboralar: *Dori vositalarining hayotiy davri, faol substansiya va substansiyalar havfsizligi.*

Dori preparatlariga 2 xil tarafdan qarash mumkin:

1. Dori preparati – bu sotiladigan mol;
2. Dori preparati – iste’molchiga hizmat.

Dori vositalarining asosiy xususiyatlari:

- havfsizlik (zaharliligi, nojo‘ya ta’siri)
- samarodorlik (oldini olish, tashxis qo‘yish, davolash)
- sifat (Farmakopeya, me’yoriy hujjat)
- hammabop (narxi, dorixonalarda mavjudligi

Dori preparati iste’molchiga etib boriguniga qadar bir necha hayotiy davrdan o‘tadi. Uning sifatli bo‘lib chiqishida hayotiy davrning ((lifecycle)) barcha bosqichlari nazoratda bo‘lishi va ta’minlanishi kerak bo‘ladi.

Dori preparatini yaratish va ishlab chiqish davrini ko‘rib chiqamiz.

9.1. Dori vositalarining hayotiy davri

Dori preparatini yaratish va ishlab chiqishning 4 ta asosiy davri bor.


I – davr. Faol substansiyani aniqlash va uni o‘rganish konsepsiyasini ishlab chiqish

II – davr. Klinikagacha bo‘lgan tadqiqotlar

III – davr. Klinika sinovlar

IV – davr. Ro‘yxatdan o‘tkazish va bozorga chiqarish.

Product Life Cycle



I – davr. Faol substansiyani aniqlash va o‘rganish konsepsiyasini ishlab chiqish

Mazkur davrda quyidagi tadqiqot maqsadlari qo‘yiladi: tadqiqotlar rejasi, tibbiy maqsad, tijorat maqsadi, kimyoviy tuzilishini rejalashtirish, adabiyotlarni o‘rganish, patent tozaligini o‘rganish, modda tuzilishini tanlash va sintezini rejalashtirish. Keyinchalik faol substansiyani laboratoriya sharoitida sintez qilish, hayvonlar modelini tanlash kabi vazifalar bajariladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun kamida 2 yil ketadi va bu vaqtida taxminan 8000-10000 ta potensial nomzodlar ishlab chiqiladi.

II – davr. Klinikagacha bo‘lgan tadqiqotlar (2-4 yil ketadi)

1. Skring. 20-30 ta tanlangan substansiyalar asosiy farmakologik va biologik skriningdan o‘tkaziladi, tanlangan substansiya patentlanadi.
2. 1-faza. 18 ta tanlab olingen substansyaning o‘tkir zaharliligi hayvonlarning 2 xil modelida o‘rganiladi, keyinchalik chuqur boshqa farmakologik (terapevtik faolligi, qo‘srimcha faolligi, terapevtik faollikning muddati), fizik-kimyoviy xususiyatlari va turg‘unligi o‘rganiladi.
3. 2-faza. 10 ta tanlangan substansyaning farmakokinetikasi (absorbsiya, tarqalishi, metabolizmi, ajralib chiqishi), zaharlilikni yana bir bor tekshirish, mutagenlikni o‘rganish, faol substansiyani sanoat sharoitida sintez qilish, dozalangan shaklini ishlab chiqish, dozalangan shaklini analitik baholash va turg‘unligini o‘rganish, klinik namunalarni ishlab chiqarish.

III – davr. Klinik sinovlar (6-7 yil ketadi)

1- klinik faza. 4-7 ta tanlangan faol substansiyalar klinik testlardan o‘tkaziladi (ko‘ngillilarda): dorini ko‘tara olishi, dorini eng yuqori dozasini ko‘tara olishi, faol eng kichik doza, “doza/ta’sir”, davolash ta’sirining muddati, qo‘srimcha ta’siri, insonlardagi farmakokinetikasi, zaharliligi (boshqa hayvon namunalarida), qo‘srimcha farmakologik xususiyatlarni o‘rganish, tayyor dori shakllarini patentlash kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi.

2- klinik faza. 2-3 ta tanlangan faol substansiyalar klinik testlardan o‘tkaziladi: patsientalardagi ta’sirni o‘rganishning birinchi nazorat tadqiqotlari, surunkali zaharlilik, kanserogenlikni o‘rganish, qo‘srimcha farmakologik tadqiqotlar.

IV – davr. Ro‘yxatdan o‘tkazish va bozorga chiqarish (2-4 yil sarflanadi)

1 ta tanlangan faol substansiya ro'yxatdan o'tkaziladi: hujjatlar (klinik, farmakologik, toksikologik, analitik-farmatsevtik sinovlarni baholash); ishlab chiqarishga tayyorlash, marketing rejasi, chakana savdoni baholash, farmatsevtlar, vrachlar va ko'tara savdochilarga ma'lumotlar tayyorlash, o'ramlarni tayyorlash; dozalangan tayyor dori shaklini ishlab chiqarish va mahsulot sifatini nazorat etish.

9.2. Dori preparati ishlab chiqish

Dori preparatini ishlab chiqishda quyidagi 4 ta darajani belgilash mumkin:

1. Dori vositasi paydo bo'lishining boshlag'ich darajasi – ehtiyoj, g'oya. G'oya – ilmiy gipotezaning maxsuli va/yoki bozor talabi.
2. Dori vositasini ishlab chiqish- mahsulotni yaratish.
3. Dori vositasi – ishlab chiqarish faoliyatining maxsuli:
 - ma'lum xom ashayodan olingan;
 - o'ziga xos xususiyatlarga ega;
 - muayyan shakl, dozaga ega;
 - patentlangan va nopolent nomi bor;
 - qo'llanilishi to'g'risidagi yo'riqnomasiga ega;
 - narxi belgilangan.
4. Dori vositasi – bozor iqtisodiyoti sub'ekti, ya'ni preparat ishlab chiqaruvchidan is'temolchiga yo'naltirilgan. Bunda u bozor sub'ektlari – vrachlar, distrib'yuterlar, iste'molchilar, muvofiqlashtiruvchi organlar bilan birgalikda harakatlanadi.

Dori vositasi bozor iqtisodiyotining sub'ekti sifatida o'zining savdo nomi va markasi, ishlab chiqarish manbai, sifat va xossalari, qo'llanilishi bo'yicha yo'riqnomasi, kafolat va etkazib berish tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ma'lum bo'lган va qaytadan sintez qilingan moddalar orasida faol substansiyani ochish va o'rganish konsepsiyasini ishlab chiqish bosqichi. Bu bosqichda izlanish yo'nalihi va tadqiqotlar modeli aniqlanadi, tadqiqotlar rejasi, adabiyotlar va patent izlanishlar shakkantiriladi.

Qanday preparat yangi deyiladi? Yangi preparat bu: yangi ta'sirli yangi molekula; ma'lum ta'sirga ega bo'lган yangi molekula; ma'lum formula modifikatsiyasi; ma'lum preparatning yangi tashqi ko'rinishi; dori preparatining etkazib berish tizimini ishlab chiqish.

Yangi dori preparatini yaratishda g'oyalar manbai bo'lib tasodifiy ixtirolar, yangi fundamental gipotezalar, kasallikni borishiga yangicha qarash, tabiiy xom ashayolar va qaytadan sintez qilingan moddalar orasida doimiy qidirish kabilalar xizmat qiladi.

Yangi topilgan birikmalar orasidan olimlar avval bir qanchasini, keyinchalik esa faqat bittasini skrining qilib oladilar. Agar boshlang'ich davrlarda izlanishlar to'g'ridan – to'g'ri izlanuvchilar tomonidan olib borilgan bo'lsa, klinikagacha bo'lган, farmakologik va klinik sinovlar esa faqatgina GLP – yaxshi laboratoriya amaliyoti va GCP - yaxshi klinika amaliyoti talablari asosida olib borilishi kerak bo'ladi. Klinik sinovlar uchun namunalar GMP talablari asosida ishlab chiqigan bo'lishi kerak. Klinik sinovlar yuqorida qayd etilgan 2 ta fazadan tashqari yana 3- klinik faza mavjud bo'lib, unda keng klinik tadqiqotlar olib boriladi.

Keyingi bosqich bu dori preparatining ro'yxatdan o'tkazish jarayonidir. Dori vositalari ro'yxatdan o'tmasdan turib bozorga chiqarilmaydi. Dori vositalarini qayd etish ishlab chiqaruvchilarining GMP, GLP va GCP talablariga amal qilishlari bilan bog'liq.

Dori vositalarini qayd etish jarayoni bilan bir vaqtda preparatni ishlab chiqarishga tayyoragarlik ishlari olib boriladi – bozor tahlili (marketing), farmatsevtlar, vrachlar va ko'tara savdochilarga ma'lumotlar tayyorlash, o'ramlarni tayyorlash.¹¹

Dori vositalarini qayd etish jarayoni tugagandan so'ng mahsulotni chiqarishga tayyoragarlik ishlari olib boriladi: xom ashay va yordamchi mahsulotlarni sotib olish, dori shaklini ishlab chiqarish rejasini tuzish, dori preparatini ishlab chiqarish, mahsulot sifatini nazorat etish, chakana

1. ¹¹ V.N. Abdullabekova, A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev "Dori vositalarini sifatini ta'minlash" o'quv qo'llanmasi, Toshkent, 2016y.

savdochilarga mahsulotni jo‘natish. Ishlab chiqaruvchidan to istemolchigacha bo‘lgan zanjir GDP yaxshi distribyuterlik amaliyoti asosida olib borilishi kerak.

Dori preparatining hayotiy davri (sikli) da uning bozorga chiqish davri alohida ahamiyatga ega. Bunda farmatsevtlar, vrachlar va ko‘tara savdochilarga dori preparati to‘g‘risida ma’lumotlar tayyorlash ishlari olib boriladi. Dori preparati haqida adabiyotlar chiqariladi, konferensiyalar o‘tkaziladi, reklamalar va vrachlar uchun dori preparatlarining namunalari tayyorlanadi. Dori vositasining xayotiy davrining bu bosqichida har bir kompaniya ishlab chiqaruvchi va brend preparatni muomalaga kiritish va shakllantirish borasida alohida ustuvorlikni belgilaydi.

Dori preparatini ishlab chiqishdan boshlab to sotilguniga qadar taxminan 10 yil ketadi. Bugungi kunda qayd etilgan preparatlarning soni dunyo bo‘yicha 200-250 tani tashkil etmoqda.

Orginal preparatlar patent bilan himoyalanadi. Patent davri tugashi bilan dori preparatining keyingi davri boshlanadi, ya’ni ushbu preparatni xoxlagan boshqa kompaniya ishlab chiqarishi mumkin bo‘ladi. Endi bu preparat qayta ishlab chiqarilgan preparatlar ”jeneriklar” qatoriga o‘tadi.

Orginal va jenerik preparatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish talablari bir oz farq qiladi. Odatda jenerik preparatlar uchun klinikagacha bo‘lgan va klinik sinovlar talab etilmaydi.

Bu talab mikrobgaga qarshi preparatlar uchun tegishli emas, chunki orginal preparatning patent davrida mikroorganizmlar uning ta’siriga nisbatan turg‘un bo‘lib qoladi, ular mutatsiyaga uchraydi. SHuning uchun ular albatta klinikagacha bo‘lgan va klinik sinovlardan o‘tadilar.

Saqlanish muddati o‘tgan, qalbaki, sifatsiz va kontrafakt dorilar qonun, qonunosti aktlarda belgilangan talablar asosida sotuvdan olib tashlanadi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Dori vositalarining hayotiy davri
2. Sifat tushunchasiga ta’rif bering
3. Dori preparati ishlab chiqish darajasi
4. Orginal va jenerik preparatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish talablari
5. Dori vositalarining asosiy xususiyatlari
6. “Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti” mazmun va mohiyati
7. “Yaxshi laboratoriya amaliyoti” mazmun va mohiyati
8. “Yaxshi klinika amaliyoti” mazmun va mohiyati
9. “Yaxshi distribyuterlik amaliyoti mazmun va mohiyati
10. “Yaxshi saqlash amaliyoti” mazmun va mohiyati

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minlash. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

10-MAVZU. TABIIY XOM-ASHYODAN TAYYORLANGAN DORI VOSITALARI SIFATINI TA’MINLASH

Reja:

1. Dastlabki xom ashyo spetsifikatsiyasi
2. Fitopreparatlar tahlili

Tayanch iboralar: *Dastlabki xom ashyo, spetsifikatsiya va Fitopreparatlar.*

Dorivor o'simlik preparatlari murakkab tarkib va turli xil xususiyatlarga ega, shuning uchun ularni ishlab chiqarishda alohida e'tibor dastlabki materiallar, saqlash sharoitlari va qayta ishlash sharoitlariga qaratilishi kerak.

Dastlabki material bu dorivor o'simlik xom ashysidir. Uning sifati talab darajasida bo'lib, ular ta'minlovchi tomonidan tegishli tartibda taqdim etilishi kerak. Ma'lumki o'simlik xom ashysosi sifatiga turli xil omillar (terish vaqt, quritish usuli, tuproq sifati va b.) ta'sir ko'rsatadi, shu sababli sifatni ta'minlash maqsadida o'simlikni o'stirish usuli haqida batafsil ma'lumot talab etilishi mumkin. Sifatli mahsulotni etishtirish uchun Yevropa agentligining o'simlik xom ashysini o'stirish va yig'ib olish qoidalari bo'yicha yo'riqnomaga (GACP)* amal qilinishi kerak.

14 - jadval

O'simlik xom ashysini o'stirish va yig'ib olish Qoidalari bo'yicha yo'riqnomaning o'ziga xos tomonlari

Faoliyat turi	GACP qoidasi	Qoidani g II qismi	Qoidani g I qismi
O'simliklar, suv o'tlari, lishayniklarni o'stirish va g'ish			
O'simliklar, suv o'tlari, lishayniklarni quritish va aydalash			
O'simliklarni maydalash, ekstraksiyalash, fraksiyalarga ratish, substansiyanı tozalash, quyuqlashtirish yoki rmentlash			
Dori shaklini olish uchun keyingi ishlov berishlar, idoqlash			

Dorivor o'simlik xom ashysosi alohida havosi almashinib turadigan toza xonalarda (hayvonlar, kemiruvchilar, mikroorganizmlar, ikki yoqlama kontaminatsiyalar va b.) saqlanishi va karantin zonalari belgilab berilishi kerak. Mazkur xonalarda namlik, harorat va yorug'likdan himoya etish choralar ko'rilgan va nazorat ostida bo'lishi kerak. Namunalar olish jarayonida changlanib ketadi, shuning uchun ularni olish uchun alohida xonalarda olib boriladi va ifloslanishning oldini olish choralar ko'riliishi kerak bo'ladi.

Ishlab chiqarishda foydalaniladigan asbob-uskunalar ekstraksiya jarayonida qo'llaniladigan erituvchilar bilan o'zaro ta'sirlashmasligi kerak (turli kerak bo'limgan reaksiyalarni oldini olish uchun).

10.1. Dastlabki xom ashyo spetsifikatsiyasi

Ishlab chiqaruvchi kerakli sifatga ega bo'lgan aynan dorivor xom ashysosi ekanligiga to'liq ishonch hosil qilishi va ushbu xom ashyo **GACP** Qoidalari asosida tayyorlangan, shuningdek u xom ashyoning qayd etish (registratsiya) dosesi tarkibida bo'lishi kerak. Xom ashyonini yetkazib beruvchi ta'minotchi to'g'risida GACP talablari asosida mukammal hujjatga ega bo'lishi lozim. Mazkur ishlarni ta'minotchi yoki uning tavsiyasiga ko'ra boshqa shaxslar bajarishi mumkin.

Spetsifikatsiyada:

- O'simlikning ilmiy nomi (oilasi, turi, mualliflari vab.);
- O'simlikning kelib chiqish (jumladan vatani, madaniylashtirilganligi, yig'ish vaqt va usuli, foydalanilgan pestitsidlar, radioaktiv ifloslanish extimolligi);
- O'simlikning ishlatilish organi yoki organlari yoki o'simlikning o'zi to'g'risida ma'lumotlar;
- Agar xom ashyo quritilgan bo'lsa, uning quritilish usuli haqida ma'lumot;
- Dorivor o'simlik xom ashyoning tavsifi hamda makro- i mikroskopik tadqiqotlar natijalari;
- Chinligini (terapevtik faolligini belgilovchi ingridientlar yoki markyorlar bo'yicha) aniqlash natijalari. Agar xom ashyonini qalbakilashtirish imkonи bo'lsa, unda unga xususiy differensial

tadqiqotlarning o'tkazilish imkoniyatlari. CHinlikni aniqlash va taqqoslash uchun auten namuna bo'lishi kerak;

- Namlik miqdori farmakopeya talabi asosida;
- Miqdorini (terapevtik faolligini belgilovchi ingridientlar yoki markyorlar bo'yicha) aniqlash usuli (attestatsiyadan o'tgan) va natijalari, mezonlari;
- Zamburug' va/ yoki mikrobl li kontaminatsiya, aflatoksin, boshqa mikotoksinlar va parazitlar invaziyasini aniqlash usuli, me'yordi, talab qilinganda;
- Zaharli metallar, kontaminantlar va yot moddalarni aniqlash usullari, talab qilinganda;
- G'ayritabiyy materialni aniqlash usullari, talab qilinganda.

Barcha ishlar batafsil hujjatlashtiriladi. Hujjatlarda texnologiya, namunalar olish, ularni tahlil qilish, amal qilinadigan yo'riqnomalar, tozalash usullari, ekstraksiya uchun foydalanilayotgan erituvchilar va b. haqida ma'lumotlar keltirilishi zarur.

Dorivor o'simlik xom ashyoning har bir seriyasining sifati me'yoriy hujjat asosida dorivor o'simlik xom ashysosi, oraliq mahsulot yoki o'simlik aosisda olingan preparatlar chinligi, yot aralashmalar va biologik faol moddalarni aniqlash bo'yicha tajriba va ko'nikmaga ega bo'lgan xodim tomonidan baholanadi. Dorivor o'simlik xom ashyoning seriyasidan olingan namunalar saqlanib qo'yiladi.

Namuna oluvchi xodimlar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

- Namunalarni olish tartibi;
- Namunalarni olish bo'yicha yo'riqnomasi;
- Namunalarni olishda qo'llaniladigan usullar va asboblar;
- Bir vaqtida bir necha moddalar bilan ifloslanish (kontaminatsiya) havf-xatari;
- Turg'un bo'limgan va (yoki) steril moddalarga nisbatan ko'rildigan ehtiyojkorlik choralar;
- Materiallar, yorliqlar va o'ramlarning (qadoqlar) tashqi ko'rinishini vizual baholash natijalarini e'tiborga olishning muhimligi;
- Har qanday kutilmagan yoki favqulotda vaziyatlarni hujjat bilan rasmiylashtirishning muhimligi.

Quyidagi jihatlar inobatga olinishi kerak:

- Ishlab chiqaruvchisi va ta'minlovchilar haqida ma'lumotlar (ularning turi va shu kundagi ahvoli), shuningdek qo'yilgan talablar;
- Dastlabki xom ashyonini ishlab chiqaruvchida sifatni ta'minlash tizimining mavjudligi;
- Dastlabki xom ashyonini ishlab chiqarish sharoiti va uning nazorati;
- Dastlabki xom ashyo va undan olinadigan preparatlarning tabiatini va xususiyatlari.

Yuqorida qayd etilgan tizimdan o'tgan (jihatlar va validatsiya jarayonlar amalga oshirilgan) dastlabki mahsulot chinlikni tekshirishdan ozod etiladi. Quyidagi mahsulotlarga mazkur tizim maqbul:

- Faqat bitta ishlab chiqaruvchidan yoki bitta ishlab chiqarish maydonidan olingan dastlabki xom ashyo;
- To'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchidan kelayotgan yoki muxrlangan idishdan olingan dastlabki xom ashyo, qachonki ta'minlovchi benuqson obro'ga ega bo'lsa, sifatni ta'minlash tizimi doimiy auditlardan (akkreditatsiya organi yoki preparatlarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan) o'tkazib turilsa.

Har bir mahsulot MH bo'yicha tashqi nazoratdan o'tkaziladi.

15 - jadval

Xom ashyoning miqdor birligi, kg	Namuna hajmi
1 – 5	Hammasi
6 – 50	5 ta birlik
50 dan ortiq	partiyaning 1% birligi

O'simlik xom ashvosining sifatini tekshirish uchun partianing shikastlanmagan joyidan namuna olinadi.

Namunalar tashqi belgilari bo'yicha nazoratdan o'tkaziladi butunligi, maydalik darajasi, rangi, xidi, ifloslanganligi, mog'orlanmaganligi, shamollatilganda ham ketmaydigan ko'lansa xidi, zaharli o'simliklar bilan ifloslanganligi va mineral aralashmalar (tosh, qum, tuproq va b.) tekshiriladi. Agar dorivor o'simlik xomashyosi tashqi tekshirishdan o'tkazilganda MH talabiga to'g'ri kelmasa, tozalanib ikkinchi marta topshirilishi mumkin.

Ammo ombor zararkunandalari bilan II va III darajada zararlangan, yo'qolmaydigan xidga va zaharli yot o'simliklar bilan zararlangan bo'lsa bunday xomashyo ikkinchi marta qabul qilinmaydi.

Namuna olish. Har bir birlikdan 3 ta: xom ashyo qadog'ining yuqori, pastki va o'rtasidan namuna olinadi.

Olingen namunalar aralashtiriladi. Aralashtirilgan namunadan kvadrat usuli bilan o'rtacha namuna olinadi. Bunda xomashyo namunasi tekis kvadrat ko'rinishda yoyiladi va diagonal bo'yicha 4 ta uchburchakka bo'linadi, qarama – qarshi uchburchaklar tashlab yuboriladi, qolgan 2 tasi aralashtiriladi. YUqorida keltirilgan jarayon MH da keltirilgan og'irligacha qaytariladi.

O'rtacha (olingen namunalarning ortib qolgan qismi olib qo'yiladi) namunadan yuqoridagi usul yordamida analitik namuna olinadi. Analitik namuna og'irligi MH da keltirilgan jadvalga to'g'ri kelishi kerak.

Analitik namuna quyidagi aniqlikda tortiladi:

- 0,01 g – namuna og'irligi 50 g gacha;
- 0,1 g - namuna og'irligi 100 dan 500 g gacha;
- 1,0 g - namuna og'irligi 500 dan 1000 g gacha;
- 5,0 g - 1000 g dan ortiq.

Qadoqlangan xomashyodan namunalar yuqorida ko'rsatilgani kabi olinadi. Qadoqlangan xomashyo turkumlab (10 t dan oshmagan holda) qabul qilinadi.¹²

10.2. Fitopreparatlar tahlili

Damlama va qaynatmalar – bu quruq yoki suyuq ekstrakt (konsentrat) lar, dorivor o'simliklardan tayyorlangan suvli ajratmalardir.

Damlama va qaynatmalar agar dorivor o'simlik miqdori ko'rsatilmagan bo'lsa 1:10 nisbatda, valeriananing ildizlaridan, adonis o'tidan 1:30 nisbatda tayyorlanadi.

Tarkibida kuchli ta'sir etuvchi moddalar saqlovchi dorivor o'simliklarning damlama va qaynatmalari ekstrakt (konsentrat) lardan 1:400 nisbatda tayyorlanadi.


rangli ajratmalardir.

Tindirmalarni olishda turli usullardan foydalilanadi: matseratsiya, kasrli matseratsiya, perkolyasiya va b.

Tindirmalar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilinadi:

- spirit miqdori yoki zichligi;
- quruq qoldiq;
- og'ir metallar;
- ta'sir etuvchi moddalar (xususiy maqolada ko'rsatilgan bo'ladi).

¹² Йоахим Эрмер, Джон Х., Мак Б., Миллер. Валидация методик в фармацевтическом анализе. Примеры наилучших практик, 1-е изд.: Пер. с англ. - М. : Группа компаний ВИАЛЕК, 2013-512с



Quruq qoldiqni aniqlash

5 ml nastoyka (tindirma) og‘irligi oldindan o‘lchangan byuksga solinadi, suvli hammomda quruq qoldiqgacha bug‘latiladi, $102,5\pm2,5$ °S haroratda ikki soat davomida quritiladi. Eksikatorda 30 min sovutiladi va og‘irligi o‘lchanadi.

Og‘ir metallarni aniqlash

5 ml nastoyka quruq qoldiqgacha quritiladi, 1 ml konsentrangan sulfat kislota qo‘sib asta-sekin yondiriladi, kuydiriladi. Qoldiq qaynab turgan 5 ml to‘yingan ammoniy atsetat eritmasi bilan ishlanadi, kulsiz filtr qog‘oz orqali filtrlanadi, 5 ml suv bilan yuviladi va filtratning hajmi 100 ml gacha etkaziladi; 10 ml hosil bo‘lgan eritma og‘ir metallarga sinovdan o‘tkaziladi. Og‘ir metallar miqdori 0,001% dan oshmasligi kerak.

Buning uchun 10 ml tarkibida og‘ir metallar saqllovchi etalon eritma va 10 ml tekshiriluvchi eritmalarga 1 ml dan suyultirilgan sırka kislotasi, 1–2 tomchidan natriy sulfidi eritmasidan solinadi, 1 minutdan keyin eritmalar bir – biri bilan solishtiriladi. Solishtirish oq fonda vertikal xolda olib boriladi. Tekshirilayotgan eritmada hosil bo‘lgan rang etalon eritma rangidan oshmasligi kerak.

Ekstraktlar – o‘simlik xomashyosidan olingan konsentrangan ajratmalardir. Ekstraktlar 3 xil bo‘ladi:

1. Suyuq ekstraktlar – Extracta fluida;
2. Quyuq ekstraktlar – Extracta spissa (namligi 25% dan oshmasligi kerak);
3. Quruq ekstraktlar – Extracta sicca (namligi 5% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak).

Ekstraktlar sifati tarkibidagi ta’sir etuvchi moddasi, og‘ir metallar, suyuq ekstraktlar tarkibidagi spirit miqdori yoki zichligi, quruq qoldiq miqdori, quyuq va quruq ekstraktlar esa namligi va tarkibidagi biologik faol birikmalari bo‘yicha baholanadi.

Quruq qoldiqni aniqlash

5 ml suyuq ekstrakt og‘irligi oldindan o‘lchangan byuksga solinadi, suvli hammomda bug‘latiladi, 3 soat davomida $102,5\pm2,5$ °S haroratda quritiladi, so‘ngra eksikatorda sovutiladi (30 min) va og‘irligi o‘lchanadi.

Namlikni aniqlash

0,5 g (aniq og‘irlilik) preparat $102,5\pm2,5$ °S haroratda 5 soat davomida quritgichda quritiladi, so‘ngra 30 minut davomida eksikatorda sovutiladi va og‘irligi o‘lchanadi.

Og‘ir metallarni aniqlash

1 ml suyuq ekstraktga yoki 1 g quyuq yoki quruq ekstraktga 1 ml konsentrangan sulfat kislota qo'shib, asta – sekin yoqiladi, kuydiriladi.

Qoldiq ammoniy atsetatning 5 ml to'yingan eritmasi bilan ishlanadi, kulsiz filtr qog'oz orqali filtrlanadi, 5 ml suv bilan yuviladi va filtrat hajmi 20 ml gacha etkaziladi. Tayyorlangan eritmadan 10 ml olib og'ir metallarga sinov o'tkaziladi (0,01% dan oshmasligi kerak).

Mavzu yuzasidan savollar

1. Dorivor o'simlik preparatlari tahlilining o'ziga xos tomonlari
2. Dastlabki xom ashyo spetsifikatsiyasi
3. Dorivor o'simlik xom ashyoning seriyasidan namunalar olish
4. Fitopreparatlar tahlili
5. Dorivor o'simlik xom ashyosi tahlilida xromatografiya usullari
6. Fitopreparatlar sifatini baholashda optik tahlil usullari

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

11-MAVZU: ME'YORIY HUJJATLARNI METROLOGIK EKPETIZASINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI

REJA:

1. Metrologik ekspertizadan o'tishi kerak bo'lgan hujjatlar
2. Metrologik ekspertizaning asosiy vazifalari
3. O'lchovlar aniqligiga qo'yilgan talablar

Tayanch iboralar: *Metrologik ekspertiza, o'lchovlar aniqligi, texnologik reglamentlar, standart operatsion jarayonlar (SOP), instruksiyalar.*

Me'yoriy hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish dori vositalarini ishlab chiqish va chiqarishni metrologik ta'minlashni takomillashtirishda, aniqlik va bir xillikni ta'minlovchi o'lchovlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O'z vaqtida va sifatli o'tkazilgan metrologik ekspertiza xatoliklarni topish va ularni o'z vaqtida yo'qotishga, hamda metrologik me'yor va qoidalarni buzish bilan ishlab chiqilayotgan texnik echimlar hujjatlariga kirib borishga imkon beradi.

Me'yoriy hujjatlarning metrologik ekspertizasi - bu o'lchanayotgan parametrlarni tanlash bo'yicha texnik echimlarni tahlil qilish va baholash, o'lchovlar aniqligiga talablarni o'rnatmoq, o'lchovlar vositalari va usullarini tanlash, ularga metrologik xizmat ko'rsatish demakdir.

Me'yoriy hujjatlarning metrologik ekspertizasi texnologik va loyihibiy hujjatlarni ishlab chiqishni metrologik ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan kompleks ishlarning bir qismi xisoblanadi. Metrologik ekspertizada xato yoki noto'g'ri qabul qilingan qarorlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Metrologik ekspertizada metrologik nazorat olib boriladi, unga ko'ra me'yoriy hujjat aniq metrologik talablarga mos kelishi tekshiriladi. Masalan, fizik kattaliklarni ifodalari, nomlanishi, metrologik terminlar va b.

Metrologik ekspertizaning maqsadi bu metrologik ta'minlashning samaradorligini oshirish, umumiy va aniq talablarni oqilona usullar va vositalar bilan bajarishdir.

Me'yoriy hujjatlarning metrologik ekspertizasi hujjatlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va qaytadan ko'rish jarayonida tashkilotning (korxona) metrologik xizmati, metrologiya bo'yicha asosiy tashkilot (me'yoriy hujjatni kelishish vaqtida) tomonidan olib boriladi. Ekspertiza 10 kun ichida olibborilishi kerak. Barcha ishalb chiqilayotgan va qayta ko'rib chiqilayotgan hujjatlar ekspertizadan o'tkazilishi kerak.

Murakkab texnologik ob'ekt uchun mo'ljallangan hujjat kelib tushganda ekspertiza o'tkazish bo'yicha korxonaning rahbari tomonidan mutaxassislar guruhi tashkil etiladi. Guruxga metrologik xizmat vakillari ham jalb etiladi.

Birlamchi ekspertiza o'tkazilganda ishlab chiqaruvchiga tanqidiy muloxazalar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ro'yxati beriladi. Oxirgi ekspertizada esa hujjatni tasdiqlashdan avval bosh metrolog tomonidan imzolanadi va ekspert xulosasi rasmiylashtiriladi.

Ekspertizaga tushgan hujjat ro'yxatdan o'kaziladi. Agar ekspertiza vaqtida hujjatga o'zgartirishlar kiritilsa ular ham ekspertizadan o'tkaziladi.

Ekspertiza vaqtida ekspert:

- talablarga javob bermaydigan hujjatlarni ishlab chiquvchilarga qaytarib berish;
- ishlab chiquvchilardan qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni so'rash;
- metrologik ta'minlash qismida texnik echimlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;
- xatoliklar va metrologik norma va qoidalarni buzilish holatlarini tuzitish, va kerak bo'lganda hujjatni qayta ishlab chiqishga qaytarish huquqiga ega.

Ekspertiza vaqtida ekspert majburiyati:

- metrologik gorma va qoidalalar belgilab berilgan amaldagi davlat standartlaridan va yuoshqa me'yoriy hujjatlardan foydalanishga;
- metrologik ekspertizaning vazifalarini bilishi, ularni hal etish ko'nikmalariga ega bo'lishi, aniq hujjatni ko'rish vaqtida muhim savollarni aniqlashni bilishi, asosiy metrologik qoidalalar, metrologik huquqiy va metodik hujjatlarni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;
- metrologik ta'minlash bo'yicha texnik echimlarni ishlab chiqishda amaliy yordam berish;
- xatoliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ro'yxatini olib borish, ekspertizadan o'tgan hujjatlarni imzolash.

Ishlab chiqaruvchi va ekspert o'rtasidagi kelishmovchiliklar korxona-ning texnik rahbari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Hujjatlarni o'z vaqtida yetkazib berish javobgarligi hujjatni ishlab chiqqan bo'limlar rahbarlariga, ularni o'z vaqtida va siqatli ko'rib chiqish esa bosh metrolog zimmasiga yuklatiladi.¹³

11.1. Metrologik ekspertizadan o'tishi kerak bo'lgan hujjatlar

1. Texnik topshiriqlar. Konstruksiya, texnologiya, boshqarish tizimi va boshqa ob'ktlarni ishlab chiqish jarayonida metrologik ta'minlash bo'yicha dastlabki ma'lumotlar tahlil qilinadi. Agar mazkur hujjatda o'lchov parametrlar nomenklaturasi va ularni o'lchash aniqligiga qo'yilgan talablar ko'rsatilgan bo'lsa, ekspert ularning optimalligi va ta'minlanish imkonini baholashi kerak.

2. Ilmiy –tadqiqot ishlari to'g'risidagi xisobotlar (ITI), texnik loyihamaga tushuntirish xati, tadqiqotlar bayonnomasi.

Ushbu hujjatda (ITI, tushuntrish xati, texnik loyihamalar) o'lchashlar usullari (shu jumladan natijalarga ishlov berish), o'lchash kattaliklari, foydalilaniladigan o'lchov vositalari, o'lchash xatoliklari, o'lchov vositalarini kalibrovka qilish imkonini kabi kattaliklar ekspertiza qilinadi.

Tadqiqotlar bayonnomasida o'lchashlar usullari, o'lchash kattaliklari, foydalilaniladigan o'lchov vositalari, o'lchash xatoliklari, o'lchov vositalari bayon etilmaydi, ammo mos ravishda me'yoriy va metodik hujjatlarga havola beriladi.

3. Texnik shartlar, standartlar loyihamari, validatsiya bo'yicha hujjatlar (GMP qoidalari doirasida). Bunda metrologik talablar, usullar va metrologik ta'minlash vositalari kabi vazifalar hal etiladi.

4. Ekspluatatsion va remont bo'yicha hujjatlar.

1. ¹³ Quality assurance of pharmaceuticals : a compendium of guidelines and related materials. Vol. 2, Good manufacturing practices and inspection. – 2nd ed. 2010 y.

Ushbu hujjatlarda o'lhash usullari va vositalarining aniqligi va qiyinchiligi ekspertiza qilinadi. Ekspertiza vaqtida o'lhashlarning ishlab chiqish va foydalanish sharoitlaridagi farqlari inobatga olinishi kerak.

5. Sinovlar rejalarini va usullari.

Ushbu hujjatlarda o'lhashlar usullari (shu jumladan natijalarga ishlov berish), o'lhash kattaliklari, foydalaniladigan o'lchov vositalari, o'lhash xatoliklari, o'lchov vositalarini kalibrovka qilish imkonni kabi kattaliklar ekspertiza qilinadi. Usullarda xatoliklarni oldini olish choralar keltirilgan bo'lishi kerak.

6. Texnologik reglamentlar, standart operatsion jarayonlar (SOP), instruksiyalar.

Mazkur hujjatlarda o'lchovlarni bajarish uslubi keltirilishi mumkin. Texnologik reglamentlarda nazoratga olinishi kerak bo'lgan parametrlar, ularning nominal qiymatlari va o'lhash diapazonlarining chegaralari (nominal qiymatlardan ruxsat etilgan chetlanishlar), aniqlikning turlari, sinfi va o'lchov vositalarining o'lhash chegaralari (chegaralar ko'rsatilishi mumkin) ekspertiza qilinadi. Metrologik ekspertizada asosiy ob'ektlar:

- o'lchanayotgan parametrlar nomenklaturasi, o'lhash vositalari va usullaridan oqilona foydalanish mumkinligi;
- o'lhashlar aniqligiga qo'yilgan talablarning maqbulligi;
- o'lhash aniqligining talab etilganga mos kelishi.

7. Loyihaviy hujjatlar.

Loyihaviy hujjatlarda metrologik ta'minlashning barcha asosiy masalalari qamrab olingan bo'ladi. Shuning uchun metrologik ta'minlashning barcha asosiy masalalari ekspertiza qilinadi.

11.2. Metrologik ekspertizaning asosiy vazifalari

Metrologik ekspertizaning asosiy 2 ta vazifasi mavjud: nimani va qanday aniqlikda o'lhash kerak. Metrologik ta'minlashning samaradorligi mazkur savollarni to'g'ri va oqilona echish bilan bog'liqidir. Undan ham kam bo'limgan ahamiyatga ega - bu o'lchovlarni bajarish usullari va o'lchov vositalrini tanlash xisoblanadi.

O'lchanayotgan parametrlar nomenklaturasining optimalligini baholash

O'lchanayotgan parametrlar mahsulot, texnologiya, boshqarish tizimlarining dastlabki hujjatlari asosida aniqlanadi.

Mahsulot standartda (reglament, Tsh va b.) uning xususiyatlari, nazorat usullari bo'limida esa nazorat etiluvchi parametrlar ko'rsatiladi. Agar bunday dastlabki talablar bo'limasa, u holda o'lchanayotgan parametrlar nomenklaturasini tahlil qilishda quyidagi tamoillardan foydalaniladi:

- tayyor mahsulot uchun sifatini ta'minlovchi asosiy xususiyatlarni nazorat qilish kerak bo'ladi, uzuksiz ishlab chiqarishda esa shuningdek mahsulot soni ham;

- texnologik jixozlar, nazorat tizimi va texnologik jarayonlarni boshqarishda havfsizlikni belgilovchi parametrlarni o'lhashni, unumdorlik va tejamkorlik bo'yicha tartibning optimalligi, zaharli chiqindi va oqava suvlardan ekologik himoyani amalga oshirish kerak.

Texnologik jarayonda parametrlarning o'zaro bog'liqligi katta ahamiyatga ega. Muhim bo'limgan parametrlar uchun bunday bog'liqlikdan o'lchanayotgan parametrlarning sonini kamaytirishda foydalanish mumkin. Ahamiyatli bo'lganlari uchun esa bu bog'liqlikdan o'lchovlar aniqligi va o'lchov tizimlarining ishonchlilagini oshirishda foydalanish mumkin.

O'lchanayotgan parametrlar nomenklurasini tahlili qilishda o'lchov kattaligi haqidagi ko'rsatmalarining aniq ravshanligiga e'tibor beriladi, chunki noaniqliklar kutilmagan xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Agar o'lchov vositalari jarayon (tarmoqda tokning borligi yoki yo'qligi, taromoqdagi bosim, va b.) xolatini qayd etish uchun indikator sifatida ishlatilayotgan bo'lsa, bu holatlarda boshqa mos analizatorlar bilan almashtiriladi va o'lchovlar olib borilishi shart emas.

11.3. O'lchovlar aniqligiga qo'yilgan talablar

Agar me'yoriy hujjatlarda o'lchovlar aniqligiga talablar qo'yilmagan bo'lsa, u holda ekspertiza qilishda quyidagi qoidalardan foydalaniladi:

O'lchovlar xatoliklari mahsulotni ishlab chiqarish va nazorat qilishda noxush oqibatlar manbai bo'lishi mumkin. O'lchovlar aniqligini oshirish noxush oqibatlarni kamaytiradi. Noxush

oqibatlarni kamaytirish qo'shimcha sarf-xarajatlar bilan bog'liq: o'lchovlarni amalga oshirish, boshqa o'lchovlar vositalaridan foydalanish.

O'lchovlar aniqligiga qo'yilgan talablarning to'g'riliqi va to'liqligini baholash. Parametrlarni to'g'ridan – to'g'ri (bevosita) o'lhash xatoliklari amalda ishchi xolatdagi o'lchov vositalarining xatoligiga teng.

Parametrlarni bilvosita o'lhashda esa o'lchov vositalarining xatoliklari o'lhash xatoliklarining bir qismi deb xisoblanadi, chunki bu erda yana metodik taraflari ham mavjud.

Qancha o'lchov vositasi aniq bo'lsa, shuncha sarf –xarajatlar, shu jumladan o'lchov vositasining metrologik xizmatlari ham shuncha katta bo'ladi.

Berilgan talablarga o'lhashlar aniqligining mos kelishini baholash. O'lchov lar xatoligi keltirilgan hujjatda belgilangan bo'lishi kerak, agar berilmagan bo'lsa u xolda xisoblash yo'li bilan topiladi.

O'lchovlar xatoliklariga ta'sir ko'rsatadi:

- o'lchov vositalarining metrologik xususiyatlari;
- o'lchovlar sharoiti;
- o'lchovlarga tayyorlash va o'lchovlarni o'tkazish, olingan natijalarga ishlov berish algoritmi.

O'lchov vositalarini metrologik xizmatdan o'tkazishda o'lchovlarning yagonaligini ta'minlashning Davlat tizimi hujjatlarida keltirilgan tekshirish usullari va vositalaridan foydalaniladi.

Tanlab olingan o'lchov usullari va vositalarining muvofiqligini baholash quyidagi xususiyatlari asosida olib boriladi:

- belgilangan sharoitda o'lchov vositalaridan foydalanish imkon;
- o'lchov jarayonlarining og'irligi va tannarxi;
- statistik nazorat usullaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi;
- o'lchov vositalari unumdorligining texnologik asboblar unumdorligiga mosligi;
- texnik havfsizlik qoidalariga rioya qilish;
- metrologik xizmatning og'irligi va tannarxi.

Odatda me'yoriy hujjatlarda standartlangan va attestatsiyadan (validatsiya) o'tgan usullar keltiriladi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Dori vositalari sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar
2. Me'yoriy hujjatlarni metrologik ekspertizasini tashkil qilish
3. Me'yoriy hujjatlarni metrologik ekspertizasini o'tkazish tartibi
4. Metrologik ekspertiza maqsadi
5. Metrologik ekspertizaning asosiy vazifalari
6. Ekspert majburiyati
7. Metrologik ekspertizadan o'tishi kerak bo'lgan hujjatlar
8. O'lchovlar aniqligiga qo'yilgan talablar
9. O'lchovlar aniqligiga qo'yilgan talablarning to'g'riliqi va to'liqligini baholash
10. Berilgan talablarga o'lhashlar aniqligining mos kelishini baholash

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamонавиъ тahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

12- MAVZU. STERIL FARMATSEVTIK MAXSULOTLARNING SIFATINI NAZORAT QILISH

Reja:

1. Steril mahsulotlarni ishlab chiqarish zonalari
2. Parenteral dori vositalari turlari
3. In'eksion dori shakllari spetsifikatsiyasi
4. Suvga qo'yilgan talablar

Tayanch iboralar: *Steril mahsulot, parenteral dori vositalari, in'eksion dori shakllari spetsifikatsiyasi.*

Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayoniga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda mikroorganizmlar kontaminatsiyasi, zarrachalar va pirogenlar bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Steril dori vositalarining sifatini ta'minlash ular uchun mufassal ishlab chiqilgan va validatsiyadan o'tgan texnologiya va protseduralariga bog'liqdir. Mazkur vazifalarni bajarish uchun yuqori malakali xodimlar zarur bo'ladi.

Steril dori vositalari toza joylarda (zona) ishlab chiqariladi. Toza joylarga xodimlar, materiallar, jixozlar, xom ashyo va b. havo shlyuzlari orqali kiritiladi. Toza joylarning havosi filtrlangan bo'lishi va talab darajasida toza bo'liishi kerak. Komponentlar, mahsulotni tayyorlash va idishlarni to'ldirish toza joylardagi alohida ajratilgan joylarda olib boriladi. Texnologik jarayonlar 2 ta kategoriyaga bo'linadi: birinchisi, bunda mahsulot birlamchi o'ramda sterillanadi (finish sterillash), va ikkinchisi - barcha jarayonlar aseptik sharoitda olib boriladi..

12.1. Steril mahsulotlarni ishlab chiqarish zonalari

Steril mahsulotlarni ishlab chiqarishning toza zonalari ishlab chiqarish sharoitiga qarab tasniflanadi. Har ishlab chiqarish jarayoni ma'lum darajadagi tozalikni (xom ashyo, materiallar va mahsulotda kontaminatsiya zarrachalari yoki mikroorganizmlarning iloji boricha bo'lmasligi) talab etiladi. Ishlab chiqarishning "jixozlangan"(toza xonalar qurilgan va ishlaydi, asbob -uskunalar bilan to'liq jixozlangan, lekin xodimlar yo'q) va "ishga tushirilgan" («ekspluatiruemoe», toza xonalar qurilgan va ishlaydi, asbob -uskunalar bilan to'liq jixozlangan, lekin xodimlar mavjud) xolatlari mavjud. Ularning ikkisiga ham tozaligi bo'yicha talablar belgilab qo'yilgan.

Toza joylar 4 ta sinfga bo'linadi:

A sinfi – lokal zona, mahsulot sifatiga yuqori darajada havf-xatar mavjud, jumladan to'ldirish, tinqinlar bilan yopish joyi, ampullar i flakonlar ochiq xolatda bo'ladi.

B sinfi – A zonasini o'rab turuvchi zona, aseptik sharoitda tayyorlash va to'ldirish uchun mo'ljallangan.

C va D sinfi – steril mahsulotlarni ishlab chiqarishda eng kam havf-xatar tug'diruvchi jarayonlarni olib borish uchun mo'ljallangan toza zonalari.

Toza bino va toza joylar aerozol zarrachalarning maksimal ruxsat etilgan soniga qarab tasniflanadi.

16 - jadval

Zona	1 kub. m havoda aerozol zarrachalarning maksimal ruxsat etilgan soni			
	Jixozlangan xolatda		ishga tushirilgan xolatda	
	0,5 mkm	5,0 mkm	0,5 mkm	5,0 mkm
A	3 520	20	3 520	20
B	3 520	29	352 000	2 900
C	352 000	2 900	3 520 000	29 000
D	3 520 000	29 000	reglamentlanmagan	reglamentlanmagan

Har bir toza bino va toza joylar ishlayotgan vaqtda albatta doimiy monitoring qilib boriladi. Monitoring olib borish uchun namunalarni olish joyi natijalar va havf-xatarni tahlil qilish asosida

tanlanadi. Aseptik jarayonlarni olib borishda doimo mikrobiologik monitoring olib boriladi (namunalar havodan sedimentatsion va aspiratsion usullar yordamida, jixozlar yuzasidan esa tampon bilan yuvish va kontakt plastinlar yordamida). Monitoring natijalari seriya uchun dose tuzishda (mahsulotni chiqarishga ruxsatnomalar olishda) inobatga olinadi. Havf-xatar tug‘diruvchi jarayonlarni bajargandan so‘ng albatta yuzalar va xodimlar monitoring qilinadi. Shuningdek, tozalash va dezinfeksiya tizimlari validatsiya qilingandan so‘ng qo‘srimcha mikrobiologik monitoringdan o‘tkaziladi. Ba’zi xollarda ishlab chiqarishda havf-xatarni kamaytiruvchi izolyasiyalangan texnologiyadan foydalaniladi.

Birlamchi o‘ramlar komponentlarini tayyorlash va boshqa maqsadlar uchun belgilangan materiallar D sinfiga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarish zonalarida, mahsulotlar bilan to‘ldirish esa S sinfiga mansub muxitda olib boriladi.

Kontaminatsiya yuqori bo‘lishi mumkin bo‘lgan sharoitlarda, ya’ni to‘ldirish jarayoni juda sekinlik bilan olib borilsa, yoki idishlarning bo‘g‘izi katta bo‘lsa yoki ularni yopishdan oldin 1 necha daqiqa ochiq xolatda ushlab turish talab etilgan xollarda (havf-xatar yuqori) to‘ldirish jarayoni A sinfiga mos joylarda olib boriladi. Surtma, krem, suspenziya va emulsiyalar sterillashdan oldin odatda S sinfiga mos sharoitda tayyorlanadi va qadoqlanadi.

Birlamchi o‘ramlar komponentlarini tayyorlash va boshqa maqsadlar uchun belgilangan materiallar bilan olib boriladigan operatsiyalar yuvilgandan so‘ng D sinfiga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarish zonalarida, mahsulotlar aseptik sharoitlarda tayyorlangan bo‘lsa to‘ldirish va ishlov berish jarayonlari A sinfiga mansub zonada va V sinfiga mansub muxitda olib boriladi.

Toza zonalarda minimal miqdorda kerak bo‘ladigan xodimlarning bo‘lishi talab etiladi. Barcha xodimlar (xatto tozalash, texnik xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar ham) steril dori vositalarini ishlab chiqarish savollari, shaxsiy gigiena va mikrobiologiya asoslari yuzasidan instruktajlardan o‘tib turishlari va doimiy malakalarini oshirib borishlari lozim. Kiyinish, yuvinish, ko‘cha kiyimlarini ishlab chiqarish zonalarida kiymaslik kabi vazifalar yo‘riqnomalar asosida olib boriladi.

Har bir xodim toza yuvilgan va sterillangan kiyimlar, qo‘lqoplar va maskalarda (ular har smenada almashtirib turiladi) ishlashi talab etiladi.

Steril dori vositalarini ishlab chiqarish korxonalarida jixozlar, xizmat ko‘rsatish xonalari toza va sterillangan, dezinfeksiyalangan bo‘lishi, yuvish va dezinfeksiya uchun mo‘ljallangan vositalar yo‘riqnomalar asosida mikrobiologik tozalikga tekshirilgan va sterillangan bo‘lishi kerak.

Suv olish manbasi, suvni tayyorlash uchun mo‘ljallangan jixozlar va olingan suv kimyoviy va biologik kontaminantlarga, kerak bo‘lganda endotoksinlarga tekshirib borilishi va monitoring qilinishi hamda hujjatlashtirilishi kerak.

Agar mahsulotni (oxirgi o‘ramda) sterillash mumkin bo‘lmasa, u xolda eritmalar yoki suyuqliklar steril filtr (poralarning nominal kattaligi 0,22 mkm) orqali filtrlanadi.

Parenteral mahsulotning birlamchi qadog‘i individual (har biri) (poshtuchno) mexanik zarrachalarga (yot aralashmalarga) belgilangan yorug‘lik darajasida va ishchi soha fonida vizual nazoratdan muntazm o‘tkaziladi va rasmiylashtiriladi.

Tayyor mahsulotlar sterillikga validatsiyadan o‘tgan usullar yordamida tekshiriladi.

Sterillik sinovlarini o‘tkazish uchun tanlab olingan namunalar barcha seriya uchun reprezentativ bo‘lishi, va seriyaning eng ko‘p havf-xatar keltirishi mumkin bo‘lgan qismidan olingan namunalarni saqlashi keark, jumladan:

a) aseptik sharoitda to‘ldirilgan mahsulotlar uchun, olingan namunalar seriyani ishlab chiqarishdagi to‘ldirish jarayoni olib borilgan avvaligi va oxiridagi konteynerlarni (birlamchi qadoqlar) o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak;

b) termik sterilizatsiyadan o‘tgan mahsulotlar (oxirgi qadoqda yoki o‘ramda) uchun namunalar yuklashning eng sovuq bo‘limidan olinishi kerak.

12.2. Parenteral dori vositalari turlari

Parenteral dori vositalariga suvli va suvsiz eritmalar, suspenziya, emulsiya va quruq moddalar (kukunlar, g‘ovak massalar, tabletkalar) kiradi. Quruq moddalarini ishlatishdan oldin steril erituvchida eritiladi. Hajmi 100 ml va undan ortik bo‘lgan parenteral eritmalar infuzion eritmalariga kiradi.

Parenteral dori vositalari steril bo‘lishi, tarkibida mexanik aralashmalarni saqlamasligi, pirogenlik va toksikologikligi (zaharlilik) bo‘yicha barcha talablarga javob berishi kerak. In’eksion dori preparatlari izotonik, izogidrik va izoinik bo‘lishi lozim. In’eksion eritmalarini tayyorlashda in’eksiya uchun suv, moylar, etiloleat, shuningdek ular bilan birgalikda etil spirti, glitserin, propilenglikol, benzilbenzoat va boshqa erituvchilar ishlataladi.

Parenteral dori preparatlarni tayyorlashda konservantlar, antioksidantlar, stabilizatorlar, emulgatorlar va boshqa yordamchi moddalaridan foydalaniлади. Masalan, askorbin, xlorid, vinotosh, limon, sırka kislotalari, natriy karbonat, natriy gidrokarbonat, o‘yuvchi ishkorlar, natriy yoki kaliy sulfit, bisulfit yoki metabisulfit, natriy tiosulfat, fenol, butanol, rongalit va boshqalar.

- Yordamchi moddalar qo‘shilayotganda agar xususiy maqolada ko‘rsatilmagan bo‘lsa, krezol, fenol, xlorbutanolning miqdori 0,5% gacha, kaliy yoki natriy metabisulfit, sulfit yoki sulfit angidridining esa 0,2% gacha bo‘lishi mumkin.

- In’eksion eritmalar in’eksiya uchun suv yoki xususiy maqolada ko‘rsatilgan erituvchi bilan solshtirilganda, agar boshqa ko‘rsatmalar bo‘lmasa tiniq bo‘lishi kerak.¹⁴

12.3. In’eksion dori shakllari spetsifikatsiyasi

In’eksion dori shakllari (in’eksiya uchun eritmalar, suspenziya, emulsiyalar) quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha DF XI ning “In’eksiya uchun dori shakllari” maqolasi va xususiy maqolalarda keltirilgan talablarga binoan tahlil kilinadi:

- tashqi ko‘rinishi (tavsiflanishi);
- sterillash va quyish shartlari;
- chinligi;
- tiniqligi;
- rangliligi;
- kislotaligi yoki ishqoriyiligi, pH va mexanik aralashmalar;
- zichligi;
- qovushqoqligi;
- yot moddalar;
- osmolyarligi;
- to‘ldirilish hajmi (ampula, flakon va b);
- pirogenligi yoki bakterial endotoksinlar (LAL test);
- toksikligi (zaharliligi);
- sterilligi;
- zarrachalar kattaligi (suspenziyalar uchun);
- miqdoriy tahlil;

In’eksiya uchun ishlataladigan quruq dori shakllari quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil qilinadi:

- tashqi ko‘rinishi (tavsiflanishi) chinligi;
- o‘rtacha og‘irligi va og‘irligi bo‘yicha bir xilligi;
- tiniqligi;
- rangliligi;
- kislotalik yoki ishqoriyiligi, pH va mexanik aralashmalar, yot moddalar;
- pirogenligi yoki bakterial endotoksinlar (LAL test);
- toksikligi (zaharliligi);
- xloridlar, sulfatlar va b.
- kuritgandagi massaning yo‘qolishi yoki suv (K.Fisher usulida aniqlanadi);
- idishdagи dori modda og‘irligi (ampula, flakon va boshqalar);
- sulfat kuli va og‘ir metallar, sterilligi;
- dozalar bir xilligi;
- miqdoriy tahlil;

1. ¹⁴ Стандартизация и контроль качества лекарственных средств : Учебное пособие / Н.А. Тюкавкиной, А.С. Берлянд , Т.Е. Елизарова и др. ; Под ред. Н.А. Тюкавкиной. –М. : ООО «Медицинское информационное агентство », 2008 г.-384с.

Parenteral dori preparatlarning rangi DF X1 nashrida keltirilgan «Suyuqliklarning rangini aniqlash» maqolasi bo'yicha ranglilik etalonlari bilan yoki xususiy maqolada keltirilgan ko'rsatmalar bo'yicha aniqlanadi.

In'eksion eritmalarining idishlardagi hajmi nominal hajmdan ko'p bo'lishi kerak (13-jadval).

17-jadval

Idishlardagi in'eksion eritmalarining hajmi			
Nominal hajm, ml	To'ldirish hajm, ml		To'ldirishni nazorat qilish uchun olingan idishlar soni, ta
	Qovushqoq bo'limgan eritmalar	Qovushqoq (vyazkie) eritmalar	
1,0	1,10	1,15	20
2,0	2,15	2,25	20
5,0	5,30	5,50	20
10,0	10,50	10,70	10
20,0	20,60	20,90	10
50,0	51,0	51,50	5
50,0 dan ko'p	nominaldan 2% ga ko'p	nominaldan 3% ga ko'p	

Hajmi 50 ml gacha bo'lgan idishlardagi nominal hajm kalibrlangan shprits yordamida, 50 ml va undan ko'p bo'lganlarida – kalibrlangan silindrarda $20 \pm 2^0 S$ haroratda aniqlanadi.

Eritmalar hajmi nominal hajmdan kam bo'lmasligi kerak. Parenteral dori vositalari umumiy yoki xususiy maqolalarda keltirilgan usullarda sterillanadi (sterillash DF XI nashr, 2 qism, 187 b, zaharlilik 182 b va pirogenligi 183 b).

shuningdek, bunday dori vositalari mexanik aralashmalarga tekshiruvdan o'tishi kerak.

Quruq parenteral dori vositalarining o'rtacha og'irligi tekshiriladi. Bunda 20 ta ochilgan idishlar 0,001g aniqlikda og'irliliklari alohida-alohida o'lchanadi, idish ichidagi dori moddasi suv yoki maqolada keltirilgan erituvchi yordamida yuviladi, $100-105^0 S$ haroratda 1 soat davomida quritiladi. Idishlar va boshqa vositalarining (qopqoq) yana og'irligi o'lchanadi. So'ngra 20 ta idishning o'rtacha og'irligi va har bir idishdagi dori preparatining og'irligi hisoblanadi.

Har bir idishdagi og'irlilik o'rtacha og'irlikdan jadvalda keltirilgan chetlanishlarga mos kelishi va bu chetlanishlar $\pm 15\%$ dan oshmasligi kerak.

18 - jadval

Bitta idishdagi modda og'irligining chetlanishi	
Idishdagi modda, g	Yo'l qo'yilgan chetlanish, %
0,1 va undan kam	$\pm 10,0$
0,1 dan ko'p va 0,3 dan kam	$\pm 7,5$
0,3 va undan ko'p	$\pm 5,0$

Agar 2 ta idishdagi modda og'irligidagi chetlanish jadvaldagiga mos kelmasayu, lekin $\pm 15\%$ dan oshmasa, unda tekshiruvlar yana 40 ta idishlarda olib boriladi. Bunda topilgan chetlanishlar jadvaldagidan bittasi ham katta bo'lmasligi kerak.

20 ta idishdagi moddaning o'rtacha og'irlilikdagi chetlanishi xususiy maqolada keltirilgan nominal miqdorga nisbatan $\pm 5\%$ gacha bo'lishi kerak. 0,05 g va undan kam og'irlikda dori moddasini saqlaydigan in'eksiya uchun quruq steril dori vositalari va suspenziyalar dozalarining bir xilligiga tekshiriladi.

Tekshirishlar 10 ta idishlarda alohida-alohida xususiy maqoladagi miqdoriy tahlil usullari yordamida olib boriladi. Idishlardagi dori modda miqdori nominaldan $\pm 15\%$ gacha chetlanishi mumkin. Agar har bir idishdan chetlanish $\pm 15\%$ oshib ketsayu, lekin $\pm 25\%$ gacha bo'lsa, unda tekshiruvlar qo'shimcha yana 20ta idishlarda olib boriladi. Bunda har bir idishdagi modda miqdordagi chetlanish $\pm 15\%$ dan oshmasligi kerak.

Suspenziyalar uchun qatlamlar ajralishi tekshiriladi. Bunda agar xususiy maqolalarda boshqa yo'riqlar ko'rsatilmagan bo'lsa, suspenziyalar chayqatib bo'lgandan so'ng qatlamlarning ajralish

vaqt 5 minutdan kam bo‘lmasligi kerak. Suspenziyalar 0840 sonli ignadan shpritsga osongina o‘tish kerak.

12.4. Suvning sifatiga qo‘yilgan talablar

Suvning sifatiga qo‘yilgan talablar turli davatlarda turlicha. Quyida Yevropa, AQSH va Rossiya davatlari suvning sifatiga qo‘yilgan talablar tasnifini ko‘rib chiqamiz.

Yevropada dori vositalarini ishlab chiqarishda foydalanadigan suvning sifatiga qo‘yilgan talablar Yevropa farmakopeyasida (EP) keltirilgan. Unga ko‘ra suv quyidagi turlarga bo‘linadi:

- tozalangan suv;
- yuqori darajada tozalangan suv;
- in’eksiya uchun suv.

Boshqa turdagи suvlardan ham foydalanish mumkin. 19 - jadvalda suvning sifat ko‘rsatkichlari va ularning me’yorlari keltirilgan.

19 - jadval

Suvning sifat ko‘rsatkichlari va ularning me’yorlari

No	Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	Balk formadagi ozalangan suv	YUqori rajada zalangan suv	Balk formadagi in’eksiya uchun suv
1	Mikroblif ifloslanish	KOE*	1 ml da 100	100 ml da 10	100 ml da 10
2	Umumiy organik uglerod JOU-TOS)	mg/l (ppb*)	0,5 (500)	0,5 (500)	0,5 (500)
3	O‘tkazuvchanlik	mkCm/sm 20°S da	4,3	1,1	1,1
4	Nitratlar	ppm**	0,2	0,2	0,2
5	Alyuminiy	ppb**	10	10	10
6	Og‘ir metallar	ppm**	0,1	-	-
7	Bakterial endotoksinlar	ED/ml (IU/ml)	***	<0,25	<0,25

*KOE – koloniya hosil qilish birligi

** ppb- milliardga to‘g‘ri keluvchi qism, ppm - millionga to‘g‘ri keluvchi qism

***<0,25 bakterial endotoksinlarni keyinchalik olib tashlanmagan dializ uchun ishlatiladigan eritmalarini ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan tozalangan suvdan foydalanilganda.

Tozalangan suv (*Purified Water - PW*) – sterillik va apiroganlik talab etilmagan dori vositalari uchun mo‘ljallangan suv. Tozalangan suv ikki xil bo‘ladi: tozalangan suv balk-formada (qadoqlanmagan, ishlab chiqarishda qo‘llaniladi) va tozalangan suv (qadoqlangan o‘ramda).

Tayyorlash usullari: distillyasiya, ion almashinish, qaytar osmos yoki inson uchun mo‘ljallangan suvga qo‘yilgan talablarga javob beruvchi suvdan (ichiladigan suv) olinadigan boshqa usul. Suvning o‘tkazuvchanligi 20 - jadvalda keltirilgan me’yorlardan (tegishli haroratlarda) oshmasligi kerak.

20 - jadval

Suvning o‘tkazuvchanligiga qo‘yilgan talablar va me’yorlari (tegishli haroratlarda)

Harorat, S	0	10	20	25	30	40	50	60	70	75	80	90	10
O‘tkazuvchanlik, kSm/sm	2,4	3,6	4,3	5,1	5,4	6,5	7,1	8,1	9,1	9,7	9,7	9,7	10,

Tozalangan suv (qadoqlangan o‘ramda) uchun yuqorida qayd etilgan ko‘rsatkichlardan tashqari kislotalilik, ishqoriylik, oksidlanuvchi moddalar miqdori, xloridlar, sulfatlar, ammoniy, kalsiy, magniy va quruq qoldiq miqdorlari nazorat etiladi.

Yuqori darajada tozalangan suv (*Highly Purified Water - HPW*) – yuqori biologik sifat talab etiladigan dori vositalarini tayyorlash uchun mo‘ljallangan suv.

Tayyorlash usullari: ikki marotaba qaytar osmos boshqa tan olingan usullar bilan birgalikda, masalan ultrafiltrlash va deionizatsiyalash usullari.

21 - jadval

Yuqori darajada tozalangan va in'eksiya uchun suvning o'tkazuvchanligiga qo'yilgan talablar va me'yorlari (tegishli haroratlarda)

Harorat, S	0	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50	55
O'tkazuvchanlik, kSm/sm	0,6	0,8	0,9	1,0	1,1	1,3	1,4	1,5	1,7	1,8	1,9	2,1
Harorat, S	60	65	70	75	80	85	90	95	10			
O'tkazuvchanlik, kSm/sm	2,2	2,4	2,5	2,7	2,7	2,7	2,7	2,9	3,1			

In'eksiya uchun suv (*Water for Injections - WFI*) – parenteral dori vositalarini tayyorlash uchun mo'ljallangan suv (substansiyalarni eritish yoki suyultirish uchun mo'ljallangan balk - formadagi in'eksiya uchun suv), yoki parenteral qo'llash uchun mo'ljallangan dori vositalari uchun (sterillangan in'eksiya uchun suv).

Balk - formadagi in'eksiya uchun suv (*Water for Injections in bulk - WFI*) - inson uchun mo'ljallangan suvgaga qo'yilgan talablarga javob beruvchi suvdan (ichiladigan suv) olinadigan yoki tozalangan suvdan olingan suv. Olinish usuli – distillyasiya.

Sterillangan in'eksiya uchun suv –(*Sterilized Water for Injections*) – konteynerlarga joylashtirilgan, tiqinlab berkitilgan va issiq sterilizatsiyadan o'tgan balk - formadagi in'eksiya uchun suv. Sterillangan in'eksiya uchun suvning nazorati uchun shuningdek nominal xajmi 10 ml bo'lgan konteynerlarning kislotaliligi va ishqoriyiligi, o'tkazuvchanligi (nominal xajmi 10 ml va undan kam bo'lgan konteynerlar uchun maksimum 25 mkSm/sm va maksimum 5 mkSm/sm nominal xajmi 10 ml dan ko'p bo'lgan konteynerlar uchun), oksidlanuvchi moddalar miqdori, xloridlar, nitratlar, sulfatlar, alyuminiy, ammoniy, kalsiy, magniy va quruq qoldiq, ko'rinxmaydigan zarrachalar, sterilligi va bakterial endotoksinlar miqdorlari nazorat etiladi.

Amerika Qo'shma shtatlarida suvning quyidagi ko'rinishlari qayd etilgan:

- In'eksiya uchun suv (Water for injection - WFI), USP;
- Bakteriostatik in'eksiya uchun suv (Bacteriostatic water for injection);
- Sterillangan ingalyasiya uchun suv –(Sterile water for inhalation) ;
- Sterillangan in'eksiya uchun suv –(Sterile water for Injection);
- Sterillangan irrigatsiya uchun suv –(Sterile water for irrigation);
- Tozalangan suv (Purified water);
- Sterillangan tozalangan suv (Sterile purified water).

18-jadvalda ikki xil suv uchun AQSH ning USP-34 bo'yicha sifat ko'rsatkichlari keltirilgan.

Umumiy organik uglerod (UOU-TOS) va o'tkazuvchanlik USP ga 1996 yilda, Yevropa Farmakopeyasiga esa – keyinroq.

Bugungi kunda Rossiyada suv uchun 2 ta maqola mavjud.

Tozalangan suv. FM 42-2619-97. In'eksiya uchun mo'ljallanmagan dori vositalarini tayyorlash uchun qo'llaniladi. Tiniq, rangsiz, xidsiz va mazasiz suyuqlik. Sifat ko'rstanichlari: rN (5,0 dan 7,0 gacha), quruq qoldiq, qaytaruvchi moddalar, uglerod dioksidi, nitrit va nitratlar, ammiak, xloridlar, sulfatlar, kalsiy, og'ir metallar va mikrobiologik tozaligi (1 ml da mikroorganizmlar 100 dan oshmasligi kerak).

In'eksiya uchun suv. FM 42-2620-97. Olinish usullari: distillyasiya va qaytar osmos. Sifat ko'rstanichlari: rN (5,0 dan 7,0 gacha), quruq qoldiq, qaytaruvchi moddalar, uglerod dioksidi, nitrit va nitratlar, ammiak, xloridlar, sulfatlar, kalsiy, og'ir metallar va mikrobiologik tozaligi (1 ml da mikroorganizmlar 100 dan oshmasligi kerak). Apirogen bo'lishi, antimirkob moddalar va boshqa qo'shimchalar saqlamasligi kerak.

AQSH USP -34 bo'yicha suvning sifat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Tozalangan suv	In'eksiya uchun suv
Umumiy organik glerod (OUU-TOS)	500 ppb (643 moddasi bo'yicha)	500 ppb (643 moddasi bo'yicha)
O'tkazuvchanlik	645 moddasi bo'yicha	645 moddasi bo'yicha
Mikrobi ifloslanish 45 moddasi bo'yicha)	100 KOE/ml	10 KOE/100ml
Bakterial endotoksinlar	-	0,25 TB/ml

Bugungi kunda farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida asosan tozalangan suv (PW), yuqori darajada tozalangan suv (HPW) va in'eksiya uchun suvdan (WFI) foydalilmoqda.

Tozalangan suv nosteril dori shakllarini tayyorlashda, bug' (par) olish uchun, ampula va flakonlarni (oxirgi chayish jarayonidan tashqari) yuvishda ko'llaniladi.

In'eksiya uchun suv esa steril dori vositalarini tayyorlash va birlamchi o'ramlarni (qadoqlar) chayish uchun mo'ljallangan. I'eksiya uchun suv turli davlatlarda turli xil usullarda olinadi, masalan AQSH, Rossiya va Yaponiyada distillyasiya va qaytar osmos usullarida, AQSH va Yaponiyada shuningdek ultrafiltratsiya usulida, Yevropada esa faqat distillyasiya usulidan foydalanish belgilab qo'yilgan.

YUqori darajada tozalangan suv EMEA tomonidan birlamchi o'ramlarni oxirgi marta chayish va attestatsiya (validatsiya) (Note for Guidance on Quality Water for Pharmaceutical Use, CPMP/QWP/158/01, EMEA/CVMP/115/01, 2002 yil) jarayonlari uchun tavsiya etilgan.

Suvning sifati doimiy ravishda nazorat etilib turishi kerak.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayonida sifatini ta'minlash
2. Ishlab chiqarish jarayonining kontaminatsiyasi
3. Steril mahsulotlarni ishlab chiqarish zonalari
4. Toza joylarning sinflanishi
5. Steril dori vositalarini ishlab chiqarishiga qo'yilgan talablar
6. Parenteral dori vositalari turlari
7. In'eksiyon dori shakllari spetsifikatsiyasi
8. In'eksiya uchun ishlataladigan quruq dori shakllariga qo'yilgan talablar
9. In'eksiyon eritmalarining nominal xajmi
10. In'eksiyon dori vositalarini ishlab chiqishda qo'llaniladigan xom va yordamchi vositalar
11. In'eksiyon dori vositalarini ishlab chiqishda qo'llaniladigan suvning sifatiga qo'yilgan talablar
12. Suvning sifatini baholashda qo'llaniladigan tahlil usullari

Foydalilanidigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

13-MAVZU. JIXOZLAR TOZALIGI VA UNI ANIQLASHDA QO'LLANILADIGAN ANALITIK USULLAR

Reja:

1. Jixozlar tozaligi va kontaminatsiya turlari
2. Jixozlarni tozalash usullari
3. Jixozlar tozaligini aniqlashda qo'llaniladigan analitik usullar
4. Jixozlar yuzasidagi kontaminantlar uchun maqbullik mezonini aniqlash

Tayanch iboralar: *Jixozlar tozaligi, jixozlar kontaminatsiyasi, kontaminantlar va kontaminantlar uchun maqbullik mezoni.*

Dori vositalari standartlar asosida ishlab chiqariladi. Mazkur standartlarda dori vositalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va sifatining nazoratiga juda katta talablar qo'yilgan.

Bugungi kunda farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarishni analitik usullarsiz tassavur qilib bo'lmaydi. Analitik usullardan dori vositasini ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida, jumladan texnologiyasi, foydalanimayotgan xom ashyo, oraliq va tayyor mahsulot sifatini baholashda, va nixoyat qo'llanilgan jixozlarning tozaligini aniqlashda foydalaniadi. Dastlabki, oraliq va tayyor mahsulotlarni kontaminatsiyadan saqlash maqsadida jixozlarni tozalash jarayoni olib boriladi, ushbu jarayon dori vositalarini ishlab chiqarishda eng muhim bosqichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Sababi bitta jixozda bitta emas balki bir nacha mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Tozalash jarayonini olib borish uchun avvalo iflos turini aniqlash lozim. Ifloslanish (kontaminatsiya) havoda, jixozda yoki materialda bo'lishi mumkin va u qoldiqlarning ma'lum yuzadagi miqdori (konsentratsiya, xajm, soni) bilan belgilanadi. Amaliyotda tozalik deb havodagi, jixozlar yuzasidagi yoki materiallardagi ifloslanishning eng miqdoriga (qoldiqning me'yordagi konsentratsiyasidan ham past – yaroqlilik me'yori) aytildi.

Ifloslanish (kontaminatsiya) tabiatiga qarab fizikaviy (mexanik zarrachalar), kimyoviy (molekulyar) va biologik (mikroorganizmlar va b.), tarqalishiga qarab tekis va notekis kabi turlariga bo'linadi.

Fizikaviy va kimyoviy ifloslanishlarni yo'qotish uchun yuvish usullaridan, mikroorganizmlar inaktivatsiyasi uchun esa sterillash va dezinfeksiyalash usullaridan foydalaniadi.

Tozalash jarayonini olib borishdan avval jixozlar, mahsulotlar va havoni nima, qanday va qay xolatda ifloslanganligini aniqlash kerak bo'ladi va shundan keyin samarali tozalash usulini taklif etish mumkin.

Kontaminatsiya turlari:

- Ta'sir etuvchi moddalar;
- Parchalanish mahsulotlar;
- Yordamchi materiallar;
- Zarrachalar;
- texnik vositalar;
- yuvish uchun mo'ljallangan vositalar;
- dezinfeksiyalovchi vositalar;
- mikroorganizmlar va pirogenlar.

Tozalash jarayoniga qo'yilgan asosiy talablar aniqlashtirilgan:

- jixoz va asboblar tozalangan, texnik xizmat va sanitar ishlov berishdan o'tgan bo'lishi;
- tozalash va texnik xizmat ko'rshish bo'yicha yozma usullar (tozalashga javobgar shaxs, tozalash bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish rejasи, tozalash jarayonida qo'llaniladigan usul, jixoz va materiallarning batafsil bayoni, oldingi seriyadan qolgan qoldiqlarni tozalash, tozalangan jixozlarni ifloslanishdan saqlash, foydalanshidan avval tozalikni tekshirish)bo'lishi;
- qayd etilgan talablarni bajarilishi bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtirilgan va validatsiyadan o'tgan bo'lishi kerak.

Tozalash jarayonining asosiy hujjati bu validatsiya rejasи va standart operatsion jarayonlardir. Mazkur hujjatlarda tozalash jarayonini qachon, qaerda, qanday qilib va kim tomonidan o'tkazilishi qattiq belgilab beriladi.

13. 2. Jixozlarni tozalash usullari

Tozalash jarayonini 3 xil usulda olib borish mumkin: qo'lda, yarimavtomatlashtirilgan va avtomatlashtirilgan (joyida). Tozalash jarayonida mumkin bo'lman va eng qiyin bo'lgan joylarga ahamiyat berish kerak. Tozalash jarayoni quyidagi xolatlarda olib boriladi: bitta jixozda bir nechta dori vositalarini ishlab chiqarish, bitta dori vositasini lekin turli dozalarda va ma'lum vaqt oralig'ida bitta seriyadagi mahsulotni chiqarish.

Tozalash jarayonini tekshirish uchun namunalar olishning 4 xil usuli mavjud: tampon bilan artish, yuzani yuvish (chayish), erituvchi bilan chayish va platsebo usulida olish.

Tozalash jarayonida qo'llaniladigan analistik usullarga xususiyligi va sezgirligi (aniqlash – LOD va miqdonini aniqlash – LOQ chegaralari), shuningdek ularni ishlatishdan avval validatsiyalanganligi (attestatsiyadan) kabi talablar qo'yilgan.

Analistik usulning sezgirligi qoldiq uchun maqbullik (prielmost) mezonidan past bo'lishi kerak.

23 - jadval

Namunalarni tampon bilan artish usulda olish

Afzalligi	Kamchiligi
Namunani eritadi va to'liq yo'qotadi	Namunani olish vaqtida tampon tolalari shilib qolishi mumkin
Katta yuzalar uchun ham qo'llanilishi mumkin	Tampon materialining turi eritish koeffitsienti xususiyligini kamaytirishi mumkin
Aniq yuza uchun, iqtisodiy jihatdan qulay va ldiy	Namuna olish texnik sabablarga bog'liq
Moddalarning qoldig'i, detergenlar va ikrobiologik qoldiqlarni aniqlash mumkin	Katta jixozlardan va ularning olish qiyin 'lgan joylaridan namunani olish qiyinligi

24 - jadval

Namunalarni yuzani yuvish (chayish) usulda olish

Afzalligi	Kamchiligi
Namunani katta yuzalardan olish imkonini eradi	Analistik tahlil usulining sezgirligini maytiradi
Namunalarni olish oddiy va qulay	Ba'zida namuna xajmi namunani qaysi usulda ish kerakligiga ta'sir etadi, ya'ni namuna rkibidagi aniqlanayotgan kontaminantning iqdori uni aniqlanish chegrasidan ham kichik 'ladi, va bunda namunani quyiltirish kerak yoki shqa sezgir usul tanlash lozim
Zarar etkazmasdan namuna olinadi	Namunalarni olish yuzasini aniqlash kerak, unki ular xisoblash natijalariga va mezonlarga 'sir etadi
Moddalarning qoldig'i, detergenlar va ikrobiologik qoldiqlarni aniqlash mumkin	Namunalarni olish metodologiyasini ishlab iqish kerak, sababi ular natijalarga ta'sir etadi
Namuna olish texnik sabablarga unchalik bog'liq emas	Qoldiqlar jixozning barcha joylarida tekis rqalmagan bo'lishi mumkin
Namunalarni xoxlagan joydan olish imkoni bor	Qoldiq qolgan joyni aniqlash imkoni yo'q
Namunani eritadi va to'liq yo'qotadi On line monitringiga ulab ishlasa bo'ladi	Barcha kontaminantlar suvda yaxshi eriydi deb xmin qilinadi

25 - jadval

Namunalarni erituvchi bilan chayish usulda olish

Afzalligi	Kamchiligi
Substansiyalarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi	Atrof-muxit va xodimlarni ehtiyoj qilish uchun 'shimcha chora-tadbirlar ko'rish kerak

Namunalarni olish texnikasiga bog'liq emas	Namunani bir necha marotaba olishga to'g'ri elishi mumkin
Katta miqdorda qoldiqlarni ajratib olishga imkon beradi	tozalashga to'sqinlik qilishi mumkin – ituvchini yo'qotish
Namunani katta yuzalardan va olinishi qiyin bo'lgan joylardan olish imkonini beradi	Namuna olish yuzasini aniqlashning qiyinligi

26 - jadval

Namunalarni platsebo usulda olish

Afzalligi	Kamchiligi
Platsebo xuddi mahsulotsingari izalar bilan kontaktda bo'ladi	Ifloslanish borligini aniqlash mushkil
Namunalarni olish texnikasiga bog'liq emas	Usulning xususiyigini kamaytiradi va aniqlashga to'sqinlik lishi mumkin
Namunani olinishi qiyin bo'lgan joylardan olish imkonini beradi	Nisbatan uzoq vaqt talab etadi va qimmat, chunki atseboden ham tozalash uchun vaqt ketadi Platseboni tanlash mushkilligi – platseboning tarkibi ahsulot tarkibiga yaqin bo'lishi kerak Platsebo tarkibida qoldiqlar tekis tarqalmagan bo'lishi mumkin Mahsulot bilan kontaktda bo'lgan yuzadagi qoldiqni lvosita anniqlash

Keyingi analistik omil - bu aynan ushbu usul uchun ajratib olish yoki faollik koefitsienti – koefitsient effektivnosti – R (tampon bilan olish usuli). Mazkur koefitsient quyidagicha hisoblanadi.

$$\text{тоилиган} \\ \text{микдор}^*100 \\ \frac{\text{ажратиб олиш}}{\text{коэффициенти, \%}} = \frac{}{\text{юзадаги қолдик микдори}}$$

Faollik koefitsientining mezonlari WHO ning qo'llanmasida keltirilgan.

27 – jadval

Moddani aniqlash foizi	R koefitsienti	Baho
>80	>0,8	Yaxshi
>50	>0,5	Qoniqarli
>50	>0,5	Mavhum

Koeffitsient R >0,7 bo'lganda maqbul hisoblanadi.

13.3. Jixozlar tozaligini aniqlashda qo'llaniladigan analitik usullar

Jixozlar tozaligini aniqlashda qo'llaniladigan analitik usullar xususiy va xususiy bo'lmagan turlarga bo'linadi (jadval).

Xususiy bo'lmagan usullar jixozlarda qolgan qoldiqlarni aniqlashda va validatsiya jarayoni o'tkazilgandan so'ng qo'llaniladi. Xususiy usullar esabitta komponentga sezgir bo'lib, boshqa moddalarni aniqlashga imkon bermaydi. Masalan, reaktorlardagi ta'sir etuvchi modda, bufer eritmalar, detergentlar, erituvchilar va b. Mazkur usullar ta'sir etuvchi moddalarni nazorat qilishda, xususiy bo'lmagan usullar esa – substansiyalar, tayyor dori vositalarini olishning dastlabki jarayonlari va monitoringida ishlataladi.¹⁵

1. ¹⁵ Quality assurance of pharmaceuticals : a compendium of guidelines and related materials. Vol. 2, Good manufacturing practices and inspection. – 2nd ed. 2010 y.

Odatda, xususiy bo'lmagan usullar kombinirlangan xolda ishlatiladi, jumladan pH, elektr o'tkazuvchanlik va umumi organik uglerodning (TOC) miqdorini aniqlash usullarining kombinatsiyasi. Bunda pH ni aniqlash – kislotali va ishqoriy qoldqlarini (in'eksion suvning 20°C da rN 5,0-7,0), elektr o'tkazuvchanlik – anion va kation qoldqlarini, umumi organik uglerod – organik qoldqlarni aniqlaydi, ushbu usul sezgir, tez bajariladi va foydalanishga qulay.

TOC – uglerod va uglerod oksidini katalitik oksidlashga asoslangan, ya'ni barcha qoldqlar ta'sir etuvchi moddaga tegishli deb xisoblanadi. Xuddi eng yomon fursat (naixudo'iy sluchay) tamoiliga o'xshab yoki zaharli moddaga nisbatan xisoblanadi. Agar olingan natijalar qo'yilgan chegaradan past bo'lsa, boshqa xususiy usul bilan aniqlash talab etilmaydi (eng yomon fursatdan foydalanilganda), agar yuqori bo'lsa - xususiy usul bilan aniqlash talab etiladi, ya'ni aniqlangan qoldiq ta'sir etuvchi modda yoki yordamchi modda yoxud detergentmi degan savol tug'iladi.

Elektr o'tkazuvchanlikni aniqlash usuli albatta boshqa xususiy usul bilan kombinatsiya xolida ishlatiladi. Dastlabki va oxrigi yuvishlar orasidagi o'lchashlar in'eksiya uchun suvga elektr o'tkazuvchanlik bo'yicha qo'yilgan farmakopeyaviy talablarga $<1,1\mu\text{s}/\text{cm}(20^{\circ}\text{C})$ mos kelishi kerak. Ishchi diapazon $0,1\text{da}h10\mu\text{s}/\text{cm}(20^{\circ}\text{C})$ غا.

Sirt tarangligini aniqlash usuli sirt faol moddalarni aniqlashda foydalaniladi. Ushbu usulni qo'llashda jixozlar yuzasi yog'sizlantirilishi kerak. 10ppm sirt tarangligini yo'qligini ko'rsatadi, 1ppm dan to 10ppm gacha sirt faol moddalarning miqdorini emas balki faqat borligini ko'rsatadi.

Fermentli tahlil – alohida xususiy tampondan foydalaniladi, ATR va lutsiferon/lutsiferaza orasida ketadigan kimyoviy jarayon bo'lib, reaksiya natijasida biolyuminissent modda hosil bo'ladi, keyinchalik ushbu modda maxsus asboblarda aniqlanadi.

Xromatografik usullar – yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YUSSX), xromatomass - suyuqlik xromatografiyasi, gaz xromatografiyasi va xromatomass - gaz xromatografiyasi. Mazkur usullar yuqori sezgirlikga ega va eng kichik miqdorni aniqlash imkonini beradi. Ba'zi birikmalar bir necha xil usullar yordamida deteksiya qilinishi mumkin.

Yupqa qatlam xromatografiya usuli – sezgrligi boshqa usullarga qaraganda nisbatan past, moddalar ajralgandan so'ng albatta UB nurdan foydalanish kerak bo'ladi.

Ion xromatografiyasi – tez, ammo qimmat, ionlanish tabiatiga ega bo'lmagan moddalarni aniqlash mumkin emas, tarkibida xromofor guruhlarni saqlovchi birikmalarni aniqlash mumkin.

28 -jadval

Xususiy va xususiy bo'lmagan tahlil usullari

Xususiy	xususiy bo'lmagan
YAqin sohadagi IK -spektrofotometriya NIR	Umumi organik uglerodni aniqlash (total organic carbon ,TOC)
O'rta sohadagi IK –spektrofotometriya MIR	rN ni aniqlash
UB-spektrofotometriya	titrlash
Atom adsorbsion spektrofotometriya AAS	Elektr o'tkazuvchanlikni aniqlash
Xromatografiya usullari YUQX, YUSSX, X	Og'irlik (gravimetriya) usuli
Miqdorni ferment-immunosorbsion aniqlash LISA	
Kappilyar elektroforez usuli	

Xususiy va xususiy bo'lmagan tahlil usullarining afzallik va kamchilik tomonlarini ko'rib chiqamiz.

29 - jadval

Xususiy va xususiy bo'lmagan tahlil usullarining afzallik va kamchilik tomonlarini

Nazorat usuli	afzalliklari	kamchiliklari
1	2	3
xususiy bo'lmagan tahlil usullar		

Vizual nazorat	Tez, tejamkor, miqdoriy chegaralarini aniqlash mumkin, sezgir	Sub'ektiv, bo'yoq bilan hlashdan so'ng jixozni sm-larga ajratish talab ilishi mumkin
YUzani to'g'ridan - to'g'ri tahlil qilish (foton-elektron emissiya usuli yordamida)	Tez, tozalikni buzmaydi, barcha ifloslanishlarni ajrativ olish mumkin	Qimmat, namuna ishning xususiy nuqtasi bo'q
rN	Namuna olish shart emas, on line da olib borish mumkin, detergentlarni aniqlash uchun qulay	Xususiy emas, faqat suvda iyidigan moddalar uchun
Umumiy organik uglerod	Aniqlash me'yori past, on line da olib borish mumkin	xususiy emas, faqat suvda iyidigan moddalar uchun, ular-datsiya jarayonini o't-uzish talab etila-di: aniqligi, niq-lash me'yori, chiziq-igi
1	2	3
Mikroskopiya (yorug'lik yoki skaner-elektron mikroskopiya), mass-spektroskopiya bilan birga ishlataladi	Yangi jixozda noma'lum yot noddalarni aniqlaydi, sifat tahlili uchun	miqdoriy tahlil uchun nasa
Og'irlik usuli	Faqat bitta ingrdient saqlaydigan nahsulot ishlab chiqaruvchi katta jixozlar uchun, arzon	validatsiya jarayoni-ni ib borishda xususiy usuldan ydalilanidi
Titrlash usuli	Ingrident va detergantlarni aniqlaydi, arzon va tez	xususiy emas, faqat suvda iyidigan moddalar uchun, ular-datsiya jarayonini o't-uzish talab etila-di: aniqligi, niq-lash me'yori, chiziq-igi, xususiyli-gi, ajratish koefфи-sienti
Xususiy usullar		
Ferment tahlili	Odatta antibiotiklarni aniqlash uchun ishlataladi, yuqori sezgirlikiga ega	qimmat, ishlashga qiyin, validatsiya qilish kerak, usillar denatura-siyasida niq natijalar bermaydi,
YUSSX	Sezgir, xususiy, miqdoriy tahlil o'tkazish mumkin	qimmat, validatsiya rayonini o'tkazish talab iladi: aniqligi, aniqlash e'yori, chiziqliligi, xususiyligi, ajratish koefфи-enti
YUQX	Sezgir, xususiy,	yarim miqdoriy tahlil, validatsiya jarayonini tkazish talab etiladi: xususiyligi, aniqlash e'yori, ajratish koefфиtsienti
Kapillyar elektroforez	sezgir, xususiy, oqsil va aminokislotalar tahlilida	qimmatbaho asbob talab iladi
YAqin sohadagi IK - spektrofotometriya (NIR)	xususiy	qimmatbaho asbob talab iladi
Miqdorni ferment-	protein qoldiqlarini aniqlash	qimmatbaho ishlanma va

mmunosorbsion aniqlash ELISA	uchun, yuqori xususiylik, sezgir	lidatsiya, proteinlar enaturatsiyaga uchrab, enaturatsiya qoldiqlarini niqlash uchun ikkinchi usul umumi organik uglerod iqdorini aniqlash usulidan ydalanish talab etiladi
Atom adsorbsion spektrofotometriya (AAS)	yuqori xususiylik (kuchli ta'sir etuvchi ion yoki neorganik mahsulotlar, metallar, tuzlar uchun), sezgir	Qimmatbaho asbob va lidatsiya
UB - spektrofotometriya	xususiylik, sezgirlik	qimmatbaho asbob va lidatsiya: aniqligi, aniqlash e'yori, chiziqliligi, xususiyligi, ajratish koefitsienti

25 - jadvalda qayd etilgan usullar quyidagi 26 - jadvalda keltirilgan talablar asosida validatsiyalanadi.

30 - jadval

WHO va ICH bo'yicha turli analitik usullar uchun aniqlanishi lozim bo'lgan validatsiya tavsiflari

validatsiya tavsiflari	Identifikatsiya	Yot moddalarni aniqlash			Miqdoriy tahlil
		miqdoriy tahlil	aniqlanuvchi moddaning miqdoriy chegarasi	eritish, faqat iqdorini aniqlash, faolligi	
1	2	3	4	5	
1. To'g'rilik	-	+	-	+	
2. Aniqlik:					
mos kelishi		+	-	+	
laboratoriyalararo aniqligi		+*	-	+*	
3. Xususiyligi **	+	+	+	+	
4. Identifikatsiyalash xegarasi	-	-***	+	-	
5. Miqdorini aniqlash xegarasi	-	+	-	-	
6. Chiziqli bog'lanish	-	+	-	+	
7. Foydalanish diapa-zoni	-	+	-	+	

Eslatma:

"-" ko'pincha tekshirilmaydi;
"+" ko'pincha tekshiriladi;

"* - qaytaruvchanlik tekshirilayotganda, laboratoriyalararo aniqlik talab etilmaydi;

** - xususiyligi kamlik qilganda qo'shimcha tekshiruv olib boriladi;

*** - ba'zi xollarda talab etilishi mumkin.

13.4. Jixozlar yuzasidagi kontaminantlar uchun maqbullik (priemlemost) mezonini aniqlash

Yuqorida takidlaganimizdek, tozalash jarayonini aniqlashda muhim omillardan biri bu jixozlar yuzasidagi bo'lishi mumkin bo'lgan qoldiqlar me'yorini aniqlashdir. Qoldiqlar me'yorini aniqlash

har bir individual ishlab chiqarish jarayonining vaziyatiga bog‘liq. Shuning uchun har bir jixoz uchun qoldiqlar me’yori oldindan belgilangan bo‘lishi kerak.

Uskunalarni tozalash me’yorini aniqlashga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bularga:

- birlamchi ifloslantiruvchi mahsulotning tabiat;
- birlamchi ifloslantiruvchi mahsulotning dori shakli;
- birlamchi ifloslantiruvchi mahsulotning zaharliligi;
- tozalash jarayonidagi birlamchi ifloslantiruvchi mahsulotning eruvchanligi;
- jixozlarni tozalash jarayonining qiyinligi (tozalash qiyin bo‘lgan joylar);
- tozalash jarayonining turi (qo‘l bilan yoki avtomatik yo‘l bilan);
- bitta jixozda tayyorlangan boshqa mahsulotlar tabiat (ifloslantiruvchi moddalar);
- iflos bo‘lgan mahsulotning dori dozasi;
- bitta jixozda tayyorlangan boshqa mahsulotlar partiyasining miqdori (iflos qiluvchi moddalar).

Keyinchalik bir vaqtida bir necha ifloslanish bilan bog‘liq bo‘lgan havf-xatar baholanadi. Tozalash mezonini (qoldiqning ruxsat etilgan miqdorining maqbullik mezoni) xisoblashning bir necha xil usuli mavjud.

1. Vizual usul. Ushbu usuldan barcha farmatsevtik kompaniyalar foydalanadilar.

GMP ning talabiga ko‘ra jixozlarning tozaligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarishdan avval vizual nazoratdan o‘tkaziladi. Ushbu usuldan validatsiyalash vaqtida va validatsiyadan so‘ng ham foydalaniladi. Xullas, jixozning yuzasi ko‘z bilan yorug‘likda ko‘rliganda toza bo‘lishi kerak. Ko‘pincha tozalikni tekshirish uchun xodimlar katta-katta jixozlarning ichiga kiradilar, ba’zi xollarda agar modda fluoressensiya beradigan bo‘lsa, unda UB- lampalardan foydalaniladi. Ba’zi xolatlarda masalan, ishlab chiqarish tizimi yopiq bo‘lsa aksincha, vizual nazoratni o‘tkazish qiyin.

Vizual nazorat yorug‘lik nuri, tozalanayotgan jixozning yuzasi va tavsifi kabi omillarga bog‘liq.

2. Tozalash mezonini (qoldiqning ruxsat etilgan miqdorining maqbullik mezoni) xisoblashning ikkinchi usuli – bu havfsizlik omili va terapevtik dozalar, yoki zaharlilik ma’lumotlari va havfsizlik omillari kombinatsiyasidan foydalanishdir. Ushbu usul ishlab chiqarilgan mahsulotning kunlik (sutkalik) dozasining ma’lum ulushini boshqa mahsulotga tushib qolish imkonini aniqlashga asoslangan. Ushbu usul havfsizlik omiliga bog‘liq xolda kamayib boradi. Bu omil o‘lchovsiz bo‘lib, u havf-xatarni aniqlash omili bo‘lib xizmat qiladi va u bir mahsulotni ikkinchi mahsulot bilan ruxsat etilgan maksimal ifloslanishi uchun aniqlanayotgan mezonni xisoblash vaqtida e’tiborga olinadi. Uning qiymati keyingi ishlab chiqarilayotgan dori vositasining turiga bog‘liq. Ko‘pgina kompaniyalar havfsizlik omilidan foydalanadilar. Odatda mazkur omil har qanday mahsulot terapevtik dozasining 1/10000 dan oshmagan qiymatiga teng (dastlabki mahsulotning minimal kunlik dozasining keyingi mahsulotning maksimal kunlik dozasiga bo‘lgan nisbati 0,1% yoki 1/1000 dan oshmasligi kerak – “0,1% terapevtik dozalar” deyiladi) va boshqa mahsulotning maksimal dozasi tarkibida bo‘lishi mumkin. Bu kunlik terapevtik dozasiga nisbatan 1/10000 miqdorda ishlatiladigan har qanday mahsulot dori vositasini bir xil usulda qabul qilganda bemorga tibbiy va zaharli ta’sir etmaydi. Ta’kidlash joizki, bir vaqtida bir necha modda bilan ifloslanish jarayoni so‘rilishi nisbatan kuchli bo‘lgan dori shakliga o‘tganida bu taxmin ishlamaydi. Masalan, bu taxmin tashqi maqsadlarda qo‘llaniladigan dori shaklidan ichish uchun mo‘ljallangan dori shakliga o‘tganda yaramaydi, yoki ichish uchun mo‘ljallangan dori shaklidan - paraenteral dori turiga o‘tganda. Bu koeffitsient asosan qattiq dori turlari uchun ishlatiladi.

Havfsizlik omilini aniqlashning yana boshqa usuli bir vaqtida bir necha modda bilan ifloslanish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan havf-xatarni xisobga olgan xolda boshqa havfsizlik omillaridan foydalanishdir. Bu har qanday mahsulot terapevtik dozasining 1/10000 nisbati bemorning havfsizligini ta’minalashga etarli emas deganidir. Boshqa xollarda esa bu nisbat etarli bo‘lishi mumkin. Masalan, jixoz yuqori zaharlikga ega bo‘lgan yoki allergiyani davolash uchun mo‘ljallangan mahsulotni ishlab chiqarishda foydalanilgan bo‘lsa, albatta bu nisbat etarli bo‘lmasligi mumkin, agar farmkompaniya faqat tashqi maqsadlar uchun surtma dori chiqarayotgan bo‘lsa, bu nisbat yuqori bo‘lib, u mahsulot tan narxining oshib ketishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu usulda turli havfsizlik omillarining shakalasidan foydalanish mumkin. Shu o‘rinda takidlash

joizki, turli dori shakllari uchun ifloslanish ehtimoli bo‘lgan havf-xatar ifloslanishning haqiqiy chegarasini xisoblashdan avval baholanadi (27-jadval).

31 - jadval

Havfsizlik omili

Aniqlanuvchi moddalar zaharli va allergen	1/100000 dan 1/10000 gacha
Qon tomirga yuboriladigan dori vositalari	1/10000 dan 1/5000 gacha
Ko‘z dori vositalari	1/5000 dan 1/1000 gacha
Peroral dori vositalari (tabletkalar, kapsulalar b.)	1/1000 dan 1/5000 gacha
Mahalliy dori vositalari (krem, maz va b.)	1/100 dan 1/1000 gacha

Qoldiqning ruxsat etilgan miqdorini aniqlash uchun quyidagi ma’lumotlar kerak bo‘ladi:

- preparatning terapevtik dozasi;
- maksimal kunlik dozasi, mg/sut;
- bitta tabletka massasi (kapsula), mg;
- preparat seriyasi uchun taklif etilayotgan minimal ishlab chiqarish xajmi, kg;
- mahsulot bilan kontaktda bo‘lgan jixoz yuzasi.

Jixozlar yuzasidagi kontaminantlar uchun maqbullik (prielmost) mezonini aniqlash va xisoblashni quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, A va V mahsulot ishlab chiqarilmoxda. V mahsulotni qabul qilayotgan bemorda V mahsulotga o‘tgan A mahsulotning qancha miqdori (ruxsat etilgan chegarasi) hali tibbiy ta’sir ko‘rsatmayapti degan savolga javob berish kerak.

V mahsulotga o‘tgan A mahsulotning maksimal ruxsat etilgan miqdori (MACO – allowable carryover into a single daily dose of next product) quyidagi formula orqali xisoblanadi:

$$MACO = \frac{TD_A * SF_B * BS_A}{MDD_B}$$

Bu erda TD_A - A preparatning terapevtik dozasi, mg;

SF_B - V mahsulotning havfsizlik omili;

BS_A - V preparat seriyasining o‘lchovi, mg;

MDD_B - V mahsulotining kunlik maksimal dozasi, mg/sut.

Demak, V mahsulotga o‘tgan A mahsulotning maksimal ruxsat etilgan miqdori 4 ta omilga bog‘liq ekan.

Misol. 5 ta ichishga mo‘ljallangan mahsulot chiqarilmoxda (A, V, S, D va E). Preparatlar bir-biridan terapevtik dozasi, seriyasining o‘lchovi va bitta dozaning massasi bilan farq etadi.

32 – jadval

Preparat nomi	preparatining kunlik aksimal dozasi, mg/sut.	bitta dozaning assasi, mg	seriya o‘lchovi,
Preparat A	10	100	50
Preparat V	30	150	100
Preparat S	100	200	100
Preparat D	200	250	10
Preparat E	250	300	150

A mahsuloti qoldig‘ining maksimal o‘tishi mumkin bo‘lgan miqdori MASO quyidagi formula yordamida xisoblanadi:

$$MACO = \frac{MDD_A * WCdose}{SF_B}$$

Bu erda $WCdose$ -dozalar miqdorining eng yomon fursati (naixudshiy sluchay) yoki guruxdagisi har qadnay mahsulot seriyasining eng kichik o‘lchovi/ guruxdagisi har qadnay mahsulotning eng katta terapevtik dozasi;

SF_B - V mahsulotining havfsizlik omili.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib 5 preparatdan - E mahsuloti uchun (bitta dozaning massasi eng katta-300 mg) va D mahsuloti seriya o'chovi eng kichik (10 kg) uchun dozalar miqdorining eng yomon fursati (naixudshiy sluchay - vorst case) ni topamiz:

$WCdose = 10000000 \text{ mg}/300\text{mg/dose} = 33333 \text{ dose.}$

Eng yomon fursat (naixudshiy sluchay - vorst case) bu bemor tomonidan mazkur jixozda avval ishlab chiqarilgan dori moddasi qoldig'ini maksimal miqdorini saqlagan dori vositasini maksimal miqdorini qabul qilishidir. Yoki mazkur jixozda avval ishlab chiqarilgan dori moddasi qoldig'ini minimal miqdorini saqlagan dori vositasini qabul qilishidir, ushu xolatda qoldiq miqdori minimal bo'lganligi sababli uni olingan namuna tarkibida aniqlash qiyinchilik tug'diradi.

Takidlash joizki, kunlik doza massasi o'z tarkibida barcha yordamchi moddalarni saqlaydi va xisoblashda ular ham qo'shiladi. Bunda MASO quyidagicha xisoblanadi:

$$MACO = \text{mepaneemikdозаA} * (WCdose) / SF = 10\text{mg} * 33333 / 1000 = 333\text{mg}$$

33- jadval

5 ta mahsulot uchun ifloslanishning maksimal o'tishi mumkin bo'lgan miqdorining xisobi

Mahsulot	MASO
Preparat A	333
Preparat V	990
Preparat S	3330
Preparat D	6660
Preparat E	16650

3. Tozalash mezonini (qoldiqning ruxsat etilgan miqdorining maqbullik mezoni) xisoblashning 3- usuli – bu ikkinchi mahsulot tarkibida birinchi moddaning miqdori 10 ppm dan (1 g mahsulotga 10 mkg ifloslanish) oshmagan xolda paydo bo'lishi mumkinligi. Bu usuldan – havf-xatarni baholashda ko'pgina kompaniyalar foydalanadilar. Mazkur usuldan dezinfeksiya va yuvish uchun ishlatiladigan moddalar qoldiqlarini aniqlashda foydalaniladi.

Jixozlarni tozalash jarayoni quyidagi xolatlarda attestatsiyadan (validatsiya) dan o'tkazilishi kerak:

- Yangi jixoz yoki jarayon foydalanishga kiritilganda;
- mahsulot nomenklaturasiga o'zgartirishlar kiritilganda, shu jumladan dori vositalari dozalariga ham;
- tozalik jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi jixozlar va jarayonlarga o'zgartirishlar kiritilganda;
- tozalash usullariga o'zgartirishlar kiritilganda.

Attestatsiya jarayoni jixoz 3 marta tozalangandan so'ng quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi:

- avvalgi mahsulotning ruxsat etilgan miqdorini xisoblash, ya'ni tozalash mezoni;
- namuna olish;
- namuna tahlili;
- ruxsat etilgan miqdorga mos kelishini tekshirish;
- attestatsiya bayonnomasini rasmiylashtirish.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Jori vositalarini ishlab chiqarishda qo'llaniladigan jixozlar tozaligi
2. Kontaminatsiya turlari
3. Jixozlar tozaligini aniqlashda qo'llaniladigan analitik usullar
4. Jixozlar tozaligi va kontaminatsiya turlari
5. Jixozlarni tozalash usullari
6. Jixozlarni tozalashda tampon bilan artish usuli
7. Jixozlarni tozalashning yuzani yuvish (chayish) usuli
8. Jixozlarni tozalashning erituvchi bilan chayish usuli
9. Jixozlarni tozalashda qo'llaniladigan platsebo usuli.

10. Jixozlar yuzasidagi kontaminantlar uchun maqbullik (priemlemost) mezonini aniqlash usullari
11. Jixozlar tozaligini aniqlashda qo'llaniladigan analitik usullar
12. Jixozlar tozaligini aniqlashda qo'llaniladigan xususiy va xususiy bo'lman tahlil usullari.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

14-MAVZU. DORI VOSITALARINI ISHLAB CHIQARISHA BOSHLANG'ICH MATERIALLAR VA QADOQLOV VOSITALARI

Reja:

1. Boshlang'ich materiallar
2. Qadoqlov materiallari
3. Namuna olish va tahlil qilish tartibi
4. Kirish nazoratini o'tkazish tartibi
5. Spetsifikatsiyalar
6. Spetsifikatsiyalardan og'ishlar (chetga chiqishlar)

Tayanch iboralar: *Boshlang'ich materiallar, qadoqlov materiallari, namuna olish va spetsifikatsiyalardan og'ishlar.*

Dori vositalarini ishlab chiqarishda sifatli boshlang'ich (xom ashyo -dori vositasini ishlab chiqarishda qo'llaniladigan har qanday modda) va qadoqlov (o'rash uchun mo'ljallangan) materiallardan foydalaniladi. Ular sterill va sterill bo'lman, tabiiy (o'simliklar, hayvonlar, minerallar asosida olingan), kimyoviy va biologik sintez yo'li bilan olingan bo'lishi mumkin.

14.1. Dori vositalarini ishlab chiqarishda boshlang'ich materiallar

Boshlang'ich material 2 xil bo'ladi: faol farmatsevtik substansiya (FFS) (terapevtik xususiyatni belgilovchi dori vositasining asosi) va yordamchi modda (shakar, kraxmal, in'eksiya uchun suv va b.).

Sifatli FFS ni ishlab chiqarish uchun ICH Q7 tavsiyanomasi ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning texnologiyasi GMP ning qoidalariga mos kelishi kerak. AQSH da yordamchi moddalarni ishlab chiqarish uchun farmakopeya maqolasi ishlab chiqilgan – USP (1078) ("Good manufacturing practice for bulc pharmaceutical excipients").

Yordamchi modda - FFS ga tegishli bo'lman, ammo dori vositasi tarkibiga kirgan va havfsizligi (jumladan biologik) ma'lum usullar bilan tekshirilgan moddalardir. Yordamchi moddalar quyidagi xolatlarda ishlataliladi:

- mahsulotni himoyalash, xajmini belgilash, turg'unligi va biologik samaradorligini oshirish uchun;
- mahsulotni aniqlashni osonlashtirish uchun;
- boshqa samadorlikni oshirish, havfsizlikni ta'minlash, foydalanishga qulaylik va buzilishini oldini olish uchun.

Ulardan yana stabilizatorlar, konservantlar, erituvchilar va b.sifatida ham foydalanish mumkin.

Yordamchi moddalar deyarli barcha dori vositalarining (tabletka, kapsula, yumshoq dorilar va b.) tarkibiga kirgan bo‘lib, ularning sifati yordamchi moddaning sifatiga bevosita bog‘liq (zarrachalar kattaligi, fraksion tarkibi va b.). Yordamchi moddalar sifati ularga qo‘yilgan talablarga mos kelishi kerak, bu vazifa uni ishlab chiqariyotgan korxona zimmasidadir. Yordamchi moddalar turg‘unligini tekshirish esa tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchining bo‘ynidadir.

Yordamchi moddalarga qo‘yilgan GMP talablari:

- ifloslanmagan va aralashmalarsiz bo‘lishi;
- tavsifi va xossasi;
- seriyadan seriyagacha o‘zgarmasligi va o‘zgarishlar nazorati;
- har bir seriya uchun bayonnomalarning rasmiylashtirilishi.

Ular xuddi FFS, tayyor dori vositalari kabi quyidagi talablar asosida ishlab chiqilgan va tekshirilgan bo‘lishi lozim:

- hujjatlar va o‘zgarishlar nazorati;
- javobgarlik va rejalashtirish;
- xodimlar, ularni tayyorlash va gigiyenasi;
- binolar, xonalar va jixozlar;
- texnologik materiallar (suv, bug‘, gazlar), kompyuter tizimlar va infrastruktura;
- xashorat, kemiruvchilar, qushlardan himoya;
- atrof - muxitni nazorat etish, tozalash, ventilyasiya, yoritilish va b.;
- ishlab chiqarish va omborxonalar;
- auditlarni o‘tkazish;
- sertifikatlar olish;
- ta’minlovchilarni tanlash;
- mahsulotlarni tarqatish.

14.2. Dori vositalarini ishlab chiqarishda qadoqluv materiallari

Qadoqluv (o‘rash uchun mo‘ljallangan) materiallari bevosita dori vositasi bilan kontaktda bo‘ladi. Shuning uchun ular ham xuddi boshlang‘ich materillari kibi sifatli bo‘lishi kerak.

Yevropa farmakopeyasi talabi bo‘yicha qadoqluv materiallari (konteyner - *container*) uning ichidagi mahsulotga ta’sir ko‘rsatmasligi kerak.

Korxonaga kirib kelayotgan xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, materiallar kirish nazoratidan o‘tkaziladi. Bu nazoratning maqsidi ishlab chiqarishga sifatsiz yoki talabga javob bermaydigan mahsulotlarni kirib kelishini oldini olishdan iborat.

Xom – ashyoga substansiya, dorivor o‘simplik, yarim tayyor mahsulot kiradi, materiallarga esa yordamchi va tayyor mahsulotlarni o‘rash uchun mo‘ljallangan materiallar (birlamchi materiallar – dori moddasi bilan bevosita ta’sirlashadigan: ampula, bankalar, qopqoqlar, tublar, blisterlar; ikkilamchi materiallar - kartonlar, polimer, plenkalar, folga va b.) kiradi.

Yevropa farmakopeyasida quyidagi birlamchi qadoqluv materiallariga talablar (foydalanish soni, tiniqligi, absorbsiyalash xossasi, fizika-kimyoviy parametrlari va nazorat usullari kabi) keltirilgan:

- shishadan tayyorlangan mateiellar (flakon, butilka, ampula va b.);
- plastikdan tayyorlangan mateiellar;
- steril plastikdan tayyorlangan konteynerlar (inson qoni uchun mo‘ljallangan);
- steril bir marotaba ishlatiladigan shpritslar;
- steril bir marotaba ishlatiladigan plastik shpritslar;
- idishlarni yopish uchun mo‘ljallangan rezina qopqoqlar va b.

shishadan tayyorlangan mateiellar boshqa talablardan tashqari (tashqi nazorat: shishaning butunligi, idish tagining notekisligi, bo‘ynidagi chizig‘i), yana gidrolitik turg‘unlik va mlyshyakga (suvali eritmalar uchun mo‘ljallangan konteynerlar) tekshiriladi. Gidrolitik turg‘unlik materiallardan ajralib chiqayotgan ishqorlarni titrlash yordamida aniqlanadi.

Plastikdan (polietilen (qo‘srimchali va qo‘srimchasiz), polipropilen, polivinilxlorid va b.) tayyorlangan mateiellar esa mahsulotning konteyoner yuzasida absorbsiyalansmasligi, bug‘lanuvchi moddalarning hosil bo‘lmasligi, kerak bo‘lganda sterillashga chidamli bo‘lishi va b. kabi talablarga

sinovlardan o‘tkaziladi. Ushbu ko‘rsatkichlarni tekshirishda turli xil fizik-kimyoviy (rN ni aniqlash, yorug‘lik va b. ta’sirida paydo bo‘luvchi o‘zgarishlar) va biologik usullardan foydalaniladi.

Yordamchi materiallarni ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida nazorat olib borilishi shart: ishlatilayotgan asboblar, texnologiyasi, texnologik materiallari, ichki nazorat o‘tkazishning zarurligi va uning tarkibi, aniqlash usullari, nazorat – o‘lchov asboblari.

Yordamchi materiallar dunyoning birorta mamlakatida ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi, ularning sifati milliy farmakopeyalarda keltirilgan talablar asosida baholanadi (kirish nazoratidan o‘tkaziladi).

14.3. Namuna olish va tahlil qilish tartibi

Namuna yo‘riqnomalar asosida tahlillar uchun etarli miqdorda SNQB tomonidan o‘z ishini mukammal egallagan vakil tomonidan olinadi. Unga ko‘ra :

- namuna olish uslubi;
- qo‘llaniladigan asboblar ro‘yxati;
- tahlil uchun olinadigan namunalar soni;
- namunalarni qismlarga bo‘lish bo‘yicha yo‘riqnomalar;
- namunalarni olish uchun idishlar turi va tavsifi;
- namunalar joylashtirilgan idishlarni yorliqlash;
- steril va havfli moddalar uchun extiyotkorlik choralar;
- namunalarni olish uchun mo‘ljallangan jixozlarni tozalash va saqlash bo‘yicha yo‘riqnomalar.

AQSH GMP §211.84, 21 CFR namuna olish va uni tahlil qilishga quyidagi talablarni qo‘ygan:

(a) Har bir seriya yordamchi va qadoqlov materiallaridan SNQB tomonidan namuna olib, uni tekshirib bo‘limguncha undan foydalanishga ruxsat berilmaydi;

(b) Har qadoqdan olinadigan namuna soni va har bir qadoqdan olinadigan namuna xajmi ma’lum mezonlar asosida aniqlanadi;

(c) Namunalarni olishda quyidagi tartib-qoidalarga rioya qilish kerak:

- (1) Qadoqlar namuna olishdan avval tashqi tomonidan tozalangan (ba’zi xollarda) bo‘lishi ;
- (2) Qadoqlarni ochish, namunalar olish va keyinchalik germetik yopish jarayonida ifloslanish (boshqa yordamchi va qadoqlov materiallarini ham) kuzatilmasligi;
- (3) Kerak bo‘lganda namunalar sterilangan uskunalarda va aseptik sharoitda olinishi;
- (4) Namunalar qadoqlarning usti, o‘rtasi va pastki qismidan aralashti-rilmasdan olinishi;
- (5) Namuna solingan idish quyidagicha yorliqlangan bo‘lishi: material nomi, namuna olingan sana, olingan namunaning qadoq va seriya tartib raqami, namuna olgan shaxs familiyasi;
- (6) Namuna olingan qadoqda namuna olinganligi to‘g‘risida yorliq bo‘lishi lozim.

(d) Tahlillar quyidagi tartibda olib boriladi:

- (1) materiallarning aynan o‘xshashligiga kamida bitta tahlil o‘tkaziladi;
- (2) Har bir boshlang‘ich material spetsifikatsiyada keltirilgan talablarga tozaligi, faolligi va sifati bo‘yicha tekshiriladi; agar tayyor dori vositasini ishlab chiqaruvchi mazkur boshlang‘ich materialni o‘zi tekshirgan bo‘lsa, u holda korxona materialning aynan o‘xshashligiga bitta sinov olib boradi va natijalar ijobjiy bo‘lgan taqdirda ta’minlovchidan faqat xisobotni talab etishi mumkin;
- (3) Boshlang‘ich material spetsifikatsiyada keltirilgan talablarga to‘liq mos kelishi kerak; agar tayyor dori vositasini ishlab chiqaruvchi mazkur boshlang‘ich materialni o‘zi ko‘zi bilan tekshirgan bo‘lsa, u holda korxona materialning aynan o‘xshashligiga bitta sinov olib boradi va natijalar ijobjiy bo‘lgan taqdirda ta’minlovchidan faqat bayonnomani talab etishi mumkin;
- (4) kerak bo‘lgan taqdirda material mikroskop ostida tekshiruvdan o‘tkaziladi;
- (5) Har bir boshlang‘ich material seriyasi (agar ko‘z bilan ko‘rliganda ifloslanish, zararkunanda bilan zararlanganlik kuzatilsa) tozaligi bo‘yicha tekshiriladi;
- (6) Agar har bir boshlang‘ich material seriyasida mikroorganizmlar kuzatilsa mikrobiologik tozaligi bo‘yicha tekshiriladi;

Barcha tekshiruvlardan o‘tgan namunalar keyinchalik foydalanishga ruxsat etiladi.

14.4. Kirish nazoratini o‘tkazish tartibi

Korxonaga kirib kelayotgan xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, materiallar kirish nazoratidan o'tkaziladi. Bu nazoratning maqsadi ishlab chiqarishga sifatsiz yoki talabga javob bermaydigan mahsulotlarni kirib kelishini oldini olishdan iborat.

Kirish nazorati xom ashyoga ishlab chiqilgan spetsifikatsiyalar va sinovlarni o'tkazish uslublari asosida olib boriladi. Bunda avval namuna olish va uni SNQB laboratoriyasiga etkazish, keyinchalik spetsifikatsiyalarda keltirilgan talablar asosida sinovlarni o'tkazish jarayonlari ko'zda tutilgan.

Kirish nazoratini o'tkazish uchun laboratoriyyada alohida guruh tuziladi. Kirish nazoratini 2 xil olib borish mumkin: tanlab (har bir seriya o'ramining ba'zi qismlarini) yoki uzluksiz (har bir o'ramni tekshirish). EH davlatlarida substansiylar uzluksiz nazoratdan o'tkaziladi.

Tanlab nazorat o'tkazishning ahamiyatli tomoni shundan iboratki, bunda har seriyadan qancha o'ramni nazoratdan o'tkazish kerakligi aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Korxona omborxonasiga xom ashyo va yordamchi mahsulotlar kelib tushgan kunida material-texnik ta'minoti bo'limi SNQB ning kirish nazoratini o'tkazuvchi guruhga habar beradi va bu mahsulotlar karantin zonasiga joylashtiriladi. Kirish nazoratini o'tkazuvchi guruh xodimi omborxonada saqlanuvchi xabarnoma jurnaliga xabarni kiritadi, xabarni SNQB da saqlanuvchi "xabarlarni xisobga olish" jildiga tikib qo'yadi. Kirib kelgan xom ashyo yoki yordamchi mahsulotni tekshirishni boshlaydi: o'rami, yorlig'i, tashqi ko'rinishi, ilova qilingan hujjatlarning rasmiylashtirilishi va x.k. Olingan natijalarni "kirish nazorati jurnal"iga qayd etadi.

So'ngra laboratoriya xodimi yoki nazoratchi namuna oladi (SOJ talabi asosida), namuna olinganligi to'g'risida omborxonaning xisob kartochkasida qayd etadi.

Olingan namuna 2 qismga bo'linadi. Bo'lingan namunalar yorliqlar bilan ta'minlanadi, yorliqlarda ular qaysi o'rlamlardan olinganligi va boshqa kerakli ma'lumotlar keltiriladi va "namuna olindi" deb belgilab qo'yiladi.

Namunaning olingan bir qismi tahlil uchun olinadi, ikkinchi qismi esa muhrlanadi va namunalar saqlanadigan joyda qoldiriladi (namunalar saqlash muddati o'tgandan so'ng bir yil davomida, ammo 3 yildan kam bo'lmagan muddatda saqlanadi). YOrdamchi mahsulotlar 3 yil saqlanadi.

Tahlil uchun olingan namuna laboratoriya jurnalida qayd etiladi. Tahlil natijalari asosida bayonnomma (xisobot) tayyorlanadi. Olingan natijalar ijobjiy bo'lgan taqdirda material-texnik ta'minot bo'limidan xom ashyni ishlab chiqarish bo'limiga o'tkazishga ruxsat beradi. Bunda xom ashyni "ishlatish mumkinligi to'g'risida xabar xati" rasmiylashtiriladi.

Agar tahlil natijasi salbiy bo'lsa bu haqda SNQB ga xabar beriladi, SNQB "talablarga javob bermasligi to'g'risida xabar xati"ni rasmiylashtiradi va xom ashyo seriyasi "Yaroqsiz"deb yorliqlanadi. Yaroqsiz deb topilgan mahsulotga akt tuziladi va uni buyurtmachi, ta'minlovchi va arbitraj nazorati vakillari imzolaydilar.

14.5. Spetsifikatsiyalar

GMP qoidalarida ishlab chiqarishda foydalanadigan hujjatlar turi belgilangan bo'lib, ularga sanoat reglamenti, texnologik instruksiya va qadoqlash bo'yicha instruksiya, seriya uchun bayonnomma, turli boshqa instruksiyalar, usullar , standart operatsion jarayonlar va spetsifikatsiyalar kiradi.

Spetsifikatsiya (specification) ishlab chiqarishda foydalanadigan yoki olinadigan mahsulot va materiallarga qo'yilgan talablarni saqlovchi hujjat bo'lib, u dori vositasining sifatini baholash uchun asos bo'lib xisoblanadi.

Spetsifikatsiyalar quyidagi material va mahsulotlar uchun ishlab chiqiladi:

- dastlabki, yordamchi va qadoqlash uchun mo'ljallangan materiallar;
- oraliq mahsulot;
- tayyor mahsulot.

Spetsifikatsiyalarda ko'rsatiladi:

- mahsulot (material) nomi, ishlab chiqarishning ichki ichki xos raqamiga havolasi bilan;
- farmakopeya maqolasi yoki boshqa me'yoriy hujjatga havola;
- mahsulot (material) ning asosiy xususiyatlari;
- tahlillar olib borish va namunalarni olish tartibi (tahlil usuliga havola);

- saqlash sharoiti va ehtiyotkorlik choralari (instruksiyaga ko'rsatma);
- saqlanish muddati va takroriy tahlillar vaqt va b. ma'lumotlar.

Materiallar uchun spetsifikatsiya shakli

Firma nomi	Spetsifikatsiya	sanasi	Bet
	Bo'lim: Sifatni nazorat qilish bo'limi	Kirish sanasi	Redaksiya sanasi
Instruksiya/usul nomi			
Nomи		Materiallar	
SS, Tsh, FM			
ta'minlovchilar		ta'minlovchilar ro'yxati	
qadoqlash, saqlash sharoiti		masalan, og'zi mahkam yopilgan konteynerlarda, xona haroratida	
Namunani olish usuli			
Aniqlanuvchi ko'rsatkich	Natija		Ko'rsatkichni baholash usuli
Tashqi ko'rinishi	Oq kristallik kukun yoki oq tekis kristallar		havolaga ko'rsatma
Tarkibi (formulasi)			
miqdori	Quruq moddaga nisbatan % dan kam yoki %dan ko'p bo'lmasligi kerak		havolaga ko'rsatma
Miqdoriy xususiyatlarini aniqlash			havolaga ko'rsatma
Ishlab chiqdi F.I.sh. Imzo ,sana	kelishildi F.I.sh. Imzo ,sana		Tasdiqladi F.I.sh. Imzo ,sana

Oraliq va tayyor mahsulotlar uchun spetsifikatsiya shakli

Ishlab chiqaruvchi-korxonaning nomi	Spetsifikatsiya	Sanasi	Beti
	Bo'lim: sifatni nazorat qilish bo'limi	Kirish sanasi	Taxminiy fikr
Tabletka nomlanishi, 50 mg (misol)			
t/r	Parametrlar	FM bo'yicha me'yorlar	Usulga havola
1	tashqi ko'rinishi		
2	Tarkib		
3	og'irligi		
4	Chinligi		
5	Ervchanligi		
6	rN		
7	yot aralashmalar		
8	mikrobiologik tozaligi		
9	qadoqlash		
10	yorliqlash		
11	Saqlash		
12	saqlanish muddati		
shtrix kodi			
Namuna olish			
Ishlab chiqdi F.I.sh. Imzo, sana	Kelishildi F.I.sh. Imzo, sana	Tasdiqladi F.I.sh. Imzo, sana	

Mavzu yuzasidan savollar

1. Faol qarsatsevtik substansiya sifatiga qo‘yilgan ICH Q7 tavsyanomasi
2. Yordamchi moddalarga qo‘yilgan GMP talablari
3. Yordamchi moddalarga qo‘yilgan Yevropa farmakopeyasi talablari
4. Dori vositalarini ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan xom ashyolar sifatiga qo‘yilgan talablar
5. Dori vositasini ishlab chiqarishda qadoqlov materiallariga qo‘yilgan talablar
6. Namuna olish va tahlil qilish tartibi
7. Kirish nazoratini o‘tkazish tartibi
8. Namunalarning saqlanishi
9. Dori vositalarini ishalb chiqarishda qo‘llaniladigan meyoriy hujjatlar.
10. Spetsifikatsiyalar. Spetsifikatsiyalardan og‘ishlar (chetga chiqishlar)
11. Materiallar uchun spetsifikatsiyalar
12. Oraliq va tayyor mahsulotlar uchun spetsifikatsiyalar
13. Spetsifikatsiyalardan og‘ishlarni tahlil qilish
14. Nazorat qilish natijalari va spetsifikatsiyalardan og‘ishlar tahlili
15. Laboratoriyaqda qo‘shimcha tahlillar
16. Chetlanishlarni baholashdagi rahbarning mas’uliyati

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minalash. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

15-16– MAVZU. SPETSIFIKATSIYALAR. SINOV LABORATORIYALARIDA SIFATNI TA’MINLASH

Reja:

1. Sinov markazining tashkiliy tuzilishi
2. Sifatni ta’minalash dasturi
3. Sinaluvchi va standart ob’ektlar
4. Standart operatsion jarayonlar
5. Hujjatlar va materiallarni saqlash

Tayanch iboralar: *Sinov markazi, sifatni ta’minalash dasturi, standart operatsion jarayonlar va standart ob’ektlar.*

15.1. Spetsifikatsiyalardan og‘ishlar (chetga chiqishlar)

Dori vositalarini ishlab chiqarishda turli xil chetga chiqishlar yoki muvofiq kelmasliklar kuzatilishi mumkin. Mayjud chetga chiqishlar yoki muvofiq kelmasliklarni tahlil qilish, natjalarni tekshirish, ularni oldini olish va yo‘qotish bo‘yicha zarur choralarini ko‘rish muhim ahamiyatga ega. Spetsifikatsiyalarda keltirilgan talablardan chetga chiqishlar yoki muvofiq kelmasliklarni nazorat qilish, muammoli joylarni aniqlash va ularni yo‘qotish sifatsiz mahsulotlarni sotuvga chiqarishning oldini oladi.

AQSH da FDA ning spetsifikatsiyalardan og‘ishlar (chetga chiqishlar)ni tahlil (out-of-specification - OOS) qilish bo‘yicha 5 ta qismdan iborat bo‘lgan qo‘llanma ishlab chiqilgan.

I Kirish

II Asosiy qoidalar

III Nazorat qilish natijalari va spetsifikatsiyalardan og‘ishlar (chetga chiqishlar) tahlili

1 bosqich: Laboratoriyalardagi tahlillar

A. Operatorning mas’uliyati yoki javobgarligi

V. Rahbarning mas’uliyati

IV Spetsifikatsiyalardan og‘ishlar (chetga chiqishlar) tahlili

2 bosqich: To‘liq tekshirish

A. Mahsulot tahlili

V. Laboratoriyaladagi qo‘srimcha tahlillar

S. Tahlil natijalarini rasmiylashtirish

V Xulosa

A. Tahlil natijalarini baholash

V. Nimalarga ahamiyat berish kerak

S. Xisobotni taqdim etilishi.

Spetsifikatsiyalardan og‘ishlar (chetga chiqishlar) – bu spetsifikatsiya yoki boshqa me’yoriy hujjat tarkibiga kirmay qolgan har qanday nazorat natijalarining turi bo‘lib, u shuningdek ishlab chiqarish ichidagi nazorat natijalariga ham tegishli.

Mazkur qo‘llanma dori vositalari, faol farmatsevtik substansiyalar, qo‘srimchalar, oraliq mahsulotlar va boshqalarning kimyoviy tahlillariga tegishli.

Laboratoriyalardagi tahlillar tayyor dori vositalari, oraliq mahsulotlar, birlamchi va qadoqlov materiallarning spetsifikatsiya, shuningdek turg‘unlikga qo‘yilgan talablarga mos kelishini tasdiqlashi kerak. Ushbu holat kontrakt asosidagi ishlab chiqarishga ham tegishli.

Mazkur qo‘llanmaning 3 ta qismiga izoh beramiz.

III Nazorat qilish natijalari va spetsifikatsiyalardan og‘ishlar (chetga chiqishlar) tahlili

1 bosqich: *Laboratoriyalardagi tahlillar*

Spetsifikatsiyalar talablaridan har qanday og‘ishlar (chetga chiqishlar) kuzatilsa uning sabablarini aniqlash kerak. Bu bo‘lishi mumkin:

- laboratoriyaladagi xatolik yoki
- texnologik jarayondagi kamchilik.

Agar serianing sifati spetsifikatsiyalar talabiga to‘g‘ri kelmagan bo‘lsa, u holda mahsulotning boshqa seriyalarida yoki boshqa mahsulotda xuddi shunday nuqsonni bor yoki yo‘qligini tahlil qilish, sababini topish va uni yo‘qotish yo‘lini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Ushbu ishlar barchasi rasmiylashtirilgan bo‘lishi lozim.

Tahlil olib borishda avvalamo asboblarning aniqligi tekshiriladi, agar laboratoriylar tahlillarida xatolik bo‘lmasa, u xolda katta miqyosda tekshirishlar olib boriladi.

A. *Operatorning mas’uliyati yoki javobgarligi*

Tahlil natijalarining to‘g‘riliqi avvalambor operator (laborant)ning zimmasida bo‘lib, u birlamchi ma’lumotlarni beradi, agar xatolik undan o‘tgan bo‘lsa boshqa tekshiruvlar o‘tkazilmaydi. Operator o‘z ishini mukammal bilishi kerak (analitik usulni, asboblarni, olingan natijalarini tahlil qilishni va x.).

Agar chetlanishlar aniqlansa operator nazorat va standart namunalarini saqlashi (agar utrg‘unligi bo‘yicha to‘g‘ri kelsa) va bu haqda rahbarning ogohlantirishi kerak. Usulning aniqligi zudlik bilan tekshiriladi. Agar xatolik aniqlansa (namuna to‘kilib ketgan bo‘lsa) darhol rasmiylashtirilishi lozim.

V. *Rahbarning mas’uliyati*

Rahbar chetlanishlarni tezlik bilan baholashi lozim. Chetlanishlarni baholashda u ob’ektiv omillarga (foydalilanigan reaktivlar, eritmalar, asboblarni xolati, shisha idishlar va b.) tayanishi kerak:

1. operatorning foydalilanigan tahlil usulini bilishiga ishonch hosil qiladi;
2. tahlilning birlamchi natijalarini ko‘rib chiqadi;
3. tahlilning birlamchi natijalarining to‘g‘ri olinganligi va ularga to‘g‘ri ishlov berilganligini tekshiradi;

4. asboblarning to‘g‘ri ishlayotganligi tekshiradi;
5. ishlatilgan reagentlar, eritmalar, standartlarni ularning spetsifikatsiyalariga mos kelayotganligini tekshiradi;
6. usulning to‘g‘ri ishlayotganligi tekshiradi;
7. Olib borilgan tahlillar rasmiylashtiradi.

IV Spetsifikatsiyalardan og‘ishlar (chetga chiqishlar) tahlili

2 bosqich: To‘liq tekshirish

Agar tekshiruvlar xatoliklar laboratoriyyada emasligini ko‘rsatsa, u xolda to‘liq tekshiruvlarni o‘tkazish kerak bo‘ladi: ishlab chiqarishni to‘liq tahlili, namunalarni olish usullari, laboratoriyalardagi qo‘srimcha tadqiqotlar va b. Endi ishlab chiqarilgan mahsulotga chetlanishlarning ta’siri o‘rganilishi lozim.

A. Mahsulot tahlili

To‘liq tekshiruv asosan sifatni nazorat qilish hamda ishlab chiqarish, texnik va boshqa bo‘limlar hamkorligida sinchiklab va tezkorlik bilan olib borilishi kerak. Tekshirish tugagach xisobot tayyorlanadi. Xisobot quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. chetlanish sababini aniq ko‘rsatish;
2. chetlanishga sabab bo‘lgan ishlab chiqarish omillari;
3. hujjatlarni ko‘rib chiqish natijalari, aniqlangan yoki bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatoliklar ko‘rsatilgan;
4. oldingi tekshiruvlar natijalari, agar avval ham shunday xatoliklar kuzatilgan bo‘lsa;
5. Chetlanishlarni oldini olish chora-tadbirlarining bayoni.

Agar chetlanishlar sabablari aniqlansa tekshiruvlar to‘xtatiladi va mahsulot qaytarib olinadi. Chetlanish mahsulotning boshqa seriyasi bilan bog‘liq bo‘lsa, u xolda qo‘srimcha tekshiruvlar olib boriladi. Agar mahsulot tekshirilgandan so‘ng qayta ishlangan bo‘lsa, bu haqda xisobotda ishlab chiqarish va sifatni nazorat qilish bo‘limlari xodimlari tomonidan imzolangan xolda ko‘rsatilishi kerak. Xatolik loyihada, mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni yoki hujjatida bo‘lishi mumkin, masalan, mahsulot tarkibining turg‘un emasligi, bosqichlardagi chetlanishlar. Ushbu xolatlarda mahsulot ishlab chiqish texnologiyasini qayta ko‘rib chiqish talab etladi.

V. Laboratoriyyadagi qo‘srimcha tahlillar

Kerak bo‘lganda laboratoriyyada qo‘srimcha tahlillar olib boriladi, birlamchi namunani takror tahlil qilish va namunani takroriy olish.

Takroriy tahlil

Namuna avval tekshirib chetlanish kuzatilgan seriyadan olinadi. Bunda asboblarning to‘g‘ri ishlayotgani, namuna bilan to‘g‘ri foydalaniyotganligi (namuna eritmasi) tekshiriladi. Tahlillar avvalgisidan tajribasi kam bo‘limgan operator tomonidan bajarilish kerak. Takroriy tahlillarni o‘tkazish soni tahlil usullariga bog‘liq bo‘lib, ular avvaldan asoslangan va belgilangan bo‘lishi kerak. Takroriy tahlillar natijalari olingandan so‘ng avvalgi natijalar “qoniqsiz” deb topiladi va belgilangan xolda rasmiylashtiriladi, saqlanadi.

Namunani takroriy olish

Dastlabki namuna etarli darajada bo‘lib, chetlanishlar extimoli bo‘lganda undan yana takror foydalanish imkonи bo‘lishi kerak. Namunalar to‘g‘ri olinmagan yoki seriya sifatini baholash uchun ishonchli emas degan ehtimollik bo‘lishi mumkin. Masalan, bitta namunaning tahlil natijalari bir-biridan keskin farq etsa. Bunday xollarda namuna takror olinadi. Agar namuna olish usuli adekvat bo‘lmasa, u xolda sifatni nazorat qilish bo‘limi tomonidan namuna olishning Yangi usuli ishlab chiqiladi, tekshiriladi va tasdiqlanadi.¹⁶

WHO ning talabiga ko‘ra namuna kamida ikki tahlilga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak.

S. Tahlil natijalarini rasmiylashtirish

1. ¹⁶ Комментарий к руководству европейского союза по надлежащей практике производства лекарственных средств для человека и применения в ветеринарии: Правила, регулирующие лекарственные средства в Европейском Союзе. / Под. ред. С.Н. Быковского, И.А. Василенко, С.В. Максимов. –М.: Изд-во «Перо», 2014.-488с.

Xisobot tayyorlanganda olingan natijalar o'rtacha qilib olinadi yoki keskin ajralib turadigan natijalarni ko'rsatish mumkin.

Natijalarni o'rtacha qilib olish aniqlash usulida ruxsat etilgan bo'lsa qo'llaniladi. Ko'pincha natijalarning o'rtacha qiymati olinadi, bu esa xatoliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, tabletkalar ishlab chiqarishda massaning bir xilligini tekshirishda aralashmaning turli nuqtalaridan namuna olinadi. Bu erda natijalarni o'rtachasini olish mumkin emas, sababi tahlilning maqsadi turli nuqtalardan olingan natijalarni solishtirishdir. Yoki spetsifikatsiyada chetlanish chegarasi 90 dan 100% gacha belgilangan bo'lsa, birinchi tahlilda olingan natijalar 89, 90 va 91%, ikkinchisida esa - 80, 85 va 105% ni ko'rsatdi. Ikkala holatda ham o'rtacha qiymat 90% ni tashkil etdi, ammo qaytaruvchanlik turlicha. Mazkur holatlarda natijalarning o'rtacha qiymatini olish xatolikga olib kelishi mumkin.

Ba'zida tahlillar bir biridan keskin ajralib turuvchi natijalarni beradi, bu natijalarni to'g'ridan - to'g'ri tashlab yuborilmaydi, ular mahsulot tarkibidagi o'zgarishlar natijasida paydo bo'lgan bo'lishi mumkin.

V Xulosa

Spetsifikatsiyadan chetlanishlarni o'rghanish tugagandan so'ng olib borilgan ishlar yuzasidan xisobot yoziladi, unda chetlanish sababi, seriya sifatini baholash va mahsulotni chiqarish yoki chiqarmaslik to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

Dori vositalari tarkibidagi ob'ektlarning (sintetik usul bilan yoqi tabiiy xom ashyodan olingan) noklinik tajribalarini bajarish uchun mo'ljallangan laboratoriyalardagi sifatni ta'minlash tizimining asosini inson sog'lig'ini saqlash va tashqi muhit havfsizligi sohasidagi sinovlarni tashkillashtirish, rejalashtirish, nazorat qilish va olib borish tartibi, hamda rasmiylashtirish, arxivlashtirish va olingan natijalarni taqdim etishga oid jarayonlar tashkil etadi (**yaxshi laboratoriya amaliyoti** - Good Laboratory Practice (GLP)).

15.2. Sinov markazlarini tashkiliy tuzilishi va xodimlari

Sinov markazi (test facility) bu noklinik sinovlarni bajarish uchun kerakli bo'lgan mutaxassislar jamoasi, zaruriy xona va asbob uskunalarga ega bo'lgan amaldagi joy bo'lib, agar sinovlar bir nechta sinov maydonlarida amalga oshiriladigan bo'lsa, u xolda "sinov markazi" atamasi, sinovlar bo'yicha rahbar joylashgan va sinovlar markazi hisoblangan barcha sinov maydonchalari joylashgan markazdir.

Laboratoriyalardagi sinovlar sifatni ta'minlash dasturi (quality assurance programme) asosida olib boriladi. Mazkur dastur asosiy tadqiqotlarni o'tkazishga jalg etilmagan xodimlar va sinov markazi ma'muriyati tomonidan tuziladi. Barcha ishlar standart operatsion protseduralar (SOP) asosida amalga oshiriladi. SOP (standard operating procedures; SOPs) - tadqiqot rejasida yoki tadqiqotni o'tkazish yo'riqnomasida batafsil ko'rsatilmagan va aniq bir faoliyat turini bajarishda bir xillikka erishishga yo'naltirilgan, tadqiqotni o'tkazish jarayonlari yoki boshqa faoliyat ta'riflangan batafsil yozma yo'riqnomalar.

Har bir tadqiqot uchun tadqiqot rejasi (study plan) tuziladi va kerak bo'lganda unga o'zgartirishlar kiritiladi. Tadqiqotlarda olingan natijalar fotosuratlar, mikrofilmlar, mikroplyonkalar, ularning nusxalari, disketalar va kompakt-disklar, ish yozuvlari hamda avtomatlashtirilgan asbob-uskunalarining ko'rsatkichlari, shuningdek aniq vaqt mobaynida axborotlarni bezzar saqlash imkoniyatini beruvchi turli axborot saqlash vositalari ko'rinishida saqlanadi.

Klassik kimeviy moddalar, shuningdek biotexnologik, gen-modifitsirlangan, nanotexnologik maxsulotlarning kimyoviy va biologik havfsizligini o'rghanish bilan shug'ullanuvchi laboratoriylar xonalari, asbob-uskunalar, xodimlari, uslublari va hujjatlari me'yoriy hujjatlar talablariga javob berishini kafolatlovchi sifatni ta'minlash xizmatiga ega bo'lishi shart.

Sifatni ta'minlash xizmati tadqiqotlarni olib borishda ishtirok etuvchi xodimlardan mustaqil bo'lishi shart. Biroq ushbu xizmat xodimlari tadqiqot o'tqazish jarayonlari bilan tanish bo'lishi va sinov markazi rahbariyatiga bevosita hisobot berishlari zarur.

Sinov markazi ma'muriyati quyidagilarni bajarishi shart:

a) yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplariga asosan tadqiqotlarni boshqarishga to'la javobgar shaxs(lar)ni aniqlovchi yo'riqnomani tasdiqlash;

- b) Tadqiqotlarni o‘z vaqtida va samarli o‘tqazish uchun etarli miqdorda malakali xodimlar, tegishli xonalar, asbob-uskunalar va materiallar bo‘lishini kafolatlash;
- c) mutaxassislar va texnik xodimlar malakasi, ma’lumoti, ish tajribasi va mansabi bo‘yicha majburiyatları haqidagi hujjatlarning bo‘lishini ta’minalash;
- d) hamma xodimlar o‘z majburiyatlarini aniq tushunishlarini, shuningdek zaruriyat tug‘ilganda ularni o‘qitishni va tayyorlanishlarini ta’minalash;
- e) tadqiqot ishlarini amalda bo‘lgan standart operatsion protseduralar asosida bajarilishiga; standart operatsion protseduralarni va ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni tasdiqlashga javobgar bo‘lish;
- f) yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplari asosida sifatni ta’minalash dasturini tashkil etish va amalgalashirishga javobgar bo‘lish;
- g) tadqiqot boshlanishidan avval tadqiqot ishlariga rahbar sifatida zarur ma’lumotga, malakaga va ish tajribasiga ega bo‘lgan rahbarni tayinlash. Tadqiqot rahbarini o‘zgartirish o‘rnatalgan tartibda amalgalashirishga javobgar bo‘lish;
- h) tadqiqotlar bir nechta maydonchalarda amalgalashirishga javobgar bo‘lgan holatlarda, kerakli ma’lumotga, malakaga va ish tajribasiga ega bo‘lgan ishchilar qatoridan javobgar tadqiqotchini tayinlash. Javobgar tadqiqotchini o‘zgartirish o‘rnatalgan tartibda amalgalashirishga javobgar bo‘lish;
- i) tadqiqot rejasini tadqiqot rahbari tomonidan rasmiy tasdiqlanishini kafolatlash;
- j) tadqiqot raxbari, sifatni ta’minalash xizmati xodimlariga tasdiqlangan tadqiqot rejasini taqdim etilishini kafolatlash;
- k) barcha standart operatsion protseduralarning tarixiy fayllari bazasini to‘ldirilib turishini ta’minalash;
- l) arxiv(lar)ni boshqarish bo‘yicha javobgar shaxsni tayinlash;
- m) asosiy reja-chizmaning bajarilishini ta’minalash;
- n) sinov markazidagi resurslarni, ular ishlatiladigan tadqiqotlardagi talablar doirasida bo‘lishini kafolatlash;
- o) bir nechta sinov maydonchalarida tadqiqotlarni olib borishda tadqiqot rahbari, tadqiqotga javobgar shaxs, sifatni ta’minalash xizmati xodimlari va tadqiqotni bajaruvchi mutaxassislar o‘rtasida doimiy aloqani ta’minalash;
- r) sinaluvchi va standart ob’ektlarni tegishli ravishda ta’riflanganligini kafolatlash;
- q) kompyuterlashtirilgan tizimlarni tadqiqot vazifalarini bajarilishiga mutonosibligini, hamda yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplari asosida validatsiyalanishini, boshqarilishini va ta’milanishini tasdiqlab turuvchi protseduralarni o‘rnash.

Tadqiqot rahbarining majburiyatları

Sinov rahbari tadqiqotlar bajarilishi bo‘yicha umumiyligi rahbarlikni amalgalashirishga javobgar bo‘yicha yakuniy hisobotni tayyorlashga mas’ul hisoblanadi. Uning majburiyatlariga quyidagi funksiyalar kiradi:

- a) tadqiqot rejasini va undagi o‘zgartirishlarni sana qo‘yilgan imzo bilan tasdiqlash;
- b) sifatni ta’minalash bo‘yicha xodimlarni tadqiqot rejasini nusxasi va unga kiritilagan qo‘srimcha(o‘zgartirish)lar bilan o‘z vaqtida ta’milanishi va butun tadqiqot mobaynida xodimlar bilan doimiy muloqotda bo‘lishini kafolatalash;
- c) shu tadqiqotni bajaruvchi mutaxassislar tadqiqot rejasini va unga tegishli qo‘srimchalar bilan ta’milanganligini kafolatlash;
- d) tadqiqot rejasini va bir nechta sinov maydonchalarida bajarilgan tadqiqot natijalari buyicha yakuniy hisobot, ushbu tadqiqotlarda ishtiroy etgan har bir javobgar tadqiqotchi(lar)ning, sinov markazlari va sinov maydonchalarining o‘rnini belgilashini kafolatlash;
- e) tadqiqot rejasiga asosan ishlarni bajarishda, tadqiqotning sifati va butunligiga ta’sir etuvchi barcha tadqiqot rejasidan chetlanishlarni baxolash va hujjatlashtirish olib borilishini va kerak bo‘lganda to‘g‘rilovchi harakatlar qabul qilinishini, shu bilan birga standart operatsion protseduralardan chetlanishlar mumkinligini tan olish(yoki tan olmaslik)ni kafolatlash;
- f) barcha birlamchi ma’lumotlarni qayd etilishini to‘la xajmda amalgalashirishga javobgar bo‘lish;

g) tadqiqotlarda ishlatiladigan kompyuterlashtirilgan tizimlarni validatsiyalanganligini kafolatlash;

h) olingen ma'lumotlarni haqqoniyligi va tadqiqotlar yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplariga asosan bajarilganligi xaqida javobgarlikni olgan xolda yakuniy hisobotni sana va imzo qo'yish orqali tasdiqlash;

i) tadqiqotlar yakunlangandan so'ng tadqiqot rejasiga, yakuniy hisobot, birlamchi ma'lumotlar va qo'shimcha materiallarni arxivga toshirilishini kafolatlash.

Tadqiqotni bajaruvchi xodimlar tadqiqot rejasiga va tegishli standart operatsion protseduralarga ega bo'lishi kerak. Ushbu hujjatlarda keltirilgan yo'riqnomalarni bajarish uning majburiyatidir. Ushbu ko'rsatmalardan har qanday chetlanishlar kayd etilishi lozim; bunday chetlanishlar xaqida to'g'ridan-to'g'ri tadqiqot rahbari yoki javobgar tadqiqotchi xabardor qilinishi lozim.

15.3. Sifatni ta'minlash dasturi

Sinov markazi, unda o'tkazilayotgan tadqiqotlar yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplariga monand bo'lishi uchun, hujjatlashtirilgan sifatni ta'minlash dasturiga ega bo'lishi kerak.

Sifatni ta'minlash dasturini bajarishga, sinov markazi rahbariyati tomonidan belgilangan, bevosita unga hisobot beruvchi va tadqiqotlar uslublari bilan tanish bo'lgan vakolatli shaxslar javob beradi. Sifatni ta'minlashga javobgar shaxslar, tadqiqotlar o'tqazish uchun jalgan etilmaydilar.

Sifatni ta'minlash bo'yicha xodimlar quyidagi majburiyatlarga egadirlar:

a) sinov markazida qo'llaniladigan barcha tasdiqlangan tadqiqot rejalarini, standart operatsion protseduralar namunalari va shu vaqt mobaynida qo'llanilayotgan asosiy reja-tizim nusxasiga ega bo'lishi;

b) tadqiqot rejasiga yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplariga riosa qilinishi xaqidagi ma'lumotga egaligini tekshirishi lozim. Bu tekshirish hujjatlashtirilgan bo'lishi;

c) tadqiqotga jalgan xodimlar barcha o'tkazilayotgan tadqiqotlarni yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplariga asosan olib borayotgani, tadqiqot rejalariga va SOP ga ega ekanligi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirishi kerak.

Standart operatsion protseduralarga asosan sifatni ta'minlash dasturida keltirilgan uch turdag'i inspeksion nazorat ko'zda tutilgan:

- alovida tadqiqotlar nazorati,
- sinov maydonchalarining nazorati,
- ayrim bosqichlarning nazorati.

Bunday inspeksion nazoratlarning protokol (hisobot)larini yuq qilish mumkin emas;

a) yakuniy hisobotlarni tekshirish; uslublar, jarayonlar, kuzatuvlari va olingen natijalar aniq va to'liq bayon etilganligini va birlamchi tadqiqot natijalarini to'liq aks ettirishini tasdiqlashi;

b) sinov markazi rahbariyatiga, tadqiqot raxbariga va ayrim hollarda boshqa rahbar xodimlarga o'z vaqtida inspeksion tekshiruvlar natijalarini yozma holda taqdim etish;

c) sinov markazi rahbariyatiga, tadqiqot rahbariga va javobgar tadqiqotchiga inspeksion tekshiruv natijalari bo'yicha tayyorlangan yakuniy hisobotga, inspeksion nazorat turi haqida tayyorlangan va imzolangan xulosa, u o'tkazilgan sana, tekshiriluvchi tadqiqot bosqich(lar)i va inspeksiya natijalari taqdim etilgan sana kiritilishi kerak. Shu bilan birga bu xulosa, birlamchi tadqiqot natijalari yakuniy hisobatda to'g'ri ifoda etilganligi xaqida ma'lumotni aks ettirishi shart.

Tadqiqot o'tqazish uchun mo'ljallangan xonalar o'lchami, tuzilishi va joylashishi tadqiqot maqsadlariga javob berishi lozim. Xonalarning joylashishi tadqiqot o'tqazish jarayoniga minimal ta'sir etishi shart.

Xonalar shunday rejalashtirilgan bo'lishi kerakki, turli ko'rinish(tip)dagi tadqiqotlar bir-biridan maksimal ajratilgan holda o'tkazish shart.

Sinov markazi qoshida resurslar va asbob-uskunalar uchun xonalar, shuningdek saqlash, sinaluvchi va standart (kontrol) ob'ektlarni qabul qilish va saqlash, sinaluvchi ob'ektlarni tashuvchi(erituvchi)lar bilan aralashtirish vaqtida ifloslanishlarni oldini olish uchun, sinov markazida alohida xonalar yoki zonalar bo'lishi lozim.

Tadqiqot rejalar, birlamchi natijalar, yakuniy hisobotlar va namunalarni havfsiz saqlash va izlashga imkon beruvchi arxivlar uchun xonalar ko'zda tutilagan bo'ladi va bunday xonalarda arxiv

materiallarini uzoq muddat saqlash uchun sharoitlar yaratiladi. chiqindilarni qayta ishlash va yo‘q qilish shunday amalga oshirilishi kerakki, bu ish tadqiqotlarni o‘tqazishga havf solmasligi va ular natijalarini noto‘g‘ri talqin etmasligi uchun chiqindilarni yig‘ish, saqlash va chiqarib tashlash, dezaktivatsiya qilish va keyingi tashish sharoitlari yaratiladi.

Ximikatlar, reaktivlar va eritmalar nomi, konsentratsiyasi, saqlash muddati sanasi va saqlash yo‘riqnomasi ko‘rsatilgan yorliqqa ega bo‘lishi kerak. Turg‘unligi, ishlab chiqarish vaqt, ishlab chiqarilgan joyi haqidagi ma’lumot bo‘lishi kerak. Saqlash muddatini uzaytirilishi hujjatlashtirilgan tekshiruv yoki taxlil asosida amalga oshiriladi.

Fizik va kimyoviy ko‘rsatkichlarni olish uchun ishlatiladigan asbob-uskunalarning texnik harakteristikalari va joylanishi tadqiqot maqsadlarini qondirishi kerak.

16.1. Sinaluvchi va standart ob’ektlarni qabul qilish, ishlov berish, namunalarni tanlab olish va saqlash

Tadqiqotlarni o‘tkazishda sinaluvchi va standart ob’ektlari harakteristikalari, olingan sanasi, saqlash muddati, boshlang‘ich miqdori va sarflangan miqdori hisobi ma’lumotlari ko‘rsatilgan, qayd qilish yozuvlari olib boriladi. Sinaluvchi va standart ob’ektlarga ishlov berish, namuna olish va saqlash sharoitlari shunday tashkil etilgan bo‘lishi kerakki, ularni bir xilligi, barqarorligi saqlanib, bu ob’ektlarning ifloslanishini va aralashib ketishining oldi olinishi lozim. Mazkur ob’ektlarni saqlash uchun mo‘ljallangan konteynerlarda identifikatsion ma’lumot, saqlash muddati va uni saqlash yo‘riqnomasi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Har bir sinaluvchi va standart ob’ekt o‘rnatilgan tartibda identifikatsiyaga va umumiy qabul qilingan xalqaro nomga ega bo‘lishi (misol uchun, kodga ega bo‘lmog‘i kerak, CAS-nomeri (Amerika kimyo jamiyatining kimyoviy adabiyotlar bo‘yicha axborot xizmatining kayd etish raqami), nomi, biologik parametrlari, IUPAC (Xalqaro nazariy va amaliy kimyo birlashmasi nomenklaturasi bo‘yicha nomi), shuningdek ularning partiya (seriya) raqami, tozalik darajasi, tarkibi, konsentratsiyasi va boshqa zarur ko‘rsatkichlari haqida ma’lumotlar bo‘lishi shart.

Agar sinaluvchi ob’ektlar to‘g‘ridan to‘g‘ri xomiyidan olinsa, unda sinov markazi va xomiy ularni identifikatsiya qilish mexanizmini ishlab chiqishi, ularning barqarorligini, tajribani olib borish davrida saqlash jarayonida, tekshirib turish zarur.¹⁷

Agar sinaluvchi ob’ekt ma’lum bir sharoitda ishlatish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, uni bir xilligi, konsentratsiyasi va turg‘unligi shu sharoitda aniqlanishi kerak. Dala sharoitida o‘tqaziladigan tajribalarda bu xususiyatlar alohida laboratoriya tajribalari vaqtida aniqlanadi.

Har bir tadqiqot uchun, qisqa muddatli tekshiruvlardan tashqari, tekshiriluvchi ob’ektlarning har bir partiya(seriya)sidan taxlil uchun namuna saqlab ko‘yish shart.

16.2. Standart operatsion jarayonlar

Tadqiqot jarayonlarida olingan natijalarini to‘liqlilagini va sifatini kafolatlash uchun, sinov markazi yozma ravishda rasmiylashtirilgan va raxbariyat tamonidan tasdiqlangan standart operatsion protseduralar (SOP) ishlab chiqiladi va ular sinov markazining har bir bo‘limi va/yoki maydonchasi, ularning faoliyatiga tegishli hisoblanadi. SOP larga qo‘srimcha ravishda boshqa metodik qo‘llannalar, axborotnomalar va maxsus maqolalardan foydalanish mumkin.

Tadqiqot davrida SOPdan chetlanish qayd qilinishi va tadqiqot rahbari va javobgar tadqiqotchi(lar) tomonidan tan olinishi(imzolanishi) shart. SOP lar quyidagi faoliyat ko‘rinishlari uchun qo‘llaniladi:

- sinaluvchi va standart ob’ektlar (kelib tushishi, identifikatsiyasi, yorliqlash, qayta ishlash, namuna olish, saqlash);
- asbob-uskunalar (-ishlatilishi, xizmat ko‘rsatilishi, parvarishlash, kalibrovka qilish; validatsiya, ishlash tartibi va xizmat ko‘rsatish, havfsizligi, uzgartirishlar nazorati, zaxira nusxalarni tashkil etish);
- moddalar, reagentlar va eritmalar (tayyorlanishi va yorliqlanishi).

1. ¹⁷ WHO Expert Committee on Specifications for Pharmaceutical Preparations. Fortieth Report. WHO Technical Report Series № 937. Geneva, World Health Organization

Yozuvlarni saqlash, hisobot, axborotlarni olish va saqlash. Tadqiqotlarni kodlash, ma'lumotlarni yig'ish, hisobtlarni tayyorlash, indeksatsiya qilish tizimlari, natijalarga ishlov berish, shu jumladan kompyuterlash tizimlari yordamida.

Sifatni ta'minlash bo'yicha protseduralar sifatni ta'minlash xizmati xodimlarining ishi rejalashtirish, tekshiruvlar chizmasini tuzish, tekshiruvlarni o'tkazish, hujjatlashtirish va tekshiruvlar haqidagi hisobtlarni tuzishdan iborat.

Tadqiqot rejasid, tadqiqotni o'tkazish va olingan natijalari. Tadqiqot rejasid, tadqiqot o'tqazilishidan oldin yozma holda ishlab chiqilgan, yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplariga binoan tadqiqot rahbari tomonidan sanasi ko'rsatilgan ravishda imzolangan va sifatni ta'minlash xizmati hodimlari tomonidan izlashtirilgan bo'ladi.

Tadqiqot rejasid, chetlanishlar yozma ravishda ko'rsatilishi, tushuntirilishi, qabul qilinishi va o'z vaqtida javobgar tadqiqotchi yoki tadqiqot rahbari tomonidan sanasi ko'rsatilgan holda imzolanishi kerak. Tadqiqot rejasid, chetlanishlar tadqiqotning birlamchi natijalari bilan saqlanishi kerak.

Tadqiqot rejasid, quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan chegaralanib kolmaydi:

1. Tadqiqot, sinaluvchi va standart ob'ektlar haqida ma'lumot:

- a) tadqiqotning to'liq nomi;
- b) tadqiqotning ma'nosi va maqsadi;

c) (IUPAC) Xalqaro nazariy va amaliy kimyo birlashmasi nomenklaturasi, ((CAS) Amerika kimyo jamiyatini axborot xizmatining kayd etish raqami bo'yicha kodi yoki nomi orqali tekshiriluvchi ob'ektni tasvirlash, biologik parametrlari va shu kabilar.

d) ishlatiladigan standart (nazorat) ob'ekti.

2 Sinov markazi va xomiy haqida ma'lumot:

a) manzili ko'rsatilgan holda xomiy haqidagi ma'lumot;

b) tadqiqot o'tkazilishi ko'zda tutilgan barcha sinov markazlari va maydonchalarining nomi va manzili;

c) tadqiqot rahbarining ismi, sharifi va manzili;

d) javobgar tadqiqotchining ismi, sharifi, manzili va unga tadqiqot rahbari tomonidan bajarish uchun yuklatilgan tadqiqot bosqichlari.

3 Sanalar:

a) tadqiqot rahbari tomonidan tasdiqlangan tadqiqot rejasid, sanasi. Tadqiqot rejasining sinov markazi rahbariyati va xomiy tomonidan tasdiqlangan sanasi;

b) tajribaning taxminiy boshlanish va tugallanish sanalari.

4 Sinov uslublari

Iqtisodiy hamqorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmaning bo'limlaridan ko'chirmalar, boshqa qo'llanmalar va uslublar.

5 Boshqa muammolar:

6 Yozuvlar: saqlanishi kerak bo'lgan hamma yozuvlar va hujjatlarning ro'yxati.

Har bir tadqiqotga unikal identifikatsion raqam (kod) berilishi va ushbu tadqiqotga taaluqli barcha ob'ektlarga ham identifikatsion raqam (kod) berilishi shart. Tadqiqotlarda qo'llaniladigan barcha namunalar, kelib chiqishlarini tasdiqlash uchun identifikatsiya qilingan bo'lishi shart. Bunday identifikatsiya qilingan namunalarni va tadqiqotlarni kuzatilib turilishini amalga oshirishga imkon yaratadi.

Tadqiqotlar tadqiqot rejasid asosisda amalga oshiriladi, olingan barcha natijalar o'z vaqtida, tez, aniq va ravon yozib borilishi, shu yozuvlarni yozgan xodim tomonidan sanasi ko'rsatilgan holda imzolandi va kompyuterga to'g'ridan-to'g'ri kiritiladi (sana qo'yiladigan (elektron) imzo bo'lishi lozim).

Har bir tadqiqotdan so'ng yakuniy hisobot tayyorlanadi va tadqiqotlarda ishtiroq etgan javobgar tadqiqotchilar hamda ilmiy xodimlar hisobotlarini imzo va sana bilan tasdiqlaydilar.

Yakuniy hisobot quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan chegaralanmasligi kerak:

1 Tadqiqot, sinaluvchi va standart ob'ektlar bo'yicha identifikatsion ma'lumotlar:

a) kengaytirilgan nomlanishi;

b) tekshiriluvchi ob'ektga tegishli identifikatsion ma'lumotlar - kod yoki nomlanishi (Nazariy va amaliy kimyo bo'yicha Halqaro tashkilot nomenklaturasiga ko'ra (IUPAC), Amerika kimyo jamiyatining kimyoviy adabiyotlar bo'yicha axborot xizmatini ro'yhati raqami bo'yicha (CAS), biologik harakteristikalar va boshqalar);

c) standart ob'ektning nomlanishi;

d) sinaluvchi ob'ektning tozaligi, turg'unligi va bir xilligini o'z ichiga olgan harakteristikasi.

2 Homiy va sinov markazi xaqida ma'lumot:

a) homiyning nomi va manzili;

b) tadqiqotda ishtirok etuvchi sinov markazlari va maydonchalarining nomi, manzili;

c) tadqiqot rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi va manzili;

d) javobgar tadqiqotchi(lar)ning familiyasi, ismi, otasining ismi va manzili, hamda unga bajarish uchun topshirilgan tadqiqot bosqichlari;

f) yakuniy hisobotga hisobotlari kiritilgan ilmiy xodimlarning familiyasi, ismi, otasini ismi va manzili.

3. Tajribaning boshlanish va yakunlanish sanalari.

4 Sifatni ta'minlash bo'yicha inspektorlarning hisoboti o'tkazilgan tekshiruvlar turlari va sanalari to'g'risada, tekshiruvdan o'tgan tadqiqot bosqichlari, tadqiqot rahbari va javobgar tadqiqotchi(lar)ga taqdim etilgan sanasi ko'rsatilgan tekshiruv natijalarini o'z ichiga oladi.

5. Tadqiqot materiallari va uslublari:

a) tadqiqotlarda ishlataladigan materiallar va uslublarning tasnifi;

b) tadqiqotda ishlatalgan iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (OECD) uslubiy qo'llanmasidan yoki boshqa rasmiy qo'llanmalar va uslubiy hujjatlardan olingan axborot ma'lumotlar.

6. Natijalar:

a) natijalarning qisqacha mazmuni;

b) tadqiqot rejasini bajarishda olingan barcha ma'lumot va natijalar;

c) olingan ma'lumotlarni hisob-kitobi va statistik ishlovini o'z ichiga olgan natijalarni taqdimoti;

d) natijalarni baholash va muhokamasi, ma'lumotlar, xulosalar.

7. Saqlash

Tadqiqot rejasi, sinaluvchi va standart ob'ektlarning namunalari, birlamchi ma'lumotlar va yakuniy hisobotlarni yaxshi sharoitlarda saqlanishini ta'minlovchi joy belgilanadi.

16.3. Hujjatlar va materiallarni saqlash

Arxivda, belgilangan muddat mobaynida katalogga kiritilgan holda quyidagi hujjatlar va materiallar saqlanadi:

a) tadqiqot rejasi, birlamchi ma'lumotlar, sinaluvchi yoki standart ob'ektlarning namunalari, har bir tadqiqotning yakuniy hisobotlari;

b) sifatni ta'minlash dasturi bo'yicha bajarilgan tekshiruvlar materiallari, hamda asosiy reja-chizma;

c) xodimlarni ma'lumoti, tayyorgarligi, malakasi va ish tajribasi haqidagi ma'lumotlar;

d) asbob-uskunalarini xizmati va kalibrovkasi bo'yicha yozma hujjatlar va hisobotlar;

e) kompyuterlashtirilgan tizimlarni validatsiyasi bo'yicha hujjatlar;

f) barcha standart operatsion protseduralarning tarixiy fayllari;

g) tashqi muhit va tadqiqot o'tqaziladigan joylar parametrlarini monitoringi to'g'risidagi yozma hujjatlar. Agar materiallarni saqlash muddati belgilanganmagan bo'lsa, u holda tadqiqot materiallarini haqiqiy (doimiy) saqlanish joyi belgilangan va ro'yhatga olingan bo'ladi. Sinaluvchi va standart ob'ektlarni belgilangan saqlash muddatigacha yo'q qilish sabablari tushintirilgan (izohlangan) bo'lishi lozim. Tekshiriluvchi va standart ob'ektlar, sifati ularni ishlatish mumkin bo'lgunga qadar saqlanadi (ob'ektlarni saqlash buyicha yo'riqnomaga asoslangan holda).

Arxivdan foydalanish faqatgina sinov markazi rahbariyatini ruxsati bilan amalgalash oshiriladi. Agar arxiv joylashgan sinov markazi yoki tashkilot faoliyatini to'xtatsa yoki bankrot deb e'lon qilinsa va huquqiy davomchisi bo'lmasa, u holda arxiv materiallari tadqiqot(lar) homiy(lar)ini arxiviga topshiriladi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Sinov markazlarini tashkil etish
2. Sinov markazining tashkiliy tuzilishi va xodimlari
3. Sifatni ta'minlash dasturi
4. Tadqiqot o'tqazish uchun mo'ljallangan xonalar
5. Sinaluvchi va standart ob'ektlarni qabul qilish, ishlov berish, namunalarni tanlab olish va saqlash
6. Standart operatsion protseduralar
7. Tadqiqot rejasi, tadqiqotni o'tkazish va olingan natijalari
8. Yozma materiallar (hujjatlar) va materiallarni saqlash

Foydalanimadigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

17-MAVZU:STANDART OPERATSION JARAYONLAR (SOJ) NING DORI VOSITALARINI SIFATINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

7- MAVZU: STANDART OPERATSION JARAYONLA (SOJ) RNING DORI VOSITALARINI STANDARTLASHDAGI AHAMIYATI. STANDART OPERATSION TIZIMLARNING SIFAT KURSATKICHALARINI ANIQLASHDA QO'LLANILISHI.

Ma'ruza rejasi:

1. Standart operatsion jarayonlar xaqida umumiy tushunchalar
2. Standart operatsion jarayonlar xarakteristikasi
3. Standart operatsion jarayonlar klassifikatsiyasi
4. Standart operatsion jarayonlar ishlab chikishga umumiy talablar
5. Xujjatlar tayyorlanishining asosiy talablari

Standart operatsion jarayonlar haqida umumiy tushunchalar (SOP)

- 1 – Har-xil darajadagi standartlar kriteriyalar va indikatorlarni belgilaydi
- 2 – nimani tugri bajarish kerak – degan savolga javob beradi

3 – qanday tugri bajarish kerak, qachon, kaerda va kim – degan savolga javob yo’q.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) – ishchi jaraenlarni bajarilishini xujjat sifatida rasmiylashtirilgan yuriknomalari yoki tibbiy yordam standartlari talablarini ijrosi xarakatlarini bajarilishini formalashtirilgan algoritmlari.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) mavjudligi ISO/MEK 9000 elementi kurnishida, Demingning sifatni boshqarish industrial tizimining majburiy talabi xisoblanadi

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) kullanilishidan erishiladigan manfaatlar :

1 – malaka(kompetensiya), sifatni ta’minlash va xarakatlarning mantikiy ketma-ketligi buyicha vazifalarini anik taksimlanishi.

2 - standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ning mavjudligi yangi xodimlarni ukitishda foydali, mutanosiblikni(sootvetstvie) tekshirishda ma’lumotnoma sifatida xizmat kiladi, raxbariyatni yukligi vaktida xodimlarni anik ishlashiga imkoniyat yaratadi.

3 - standart operatsion jarayonlar(SOPlar) – bu korxonada kullaniladigan jarayonlar yozilgan va uning siyosati aks etgan xujjat.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)da 3 savolga javob bulishi shart :

1 - kim? – amalga oshirishda katnashadi, uning talablarini bajaradi va nima? – uni amalga oshirish uchun kanday resurslar zarur;

2 - kaerda? - standart operatsion jarayonlar(SOPlar) talablarini firmaning kaysi bulimida bajarilishi shart;

3 - kachon? - standart operatsion jarayonlar(SOPlar) talablari kanday vakt oraligida bajarilishi lozim, kanday ketma-ketlikda va kanday sharoitda.

RF SSV 19.06.2003 y.dan №267 sonli «Laboratoriya amaliyoti koidalarini tasdiklash tugrisida» deb ataluvchi, standart operatsion jarayonlar(SOPlar) ta’rifi va kullanish metodologiyasi keltirilgan, tartiblashtiruvchi konun mavjud. Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) ISO halqaro standartlari buyicha sifat tizimi joriy etilgan korxonalarda xam kullaniladi

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) kiska, anik, konkret bulishi kerak, yoki jadval, yoki matn kismi minimal xajmda bulgan chizma yoki algoritm kurinishida bulishi shart.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) barcha ishlab chiqarish jaraenlari uchun ishlab chikiladi :

-kelib tushish

-identifikatsiyalash

-tamgalash

-ishlov berish

-namunalarni tanlash

-urganilaetgan va standart moddalarni ishlatish va saklash

-atrof muxit nazorati uchun ulchagich asbob uskunalariga xizmat kursatish va kalibrash

-reaktivlar, ozuka muxitlari va xayvonlar ozukalarini tayyorlash

-yozuvlarni, xisobotlarni olib borish va ularni saklash

-test-sistemalar saklanuvchi xonalarni xizmat kilish

-test-sistemalarni kabul kilish, tashish, joylashtirish, ta'riflash, identifikatlash va saklash.

Sifat 3 kurinishda tavsiflanadi :

1 – tarkib sifati (resurslarning tashkiliy-texnik sifati: inshoat, kurilma, uskuna, materiallar, xodimlar);

2 – protsess sifati (texnologiya, profilaktika, diagnostika, davolash);

3 – natija sifati (kabul kilingan klinik kursatkichlarni muvaffakiyati va ularni iktisodiy kursatkichlarga nisbati).

Xar-bir standart operatsion jarayonlar(SOPlar) ega bulishi kerak :

- ishlab chikilishidan maksad

- uni amalga oshirish uchun zarur resurslar va texnologiyalar

- Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ni tadbik etilishidan kutilgan natijalar(oralik va sunggi)

- Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) talablariga rioya kilishni baxolash mezoni.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ni klassifikatsiyalashni 3 extimolli yondoshuvi mavjud :

1 – resurslarga, texnologiyalarga yoki natjalarga nisbatan;

2 – tibbiyot tashkilotlarining tarkibiy elementlariga nisbatan (masalan, aloxida bulinmalar ichidagi ishchi jarayonlarni belgilovchi standart operatsion jarayonlar(SOPlar); bulinmalararo munosabatlari yoki butun taṣkilot uchun umumiy);

3 – tashkilotni tashki muxitning xar-xil elementlari bilan munosabatlariaga nisbatan (patsientlar, tibbiy sugurta tashkilotlari, soglikni saklash boshqaruv organlari, boshqa tibbiy muassasalar va x.k. lar bilan munosabatlarni belgilovchi standart operatsion jarayonlar(SOPlar)).

Dori ta'minotida standart operatsion jarayonlar(SOPlar) klassifitsirlanadi:

- dori vositalarini sotib olish buyicha;

- dori vositalarini bulinmalar aro taksimlanishi buyicha;

- retseptlar yozilishi buyicha;

- dori vositalarini tayinlash buyicha;

- formulyar ruyxatlar va ma'lumotnomalar ishlab chikish buyicha;

- dori vositalarini saklash buyicha;

- dori vositalarini bulinmaga berilishi yoki bulinma xamshirasi tamonidan tarkatilishi buyicha.

Xodimlar resurslariga tegishli standart operatsion jarayonlar(SOPlar) kuyidagicha bulishi mumkin :

- kichik, urta tibbiy xodimlar, vrachlar, bulim mudirlarini ishga kabul kilish;

- kichik, urta tibbiy xodimlar, vrachlar, bulim mudirlari uchun xizmat vazifalari;

- malakasini oshirishga, maxsus ukishga yullah.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ni ma'lum korxona standartlaridan(STP), maxsulot sifatini kompleks boshqaruv tizimidan (KS UKP SSSR) va texnologik yuriknomalardan 2ta prinsipial farki mavjud :

1 - Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) farmatsevtik korxonalarning uzi tamonidan tuziladi va xech kim bilan kelishilmaydi, chunki ular tarkibiga uz nou-xausi kiritilgan bulishi mumkin.

2 – Davlat sunggi natijaga talablarni belgilaydi – ya’ni preparatning klinikadagi samaradorligi va xavfsizligiga, bunday natijaga erishishning yullari esa korxonalarning rakobatli tenglashishi muammosidadir. Bunday tenglashishga standart operatsion jarayonlar(SOPlar) yordamida xam erishiladi.

Dori vositalarini iste’molchilarga yaroklilagini kafolatini ta’minlashning asosiy kritik parametrlari

- YAxshi sifat
- YAxshi mikdor
- YAxshi narx-navo

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar), yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti (GMP) joriy etilishi lozim bulgan barcha joylarda ta’minlanishini kafolatlovchi ish kuroli bulib xizmat kiladi.

Xar-bir standart operatsion jarayon (SOP) tarkibiga kirishi shart bulgan ma’lumot :

- Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ning kaysi maksadga belgilanganligi.
- Jarayonlarni xakikatdan kullanilishi.
- SHu faoliyatni bajarilishiga javobgar shaxslar.
- Nazorat va boshqaruvga javobgar shaxslar.
- Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ning ishlatilishi va yangilanishi davriyili.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ning ishlatilishiga asoslar–

Turli farmatsevtik maxsulotlarni kafolatlangan xavfsizligi va samaradorligi!

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ning tadbik etilishi buyicha majburiyatlar

Butunjaxon soglikni saklash tashkiloti (VOZ) chiqargan tegishli ishchi vaziyat talablariga kura, korxonani GMPning amaldagi standartlari buyicha standartlashtirishga ruxsat olingunga kadar, barcha farmatsevtik uskunalar va texnologik jarayonlar uchun standart operatsion jarayonlar (SOPlar) majburiy tadbik etilishi shart.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ni ishlab chikishga umumiyl talablar

-instruksiya va jarayonlar tushunarli tilda yozilgan bulishi kerak

-protokollar shunday rasmiylashtirilgan bulishi kerak-ki, ishlab chiqarish jarayonida barcha kuzda tutilgan jarayonlar va ishlab chiqarish instruksiyalari boskichlari va operatsiyalari xakikatda bajarilganligi tasdiklangan, maxsulotning mikdori va sifati esa kuzlanganiga mos kelgan.

Vakolatlangan shaxslar katoriga kuyidagilar kirishi mumkin :

-SHu bulinma raxbariyati tamonidan vakolatga ega, GMP standartlarini yaxshi biluvchi, uz soxasining mutaxassisi

-Ishlab chiqarish boshligi

-Sifat nazorati xizmati boshligi (SKK)

-Sifatni ta’minlash xizmati boshligi (SOK)

-Zavod raxbaryati tamonidan tayinlangan, GMPni tadbik etish buyicha mas'ul menedjer (texnik direktor bulishi mumkin).

Xujjatlarni tayyorlashning asosiy talablari

1.YUKORI RAXBARIYAT TAMONIDAN BUNING UCHUN VAKOLAT OLINMAGUNGA KADAR XUJJATLARGA UZGARTIRISHLAR, TUGRILASHLAR YOKI QO'SHIMCHALAR KIRITILISHI MUMKIN EMAS.

2.Xujjatlarda kuyidagilar aks ettirilishi lozim: xujjat nomi, kod №, kayd etish №, chiqarilgan sana va tadbik etilgan sana, ushbu xujjat nima maksadda yaratilgani haqida anik tushuntirishlar.

3.Xujjatlar urnatilgan tartibda rasmiylashtirilishi va oson nazoratda turishi lozim. Kritik jarayonlar, xodimlarning e'tiborini jalb etish maksadida, chizmalar kurinishida ajratilishi shart.

4.Kupaytirilgan xujjatlar toza bulishi, matn anik-ravon bulishi kerak.

5.Xujjatlar doimiy ravishda tekshirib turilishi va yangilanishi kerak.

6.Xujjatning oldingi nusxasini e'tiborsizlik natijasida ishlatilishini oldini olish maksadida, xujjatni saklashni amal kilish vakti tugagandan sung yuk kilinishi, javobgar shaxslar ishtirokida olib boriladi.

7.Xujjatlarga kiritilgan xar kanday uzgartirishlar, yuqorida nomlari keltirilgan ruyxatda kursatilgan barcha vakolatli shaxslar tamonidan sana kuyilib imzolanishi shart.

8.Xujjatning bitta xakikiy nusxasi (umumiy kursatmalar, standart operatsion jarayonlar (SOPlar) va spetsifikatsiyalar kabi), kulf ostida saklanishi shart. Yana bittadan nusxalar, shu xujjatlarga imzo kuygan ishchi guruxning xar bir a'zosiga beriladi. Bittadan nusxalar, shu xujjatlar bevosita taallukli bulgan bulimlarga tarkatilishi shart.

9.Xar-bir protokol identifikatlash uchun kod №ga ega bulishi va korxonaning tegishli ishlab chiqarish va texnologik bulinmalari uchun oson nazoratda turishi lozim.

10. Asosiy xujjat va uning xosilasi uchun kayd etish № bir xil bulishi mumkin.

18-MAVZU: STANDART OPERATSION TIZIMLARNING SIFAT KURSATKICHLARINI ANIQLASHDA QO'LLANILISHI

Ma'ruza rejasi:

1.Standart operatsion jarayonlar xaqida umumiylashuvchalar

2.Standart operatsion jarayonlar xarakteristikasi

3.Standart operatsion jarayonlar klassifikatsiyasi

4. Standart operatsion jarayonlar ishlab chikishga umumiylashuvchalar

5. Xujjatlar tayyorlanishining asosiy talablari

Standart operatsion jarayonlar haqida umumiylashuvchalar (SOP)

1 – Har-xil darajadagi standartlar kriteriyalar va indikatorlarni belgilaydi

2 – nimani tugri bajarish kerak – degan savolga javob beradi

3 – qanday tugri bajarish kerak, qachon, kaerda va kim – degan savolga javob yo'q.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) – ishchi jaraenlarni bajarilishini xujjat sifatida rasmiylashtirilgan yuriknomalari yoki tibbiy yordam standartlari talablarini ijrosi xarakatlarini bajarilishini formalashtirilgan algoritmlari.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) mavjudligi ISO/MEK 9000 elementi kurnishida, Demingning sifatni boshqarish industrial tizimining majburiy talabi xisoblanadi

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) kullanilishidan erishiladigan manfaatlar :

1 – malaka(kompetensiya), sifatni ta'minlash va xarakatlarning mantikiy ketma-ketligi buyicha vazifalarni anik taksimlanishi.

2 - standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ning mavjudligi yangi xodimlarni ukitishda foydali, mutanosiblikni(sootvetstvie) tekshirishda ma'lumotnoma sifatida xizmat kiladi, raxbariyatni yukligi vaktida xodimlarni anik ishlashiga imkoniyat yaratadi.

3 - standart operatsion jarayonlar(SOPlar) – bu korxonada kullaniladigan jarayonlar yozilgan va uning siyosati aks etgan xujjat.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)da 3 savolga javob bulishi shart :

1 - kim? – amalga oshirishda katnashadi, uning talablarini bajaradi va nima? – uni amalga oshirish uchun kanday resurslar zarur;

2 - kaerda? - standart operatsion jarayonlar(SOPlar) talablarini firmaning kaysi bulimida bajarilishi shart;

3 - kachon? - standart operatsion jarayonlar(SOPlar) talablari kanday vakt oraligida bajarilishi lozim, kanday ketma-ketlikda va kanday sharoitda.

RF SSV 19.06.2003 y.dan №267 sonli «Laboratoriya amaliyoti koidalarini tasdiklash tugrisida» deb ataluvchi, standart operatsion jarayonlar(SOPlar) ta'rifi va kullanish metodologiyasi keltirilgan, tartiblashtiruvchi konun mavjud. Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) ISO halqaro standartlari buyicha sifat tizimi joriy etilgan korxonalarda xam kullaniladi

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) kiska, anik, konkret bulishi kerak, yoki jadval, yoki matn kismi minimal xajmda bulgan chizma yoki algoritm kurinishida bulishi shart.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) barcha ishlab chiqarish jaraenlari uchun ishlab chikiladi :

-kelib tushish

-identifikatsiyalash

-tamgalash

-ishlov berish

-namunalarni tanlash

-urganilaetgan va standart moddalarni ishlatish va saklash

-atrof muxit nazorati uchun ulchagich asbob uskunalariga xizmat kursatish va kalibrash

-reaktivlar, ozuka muxitlari va xayvonlar ozukalarini tayyorlash

-yozuvlarni, xisobotlarni olib borish va ularni saklash

-test-sistemalar saklanuvchi xonalarni xizmat kilish

-test-sistemalarni kabul kilish, tashish, joylashtirish, ta'riflash, identifikatlash va saklash.

Sifat 3 kurinishda tavsiflanadi :

- 1 – tarkib sifati (resurslarning tashkiliy-texnik sifati: inshoat, kurilma, uskuna, materiallar, xodimlar);
- 2 – protsess sifati (texnologiya, profilaktika, diagnostika, davolash);
- 3 – natija sifati (kabul kilingan klinik kursatkichlarni muvaffakiyati va ularni iktisodiy kursatkichlarga nisbati).

Xar-bir standart operatsion jarayonlar(SOPlar) ega bulishi kerak :

- ishlab chikilishidan maksad
- uni amalga oshirish uchun zarur resurslar va texnologiyalar
- Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ni tadbik etilishidan kutilgan natijalar(oralik va sunagi)
- Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) talablariga rioya kilishni baxolash mezoni.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ni klassifikatsiyalashni 3 extimolli yondoshuvi mavjud :

- 1 – resurslarga, texnologiyalarga yoki natijalarga nisbatan;
- 2 – tibbiyot tashkilotlarining tarkibiy elementlariga nisbatan (masalan, aloxida bulinmalar ichidagi ishchi jarayonlarni belgilovchi standart operatsion jarayonlar(SOPlar); bulinmalararo munosabatlari yoki butun taṣkilot uchun umumiy);
- 3 – tashkilotni tashki muxitning xar-xil elementlari bilan munosabatlariga nisbatan (patsientlar, tibbiy sugurta tashkilotlari, soglikni saklash boshqaruv organlari, boshqa tibbiy muassasalar va x.k. lar bilan munosabatlarni belgilovchi standart operatsion jarayonlar(SOPlar)).

Dori ta'minotida standart operatsion jarayonlar(SOPlar) klassifitsirlanadi:

- dori vositalarini sotib olish buyicha;
- dori vositalarini bulinmalar aro taksimlanishi buyicha;
- retseptlar yozilishi buyicha;
- dori vositalarini tayinlash buyicha;
- formulyar ruyxatlar va ma'lumotnomalar ishlab chikish buyicha;
- dori vositalarini saklash buyicha;
- dori vositalarini bulinmaga berilishi yoki bulinma xamshirasi tamonidan tarkatilishi buyicha.

Xodimlar resurslariga tegishli standart operatsion jarayonlar(SOPlar) kuyidagicha bulishi mumkin :

- kichik, urta tibbiy xodimlar, vrachlar, bulim mudirlarini ishga kabul kilish;
- kichik, urta tibbiy xodimlar, vrachlar, bulim mudirlari uchun xizmat vazifalari;
- malakasini oshirishga, maxsus ukishga yullah.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ni ma'lum korxona standartlaridan(STP), maxsulot sifatini kompleks boshqaruv tizimidan (KS UKP SSSR) va texnologik yuriknomalardan 2ta prinsipial farki mavjud :

- 1 - Standart operatsion jarayonlar(SOPlar) farmatsevtik korxonalarining uzi tamonidan tuziladi va xech kim bilan kelishilmaydi, chunki ular tarkibiga uz nou-xausi kiritilgan bulishi mumkin.

2 – Davlat sunaggi natijaga talablarni belgilaydi – ya’ni preparatning klinikadagi samaradorligi va xavfsizligiga, bunday natijaga erishishning yullari esa korxonalarning rakobatli tenglashishi muammosidadir. Bunday tenglashishga standart operatsion jarayonlar(SOPlar) yordamida xam erishiladi.

Dori vositalarini iste’molchilarga yaroklilagini kafolatini ta’minlashning asosiy kritik parametrlari

- YAxshi sifat
- YAxshi mikdor
- YAxshi narx-navo

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar), yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti (GMP) joriy etilishi lozim bulgan barcha joylarda ta’minlanishini kafolatlovchi ish kuroli bulib xizmat kiladi.

Xar-bir standart operatsion jarayon (SOP) tarkibiga kirishi shart bulgan ma'lumot :

- Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ning kaysi maksadga belgilanganligi.
- Jarayonlarni xakikatdan kullanilishi.
- SHu faoliyatni bajarilishiga javobgar shaxslar.
- Nazorat va boshqaruvga javobgar shaxslar.
- Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ning ishlatilishi va yangilanishi davriyili.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ning ishlatilishiga asoslar–

Turli farmatsevtik maxsulotlarni kafolatlangan xavfsizligi va samaradorligi!

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ning tadbik etilishi buyicha majburiyatlar

Butunjaxon soglikni saklash tashkiloti (VOZ) chiqargan tegishli ishchi vaziyat talablariga kura, korxonani GMPning amaldagi standartlari buyicha standartlashtirishga ruxsat olingunga kadar, barcha farmatsevtik uskunalar va texnologik jarayonlar uchun standart operatsion jarayonlar (SOPlar) majburiy tadbik etilishi shart.

Standart operatsion jarayonlar(SOPlar)ni ishlab chikishga umumiyl talablar

-instruksiya va jarayonlar tushunarli tilda yozilgan bulishi kerak

-protokollar shunday rasmiylashtirilgan bulishi kerak-ki, ishlab chiqarish jarayonida barcha kuzda tutilgan jarayonlar va ishlab chiqarish instruksiyalari boskichlari va operatsiyalari xakikatda bajarilganligi tasdiklangan, maxsulotning mikdori va sifati esa kuzlanganiga mos kelgan.

Vakolatlangan shaxslar katoriga kuyidagilar kirishi mumkin :

-SHu bulinma raxbaryati tamonidan vakolatga ega, GMP standartlarini yaxshi biluvchi, uz soxasining mutaxassisi

-Ishlab chiqarish boshligi

-Sifat nazorati xizmati boshligi (SKK)

-Sifatni ta’minlash xizmati boshligi (SOK)

-Zavod raxbaryati tamonidan tayinlangan, GMPni tadbik etish buyicha mas’ul menedjer (texnik direktor bulishi mumkin).

Xujjatlarni tayyorlashning asosiy talablari

- 1.YUkori raxbariyat tamonidan buning uchun zarur vakolat olinmagunga kadar xujjatlarga uzgartirishlar, tugrilashlar yoki qo'shimchalar kiritilishi mumkin emas.
- 2.Xujjatlarda kuyidagilar aks ettirilishi lozim: xujjat nomi, kod №, kayd etish №, chiqarilgan sana va tadbik etilgan sana, ushbu xujjat nima maksadda yaratilgani haqida anik tushuntirishlar.
- 3.Xujjatlar urnatilgan tartibda rasmiylashtirilishi va oson nazoratda turishi lozim. Kritik jarayonlar, xodimlar e'tiborini jalb etish maksadida, chizmalar kurinishida ajratilishi shart.
- 4.Kupaytirilgan xujjatlar toza bulishi, matn anik-ravon bulishi kerak.
- 5.Xujjatlar doimiy ravishda tekshirib turilishi va yangilanishi kerak.
- 6.Xujjatning oldingi nusxasini e'tiborsizlik natijasida ishlatalishini oldini olish maksadida, xujjatni saklashni amal kilish vakti tugagandan sung yuk kilinishi, javobgar shaxslar ishtirokida olib boriladi.
- 7.Xujjatlarga kiritilgan xar kanday uzgartirishlar, yuqorida nomlari keltirilgan ruyxatda kursatilgan barcha vakolatli shaxslar tamonidan sana kuyilib imzolanishi shart.
- 8.Xujjatning bitta xakikiy nusxasi (umumiy kursatmalar, standart operatsion jarayonlar (SOPlar) va spetsifikatsiyalar kabi), kulf ostida saklanishi shart. Yana bittadan nusxalar, shu xujjatlarga imzo kuygan ishchi guruxning xar bir a'zosiga beriladi. Bittadan nusxalar, shu xujjatlar bevosita taallukli bulgan bulimlarga tarkatilishi shart.
- 9.Xar-bir protokol identifikatlash uchun kod №ga ega bulishi va korxonaning tegishli ishlab chiqarish va texnologik bulimlari uchun oson samarali bulishi kerak.
10. Asosiy xujjat va uning xosilasi uchun kayd etish № bir xil bulishi mumkin.

19-MAVZU: FARMATSEVTIKA KORXONALARING NAZORAT TAHLIL LABORATORIYALARIDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMI

Reja:

1. Farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish
2. Sifatni nazorat qilish bo'limi faoliyatining tamoillari
3. Nazorat tahlil laboratoriylarida (dori vositalari sifatini nazorat qilish markazlari) dori vositalari sifatini nazorat qilish

Tayanch iboralar: *Sifatni nazorat qilish bo'limi, Nazorat tahlil laboratoriysi, dori vositalari sifatini nazorat qilish markazlari.*

19.1. Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish

Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish deganda mahsulotni belgilangan tartibda ishlab chiqarilishini ta'minlash va tayyor dori vositasini ishlab chiqarish hayotiy davrini nazorat etib borish tushiniladi va u quyidagi qismlardan iborat:

- sifatni ta'minlash
- yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti
- sifatni nazorat qilish.

Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarida seriyalab (turkum) chiqarilayotgan dori vositalarining texnologiyasi va sifatini nazorat qilishda asosiy hujjat bu ishlab chiqarish reglamentidir. Mazkur reglament ishlab chiqaruvchi korxona bilan sohaning ilmiy-tadqiqot institutlari hamkorligida ishlab chiqiladi. Reglament tarkibida dori vositasining sifatiga qo'yilgan talablar keltiriladi va ular xuddi FM, VFM va KFM kabi huquqiy hujjat bo'lib hisoblanadi.

Belgilangan talablarni bajarilishi sifatni nazorat qilish bo‘limiga yuklatiladi. Sanoat reglamenti bosqichma-bosqich ishlab chiqiladi:

1. Laborator reglamenti (laboratoriya sharoitida ishlab chiqarish).

2. Tajriba – sanoat reglament va loyixa hujjatlari asosida (tajriba uchastkasida dori vositasini ishlab chiqarish va uning sifatini baholash).

3. Tajriba-sanoat reglamenti va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosidagi loyiha hujjatlari bo‘yicha Yangi dori moddasi yoki dori shaklini ishlab chiqish (puskavoy reglament).

4. Sanoat reglamenti.

Sanoat reglamenti bir necha qismlardan iborat, jumladan texnik va analistik nazorat o‘tkazish qismi. Mazkur qismda sifatni nazorat etish tartibi aniq qilib belgilangan, ya’ni nazorat ob’ekti va vositalari, nazorat etilishi shart bo‘lgan o‘lchamlar, ularning me’yorlari, tozalash usullari va takrorlanishi.

Mazkur reglamentning “ishlab chiqarish nazorati” qismida nazoratning bosqichma-bosqich o‘tkazilish tartibi va ketma-ketligi bayon etiladi. Texnologik jarayonning tahlil uchun namuna olish nuqtalari va namunalarni tahlil qilish usullari, shuningdek tekshirilishi shart bo‘lgan o‘lchamlar ro‘yxati keltiriladi. Reglamentda yana xom ashyo, yarim tayyor, oraliq mahsulot, yordamchi vositalar va tayyor mahsulotlarni nazorat qilish tizimi yoritiladi, xom ashyo va yordamchi vositalar nazorati ishlab chiqarishdan avval olib boriladi.

Reglamentning “oxirgi (tayyor) mahsulot tavsifi” bo‘limida mahsulotning xossalari, turi va qadoq shakllari, turg‘unligiga ta’sir etuvchi omillar (yorug‘lik, namlik, kislород va karbonat angidridi, bosim, rN va x.k.) va b. bayon etiladi.

Qayd etilgan xolatlarda eng muhim o‘rinni analistik tahlil usullari egallaydi. Analistik tahlil 3 xil darajada olib boriladi:

Birinchi lokal daraja - faqat bitta jarayon (bitta reaksiya, bug‘latish, filtrlash va b.) nazorat etiladi. Mazkur holatda oraliq mahsulot hosil bo‘ladi va u keyingi tozalash bosqichiga o‘tkaziladi. Bunday holatlarda tezkor usullar, ya’ni jarayonni to‘xtatib qo‘yolmaydigan refraktometriya, kolorimetriya, rN metriya, GSX va YUSSX uslublardan foydalaniadi.

Ikkinci bosqichda nazorat yoki analistik tahlil texnologik jarayonning barcha bosqichlarida, shuningdek tozalash va ajratib olish kabi jarayonlarda olib boriladi. Ushbu bosqichda yarim tayyor mahsulot hosil bo‘ladi. Ushbu holatlarda sellektiv fizika-kimyoviy usullardan foydalinish maqsadga muvofiqdir: xromatografiyaning barcha turlari, spektrofotometriya, polyarografiya, potensiometrik titrash va b. Mazkur nazoratning maqsadi keyinchalik ishlab chiqarishda tuzatish mumkin bo‘lgan o‘lchamlarni aniqlashdir.

Nazoratning eng yuqori 3-darajasida tayyor mahsulotning sifati va sonini, shuningdek xom ashyo va energiyaning sarf-harajatini ham aniqlash imkonini berishi lozim. Tahlillar MH (FM, VFM, KFM) asosida olib boriladi va bunda usulning selektivligi hamda aniqligi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida analistik nazoratni olib borish sifatni nazorat qilish bo‘limi yoki texnik nazorat bo‘limi (SNQB) zimmasiga yuklatiladi. SNQB yuqori malakali xodimlar, zamonaviy asbob-uskunalar to‘plami, reaktivlar, MH da keltirilgan analistik usullar va bosqichli nazoratni o‘tkazish yo‘riqnomalari bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.¹⁸

SNQB xodimlari tasdiqlangan yo‘riqnomalar aosida xom ashyo, yordamchi va qadoqlovchi mahsulotlar, yarim tayyor va tayyor mahsulotlardan namuna oladilar va MH muvofiqligi bo‘yicha kirish nazoratini olib boradilar.

SNQB tarkibi ishlab chiqarish xajmi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Uning tarkibiga ko‘pincha nazorat tahlil (kontrolno-analiticheskaya), biologik, toksikologik va boshqa laboratoriylar kiradi. SNQB korxona direktoriga bo‘ysunmaydigan erkin faoliyat yurituvchi bo‘lim hisoblanadi (sifatni ta’minlash bo‘yicha Direktor). Bo‘lim korxona direktori buyrug‘i asosida tuziladi va tarqatib yuboriladi. SNQB boshlig‘i korxona direktori buyrug‘i asosida tayinlanadi va

2. ¹⁸ V.N. Abdullabekova, A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev “Dori vositalarini sifatini ta’minlash” o‘quv qo‘llanmasi, Toshkent, 2016y.

lavozimidan ozod qilinadi. SNQB bo‘limi boshlig‘i sifatida boshqaruv bo‘limida 3 yil faoliyat yuritgan, oliy ma’lumotli farmatsevt, ximik-texnolog, biotekhnolog va tibbiyot xodimlarini tayinlash mumkin. SNQB boshlig‘i o‘z o‘rinbosariga ega va uning faoliyati SNQB boshlig‘i tomonidan belgilab beriladi. O‘rinbosar va boshqa lavozimlarga xodimlar SNQB boshlig‘i tavsiyasi va direktor buyrug‘i asosida ishga qabul qilinadi va lavozimidan ozod qilinadi. Bo‘lim o‘z faoliyatida korxonaga va sifatni nazorat qilishga oid qonunlar, uslubiy qo‘llanmalar, bo‘yruqlar va ishlab chiqarishdagi sifatni nazorat qilishga oid hujjatlar bilan ishlaydi.

19.2. Sifatni nazorat qilish bo‘limi faoliyatining tamoillari

Farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida yaxshi laboratoriya amaliyoti sifatni ta’minlash tizimining eng asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib hisoblanadi, u GMP talablari asosida tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatishi kerak. Korxonada sifatni ta’minlash tizimi faol ishlashi uchun sifatni nazorat qilish bo‘limi (SNQB) va sifat nazorati laboratoriysi tashkil etilgan bo‘lishi kerak. Sifatni nazorat qilishga qo‘yilgan talablar sifat menejmenti tizimining bo‘linmas qismi bo‘lib hisoblanadi.

Korxonada sifatni nazorat qilish uchun tegishli tuzilish, shtat va hujjatlar mavjud bo‘lishi kerak, chunonchi:

- instruksiyalar va ishlarni to‘g‘ri bajarish uchun SOJ (SOP)
- xizmat vazifikasi bilan bog‘liq bo‘lgan instruksiyalar
- hujjatlar aylanishining tartib qoidalari
- uslubiy ta’mnot.

SNQB va laboratoriya kerakli xonalar, jixozlar, asbob-uskunalar, reaktivlar, standart namunalar, jonivorlar va materiallar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

SNQB ning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- kirish nazorat
- ishlab chiqarishning bosqichli (postadiyniy-operatsionnyiy) nazorati
- xodimlar nazorati
- atrof-muhit nazorati
- ishlab chiqarish binolari va jixozlarining nazorati
- tayyor mahsulot nazorati
- to‘g‘rilash harakatlarining nazorati
- shikoyatlar nazorati.

Tarozlar turgan joy vibratsiya va elektromagnit nurlanishlardan yiroqda joylashgan; namunalar olinadigan va xromatografik asbob-uskunalar joylashgan xonalarda tortadigan mo‘rilar bilan ta’minlangan; namunalar olinadigan, spektral va xromatografik asbob-uskunalar joylashgan xonalar bir – biridan ajratilgan, shuningdek, arxiv namunalar, reaktivlar, standart namunalarni saqlash xonalari alohida joylashgan bo‘lishi lozim.

Mikrobiologik va fizik-kimyoviy tahlil laboratoriyalari alohida-alohida joylashgan, mikobiologik laboratoriya xonasi havoni tozalovchi blok va havoni tortib oluvchi mo‘ri bilan jixozlangan bo‘lishi kerak.

Laboratoriyalarda foydalanilayotgan asbob-uskunalar, tahlil usullari barchasi validatsiyalangan bo‘lishi lozim. Shuningdek, asbob-uskunalar, barcha qo‘llanilayotgan kimyoviy o‘lchov idishlari Davlat standartining reestriga kiritilgan va sertifikatlashtirilgan bo‘lishi talab etiladi. O‘lchov asboblari yilda bir marta kalibrланib turilishi kerak.

Nazorat tamoillari:

- malakali xodimlarning bo‘lishi
- rahbariyatga so‘zsiz bo‘ysinish
- sifatli ish
- ichki audit

SNQB korxonaning boshqa bo‘limlari, jumladan korxona rahbariyati, mas’ul shaxs va sifatni ta’minlash kabi bo‘limlar bilan hamkorlikda ishlaydi. Laboratoriyalarda faoliyat yuritayotgan xodimlar doimiy ravishda o‘z malakalarini oshirib borishlari lozim. Buning uchun malaka oshirish rejasi tuziladi, malaka oshirish imtixon topshiriladi va attestat olish bilan tugallanadi.

SNQB ning vazifalari:

- Dori vositalari ishlab chiqarishini tashkil etish, loyixasini tuzish, muxandislik tizimi, jihozlanganlik darjasи, atrof-muhit ta'siri, namuna tanlash, tajribalarni olib borilishi, usullarni validatsiyalash va hujjatlashtirish
- Hujjatlar asosida har bir ishlab chiqarilayotgan mahsulot seriyasining sifatini ta'minlash
- VFM talabiga javob bermaydigan dori vositalarining ishlab chiqarishni to'xtatish
- Analtik tahlilda har bir jarayonning standartlar asosida to'liq bajarilishini ta'minlash
- Ishlab chiqarishda sifatini ta'minlaydigan jarayonlarni samaradorligini oshirish
- Xom ashyo, qadoqlov materiallari va yarim tayyor mahsulotlarning sifatlilagini ta'minlash
- Tayyor mahsulot sifatini nazorat qilish, saqlanish jarayonidagi turg'unligini kuzatish
- Xom ashyo, qadoqlov materiallari va yarim tayyor mahsulotlarning sifatlilagini hujjatlashtirish
- Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni boshqaruv bulimiga ma'lum qilib, ularni hal etish yoki jarayonni to'xtatish
- Ishchi instruksiyalarni ishlab chiqish (SNQB faoliyatiga tegishli standart operatsion jarayon -SOJ).
- Texnologik reglamentlar asosida dori vositalari sifatini ta'minlanayotganini ichki nazorat va audit o'tkazish bilan aniqlash
- Joy va jihozlarning validatsiyasida qatnashish.
- Xodimlarning malakasini oshirish va attestatsiya jarayonida qatnashish.
- Ishlab chiqarilayotgan dori vositasi uchun me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish (FSP, texnologik reglamentlar, spetsifikatsiyalar) va o'zgartirishlar kiritish
- Mahsulot sifati hisobi, ishlab chiqarilgan mahsulot talabga javob bermagan taqdirda tahlil xatoliklarini aniqlash, ishlab chiqarishdagi muammolarni hal qilish va hisobini olib borish.
- Dori vositalari ishlab chiqarishda mikrobiologik monitoring o'tkazish
- Texnologik jarayonda ishlatiladigan maxsus kiyimlar nazorati
- Tozalangan va in'eksiya uchun ishlatiladigan suvning biologik, fizik-kimyoiy nazorati
- Sifatsiz bo'lgan dori vositalarning yo'qotilishini ta'minlash
- Har bir seriya mahsulotlarning namunalarini talab etilgan sharoitlarda arxivda saqlash
- Yangi analitik tahlil usullar sifatini nazorat qilishni ta'minlash va ularni validatsiyalash
- Qadoqlash va yorliqlashni nazorat qilish
- Mahsulot turg'unligi nazoratini ta'minlash
- Mahsulot sifatiga tegishli reklamatsiyalar ishlab chiqish.

Nazorat tahlil laboratoriysi ixtiyorida mahsulot sifatiga qo'yilgan talablar va ularni tahlil usullari keltirilgan hujjatlar, me'yoriy hujjatlar (FM, VFM, KFM, DF, TH), o'lchov vositalari va asboblarni ishlatish bo'yicha, tadqiqotlar natijalari va ma'lumotlarni saqlash tizimini belgilovchi va tahlillarni olib borish tartibi keltirilgan hujjatlar bo'lishi kerak. Shuningdek qayd etish tizimiga, jumladan tahlil uchun tushgan dori vositalarining namunalari, tahlil natijalari, xisoblari, tahlil protokollari, namunalarni olgan shaxslarni qayd etish va x.k.

19.3. Nazorat tahlil laboratoriylarida (dori vositalari sifatini nazorat qilish markazlari) dori vositalari sifatini nazorat qilish

Dori vositalari sifatini nazorat qilish markazlari (yoki laboratoriylar) regional akkreditatsiyadan o'tkazilgan bo'lishi va u tashkiliy-uslubiy, shuningdek ishlab chiqarish kabi faoliyat yurgazadi. Markaz faoliyati bo'yicha litsenziyaga, xodimlari esa akkreditatsiyadan o'tgan bo'lishi kerak. Uning vazifalari SSV tomonidan belgilangan bo'lishi kerak.

Kimyo-farmatsevtik, radiofarmatsevtik, hayvon va o'simliklardan olingan gormonlar, vitaminlar, ferment preparatlar, antibiotiklar, tashxis qo'yish uchun mo'ljallangan vositalarning davlat nazorati SSV qoshidagi bosh boshqarmasi tomonidan dori vositalarini standartlash va ekspertiza qilish Davlat markazi yoki boshqa akkreditatsiyadan o'tgan Markazlar orqali amalga oshiriladi.

Davlat nazoratidan O'zbekistonda ishlab chiqarilgan va import orqali kelayotgan barcha dori vositalari, tibbiyot texnikasi va tibbiyotda ishlatiladigan mahsulotlar o'tkaziladi.

Dori vositalari sifatining Davlat nazorati quyidagi tartibda olib boriladi:

- dastlabki nazorat;
- keyingi tanlab nazorat o‘tkazish;
- arbitraj nazorat.

Dastlabki nazoratdan quyidagi dori vositalari o‘tkaziladi:

- O‘zRSSV tomonidan birinchi marta tibbiyotda ishlatalishga ruxsat etilgan;
- sanoatda birinchi marta seriyalab ishlab chiqarilayotgan;
- birinchi marta Yangi texnologiya bo‘yicha olingan Yangi dozada, dori shaklda va tarkibda seriyalab ishlab chiqarilayotgan;
- sifati yomonlashgani sababli Bosh Boshqarma tomonidan shu nazoratdan o‘tkazish talab etilgan dori vositalari.

Ishlab chiqaruvchi korxona Yangi dori vositasini ishlab chiqarish haqida bosh Boshqarmaga ma’lum qilib, undan dastlabki nazorat o‘tkazish va preparatni qayd etish haqida ruxsatnomasi olishi, dastlabki seriyalardan (5 ta dan kam bo‘lmagan) namunalar yuborishi kerak.

Seriylardan dastlabki nazorat uchun namunalar olish ishlab chiqaruvchi korxonadagi nazorat qiluvchi xizmat tomonidan olib boriladi. Namunalar Boshqarmaga tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha yuboriladi. In’eksion eritmalar va ko‘z tomchilari mavjud instruksiyalar talabiga binoan «Механические включения» ko‘rsatkichi bo‘yicha tekshirilgan bo‘lib, olingan natijalar nazorat tahlil laboratoriyalari tomonidan Boshqarmaning ko‘rsatmalariga asosan yozma ravishda keltirilgan bo‘lishi kerak, hamma ishlab chiqarilgan dori vositalarining namunalarini Boshqarmaga O‘zRSSV da qayd etilgan ularning dori moddasi (substansiya), shuningdek ularning sifatini baholovchi hujjat bilan birgalikda taqdim etiladi. Qayd qilish guvoxnomasini yoki ruxsatnomasini olmaguncha barcha seriyalab ishlab chiqarilgan dori vositalari sotuvga ruxsat etilmaydi. Dori vositasi sifatida (5 ta seriyadan kam bo‘lmagan) me’yoriy hujjat (MX) talablariga javob bergen taqdridagina Boshqarma tomonidan ushbu dori vositasi dastlabki nazoratdan keyingi nazoratga o‘tkaziladi. (yozma ravishda “qayd qilish varaqasi”).

Agar dori vositasining sifati talabga javob bermasa, u dastlabki nazoratdan yana qayta o‘tkaziladi, bunda seriyalar soni Boshqarma tomonidan ko‘rsatiladi. Dastlabki nazorat shartnomasi asosida ekspertiza markazi tomonidan o‘tkaziladi.

Keyingi tanlab o‘tkaziladigan nazoratdan barcha seriyalab chiqariladigan dori vositalari o‘tkaziladi.

Ushbu nazoratdan o‘tkazish uchun namunalar ishlab chiqaruvchi korxonaning sifatini baholovchi mutaxassislar tomonidan dori vositasini olishning barcha bosqichlarida, ya’ni xom ashyodan tortib to saqlash jarayonigacha olib boriladi.

Tayyor mahsulot sifatni baholovchi Davlat standarti – Davlat farmakopeyasining “Tabletkalar”, “In’eksion dori turlari” va boshqa umumiylar maqolalari, shuningdek xususiy me’yoriy hujjatlar (VFM, FM) bo‘yicha baholanadi.

Xozirgi kunda sanoatda ishlab chiqarilgan dori vositalari dorixona retsepturasining 95% dan oshig‘ini tashkil etib, ularning ishlatalishi yanada oshib bormoqda. Sanoatda ishlab chiqariladigan dori vositalarining farmatsevtik tahlili birinchi navbatda ishlab chiqaruvchi korxonaning NTB (nazorat texnik bo‘limi (OTK)) da, keyinchalik NTL (nazorat tahlil laboratoriyalarda (KAL)) olib boriladi.

Sanoatda ishlab chiqariladigan dori shakllari, individual dori moddalardan farq etib, ular ko‘p komponentli, ya’ni ta’sir etuvchi moddalar bitta bo‘lmay, bir nechta, shuningdek ular tarkibida to‘ldiruvchilar – shakar, kraxmal, talk, glyukoza, natriy gidrokarbonat va boshqalar ham bo‘lishi mumkin. To‘ldiruvchilar indifferent bo‘ladilar, ammo ularning fiziko-kimyoviy xossalari tanlangan tahlil usuliga, dori vositasining turg‘unligiga, tashqi ko‘rinishiga, saqlanishiga ta’sir etishi mumkin. Shuning uchun sanoatda ishlab chiqariladigan dori vositalarining tahlil usullarini tanlash nixoyatda katta ahamiyatga ega va bunda ushbu dori vositasi tarkibiga kirgan har bir dori moddaning fizikaviy-kimyoviy xususiyatlari e’tiborga olinishi kerak.

Namunalar ushbu korxonaning nazorat qiluvchi xizmati va Boshqarmaning (farminspeksiya) vakillari bilan birgalikda olinadi. Namunalarni shuningdek Boshqarmaning ko‘rsatmasiga binoan boshqa korxonalarining vakillari bilan birgalikda ham (davolash korxonalar, dorixonalar) olish mumkin.

Namunalar qadoqlangan birliklar bo‘yicha tashqi ko‘rikdan (qadog‘i va yorlig‘i buzilmagan) o‘tgandan so‘ng 3 ta bosqichda olinadi:

1-bosqich: qadoqlangan o‘ramlardan (yashik, qop, korobka va b.) birlik olish;

2-bosqich: o‘ramlar ichidagi qadoqlangan (flakon, banka, korobka va b.) birlik olish;

3-bosqich: birlamchi qadoqdagi mahsulotdan namuna olish (ampula, flakon, tub va b.).

Birlamchi qadoqdagi mahsulotning tashqi ko‘rinishi tekshirilgandan so‘ng sifatni MH asosida sinovlardan o‘tkazish maqsadida namuna tahlillar olib borish uchun etarli miqdorda olinadi.

O‘rtacha namuna olish “o‘rtacha namuna olish akti” bilan tugallanadi. Aktda dori vositasining nomi, seriya tartib raqami, dori vositasining tahlil uchun olingan umumiy miqdori ko‘rsatilishi shart. Akt SNQB boshlig‘i va nazorat-tahlil laboratoriyasi vakili (yoki talabgor) kiritilgan xayat tomonidan tuziladi va imzolanadi.

Namunalar korxonaning xati, o‘rtacha namunani olish haqidagi akti hamda ushbu dori vositasining sifatini tasdiqlovchi hujjatlar bilan birgalikda Markazga yuboriladi. Dori vositasining sifati talabga javob bermagan taqdirda Boshqarma ishlab chiqaruvchi korxonaga yozma xulosa va tahlil bayonnomasini taqdim etadi.

Arbitraj nazorat o‘tkazish. Dorilar sifati to‘g‘risida shubha tug‘ilib, uni yetkazib beruvchi korxona bilan qabul qilib oluvchi muassasa o‘rtasida kelishmovchiliklar bo‘lganda arbitraj nazorat o‘tkaziladi.

Davlat inspeksiyasi tibbiyot sanoati va farmatsiya birlashmasiga qarashli barcha muassasalarda dori moddalari sifati ustidan nazorat o‘tkazishni tashkil qiladi va uning qay darajada yo‘lga qo‘yanligi, korxonalarning dorilar ishlab chiqarish jarayonida Davlat standartlari, texnik shartlar, Davlat farmakopeyasi va boshqa meyoriy hujjatlar talabiga rioya qilishini tekshirib turadi. Davlat nazorat inspeksiyasi meyoriy hujjati bo‘limgan yoki unda ko‘rsatilgan talablarga to‘la javob bermagan dori-darmon va tibbiyotga zarur texnika vositalarini ro‘yxatdan chiqarish hamda ularni taqiqlash huquqiga ega.

Kirish nazoratidan korxona omborxonasiga kelib tushgan barcha xom ashyo va yordamchi mahsulotlar o‘tkaziladi. Ulardan namunalar olinadi. Namunaning bir qismi tahlil uchun ishlatiladi, ikkinchi qismi esa 3 yildan kam bo‘limgan muddatda saqlanadi. Yordamchi mahsulotlar 3 yil saqlanadi.

Tahlil natijalari ijobjiy bo‘lgan taqdirda material-texnik ta’minoti bo‘limiga xom ashyonini ishlab chiqarish bo‘limiga o‘tkazish uchun ruxsat beriladi. Bunda xom ashyonini “ishlatish mumkinligi to‘g‘risida xabar xati” rasmiylashtiriladi.

Agar tahlillar natijasi salbiy bo‘lsa SNQB ga xabar beriladi, SNQB “talablarga javob bermasligi to‘g‘risida xabar xati” rasmiylashtiradi va xom ashyonini “Yaroqsiz” deb yorliqlanadi. Yaroqsiz deb topilgan mahsulotga akt tuziladi va uni buyurtmachi, ta’minlovchi va arbitraj nazorati vakillari imzolaydilar.¹⁹

Bosqichma-bosqich (operatsion) korxona ichidagi nazoratini o‘tkazish tartibi. Mazkur nazorat ishlab chiqarish tarkibiga kirib, u jarayonni nazorat etish va kerak bo‘lganda ishlab chiqarish parametrlarini tuzatish uchun mo‘ljallangan jarayondir. Bosqichma-bosqich korxona ichidagi nazorat ishlab chiqarish reglamentiga texnologik jarayonlarning mosligini tekshirish va parametrlardan chetlanishlarni o‘z vaqtida aniqlashni amalgalashni oshiradi.

Tanlab nazoratni o‘tkazishda quyidagi vasifalar amalgalashni oshiriladi:

- me’yoriy hujjat talablariga uskunalar tavsifi va nazorat-o‘lchov apparatlarining mos kelishi;
- texnologik jarayonlarning rioya etilishi va oraliq mahsulotlarning sifati;
- texnik hujjat talablariga xom ashyo va yordamchi mahsulotlarning mos kelishi;
- ish joylarida me’yoriy hujjatlarning mayjudligi va ularning xolati;

2. ¹⁹ V.N. Abdullabekova, A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev “Dori vositalarini sifatini ta’minlash” o‘quv qo‘llanmasi, Toshkent, 2016y.

- ish joylari va sexlarning sanitari xolatlari.

Mazkur nazorat bevosita ishlab chiqarish sexlarida sex xodimlari, kerak bo'lsa sex yoki uchastka boshlig'i ishtirokida olib boriladi.

Nazoratlarning yana bir turi bu xodimlar nazoratidir. Bunda ularning belgilangan talab asosida ishlab chiqarishdagi o'z kasbiga mosligi, gigiyenasi, texnologik kiymini kiya olish va undan foydalana olishi kabi tomonlari nazorat etiladi.

Xodimlarning kvalifikatsiyasiga qo'yilgan talablar korxonalarda ishlab chiqilgan kasbiy yo'riqnomalarda, gigienik talablar esa korxonadagi ichki farmoyishlarda belgilangan bo'ladi va ular xodimlarga etkaziladi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish
2. Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarida analitik tahlil
3. Sifatni nazorat qilish bo'limi faoliyatining tamoillari
4. SNQB ning asosiy vazifalari
5. Nazorat tahlil laboratoriyalarda (dori vositalari sifatini nazorat qilish markazlari) dori vositalari sifatini nazorat qilish
6. Dori vositalari sifatining dastlabki nazorati
7. Dori vositalari sifatining keyingi tanlab nazorati
8. Dori vositalari sifatining arbitraj nazorati
9. Kirish nazoratini o'tkazish tartibi

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

20–21- MAVZU: FARMATSEVTIK ISHLAB CHIQISH. SUBSTANSIYALAR SIFATINI BAHLOLASH.

Reja:

1. Substansiyalarning fizik xususiyatlari
2. Substansiyalarning sifatiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar va ularning tahlili
3. Substansiyalarning havfsizligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar va ularning tahlili

Ko'pgina xorijiy davlatlarda substansiyalarga tayyor mahsulotlarni olishda foydalaniladigan yordamchi moddalar kabi xomashyo sifatida qaraladi. Ularni ba'zi xorijiy manbalarda faol ingridiyentlar deb atalmoqda. Bunga tibbiyot amaliyotida sanoatda ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalarining (95% gacha) hamda dorixonalarda ekstemporal tayyorlanadigan dori vositalarining (5% gacha) ishlatilayotganligi, shuning hisobiga substansiyalardan dori vositasi sifatida kam foydalanilayotganligi sabab bo'lmoqda. Shuning hisobiga substansiyalarning sifatiga e'tibor kamayib ketdi. Substansiyalarning sifatiga javobgarlik asosan tayyor dori vositalarini ishlab chiqarayotgan ishlab chiqaruvchilar zimmasiga yuklatilgan. Farmatsevtik mahsulot ishlab chiqaruvchilar turli yo'llar bilan olingan substansiyalarning fizik-kimyoiy va texnologik (yot aralashmalar, polimorfizm, kristallar ko'rinishi va b.) xususiyatlarini o'rganish yuzasidan izlanishlar

olib bormoqdalar. Olingen natijalar asosida spetsifikatsiyalar tuzib chiqiladi.

Bugungi kunda substansiyalarning sifatiga qo‘yilayotgan talablar tayyor dori vositasining sifatiga qo‘yilayotgan talablar bilan bir qatorda oshib bormoqda: miqdori 0,1% dan ortiq bo‘lgan barcha organik yot moddalarni identifikasiyalash, o‘ta havfli aralashmalarni aniqlash, erituvchilar qoldig‘i, radionukliotidlar, og‘ir metallar va b. miqdorini aniqlash, shuningdek tahlil usullarni takomillashtirish, validatsiyalar, standart namunalardan foydalanish va h.k.

Xorijda substansiylar tayyor dori vositalari kabi ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi. Ko‘pgina davlatlarda tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan substansiylar (listed) ro‘yxati mavjud. Ular o‘zi emas balki boshqa preparatlar tarkibiga kiritilgan holda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Shu bilan birgalikda, sanoati yuqori darajada rivojlangan davlatlarda ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talab etilayotgan hujjatlar tarkibida faol ingridiyentlarning sifat spetsifikatsiyasi, olinish manbayi, olinish texnologiyasi, kirish nazorati kabi ma’lumotlar talab etiladi. Ko‘pincha tayyor dori vositasini ishlab chiqaruvchi korxona substansiyalarni sotib oladi. Bunda nazorat organiga substansiyalarni ishlab chiqaruvchi ta’minlovchi yetishmayotgan hujjatlarni (drug master file-dori preparati uchun asosiy dose) taqdim etadi. Shu kabi hujjatlar yordamchi moddalar, yorliqlovchi mahsulotlar uchun ham tavsija etiladi. Eng qizig‘i shundaki bunday hujjatlar muvofiqlashtiruvchi organlar tomonidan tekshirilmaydi va tasdiqlanmaydi. Ammo ular ishlab chiqarish korxonasini inspeksiya qilinayotganda e’tiborga olinadi.

Substansiylar ishlab chiqaruvchi korxonalarga litsenziya berish va inspeksiya qilish turli industrial davlatlarda turlicha olib boriladi. Ba’zi davlatlarda (AQSH) litsenziya berilmaydi, lekin doimiy inspeksiya qilinadi. Ba’zi yevropa davlatlarida (Finlyandiya, Angliya, Italiya) ham litsenziya beriladi, ham inspeksiya qilinadi. Sifatini nazorat qilish qoidalari turli davlatlarda turlicha, masalan AQSH da namunalar olish va ularni tekshirish shart, ayniqsa agar ular chet davlatlarida ishlab chiqarilgan bo‘lsa, Yevropa davlatlarida esa xususiy laboratoriylar tomonidan substansiylar tanlab tekshiriladi.

Farmatsevtik ishlab chiqarishning 6 ta tizimi mavjud:

- xomashyo;
- joy va jihoz;
- ishlab chiqarish;
- tahlil laboratoriyasi;
- qadoqlash.

“Farmatsevtik ishlab chiqish” haqida ICH ning ICH Q8 bo‘limida alohida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra mahsulot va uni ishlab chiqarish to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish tartibga soluvchi organlarga ishlab chiqarishning qaysi holatlarini qanday nazorat etish kerakligi va shunga yarasha moslashuvchi yo‘l topish imkonini yaratadi.

Mazkur mahsulotni ishlab chiqaruvchi davogar uning dozasi, shakli va texnologiyasi aynan ushu preparat uchun yaroqli ekanligi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berishi kerak. Bunda faol farmatsevtik ingridiyent (FFI) haqida, to‘ldiruvchilar, qadoq va ishlab chiqarish to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Mazkur vositalar mahsulotning sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va natijada nazorat strategiyasini belgilab beradi.

10-jadval

ICH Q8 ga muvofiq dori preparatini ishlab chiqish jarayonida inobatga olinishi kerak bo‘lgan jihatlar

**Dori preparati
komponentlari**

Inobatga olinishi kerak bo‘lgan jihatlar

Faol farmatsevtik gridiyent Faolligi yoki texnologiyasiga (eruvchanlik, suv miqdori, zarralar kattaligi, istallar xususiyatlari, biologik faolligi va o'tkazuvchanlik) ta'sir etuvchi har unday fizik-kimyoiy va biologik xususiyatlar.

Ushbu xususiyatlar orasidagi bog'liqlik.

Dori vositasi tarkibidagi ta'sir etuvchi moddalarning (agar tarkibda bir nas bir necha birikmalar saqlasa) bir-biriga mos kela olishi.

Dori vositasi tarkibidagi ta'sir etuvchi moddalar va to'ldiruvchilarning birriga mos kela olishi.

To'ldiruvchilar, ordamchi moddalar

Mahsulot sifatiga (turg'unligi, biologik jihatidan bir-biriga mos kela olishi, xnologikligi) ta'sir etishi mumkin bo'lgan to'ldiruvchilarni hamda ularning onsentratsiyasi va xususiyatlarini tanlash.

Bir necha to'ldiruvchilardan foydalanilganda ularning bir-biriga mos kela ishi.

Saqlanish muddati davrida to'ldiruvchining o'zgarmaslik xususiyati.

To'ldiruvchining bezararligi to'g'risidagi ma'lumot adabiyotlardagi a'lumotlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

10-jadvalning davomi

Texnologiyani ishlab chiqish

Ishlab chiqish jarayonlari bo'yicha dastlabki konsepsiyadan kirgi loyihagacha bo'lgan kritik sifat ko'rsatkichlarini iqlashni o'z ichiga olgan rezyume.

Substansiya texnologiyasiga kirgan to'ldiruvchilarni asoslash.

Klinik bezararligi, ta'sir faolligi, biologik jihatdan bir-biriga os kela olishi, biologik ekvivalentligi asosida foydalanilgan xnologiyalar bo'yicha tadqiqotlar rezyumesi.

Klinik sinovlar va dastlabki foydalanilgan texnologiyalar uningdek savdoga mo'ljallangan texnologiyalar o'rtasidagi har unday o'zgarishlarni tushintirish.

Savdoga mo'ljallangan texnologiyalar munosabati bilan ichki va tashqi qo'llanish bo'yicha olib borilgan solishtirma dqiqotlar rezyumesi .

Har qanday dizayn xususiyatlarining bayoni va undan iydalanishning asoslanishi.

Ruxsat etilgan dozadan yuqori iza (передозировка, которая не побряется)

Mahsulot faolligi va bezararligi, ruxsat etilgan dozadan iqori dozani asoslash va uning qiymatlariga ta'rif berish.

ishlab chiqarish jarayoni

Ishlab chiqarish jarayonining sodda variantini, shuningdek iydalanish uchun mo'ljallangan jihozzlarni tanlash sabablarini oslash.

Ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish maqsadida ilidatsiyalash va uzluksizligini o'rganish.

Jarayonning monitoringi va nazoratini talab etuvchi kritik urametrlarini aniqlash.

Har qanday o'zgarishlarni o'rganish va muhokama qilish.

Talab etilgan sifatga ega bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish zimini baholash.

Qadoqlash tizimi (saqlash iaroiti va katta miqdordagi ahsulotni tashish)

Qadoqlash tizimini asoslash (saqlash sharoiti va katta iqdordagi mahsulotni tashish) shartlari

Substansiyalarning fizik xususiyatlari

Bugungi kunda DV 90% xorijdan keltirilayotgan substansiyalar ishlab chiqarilmoxda (asosan, Xitoy va Xindiston davlatlari).

Ma'lumki, DV sifati substansiyaning sifati bilan uzviy bog'liqdir. Substansiyalarning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu zarralar shakli va kattaligi, ularning polimorf xususiyatidir.

Substansiyalarning kristallari katta, kichik va amorf bo'lishi mumkin. Moddalarning amorf ko'rinishi kristallik turiga qaraganda rivojlangan yuzaga ega, shuning uchun ular havo kislorodi yoki namlik ta'siri natijasida tezlik bilan destruksiyaga uchraydi.

USP substansiyalarning kristallik holatini mikroskop yordamida aniqlash usuli keltirilgan (97 monografiya). RF da esa u "tasvirlanishi" ko'rsatkichining ichiga kiritilgan va faqat ma'lumot uchun keltirilgan.

Substansiyalarning polimorfligi ularning farmako-texnologik, biofarmatsevtik xususiyatlari va turg'unligiga ta'sir ko'rsatadi. Polimorf moddalar turlicha farmakologik faollikka ega. Polimorfizm molekular massasi 350 dan kam va suvda kam eriydigan moddalarga xos. Masalan, karbomazalin, rimantadin gidrochlorid, indometatsin va b.

Substansiyalarning ushbu holati rentgenostruktur va difraktometriya tahlil usullarida, shuningdek erish haroratini aniqlash yordamida amalga oshirniladi. Hozirda 140 taga yaqin moddalar uchun polimorfizm xosligi aniqlangan (indometacin, nimodipin, Phenobarbital, pentobarbital, tetracaine hydrochloride va b.).

ICH Q6A da polimorflik xususiyatiga eag bo'lgan substansiyalar uchun talablar keltirilgan. Unga ko'ra agar dori muddasi uchun polimorflik aniqlangan bo'lsa (elektron mikroskopiya, differensial skanerlash kolorimetriya usuli, termooptik tahlil, IQ-spektroskopiya, rentgenostruktur tahlil usullari yordamida), u holda ularning farqlari (eruvchanlik, erish harorati, turg'unligi bo'yicha) belgilangan va havfsizlik, faollik va boshqa farmakologik xossalari o'rganilgan bo'ladi.

Substansiyalarning polimorfligini nazorat qilishda "yot moddalar", "eruvchanlik", "moddalar turg'unligin o'rganish" usullaridan foydalilaniladi.

Ma'lumki, tabletkalarni ishlab chiqarishda ta'sir etuvchi va yordamchi moddalarning sochiluvchanligi, to'kiladigan massasi, presslanishi kabi ko'rsatkichlar aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar ularning zarralar kattaligi va dispersligi bilan bog'liqdir. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri presslash usuli uchun izometrik shaklga ega bo'lgan kristallar eng maqbul hisoblanadi. Aminalon tabletkalari uchun kristallar kichik bo'lishi kerak. Glibenklamid uchun esa mikronizirlangan kristallar to'g'ri keladi. Xuddi shu holat atsetilsalitsil kislotasi uchun ham xos ekan, bunda uning qo'shimcha xossasi kamayib farmakologik faolligi kuchayadi.

Etambutol gidrochlorid (suvda yaxshi eriydi) va rifampsin (suvda kam eriydi) shamcha va surtma tarkibidan ajralib chiqishiga zarralar kattaligi 65–90 mkm oralig'ida bo'lishi kerak.

Agar zarralar kattaligi moddaning eruvchanligi, turg'unligi, va biologik samaradorligiga ta'sir ko'rsatib, mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasining kritik ko'rsatkichi bo'lib hisoblansa, uni MH tarkibigi kiritish zarur.

Moddalar dispersligi elash, mikroskopiya, zarralarning lazer analizatori, lazer difraktometriya usullari yordamida aniqlanadi.

Ko'pgina substansiyalar xiral moddalar hisoblanadi. Ularning ratsemat yoki enantiomerlari mavjud bo'lib, faqat bittasi DV tarkibiga kiritilgan.

Ratsematlarning farmakologik faolligi past, bitta enantiomer saqlagan DV kichik dozalarda chiqariladi (amlodipin besilat – levamlodipin, omeprazol – ezomeprazol va b.).

EF da agar ham ratsemat ham enantiomer ruxsat etilgan bo'lsa, ratsemat monografiyasiga "burish

burchagi” (“testlar”) hamda “identifikatlash” bo‘limida esa kerakli havola beriladi. Agar faqat enantiomer berilgan bo‘lsa, unda “identifikatlash” bo‘limida “burish burchagi” yoki “enantiomer tozalik” testiga havola etiladi. Xiral birikmalar xiral suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida aniqlanadi.

Substansiyalarning sifatiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar va ularning tahlili

Substansiyalarning yana bir sifat ko‘rsatkichlaridan biri bu ularning tozaligi (kimyoviy va mikrobiologik).

Kimyoviy yot moddalar (YOM) quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- organik (sintez va substansiylar texnologiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan, parchalanish mahsulotlari):

- noorganik (sulfatlar, xloridlar);
- erituvchilar qoldig‘i.

EF da organik YOM “related substances” test nomi bilan keltirilgan. Agar ushbu test bilan organik YOM ni aniqlash imkonni bo‘lmasa, u holda boshqa spetsefik test yordamida naiqlanadi.

EF va ICH Q6A da yo‘riqnomalarida YOM ularning zaharliyligi, farmakologik faolligi, kunlik maksimal dozasi, qabul qilish davomiyligiga qarab kiritiladi. Agar YOM miqdori belgilangan me’yordan yuqori bo‘lsa, uni nazorat etish talab etiladi. Agar uning miqdori $>0,10\%$ va kunlik maksimal dozasi $>1,0 \text{ mg}$ bo‘lsa, u faqat identifikatsiya qilinadi.

Agar YOM miqdori belgilangan $>0,15\%$ yoki kunlik maksimal dozasi $>1,0 \text{ mg}$ bo‘lsa, unda u faqat kvalifikatsiya qilinadi, ya’ni YOM ning biologik havfsizligi yoki belgilangan me’yordagi YOM larning profilini belgilovchi umumiy zaharliylik, genotoksik sinovlar, klinik muhim qo‘sishmcha ta’sirlari to‘g‘risida ma’lumotlar olinadi va baholanadi.

11-jadval

YOM me’yorini aniqlash va o’rnatish mezonlari

DV tarkibidagi substansiyaning naksimal kunlik dozasi, kun/g	YOM nazorati alab etiladi, agar ining miqdori,%	Identifikatlash zarur, agar uning miqdori	Kvalifikatsiyalash erak, agar uning miqdori
≤ 2	$>0,05$	$>0,10\%$ yoki kunlik ste’mol $>1,0 \text{ mg}$ bo‘lsa (2 dan kam) $>0,05\%$	$>0,15\%$ yoki kunlik ste’mol $>1,0 \text{ mg}$ bo‘lsa (2 dan kam) $>0,05\%$
>2	$>0,03$		

EF ga “Specified impurity”, “unspecified impurity” va “other detectable impurities” tushunchalar kiritilgan.

“Specified impurity” – “Specified impurity” monografiyasida atroflicha ko‘rsatilgan va me’yori belgilangan yot modda bo‘lib, u identifikatsiya qilingan yoki qilinmagan bo‘lishi mumkin.

“Unspecified impurity” – monografiyasida individualno ko‘rsatilmagan va uning miqdori umumiy me’yor bilan belgilanadi. Masalan, “har qanday yot modda”, “har qanday boshqa yot modda”, “boshqa yot moddalar”, “har qanday dog” va b.

“Other detectable impurities” – kimyoviy tuzilishi aniq muayyan yot moddalar. Ularni aniqlash usuli monografiyada keltiriladi (jadval) va miqdori belgilangan me’yordan oshmaydi. Bunda yot moddalarning eng kichik miqdorni ham aniqlash imkonini beruvchi xromatografik usullar (YUSSX, YUSSX mass–spektrometrik detektor bilan) va standart namunalardan foydalaniladi. Ba’zida qimmat baho standart namunalardan foydalanish o‘rniga substansiyalarni “sun’iy eskirtirish” – stress sharoitlarda moddalarni qisman degradatsiya qilish usulidan foydalaniladi. Mazkur usul RF ning DF 12 nashirida drotoverin gidroxlorid, amlodipin, nalgin, kaptopril va b. moddalar tarkibidagi yot

moddalarni aniqlash uchun keltirilgan.

Noorganik yot moddalar. Mazkur yot moddalar substansiyalarning kimyoviy sintezi jarayonida foydalilanilgan kuchli ishqor va kislotalar, katalizatorlar, jihozlarning elementlari, boshlang‘ich mahsulot, reaktivlar, filtr materiallarning qoldiglari va b.

Ushbu yot moddalar (xloridlar, sulfatlar) o‘zi zaharli emas, ammo ularni aniqlash substansiyalarning tozaligini belgilaydi. Agar kationlarni individual aniqlash ehtiyoji bo‘lmasa, unda “sulfatli kul” (0,1% dan oshmasligi kerak) sinovi o‘tkaziladi. Ba’zida kationlarni zaharli bo‘langanlari sababli aniqlash talab etiladi “og‘ir metallar” ko‘rsatkichi qo‘rg‘oshin, qalay, vismut, kadmiy, kumush, mis, molibden, vanadiy, ruteniy, platina, palladiy va b. Ularni aniqlash usuli rangli cho‘kmalarni (sulfidlar) hosil bo‘lishiga asoslangan.

EMEA va Ph Eur me'yori hujjatlarida YOM ning substansiyadagi miqdori va me'yori DV ning kunlik dozasi, davolash davomiyligi, qo'llash usulubiga qarab belgilanadi.

Agar substansiya sintezida metall katalizatoridan foydalanilgan bo'lsa, u holda metallni aniqlash atom-absorbsion yoki emission spektrometriya usullari substansiya spetsifikatsiyasi tarkibiga kiritiladi (12-va 13-jadvyllar).

12- jadval

Og‘ir metallar me’yorini aniqlash va o‘rnatish mezonlari

Kunlik oza, kun/g	Davolash lavomiyligi, kun	“Og‘ir metallar” ko‘rsatkichini kiritish
>0,05	>30	kiritiladi, me’yor – 20 ppm
>0,05	>30	kiritiladi, me’yor – 10 ppm
>0,05	>30	kiritiladi, agar parenteral dori preparatini tayyorlash uchun lo‘ljallangan bo‘lsa, me’yor – 10 ppm, boshqa vaqtlarda - me’yor – 20 ppm
>0,05	>30	Kiritilmaydi

13- jadval

Og‘ir metallarning substansiyadagi ruxsat etilgan me’yorlari

Sinf Dori preparatini kiritish yo‘li

Peroral qo'llash	Parenteral kiritish	Ingalyatsiy a
PDE*, mkg/kun	Me'yor, ppm	PDE, mkg/kun

1-sinf: sezilarli havf tug‘diruvchi metallar

1A-sinf: Pt,Pd	100	10	10	1	Pt:70
1B-sinf: Ir,Rh,Ru,Os	100**	10**	10**	1**	-
1C-sinf: Mo,Ni, Cr,V	250	25	25	2,5	Ni:100 Cr(VI):10
2-sinf: havfliligi past metallar Cu, Mn	2500	250	250	25	-
3-sinf: havfliligi juda past metallar Fe,Zn	13000	1300	1300	130	-

Izoh:

*—Ruxsat etilgan kunlik doza

**—Qayd etilgan sinf metallar yig‘indisining miqdori ko‘rsatilgan me’yordan oshmasligi kerak.

Agar DV 30 kundan kam bo‘lgan muddatda qo‘llanilsa, YOM ning yuqori me’yori belgilanadi. DV ni ishlab chiqarish jarayonida YOM lar yo‘qligi isbotlangan bo‘lsa, u holda doimiy tanlab o‘tkaziladigan nazoratga almashtirilishi mumkin. Mazkur holatda DV ning 6 ta tajriba seriyasi yoki ketma-ketlikda ishlab chiqarilgan 3 ta sanoat seriyasi tarkibidagi YOM miqdori belgilangan me’yorning 30% dan oshmasligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etiladi.

Organik erituvchilar qoldig‘i. Ushbu YOM me’yori organik erituvchilarning zaharliligi, har kundagi ruxsat etilgan miqdori, DV ning maksimal kunlik dozasi va davolinishning davomiyligi bilan aniqlanadi. Agar erituvchi 2 sinfga mansub bo‘lib, undan foydalanish DM ni tozalash jarayonigacha ko‘zda tutilgan bo‘lsa va uning yo‘qligi isbotlansa, erituvchi qoldig‘ini nazorat qilish talab etilmaydi.

Odatda, substansiya xorijdan olinadi va uning ishlab chiqarilishi nazorat etilmaydi, shu sababli foydalanilgan barcha 1-va 2-sinf erituvchilari qoldig‘ini nazorat qilish (gaz xromatorgafiyasi) me’yori hujjatga kiritilishi shart.

Dori moddalarning sifat ko‘rsatkichlarini va/yoki havfsizligini kimyoviy, fizikaviy yoki fizik - kimyoviy usullar bilan bir qatorda biologik tahlil usullaridan ham foydalaniladi.

Substansiyalarning havfsizligiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar va ularning tahlili

Biologik tahlillar qo‘ylgan maqsadga qarab 2 sinfga ajratiladi:

- dori moddalarning havfsizligini baholash uchun qo‘llaniladigan usullar;
- dori moddalarning biologik yoki farmakologik faolligini aniqlash usullari.

Birinchi guruh usullar umumiy farmakopeya maqolalarida keltirilgan bo‘lib, ular asosan dori moddalarning havfsizligini nazorat qilishda qo‘llaniladi.

Ikkinci guruh usullar esa har bir dori modda uchun individual bo‘lib, uning xususiy farmakologik xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi va dori moddaning miqdori uning (standart moddalardan foydalanib) faolligiga qarab baholanadi.

Mikrobiologik tozalik. Sterillik. Ushbu ko‘rsatkich substansiya steril dori shaklini olish uchun qo‘llanilganda tekshiriladi.

Ko‘pgina substansiyalar (neyrotrop, antidepressan, sedativ, antigistamin, gipotenziv va b.) mikrobiologik tozalikni tekshirish jarayonida antimikrob xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ularning antimikrob xususiyatlari test-shtammlarda o‘rganilishi shart, mikrobiologik tozalikni tekshirish jarayonida ularning antimikrob xususiyatini neytrallash lozim.

ICH yo‘riqnomasida “mikrobiologik tozalik” ko‘rsatkichini spetsifikatsiya tarkibiga kiritish, substansiyaning har bir seriyasini testdan o‘tkazish yoki tanlab nazorat qilishning “yechim daraxti” usuli keltirilgan. Bungi kunda barcha chetdan kirib kelayotgan substansiyalarning mikrobiologik tozaligini tekshirish majburiydir.

Pirogenlik va bakterial endotoksinlar. Mazkur sinovlar parenteral (inyeksiya uchun va infuzion) preparatlar yoki ularni tayyorlashga mo‘ljallangan substansiyalar uchun majburiy farmakopeyaviy test hisoblanadi va dori vositalarining sifati hamda tegishli havfsizligini ta’minlaydi. Sinov natijalari hattoki farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarining texnologik madaniyatining darajasini belgilaydi va undan texnologik jihozlar, shuningdek ba’zi tibbiyot texnikasining tozaligini tekshirishda foydalaniladi.

Pirogen moddalar yok pirogenlar bu – tashqaridan kirgan yoki organizmda hosil bo‘lgan bezgak yoki isitmani chaqiruvchi moddalardir. “Pirogen” – grekcha so‘z bo‘lib, “pyretos” – harorat, “pyros” – olov ma’nosini bildiradi. Bu ibora ilk bor 1876 - yil chirigan go‘shtdan olingan moddaga nisbatan qo‘llanilgan. 1923-yil ushbu modda bakterial kelib chiqishga (bakterial endotoksinlar, kimyoviy jihatdan protein kompleksi - lipopolisaxaridlar) egaligi ekanligi va u qon tizimiga tushganda isitmani chaqirishi aniqlangan. Bakterial endotoksinlar mikroorganizmlarning hayoti va parchalanishidan hosil bo‘lib, ularning ta’siri juda kuchli, haroratning ko‘tarilib ketishiga hatto 10–9 ham yetarlidir.

Ushbu moddalar nafaqat isitma chaqiradi, balki organizmning immun tizimini ham ishdan chiqaradi.

Pirogenlikni aniqlash uchun quyonlardan foydalilanadi. Mazkur test ko'pgina farmakopeyalarning tarkibiga kiritilgan. Ammo ushbu usulning kamchiliklari bor, masalan:

-□ faqat sifat o'zgarishlari (ruxsat beriladi yoki yo'q), hayvonlarning holatiga bog'liq;

-□ quyonlarda pirogenlarga individual sezgirlik mavjud, bu sezgir lik vaqtga qarab o'zgarishi mumkin;

-ba'zi inyeksiyon dori vositalari, texnologik jihozlar va materiallarning pirogenligini aniqlash mumkin emas: radiofarmatsevtik preparatlar, spetsifik haroratni ko'taruvchi (vaksinalar, platsenta preparatlar, metilen ko'ki va b.) yoki tushiruvchi (kalsiy glyukonat, kortikosteroidlar, neyroleptiklar va b.) preparatlar, hayvonlar fizioligik holatini o'zgartirib yuboradigan preparatlar (narkoz uchun, tinchlantruvchi va sedativ vositalar, yurak glikozidlari va b.) organizm sezgirligiga ta'sir etuvchi preparatlar va b.

Hozirda pirogenlikni aniqlashda yuqorida qayd etilgan usul bilan bir qatorda "bakterial endotoksinlar" testidan foydalanimoqda. Ushbu usul bakterial endotoksinlarni qonni ivishini chaqirishiga asoslangan.

LAL (Limulus Amebocyte Lysates)-test (gel-tromb test). Gramm-manfiy bakterial endotoksinlar (lipopolisaxaridlar) miqdorini aniqlash. LAL-test hozirgi kunda dori moddalarining pirogenligini aniqlashda eng ishonarli, kelajagi bor usul bo'lib xizmat qilmoqda. Bu usul yuqori sezgirlikka egaligi, oddiyligi, ishonchliligi, qaytaruvchanligi bilan katta ahamiyatga ega. Bunda sinovlar qisqa vaqt ichida bajariladi. Bu esa uning arzonligini ko'rsatadi, shuningdek inyeksiyon dori moddalarni ishlab chiqarishda pirogenligini bosqichma-bosqich nazorat etishga imkon beradi.

Amyobalar lizatining endotoksinlar bilan beradigan reaksiyasi 1964-yilda AQSH da aniqlangan bo'lib, u amyobotsit *Limulus polyphemus* (qadimgi dengiz hayvoni-mechexvost) lizati va endotoksin o'rtaqidagi reaksiyaga asoslangan. *Limulus polyphemus* qon tomirlari ichiga bakteriyalarning kiritilishi qonning ivishiga va uning natijasida hayvonning o'limiga olib kelgan.

Reaksiya natijasida endotoksin lizatning loyqalanishiga olib keladi va gel hosil qiladi.

Ilk bor bu test 1980-yilda AQSH ning XX Farmakopeyasiga "bakterial endotoksinlarni aniqlash" nomi bilan kiritilgan.

LAL-test – tekshirilayotgan eritma tarkibidagi endotoksin miqdorini aniqlashga imkon beradi. Buning uchun noma'lum miqdorda endotoksin saqlagan eritmaning LAL-reakтив bilan hosil qilgan reaksiyasi solishtiriladi. Konsentratsiya 1 ml (TB/ml) endotoksin birligida o'chanadi.

LAL-test yana suvda kam eriydigan birikmalarining pirogenligini tekshirishda, farmatsevtik moddalarni tayyorlash, eritmalar, xom- ashyolarni validatsiyalash, standart (konsentratsiyasi aniq bo'lgan) endotoksin eritmasi bilan hosil qilgan reaksiyasi bilan farmatsevtika ishlab chiqarishda, shuningdek bosqichli nazorat uchun ishlatiladi.

Ushbu usulning kamchiliklaridan biri bu gramm-musbat bakterial endotoksinlar va nobakterial pirogen moddalarni aniqlash imkon yo'qligidir.

Nafaqat DV balki substansiylar tarkibidagi pirogen moddalarni aniqlash zarur. Sababi ba'zi pirogen moddalar issiqlikka chidamli bo'lib, ularni yuqori haroratda inaktivatsiya qilish kerak. Ammo steril DV ishlab chiqarishda bunday haroratni qo'llab bo'lmaydi. Shuningdek, ba'zi bakterial pirogenlar 2500C haroratda bosim ostida 30 minut davomida inaktivatsiyaga uchraydi. Ko'pgina endotoksinlar kataklari 0,22 mkm membranali filtrlar orqali o'tib ketadi.

Agar klinikagacha bo'lgan sinovlar yordamida substansiyaning apirogenligini va ishlab chiqarish jarayonida nobakterial priogenlar bilan ifloslanmasligi isbotlangan bo'lsa, u holda uning sifati LAL test usulida nazorat etiladi. Bu ma'lumotlar qayd etish dosesida keltirilgan bo'lishi zarur.

Me'yoriy hujjatlarda faqat bitta test: yoki pirogenlik, yoki bakterial endotoksinlarga o'tkaziladi.

"Anomal zaharliliylik" – belgilangan tartibda ruxsat etilgan zaharlilik me'yordan oshib ketish darajadir.

DV ning sifati yomonlashganda anomal zaharlilik kuzatiladi. Bu ko'rsatkichni aniqlashda sichqonlardan foydalilanadi. Anomal zaharlilik 2 xil holatda kuzatilishi mumkin: fiziko-kimyoviy

yo‘l bilan nazorat etiladigan va etilmaydigan.

Birinchi holatda ta’sir etuvchi modda miqdorining oshib ketishi, texnologik yot moddalar, zaharli erituvchilar qoldiqlari, dori vositasini noto‘g‘ri saqlaganda hosil bo‘luvchi zaharli yoki noma’lum yot moddalar.

Odatda, anomal zaharliylik qon, inson yoki hayvon a’zolari yoki to‘qimalaridan, mikroorganizmlar yoki ularning hayoti davomida paydo bo‘luvchi mahsulotlar, dorivor o‘siliklardan olingan va parenteral DV olish uchun mo‘ljallangan substansiyalarda tekshiriladi.

Shuningdek, DV ni ishlab chiqarish jarayonining GMP talablari asosida olib borilmagan taqdirda ushbu ko‘rsatkich aniqlanishi lozim.

Gistamin (depressor moddalar) ni aniqlash. Bu ko‘rsatkich faqat qon tomirlari ichiga yuboriladigan substansiyalarda bemorlarning dori vositasini qabul qilganida arterial bosimni tushib ketishining oldini olish maqsadida aniqlanadi (ishlab chiqarish jarayonida bexosdan dori vositasi tarkibida gipotenziv (depressor) modda hosil bo‘lishi ehtimoli).

Bunday hollarda hayvon va inson to‘qimalaridan yoki mirobiologik sintez yo‘li bilan olingan organopreparatlar (antibiotiklar) ayniqsa havfli hisoblanadi. Ular tarkibida yuqori faol depressiv moddalar – gistamin, bradikinin, peptidlar va b. bo‘lishi mumkin. Masalan, platsenta ekstraktlari, antibiotiklar va b.

Gistaminga o‘xhash ta’sirni aniqlash dengiz cho‘chqasining ajratib olingan ichagida (gistamin) (1-usul) – *in vitro* olib boriladi. *in vitro* (2-usul) mushuklarda (depressor moddalar) 1-usulda olingan natijalarni to‘ldirish uchun olib boriladi.

Saqlanish muddati (3 yildan kam bo‘lgan) 20% ga o‘tib ketgan va muddati (3 yildan ko‘p bo‘lgan) 70% ga qolgan substansiyalardan DV ni ishlab chiqarishda foydalanishga ruxsat etilgan. Ammo xalqaro tajribaga ko‘ra, faqatgina turg‘un bo‘lman, biologik/biotexnologik yo‘l bilan olingan substansiylar va antibiotiklarning saqlanish muddati o‘rnataladi. Boshqa vaqtarda qayta nazorat davri (re-test period) belgilangan. Agar u to‘g‘ri belgilangan tartibda saqlangan bo‘lsa, bu davr ichida spetsifikatsiyada keltirilgan ko‘rsatkichlar saqlanish jarayonida o‘zgarmasligi kerak va bu substansiya DV ishlab chiqarishda ishlatalishi mumkin. Belgilangan davr o‘tgandan so‘ng substansiya MH talablari asosida to sifati yaroqsiz bo‘lguniga qadar qayta tekshiriladi. Agar qayta nazorat davri o‘rnatalgan bo‘lsa, u holda ishlab chiqaruvchi substansiyaning sifatini har doim ham foydalanishdan oldin tekshirishi shart emas.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Substansiylar sifatiga ta’sir etuvchi omillarni keltiring.
2. Farmatsevtik ishlab chiqish nima?
3. Dori preparatini ishlab chiqish jarayonida inobatga olinishi kerak bo‘lgan jihatlarni aytинг.
4. Dori vositalarining havfsizligiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlarni aytинг.
5. Dori vositalari faolligiga ta’sir etuvchi sifat ko‘rsatkichlarini aytинг.
6. Substansiylar tarkibida uchraydigan yot aralashmalar nima?
7. Substansiylar sifatini baholashda qo‘llaniladigan tahlil usullarini tushuntiring.
8. Substansiylarning polimorfizmi nima?
9. Substansiylarning biologik tahlil usullarini tushuntiring.

Foydalilanidigan adabiyotlar ro’yxati

5. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minalash. 2017.
6. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
7. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.

8. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

22-23-MAVZU: TABIIY XOM-ASHYODAN TAYYORLANGAN DORI VOSITALARI SIFATINITA'MINLASH

Reja:

1. Dastlabki xom ashyo spetsifikatsiyasi
2. Fitopreparatlar tahlili

Tayanch iboralar: *Dastlabki xom ashyo, spetsifikatsiya va Fitopreparatlar.*

Dorivor o'simlik preparatlari murakkab tarkib va turli xil xususiyatlarga ega, shuning uchun ularni ishlab chiqarishda alohida e'tibor dastlabki materiallar, saqlash sharoitlari va qayta ishlash sharoitlariga qaratilishi kerak.

Dastlabki material bu dorivor o'simlik xom ashyosidir. Uning sifati talab darajasida bo'lib, ular ta'minlovchi tomonidan tegishli tartibda taqdim etilishi kerak. Ma'lumki o'simlik xom ashyosi sifatiga turli xil omillar (terish vaqt, quritish usuli, tuproq sifati va b.) ta'sir ko'rsatadi, shu sababli sifatni ta'minlash maqsadida o'simlikni o'stirish usuli haqida batafsil ma'lumot talab etilishi mumkin. Sifatli mahsulotni etishtirish uchun Yevropa agentligining o'simlik xom ashyosini o'stirish va yig'ib olish qoidalari bo'yicha yo'riqnomaga (GACP)^{*} amal qilinishi kerak.

14 - jadval

O'simlik xom ashyosini o'stirish va yig'ib olish Qoidalari bo'yicha yo'riqnomaning o'ziga xos tomonlari

Faoliyat turi	GACP qoidasi	Qoidani g II qismi	Qoidani g I qismi
O'simliklar, suv o'tlari, lishayniklarni o'stirish va g'ish			
O'simliklar, suv o'tlari, lishayniklarni quritish va aydalash			
O'simliklarni maydalash, ekstraksiyalash, fraksiyalarga ratish, substansiyanı tozalash, quyuqlashtirish yoki rmentlash			
Dori shaklini olish uchun keyingi ishlov berishlar, doqlash			

Dorivor o'simlik xom ashyosi alohida havosi almashinib turadigan toza xonalarda (hayvonlar, kemiruvchilar, mikroorganizmlar, ikki yoqlama kontaminatsiyalar va b.) saqlanishi va karantin zonalari belgilab berilishi kerak. Mazkur xonalarda namlik, harorat va yorug'likdan himoya etish choralar ko'rilgan va nazorat ostida bo'lishi kerak. Namunalar olish jarayonida changlanib ketadi, shuning uchun ularni olish uchun alohida xonalarda olib boriladi va ifloslanishning oldini olish choralar ko'rilishi kerak bo'ladi.

Ishlab chiqarishda foydalanimadigan asbob-uskunalar ekstraksiya jarayonida qo'llanmadigan erituvchilar bilan o'zaro ta'sirlashmasligi kerak (turli kerak bo'lmagan reaksiyalarni oldini olish uchun).

22.1. Dastlabki xom ashyo spetsifikatsiyasi

Ishlab chiqaruvchi kerakli sifatga ega bo'lgan aynan dorivor xom ashyosi ekanligiga to'liq ishonch hosil qilishi va ushbu xom ashyo **GACP** Qoidalari asosida tayyorlangan, shuningdek u xom ashyoning qayd etish (registratsiya) dosesi tarkibida bo'lishi kerak. Xom ashyonini yetkazib beruvchi ta'minotchi to'g'risida GACP talablari asosida mukammal hujjatga ega bo'lishi lozim. Mazkur ishlarni ta'minotchi yoki uning tavsiyasiga ko'ra boshqa shaxslar bajarishi mumkin.

Spetsifikatsiyada:

- O'simlikning ilmiy nomi (oilasi, turi, mualliflari vab.);
- O'simlikning kelib chiqish (jumladan vatani, madaniylashtirilganligi, yig'ish vaqt va usuli, foydalanimanligi pestitsidlar, radioaktiv ifloslanish extimolligi);
- O'simlikning ishlatalish organi yoki organlari yoki o'simlikning o'zi to'g'risida ma'lumotlar;
- Agar xom ashya quritilgan bo'lsa, uning quritilish usuli haqida ma'lumot;
- Dorivor o'simlik xom ashyoning tavsifi hamda makro- i mikroskopik tadqiqotlar natijalari;
- Chinligini (terapevtik faolligini belgilovchi ingridientlar yoki markyorlar bo'yicha) aniqlash natijalari. Agar xom ashyonni qalbakilashtirish imkonii bo'lsa, unda unga xususiy differensial tadqiqotlarning o'tkazilish imkoniyatlari. CHinlikni aniqlash va taqqoslash uchun auten namuna bo'lishi kerak;
- Namlik miqdori farmakopeya talabi asosida;
- Miqdorini (terapevtik faolligini belgilovchi ingridientlar yoki markyorlar bo'yicha) aniqlash usuli (attestatsiyadan o'tgan) va natijalari, mezonlari;
- Zamburug' va/ yoki mikroblı kontaminatsiya, aflatoksin, boshqa mikotoksinlar va parazitlar invaziyasini aniqlash usuli, me'yorlari, talab qilinganda;
- Zaharli metallar, kontaminantlar va yet moddalarni aniqlash usullari, talab qilinganda;
- G'ayritabiyy materialni aniqlash usullari, talab qilinganda.

Barcha ishlar batafsil hujjatlashtiriladi. Hujjatlarda texnologiya, namunalar olish, ularni tahlil qilish, amal qilinadigan yo'riqnomalar, tozalash usullari, ekstraksiya uchun foydalanimayotgan erituvchilar va b. haqida ma'lumotlar keltirilishi zarur.

Dorivor o'simlik xom ashyoning har bir seriyasining sifati me'yoriy hujjat asosida dorivor o'simlik xom ashyosi, oraliq mahsulot yoki o'simlik aosisda olingan preparatlar chinligi, yet aralashmalar va biologik faol moddalarni aniqlash bo'yicha tajriba va ko'nikmaga ega bo'lgan xodim tomonidan baholanadi. Dorivor o'simlik xom ashyoning seriyasidan olingan namunalar saqlanib qo'yiladi.

Namuna oluvchi xodimlar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

- Namunalarni olish tartibi;
- Namunalarni olish bo'yicha yo'riqnomalar;
- Namunalarni olishda qo'llaniladigan usullar va asboblar;
- Bir vaqtida bir necha moddalar bilan ifloslanish (kontaminatsiya) havf-xatari;
- Turg'un bo'limgan va (yoki) steril moddalarga nisbatan ko'rildigani ehtiyojkorlik choralar;
- Materiallar, yorliqlar va o'ramlarning (qadoqlar) tashqi ko'rinishini vizual baholash natijalarini e'tiborga olishning muhimligi;
- Har qanday kutilmagan yoki favqulotda vaziyatlarni hujjat bilan rasmiy lashtirishning muhimligi.

Quyidagi jihatlar inobatga olinishi kerak:

- Ishlab chiqaruvchi va ta'minlovchilar haqida ma'lumotlar (ularning turi va shu kundagi ahvoli), shuningdek qo'yilgan talablar;

- Dastlabki xom ashyonni ishlab chiqaruvchida sifatni ta'minlash tizimining mavjudligi;
- Dastlabki xom ashyonni ishlab chiqarish sharoiti va uning nazorati;
- Dastlabki xom ashya va undan olinadigan preparatlarning tabiatini va xususiyatlari.

Yuqorida qayd etilgan tizimdan o'tgan (jihatlar va validatsiya jarayonlar amalga oshirilgan) dastlabki mahsulot chinlikni tekshirishdan ozod etiladi. Quyidagi mahsulotlarga mazkur tizim maqbul:

- Faqat bitta ishlab chiqaruvchidan yoki bitta ishlab chiqarish maydonidan olingan dastlabki xom ashya;
- To'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchidan kelayotgan yoki muxrlangan idishdan olingan dastlabki xom ashya, qachonki ta'minlovchi benuqson obro'ga ega bo'lsa, sifatni ta'minlash tizimi

doimiy auditlardan (akkreditatsiya organi yoki preparatlarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan) o'tkazib turilsa.

Har bir mahsulot MH bo'yicha tashqi nazoratdan o'tkaziladi.

15 - jadval

<i>Xom ashynoning miqdor birligi, kg</i>	Namuna hajmi
1 – 5	Hammasi
6 – 50	5 ta birlik
50 dan ortiq	partiyaning 1% birligi

O'simlik xom ashysining sifatini tekshirish uchun partiyaning shikastlanmagan joyidan namuna olinadi.

Namunalar tashqi belgilari bo'yicha nazoratdan o'tkaziladi butunligi, maydalik darajasi, rangi, xidi, ifloslanganligi, mog'orlanmaganligi, shamollatilganda ham ketmaydigan ko'lansa xidi, zaharli o'simliklar bilan ifloslanganligi va mineral aralashmalar (tosh, qum, tuproq va b.) tekshiriladi. Agar dorivor o'simlik xomashyosi tashqi tekshirishdan o'tkazilganda MH talabiga to'g'ri kelmasa, tozalanib ikkinchi marta topshirilishi mumkin.

Ammo ombor zararkunandalari bilan II va III darajada zararlangan, yo'qolmaydigan xidga va zaharli yot o'simliklar bilan zararlangan bo'lsa bunday xomashyo ikkinchi marta qabul qilinmaydi.

Namuna olish. Har bir birlikdan 3 ta: xom ashyo qadog'inining yuqori, pastki va o'rtasidan namuna olinadi.

Olingan namunalar aralashtiriladi. Aralashtirilgan namunadan kvadrat usuli bilan o'rtacha namuna olinadi. Bunda xomashyo namunasi tekis kvadrat ko'rinishda yoyiladi va diagonal bo'yicha 4 ta uchburchakka bo'linadi, qarama – qarshi uchburchaklar tashlab yuboriladi, qolgan 2 tasi aralashtiriladi. YUqorida keltirilgan jarayon MH da keltirilgan og'irligacha qaytariladi.

O'rtacha (oligan namunalarning ortib qolgan qismi olib qo'yiladi) namunadan yuqoridagi usul yordamida analitik namuna olinadi. Analitik namuna og'irligi MH da keltirilgan jadvalga to'g'ri kelishi kerak.

Analitik namuna quyidagi aniqlikda tortiladi:

- 0,01 g – namuna og'irligi 50 g gacha;
- 0,1 g - namuna og'irligi 100 dan 500 g gacha;
- 1,0 g - namuna og'irligi 500 dan 1000 g gacha;
- 5,0 g - 1000 g dan ortiq.

Qadoqlangan xomashyodan namunalar yuqorida ko'rsatilgani kabi olinadi. Qadoqlangan xomashyo turkumlab (10 t dan oshmagan holda) qabul qilinadi.²⁰

23.1. Fitopreparatlar tahlili

Damlama va qaynatmalar – bu quruq yoki suyuq ekstrakt (konsentrat) lar, dorivor o'simliklardan tayyorlangan suvli ajratmalardir.

Damlama va qaynatmalar agar dorivor o'simlik miqdori ko'rsatilmagan bo'lsa 1:10 nisbatda, valeriananing ildizlaridan, adonis o'tidan 1:30 nisbatda tayyorlanadi.

Tarkibida kuchli ta'sir etuvchi moddalar saqlovchi dorivor o'simliklarning damlama va qaynatmalari ekstrakt (konsentrat) lardan 1:400 nisbatda tayyorlanadi.


rangli ajratmalardir.

Tindirmalarni olishda turli usullardan foydalaniladi: matseratsiya, kasrli matseratsiya, perkolyasiya va b.

Tindirmalar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilinadi:

- spirit miqdori yoki zichligi;
- quruq qoldiq;
- og'ir metallar;
- ta'sir etuvchi moddalar (xususiy maqolada ko'rsatilgan bo'ladi).

²⁰ Йоахим Эрмер, Джон Х., Мак Б., Миллер. Валидация методик в фармацевтическом анализе. Примеры наилучших практик, 1-е изд.: Пер. с англ. - М. : Группа компаний ВИАЛЕК, 2013-512с



Quruq qoldiqni aniqlash

5 ml nastoyka (tindirma) og‘irligi oldindan o‘lchangan byuksga solinadi, suvli hammomda quruq qoldiqgacha bug‘latiladi, $102,5\pm2,5$ °S haroratda ikki soat davomida quritiladi. Eksikatorda 30 min sovutiladi va og‘irligi o‘lchanadi.

Og‘ir metallarni aniqlash

5 ml nastoyka quruq qoldiqgacha quritiladi, 1 ml konsentrangan sulfat kislota qo‘sib asta-sekin yondiriladi, kuydiriladi. Qoldiq qaynab turgan 5 ml to‘yingan ammoniy atsetat eritmasi bilan ishlanadi, kulsiz filtr qog‘oz orqali filtrlanadi, 5 ml suv bilan yuviladi va filtratning hajmi 100 ml gacha etkaziladi; 10 ml hosil bo‘lgan eritma og‘ir metallarga sinovdan o‘tkaziladi. Og‘ir metallar miqdori 0,001% dan oshmasligi kerak.

Buning uchun 10 ml tarkibida og‘ir metallar saqlovchi etalon eritma va 10 ml tekshiriluvchi eritmalarga 1 ml dan suyultirilgan sırka kislotasi, 1–2 tomchidan natriy sulfidi eritmasidan solinadi, 1 minutdan keyin eritmalar bir – biri bilan solishtiriladi. Solishtirish oq fonda vertikal xolda olib boriladi. Tekshirilayotgan eritmada hosil bo‘lgan rang etalon eritma rangidan oshmasligi kerak.

Ekstraktlar – o‘simlik xomashyosidan olingan konsentrangan ajratmalardir. Ekstraktlar 3 xil bo‘ladi:

4. Suyuq ekstraktlar – Extracta fluida;
5. Quyuq ekstraktlar – Extracta spissa (namligi 25% dan oshmasligi kerak);
6. Quruq ekstraktlar – Extracta sicca (namligi 5% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak).

Ekstraktlar sifati tarkibidagi ta’sir etuvchi moddasi, og‘ir metallar, suyuq ekstraktlar tarkibidagi spirit miqdori yoki zichligi, quruq qoldiq miqdori, quyuq va quruq ekstraktlar esa namligi va tarkibidagi biologik faol birikmalari bo‘yicha baholanadi.

Quruq qoldiqni aniqlash

5 ml suyuq ekstrakt og‘irligi oldindan o‘lchangan byuksga solinadi, suvli hammomda bug‘latiladi, 3 soat davomida $102,5\pm2,5$ °S haroratda quritiladi, so‘ngra eksikatorda sovutiladi (30 min) va og‘irligi o‘lchanadi.

Namlikni aniqlash

0,5 g (aniq og‘irlik) preparat $102,5\pm2,5$ °S haroratda 5 soat davomida quritgichda quritiladi, so‘ngra 30 minut davomida eksikatorda sovutiladi va og‘irligi o‘lchanadi.

Og‘ir metallarni aniqlash

1 ml suyuq ekstraktga yoki 1 g quyuq yoki quruq ekstraktga 1 ml konsentrangan sulfat kislota qo'shib, asta – sekin yoqiladi, kuydiriladi.

Qoldiq ammoniy atsetatning 5 ml to'yingan eritmasi bilan ishlanadi, kulsiz filtr qog'oz orqali filtrlanadi, 5 ml suv bilan yuviladi va filtrat hajmi 20 ml gacha etkaziladi. Tayyorlangan eritmadan 10 ml olib og'ir metallarga sinov o'tkaziladi (0,01% dan oshmasligi kerak).

Mavzu yuzasidan savollar

1. Dorivor o'simlik preparatlari tahlilining o'ziga xos tomonlari
2. Dastlabki xom ashyo spetsifikatsiyasi
3. Dorivor o'simlik xom ashyoning seriyasidan namunalar olish
4. Fitopreparatlar tahlili
5. Dorivor o'simlik xom ashyosi tahlilida xromatografiya usullari
6. Fitopreparatlar sifatini baholashda optik tahlil usullari

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

5. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
6. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
7. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
8. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

24- MAVZU. STERIL FARMATSEVTIK MAXSULOTLARNING SIFATINI NAZORAT QILISH

Reja:

1. Steril mahsulotlarni ishlab chiqarish zonalari
2. Parenteral dori vositalari turlari
3. In'eksion dori shakllari spetsifikatsiyasi
4. Suvga qo'yilgan talablar

Tayanch iboralar: *Steril mahsulot, parenteral dori vositalari, in'eksion dori shakllari spetsifikatsiyasi.*

Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayoniga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda mikroorganizmlar kontaminatsiyasi, zarrachalar va pirogenlar bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Steril dori vositalarining sifatini ta'minlash ular uchun mufassal ishlab chiqilgan va validatsiyadan o'tgan texnologiya va protseduralariga bog'liqdir. Mazkur vazifalarni bajarish uchun yuqori malakali xodimlar zarur bo'ladi.

Steril dori vositalari toza joylarda (zona) ishlab chiqariladi. Toza joylarga xodimlar, materiallar, jixozlar, xom ashyo va b. havo shlyuzlari orqali kiritiladi. Toza joylarning havosi filtrlangan bo'lishi va talab darajasida toza bo'liishi kerak. Komponentlar, mahsulotni tayyorlash va idishlarni to'ldirish toza joylardagi alohida ajratilgan joylarda olib boriladi. Texnologik jarayonlar 2 ta kategoriyaga bo'linadi: birinchisi, bunda mahsulot birlamchi o'ramda sterillanadi (finish sterillash), va ikkinchisi - barcha jarayonlar aseptik sharoitda olib boriladi..

24.1.Steril mahsulotlarni ishlab chiqarish zonalari

Steril mahsulotlarni ishlab chiqarishning toza zonalari ishlab chiqarish sharoitiga qarab tasniflanadi. Har ishlab chiqarish jarayoni ma'lum darajadagi tozalikni (xom ashyo, materiallar va

mahsulotda kontaminatsiya zarrachalari yoki mikroorganizmlarning iloji boricha bo‘lmasligi) talab etiladi. Ishlab chiqarishning “jixozlangan”(toza xonalar qurilgan va ishlaydi, asbob –uskunalar bilan to‘liq jixozlangan, lekin xodimlar yo‘q) va “ishga tushirilgan” («ekspluatiruemoe», toza xonalar qurilgan va ishlaydi, asbob –uskunalar bilan to‘liq jixozlangan, lekin xodimlar mavjud) xolatlari mavjud. Ularning ikkisiga ham tozaligi bo‘yicha talablar belgilab qo‘yilgan.

Toza joylar 4 ta sinfga bo‘linadi:

A sinfi – lokal zona, mahsulot sifatiga yuqori darajada havf-xatar mavjud, jumladan to‘ldirish, tiqinlar bilan yopish joyi, ampullar i flakonlar ochiq xolatda bo‘ladi.

B sinfi – A zonasini o‘rab turuvchi zona, aseptik sharoitda tayyorlash va to‘ldirish uchun mo‘ljallangan.

C va D sinfi – steril mahsulotlarni ishlab chiqarishda eng kam havf-xatar tug‘diruvchi jarayonlarni olib borish uchun mo‘ljallangan toza zonalar.

Toza bino va toza joylar aerozol zarrachalarning maksimal ruxsat etilgan soniga qarab tasniflanadi.

16 - jadval

Zona	1 kub. m havoda aerozol zarrachalarning maksimal ruxsat etilgan soni			
	Jixozlangan xolatda		ishga tushirilgan xolatda	
	0,5 mkm	5,0 mkm	0,5 mkm	5,0 mkm
A	3 520	20	3 520	20
B	3 520	29	352 000	2 900
C	352 000	2 900	3 520 000	29 000
D	3 520 000	29 000	reglamentlanmagan	reglamentlanmagan

Har bir toza bino va toza joylar ishlayotgan vaqtida albatta doimiy monitoring qilib boriladi. Monitoring olib borish uchun namunalarni olish joyi natijalar va havf-xatarni tahlil qilish asosida tanlanadi. Aseptik jarayonlarni olib borishda doimo mikrobiologik monitoring olib boriladi (namunalar havodan sedimentatsion va aspiratsion usullar yordamida, jixozlar yuzasidan esa tampon bilan yuvish va kontakt plastinlar yordamida). Monitoring natijalari seriya uchun dose tuzishda (mahsulotni chiqarishga ruxsatnomalar olishda) inobatga olinadi. Havf-xatar tug‘diruvchi jarayonlarni bajargandan so‘ng albatta yuzalar va xodimlar monitoring qilinadi. Shuningdek, tozalash va dezinfeksiya tiziimlari validatsiya qilingandan so‘ng qo‘sishmcha mikrobiologik monitoringdan o‘tkaziladi. Ba’zi xollarda ishlab chiqarishda havf-xatarni kamaytiruvchi izolyasiyalangan texnologiyadan foydalaniladi.

Birlamchi o‘ramlar komponentlarini tayyorlash va boshqa maqsadlar uchun belgilangan materiallar D sinfiga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarish zonalarida, mahsulotlar bilan to‘ldirish esa S sinfiga mansub muxitda olib boriladi.

Kontaminatsiya yuqori bo‘lishi mumkin bo‘lgan sharoitlarda, ya’ni to‘ldirish jarayoni juda sekinlik bilan olib borilsa, yoki idishlarning bo‘g‘izi katta bo‘lsa yoki ularni yopishdan oldin 1 necha daqiqa ochiq xolatda ushlab turish talab etilgan xollarda (havf-xatar yuqori) to‘ldirish jarayoni A sinfiga mos joylarda olib boriladi. Surtma, krem, suspenziya va emulsiyalar sterillashdan oldin odatda S sinfiga mos sharoitda tayyorlanadi va qadoqlanadi.

Birlamchi o‘ramlar komponentlarini tayyorlash va boshqa maqsadlar uchun belgilangan materiallar bilan olib boriladigan operatsiyalar yuvilgandan so‘ng D sinfiga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarish zonalarida, mahsulotlar aseptik sharoitlarda tayyorlangan bo‘lsa to‘ldirish va ishlov berish jarayonlari A sinfiga mansub zonada va V sinfiga mansub muxitda olib boriladi.

Toza zonalarda minimal miqdorda kerak bo‘ladigan xodimlarning bo‘lishi talab etiladi. Barcha xodimlar (xatto tozalash, texnik xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar ham) steril dori vositalarini ishlab chiqarish savollari, shaxsiy gigiena va mikrobiologiya asoslari yuzasidan instruktajlardan o‘tib turishlari va doimiy malakalarini oshirib borishlari lozim. Kiyinish, yuvinish, ko‘cha kiyimlarini ishlab chiqarish zonalarida kiymaslik kabi vazifalar yo‘riqnomalar asosida olib boriladi.

Har bir xodim toza yuvilgan va sterillangan kiyimlar, qo‘lqoplar va maskalarda (ular har smenada almashtirib turiladi) ishlashi talab etiladi.

Steril dori vositalarini ishlab chiqarish korxonalarida jixozlar, xizmat ko'rsatish xonalari toza va sterillangan, dezinfeksiyalangan bo'lishi, yuvish va dezinfeksiya uchun mo'ljallangan vositalar yo'riqnomalar asosida mikrobiologik tozalikga tekshirilgan va sterillangan bo'lishi kerak.

Suv olish manbasi, suvni tayyorlash uchun mo'ljallangan jixozlar va olingan suv kimyoviy va biologik kontaminantlarga, kerak bo'lganda endotoksinlarga tekshirib borilishi va monitoring qilinishi hamda hujjatlashtirilishi kerak.

Agar mahsulotni (oxirgi o'ramda) sterillash mumkin bo'lmasa, u xolda eritmalar yoki suyuqliklar steril filtr (poralarning nominal kattaligi 0,22 mkm) orqali filtrlanadi.

Parenteral mahsulotning birlamchi qadog'i individual (har biri) (poshtuchno) mexanik zarrachalarga (yot aralashmalarga) belgilangan yorug'lik darajasida va ishchi soha fonida vizual nazoratdan muntazm o'tkaziladi va rasmiylashtiriladi.

Tayyor mahsulotlar sterillikga validatsiyadan o'tgan usullar yordamida tekshiriladi.

Sterillik sinovlarini o'tkazish uchun tanlab olingan namunalar barcha seriya uchun reprezentativ bo'lishi, va seriyaning eng ko'p havf-xatar keltirishi mumkin bo'lgan qismidan olingan namunalarni saqlashi keark, jumladan:

a) aseptik sharoitda to'ldirilgan mahsulotlar uchun, olingan namunalar seriyani ishlab chiqarishdagi to'ldirish jarayoni olib borilgan avvaligi va oxiridagi konteynerlarni (birlamchi qadoqlar) o'z ichiga olgan bo'lishi kerak;

b) termik sterilizatsiyadan o'tgan mahsulotlar (oxirgi qadoqda yoki o'ramda) uchun namunalar yuklashning eng sovuq bo'limidan olinishi kerak.

24.2. Parenteral dori vositalari turlari

Parenteral dori vositalariga suvli va suvsiz eritmalar, suspenziya, emulsiya va quruq moddalar (kukunlar, g'ovak massalar, tabletkalar) kiradi. Quruq moddalarni ishlatishdan oldin steril erituvchida eritiladi. Hajmi 100 ml va undan ortik bo'lgan parenteral eritmalar infuzion eritmalariga kiradi.

Parenteral dori vositalari steril bo'lishi, tarkibida mexanik aralashmalarni saqlamasligi, pirogenlik va toksikologikligi (zaharlilik) bo'yicha barcha talablarga javob berishi kerak. In'eksion dori preparatlari izotonik, izogidrik va izoinik bo'lishi lozim. In'eksion eritmalarini tayyorlashda in'eksiya uchun suv, moylar, etiloleat, shuningdek ular bilan birgalikda etil spirti, glitserin, propilenglikol, benzilbenzoat va boshqa erituvchilar ishlatiladi.

Parenteral dori preparatlarni tayyorlashda konservantlar, antioksidantlar, stabilizatorlar, emulgatorlar va boshqa yordamchi moddalardan foydalilanadi. Masalan, askorbin, xlorid, vinotosh, limon, sirka kislotalari, natriy karbonat, natriy gidrokarbonat, o'yuvchi ishkorlar, natriy yoki kaliy sulfit, bisulfit yoki metabisulfit, natriy tiosulfat, fenol, butanol, rongalit va boshqalar.

- Yordamchi moddalar qo'shilayotganda agar xususiy maqolada ko'rsatilmagan bo'lsa, krezol, fenol, xlorbutanolning miqdori 0,5% gacha, kaliy yoki natriy metabisulfit, sulfit yoki sulfit angidridining esa 0,2% gacha bo'lishi mumkin.

- In'eksion eritmalar in'eksiya uchun suv yoki xususiy maqolada ko'rsatilgan erituvchi bilan solshtirilganda, agar boshqa ko'rsatmalar bo'lmasa tiniq bo'lishi kerak.²¹

24.3. In'eksion dori shakllari spetsifikatsiyasi

In'eksion dori shakllari (in'eksiya uchun eritmalar, suspenziya, emulsiyalar) kuyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha DF XI ning "In'eksiya uchun dori shakllari" maqolasi va xususiy maqolalarda keltirilgan talablarga binoan tahlil kilinadi:

- tashqi ko'rinishi (tavsiylanishi);
- sterillash va quyish shartlari;
- chinligi;
- tiniqligi;
- rangliligi;
- kislotaligi yoki ishqoriyiligi, pH va mexanik aralashmalar;

2. ²¹ Стандартизация и контроль качества лекарственных средств : Учебное пособие / Н.А. Тюкавкиной, А.С. Берлянд , Т.Е. Елизарова и др. ; Под ред. Н.А. Тюкавкиной. –М. : ООО «Медицинское информационное агентство », 2008 г.-384с.

- zichligi;
- qovushqoqligi;
- yot moddalar;
- osmolyarligi;
- to‘ldirilish hajmi (ampula, flakon va b);
- pirogenligi yoki bakterial endotoksinlar (LAL test);
- toksikligi (zaharliligi);
- sterilligi;
- zarrachalar kattaligi (suspenziyalar uchun);
- miqdoriy tahlil;

In’eksiya uchun ishlataladigan quruq dori shakllari quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil qilinadi:

- tashqi ko‘rinishi (tavsiflanishi) chinligi;
- o‘rtacha og‘irligi va og‘irligi bo‘yicha bir xilligi;
- tiniqligi;
- rangliligi;
- kislotalik yoki ishqoriyligi, pH va mexanik aralashmalar, yot moddalar;
- pirogenligi yoki bakterial endotoksinlar (LAL test);
- toksikligi (zaharliligi);
- xloridlar, sulfatlar va b.
- kuritgandagi massaning yo‘qolishi yoki suv (K.Fisher usulida aniqlanadi);
- idishdagi dori modda og‘irligi (ampula, flakon va boshqalar);
- sulfat kuli va og‘ir metallar, sterilligi;
- dozalar bir xilligi;
- miqdoriy tahlil;

Parenteral dori preparatlarning rangi DF XI nashrida keltirilgan «Suyuqliklarning rangini aniqlash” maqolasi bo‘yicha ranglilik etalonlari bilan yoki xususiy maqolada keltirilgan ko‘rsatmalar bo‘yicha aniqlanadi.

In’eksion eritmalarning idishlardagi hajmi nominal hajmdan ko‘p bo‘lishi kerak (13-jadval).

17-jadval

Idishlardagi in’eksion eritmalarining hajmi

Nominal hajm, ml	To‘ldirish hajm, ml		To‘ldirishni nazorat qilish uchun olingan idishlar soni, ta
	Qovushqoq bo‘lgan eritmalar	Qovushqoq (vyazkie) eritmalar	
1,0	1,10	1,15	20
2,0	2,15	2,25	20
5,0	5,30	5,50	20
10,0	10,50	10,70	10
20,0	20,60	20,90	10
50,0	51,0	51,50	5
50,0 dan ko‘p	nominaldan 2% ga ko‘p	nominaldan 3% ga ko‘p	

Hajmi 50 ml gacha bo‘lgan idishlardagi nominal hajm kalibrlangan shprits yordamida, 50 ml va undan ko‘p bo‘lganlarida – kalibrangan silindrлarda $20\pm2^{\circ}\text{S}$ haroratda aniqlanadi.

Eritmalar hajmi nominal hajmdan kam bo‘lmasligi kerak. Parenteral dori vositalari umumiyl yoki xususiy maqolalarda keltirilgan usullarda sterillanadi (sterillash DF XI nashr, 2 qism, 187 b, zaharlilik 182 b va pirogenligi 183 b).

shuningdek, bunday dori vositalari mexanik aralashmalarga tekshiruvdan o‘tishi kerak.

Quruq parenteral dori vositalarining o‘rtacha og‘irligi tekshiriladi. Bunda 20 ta ochilgan idishlar 0,001g aniqlikda og‘irliklari alohida-alohida o‘lchanadi, idish ichidagi dori moddasi suv yoki maqolada keltirilgan erituvchi yordamida yuviladi, $100\text{-}105^{\circ}\text{S}$ haroratda 1 soat davomida quritiladi.

Idishlar va boshqa vositalarining (qopqoq) yana og‘irligi o‘lchanadi. So‘ngra 20 ta idishning o‘rtacha og‘irligi va har bir idishdagi dori preparatining og‘irligi hisoblanadi.

Har bir idishdagi og‘irlilik o‘rtacha og‘irlikdan jadvalda keltirilgan chetlanishlarga mos kelishi va bu chetlanishlar $\pm 15\%$ dan oshmasligi kerak.

18 - jadval

Bitta idishdagi modda og‘irligining chetlanishi

Idishdagi modda, g	Yo‘l qo‘yilgan chetlanish, %
0,1 va undan kam	$\pm 10,0$
0,1 dan ko‘p va 0,3 dan kam	$\pm 7,5$
0,3 va undan ko‘p	$\pm 5,0$

Agar 2 ta idishdagi modda og‘irligidagi chetlanish jadvaldagiga mos kelmasayu, lekin $\pm 15\%$ dan oshmasa, unda tekshiruvlar yana 40 ta idishlarda olib boriladi. Bunda topilgan chetlanishlar jadvaldagidan bittasi ham katta bo‘lmasligi kerak.

20 ta idishdagi moddaning o‘rtacha og‘irlikdagi chetlanishi xususiy maqolada keltirilgan nominal miqdorga nisbatan $\pm 5\%$ gacha bo‘lishi kerak. 0,05 g va undan kam og‘irlikda dori moddasini saqlaydigan in’eksiya uchun quruq steril dori vositalari va suspenziyalar dozalarining bir xilligiga tekshiriladi.

Tekshirishlar 10 ta idishlarda alohida-alohida xususiy maqoladagi miqdoriy tahlil usullari yordamida olib boriladi. Idishlardagi dori modda miqdori nominaldan $\pm 15\%$ gacha chetlanishi mumkin. Agar har bir idishdan chetlanish $\pm 15\%$ oshib ketsayu, lekin $\pm 25\%$ gacha bo‘lsa, unda tekshiruvlar qo‘srimcha yana 20ta idishlarda olib boriladi. Bunda har bir idishdagi modda miqdordagi chetlanish $\pm 15\%$ dan oshmasligi kerak.

Suspenziyalar uchun qatlamlar ajralishi tekshiriladi. Bunda agar xususiy maqolalarda boshqa yo‘riqlar ko‘rsatilmagan bo‘lsa, suspenziyalar chayqatib bo‘lgandan so‘ng qatlamlarning ajralish vaqtiga 5 minutdan kam bo‘lmasligi kerak. Suspenziyalar 0840 sonli ignadan shpritsga osongina o‘tish kerak.

24.4. Suvning sifatiga qo‘yilgan talablar

Suvning sifatiga qo‘yilgan talablar turli davlatlarda turlicha. Quyida Yevropa, AQSH va Rossiya davlatlarida suvning sifatiga qo‘yilgan talablar tasnifini ko‘rib chiqamiz.

Yevropada dori vositalarini ishlab chiqarishda foydalanadigan suvning sifatiga qo‘yilgan talablar Yevropa farmakopeyasida (EP) keltirilgan. Unga ko‘ra suv quyidagi turlarga bo‘linadi:

- tozalangan suv;
- yuqori darajada tozalangan suv;
- in’eksiya uchun suv.

Boshqa turdagи suvlardan ham foydalanish mumkin. 19 - jadvalda suvning sifat ko‘rsatkichlari va ularning me’yorlari keltirilgan.

19 - jadval

Suvning sifat ko‘rsatkichlari va ularning me’yorlari

Nº	Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	Balk formadagi ozalangan suv	YUqori rajaada zalangan suv	Balk formadagi in’eksiya uchun suv
1	Mikrobi ifloslanish	KOE*	1 ml da 100	100 ml da 10	100 ml da 10
2	Umumiy organik uglerod JOU-TOS)	mg/l (ppb*)	0,5 (500)	0,5 (500)	0,5 (500)
3	O’tkazuvchanlik	mkCm/sm 20°S da	4,3	1,1	1,1
4	Nitratlar	ppm**	0,2	0,2	0,2
5	Alyuminiy	ppb**	10	10	10
6	Og‘ir metallar	ppm**	0,1	-	-
7	Bakterial endotoksinlar	ED/ml (IU/ml)	***	<0,25	<0,25

*KOE – koloniya hosil qilish birligi

** ppb- milliardga to‘g‘ri keluvchi qism, ppm - millionga to‘g‘ri keluvchi qism

***<0,25 bakterial endotoksinlarni keyinchalik olib tashlanmagan dializ uchun ishlataladigan eritmalarini ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan tozalangan suvdan foydalilanlganda.

Tozalangan suv (Purified Water - PW) – sterillik va apiroganlik talab etilmagan dori vositalari uchun mo‘ljallangan suv. Tozalangan suv ikki xil bo‘ladi: tozalangan suv balk-formada (qadoqlanmagan, ishlab chiqarishda qo‘llaniladi) va tozalangan suv (qadoqlangan o‘ramda).

Tayyorlash usullari: distillyasiya, ion almashinish, qaytar osmos yoki inson uchun mo‘ljallangan suvga qo‘yilgan talablarga javob beruvchi suvdan (ichiladigan suv) olinadigan boshqa usul. Suvning o‘tkazuvchanligi 20 - jadvalda keltirilgan me’yorlardan (tegishli haroratlarda) oshmasligi kerak.

20 - jadval

Suvning o‘tkazuvchanligiga qo‘yilgan talablar va me’yorlari (tegishli haroratlarda)

Harorat, S	0	10	20	25	30	40	50	60	70	75	80	90	10
O‘tkazuvchanlik, kSm/sm	2,4	3,6	4,3	5,1	5,4	6,5	7,1	8,1	9,1	9,7	9,7	9,7	10,

Tozalangan suv (qadoqlangan o‘ramda) uchun yuqorida qayd etilgan ko‘rsatkichlardan tashqari kislotalilik, ishqoriylik, oksidlanuvchi moddalar miqdori, xloridlar, sulfatlar, ammoniy, kalsiy, magniy va quruq qoldiq miqdorlari nazorat etiladi.

Yuqori darajada tozalangan suv (Highly Purified Water - HPW) – yuqori biologik sifat talab etiladigan dori vositalarini tayyorlash uchun mo‘ljallangan suv.

Tayyorlash usullari: ikki marotaba qaytar osmos boshqa tan olingan usullar bilan birgalikda, masalan ultrafiltrlash va deionizatsiyalash usullari.

21 - jadval

Yuqori darajada tozalangan va in’eksiya uchun suvning o‘tkazuvchanligiga qo‘yilgan talablar va me’yorlari (tegishli haroratlarda)

Harorat, S	0	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50	55
O‘tkazuvchanlik, kSm/sm	0,6	0,8	0,9	1,0	1,1	1,3	1,4	1,5	1,7	1,8	1,9	2,1
Harorat, S	60	65	70	75	80	85	90	95	10			
O‘tkazuvchanlik, kSm/sm	2,2	2,4	2,5	2,7	2,7	2,7	2,7	2,9	3,1			

In’eksiya uchun suv (Water for Injections - WFI) – parenteral dori vositalarini tayyorlash uchun mo‘ljallangan suv (substansiyalarni eritish yoki suyultirish uchun mo‘ljallangan balk - formadagi in’eksiya uchun suv), yoki parenteral qo‘llash uchun mo‘ljallangan dori vositalari uchun (sterillangan in’eksiya uchun suv).

Balk - formadagi in’eksiya uchun suv (Water for Injections in bulk - WFI) - inson uchun mo‘ljallangan suvga qo‘yilgan talablarga javob beruvchi suvdan (ichiladigan suv) olinadigan yoki tozalangan suvdan olingan suv. Olinish usuli – distillyasiya.

Sterillangan in’eksiya uchun suv –(Sterilized Water for Injections) – konteynerlarga joylashtirilgan, tinqinlab berkitilgan va issiq sterilizatsiyadan o‘tgan balk - formadagi in’eksiya uchun suv. Sterillangan in’eksiya uchun suvning nazorati uchun shuningdek nominal xajmi 10 ml bo‘lgan konteynerlarning kislotaliligi va ishqoriyligi, o‘tkazuvchanligi (nominal xajmi 10 ml va undan kam bo‘lgan konteynerlar uchun maksimum 25 mkSm/sm va maksimum 5 mkSm/sm nominal xajmi 10 ml dan ko‘p bo‘lgan konteynerlar uchun), oksidlanuvchi moddalar miqdori, xloridlar, nitratlar,

sulfatlar, alyuminiy, ammoniy, kalsiy, magniy va quruq qoldiq, ko‘rinmaydigan zarrachalar, sterilligi va bakterial endotoksinlar miqdorlari nazorat etiladi.

Amerika Qo‘shma shtatlarida suvning quyidagi ko‘rinishlari qayd etilgan:

- In’eksiya uchun suv (Water for injection - WFI), USP;
- Bakteriostatik in’eksiya uchun suv (Bacteriostatic water for injection);
- Sterillangan ingalyasiya uchun suv –(Sterile water for inhalation) ;
- Sterillangan in’eksiya uchun suv –(Sterile water for Injection);
- Sterillangan irrigatsiya uchun suv –(Sterile water for irrigation);
- Tozalangan suv (Purified water);
- Sterillangan tozalangan suv (Sterile purified water).

18-jadvalda ikki xil suv uchun AQSH ning USP-34 bo‘yicha sifat ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Umumi organik uglerod (UOU-TOS) va o‘tkazuvchanlik USP ga 1996 yilda, Yevropa Farmakopeyasiga esa – keyinroq.

Bugungi kunda Rossiya suv uchun 2 ta maqola mavjud.

Tozalangan suv. FM 42-2619-97. In’eksiya uchun mo‘ljallanmagan dori vositalarini tayyorlash uchun qo‘llaniladi. Tiniq, rangsiz, xidsiz va mazasiz suyuqlik. Sifat ko‘rstakichlari: rN (5,0 dan 7,0 gacha), quruq qoldiq, qaytaruvchi moddalar, uglerod dioksidi, nitrit va nitratlar, ammiak, xloridlar, sulfatlar, kalsiy, og‘ir metallar va mikrobiologik tozaligi (1 ml da mikroorganizmlar 100 dan oshmasligi kerak).

In’eksiya uchun suv. FM 42-2620-97. Olinish usullari: distillyasiya va qaytar osmos. Sifat ko‘rstakichlari: rN (5,0 dan 7,0 gacha), quruq qoldiq, qaytaruvchi moddalar, uglerod dioksidi, nitrit va nitratlar, ammiak, xloridlar, sulfatlar, kalsiy, og‘ir metallar va mikrobiologik tozaligi (1 ml da mikroorganizmlar 100 dan oshmasligi kerak). Apiogen bo‘lishi, antimirkob moddalar va boshqa qo‘shimchalar saqlamasligi kerak.

22 – jadval

AQSH USP -34 bo‘yicha suvning sifat ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Tozalangan suv	In’eksiya uchun suv
Umumi organik uglerod (UOU-TOS)	500 ppb (643 moddasi bo‘yicha)	500 ppb (643 moddasi bo‘yicha)
O‘tkazuvchanlik	645 moddasi bo‘yicha	645 moddasi bo‘yicha
Mikrobi ifloslanish 45 moddasi bo‘yicha)	100 KOE/ml	10 KOE/100ml
Bakterial endotoksinlar	-	0,25 TB/ml

Bugungi kunda farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida asosan tozalangan suv (PW), yuqori darajada tozalangan suv (HPW) va in’eksiya uchun suvdan (WFI) foydalanilmoqda.

Tozalangan suv nosteril dori shakllarini tayyorlashda, bug‘ (par) olish uchun, ampula va flakonlarni (oxirgi chayish jarayonidan tashqari) yuvishda ko‘llaniladi.

In’eksiya uchun suv esa steril dori vositalarini tayyorlash va birlamchi o‘ramlarni (qadoqlar) chayish uchun mo‘ljallangan. I’eksiya uchun suv turli davlatlarda turli xil usullarda olinadi, masalan AQSH, Rossiya va Yaponiyada distillyasiya va qaytar osmos usullarida,AQSH va Yaponiyada shuningdek ultrafiltratsiya usulida, Yevropada esa faqat distillyasiya usulidan foydalanish belgilab qo‘yilgan.

YUqori darajada tozalangan suv EMEA tomonidan birlamchi o‘ramlarni oxirgi marta chayish va attestatsiya (validatsiya) (Note for Guidance on Quality Water for Pharmaceutical Use, CPMP/QWP/158/01, EMEA/CVMP/115/01, 2002 yil) jarayonlari uchun tavsiya etilgan.

Suvning sifati doimiy ravishda nazorat etilib turishi kerak.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayonida sifatini ta’minlash
2. Ishlab chiqarish jarayonining kontaminatsiyasi
3. Steril mahsulotlarni ishlab chiqarish zonalarini
4. Toza joylarning sinflanishi

5. Steril dori vositalarini ishlab chiqarishiga qo‘yilgan talablar
6. Parenteral dori vositalari turlari
7. In’eksion dori shakllari spetsifikatsiyasi
8. In’eksiya uchun ishlatiladigan quruq dori shakllariga qo‘yilgan talablar
9. In’eksion eritmalarining nominal xajmi
10. In’eksion dori vositalarini ishlab chiqishda qo‘llaniladigan xom va yordamchi vositalar
11. In’eksion dori vositalarini ishlab chiqishda qo‘llaniladigan suvning sifatiga qo‘yilgan talablar
12. Suvning sifatini baholashda qo‘llaniladigan tahlil usullari

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro’yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minlash. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

25-MAVZU: KO‘Z TOMCHILARINI SIFATINI TA’MINLASH

Ko‘z tomchilari bu ko‘zga tomizishga mo‘ljallangan dori shakli bo‘lib, ko‘z yoshiga izotonik bo‘lishi kerak.

Ko‘z tomchilari ishlab chiqarishda steril erituvchilar: tozalangan suv, izotonik bufer eritmalar, moylar va boshqalar ishlatiladi.

Stabilizator, konservant, prolangator va boshqa yordamchi moddalar: NaCl. Na₂SO₄. Na₂S₂O₃, H₃BO₃, askorbin kislotasi, selluloza xosilalari ishlatiladi. Ko‘z tomchilari sterilikka, mexanik moddalar yo‘qligiga tekshirildadi. Ishlatiladigan usullar xususiy maqolalarda keltirilgan bo‘ladi.

*20%li Sulfatsil-natriy ko‘z
tomchilari*

SOLUTIO SULFACILII NATRII 20 %

FM 42-0087196801

Tarkibi:

Sulfatsil natriy	-200g
(FM 42-2714-90)	
Natriy tiosulfat	-1,0g
(FM 42-2871-98)	
Xlorid kislotasi 1 M	- pH 7,7 – 8,0 gacha
(DF XI, 2jild, 78b)	
Tozalangan suv	- 1 l gacha
(FM 42-2619-97)	

Tavsiflanishi: Rangsiz yoki bir oz rangli tiniq suyuqlik.

CHinligi: Preparat birlamchi aromatik aminlarga xos sariq-zarg‘aldoq rangli cho‘kma hosil qiladi. (DF XI, 1jild, 159 b)

1 ml preparatga 1 ml mis sulfat eritmasidan qo‘shilganda havo – yashil rang hosil qiladi, keyinchalik bu rang o‘zgaradi.

Preparat natriyga xos B reaksiyasini beradi (DF XI, 1 jild, 159 b).

*Tiniqligi:*Preparat tiniq bo‘lishi kerak (DF XI, 1 jild, 198b).

Rangliligi: _Prepartning rangi №6b ranglilik etalonining rangidan oshmasligi kerak (DF XI, 1 jild, 194 b). pH. 7,5 dan 8,7 gacha (potensiometrik, DF XI, 1 jild,, 113 b)

Nominal xajm. _Tyubikdagagi shakli uchun xajm 1,3 ml dan kam bo‘lmasligi kerak . Xajm 2,0 yoki 5,0 ml li shpritslarda o‘lchanadi (shprits o‘lchamlari 0,1ml bo‘lishi kerak).

Flakondagi shakli uchun 5ml ±5%.

Mexanik yot aralashmalar.

Preparat RDI 42-504-00 talablariga javob berishi kerak.

Sterilligi: preparat sterill bo‘lishi kerak. Sinovlar membranalı filrlash usulida olib boriladi. (DF XI, 2 jild, 187b).

YOt moddalar: _ 1 ml preparatga 4 ml suv qo‘shiladi. 0,01 ml hosil bo‘lgan eritmada (400 mkg) olib Silikagel [60 F 254 yoki PTSX – PA – UF (7,5 X 15 sm)] plastikalarining start chizig‘igacha tomiziladi. YOniga 0,01ml (20mkg), 0,005 ml (10mkg), 0,0025 (5 mkg) 0,2% li guvox sulfatsil natriy va 0,01 ml (20mkg) 0,2% li streptotsidning guvox andoza moddasining eritmasidan tomiziladi. Plastinka havoda quritiladi, 10:5:5:2 nisbatdag N – butanol -95% li etanol – suv – konsentrangan ammiak eritmasidan tashkil topgan aralashma bilan to‘yintirilgan xromatografik kameraga joylashtiriladi va xromatografiyalanadi. Qo‘zg‘alanuvchan faza start chizig‘idan 10 sm gacha ko‘tarilganda, plastinka kamerada olinib, 100-105⁰ S haroratda 10 min davomida quritiladi, sovutiladi va 4-dimetilaminobenzaldegidning 2% li eritmasi bilan purkaladi. Bunda xromatogrammada hosil bo‘lgan dog‘ning kattaligi va rangi streptotsidning guvox andoza moddasi (SGAM) nikidan oshmasligi kerak (5% dan oshmasligi).

Miqdoriy tahsil.

1 ml preparat xajmi 25 ml bo‘lgan kolbaga solinadi, ustiga 10 ml suyultirilgan xlorid kislotasidan qo‘shib aralashma xajmi 80 mlgacha suv bilan etkaziladi. Kolba yopiladi va aralashtriladi. Aralashma 0-10⁰ S gacha sovutiladi va astalik bilan 0,15 – 0,20 ml tropeolin 00 yoki neytral qizili indikatori ishtirokida titrلانadi (“ nitritometriya” usuli). Bir vaqtning o‘zida nazorat tajribasi o‘tkaziladi.

1 ml 0,1m natriy nitrit eritmasi 0,02542 g C₈N₉N₂NaO₃S • N₂O ga to‘g‘ri keladi. Uning miqdori 19,4 dan 20,6% gacha bo‘lishi kerak.

Saqlanishi: 15⁰S dan yuqori bo‘lмаган haroratida yorug‘lik tushmaydigan (tyubiklar uchun), 25⁰S dan yuqori bo‘lмаган, yorug‘lik tushmaydigan joylarda (flakondagi dori turi uchun) saqlanadi.

YAroqlilik muddati 2 yil.

Ishlatilishi: mikrobg va qarshi vosita.

Nazorat savollari:

1. Ko‘z tomchilari sifatiga qo‘ylgan talablar.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. «Dori vositalari sifat standartlarining asosiy qoidalari» Tst-42-01-2002
2. Davlat farmakopeyasinining amaldagi nashrlari
3. Me’yoriy hujjatlar nusxalari
4. O‘zR «Standartlash to‘g‘risidagi qonuni» 1993 yil 28 dekabr
5. O‘zR «Dori vositalari va farmatsevtik faoliyati haqidagi qonun» 1997 yil 25 aprel
6. O‘zR farmatsevtika faoliyati 2003, 2001 yy, I-III t.
7. Kasakin I.Vnedrenie standartov GMP i ISO.Remedium.2003g. YAnvar-Fevral. 82-83s.
8. Pleteneva T.V. i dr. Znachenie novykh mejdunarodnykh standartov v gosudarstvennykh sistemakh upravleniya kachestvom lekarstvennykh sredstv. Farmatsevtika jurnali, №3, 2003. 31-31b.
9. Arzamashev A.P. Osobennosti sistemy standartizatsii substansiy v usloviyah tyinochnoy ekonomiki. Remedium.2006g. Sentyabr 57-59s

26-MAVZU: JIXOZLAR TOZALIGI VA UNI ANIQLASHDA QO'LLANILADIGAN ANALITIK USULLAR

Reja:

1. Jixozlar tozaligi va kontaminatsiya turlari
2. Jixozlarni tozalash usullari
3. Jixozlar tozaligini aniqlashda qo'llaniladigan analitik usullar
4. Jixozlar yuzasidagi kontaminantlar uchun maqbullik mezonini aniqlash

Tayanch iboralar: *Jixozlar tozaligi, jixozlar kontaminatsiyasi, kontaminantlar va kontaminantlar uchun maqbullik mezonini.*

Dori vositalari standartlar asosida ishlab chiqariladi. Mazkur standartlarda dori vositalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va sifatining nazoratiga juda katta talablar qo'yilgan.

Bugungi kunda farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarishni analitik usullarsiz tassavur qilib bo'lmaydi. Analitik usullardan dori vositasini ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida, jumladan texnologiyasi, foydalanilayotgan xom ashyo, oraliq va tayyor mahsulot sifatini baholashda, va nixoyat qo'llanilgan jixozlarning tozaligini aniqlashda foydalaniladi. Dastlabki, oraliq va tayyor mahsulotlarni kontaminatsiyadan saqlash maqsadida jixozlarni tozalash jarayoni olib boriladi, ushbu jarayon dori vositalarini ishlab chiqarishda eng muhim bosqichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Sababi bitta jixozda bitta emas balki bir nacha mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Tozalash jarayonini olib borish uchun avvalo iflos turini aniqlash lozim. Ifloslanish (kontaminatsiya) havoda, jixozda yoki materialda bo'lishi mumkin va u qoldiqlarning ma'lum yuzadagi miqdori (konsentratsiya, xajm, soni) bilan belgilanadi. Amaliyotda tozalik deb havodagi, jixozlar yuzasidagi yoki materiallardagi ifloslanishning eng miqdoriga (qoldiqning me'yordagi konsentratsiyasidan ham past – yaroqlilik me'yori) aytildi.

Ifloslanish (kontaminatsiya) tabiatiga qarab fizikaviy (mexanik zarrachalar), kimyoviy (molekulyar) va biologik (mikroorganizmlar va b.), tarqalishiga qarab tekis va notekis kabi turlariga bo'linadi.

Fizikaviy va kimyoviy ifloslanishlarni yo'qotish uchun yuvish usullaridan, mikroorganizmlar inaktivatsiyasi uchun esa sterillash va dezinfeksiyalash usullaridan foydalaniladi.

Tozalash jarayonini olib borishdan avval jixozlar, mahsulotlar va havoni nima, qanday va qay xolatda ifloslanganligini aniqlash kerak bo'ladi va shundan keyin samarali tozalash usulini taklif etish mumkin.

Kontaminatsiya turlari:

- Ta'sir etuvchi moddalar;
- Parchalanish mahsulotlar;
- Yordamchi materiallar;
- Zarrachalar;
- texnik vositalar;
- yuvish uchun mo'ljallangan vositalar;
- dezinfeksiyalovchi vositalar;
- mikroorganizmlar va pirogenlar.

Tozalash jarayoniga qo'yilgan asosiy talablar aniqlashtirilgan:

- jixoz va asboblar tozalangan, texnik xizmat va sanitar ishlov berishdan o'tgan bo'lishi;
- tozalash va texnik xizmat ko'rstish bo'yicha yozma usullar (tozalashga javobgar shaxs, tozalash bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish rejasи, tozalash jarayonida qo'llaniladigan usul, jixoz va materiallarning batafsil bayoni, oldingi seriyadan qolgan qoldiqlarni tozalash, tozalangan jixozlarni ifloslanishdan saqlash, foydalanishdan avval tozalikni tekshirish)bo'lishi;
- qayd etilgan talablarni bajarilishi bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtirilgan va validatsiyadan o'tgan bo'lishi kerak.

Tozalash jarayonining asosiy hujjati bu validatsiya rejasi va standart operatsion jarayonlardir. Mazkur hujjatlarda tozalash jarayonini qachon, qaerda, qanday qilib va kim tomonidan o'tkazilishi qattiq belgilab beriladi.

26. 2. Jixozlarni tozalash usullari

Tozalash jarayonini 3 xil usulda olib borish mumkin: qo'lda, yarimavtomatlashtirilgan va avtomatlashtirilgan (joyida). Tozalash jarayonida mumkin bo'lmanan va eng qiyin bo'lgan joylarga ahamiyat berish kerak. Tozalash jarayoni quyidagi xolatlarda olib boriladi: bitta jixozda bir nechta dori vositalarini ishlab chiqarish, bitta dori vositasini lekin turli dozalarda va ma'lum vaqt oralig'ida bitta seriyadagi mahsulotni chiqarish.

Tozalash jarayonini tekshirish uchun namunalar olishning 4 xil usuli mavjud: tampon bilan artish, yuzani yuvish (chayish), erituvchi bilan chayish va platsebo usulida olish.

Tozalash jarayonida qo'llaniladigan analistik usullarga xususiyligi va sezgirligi (aniqlash – LOD va miqdonini aniqlash – LOQ chegaralari), shuningdek ularni ishlatalishdan avval validatsiyalanganligi (attestatsiyadan) kabi talablar qo'yilgan.

Analitik usulning sezgirligi qoldiq uchun maqbullik (priemlemost) mezonidan past bo'lishi kerak.

23 - jadval

Namunalarni tampon bilan artish usulda olish

Afzalligi	Kamchiligi
Namunani eritadi va to'liq yo'qotadi	Namunani olish vaqtida tampon tolalari shilib qolishi mumkin
Katta yuzalar uchun ham qo'llanilishi mumkin	Tampon materialining turi eritish koeffitsienti xususiyligini kamaytirishi mumkin
Aniq yuza uchun, iqtisodiy jihatdan qulay va ldiy	Namuna olish texnik sabablarga bog'liq
Moddalarning qoldig'i, detergenlar va ikrobiologik qoldiqlarni aniqlash mumkin	Katta jixozlardan va ularning olish qiyin bo'lgan joylaridan namunani olish qiyinligi

24 - jadval

Namunalarni yuzani yuvish (chayish) usulda olish

Afzalligi	Kamchiligi
Namunani katta yuzalardan olish imkonini eradi	Analitik tahlil usulining sezgirligini umaytiradi
Namunalarni olish oddiy va qulay	Ba'zida namuna xajmi namunani qaysi usulda ish kerakligiga ta'sir etadi, ya'ni namuna rkibidagi aniqlanayotgan kontaminantning iqdori uni aniqlanish chegrasidan ham kichik shilib, va bunda namunani quyiltirish kerak yoki shqa sezgir usul tanlash lozim
Zarar etkazmasdan namuna olinadi	Namunalarni olish yuzasini aniqlash kerak, unki ular xisoblash natijalariga va mezonlarga 'sir etadi
Moddalarning qoldig'i, detergenlar va ikrobiologik qoldiqlarni aniqlash mumkin	Namunalarni olish metodologiyasini ishlab tizish kerak, sababi ular natijalarga ta'sir etadi
Namuna olish texnik sabablarga unchalik bo'liq emas	Qoldiqlar jixozning barcha joylarida tekis rasmagan bo'lishi mumkin
Namunalarni xoxlagan joydan olish imkonibor	Qoldiq qolgan joyni aniqlash imkonii yo'q
Namunani eritadi va to'liq yo'qotadi On line monitringiga ulab ishlasa bo'ladi	Barcha kontaminantlar suvda yaxshi eriydi deb xmin qilinadi

25 - jadval

Namunalarni erituvchi bilan chayish usulda olish

Afzalligi	Kamchiligi
Substansiyalarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi	Atrof-muxit va xodimlarni ehtiyyot qilish uchun ‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish kerak
Namunalarni olish texnikasiga bog‘liq emas	Namunani bir necha marotaba olishga to‘g‘ri lishi mumkin
Katta miqdorda qoldiqlarni ajratib olishga imkon beradi	tozalashga to‘sinqlik qilishi mumkin – ituvchini yo‘qotish
Namunani katta yuzalardan va olinishi qiyin bo‘lgan joylardan olish imkonini beradi	Namuna olish yuzasini aniqlashning qiyinligi bo‘lgan joylardan olish imkonini beradi

26 - jadval

Namunalarni platsebo usulda olish

Afzalligi	Kamchiligi
Platsebo xuddi mahsulotsingari izalar bilan kontaktda bo‘ladi	Ifloslanish borligini aniqlash mushkil
Namunalarni olish texnikasiga bog‘liq emas	Usulning xususiyigini kamaytiradi va aniqlashga to‘sinqlik lishi mumkin
Namunani olinishi qiyin bo‘lgan joylardan olish imkonini beradi	Nisbatan uzoq vaqt talab etadi va qimmat, chunki atseboden ham tozalash uchun vaqt ketadi Platseboni tanlash mushkilligi – platseboning tarkibi ahsulot tarkibiga yaqin bo‘lishi kerak Platsebo tarkibida qoldiqlar tekis tarqalmagan bo‘lishi umkin Mahsulot bilan kontaktda bo‘lgan yuzadagi qoldiqni olvosita anniqlash

Keyingi analistik omil - bu aynan ushbu usul uchun ajratib olish yoki faollik koeffitsienti – koeffitsient effektivnosti – R (tampon bilan olish usuli). Mazkur koeffitsient quyidagicha hisoblanadi.

$$\text{аҷратиб олиш} \quad \text{топилган миқдор} * 100 \\ \text{коэффициенти, \%} = \frac{\text{юзадаги қолдик миқдори}}{\text{юзадаги қолдик миқдори}}$$

Faollik koeffitsientining mezonlari WHO ning qo'llanmasida keltirilgan.

27 – jadval

Moddani aniqlash foizi	R koeffitsienti	Baho
>80	>0,8	Yaxshi
>50	>0,5	Qoniqarli
>50	>0,5	Mavhum

Koeffitsient $R > 0,7$ bo‘lganda maqbul hisoblanadi.

26.3. Jixozlar tozaligini aniqlashda qo'llaniladigan analistik usullar

Jixozlar tozaligini aniqlashda qo'llaniladigan analistik usullar xususiy va xususiy bo‘lmagan turlarga bo‘linadi (jadval).

Xususiy bo‘lmagan usullar jixozlarda qolgan qoldiqlarni aniqlashda va validatsiya jarayoni o‘tkazilgandan so‘ng qo'llaniladi. Xususiy usullar esabitta komponentga sezgir bo‘lib, boshqa moddalarni aniqlashga imkon bermaydi. Masalan, reaktorlardagi ta’sir etuvchi modda, bufer eritmalar, detergentlar, erituvchilar va b. Mazkur usullar ta’sir etuvchi moddalarni nazorat qilishda,

xususiy bo‘limgan usullar esa – substansiyalar, tayyor dori vositalarini olishning dastlabki jarayonlari va monitoringida ishlataladi.²²

Odatda, xususiy bo‘limgan usullar kombinirlangan xolda ishlataladi, jumladan pH, elektr o‘tkazuvchanlik va umumi organik uglerodning (TOC) miqdorini aniqlash usullarining kombinatsiyasi. Bunda pH ni aniqlash – kislotali va ishqoriy qoldqlarini (in’eksion suvning 20°C da rN 5,0-7,0), elektr o‘tkazuvchanlik – anion va kation qoldqlarini, umumi organik uglerod – organik qoldqlarini aniqlaydi, ushbu usul sezgir, tez bajariladi va foydalanishga qulay.

TOC – uglerod va uglerod oksidini katalitik oksidlashga asoslangan, ya’ni barcha qoldqlar ta’sir etuvchi moddaga tegishli deb xisoblanadi. Xuddi eng yomon fursat (naixudo‘iy sluchay) tamoiliga o‘xshab yoki zaharli moddaga nisbatan xisoblanadi. Agar olingan natijalar qo‘yilgan chegaradan past bo‘lsa, boshqa xususiy usul bilan aniqlash talab etilmaydi (eng yomon fursatdan foydalanilganda), agar yuqori bo‘lsa - xususiy usul bilan aniqlash talab etiladi, ya’ni aniqlangan qoldiq ta’sir etuvchi modda yoki yordamchi modda yoxud detergentmi degan savol tug‘iladi.

Elektr o‘tkazuvchanlikni aniqlash usuli albatta boshqa xususiy usul bilan kombinatsiya xolida ishlataladi. Dastlabki va oxrigi yuvishlar orasidagi o‘lchashlar in’eksiya uchun suvga elektr o‘tkazuvchanlik bo‘yicha qo‘yilgan farmakopeyaviy talablarga $<1,1\mu\text{s}/\text{cm}(20^{\circ}\text{C})$ mos kelishi kerak. Ishchi diapazon $0,1\text{da}n10\mu\text{s}/\text{cm}(20^{\circ}\text{C})$ gacha .

Sirt tarangligini aniqlash usuli sirt faol moddalarni aniqlashda foydalaniladi. Ushbu usulni qo‘llashda jixozlar yuzasi yog‘sizlantirilishi kerak. 10ppm sirt tarangligini yo‘qligini ko‘rsatadi, 1ppm dan to 10ppm gacha sirt faol moddalarning miqdorini emas balki faqat borligini ko‘rsatadi.

Fermentli tahlil – alohida xususiy tampondan foydalaniladi, ATR va lutsiferon/lutsiferaza orasida ketadigan kimyoviy jarayon bo‘lib, reaksiya natijasida biolyuminissent modda hosil bo‘ladi, keyinchalik ushbu modda maxsus asboblarda aniqlanadi.

Xromatografik usullar – yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YUSSX), xromatomass - suyuqlik xromatografiyasi, gaz xromatografiyasi va xromatomass - gaz xromatografiyasi. Mazkur usullar yuqori sezgirlikga ega va eng kichik miqdorni aniqlash imkonini beradi. Ba’zi birikmalar bir necha xil usullar yordamida deteksiya qilinishi mumkin.

Yupqa qatlam xromatografiya usuli – sezgrligi boshqa usullarga qaraganda nisbatan past, moddalar ajralgandan so‘ng albatta UB nurdan foydalanish kerak bo‘ladi.

Ion xromatografiyasi – tez, ammo qimmat, ionlanish tabiatiga ega bo‘limgan moddalarni aniqlash mumkin emas, tarkibida xromofor guruhlarni saqlovchi birikmalarni aniqlash mumkin.

28 -jadval

Xususiy va xususiy bo‘limgan tahlil usullari

Xususiy	xususiy bo‘limgan
YAqin sohadagi IK -spektrofotometriya NIR	Umumi organik uglerodni aniqlash (total organic carbon ,TOC)
O‘rta sohadagi IK –spektrofotometriya MIR	rN ni aniqlash
UB-spektrofotometriya	Titrlash
Atom adsorbsion spektrofotometriya AAS	Elektr o‘tkazuvchanlikni aniqlash
Xromatografiya usullari YUQX, YUSSX, X	Og‘irlilik (gravimetriya) usuli
Miqdorni ferment-immunosorbsion aniqlash LISA	
Kappilyar elektroforez usuli	

Xususiy va xususiy bo‘limgan tahlil usullarining afzallik va kamchilik tomonlarini ko‘rib chiqamiz.

2. ²² Quality assurance of pharmaceuticals : a compendium of guidelines and related materials.Vol. 2, Good manufacturing practices and inspection. – 2nd ed. 2010 y.

29 - jadval

Xususiy va xususiy bo‘lмаган тahlil usullarining afzallik va kamchilik tomonlarini

Nazorat usuli	afzalliklari	kamchiliklari
1	2	3
xususiy bo‘lмаган тahlil usullar		
Vizual nazorat	Tez, tejamkor, miqdoriy chegaralarini aniqlash mumkin, sezgir	Sub'ektiv, bo‘yoq bilan hlashdan so‘ng jixozni sm-larga ajratish talab ilishi mumkin
YUzani to‘g‘ridan - to‘g‘ri tahlil qilish (foton-elektron emissiya usuli yordamida)	Tez, tozalikni buzmaydi, barcha ifloslanishlarni ajrativ olish mumkin	Qimmat, namuna ishning xususiy nuqtasi bo‘q
rN	Namuna olish shart emas, on line da olib borish mumkin, detergentlarni aniqlash uchun qulay	Xususiy emas, faqat suvda iydigan moddalar uchun
Umumiy organik uglerod	Aniqlash me’yori past, on line da olib borish mumkin	xususiy emas, faqat suvda iydigan moddalar uchun, ali-datsiya jarayonini o‘tizish talab etila-di: aniqligi, niq-lash me’yori, chiziq-igi
1	2	3
Mikroskopiya (yorug‘lik yoki skaner-elektron mikroskopiya), mass-spektroskopiya bilan birga ishlataladi	Yangi jixozda noma'lum yot noddalarni aniqlaydi, sifat tahlili uchun	miqdoriy tahlil uchun nas
Og‘irlilik usuli	Faqat bitta ingrdient saqlaydigan nahsulot ishlab chiqaruvchi katta jixozlar uchun, arzon	validatsiya jarayoni-ni ib borishda xususiy usuldan ydalilaniladi
Titrlash usuli	Ingridient va detergantlarni aniqlaydi, arzon va tez	xususiy emas, faqat suvda iydigan moddalar uchun, ali-datsiya jarayonini o‘tizish talab etila-di: aniqligi, niq-lash me’yori, chiziq-igi, xususiyli-gi, ajratish koeffi-sienti
Xususiy usullar		
Ferment tahlili	Odatta antibiotiklarni aniqlash uchun ishlataladi, yuqori sezgirlikiga ega	qimmat, ishlashga qiyin, validatsiya qilish kerak, issillar denatura-siyasida niq natijalar bermaydi,
YUSSX	Sezgir, xususiy, miqdoriy tahlil o‘tkazish mumkin	qimmat, validatsiya rayonini o‘tkazish talab iladi: aniqligi, aniqlash e’yori, chiziqliligi, ususiyligi, ajratish koefitsienti
YUQX	Sezgir, xususiy,	yarim miqdoriy tahlil, validatsiya jarayonini tkazish talab etiladi: ususiyligi, aniqlash e’yori, ajratish koefitsienti

Kapillyar elektroforeз	sezgir, xususiy, oqsil va aminokislolar tahlilida	qimmatbaho asbob talab iladi
YAqin sohadagi IK - spektrofotometriya (NIR)	xususiy	qimmatbaho asbob talab iladi
Miqdorni ferment-mmunosorbsion aniqlash ELISA	protein qoldiqlarini aniqlash uchun, yuqori xususiylik, sezgir	qimmatbaho ishlanma va validatsiya, proteinlar enaturatsiyaga uchrab, enaturatsiya qoldiqlarini aniqlash uchun ikkinchi usul umumiylar organik uglerod iqdorini aniqlash usulidan ydalanish talab etiladi
Atom adsorbsion spektrofotometriya (AAS)	yuqori xususiylik (kuchli ta'sir etuvchi ion yoki neorganik mahsulotlar, metallar, tuzlar uchun), sezgir	Qimmatbaho asbob va validatsiya
UB - spektrofotometriya	xususiylik, sezgirlik	qimmatbaho asbob va validatsiya: aniqligi, aniqlash e'yorli, chiziqliligi, xususiyligi, ajratish koeffienti

25 - jadvalda qayd etilgan usullar quyidagi 26 - jadvalda keltirilgan talablar asosida validatsiyalanadi.

30 - jadval

WHO va ICH bo'yicha turli analitik usullar uchun aniqlanishi lozim bo'lgan validatsiya tavsiflari

validatsiya tavsiflari	Identifikatsiya yialash	Yot moddalarni aniqlash		Miqdoriy tahlil
		miqdoriy tahlil	aniqlanuvchi moddaning miqdoriy chegarasi	
1	2	3	4	5
1. To'g'rilik	-	+	-	+
2. Aniqlik:				
mos kelishi		+	-	+
laboratoriyalalararo aniqligi		+*	-	+*
3. Xususiyligi**	+	+	+	+
4. Identifikatsiyalash egarasi	-	-***	+	-
5. Miqdorini aniqlash egarasi	-	+	-	-
6. CHiziqli bog'lanish	-	+	-	+
7. Foydalanish diapa-zoni	-	+	-	+

Eslatma:

"-" ko'pincha tekshirilmaydi;

"+" ko'pincha tekshiriladi;

"* - qaytaruvchanlik tekshirilayotganda, laboratoriyalalararo aniqlik talab etilmaydi;

** - xususiyligi kamlik qilganda qo'shimcha tekshiruv olib boriladi;

*** - ba'zi xollarda talab etilishi mumkin.

26.4. Jixozlar yuzasidagi kontaminantlar uchun maqbullik (priemlemost) mezonini aniqlash

Yuqorida takidlaganimizdek, tozalash jarayonini aniqlashda muhim omillardan biri bu jixozlar yuzasidagi bo‘lishi mumkin bo‘lgan qoldiqlar me’yorini aniqlashdir. Qoldiqlar me’yorini aniqlash har bir individual ishlab chiqarish jarayonining vaziyatiga bog‘liq. Shuning uchun har bir jixoz uchun qoldiqlar me’yori oldindan belgilangan bo‘lishi kerak.

Uskunalarni tozalash me’yorini aniqlashga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bulariga:

- birlamchi ifloslantiruvchi mahsulotning tabiat;
- birlamchi ifloslantiruvchi mahsulotning dori shakli;
- birlamchi ifloslantiruvchi mahsulotning zaharliligi;
- tozalash jarayonidagi birlamchi ifloslantiruvchi mahsulotning eruvchanligi;
- jixozlarni tozalash jarayonining qiyinligi (tozalash qiyin bo‘lgan joylar);
- tozalash jarayonining turi (qo‘l bilan yoki avtomatik yo‘l bilan);
- bitta jixozda tayyorlangan boshqa mahsulotlar tabiat (ifloslantiruvchi moddalar);
- iflos bo‘lgan mahsulotning dori dozasi;
- bitta jixozda tayyorlangan boshqa mahsulotlar partiyasining miqdori (iflos qiluvchi moddalar).

Keyinchalik bir vaqtida bir necha ifloslanish bilan bog‘liq bo‘lgan havf-xatar baholanadi. Tozalash mezonini (qoldiqning ruxsat etilgan miqdorining maqbullik mezoni) xisoblashning bir necha xil usuli mavjud.

4. Vizual usul. Ushbu usuldan barcha farmatsevtik kompaniyalar foydalanadilar.

GMP ning talabiga ko‘ra jixozlarning tozaligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarishdan avval vizual nazoratdan o‘tkaziladi. Ushbu usuldan validatsiyalash vaqtida va validatsiyadan so‘ng ham foydalaniladi. Xullas, jixozning yuzasi ko‘z bilan yorug‘likda ko‘rilganda toza bo‘lishi kerak. Ko‘pincha tozalikni tekshirish uchun xodimlar katta-katta jixozlarning ichiga kiradilar, ba’zi xollarda agar modda fluoressensiya beradigan bo‘lsa, unda UB- lampalardan foydalaniladi. Ba’zi xolatlarda masalan, ishlab chiqarish tizimi yopiq bo‘lsa aksincha, vizual nazoratni o‘tkazish qiyin.

Vizual nazorat yorug‘lik nuri, tozalanayotgan jixozning yuzasi va tavsifi kabi omillarga bog‘liq.

5. Tozalash mezonini (qoldiqning ruxsat etilgan miqdorining maqbullik mezoni) xisoblashning ikkinchi usuli – bu havfsizlik omili va terapevtik dozalar, yoki zaharlilik ma’lumotlari va havfsizlik omillari kombinatsiyasidan foydalanishdir. Ushbu usul ishlab chiqarilgan mahsulotning kunlik (sutkalik) dozasining ma’lum ulushini boshqa mahsulotga tushib qolish imkonini aniqlashga asoslangan. Ushbu usul havfsizlik omiliga bog‘liq xolda kamayib boradi. Bu omil o‘lchovsiz bo‘lib, u havf-xatarni aniqlash omili bo‘lib xizmat qiladi va u bir mahsulotni ikkinchi mahsulot bilan ruxsat etilgan maksimal ifloslanishi uchun aniqlanayotgan mezonni xisoblash vaqtida e’tiborga olinadi. Uning qiymati keyingi ishlab chiqarilayotgan dori vositasining turiga bog‘liq. Ko‘pgina kompaniyalar havfsizlik omilidan foydalanadilar. Odadta mazkur omil har qanday mahsulot terapevtik dozasining 1/10000 dan oshmagan qiymatiga teng (dastlabki mahsulotning minimal kunlik dozasining keyingi mahsulotning maksimal kunlik dozasiga bo‘lgan nisbati 0,1% yoki 1/1000 dan oshmasligi kerak – “0,1% terapevtik dozalar” deyiladi) va boshqa mahsulotning maksimal dozasi tarkibida bo‘lishi mumkin. Bu kunlik terapevtik dozasiga nisbatan 1/10000 miqdorda ishlatiladigan har qanday mahsulot dori vositasini bir xil usulda qabul qilganda bemorga tibbiy va zaharli ta’sir etmaydi. Ta’kidlash joizki, bir vaqtida bir necha modda bilan ifloslanish jarayoni so‘rilishi nisbatan kuchli bo‘lgan dori shakliga o‘tganida bu taxmin ishlamaydi. Masalan, bu taxmin tashqi maqsadlarda qo‘llaniladigan dori shaklidan ichish uchun mo‘ljallangan dori shakliga o‘tganda yaramaydi, yoki ichish uchun mo‘ljallangan dori shaklidan - paraenteral dori turiga o‘tganda. Bu koeffitsient asosan qattiq dori turlari uchun ishlatiladi.

Havfsizlik omilini aniqlashning yana boshqa usuli bir vaqtida bir necha modda bilan ifloslanish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan havf-xatarni xisobga olgan xolda boshqa havfsizlik omillaridan foydalanishdir. Bu har qanday mahsulot terapevtik dozasining 1/10000 nisbati bemorning havfsizligini ta’minlashga etarli emas deganidir. Boshqa xollarda esa bu nisbat etarli bo‘lishi mumkin. Masalan, jixoz yuqori zaharlikga ega bo‘lgan yoki allergiyani davolash uchun

mo‘ljallangan mahsulotni ishlab chiqarishda foydalanilgan bo‘lsa, albatta bu nisbat etarli bo‘lmasligi mumkin, agar farmkompaniya faqat tashqi maqsadlar uchun surtma dori chiqarayotgan bo‘lsa, bu nisbat yuqori bo‘lib, u mahsulot tan narxining oshib ketishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu usulda turli havfsizlik omillarining shakalasidan foydalanish mumkin. Shu o‘rinda takidlash joizki, turli dori shakllari uchun ifloslanish ehtimoli bo‘lgan havf-xatar ifloslanishning haqiqiy chegarasini xisoblashdan avval baholanadi (27-jadval).

31 - jadval

Havfsizlik omili

Aniqlanuvchi moddalar zaharli va allergen	1/100000 dan 1/10000 gacha
Qon tomirga yuboriladigan dori vositalari	1/10000 dan 1/5000 gacha
Ko‘z dori vositalari	1/5000 dan 1/1000 gacha
Peroral dori vositalari (tabletkalar, kapsulalar b.)	1/1000 dan 1/5000 gacha
Mahalliy dori vositalari (krem, maz va b.)	1/100 dan 1/1000 gacha

Qoldiqning ruxsat etilgan miqdorini aniqlash uchun quyidagi ma’lumotlar kerak bo‘ladi:

- preparatning terapeutik dozasi;
- maksimal kunlik dozasi, mg/sut;
- bitta tabletka massasi (kapsula), mg;
- preparat seriyasi uchun taklif etilayotgan minimal ishlab chiqarish xajmi, kg;
- mahsulot bilan kontaktda bo‘lgan jixoz yuzasi.

Jixozlar yuzasidagi kontaminantlar uchun maqbullik (priemlemost) mezonini aniqlash va xisoblashni quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, A va V mahsulot ishlab chiqarilmoxda. V mahsulotni qabul qilayotgan bemorda V mahsulotga o‘tgan A mahsulotning qancha miqdori (ruxsat etilgan chegarasi) hali tibbiy ta’sir ko‘rsatmayapti degan savolga javob berish kerak.

V mahsulotga o‘tgan A mahsulotning maksimal ruxsat etilgan miqdori (MACO – allowable carryover into a single daily dose of next product) quyidagi formula orqali xisoblanadi:

$$MACO = \frac{TD_A * SF_B * BS_A}{MDD_B}$$

Bu erda TD_A - A preparatning terapeutik dozasi, mg;

SF_B - V mahsulotning havfsizlik omili;

BS_A - V preparat seriyasining o‘lchovi, mg;

MDD_B - V mahsulotining kunlik maksimal dozasi, mg/sut.

Demak, V mahsulotga o‘tgan A mahsulotning maksimal ruxsat etilgan miqdori 4 ta omilga bog‘liq ekan.

Misol. 5 ta ichishga mo‘ljallangan mahsulot chiqarilmoxda (A, V, S, D va E). Preparatlar bir-biridan terapeutik dozasi, seriyasining o‘lchovi va bitta dozaning massasi bilan farq etadi.

32 – jadval

Preparat nomi	preparatining kunlik aksimal dozasi, mg/sut.	bitta dozaning assasi, mg	seriya o‘lchovi, g
Preparat A	10	100	50
Preparat V	30	150	100
Preparat S	100	200	100
Preparat D	200	250	10
Preparat E	250	300	150

A mahsuloti qoldig‘ining maksimal o‘tishi mumkin bo‘lgan miqdori MASO quyidagi formula yordamida xisoblanadi:

$$MACO = \frac{MDD_A * WCdose}{SF_B}$$

Bu erda *WCdose*-dozalar miqdorining eng yomon fursati (naixudshiy sluchay) yoki guruxdag'i har qadnay mahsulot seriyasining eng kichik o'lchovi/ guruxdag'i har qadnay mahsulotning eng katta terapevtik dozasi;

SF_B - V mahsulotining havfsizlik omili.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib 5 preparatdan - E mahsuloti uchun (bitta dozaning massasi eng katta-300 mg) va D mahsuloti seriya o'lchovi eng kichik (10 kg) uchun dozalar miqdorining eng yomon fursati (naixudshiy sluchay - vorst case) ni topamiz:

WCdose=10000000 mg/300mg/dose=33333 dose.

Eng yomon fursat (naixudshiy sluchay - vorst case) bu bemor tomonidan mazkur jixozda avval ishlab chiqarilgan dori moddasi qoldig'ini maksimal miqdorini saqlagan dori vositasini maksimal miqdorini qabul qilishidir. YOKI mazkur jixozda avval ishlab chiqarilgan dori moddasi qoldig'ini minimal miqdorini saqlagan dori vositasini qabul qilishidir, ushu xolatda qoldiq miqdori minimal bo'lganligi sababli uni olingen namuna tarkibida aniqlash qiyinchilik tug'diradi.

Takidlash joizki, kunlik doza massasi o'z tarkibida barcha yordamchi moddalarni saqlaydi va xisoblashda ular ham qo'shiladi. Bunda MASO quyidagicha xisoblanadi:

$MACO = \text{мепаневтикдоза} A * (WCdose) / SF = 10\text{mg} * 33333 / 1000 = 333\text{mg}$

33- jadval

5 ta mahsulot uchun ifloslanishning maksimal o'tishi mumkin bo'lgan miqdorining xisobi

Mahsulot	MASO
Preparat A	333
Preparat V	990
Preparat S	3330
Preparat D	6660
Preparat E	16650

6. Tozalash mezonini (qoldiqning ruxsat etilgan miqdorining maqbullik mezoni) xisoblashning 3- usuli – bu ikkinchi mahsulot tarkibida birinchi moddaning miqdori 10 ppm dan (1 g mahsulotga 10 mkg ifloslanish) oshmagan xolda paydo bo'lishi mumkinligi. Bu usuldan – havf-xatarni baholashda ko'pgina kompaniyalar foydalanadilar. Mazkur usuldan dezinfeksiya va yuvish uchun ishlatiladigan moddalar qoldiqlarini aniqlashda foydalaniladi.

Jixozlarni tozalash jarayoni quyidagi xolatlarda attestatsiyadan (validatsiya) dan o'tkazilishi kerak:

- Yangi jixoz yoki jarayon foydalanishga kiritilganda;
- mahsulot nomenklaturasiga o'zgartirishlar kirtilganda, shu jumladan dori vositalari dozalariga ham;
- tozalik jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi jixozlar va jarayonlarga o'zgartirishlar kiritilganda;
- tozalash usullariga o'zgartirishlar kiritilganda.

Attestatsiya jarayoni jixoz 3 marta tozalangandan so'ng quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi:

- avvalgi mahsulotning ruxsat etilgan miqdorini xisoblash, ya'ni tozalash mezoni;
- namuna olish;
- namuna tahlili;
- ruxsat etilgan miqdorga mos kelishini tekshirish;
- attestatsiya bayonnomasini rasmiylashtirish.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Jori vositalarini ishlab chiqarishda qo'llaniladigan jixozlar tozaligi
2. Kontaminatsiya turlari
3. Jixozlar tozaligini aniqlashda qo'llaniladigan analitik usullar
4. Jixozlar tozaligi va kontaminatsiya turlari

5. Jixozlarni tozalash usullari
6. Jixozlarni tozalashda tampon bilan artish usuli
7. Jixozlarni tozalashning yuzani yuvish (chayish) usuli
8. Jixozlarni tozalashning erituvchi bilan chayish usuli
9. Jixozlarni tozalashda qo'llaniladigan platsebo usuli.
10. Jixozlar yuzasidagi kontaminantlar uchun maqbullik (priemlemost) mezonini aniqlash usullari
11. Jixozlar tozaligini aniqlashda qo'llaniladigan analitik usullar
12. Jixozlar tozaligini aniqlashda qo'llaniladigan xususiy va xususiy bo'limgan tahlil usullari.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

27-28-MAVZU: Yaxshi laboratoriya amaliyoti (GLP). Doklinik sinovlar o'tkazilishining normativ-huquqiy negizi. Doklinik sinovlar o'tkazilishiga GLP talablari. Test-tizimlar.

Reja:

1. Yaxshi laboratoriya amaliyoti umumiy qoidalari
2. Yaxshi laboratoriya amaliyoti printsiplari
3. Tadqiqot ob'ektlarining xarakteristikasi
4. Standart operatsion protseduralar

Tayanch so'z va iboralar: *GLP, sinov maydonchasi, sinov markazi, tadqiqot rejasi, tadqiqot rahbari.*

Yaxshi laboratoriya amaliyoti umumiy qoidalari. **GLP** dori vositalari tarkibidagi ob'ektlarni noklinik sinovlarini bajarish uchun mo'ljallangan yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplarini belgilaydi. Sinov ob'ektlari sintetik usul bilan yoqi tabiiy xom ashyodan olingan bo'lishi mumkin. Ayrim xollarda esa tarkibida tirik organizmlar saqlashi xam mumkin. Sinovlarning maqsadi tekshiriluvchi ob'ektlarning xossalari o'rganish inson sog'ligi, hamda tashqi muhitga bezararlagini aniqlash bilan bogliq bo'lgan ma'lumotlarning olishdan iborat. Yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplariga amal qilgan xolda, tibbiyat va ekologiya soxasidagi xavfsizlikni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan noklinik sinovlar laboratoriya, xona va dala sharoitlarida bajariladigan ilmiy-tekshirish tajribalarini o'z ichiga oladi. Yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplari milliy qonunchilikda keltirilgan ayrim holatlardan tashqari dori vositalarini litsenziyalash va ro'yhatga olish bilan bog'liq bo'lgan tibbiy va ekologik sohadagi xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan barcha sinovlarda qo'llaniladi.

Yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplari (Good Laboratory Practice (GLP): Inson sog'lig'ini saqlash va tashqi muhit xavfsizligi sohasidagi sinovlarni tashkillashtirish, rejalashtirish, nazorat qilish va olib borish tartibi, hamda rasmiylashtirish, arxivlashtirish va olingan natijalarni taqdim etishga oid jarayonlarini sifatini ta'minlash tizimi.

Sinov markazlarini tashkil etish

Sinov markazi(test facility): Noklinik sinovlarni bajarish uchun kerakli bo‘lgan mutaxassislar jamoasi, zaruriy xona va asbob uskunalarga ega bo‘lgan amaldagi joy. Agar sinovlar bir nechta sinov maydonlarida amalga oshiriladigan bo‘lsa, u xolda “sinov markazi” atamasi, sinovlar bo‘yicha rahbar joylashgan va sinovlar markazi xisoblangan barcha sinov maydonchalari joylashgan markaz tushuniladi.

Sinov maydonchasi(test site): Biror bir tadqiqotning aloxida bir bosqichi amalga oshiriladigan joy.

Sinov markazi ma’muriyati(test facility management): sinov markazini rasmiy boshqaruvchi va yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplarini tashkilashtirish va ularga rioya qilish bo‘yicha javobgar shaxs yoki shaxslar.

Sinov maydonchasi ma’muriyati(test site management): Sinov maydonchasini rasmiy boshqaruvchi va unda yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplariga rioya kilgan xolda kerakli tadqiqotlarning biror bir qismini amalga oshirish bo‘yicha javobgar shaxs yoki shaxslar.

Noklinik tadqiqotlarni o‘tqazish bo‘yicha tadqiqotlar tashabbuschi, buyurtmalarni rasmiylashtiruvchi, qo‘llab quvvatlovchi yoki tasdiqlovchi, ularni tashkil qilish va xarajatlarni qoplash uchun javobgar jismoniy yoki yuridik shaxs.

Tibbiy va ekologik xavfsizlik soxasidagi noklinik tadqiqotlarni boshidan oxirigacha o‘tkazishga mas’ul shaxs.

Javobgar tadqiqotchi(principal investigator): tadqiqotlarni bir nechta maydonchalarda o‘tkazilish zaruriyati tug‘igan xolda, tadqiqotlar rahbari nomidan ish yurituvchi va tadqiqotlarni unga topshirilgan qismi uchun javobgar shaxs.

I l o v a - Javobgar tadqiqotchiga tadqiqot rahbari vazifasi butunlay yuklatib berila olmaydi, chunki tadqiqot rahbari vazifasiga tadqiqot rejasini va unga kiritilgan o‘zgartirishlarni tasdiqlash, yakuniy hisobotni tasdiqlash, shuningdek barcha tadqiqotlar yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplari asosida o‘tkazilganini kafolatlash kabi vazifalar yuklatilgan.

Sifatni ta’minlash dasturi (quality assurance programme): asosiy tadqiqotlarni o‘tkazishga jalb etilmagan xodimlar tomonidan bajariladigan va sinov markazi ma’muriyati tomonidan yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplariga rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan ish dasturi.

Standart operatsion protseduralar; SOP (standard operating procedures; SOPs): Tadqiqot rejasida yoki tadqiqotni o‘tkazish yo‘riqnomasida batafsil ko‘rsatilmagan va aniq bir faoliyat turini bajarishda bir xillikka erishishga yo‘naltirilgan, tadqiqotni o‘tkazish jarayonlari yoki boshqa faoliyat ta’riflangan batafsil yozma yo‘riqnomalar.

Asosiy reja-chizma(master schedule): Sinov markazida ish xajmini baxolashga va o‘tkazilayotgan tadqiqotlar nazorati uchun qo‘llaniladigan ma’lumotlar to‘plami, ya’ni o‘zida yirik bosqichlar va asosiy xodisalarni aks ettirgan umumlashtirilgan darajadagi ishlar chizmasi.

Tibbiy va ekologik xavfsizlik bo‘yicha noklinik tadqiqotlar (non-clinical health and environmental safety study): Nazorat organlari ko‘rib chiqishi uchun mo‘ljallangan va ob’ektlarning xossalari va xavfsizligini namoyon etuvchi ma’lumotlarni olish uchun laboratoriya, issiqxona yoki dala sharoitida tadqiqot ob’ekti taxlili o‘tkaziladigan tajriba yoki tajribalar qatori.

Qisqa muddatli tadqiqot(short-term study): Qisqa muddat mobaynida, keng tarqalgan standart uslublar yordamida o‘tkaziladigan tadqiqot.

Tadqiqot rejasasi(study plan): Tadqiqot o‘tqazish va unga kiritilgan barcha o‘zgartirishlarni aks ettiruvchi, tajribaning maqsadi va metodologiyasini namoyon etuvchi yozma hujjat.

Tadqiqot rejasigao‘zgartirish (study plan amendment): Tadqiqot o‘tkazish boshlangandan so‘ng, tadqiqot rejasiga maqsadga muvofiq kiritigan o‘zgartirish.

Tadqiqot rejasidan chetlanish(study plan deviation): Tadqiqot o‘tkazish boshlangandan so‘ng, tadqiqot rejasidan ko‘zda tutilmagan chetlanish.

Test-tizim(test system): Tadqiqotda qo‘laniladigan, alohida yoki biror bir kombinatsiyadagi biologik, kimyoiy yoki fizik tizim.

Tadqiqotning birlamchi ko'rsatkichlari(raw data): tadqiqot vaqtida olingan kuzatish natijalari va protseduralarni o'zida aks ettirgan sinov markazi ish yozuvlari va hujjatlarining asl nusxalari yoki ularning tasdiqlangan nusxalari.

I l o v a -tadqiqotning birlamchi ko'rsatkichlari bo'lishi mumkin: fotosuratlar, mikrofilmlar, mikroplyonkalar, ularning nusxalari, disketalar va kompakt-disklar, ish yozuvlari hamda avtomatlashtirilgan asbob-uskunalarining ko'rsatkichlari, shuningdek aniq vaqt mobaynida axborotlarni bezarar saqlash imkoniyatini beruvchi turli axborot saqlash vositalari (ko'r. 2.3.10).

Namuna(specimen): Test-tizimdan o'rganish, tahlil qilish yoki saqlash uchun olingan Har qanday material.

Tajribaning boshlanish sanasi(experimental starting date): Tajribaning birinchi natijalari olingan sana.

Tajribaning tugallanish sanasi(experimental completion date): Tajribaning so'nggi natijalari olingan sana.

Tadqiqotning boshlanish sanasi(study initiation date): Tadqiqot rahbari tomonidan tadqiqot rejasni imzolangan sana.

Tadqiqotning tugallanish sanasi (study completion date): Tadqiqot rahbari tomonidan yakuniy hisobot imzolangan sana.

Sinov ob'ekti (sinov o'tqaziladigan yoki testlanuvchi ob'ekt)

Testlanuvchi ob'ekt (test item): Tadqiqot predmeti xisoblanuvchi ob'ekt.

Standart ob'ekt (namuna), «nazorat» ob'ekti (namuna)(reference item, «control item»): Rasmiy (yuridik) tasdiqlangan tarkibda ega bo'lган, tadqiqot ob'ekti (namuna) bilan solishtirish uchun ishlataladigan ob'ekt (namuna).

Partiya, seriya(batch, lot): Aniq bir ishlab chiqarish sikli davomida olingan, hamda bir xil xarakterga ega bo'lган sinov o'tkaziluvchi yoki standart ob'ektning ma'lum miqdori.

Tashuvchi(vehicle): Testlanuvchi yoki standart ob'ektni test-tizimga kiritishni engillashtirish maqsadida aralashtiriladigan, dispergirlanadigan yoki eritiladigan modda.

Yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplari. Me'yor, qoida va ko'rsatmalar tizimidan iborat bo'lган yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplari, noklinik (klinikadan oldingi, laboratoriya, tajriba) tadqiqotlari natijalarini muvofiqligi va to'g'riligini ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplari, sinov jarayonlari va sharoitlarini tashkillashtirish bilan bog'liq bo'lган sifatni ta'minlash tizimi sifatida belgilangan bo'lib, unda sog'liqni saqlash va ekologik xavfsizlik sohasidagi noklinik tadqiqotlar rejalashtirilgan, bajarilgan, nazorat qilingan va ro'yhatga olingan bo'lishi kerak.

Yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplari farmakologik, toksikologik va biologik yo'nalishdagi boshqa laboratoriyalarning ish faoliyatiga taaluqli.

Yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplari yangi dori preparatlarini tajribaviy o'rganish bosqichidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini inobatga olish mumkinligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Inobatga olish mumkinligi bunda bir tamondan, natijalarini isbotlanuvchanligini va ishonchliliginini, ikkinchi tomonidan laboratoriya xayvonlari bilan insonparvarlik prinsiplari asosida munosabatda bo'lishni bildiradi.

Klassik kimyoviy moddalar, shuningdek biotexnologik, gen-modifitsirlangan, nanotexnologik mahsulotlarning kimyoviy va biologik xavfsizligini o'rganish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar xonalari, asbob-uskunalar, xodimlari, uslublari va hujjatlari meyyoriy hujjatlar talablariga javob berishini kafolatlovchi sifatni ta'minlash xizmatiga ega bo'lishi shart.

Sifatni ta'minlash xizmati tadqiqotlarni olib borishda ishtirot etuvchi xodimlardan mustaqil bo'lishi shart. Biroq ushbu xizmat xodimlari tadqiqot o'tqazish jarayonlari bilan tanish bo'lishi va sinov markazi rahbariyatiga bevosita hisobot berishlari zarur.

Tadqiqot ob'ektlarining xarakteristikasi.Har bir sinaluvchi va standart ob'ekt o'rnatilgan tartibda identifikatsiyaga va umumiyl qabul qilingan xalqaro nomga ega bo'lishi kerak (misol uchun, kodga ega bo'lmog'i kerak, CAS-nomeri (Amerika kimyo jamiyatining kimyoviy adabiyotlar

bo‘yicha axborot xizmatining qayd etish raqami), nomi, biologik parametrlari, IUPAC (Xalqaro nazariy va amaliy kimyo birlashmasi nomenklaturasi bo‘yicha nomi).

Har bir tadqiqotni o‘tqazish uchun sinaluvchi va standart ob’ektlarning partiya(seriya) raqami, tozalik darajasi, tarkibi, konsentratsiyasi va boshqa zarur ko‘rsatkichlari haqida ma’lumotlar bo‘lishi shart.

Agar sinaluvchi ob’ektlar to‘g‘ridan to‘g‘ri xomiydan olinsa, unda sinov markazi va xomiy ularni identifikasiya qilish mexanizmini ishlab chiqishi shart.

Har bir tadqiqot jarayonida tekshiriluvchi va standart ob’ektlarning barqarorligini, tajribani olib borish davrida saqlash jarayonida, tekshirib turish zarur.

Agar sinaluvchi ob’ekt ma’lum bir sharoitda ishlatish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, uni bir xilligi, konsentratsiyasi va turg‘unligi shu sharoitda aniqlanishi kerak. Dala sharoitida o‘tqaziladigan tajribalarda bu xususiyatlar alohida laboratoriya tajribalari vaqtida aniqlanadi.

Har bir tadqiqot uchun, qisqa muddatli tekshiruvlardan tashqari, tekshiriluvchi ob’ektlarning har bir partiya(seriya)sidan taxlil uchun namuna saqlab ko‘yish shart.

Standart operatsion protseduralar. Tadqiqot jarayonlarida olingan natijalarni to‘liqligini va sifatini kafolatlash uchun, sinov markazi yozma ravishda rasmiylashtirilgan va raxbariyat tamonidan tasdiqlangan standart operatsion protseduralarga (SOP) ega bo‘lishi shart. Qayta ko‘rib chiqilgan standart operatsion protseduralar xam sinov markazi rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Sinov markazining har bir bo‘limi va/yoki maydonchasi, ularning faoliyatiga tegishli standart operatsion protseduralarga ega bo‘lishi kerak. Bu SOPlarga qo‘srimcha ravishda boshqa metodik qo‘llanmalar, axborotnomalar va maxsus maqolalardan foydalanish mumkin.

Tadqiqot davrida SOPdan chetlanish qayd qilinishi va tadqiqot rahbari va javobgar tadqiqotchi(lar) tomonidan tan olinishi(imzolanishi) shart.

Standart operatsion protseduralar quyidagi faoliyat ko‘rinishlari uchun qo‘llanishi shart(biroq ular bilan chegaralanmasdan):

Sinaluvchi va standart ob’ektlar

Kelib tushishi, identifikasiyası, yorliqlash, qayta ishslash, namuna olish, saqlash.

Asbob-uskunalar, materiallar va reagentlar.

a) Asbob-uskunalar:

-ishlatishi, xizmat ko‘rsatilishi, parvarishlash, kalibrovka qilish.

b) Kompyuterlashtirilgan tizimlar:

- validatsiya, ishslash tartibi va xizmat ko‘rsatish, xavfsizligi, o‘zgartirishlar nazorati, zaxira nusxalarni tashkil etish.

c) Moddalar, reagentlar va eritmalar:

- tayyorlanishi va yorliqlanishi.

Yozuvlarni saqlash, hisobot, axborotlarni olish va saqlash. Tadqiqotlarni kodlash, ma’lumotlarni yig‘ish, hisobotlarni tayyorlash, indeksatsiya qilish tizimlari, natijalarga ishlov berish, shu jumladan kompyuterlash tizimlari yordamida.

Test-tizimlar:

a) test-tizimlarni joylashtirish uchun xonalarni tayyorlash va sharoit yaratish;

b) test-tizimlarni qabul qilish, tashish, joylashtirish, xarakteristikalarini aniqlash va identifikasiyalashni belgilovchi, shu bilan birga parvarish qilish bilan bog‘liq protseduralar;

c) test-tizimlarni tayyorlash, tadqiqot jarayonigacha, tadqiqot vaqtida, tadqiqotdan so‘ng ularni kuzatib borish;

d) tadqiqot vaqtida halok bo‘layotgan yoki halok bo‘lgan test-tizimlarga bo‘lgan munosabat;

e) namunalarni yig‘ish, ularni indeksatsiya qilish va ishslash tartibi, murdani ochish va gistopatologiya bilan birga;

f) sinov maydonchalarida test-tizimlarni joylashtirish.

Sifatni ta’minlash bo‘yicha protseduralar

Sifatni ta'minlash xizmati xodimlarining ishi rejalashtirish, tekshiruvlar chizmasini tuzish, tekshiruvlarni o'tkazish, hujjatlashtirish va tekshiruvlar haqidagi hisobotlarni tuzishdan iborat.

Tadqiqotlarni o'tkazish

Tadqiqot rejasি

Tadqiqot rejasи tadqiqot o'tqazilishidan oldin yozma holda ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Tadqiqot rejasи yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplariga binoan tadqiqot rahbari tomonidan sanasi ko'rsatilgan ravishda imzolangan va sifatni ta'minlash xizmati hodimlari tomonidan izlashtirilgan bo'lishi kerak. Tadqiqot rejasи sinov markazi rahbariyati va xomiy tomonidan xam tasdiqlangan bo'lishi kerak.

- a) Tadqiqot rejasiga o'zgartirishlar asoslangan bo'lishi va tadqiqot rahbari tomonidan sanasi ko'rsatilib imzolangan bo'lishi kerak. O'zgartirishlar tadqiqot rejasи bilan birga saqlanishi kerak.
- b) Tadqiqot rejasidan chetlanishlar yozma ravishda ko'rsatilishi, tushuntirilishi, qabul qilinishi va o'z vaqtida javobgar tadqiqotchi yoki tadqiqot rahbari tomonidan sanasi ko'rsatilgan holda imzolanishi kerak. Tadqiqot rejasidan chetlanishlar tadqiqotning birlamchi natijalari bilan saqlanishi kerak.

Tadqiqotning asosiy rejasи qisqa muddatli tadqiqotlarni o'tqazish uchun maxsus ilova bilan to'ldirilishi mumkin.

Tadqiqot rejasining mazmuni

Tadqiqot rejasи quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan chegaralanib qolmaydi:

Tadqiqot, sinaluvchi va standart ob'ektlar haqida ma'lumot:

- a) tadqiqotning to'liq nomi;
- b) tadqiqotning ma'nosi va maqsadi;
- c) (IUPAC) Xalqaro nazariy va amaliy kimyo birlashmasi nomenklaturasi, ((CAS) Amerika kimyo jamiyatini axborot xizmatining qayd etish raqami bo'yicha kodi yoki nomi orqali tekshiriluvchi ob'ektni tasvirlash, biologik parametrлari va shu kabilar.
- d) ishlatiladigan standart (nazarat) ob'ekti.

Sinov markazi va xomiy haqida ma'lumot:

- a) manzili ko'rsatilgan holda xomiy haqidagi ma'lumot;
- b) tadqiqot o'tkazilishi ko'zda tutilgan barcha sinov markazlari va maydonchalarining nomi va manzili;
- c) tadqiqot rahbarining ismi, sharifi va manzili;
- d) javobgar tadqiqotchining ismi, sharifi, manzili va unga tadqiqot rahbari tomonidan bajarish uchun yuklatilgan tadqiqot bosqichlari.

Sanalar:

- a) tadqiqot rahbari tomonidan tasdiqlangan tadqiqot rejasи sanasi. Tadqiqot rejasining sinov markazi rahbariyati va xomiy tomonidan tasdiqlangan sanasi;
- b) tajribaning taxminiy boshlanish va tugallanish sanalari.

Sinov uslublari

Iqtisodiy xamqorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmaning bo'limlaridan ko'chirmalar, boshqa qo'llanmalar va uslublar.

Boshqa muammolar:

- a) test-tizimlarni tanlashni asoslash;
- b) test-tizimlarning xarakteristikalarini: turi, nasli, shtammi, sotib olish manba'lari, miqdori, tana og'irligi diapazoni, jinsi, yoshi va boshqa e'tiborga loyiq ma'lumotlar va b.;
- c) yuborish uslubi va uni tanlashni asoslash;
- d) doza darajasi va/yoki konsentratsiya, yuborishning tezligi va davomiyligi;

e) tajriba loyihasi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot: tadqiqot jarayonlarining xronologik tartibdagagi tavsifi, hamma qo‘llanilgan uslublar, tadqiqot o‘tqazish moddalari va sharoitlari, taxlillar, o‘lchovlar, kuzatuvlari va tekshiruvlarning turi va tezligi, ma’lumotlarga statistik ishlov berish uslublari.

Tadqiqot o‘tkazish jarayoni

1 Har bir tadqiqotga unikal identifikatsion raqam (kod) berilishi shart. Ushbu tadqiqotga taaluqli barcha ob‘ektlarga xam identifikatsion raqam(kod)berilishi shart. Tadqiqotlarda qo‘llaniladigan barcha namunalar, kelib chiqishlarini tasdiqlash uchun identifikasiya qilingan bo‘lishi shart. Bunday identifikasiya qilingan namunalarni va tadqiqotlarni kuzatilib turilishini amalga oshirishga imkon yaratishi kerak.

Tadqiqotlar tadqiqot rejasiga asosan amalga oshirilishi shart.

Tadqiqot bajarilishi davrida olingan barcha natijalar o‘z vaqtida, tez, aniq va ravon yozib borilishi, shu yozuvlarni yozgan xodim tomonidan sanasi ko‘rsatilgan holda imzolanishi shart.

Birlamchi natijalardagi har qanday o‘zgartirishlar shunday o‘tkazilishi kerakki, avvalgi natijalar yo‘qolmasligi kerak; o‘zgartirish kiritilishini sababi ko‘rsatilishi shart. O‘zgartirish uni kiritgan xodim tomonidan sanasi ko‘rsatilgan holda imzolanishi kerak.

Kompyuterga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritish yo‘li bilan ro‘yhatga olingan ma’lumotlar shu jarayonga javobgar bo‘lgan shaxs tomonidan kiritish vaqtida identifikasiya qilingan bo‘lishi shart. Kompyuterlashtirilgan tizim moslamasi birlamchi ma’lumotlarni berkitmasdan turib, barcha o‘zgartirishlarni ko‘rsatish uchun, barcha auditorlik hisobotlarni saqlanishini ta’minlashi zarur. O‘zgartirishlarni kim kiritganligini kuzatishi imkoniyati bo‘lishi uchun, masalan, bir vaqtida bajariladigan va sana qo‘yiladigan (elektron) imzo bo‘lishi lozim. O‘zgartirishlar kiritishning sabablari keltirilishi kerak.

Tadqiqot natijalari xaqida hisobot

Umumiyl xolatlari

Har bir tadqiqotdan so‘ng yakuniy hisobot tayyorlanishi kerak. Qisqa muddatli tadqiqotlar natijalari, standartlashtirilgan yakuniy hisobotga tegishli ilovalar ko‘rinishida kiritilishi xam mumkin.

Tadqiqotlarda ishtiroq etadigan javobgar tadqiqotchilar hamda ilmiy xodimlar hisobotlarini imzo va sana bilan tasdiqlaydilar.

Yakuniy hisobot unda keltirilgan ma’lumotlarni haqqoniyligiga javobgarlikni olgan holda tadqiqot rahbari tomonidan sanasi qo‘yilib, imzolangan bo‘lishi kerak. SHuningdek, hisobot yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplariga to‘g‘ri kelishi ham ko‘rsatilishi kerak.

Yakuniy hisobotga to‘g‘rilashlar va qo‘shimchalar o‘zgartirishlar ko‘rinishida takdim etilishi kerak. Hisobotda to‘g‘rilashlar yoki qo‘shimchalar kiritish sabablari aniq ko‘rsatilishi shart. Har bir o‘zgartirish tadqiqot rahbari tomonidan imzo va sana bilan tasdiqlanishi kerak.

Yakuniy hisobotni davlat boshqaruvi organi talablari asosida qayta formatlanishi ushbu hisobotga to‘g‘rilashlar, qo‘shimchalar yoki o‘zgartirishlar kiritish harakati deb xisoblanmaydi.

Yakuniy hisobotning mazmuni

Yakuniy hisobot quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi shart, lekin ular bilan chegaralanmasligi kerak:

Tadqiqot, sinaluvchi va standart ob‘ektlar bo‘yicha identifikatsion ma’lumotlar;

a) kengaytirilgan nomlanishi;

b) tekshiriluvchi ob‘ektga tegishli identifikatsion ma’lumotlar - kod yoki nomlanishi (Nazariy va amaliy kimyo bo‘yicha Halqaro tashkilot nomenklaturasiga ko‘ra (IUPAC), Amerika kimyo jamiyatining kimyoviy adabiyotlar bo‘yicha axborot xizmatini ro‘yhati raqami bo‘yicha (CAS), biologik xarakteristikalar va boshqalar);

c) standart ob‘ektning nomlanishi;

d) sinaluvchi ob‘ektning tozaligi, turg‘unligi va birxilligini o‘z ichiga olgan xarakteristikasi.

Homiy va sinov markazi xaqida ma'lumot:

- a) homiyning nomi va manzili;
- b) tadqiqotda ishtirok etuvchi sinov markazlari va maydonchalarining nomi, manzili;
- c) tadqiqot rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi va manzili;
- d) javobgar tadqiqotchi(lar)ning familiyasi, ismi, otasining ismi va manzili, hamda unga bajarish uchun topshirilgan tadqiqot bosqichlari;
- f) yakuniy hisobotga hisobotlari kiritilgan ilmiy xodimlarning familiyasi, ismi, otasini ismi va manzili.

Sanalar

Tajribaning boshlanish va yakunlanish sanalari.

Sifatni ta'minlash bo'yicha inspektorlarning hisoboti.

Sifatni ta'minlash dasturi bo'yicha bajarilgan ishlar hisoboti o'tkazilgan tekshiruvlar turlari va sanalari to'g'risadagi, tekshiruvdan o'tgan tadqiqot bosqichlari, tadqiqot rahbari va javobgar tadqiqotchi(lar)ga taqdim etilgan sanasi ko'rsatilgan tekshiruv natijalarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Bu xolatlар yakuniy hisobotda birlamchi ma'lumotlar haqqoniy aks etganligini tasdiqlash uchun lozim.

Tadqiqot materiallari va uslublari:

- a) tadqiqotlarda ishlatalidigan materiallar va uslublarning tasnifi;
- b) Tadqiqotda ishlatalgan iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkilotining (OECD) uslubiy qo'llanmasidan yoki boshqa rasmiy qo'llanmalar va uslubiy hujjalardan olingan axborot ma'lumotlar.

Natijalar:

- a) natijalarning qisqacha mazmuni;
- b) tadqiqot rejasini bajarishda olingan barcha ma'lumot va natijalar;
- c) olingan ma'lumotlarni hisob-kitobi va statistik ishlovini o'z ichiga olgan natijalarni taqdimoti;
- d) natijalarni baholash va muhokamasi, ma'lumotlar, xulosalar.

Saqlash

Tadqiqot rejası, sinaluvchi va standart ob'ektlarning namunalari, birlamchi ma'lumotlar va yakuniy hisobotlarni yaxshi sharoitlarda saqlanishini ta'minlovchi joy belgilanishi kerak.

Yozma materiallar (hujjalar) va materiallarni saqlash

Arxivda, belgilangan muddat mobaynida quyidagi hujjalar va materiallar saqlanishi kerak:

- a) tadqiqot rejası, birlamchi ma'lumotlar, sinaluvchi yoki standart ob'ektlarning namunalari, har bir tadqiqotning yakuniy hisobotlari;
- b) sifatni ta'minlash dasturi bo'yicha bajarilgan tekshiruvlar materiallari, hamda asosiy reja-chizma;
- c) xodimlarni ma'lumoti, tayyorgarligi, malakasi va ish tajribasi haqidagi ma'lumotlar;
- d) asbob-uskunalarni xizmati va kalibrovkasi bo'yicha yozma hujjalar va hisobotlar;
- e) kompyuterlashtirilgan tizimlarni validatsiyasi bo'yicha hujjalar;
- f) barcha standart operatsion protseduralarning tarixiy fayllari;
- g) tashqi muhit va tadqiqot o'tqaziladigan joylar parametrlarini monitoringi to'g'risidagi yozma hujjalar. Agar materiallarni saqlash muddati belgilanmagan bo'lsa, u holda tadqiqot materiallarni haqiqiy (doimiy) saqlanish joyi belgilangan va ro'yhatga olingan bo'lishi kerak. Sinaluvchi va standart ob'ektlarni belgilangan saqlash muddatigacha yo'q qilish sabablari tushintirilgan (izohlangan) bo'lishi lozim. Tekshiriluvchi va standart ob'ektlar, sifati ularni ishlatalish mumkin bo'lgunga qadar saqlanishi kerak (ob'ektlarni saqlash bo'yicha yo'riqnomaga asoslangan holda).

Arxivda saqlanadigan materiallar, qidirishni osonlashtirish maqsadida katalogga kiritilishi kerak.

Arxivdan foydalanish faqatgina sinov markazi rahbariyatini ruxsati bilan amalga oshirilishi lozim.

Arxiv materiallarini qabul qilish va berish harakatlari ro'yhatga olinish bilan amalga oshirilishi hisobga olingan bo'lishi kerak.

Agar arxiv joylashgan sinov markazi yoki tashkilot faoliyatini to‘xtatsa yoki bankrot deb e’lon qilinsa va huquqiy davomchisi bo‘lmasa, u holda arxiv materiallari tadqiqot(lar) homiy(lar)ini arxiviga topshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Государственный стандарт Республики Узбекистан. Надлежащая лабораторная практика (GLP). Издание официальное O`zDSt 2762:2018
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, IIkitob, Toshkent, 2001. IIIkitob 2003.-187 b.
4. Левашова И.Г., Мурашко А.Н., Коваленко С.Н. Надлежащие практики в фармации Учебник. — К.: МОРИОН, 2006. — 256 с.
5. Зайцева Т.М., Веснина Е.Н., Мезенцева О.В., Чечеватова О.Ю., Зайцева М.А. Принципы надлежащей лабораторной практики (Principles of Good Laboratory Practice, GLP): Учебное пособие / Под научной редакцией Д.О. Скобелева – М.: АСМС, 2014. – 100 с
6. Належні практики у фармації : навч. посіб. для студентів вищ. навч. закл. / В. О. Лебединець, О. В. Ткаченко, Ю. І. Губін та ін. — Харків : НФаУ : Золоті сторінки, 2017. — 296 с.
7. Государственный стандарт Республики Узбекистан. Надлежащая клиническая практика (GCP). Издание официальное O`zDSt 2765:2018
8. . Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti -GMP. Tarmoq standarti Tst 2766:2018. 258 bet.

29-MAVZU:ME’YORIY HUJJATLARNI METROLOGIK EKPETIZASINI TASHKIL QILISH VA O’TKAZISH TARTIBI

REJA:

1. Metrologik ekspertizadan o‘tishi kerak bo‘lgan hujjatlar
2. Metrologik ekspertizaning asosiy vazifalari
3. O‘lchovlar aniqligiga qo‘yilgan talablar

Tayanch iboralar: Metrologik ekspertiza, o‘lchovlar aniqligi, texnologik reglamentlar, standart operatsion jarayonlar (SOP), instruksiyalar.

Me’yoriy hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish dori vositalarini ishlab chiqish va chiqarishni metrologik ta’minalashni takomillashtirishda, aniqlik va bir xillikni ta’minlovchi o‘lchovlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘z vaqtida va sifatli o’tkazilgan metrologik ekspertiza xatoliklarni topish va ularni o‘z vaqtida yo‘qotishga, hamda metrologik me’yor va qoidalarni buzish bilan ishlab chiqilayotgan texnik echimlar hujjatlariga kirib borishga imkon beradi.

Me’yoriy hujjatlarning metrologik ekspertizasi - bu o‘lchanayotgan parametrlarni tanlash bo‘yicha texnik echimlarni tahlil qilish va baholash, o‘lchovlar aniqligiga talablarni o‘rnatmoq, o‘lchovlar vositalari va usullarini tanlash, ularga metrologik xizmat ko‘rsatish demakdir.

Me’yoriy hujjatlarning metrologik ekspertizasi texnologik va loyihibaviy hujjatlarni ishlab chiqishni metrologik ta’minalash bo‘yicha olib borilayotgan kompleks ishlarning bir qismi xisoblanadi. Metrologik ekspertizada xato yoki noto‘g‘ri qabul qilingan qarorlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Metrologik ekspertizada metrologik nazorat olib boriladi, unga

ko‘ra me’yoriy hujjat aniq metrologik talablarga mos kelishi tekshiriladi. Masalan, fizik kattaliklarni ifodalari, nomlanishi, metrologik terminlar va b.

Metrologik ekspertizaning maqsadi bu metrologik ta’minalashning samaradorligini oshirish, umumiy va aniq talablarni oqilona usullar va vositalar bilan bajarishdir.

Me’yoriy hujjatlarning metrologik ekspertizasi hujjatlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va qaytadan ko‘rish jarayonida tashkilotning (korxona) metrologik xizmati, metrologiya bo‘yicha asosiy tashkilot (me’yoriy hujjatni kelishish vaqtida) tomonidan olib boriladi. Ekspertiza 10 kun ichida olibborilishi kerak. Barcha ishalb chiqilayotgan va qayta ko‘rib chiqilayotgan hujjatlar ekspertizadan o’tkazilishi kerak.

Murakkab texnologik ob’ekt uchun mo‘ljallangan hujjat kelib tushganda ekspertiza o’tkazish bo‘yicha korxonaning rahbari tomonidan mutaxassislar guruhi tashkil etiladi. Guruxga metrologik xizmat vakillari ham jalg etiladi.

Birlamchi ekspertiza o’tkazilganda ishlab chiqaruvchiga tanqidiy muloxazalar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ro‘yxati beriladi. Oxirgi ekspertizada esa hujjatni tasdiqlashdan avval bosh metrolog tomonidan imzolanadi va ekspert xulosasi rasmiylashtiriladi.

Ekspertizaga tushgan hujjat ro‘yxatdan o’kaziladi. Agar ekspertiza vaqtida hujjatga o‘zgartirishlar kiritilsa ular ham ekspertizadan o’tkaziladi.

Ekspertiza vaqtida ekspert:

- talablarga javob bermaydigan hujjatlarni ishlab chiquvchilarga qaytarib berish;
- ishlab chiquvchilardan qo‘srimcha hujjatlar va ma’lumotlarni so‘rash;
- metrologik ta’minalash qismida texnik echimlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish;
- xatoliklar va metrologik norma va qoidalarni buzilish holatlarini tuzitish, va kerak bo‘lganda hujjatni qayta ishlab chiqishga qaytarish huquqiga ega.

Ekspertiza vaqtida ekspert majburiyati:

- metrologik gorma va qoidalalar belgilab berilgan amaldagi davlat standartlaridan va yuoshqa me’yoriy hujjatlardan foydalanishga;
- metrologik ekspertizaning vazifalarini bilishi, ularni hal etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, aniq hujjatni ko‘rish vaqtida muhim savollarni aniqlashni bilishi, asosiy metrologik qoidalalar, metrologik huquqiy va metodik hujjatlarni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;
- metrologik ta’minalash bo‘yicha texnik echimlarni ishlab chiqishda amaliy yordam berish;
- xatoliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ro‘yxatini olib borish, ekspertizadan o’tgan hujjatlarni imzolash.

Ishlab chiqaruvchi va ekspert o‘rtasidagi kelishmovchiliklar korxona-ning texnik rahbari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Hujjatlarni o‘z vaqtida yetkazib berish javobgarligi hujjatni ishlab chiqqan bo‘limlar rahbarlariga, ularni o‘z vaqtida va siqatli ko‘rib chiqish esa bosh metrolog zimmasiga yuklatiladi.²³

29.1. Metrologik ekspertizadan o‘tishi kerak bo‘lgan hujjatlar

1. Texnik topshiriqlar. Konstruksiya, texnologiya, boshqarish tizimi va boshqa ob’ktlarni ishlab chiqish jarayonida metrologik ta’minalash bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar tahlil qilinadi. Agar mazkur hujjatda o‘lchov parametrlar nomenklaturasi va ularni o‘lchash anqligiga qo‘yilgan talablar ko‘rsatilgan bo‘lsa, ekspert ularning optimalligi va ta’minalish imkonini baholashi kerak.

2. Ilmiy –tadqiqot ishlari to‘g‘risidagi xisobotlar (ITI), texnik loyihamaga tushuntirish xati, tadqiqotlar bayonnomasi.

Ushbu hujjatda (ITI, tushuntrish xati, texnik loyihamalar) o‘lchashlar usullari (shu jumladan natijalarga ishlov berish), o‘lchash kattaliklari, foydalilaniladigan o‘lchov vositalari, o‘lchash xatoliklari, o‘lchov vositalarini kalibrovka qilish imkonini kabi kattaliklar ekspertiza qilinadi.

Tadqiqotlar bayonnomasida o‘lchashlar usullari, o‘lchash kattaliklari, foydalilaniladigan o‘lchov vositalari, o‘lchash xatoliklari, o‘lchov vositalari bayon etilmaydi, ammo mos ravishda me’yoriy va metodik hujjatlarga havola beriladi.

2. ²³ Quality assurance of pharmaceuticals : a compendium of guidelines and related materials. Vol. 2, Good manufacturing practices and inspection. – 2nd ed. 2010 y.

3. Texnik shartlar, standartlar loyihalari, validatsiya bo'yicha hujjatlar (GMP qoidalari doirasida). Bunda metrologik talablar, usullar va metrologik ta'minlash vositalari kabi vazifalar hal etiladi.
4. Ekspluatatsion va remont bo'yicha hujjatlar.
Ushbu hujjatlarda o'lhash usullari va vositalarining aniqligi va qiyinchiligi ekspertiza qilinadi. Ekspertiza vaqtida o'lhashlarning ishlab chiqish va foydalanish sharoitlaridagi farqlari inobatga olinishi kerak.

5. Sinovlar rejalarini va usullari.

Ushbu hujjatlarda o'lhashlar usullari (shu jumladan natijalarga ishlov berish), o'lhash kattaliklari, foydalaniladigan o'lchov vositalari, o'lhash xatoliklari, o'lchov vositalarini kalibrovka qilish imkonini kabi kattaliklar ekspertiza qilinadi. Usullarda xatoliklarni oldini olish choralari keltirilgan bo'lishi kerak.

6. Texnologik reglamentlar, standart operatsion jarayonlar (SOP), instruksiyalar.

Mazkur hujjatlarda o'lchovlarni bajarish uslubi keltirilishi mumkin. Texnologik reglamentlarda nazoratga olinishi kerak bo'lgan parametrlar, ularning nominal qiymatlari va o'lhash diapazonlarining chegaralari (nominal qiyatlardan ruxsat etilgan chetlanishlar), aniqlikning turlari, sinfi va o'lchov vositalarining o'lhash chegaralari (chegaralar ko'rsatilishi mumkin) ekspertiza qilinadi. Metrologik ekspertizada asosiy ob'ektlar:

- o'lchanayotgan parametrlar nomenklaturasi, o'lhash vositalari va usullaridan oqilona foydalanish mumkinligi;
- o'lhashlar aniqligiga qo'yilgan talablarning maqbulligi;
- o'lhash aniqligining talab etilganga mos kelishi.

7. Loyihaviy hujjatlar.

Loyihaviy hujjatlarda metrologik ta'minlashning barcha asosiy masalalari qamrab olingan bo'ladi. Shuning uchun metrologik ta'minlashning barcha asosiy masalalari ekspertiza qilinadi.

29.2. Metrologik ekspertizaning asosiy vazifalari

Metrologik ekspertizaning asosiy 2 ta vazifasi mavjud: nimani va qanday aniqlikda o'lhash kerak. Metrologik ta'minlashning samaradorligi mazkur savollarni to'g'ri va oqilona echish bilan bog'liqidir. Undan ham kam bo'limgan ahamiyatga ega - bu o'lchovlarni bajarish usullari va o'lchov vositalrini tanlash xisoblanadi.

O'lchanayotgan parametrlar nomenklaturasining optimalligini baholash

O'lchanayotgan parametrlar mahsulot, texnologiya, boshqarish tizimlarining dastlabki hujjatlari asosida aniqlanadi.

Mahsulot standartda (reglament, Tsh va b.) uning xususiyatlari, nazorat usullari bo'limida esa nazorat etiluvchi parametrlar ko'rsatiladi. Agar bunday dastlabki talablar bo'lmasa, u holda o'lchanayotgan parametrlar nomenklaturasini tahlil qilishda quyidagi tamoillardan foydalaniladi:

- tayyor mahsulot uchun sifatini ta'minlovchi asosiy xususiyatlarni nazorat qilish kerak bo'ladi, uzuksiz ishlab chiqarishda esa shuningdek mahsulot soni ham;
- texnologik jixozlar, nazorat tizimi va texnologik jarayonlarni boshqarishda havfsizlikni belgilovchi parametrlarni o'lhashni, unumdorlik va tejamkorlik bo'yicha tartibning optimalligi, zaharli chiqindi va oqava suvlardan ekologik himoyani amalga oshirish kerak.

Texnologik jarayonda parametrlarning o'zaro bog'liqligi katta ahamiyatga ega. Muhim bo'limgan parametrlar uchun bunday bog'liqlikdan o'lchanayotgan parametrlarning sonini kamaytirishda foydalanish mumkin. Ahamiyatli bo'lganlari uchun esa bu bog'liqlikdan o'lchovlar aniqligi va o'lchov tizimlarining ishonchlilagini oshirishda foydalanish mumkin.

O'lchanayotgan parametrlar nomenklaturasini tahlili qilishda o'lchov kattaligi haqidagi ko'rsatmalarining aniq ravshanligiga e'tibor beriladi, chunki noaniqliklar kutilmagan xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Agar o'lchov vositalari jarayon (tarmoqda tokning borligi yoki yo'qligi, taromoqdagi bosim, va b.) xolatini qayd etish uchun indikator sifatida ishlatilayotgan bo'lsa, bu holatlarda boshqa mos analizatorlar bilan almashtiriladi va o'lchovlar olib borilishi shart emas.

29.3. O'lchovlar aniqligiga qo'yilgan talablar

Agar me'yoriy hujjatlarda o'lchovlar aniqligiga talablar qo'yilmagan bo'lsa, u holda ekspertiza qilishda quyidagi qoidalardan foydalaniladi:

O'lchovlar xatoliklari mahsulotni ishlab chiqarish va nazorat qilishda noxush oqibatlar manbai bo'lishi mumkin. O'lchovlar aniqligini oshirish noxush oqibatlarni kamaytiradi. Noxush oqibatlarni kamaytirish qo'shimcha sarf-xarajatlar bilan bog'liq: o'lchovlarni amalga oshirish, boshqa o'lchovlar vositalaridan foydalanish.

O'lchovlar aniqligiga qo'yilgan talablarning to'g'riliqi va to'liqligini baholash. Parametrlarni to'g'ridan – to'g'ri (bevosita) o'lhash xatoliklari amalda ishchi xolatdagi o'lchov vositalarining xatoliga teng.

Parametrlarni bilvosita o'lhashda esa o'lchov vositalarining xatoliklari o'lhash xatoliklarining bir qismi deb xisoblanadi, chunki bu erda yana metodik taraflari ham mavjud.

Qancha o'lchov vositasi aniq bo'lsa, shuncha sarf –xarajatlar, shu jumladan o'lchov vositasining metrologik xizmatlari ham shuncha katta bo'ladi.

Berilgan talablarga o'lhashlar aniqligining mos kelishini baholash. O'lchov lar xatoligi keltirilgan hujjatda belgilangan bo'lishi kerak, agar berilmagan bo'lsa u xolda xisoblash yo'li bilan topiladi.

O'lchovlar xatoliklariga ta'sir ko'rsatadi:

- o'lchov vositalarining metrologik xususiyatlari;
- o'lchovlar sharoiti;
- o'lchovlarga tayyorlash va o'lchovlarni o'tkazish, olingen natijalarga ishlov berish algoritmi.

O'lchov vositalarini metrologik xizmatdan o'tkazishda o'lchovlarning yagonaligini ta'minlashning Davlat tizimi hujjatlarida keltirilgan tekshirish usullari va vositalaridan foydalaniladi.

Tanlab olingen o'lchov usullari va vositalarining muvofiqligini baholash quyidagi xususiyatlari asosida olib boriladi:

- belgilangan sharoitda o'lchov vositalaridan foydalanish imkonii;
- o'lchov jarayonlarining og'irligi va tannarxi;
- statistik nazorat usullaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi;
- o'lchov vositalari unumdarligining texnologik asboblar unumdarligiga mosligi;
- texnik havfsizlik qoidalariga rivoja qilish;
- metrologik xizmatning og'irligi va tannarxi.

Odatda me'yoriy hujjatlarda standartlangan va attestatsiyadan (validatsiya) o'tgan usullar keltiriladi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Dori vositalari sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar
2. Me'yoriy hujjatlarni metrologik ekpertizasini tashkil qilish
3. Me'yoriy hujjatlarni metrologik ekpertizasini o'tkazish tartibi
4. Metrologik ekspertiza maqsadi
5. Metrologik ekspertizaning asosiy vazifalari
6. Ekspert majburiyati
7. Metrologik ekspertizadan o'tishi kerak bo'lgan hujjatlar
8. O'lchovlar aniqligiga qo'yilgan talablar
9. O'lchovlar aniqligiga qo'yilgan talablarning to'g'riliqi va to'liqligini baholash
10. Berilgan talablarga o'lhashlar aniqligining mos kelishini baholash

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

30-31-MAVZU: QATTIQ DORI TURLARINI SIFATINI TA'MINLASH

Tabletkalar – dozalangan dori shakli bo‘lib, ular dori va yordamchi moddalarni presslab olinadi. Tabletalar ichishga, tashqi, sublingval, implantatsion maqsadlarda ishlatiladi. Tabletalar dumaloq yoki boshqa ko‘rinishda, tekis yoki qabarilgan, chetlari tekis bo‘ladi. Usti tekis, rangi bir xil, ustki qismida yozuv yoki ba’zi belgilari bo‘lishi mumkin. D= 9 mm va undan oshiq bo‘lgan tabletalarda o‘yilgan chizig‘i bo‘ladi. Paranteral maqsadlarda ishlatiladigan tabletalar to‘liq erib ketib, sterillik ko‘rsatgichi bo‘yicha to‘liq javob berishi kerak. Tabletka olishda bog‘lovchi, to‘ldiruvchi, sirpantiruvchi, moylovchi, yumshatuvchi, bo‘yoqlar kabi yordamchi moddalardan foydalilanadi.

Qo‘shilayotgan Tvin -80, stearin kislotasi, Sa yoki Mg stearat miqdori tabletka massasidan 1%, talk – 3%, aerosil – 10% dan oshmasligi kerak. Tabletalarning sifati quyidagi ko‘rsatkichlar buyicha baxolanadi:

- Tavsiflanishi
- CHinligi
 - O‘rtacha og‘irlilik va og‘irlilik bir xilligi;
 - Talk, aerosil, titan (II) oksidi;
 - Eruvchanligi;
 - Parchalanuvchanligi;
 - Ishqalanishi;
 - YOt moddalar;
 - Mikrobiologik tozaligi;
 - Dozalar bir xilligi;
 - Quritishda massadagi yo‘qotish yoki namlik
 - Miqdoriyah tahlil;

Tabletkalar kerakli darajada mustahkam bo‘lishi kerak. Ishqalanishga mustahkamligi 97% dan kam bo‘lishi kerak.

Qobiqli tabletalar ishqalanishga mustahkamligi tekshirilmaydi. 1)tabletalarining parchalanuvchanligi

Parchalanish vaqt MTX da ko‘rsatilgan bo‘ladi. Agar ko‘rsatilmagan bo‘lsa, unda 15 min dan oshmasligi kerak, agar tabletka qobiqqa o‘ralgan bo‘lsa – 30 minut gacha ruxsat etiladi.

Ichakda eriydigan tabletalar 0.1 M NCL erimasida 1 soat davomida erimasligi va suv bilan chayilgandan keyin RN 7.5-8.0 bo‘lgan NaHCO₃ eritasida parchalanish vaqt 1 soatdan oshmasligi kerak. Bu ko‘rsatgich maxsus asbob - identifikator yordamida aniqlanadi.

2) eruvchanligi

Ma‘lum sharoit va vaqt ichida qattiq dori turidan ta’sir qiluvchi moddaning eritmaga o‘tgan miqdori tabletalarining eruvchanligi deyiladi. Bu ko‘rsatgich aylanadigan kajava asbobi yordamida aniqlanadi. 45 minut davomida suvda aylanish tezligi daqiqasiga 100 marta bo‘lganda ta’sir qiluvchi moddaning erigan modda miqdori dori turidagiga nisbatan 75% dan kam bo‘lmasligi lozim.

3) tabletkaning o‘rtacha og‘irligi

Buning uchun 20 ta tabletka 0.01 g aniqlikda og‘irligi o‘lchanadi, so‘ngra har bittasi alohida o‘lchanib og‘irlikdagi chetlanishi aniqlanadi, agar qobiqlanmagan bo‘lsa quyidagicha bo‘ladi: tabiiy og‘irligi 0.1g va undan kam bo‘lsa ±10%

0.1g dan 0.3g ±7.5%

0.3 dan oshiq bo‘lsa ±5%

agar tabletka qobiqlangan bo‘lsa, unda chetlanish ± 15%, faqat 2 ta tabletkaning o‘rtacha massadan chetlanishi mumkin.

4)dozalar bir xilligini tekshirish

Bu ko‘rsatgich qobiqsiz, ta’sir etuvchi moddasi 0.05 g va undan kam bo‘lgan, shuningdek qobiqli tabletalarining ta’sir etuvchi moddasi 0.01g va undan kam bo‘lgan tabletalarda aniqlanadi. Buning uchun 30 ta tabletka olinadi va ta’sir etuvchi moddaning miqdori aniqlanadi. Ta’sir etuvchi moddaning miqdori uning o‘rtacha qiymatidan ±15% va har bir tabletkada esa ±25% oshmasligi kerak. Agar tekshirish uchun olingan 10 tabletkaning 2 tasidagi ta’sir etuvchi moddaning miqdori uning o‘rtachasidan ±15% oshsa, unda qolgan 20 tabletkadagi ta’sir etuvchi

moddaning miqdori tekshiriladi. SHunda chetlanish hech bir tabletkada $\pm 15\%$ dan oshmasligi kerak.

5) Tabletkadagi ta'sir etuvchi moddaning miqdori aniqlanadi. Buning uchun 20 tadan kam bo'limgan tabletka olinadi va ta'sir etuvchi moddaning miqdori aniqlanadi. Ta'sir etuvchi modda $0.001 \text{ g gacha bo'lsa } \pm 15\%$

$0.01-0.01 \text{ g gacha } \pm 10\%$

$0.01-0.1 \text{ g } \pm 7.5\%$

$0.1 \text{ g dan ortiq bo'lsa } \pm 5\%$ (DF XI, II jild, 156-159 betlar)


TALKNI ANIQLASH

1g (aniq og'irlig) maydalangan tabletkalar xajmi 200ml bo'lgan kolbada iliq suv bilan yuviladi, suyuqlik kulsiz filtr qog'oz orqali filtrlanadi, idish yaxshilab suv bilan chayiladi. Filtrdag'i qoldiq bir necha marta suv bilan yuviladi. Bunda yuvindi suv bug'latilganda idishda hech qanday qoldiq qolmasligi kerak. Filtr qoldiq bilan bирgalikda quritiladi, yokiladi, kuydiriladi va og'irligi o'lchanadi.

Agar tabletkalar yonmaydigan va suvda erimaydigan moddalarni saqlasa, unda olingan aniq og'irlik yoqib, kuydirilgandan so'ng 30 ml suyultirilgan xlorid kislotasi bilan qizdirilgan xolda ishlatiladi, eritma kulsiz filtr qog'oz orqali filtrlanadi, filtr oqava suv tarkibida xlorid ionlari qolmaguncha suv bilan yuviladi. Filtr qog'oz qoldig'i bilan bирgalikda quritiladi, yoqiladi, kuydiriladi va 0.0001 g anqlikda og'irligi o'lchanadi.

Tabletkalar tarkibidagi aerosil miqdori xuddi shu usulda aniq- lanadi.

Papaverin gidroxlorid tabletkalari
Tabulettae Papaverini hydrochloridi 0,04



Tasvirlanishi: Oq rangli tabletka. Tashqi ko'rinishi DF XI nashri 154 betda keltirilgan talablarga javob berishi kerak.

CHinligi 1. Miqdoriy tahlil uchun tayyorlangan filtratdan 5 ml olib (100 ml li) hajmi 100 ml bo'lgan o'lchov kolbasiga solinadi va 0.01 M xlorid kislotasi eritmasi bilan belgisiga keltiriladi. Olingan eritma ultrabinafsha spektrda 230-270 nm to'lqin uzunligi oralig'ida ko'rilmaga $251 \pm 2 \text{ nm}$ yuqori yutish ko'rsatkichiga ega.

2. Miqdoriy tahlil uchun tayyorlangan eritmaning filtratidan 20 ml olib 50 ml xajmli o'lchov kolbasiga solinadi. 0.01 M xlorid eritmasi bilan belgisigacha etkaziladi. Eritma ultrabinafsha spektrda 270-350 nm to'lqin uzunligi oraligida tekshiriladi. 285 va $309 \pm 2 \text{ nm}$ to'lqin uzunligida yuqori ko'rsatkichiga ega.

3. 0.1 gr maydalangan tabletkaning kukuni farfor chashkaga o'tkaziladi. 0.1 ml kons. HNO_3 kislotasi bilan namlanadi va suv xammomida qizdirilganda zarg'aldoq rang xosil buladi. (papaverin)

4. Tabletkaning 0.2 gr maydalangan kukuniga 3 ml suv, 1 ml ammiak eritmasi qo'shiladi va filtrlanadi. Filtrat xlorid ioniga xos reaksiyani beradi. (DF XI, 1- 159 bet).

O'rtacha massasini aniqlash, parchalanuvchanligi va boshqa talablar.

Ervchanligi.

Papaverin gidroxlorid eritmasi tarkibidagi modda miqdori (x) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$D_1 x 900 \times 25 \times a \times 5 \times 5 \times 100$$

$$D_1 \times 2250 \times a$$

$$X = \frac{D_1 x 900 \times 25 \times a \times 5 \times 5 \times 100}{D_0 \times 2 \times 250 \times 50 \times 25 \times 0,04} = \frac{-----}{D_0}$$

Bunda, D_1 – nazorat eritmasining optik zichligi (V eritma);
 D_o - standart eritmaning optik zichligi;
a - standart namunaning aniq tortmasi, gr.

45 min. o'tgandan so'ng tabletkadan eritmaga o'tgan papaverin gidroxloridning miqdori 80 % dan kam bo'lmasligi kerak.

Dozalar bir xilligi

YOT ARALASHMALARI.

Mikrobiologik tozaligi.

Miqdoriy tahlili. 0.17g maydalangan tabletka kukuni olinib, (aniq tortma) 250 ml hajmli o‘lchov kolbasida 0,01 M xlorid kislota eritmasi bilan eritiladi va belgisiga keltiriladi. Eritma filtrlanib bиринчи 10-15 ml tashlab yuboriladi. Keyin 10 ml filtrat hajmi 50 ml bo‘lgan kolbaga solinadi va 0,01M xlorid kislota eritmasi bilan belgisigacha keltiriladi. Olingan eritmaning optik zichligi 310 nm to‘lqin uzunligida katlam qalinligi 10 mm bo‘lgan kyuveta SF da aniqlanadi. Guvoh eritmasi sifatida 0,01 M xlorid kislota eritmasidan foydalaniladi. Bir vaqtning o‘zida papaverin gidroxloridning standarti (B eritma) namunasining optik zichligi aniqlanadi. 1 ta tabletka tarkibida papaverin gidroxloridning gramm miqdori (x) quvidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$X = \frac{D_0 x 10 x a}{D_1 x 0,00002 x 250 x 50 x b} = \frac{D_0 x a}{D_1 x 0,025 x b}$$

Bunda, D₁ – tekshirilgan eritmaning optik zichligi :

D_o - standart namuna papaverin (B eritma) gidroxloridning optik zichligi:

a - tortmaning gramm miqdori, gr;
b - tabletkaning o'rtacha og 'irligi, g

Saqlanishi: B ro‘yxat bo‘yicha, yorug‘lik tushmaydigan joyda .

YArоalilik muddati: 5 vil.

Ishlatilishi: spazmolitik vosita.

Paracetamol tabletleri

Tabulettæ paracetamoli 0,2 aut 0,5

FM 42-3659-98

GFX, st 506 o'miga

Bitta tabletka tarkibi:

Paracetamol - 0,20000 g - 0,50000g

Parastaner
(ES 42-3292-96)

Kartoshka kraxmali - 0.01018g - 0.02545g

(Gost 7699-78)

Stearin kislotasi - 0.00174g - 0.00435g

(GOST 9419-78)

Kraxmal patokasi - 0,00700g - 0,01750g

(GOST 5194 -91)


Jelatin - 0,00108g - 0,00270g

(GOST 11293-89, oziq - ovqat)

Tasvirlarni. Oq yoki buroz pushti rangdag'i raska va tishki tekis siniidishimli tabletkalar. Ulari tasliq ko'rinishi bo'yicha DF XI,1 va 2jildida 154 betdag'i talablarga javob berishi kerak.

Tabletkalarining o‘rcha va qo‘shma. Tabletkalarining o‘rcha va qo‘shma 0,22 g yoki 0,55g. 0,2 g og‘irlikdagi tabletkalar uchun ruhsat etilgan chetlanishlar $\pm 7,5\%$, 0,5 g tabletkalar uchun $\pm 5,0\%$ Aniqlash uslubi DF XI ning 2 jild, 154 b keltirilgan.

CHinligi. Paratsetamol chinligini indofenol hosil qilish reaksiyasi bo'yicha aniqlash Davlat farmakopeyasida asosiy reaksiya sifatida keltirilgan



Mikrobiologik tozaligi.

Miqdoriy tahlil 0,045 g (aniq tortma) atrofidagi maydalangan tabletkalar xajmi 100 ml bo'lgan o'lchov kolbasida 60 ml suvda eritiladi, 10 minut aralashtiriladi, belgisigacha suv bilan etkaziladi va aralashtiriladi.

Eritma o'rtacha zichlikdagi filtr qog'oz orqali filtrlanadi. Birinchi 20 ml filtrat tashlab yuboriladi, keyingi 1 ml 50 mlgacha suv bilan o'lchov kolbasida suyultiriladi va aralashtiriladi. hosil bo'lgan eritmaning optik zichligi 243 nm tulqin uzunligida qatlam qalinligi 10 mm bo'lgan kyuvetalarda o'lchanadi.

Bir vaqtning o'zida "eruvchanlik" bo'limida keltirilgan uslubda tayyorlangan paratsetamolning ishchi andoza na'munasi eritmasining optik zichligi o'lchanadi. Taqqoslovchi eritma - suv.

Bitta tabletkadagi paratsetamolning grammdagi miqdori quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$X = \frac{D_1 \cdot A_o \cdot V}{D_o \cdot A_1},$$

bu erda D_1 - tekshiriluvchi eritmaning optik zichligi;
 D_o - paratsetamoling IAH eritmasining optik zichligi
 A_1 - preparatning og'irligi, g;
 A_o - paratsetamol IAN ning og'irligi, g ;
 V -tabletalarning o'rtacha og'irligi, g.

$C_6H_9NO_2$ (paratsetamolning) miqdori bitta tabletkaning o'rtacha og'irligiga nisbatan 0,190 dan 0,210 gacha yoki 0,475 dan to 0,525 gacha bo'lishi kerak.

Saqlanishi. B ro'yxati. YOrug'lik tushmaydigan joyda.

YAroqlilik muddati 3 yil.

Ishlatilishi. Istma tushiruvchi, og'riq qoldiruvchi vosita.

Nazorat savollari:

1. Tabletka sifatiga qo'yilgan talablar.
2. Kapsula sifatiga qo'yilgan talablar.
3. In'eksion dori turlariga sifatiga qo'yilgan talablar.

4. Ko‘z tomchilari sifatiga qo‘yilgan talablar.

Foydalaniqan adabiyotlar:

1. «Dori vositalari sifat standartlarining asosiy qoidalari» Tst-42-01-2002
2. Davlat farmakopeyasining amaldagi nashrlari
3. Me‘yoriy hujjatlар nusxalari
4. O‘zR «Standartlash to‘g‘risidagi qonuni» 1993 yil 28 dekabr
5. O‘zR «Dori vositalari va farmatsevtik faoliyati haqidagi qonun» 1997 yil 25 aprel
6. O‘zR farmatsevtika faoliyati 2003, 2001 yy, I-III t.
7. Kasakin I.Vnedrenie standartov GMP i ISO.Remedium.2003g. YAnvar-Fevral. 82-83s.
8. Pleteneva T.V. i dr. Znachenie novykh mejdunarodnykh standartov v gosudarstvennykh sistemakh upravleniya kachestvom lekarstvennykh sredstv. Farmatsevtika jurnali, №3, 2003. 31-31b.
9. Arzamashev A.P. Osobennosti sistemy standartizatsii substansi v usloviyakh tyinochnoy ekonomiki. Remedium.2006g. Sentyabr 57-59s

32-MAVZU: YUMSHOQ DORI TURLARINI SIFATINI TA’MINLASH.

Surtmalar qadimiy dori shakli bo‘lib, Misrda eramizdan oldingi 3000 yillarda surtma dori shakllarini ishlatilganligi haqidagi ma’lumotlar adabiyotlarda keltirilgan. Ular asosan dermatologik va kosmetik mazlardan foydalanishgan.



Kosmetik surtmalar uchun qadimiy idish ermizdan ilgari XIV–XIII arslar MISR.

Shuningdek Mesopatamiya, qadimgi Rim va Gretsiya, Hindiston va boshqa davlatlarda ham ishlatilgan. Gippokrat, Galen va bobokalonimiz Ibn Sino ham o‘z asarlarida surtmalar haqida ma’lumotlar keltirgan. Qadimda surtma dorilar tarkibi juda xilma xil bo‘lib, ularning tarkibiga turli xil maydalangan o‘simplik qismlari, minerallar, har xil smolalar, hayvonlardan olingana komponentlar qo‘shilgan. Asos sifatida asason mum, turli moy va hayvon yog‘lari ishlatilgan.

18 asrga kelib surtma asosi sifatida neft mahsulotlari parafin va stearinlar ishlatila boshlandi. 1882 yilda Labrayx birinchi marta lanolinni surtma asosi sifatida foydalandi 20 asrdan boshlab, sintetik emulgatorlar va mineral asoslar - naftalan va gidrogenezirlangan yog‘lar ishlatila boshlandi.

Surtmalar, kremlar, gellar, linimentlar va pastalar ta’rifи va nomeklaturasi

Surtmalar (Unguenta) – yumshoq dori shakllari bo‘lib, asosan mahalliy ishlatish uchun mo‘ljallangan. Ularning dispers muhitlari shunday reologik (etarli qovushqoqlik, plastiklik va psevdoplastik) ko‘rsatkichlarga egaki, bu ko‘rsatkichlar natijasida surtmalar belgilangan haroratda ham o‘zining turg‘unligini etarli darajada saqlab qola oladi.



<i>t/r</i>	<i>Dori vositasining</i>	<i>Ishlab chiqarilish</i>	<i>Ishlab chiqaruvchi</i>	<i>Ishlatilishi</i>
------------	--------------------------	---------------------------	---------------------------	---------------------

	<i>nomi</i>	<i>shakli va dozasi</i>	<i>korxonaninng nomi</i>	
1	ATSIKLOVIR (Aciclovirum) Aciclovir	Surma 5% 5 g, 10 g, 15 g, 20 g (tubalar), 15 g, 20 g (bankalar)	Dentafill Plyus, XK O'zbekiston	Viruslarga qarshi vosita J05AB01
2	ATSIKLOVIR-RG (Aciclovirum-RG) Aciclovir	Surma 5% 5 g, 10 g, 15 g, 20 g (tubalar)	Remedy Group, QK, MCHJ, O'zbekiston- Buyuk Britaniya O'zbekiston	Viruslarga qarshi vosita D06BB03
3	BOR SURTMASI (Acidum boricum) Boric acid	Surma 5% 25 g, 30 g, 1 kg (bankalar), 30 g (tubalar)	Remedy, QK, MCHJ, O' zbekiston-Buyuk Britaniya O'zbekiston	Antiseptik va dezinfeksiyalovchi vosita D08AD
4	BOR SURTMASI (Unguentum Acidi borici) Boric acid	Surma 5% 30 g, 40 g (tubalar), 20 g, 25 g (bankalar, flakonlar)	Radiks, IICHK O'zbekiston	Antiseptik va dezinfeksiyalovchi vosita D08AD
5	GEPARIN SURTMASI (Heparinum) Comb.drug (Anaesthesia, heparinum)	Surma 10 g, 25 g (tubalar)	Galenika, MCHJ O'zbekiston	Antikoagulyant B01AB01

Pastalar. Bu dori turlari mahalliy ishlatish uchun mo'ljallangan yumshoq dori shakllari bo'lib, ular o'z tarkibida suspenziyalarni saqlagan (umumiyoq og'irlilikka nisbatan 20% dan ko'p), asos tarkibida teng taqsimlangan qattiq dispers fazadan iborat. Pastalarni tayyorlashda surtmalar, gellar va kremlarni tayyorlashda ishlatilgan asoslardan to'laligicha foydalanish mumkin.



<i>t/r</i>	<i>Dori vositasining nomi</i>	<i>Ishlab chiq shakli va dozasi</i>	<i>Ishlab chiqaruvchi korxonaninng nomi</i>	<i>Ishlatilishi</i>
1	SALITSIL-RUXLI PASTA (Pasta Zinci-salicylici) Comb.drug (Zinc and salicylic acid)	Pasta 25 g, 30 g (flakonlar, tubalar)	Remedy, QK, MCHJ, O'zbekiston-Buyuk Britaniya O'zbekiston	Antiseptik va dezinfeksiyalovchi vosita
2	TEYMUROV PASTASI (Pasta Teymurovi) Comb.drug	Sirtga qo'llash uchun pasta 50 g (tubalar)	Zelenaya Dubrava, YOAJ Rossiya	Dezinfeksiyalovchi vosita
3	FITONEFRIN (Fitonefrin) Comb.drug (Oleum Salviae, oleum Menthae piperita, oleum Pinus silvestris)	Ichga qabul qilish uchun pasta 100 g (tubalar)	Farmak, OAJ Ukraina	Siydik-tosh kasalligida qo'llaniladigan vosita



Linimentlar. Bu dori turlari ham mahalliy ishlatish uchun mo'ljallangan yumshoq dori shakllari bo'lib, ular tana haroratida erish xossasiga ega. Bu dori turlariga surtmalar,

kremlar, gellar va pastalarning xossalari nomoyon etgan dori vositalari ham kirishi mumkin.

t/r	Dori vositasining nomi	Ishlab chiqarilish shakli va dozasi	Ishlab chiqaruvchi korxonaninng nomi	Ishlatilishi
1	BALBZAMLI LINIMENT (VISHNEVSKIY BO'YICHA) (Linimentum balzamicum Vischnevsky) Comb.drug	Liniment 25 g (bankalar), 30 g, 40 g (tubalar)	Dentafill Plyus,XK O'zbekiston	Antiseptik va dezinfeksiyalo vchi vosita D08AX
2	BALBZAMLI LINIMENT (VISHNEVSKIY BO'YICHA) (Linimentum balsamicum Vischnevsky) Comb.drug	Liniment 25 g, 30 g, 1 kg (bankalar), 30 g (tubalar)	Remedy, QK, MCHJ, O'zbekiston-Buyuk Britaniya O'zbekiston	Antiseptik va dezinfeksiyalo vchi vosita D08AX
3	SINTOMITSIN LINIMENTI (Linimentum Synthomycini) Chloramphenicol	Liniment 10% 10 g, 25 g)	Radiks,IICHK O'zbekiston	Antibiotik (xloramfenikol guruhi) D06AX02
4	VIPRATOKS (Vipratox) Comb.drug (Venom of Vepera lebetina, acidum salicylicum, camphora)	Liniment 40 g (tubalar)	Farmatsevticheskaya fabrika, DKP,MCHJ Ukraina	Mahalliy qitiqlovchi vosita

Kremlar. Bular ham mahalliy ishlatish uchun mo'ljallangan yumshoq dori turlari bo'lib, ular o'z tarkibida ikki yoki undan ortiq dispers tizimlarni saqlaydi. Tanlangan dispers tizimlar belgilangan saqlanish haroratida ma'lum bir cho'kish tezligiga va past reologik ko'rsatkichlarga ega.



t/r	Dori vositasining nomi	Ishlab chiqarilish shakli va dozasi	Ishlab chiqaruvchi korxonaninng nomi	Ishlatilishi
1	KLOTRIMAZOL - RG (Clotrimazolum) Clotrimazole	Krem 1%, 2% 10 g, 20 g, 15 g, 25 g (tubalar)	Remedy Group,QK,MCHJ, O'zbekiston-Buyuk Britaniya O'zbekiston	Zamburug'larga qarshi vosita G01AF02
2	REKONAZOL (Reconazolum) Ketoconazole	Krem 2% 10 g, 15 g, 20 g, 25 g, 30 g (tubalar)	Remedy Group,QK,MCHJ, O'zbekiston-Buyuk Britaniya O'zbekiston	Zamburug'larga qarshi vosita D02AB02
3	ULKARIL® (Ulcaril) Aciclovir	Krem 5% 10 g (tubalar)	Nobel- Pharmsanoat,XK O'zbekiston	Viruslarga qarshi vosita D06BB03
4	AKNE (Acne Azelain acid	STOP Stop) Sirtga qo'llash uchun krem 30 g (tubalar)	Kievmedpreparat,O AJ Ukraina	Xusnbuzarlarni davolovchi vosita D10AX03



Gellar. Bu dori turlari ham mahalliy ishlatish uchun mo'ljallangan yumshoq dori shakllari bo'lib, ular o'z tarkibida suyuq dispers muxitida bir, ikki yoki ko'p

fazali dispers tizimlarni saqlaydi. Ularning reologik xossalari nisbatan kam konsentratsiyadagi gel hosil qiluvchilar yordamida me'yoriga etkaziladi. Bu dori turlaridagi gel hosil qiluvchilar qo'shimcha tarzda dispers tizimdagi suspenziyalar yoki emulsiyalarda turg'unlashtiruvchilar vazifasini ham o'taydi. SHuning uchun ham ular suspenzion gellar yoki emulsion gellar deb ataladi.

<i>t/r</i>	<i>Dori vositasining nomi</i>	<i>Ishlab chiqarilish shakli va dozasi</i>	<i>Ishlab chiqaruvchi korxonaninng nomi</i>	<i>Ishlatilishi</i>
1	BOLINET GELЬ (Bolinet) Diclofenac	GelЬ 20 g (tubalar)	Pharmed sanoat,XK O'zbekiston	Nosteroid yallig'lanishga qarshi vosita M01AV05
2	DIKLOFENAK-RG (Diclofenacum-RG) Diclofenac	GelЬ 15 g, 25 g, 40 g (tubalar, bankalar)	Remedy Group,QK,MCHJ,O 'zbekiston-Buyuk Britaniya O'zbekiston	Nosteroid yallig'lanishga qarshi vosita M01AB05
3	FASTALGIN (Fastalgin) Ketoprofen	GelЬ 2,5% po 50 g (tubalar)	FARMAPRIM SRL Moldova	Nosteroid yallig'lanishga qarshi vosita M02AA10

SURTMA DORI SHAKLLARINI SIFATINI NAZORAT QILISH UCHUN ME'YORIY HUJJAT TALABLARI BILAN TANISHISH

Ishlab chiqarish korxonalarida, surtmalarni ishlab chiqarish sexlarining o'zida har bir bosqich va jarayon qattiq nazoratga olinadi. Ayniqla qadoqlashdan oldin tayyor mahsulot sifatiga to'la ishonch hosil qilish lozim. Tayyor mahsulot sifatiga oxirigi xulosani ishlab chiqarish korxonasining texnik nazorat bo'limi beradi (OTK).

Surtmalar dori moddasining sifat va miqdor taxlili bo'yicha standartlanadi. Shuningdek, tashqi ko'rinishi organoleptik taxlil orqali, uning tarkibiga kirgan dori moddalariga nisbatan chinlik reaksiyalarini o'tkazish orqali belgilanadi.

Surtmaning tarkibiga kirgan dori moddalarning sifat va miqdoriy tahlil usullari DF, FM, VFM, DST, TSH va boshqa MH larda keltirilgan usullar yordamida bajariladi. Surtmalarni og'irliliklaridagi farqi qadoqlangan 10 qadoq surtma og'irligini tortish orqali aniqlanadi. Emulsion surtmalarda disperslik darajasi disper fazani o'lchash orqali, okulyari mkm li bo'lgan elektron mikroskopi orqali aniqlaniladi. Buning uchun 1000 tomchi emulsion surtmaning diamteri aniqlanilib, har xil o'lchamli tomchilarning % miqdori topiladi. Bu usul oson bajariladi, biroq bironta ham farmakopeyada emulsion surtmalar uchun aniq me'yor keltirilmagan.

Aloxida nomdagi yoki turdag'i surtmalar tegishli MH bo'yicha standartlanadi. MH talabiga ko'ra surtmalarning pH ko'rsatkichi ham aniqlash talab etiladi. Buning uchun tortib olingan surtma tortmasi 50 ml tozalangan suv bilan aralashtirilib, 50-60 °C haroratda, 30 daqiqa davomida chayqatiladi. Olingan ajratma filtrlanadi va potensiometrik usulda pH qiymati aniqlaniladi.

MH surtmalar uchun yana mikrobiologik tozaligini aniqlashni ham talab etadi. Shuningdek, ba'zi xollarda surtmalarning mexanik tuzilish xossalari, surtma tarkibidan dori moddasining ajralib chiqish tezligi, ularni saqlanish sharoitlaridagi turg'unligini ham aniqlashga to'g'ri keladi. Asosan bu ko'rsatkichlar yangi surtmalarning texnologiyasini kashf etilishida yoki texnologiyasi takomillashtirilganda aniqlaniladi.

Surtmalar dori moddasining sifat va miqdor taxlili bo'yicha standartlanadi. SHuningdek, tashqi ko'rinishi organoleptik taxlil orqali, uning tarkibiga kirgan dori moddalariga nisbatan chinlik reaksiyalarini o'tkazish orqali belgilanadi [5, 31].

Surtmaning tarkibiga kirgan dori moddalarning sifat va miqdoriy tahlil usullari DF, FM, VFM, DST, TSH va boshqa MTH larda keltirilgan usullar yordamida bajariladi. Surtmalarni og'irliliklaridagi farqi qadoqlangan 10 qadoq surtma og'irligini tortish orqali aniqlanadi. Emulsion surtmalarda disperslik darajasi disper fazani o'lhash orqali, okulyari mkm li bo'lgan elektron mikroskopi orqali aniqlaniladi. Buning uchun 1000 tomchi emulsion surtmaning diamteri aniqlanilib, xar xil o'lchamli tomchilarning % miqdori topiladi. Bu usul oson bajariladi, biroq biron ta ham farmakopeyada emulsion surtmalar uchun aniq me'yor keltirilmagan. 2 va 10% li salitsil kislotasining surtmasi, 3% li dixlotazol surtmasi aynan yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha standartlangan [5, 6, 12, 18].

Aloxida nomdagagi yoki turdagagi surtmalar tegishli MTH lar bo'yicha standartlanadi. MTH talabiga ko'ra surtmalarning rN ko'rsatkichi ham aniqlash talab etiladi. Buning uchun tortib olingan surtma tortmasi 50 ml tozalangan suv bilan aralashtirilib, 50-60S xaroratda, 30 daqiqa davomida chayqatiladi. Olingan ajratma filtrlanadi va potensiometrik usulda rN qiymati aniqlaniladi [5, 6].


XI DF surtmalar uchun yana mikrobiologik tozaligini aniqlashni ham talab etadi. SHuningdek, ba'zi xollarda surtmalarning mexanik tuzilish xossalari, surtma tarkibidan dori moddasining ajralib chiqish tezligi, ularni saqlanish sharoitlaridagi turg'unligini ham aniqlashga to'g'ri keladi. Asosan bu ko'rsatkichlar yangi surtmalarning texnologiyasini kashf etilishida yoki texnologiyasi takomillashtirilganda aniqlaniladi [5, 31].

SHuningdek surtmalar biologik samaradorlik ko'rsatkichi bo'yicha ham baholanadi. Masalan, xandeliya geli, atsiklovir surtmasi, natriy salitsilat geli va vitamin V6 ni rux va mis bilan birgalikdagi koordinatsion birikmasi asosida olingan surtmalarning biologik samaradorligi aniqlangan va tanlangan tarkib va texnologiyaning maqsadga muvofiqligi isbotlangan [9, 14, 23, 24, 33].

Tarkibida suv va uchuvchan komponentlar saqlaydigan surtmalar ularni parlanishini oldini oladigan idishlarga qadoqlanadi. Surtmalarni qadoqlashda shisha, chinni, polimer (polistirol) bankalardan (hajmi 10, 20, 30, 50 yoki 100 ml bo'lgan, og'zi burama qopqoq bilan yopiladigan) foydalilaniladi.

Surtmalar, kremlar, gellar, linimentlar va pastalarda sifat ko'rsatkichlari

1. Dori vositasining lotin, davlat va rus tillaridagi nomlari
2. Xalkaro patentlanmagan nomi
3. Tarkibi
4. Tasnifi
5. Chinligi
6. O'ram ichidagi massa
7. Suvli ajratma pH i
8. Zarrachalar o'lchamlari
9. Bir xilligi
10. Yot aralashmalar (uxshash birikmalar)
11. Mikrobiologik tozaligi yoki sterilligi
12. Miqdoriy tahlili
13. Urami
14. Yorliklash



15. Tashish
16. Saklash
17. Yaroklilik muddati
18. Asosiy farmakoterapevtik guruxi

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. .U. Tillaeva, F.S. Jalilov Standartizatsiya i sertifikatsiya meditsinskoy i farmatsevticheskoy produksii, Uchebnoe posobie —T.: Izd-vo Fan va texnologiya, – 2019, 380 s.
2. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari. Darslik –T.: «EXTREMUM PRESS» – 2010, 640 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Tashkent, 2002.-60 b.
4. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.

33-MAVZU:Tashqi maqsadlar uchun ishlatiladigan dori turlarini sifatini ta'minlash

Reja:

- 1.Dorixonalarda tayyorlangan dori vositalari sifatining Davlat nazorati
- 2.Dorixonalarda tayyorlangan dori shakllari taxlilining o'ziga xos tomonlari
- 3.Dorixonalarda tayyorlangan dori shakllarining ekspress - taxlili usuli
- 4.Tarkibida galogen saqlovchi ba'zi dori shakllarining taxlili

Tayanch iboralar: dorixonalarda tayyorlangan dori vositalarini standartlash va ularni taxlil usullari

Dorixonalarda tayyorlangan dori turlari O'zbekiston Respublikasi SSV 2000 y 21.04.195 buyrug'i asosida baxolanadi. Dorixonalarda tayyorlangan dori turlari 6 xil nazoratdan o'tkaziladi: yozma, og'zaki, organoleptik, fizik, kimyoviy va kasalga berishdan oldingi nazorat. Retseptlar hamda davolash profilaktika korxonalarining talabnomalari asosida qadoqlangan, konsentrantlar, polufabrikatlar (yarim tayyorlangan dori turlari) dorixona ichida tayyorlangan dori turlarining hammasi dorixona ichida nazoratdan o'tkaziladi. YOzma hamda kasallarga berishdan oldin o'tkaziladigan nazoratdan albatta hamma dori shakllari, og'zaki va fizikaviy nazoratdan - tanlab o'tkaziladi; kimyoviy nazoratdan:

a) faqat sifat nazoratdan:

-tozalangan suv har kuni (har bir ballondan) Si, SO₄ va Sa²⁺ yo'qligiga, in'eksion dori turlarini tayyorlash uchun ishlatiladigan suv, ko'z tomchilari, chaqaloqlar uchun ishlatiladigan dori turlari Si, SO₄, Sa²⁺ qaytaruvchi moddalar, NN₃, SO₂ yo'qligi DF asosida tekshiriladi. Har kvartalda (3 oyda) tozalangan suv nazorat analitik laboratoriya to'liq kimyoviy taxlilga yuboriladi.

-Omborlardan assistentlar xonasiga o'tgan hamma dori turlari, shuningdek, polufabrikat va konsentratlar, sifatiga shubha bo'lgan taqdirda omborxonalardan dorixonaga keltirilgan barcha dori vositalari ;

- Byuretka uskunasidagi suyuq dori turlari, konsentratlar va yarim tayyor dori turlari har kuni;
- Dorixonada qadoqlangan dori vositalarining har bir seriyasi;

-Davolash-profilaktika korxonalarining talab-nomalari asosida va retseptlar asosida tayyorlangan dori shakllari har bir dorishunosdan ish kuni davomida tanlab - 0.1% gachav agar provizor analitik bo'lsa, agar bo'lmasa - 0.3% tekshiriladi.

I - III gr. Dorixonalarda kamida 25 ta

IV - VI gr. Dorixonalarda 8 ta

VII - VIII gr. Dorixonalarda 3 ta

Bunda yuqorida keltirilgan dori turlarning barcha xili tekshirilib, ayniqsa chaqaloqlar uchun tayyorlangan ko‘z tomchilari va narkotik hamda zaharli bo‘lgan moddalar saqlagan dorilarga alohida e’tibor beriladi.

b) To‘la kimyoviy tahlildan quyidagi dori turlari o‘tkaziladi:

- barcha in’eksion eritmalar, sterillashdan avval va sterillashdan keyin; tarkibidagi dori moddalar, izotonikligini ta’minlovchi va turg‘unligini oshiruvchi moddalar, eritmaning pH muxiti aniqlanadi. Sterillashdan keyin faqat ta’sir etuvchi moddalar va pH muhit.

- narkotik va zaharli moddalar saqlagan ko‘z tomchilari, izotonikligini ta’minlovchi va turg‘unligini oshiruvchi moddalar faqat sterillashgacha tekshiriladi.

- chaqaloqlar uchun tayyorlangan barcha dori turlari:

Ichishga mo‘ljallangan NSI eritmasi, atropin sul’fat, NgSl₂ va AgNO₃ eritmaları:

- barcha konsentrantlar va yarim tayyor dorilar:

- dorixonalarda tayyorlangan barcha dori turlarining har bir seriyasi:

- in’eksion eritmalar, ko‘z tomchilari va bufer eritmalarga qo‘shiladigan stabilizatorlar:

- etil spirtining miqdori dorixonada suyultirilganda va lozim topilgan taqdirda omborxonadan olinganda ham spirt o‘lchagich bilan tekshirilib ko‘riladi;

- dorixonada ayrim dorilar, retseptlar va davolash muassasalari talabnomasi bo‘yicha tayyorlangan dori turlari bir ish kunida kamida 8 dori turi tanlab tahlil qilinadi. Bunda bolalar uchun tayyorlangan, narkotik va zaharli moddalar saqlagan dorilar, ko‘z tomchilariga alohida e’tibor beriladi;

- markaziy dorixonalarning provizor - analitigi dorixona qoshidagi tayyorlangan dori turlaridan har oyda kamida 3 tasini taxlil qilishi shart;

- tez buzilib qoladigan va turg‘un bo‘lmagan dori turlari (N₂O₂, NN₃, J₂ formaldegid) kamida 3 oyda 7 marta tekshiriladi.

YOzma nazorat

YOzma nazoratda dori tayyorlab bo‘lgandan keyin darxol pasport yoziladi. Pasportda vaqt, kuni, retsept nomeri, olingan dori moddalar va ularning miqdori, dozalar soni ko‘rsatiladi, tayyorlangan, qadoqlangan va tekshirgan xodimlarning imzolari bo‘lishi kerak.

Konsentratlar va yarim tayyor dori turlarida ularning konsentratsiyasi va olingan miqdori ko‘rsatiladi. SHamchalar, kukunlar va pilyulular tayyorlanganda dozalarning massalari va ularning soni ko‘rsatiladi. SHamcha va pilyulalarda ularning og‘irligi, ine’ksiya uchun eritmalar va ko‘z tomchilariga qo‘shiladigan izotonikligini ta’minlovchi va turg‘unligini oshiruvchi moddalarining miqdori retsept va pasportda ko‘rsatiladi. Pasportda dorivor o‘simliklarning suv yutish koeffitsientlari, dori moddalarni eritilganda xajmning oshish koeffitsientlari ko‘rsatiladi. YOzilgan pasportlar 1 oy davomida dorixonalarda saqlanadi va provizor texnologga tekshirishga beriladi. Agar dori turi to‘liq kimyoviy taxlildan o‘tkazilgan bo‘lsa, pasportda retsept nomeri, taxlil nomeri va taxlil o‘tkazgan provizor - analitik imzosi qo‘yiladi.

Og‘zaki nazorat.

Og‘zaki nazorat tanlab o‘tkaziladi. 5 ta dori shakli tayyorlagandan keyin o‘tkaziladi. Bunda provizor texnolog dori shakliga kiruvchi birinchi dori moddasini aytadi, agar murakkab dori shakli bo‘ladigan bo‘lsa, unda ularning miqdorini ham so‘raydi. Undan so‘ng farmatsevt qolgan dori moddalarni va miqdorini aytadi. YArim tayyor dori turlarini tayyorlaganda ularning tarkibi va konsen-tratsiyasi ham aytildi.

Organoleptik nazorat.

Bunda dori shaklining tashqi ko‘rinishi, rangi, xidi aralashmaning bir xilligi, suyuq dorilarda mexanik zarrachalarning bo‘lmasligi tekshiriladi. Kun davomida 3 ta dan kam bo‘lmagan dori turi tekshiriladi.

Fizik nazorat.

Bundan dori turining og‘irligi yoki xajmi ba‘zi dozalarning og‘irligi va soni shuningdek yaxshilab yopilganligi tekshiriladi. Agar dorixonalarda retseptlar asosida tayyorlangan bo‘lsa unda bir kunda tayyorlangan hamma dori turlarining 3% dan kam bo‘lmagan miqdorda tanlab tekshiriladi. Dorixona ichida tayyorlangan va qadoqlangan dori turlarining har bir seriyasidan 3 - 5 ta miqdorda sterillash shart bo‘lgan dori shakllari sterillashgacha tekshiriladi.

Kimyoviy nazorat.

Bunda dori moddaning chinligi va miqdori tekshi-riladi.

Kasalga berilayotgandagi nazorat.

Bunda dori turlarining yorliqlari, yorliqdagi va retseptdagи nomerlari, yorliqdagi dozalar va kvitansiyadagi, retseptdagи kasalning yoshi, ismi sharifi tekshiriladi. Dori turini kasalga bergan xodim retsept orqasiga albatta imzo chekish kerak.

In'eksion eritmalar taxlili.

Dorixonalarda tayyorlangan ine'ksion eritmalarning sifatini tekshirish eritma tayyorlashning hamma boqichlarda amalga oshiriladi, Olingen natijalar maxsus jurnallarda qayd etiladi. Bunda pH muxit, izotonikligini ta'minlovchi va turg'unligini oshiruvchi, ta'sir etuvchi moddalar to'liq kimyoviy nazoratdan o'tkaziladi. In'eksion eritmalar sterillashdan so'ng pH muxit, ta'sir etuvchi moddaning chinligi va miqdori tekshiriladi. Tekshirish uchun har bir seriyadan 1 ta fl. olinadi. In'eksion eritmalar solingen shisha idish, flakonlar qopqoq bilan berkitilgach, yorliqlanadi, ya'ni qopqoqqa metal jeton yordamida shtampovka qilinadi, kons va nomi yoziladi. Ine'ksion eritmalarning sterilligi va apirogenligi amalda ko'rsatilgan, talablar yordamida aniqlanadi. Bir vaqtning o'zida turli dori moddalari saqlagan bir necha in'eksion eritma tayyorlash man etiladi. In'eksion eritmalarни qayta sterillash ta'iqlanadi. Ularni tarkibidagi moddalarning fizik-kimyoviy xossalariini olgan xolda saqlanadi.

Nazorat savollari:

1. 195 –buyruq.
2. Ekspress taxlil
3. Tozalangan suv talili
4. 420-buyruq

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.«Dori vositalari sifat standartlarining asosiy qoidalari» Tst-42-01-2002
- 2.Davlat farmakopeyasining amaldagi nashrlari
- 3.Me'yoriy hujjatlar nusxalari
- 4.O'zR «Standartlash to'g'risidagi qonuni» 1993 yil 28 dekabr
- 5.O'zR «Dori vositalari va farmatsevtik faoliyati haqidagi qonun» 1997 yil 25 aprel
- 6.O'zR farmatsevtika faoliyati 2003, 2001 yy, I-III t.
- 7.Kasakin I.Vnedrenie standartov GMP i ISO.Remedium.2003g. YAnvar-Fevral. 82-83s.
- 8.Pleteneva T.V. i dr. Znachenie novykh mejdunarodnykh standartov v gosudarstvennykh sistemakh upravleniya kachestvom lekarstvennykh sredstv. Farmatsevtika jurnalı, №3, 2003. 31-31b.
- 9.Arzamashev A.P. Osobennosti sistemy standartizatsii substansi v usloviyah tyinochnoy ekonomiki. Remedium.2006g. Sentyabr 57-59s
- 10.O'zbekiston Respublikasi SSV 2000 y 21.04.195 buyrug'i

II. LABORATORIYA MASHG‘ULOTLAR UCHUN MATERIALLARI


1-laboratoriya mashg‘uloti: Dori vositalarini sifatini ta‘minlash faniga kirish, maqsad va vazifalari. GMP, ICH qoidalarini qiyosiy o‘rganish

Ishdan maqsad: Dori maxsulotining kerakli darajada sifatli bo‘lishi, tadqiqotlarning har bir bosqichida: xom ashyo, olinish usuli, foydalanilayotgan reaktivlar va asbob uskunalar-jixozlar, taxlil usullari, ro‘yxatdan o‘tkazish, saqlanishi, tashilishi, tarqatilishi, klinikagacha va klinikadan so‘ngi tadqiqotlar va x.k. larda sifat nazorati olib borilishi.

Masalaning qo‘yilishi: Talabalarni dori vositalarini sifatini ta‘minlash faniga kirish, maqsad va vazifalarini mukammal o‘zlashtirishdirish.

Sifatni ta‘minlash konsepsiysi

Sifatni ta‘minlash konsepsiysi GMP talabi asosida va GXPni hisobga olgan farmatsevtik mahsulotni sotuvga chiqarish tizimi bo‘lib, u keng qamrovli tashkiliy jarayonlar yig‘indisidan iborat. Mahsulotning hayot siklini to‘la ifodalashi, ya’ni uning sifati, yaratilishi, ishlab chiqarilishi, ishlab chiqarish loyihalalarini tuzish, sifat nazorati va sotilishi kabi barcha bosqichlarda teng ta‘minlashi zarur. Mazkur tizim sifatni erkin nazorat qilishni ta‘minlaydi va tartibga solib turadi.



1-rasm. Sifatni ta'minlash konsepsiysi

Farmatsevtika sohasidagi sifat tizimi (FST)

GMP EC, WHO va ISO 9001 sifat menedjmenti talablarini integratsiyalash maqsadida namunali farmatsevtik sifat tizimi bo'yicha ICH Q10 tavsiyanomasini ishlab chiqdi.

Unga ko'ra FST ning 3 ta asosiy maqsadi belgilab berilgan:

- Mahsulotni sotish
- Bunda patsientlar, soha mutaxassislari, xuquq-tartibot organ vakillari tomonidan, ichki va tashqi istemolchilarga sifatli dori vositasini yetkazib berish uchun tizimi ishlab chiqish kerak va bu tizim tatbiq etilishi, qo'llab-quvvatlab turilishi lozim.
- Tizimli nazorat tashkil etish va qo'llab-quvvatlash
- Jarayonlarning ishlashini, belgilangan talablarga mos kelishini doimo ta'minlash, mahsulot sifati va ishlab chiqarish jarayonini nazorat etish, hamda monitoringini olib boruvchi tizim ishlab chiqish va undan foydalanish kerak.
- Doimiy takomillashtirish
- Mahsulot sifati, texnologik jarayonni muntazam yaxshilab borish, o'lchamlar o'zgaruvchanligini kamaytirish, farmatsevtik mahsulot sifatini modernizatsiyalash va yaxshilash usullarini tanlab olish zarur.
- FST quyidagi 4 qismdan tashkil topgan:
 - GMP ning asosiy elementi
 - ISO 9001:2008 ning asosiy elementi
 - ISO 9001:2008 ning qo'shimcha elementi:
 - mahsulot sifati va texnologik jarayon monitoringi
 - tuzatish/ogoxlantirish harakati (SARA)
 - rahbariyat tomonidan tahlil qilish
 - farmatsevtik sifat menedjmentiga kiruvchi yordam beruvchi omillar: bilimlarni boshqarish
- sifat sohasidagi havf-xatarlar menedjmenti.

Qayd etilgan qismlar farmatsevtik mahsulot hayotiy davrining barcha bosqichlariga, hattoki farmatsevtik ishlab chiqish jarayoniga ham taalluqlidir.

Farmatsevtika sohasida sifat tizimining rivojlanishi uch bosqichdan iborat: *sifat nazorati*, *sifatni ta'minlash* va *sifat menedjmenti* (*boshqarish*).

Sifat tizimi (AQSH) bu mahsulot va xizmatlarni iste'molchilar talabini qondirishda sifatliliginin ta'minlaydigan resurslar, jarayonlarni tashkillashtiradigan boshqaruvni aniqlaydigan, shakllangan biznes amaliyotidir ("Sifat tizimi: GMP talablari" FDA, sentyabr 2004y).

Sifat tizimining ahmiyati shundaki, bunda farmatsevtik ishlab chiqarish soxasida GMP talablarini yanada chuqurroq va faolroq qo'llash imkonini yaratadi, shuningdek tekshiruv vaqtida nazoratchi tomonidan faqatgina sifatni ta'minlash tizimining mavjudligi tekshirilmay, balki GMP talablariga to'liq rioya qilinayotganligi ham nazoratga olinadi.

Birinchi bosqich sifat nazorati – *Quality control- QC* bunda asosan boshlang'ich materiallar va tayyor mahsulot sifati nazorat etilar edi. Bu tizim faqatgina ishlab chiqarilgan Yaroqsiz mahsulotni aniqlashga asoslangan bo'lib, uning sifatni ta'minlash konsepsiysi asosini iste'molchi faqat yaroqli mahsulotni olishi kerak degan g'oya tashkil etadi.



Keys

Berilgan natriy xlorid va sulfatsil natriy dori moddalari.

Substansiyalarning farmakopeya maqolasi bo'yicha sifatini baholang

<i>moddaga izoh</i>	<i>tozaligini aniqlash usullari</i>	<i>miqdorini aniqlash usullari</i>	<i>usul aniqligi</i>

Guruqlar uchun topshiriqlar.

I – gurux vazifikasi

1. Sifatni ta'minlash konsepsiysi
2. Sifatni ta'minlash konsepsiyasining omillari

II – gurux vazifikasi

3. Farmatsevtika sohasidagi sifat tizimi
4. Dori vosiatalarini ishlab chiqarishning GMP va GLP talablari

III – gurux vazifikasi

5. Sifat nazorati
6. Sifatni ta'minlash

Laboratoriya ishlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralarini

Kimyo laboratoriylariga faqatgina xavfsizlik texnikasi bilan tanishib maxsus jurnalga imzo qo'ygan talabalarga kirib ishlashga ruxsat beriladi.

Laboratoriya ishiga tushishdan oldin talabalar texnika xavfsizligini tushungandan so‘ng ruxsat berilishi lozim:

- laboratoriyada tozalik va texnika xavfsizligiga rioya qilish shart;
- laboratoriyada bir kishi ishlashi mumkin emas, xonada kamida ikki kishi ishlashi lozim;
- kimyoviy reaktivlar qadog‘ida yozilgan ko‘rsatmalar asosida saqlanishi shart;
- ishni tugatgandan so‘ng ish joyini tozalash, kimyoviy qoldiqlarni neytrallash va idishlarni zararsizlantirish shart;
- kimyoviy reaktivlarning qoldig‘ini, organik erituvchilar va suvli kimyoviy moddalar eritmasini rakovinaga to‘kish mumkin emas. Bunday qoldiqlar maxsus idishlarga solinadi (shisha).

Laboratoriya ish joyida ovqatlanish va oziq ovqat maxsulotlarini saqlash man etiladi. Suv ichish va dori moddalarini mazasini tatib ko‘rish man etiladi. Moddalarni xidini zaxarli emasligiga ishonch xosil qilingandan so‘ng aniqlash mumkin. Laboratoriya ishini bajarayotganda **mikro usulni qo‘llash tavsiya** etiladi.

Laboratoriyada xar doim quyidagini esda saqlash lozim: neorganik birikmalar toksik xususiyatga ega bo‘lganlari juda ko‘p va bundan tashqari alangada portlash xususiyatiga ega. Laboratoriyada paxta matoli xalatda bo‘lish shart, ximoya ko‘zoynagi bo‘lishi shart. Zaxarli va o‘yuvchi ishqor, kislota moddalari bilan ishlaganda ximoya qo‘lqopidan foydalanish shart. Laboratoriya stollarida shaxsiy buyumlarni qo‘yish, ustki kiyimlarni ilish va oyoq kiyimlarni qoldirish mumkin emas.

Eritmalarni qizdirish jarayonida probirkaning boshi devor tomonga qaratilishi lozim. Suvda yaxshi erimiydigan va probirkada ozroq suv qolganda eritma toshib uchishi extimoli mavjud. Organik modda qatlami ostidagi suv qaynab otilish extimoli mavjud. Shuning uchun probirka bosh qismini iloji boricha xech kim yo‘q tomonga qaratiladi.

Zaxarli xidli moddalar bilan ishlaganda xavo tortuvchi uskuna tagida ish bajarilishi lozim.

Ishqoriy er metallari, metallar va galogenlar bilan ishlagandan so‘ng qoldig‘i yo‘qotilishi lozim. Kuydirilgan moddalar alangasini qum bilan uchirish lozim.

shisha idishlar toza yuvilib, quritilishi shart. Organik erituvchilar bilan tozalab yuvib, quritilishi shart.

Idishlarni quritish shkafida temperature 110-140S da quriguncha qoldiriladi va usha erda sovutiladi. Olovli spirtovka yoki elektroplitkada idishlarni quritish man etiladi.

Laboratoriya ishlarini o’tkazishda zarur asbob-uskunalar.

Laboratoriya ishini bajarish jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo‘llaniladi: kolbalar, probirkalar, pipetkalar va analitik va texnik tarozilar.

Masala va mashqlar

1. 1M xlorid kislotaning titrini aniqlash uchun 1,0800 g natriy karbonat metiloranj indikatori ishtirokida titrlanib, buning uchun 20 ml titrlangan eritma sarflandi. Eritmaning tuzatish koeffitsientini hisoblang, $T=0,0530$.

2. Progesteronning substansiyadagi miqdori tortma usul bilan aniqlanadi. Buning uchun 2,4-difenilgidrazin bilan moddaning gidrazoni olinib, doimiy og‘irlikkacha quritiladi, tortiladi va 0,466 koeffitsientiga ko‘paytiriladi. Nima sababdan koeffitsient sifatida 0,466 qiymati olingan? Javobingizni asoslang. Progesteronning M. m -314,5.

Nazorat savollari

1. Sifatni ta’minlash konsepsiysi
2. Sifatni ta’minlash konsepsiyasining omillari
3. Farmatsevtika sohasidagi sifat tizimi
4. Dori vosiatalarini ishlab chiqarishning GMP va GLP talablari
5. Sifat nazorati
6. Sifatni ta’minlash
7. Sifatni ta’minlovchi tizimi
8. Sifat menedjmenti

9. Sifatini boshqarish tizimining asosiy elementlari
- 10.Sifatni ta'minlovchi elementlar
- 11.Ishlab chiqarishga mas'ul shaxsning vakolati va majburiyatları
- 12.Sifatni nazorat qilish bo'limi (SNQB-OKK - otdel kontrolyo kachestva)

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

2-laboratoriya mashg'uloti: Dori vositalari sifatini ta'minlashda foydalaniladigan sifat ko'rsatkichlarini aniqlash.

Ishdan maqsad: Dori moddasi (substansiya)ning nomi, «Tasvirlanishi», «Chinligini aniqlash», «Eruvchanligi», «Yot xususiy aralashmalarini aniqlash», «Organik erituvchilar qoldigi» va «Miqdorini aniqlash», «Qadoqlash» , «Yorliqlash», «Tashilishi», «Saqlanishi», «Yaroqlilik muddati».

Masalaning qo'yiliши: Talabalarni sifatni ta'minlash konsepsiysi, farmatsevtika sohasidagi sifat tizimi (FST), sifatni ta'minlovchi elementlar, sifatni nazorat qilish bo'limini mukammal o'zlashtirishlariga erishishdan iborat.

DVTSNQ Bosh boshqarmasi O'zR Vazirlar maxkamasining 1995 yilning 5 maydagi 181-sonli karori asosida tashkil etilgan bo'lib, uning zimmasiga dori va tashxis quyish vositalari, tibbiyot texnikasi, tibbiyot buyumlari ustidan davlat nazoratini olib borish, tibbiyot texnikasi va dori vositalarini ekspertiza qilishi, standartlash, ro'yxatga olish va sertifikatsiyalash bilan shugillanuvchi tashkilotlar ishini boshqarish va mufofiqlashtirish ishlari yuklatilgan.

Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi qoshida 4ta qo'mita (farmakopeya qo'mitasi, farmakologiya qo'mitasi, narkotik moddalarni nazorat qilish qo'mitasi, Yangi tibbiyot texnikasi qo'mitasi) va 2 ta bo'lim (farm nazorat bo'limi, sertifikatsiya va ro'yxatga olish bo'limi) faoliyat yuritadi.

Davlat boshqarmalari uz soxalari bo'yicha standart va texnik shart – sharoitlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish va nashr etish bilan shug'ullanadilar.

O'zbekiston Respublikasidagi farmatsevtik faoliyatning qonuniy asoslari:

- «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyat haqidagi qonun»
- «Axoli sogligini himoya qilish haqidagi qonun»
- «Mahsulot va xizmat ko'rsatishni sertifikatsiyalash haqidagi qonun»
- «Farmatsevtika va tibbiyot faoliyatini litsenziyalash haqidagi ko'rsatmalarni tasdiqlash haqida» (O'zR VM ning qarori)

O'zbekiston Respublikasida 1997 yil 25 aprelda qabo'l qilingan «Dori vositalari va farmatsevtik faoliyat haqidagi qonun»da (1999 yil 15 aprelda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan) asosiy tushunchalar belgilab berilgan va ular quyidagilardan iborat:

Dori vositalari – kelib chiqishi tabiiy va sun'iy bo'lgan bir yoki bir necha dori moddalar (substansiyalar) hamda yordamchi moddalar asosida xosil qilingan, kasallikni oldini olish, tashxis quyish va davolash uchun qo'llashga ruxsat etilgan vositalar; Ular jumlasiga immunobiologik, radiofarmatsevtik va parafarmatsevtik preparatlar, gomeopatik, tashxis quyish vositalari kiradi

Dori moddalar (substansiyalar) – kelib chiqishi tabiiy va sun'iy bo'lgan dori preparatlarni qo'llashga ruxsat etilgan toza biologik faol moddalar;

Farmakologik vositalar – belgilangan farmakologik faollikka ega bo‘lib, klinik sinov ob’ektlari hisoblanadigan muayyan dorivor shaklidagi moddalar yoki moddalar aralashmasi;

Dori preparatlari – dozalangan, idishga joylashtirilgan va uralgan qo‘llashga tayyor dori vositalari;

Generik dori vositalari (generiklar)- patent berilgandan kolishmaydigan, lekin boshqa ishlab chiqaruvchi tomonidan tayyorlangan dori preparatlari;

Gomeopatik vositalar- gomeopatiya qoidalariga binoan qo‘llaniladigan va davlat reestrining maxsus bo‘limiga kiritilgan dorilar .

Farmakopeya qo‘mitasi – dori vositalari va tibbiyot buyumlari sifatiga qo‘yilgan talablarni belgilovchi me’yoriy texnik hujjatlarni tasdiqlovchi rasmiy ekspert muassasasi.

Dori vositalarini standartlashdagi me’yoriy hujjatlar


Me’yoriy hujjatlar dori vositalarini tayyorlash sifatini nazorat qilish, ishlatilishi va saqlanishining shart-sharoitlari belgilangan va qonun makomiga ega bo‘lgan hujjatlar bo‘lib, ular dori vositasining sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish maqsadida, ilm-fan yutuklari, ishlab chiqarish korxonalarining ilgor texnologiyalarini e’tiborga olgan xolda vakti-vakti bilan kayta ko‘rilib, eskirgan sifat ko‘rsatgichlari va tahlil usullari Yangilab boriladi.

Dori vositalarining sifatini nazorat qilish va standartlashdagi me’yoriy hujjatlarning quyidagi turlari mavjud:

- Vaktinchalik farmakopeya maqolasi – VFM (VFS).
- Farmakopeya maqolasi – FM (FS).
- Davlat farmakopeyasi – DF (GF).
- Umumi farmakopeya maqolasi – UFM (OFS).
- Tarmoq standarti – TSt (OSt)
- Korxona standarti – KSt (StP)
- Rahbarli me’yoriy hujjat (yulnomha, uslubiy ko‘rsatma).

Farmakopeya – dori vositalarining sifatli tayyorlanishini, sifat va miqdoriy nazoratni belgilovchi, nomlanishi va saqlash sharoiti ko‘rsatilgan davlat standartlari yigindisidir. Davlat farmakopeyasi farmakopeya maqolalari, umumi fizikaviy – kimyoviy, kimyoviy va biologik tahlil usullari, qo‘llaniladigan reaktivlar, titrlangan eritmalar, indiqatorlar va dori vositalariga bo‘lgan umumiyl talablar va me’yoriy hujjatlar haqidagi ma’lumotlar tuplami bo‘lib, qonuniy makomga ega bo‘lgan hujjatdir.

Kislotali gidroliz yordamida amidlarning amin qismini ham aniqlash mumkin.



Aniqlash tartibi:

0,1 g paratsetamolga 2 ml suyultirilgan sulfat kislota qo‘shib, 2 minut qizdirilsa, sirka kislotaning hidi seziladi. Aralashmani sovitib, aromatik birlamchi aminlarga xos bo‘lgan reaksiya qilinadi.

Keys

Farmatsevtik ishlab chiqarish korxonasining sifatni ta’minalash bo‘lmiga tabletka olish uchun bir necha seriyadagi substansiya kelib tushdi.

Uning fizik kimyoviy xususiyatlarini o‘rganib, tahlil usullarini keltiring.

Keynsi bajarish bo‘yicha topshiriqlar:

1. Dori moddalarning sifatini baholang.
2. Dori moddalarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘rganing
3. Dori moddalarning kimyoviy formulalarini yozing
4. Dori moddalarning miqdorini aniqlang

<i>moddaga izoh</i>	<i>tozaligini aniqlash usullari</i>	<i>miqdorini aniqlash usullari</i>	<i>usul aniqligi</i>

Guruhlар uchun topshiriqlar.

I – gurux vazifasi

1. O’zbekiston Respublikasida standartlash ishlari
2. Dori vositalarini standartlash bo‘yicha me’eriyl taxlil hujjalari

II – gurux vazifasi

3. 1.MTXlarni tuzilishi va ularni ishlab chiqish
4. 2.Dori vositalari sifat standartlarini ekspertiza va ro’yxatdan o’tkazish

III – gurux vazifasi

5. Standart namunalar
6. UzRSSV qoshidagi dori vositalari va tibbiyot texnikasi sifatini nazorat qilishi Bosh boshqarmasining tuzilishi.

Laboratoriya ishlarini o’tkazish qoidalari va xavfsizlik choraları.

Kimyo laboratoriyalari faqatgina xavfsizlik texnikasi bilan tanishib maxsus jurnalga imzo qo‘ygan talabalarga kirib ishlashga ruxsat beriladi.

Laboratoriya ishiga tushishdan oldin talabalar texnika xavfsizligini tushungandan so‘ng ruxsat berilishi lozim:

- laboratoriya tozalik va texnika xavfsizligiga rioya qilish shart;
- laboratoriya bir kishi ishlashi mumkin emas, xonada kamida ikki kishi ishlashi lozim;
- kimyoviy reaktivlar qadog‘ida yozilgan ko‘rsatmalar asosida saqlanishi shart;
- ishni tugatgandan so‘ng ish joyini tozalash, kimyoviy qoldiqlarni neytrallash va idishlarni zararsizlantirish shart;
- kimyoviy reaktivlarning qoldig‘ini, organik erituvchilar va suvli kimyoviy moddalar eritmasini rakovinaga to‘kish mumkin emas. Bunday qoldiqlar maxsus idishlarga solinadi (shisha).

Laboratoriya ish joyida ovqatlanish va oziq ovqat maxsulotlarini saqlash man etiladi. Suv ichish va dori moddalarini mazasini tatib ko‘rish man etiladi. Moddalarni xidini zaxarli emasligiga ishonch xosil qilingandan so‘ng aniqlash mumkin. Laboratoriya ishini bajarayotganda **mikro usulni qo‘llash tavsiya** etiladi.

Laboratoriya xar doim quydagini esda saqlash lozim: neorganik birikmalar toksik xususiyatga ega bo‘lganlari juda ko‘p va bundan tashqari alangada portlash xususiyatiga ega. Laboratoriya paxta matoli xalatda bo‘lish shart, ximoya ko‘zoynagi bo‘lishi shart. Zaxarli va o‘yuvchi ishqor, kislota moddalarini bilan ishlaganda ximoya qo‘lqididan foydalanish shart.

Laboratoriya stollarida shaxsiy buyumlarni qo‘yish, ustki kiyimlarni ilish va oyoq kiyimlarni qoldirish mumkin emas.

Eritmalarni qizdirish jarayonida probirkaning boshi devor tomonga qaratilishi lozim. Suvda yaxshi erimiyydigan va probirkada ozroq suv qolganda eritma toshib uchishi extimoli mavjud. Organik modda qatlami ostidagi suv qaynab otilish extimoli mavjud. Shuning uchun probirkaga bosh qismini iloji boricha xech kim yo‘q tomonga qaratiladi.

Zaxarli xidli moddalar bilan ishlaganda xavo tortuvchi uskuna tagida ish bajarilishi lozim.

Ishqoriy er metallari, metallar va galogenlar bilan ishlagandan so‘ng qoldig‘i yo‘qotilishi lozim. Kuydirilgan moddalar alangasini qum bilan uchirish lozim.

shisha idishlar toza yuvilib, quritilishi shart. Organik erituvchilar bilan tozalab yuvib, quritilishi shart.

Idishlarni quritish shkafida temperature 110-140S da quriguncha qoldiriladi va usha erda sovutiladi. Olovli spirtovka yoki elektroplitkada idishlarni quritish man etiladi.

Laboratoriya ishlarini o’tkazishda zarur asbob-uskunalar.

Laboratoriya ishini bajarish jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo’llaniladi: kolbalar, probirkalar, pipetkalar va analistik va texnik tarozilar.

Masala va mashqlar

1. Askorbin kislotasining solishtirma nur burish ko‘rsatkichi topping. Agar uning 2% suvli eritmasining kyuveta qalinligi 20 sm bo‘lganida nur burish burchagi +0,96° ga teng bo‘lsa.
2. Glyutamin kislotasi solishtirma nur burish ko‘rsatkichi bo‘yicha farmakopeya maqolasi talabiga javob beradimi? Agar uning 5% li tekshiriluvchi namunasining suyultirilgan xlorid kislotadagi eritmasi kyuveta qalinligi 1 dm da nur burish burchagi +1,48° ga teng bo‘lsa.

Nazorat savollari

1. Dori vostalari muomalasi sohasida hujjatlarni tartibga solish bo‘yicha Jahon sog‘liqi saqlash tashkiloti roli
2. Dori vositalari sifatini ta’minlashda halqaro standartlar. GMP qoidalari
3. GMP talablari asosida ishlab chiqarishning qat’iy nizomlari
4. Dori vositalari sifatini ta’minlashda halqaro standartlar. ICH tavsiyalari
5. tayyor mahsulot va Yangi substansiyalarning turg‘unligini o‘rganishda ICH tavsiyalari
6. Dori vositalari sifatini ta’minlashda halqaro standartlar. ISO talablari
7. Farmatsevtik inspeksiyalar (GMP bo‘yicha inspektorlar) bo‘yicha hamkorlik konvensiyasi-PIC
8. Farmatsevtika sohasiga halqaro standartlarni joriy etishni muvofiqlashtirish bo‘limi va uning vazifalari

Foydalanimadigan adabiyotlar ro’yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minlash. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

3-Laboratoriya mashg‘uloti: Dori vositalari sifatini xalqaro standartlarga qiyoslab baholash

Ishdan maqsad: Dori vositalari, tibbiyot texnikasi va tibbiyotda ishlatiladigan mahsulotlar sifatining Davlat nazorati O‘zR SSV qoshidagi Dori vositalari va tibbiyot texnikasi sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasi tomonidan dori vositalarini standartlash va ekspertiza qilish Davlat markazi yoki boshqa akkreditatsiyadan o‘tgan Markazlar orqali amalga oshirilishi, davlat nazoratidan O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan va import orqali kelayotgan barcha dori vositalari, tibbiyot texnikasi va tibbiyotda ishlatiladigan mahsulotlar o‘tkazilishi, dori vositalari sifatining Davlat nazorati quyidagi tartibda olib borilishi keltirilgan.

Masalaning qo‘yilishi: Talabalarni dori vositalarini ro,,yxatga olish va qayta ro,,yxatdan o,,tkazish tartibini aniqlashni mukammal o‘zlashtirishlariga erishishdan iborat.

Bugunga kunga kelib ICH tarkibiga 6 ta a’zo, 3 ta nazoratchi (ovoz berish xuquqiga ega emas) va farmatsevtik ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasining Halqaro federatsiyasi (IFPMA) kirgan.

ICH boshqaruvi organida EH, AQSH va Yaponiyadan ikkitadan vakil, bittasi davlatning nazorat organi tomonidan, ikkinchisi esa mazkur davlatning innovatsion farmatsevtika ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasi-tomonidan faoliyat yurgazadilar. Shuning uchun ushbu tashkilotni ba’zida “uch tomonlama tashabbus” deb ham ataladi.

1. EH dan:

- dori-darmonlarni baholash bo‘yicha Yevropa agentligi (EMEA);
- farmatsevtik ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasining Yevropa federatsiyasi (EFPIA);

2. AQSHdan:

- dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha Adminstratsiyasi (FDA);
- AQSH farmatsevtika ishlab chiquvchi va ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasi (PhRMA);

3. Yaponiyadan:

- Yaponiya SSV (MHW)dori vositalari va tibbiy texnika, mehnat va ijtimoiy masalalar bo‘yicha Agentligi va sog‘liq soxasi bo‘yicha Milliy ilmiy instituti;
- Yaponiya farmatsevtik ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasi (JPMA).

ICH ning kuzatuvchilariga WHO, erkin savdo qilish Yevropa Assotsia-siyasi va Kanada SSV kiradi.

Bugungi kunga kelib ICH raxbaryati quyidagi 4 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha faoliyat yuritmoqda:

havfsizlik – S (Safety, bezopasnost)

samaradorlik – E (Efficacy, effektivnost)

sifat – Q (Quality, kachestvo)

soxalararo hujjatlar – M (mejditsiplinarnye dokumenty)

ICH ning asosiy maqsadi:

- inson, biologik va material resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish;
- innovatsion preparatlarni tatbiq etish jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish;
- sifat, samaradorlik va havfsizlikni ta’minalashga rioya qilgan holda Yangi dori vositalardan ko‘proq foydalanishni amalga oshirish.

GMP – bu sifatni ta’minalash tizimining bir qismi bo‘lib, u mahsulotni doimiy ishlab chiqarilishini va sifat standartlari asosida nazorat etilishini ta’minalaydi. GMP qoidalari birinchi navbatda har bir farmatsevtik ishlab chiqarishda bo‘lishi mumkin bo‘lgan va tayyor mahsulotning nazorat partiyalarini tekshirishlar yordamida yo‘qotib bo‘lmaydigan havf-xatarni kamaytirishga qaratilgan.

GMP ning ilk qoidalari 1963 yilda AQSH da qabul qilingan va tadbiq etilgan. Unga ko‘ra:

- dori vositasi sifati tayyor mahsulot tahlili orqaligina ta’minalanmaydi;
- u dori vositasini ishlab chiqarish jarayonida ta’minalishi lozim;
- bu jarayonni nazorat qilish lozim;

- GMP farmakopeyaviy nazoratni oshiradi.

Ya'ni GMP bu:

- faqtgina eng yaxshi mahsulotlarni ishlatish;
- o'z vazifalarini to'liq va sidqildan ado etadigan yuqori malakali xodimlar;
- sifatni ta'minlash;
- bajarilishi lozim bo'lgan jarayonlarni rasmiylashtirish, ular asosida bajarish va nihoyat bajarilgan ishlarni rasmiylashtirish;
- xujjatga mos ravishda sifatli mahsulotni ishlab chiqarish kafolatini beruvchi texnologiyalardan foydalanish;
- havf-xatarni oldini olish;
- tozalik va gigienaga amal qilishdir.

Bugungi kunda GMP qoidalardan 40 tadan ortiq mamlakatlar foydalanmoqdalar va 140 taga yaqin mamlakatlar tan olganlar. Ishtirokchi mamlakatlarning mahalliy GMP qoidalari ham mavjud «Soglasheniya po farm kontrolyu» (**GMP PIC**), Yevropa Ittifoqi davlatlarining GMP qoidalari (**GMP EU**), **GMP ASEAN (Janubi-sharqiy Osiyo)** davlatlari ishtirikchilarning Assotsiatsiyasi), shuningdek WHO ning halqaro talablari (**GMP WHO**) shular jumlasidandir.

GMP elementlari DV hayotiy davrining barcha bosqichlarida tadbiq etilmoqda, ya'ni yaxshi laboratoriya amaliyoti GLP- Good Laboratory Practice, G(Q)CLP - Good (Quality) Control Laboratories Practice, GCP -Good Clinical Practice - yaxshi klinika amaliyoti, GDP-Good Distribution Practice -yaxshi ulgurji savdo amaliyoti (raspredelenie), GSP // GTDP - // Good Storage Practice // Good Trade and Distribution Practice – yaxshi saqlash, sotish va distributsiya amaliyoti,GPP - Good Pharmaceutical Practice - yaxshi farmatsevtika amaliyoti(apteka), GRP - Good Regulation Practice- yaxshi tartibga solish amaliyoti, GEP – Good Education Practice- yaxshi ta'lim olish amaliyoti va GxP-Good X Practice (kodekslar standarti).

GMP talablari asosida ishlab chiqarishning qat'iy nizomlari:

- GMP talablari asosida dori preparatlarini ishlab chiqarish (sifatini nazorat qilish, sifat xatoliklari boshqaruvi) orqali dori vositalari sifatini ta'minlash;
- sifat standartlari asosida mahsulot ishlab chiqarilayotganligi va nazorat qilinayotganligini bildiradigan, sifatni ta'minlovchi tizim mavjudligi.

GMPEU (EMEA)-PIC/S talablari-(Directive 2003/94/EC) (PE-009, Part I)

I qism. Dori vositalarini ishlab chiqarishdagi asosiy talablar:

- sifat boshqaruvi (Quality Management)
- xodimlar (Personal)
- jihozlar va joy (Premises and equipments)
- hujjatlashtirish (Documentation)
- texnologik jarayon (Production)
- sifatni nazorat qilish (Quality Control)
- shartnoma asosida ishlash (Contract manufacture and analysis)
- reklama qilish (Complains and product recall)
- ichki nazorat (Self Inspection)

Keys

Farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan «Ingalipt» dori vositasini ishlab chiqarishga talab tushgan. Uning tarkibi:

Streptotsid	0,75
Norsulfazol	0,75
Timol	0,015
Evkalipt moyi	0,015
YAlpiz moyi.....	0,015
Etanol.....	1,8
Glitserin	2,1
Tvin-80.....	0,9

Tozalangan suv..... do 30,0
 Azot 0,3-0,42

Ba'zi namunalarda norsulfazol va streptotsid tashqi ko'rinishi bo'yicha MH talabiga javob bermadi (kukunlar sariq rangda bo'lib namligi yuqori edi). Ularning saqlanishi va xususiyatlari bilan bog'liq xolda o'zgarish sabablarini aniqlang va tushuntiring. Sifatsiz dori vositalari bilan yuzaga keladigan konfliktli vaziyatlarni tahlil eting, echimini toping va vaziyatdan chiqib keting.

Keysni bajarish bo'yicha topshiriqlar:

1. Norsulfazol sifatini baholang.
2. Ta'sir etuvchi moddalarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganing
3. Ta'sir etuvchi moddalarning kimyoviy formulalarini yozing
4. Ta'sir etuvchi moddalarning miqdorini aniqlang

<i>moddaga izoh</i>	<i>tozaligini aniqlash usullari</i>	<i>miqdorini aniqlash usullari</i>	<i>usul aniqligi</i>

Guruhrular uchun topshiriqlar.

I – gurux vazifasi

1. Dori vositalarining sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan tahlil usullarining tavsifi
2. Usulning aniqligi yoki to'g'riliqi (accuracy)

II – gurux vazifasi

3. Substansiylar uchun usulning to'g'riliqini aniqlash.
4. Usulning to'g'riliqini aniqlash mezonlari.

III – gurux vazifasi

5. Usulning o'zaro mos kelishi
6. Usulning qaytariluvchanligi

Laboratoriya ishlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choraları.

Kimyo laboratoriyalari faqatgina xavfsizlik texnikasi bilan tanishib maxsus jurnalga imzo qo'yan talabalarga kirib ishlashga ruxsat beriladi.

Laboratoriya ishiga tushishdan oldin talabalar texnika xavfsizligini tushungandan so'ng ruxsat berilishi lozim:

- laboratoriya tozalik va texnika xavfsizligiga rioya qilish shart;
- laboratoriya bir kishi ishlashi mumkin emas, xonada kamida ikki kishi ishlashi lozim;
- kimyoviy reaktivlar qadog'ida yozilgan ko'rsatmalar asosida saqlanishi shart;
- ishni tugatgandan so'ng ish joyini tozalash, kimyoviy qoldiqlarni neytrallash va idishlarni zararsizlantirish shart;
- kimyoviy reaktivlarning qoldig'ini, organik erituvchilar va suvli kimyoviy moddalar eritmasini rakovinaga to'kish mumkin emas. Bunday qoldiqlar maxsus idishlarga solinadi (shisha).

Laboratoriya ish joyida ovqatlanish va oziq ovqat maxsulotlarini saqlash man etiladi. Suv ichish va dori moddalarini mazasini tatib ko'rish man etiladi. Moddalarni xidini zaxarli emasligiga ishonch xosil qilingandan so'ng aniqlash mumkin. Laboratoriya ishini bajarayotganda **mikro usulni qo'llash tavsiya** etiladi.

Laboratoriya xar doim quyidagini esda saqlash lozim: neorganik birikmalar toksik xususiyatga ega bo'lganlari juda ko'p va bundan tashqari alangada portlash xususiyatiga ega.

Laboratoriya paxta matoli xalatda bo'lish shart, ximoya ko'zoynagi bo'lishi shart. Zaxarli va o'yuvchi ishqor, kislota moddalar bilan ishlaganda ximoya qo'lqopidan foydalanish shart. Laboratoriya stollarida shaxsiy buyumlarni qo'yish, ustki kiyimlarni ilish va oyoq kiyimlarni qoldirish mumkin emas.

Eritmalarni qizdirish jarayonida probirkaning boshi devor tomonga qaratilishi lozim. Suvda yaxshi erimiydigan va probirkada ozroq suv qolganda eritma toshib uchishi extimoli mavjud. Organik modda qatlami ostidagi suv qaynab otilish extimoli mavjud. Shuning uchun probirka bosh qismini iloji boricha xech kim yo'q tomonga qaratiladi.

Zaxarli xidli moddalar bilan ishlaganda xavo tortuvchi uskuna tagida ish bajarilishi lozim.

Ishqoriy er metallari, metallar va galogenlar bilan ishlagandan so'ng qoldig'i yo'qotilishi lozim. Kuydirilgan moddalar alangasini qum bilan uchirish lozim.

shisha idishlar toza yuvilib, quritilishi shart. Organik erituvchilar bilan tozalab yuvib, quritilishi shart.

Idishlarni quritish shkafida temperature 110-140S da quriguncha qoldiriladi va usha erda sovutiladi. Olovli spirtovka yoki elektroplitkada idishlarni quritish man etiladi.

Laboratoriya ishlarini o'tkazishda zarur asbob-uskunalar.

Laboratoriya ishini bajarish jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo'llaniladi: kolbalar, probirkalar, pipetkalar va analistik va texnik tarozilar.

Masala va mashqalar

1. Glyukozani quruq moddaga nisbatan nur burish burchagini topping, agar uni 1,25 g tahlil namunasining 25 ml suvdagi eritmasi kyuveta qalinligi 10 sm da +2,56° teng. Quritishdagi massa yo'qotishi 1,54% tashkil qiladi.
2. farmakopeya maqolasi talabiga binoan 10 % li mentol eritmasining (95% li etanoldagi) solishtirma nur burishi -49° dan -51° bo'lishi kerak. Mentolning nur burish burchagining mumkin bo'lgan oralig'ini hisoblab topping. Kyuveta qalinligi – 20 sm.

Nazorat savollari

1. Dori vositalarining sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan tahlil usullarining tavsifi
2. Usulning aniqligi yoki to'g'riliqi (accuracy)
3. Substansiylar uchun usulning to'g'riliqini aniqlash.
4. Usulning to'g'riliqini aniqlash mezonlari.
5. Usulning o'zaro mos kelishi
6. Usulning qaytariluvchanligi
7. Usulning o'zgarmasligi (turg'unligi) yoki ishonchliligi
8. Usulning chiziqliligi va diapazoni
9. Usulning sezgirligi
10. Usulning analitik soxasi

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.

3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.

4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

4-laboratoriya mashg‘uloti: Fenotiazin hosilalari guruhiga kiruvchi dori moddalarning chinligini aniqlashda farmakopeyaviy nazorat usullari (USP, EuroPh, BPh).

Mashg‘ulot maqsadi: Fenotiazin hosilalari guruhiga kiruvchi dori moddalarning chinligini aniqlashda farmakopeyaviy nazorat usullarini o‘rgatish.

Mavzuni asoslash: Fenotiazinning 10- alkilamin hosilalari markaziy va periferik nerv tizimiga antigistamin, adrenolitik, sedativ, quşishga qarshi, narkotik, uxlatuvchi ta’sirga ega ekanligi aniqlangan. Fenotiazin xalqasining S₂ xolatiga xlor, fтор va boshqa radiqallarning kiritilishi natijasida neyroleptik faollik ortadi.

Fenotiazin hosilalari xavo kislороди va yorug‘lik nuri tasirida oson oksidlanib rangli birikmalar hosil qiladi.

Masalan, yorug‘lik tasirida aminazin va etmazin qorayadi, propazin kuk-yashil tus oladi.

CHinligini aniqlash. 1. Oksidlanish reaksiysi. Turli oksidlovchilar tasirida fenotiazin hosilalari rangli birikmalar hosil qiladi.

Masalan, bromli suv qo‘shib isitilganda propazin qo‘ng‘ir-qizil, aminazin och-sariq, etaperazin to‘q-qizil, fторfenazin-pushti, etmozin binafsha, etatsizin och-binafsha rang hosil qiladi.

Fenotiazinning 10- alkilamin hosilalari markaziy va periferik nerv tizimiga antigistamin, adrenolitik, sedativ, quşishga qarshi, narkotik, uxlatuvchi ta’sirga ega ekanligi aniqlangan. Fenotiazin xalqasining S₂ xolatiga xlor, fтор va boshqa radikallarning kiritilishi natijasida neyroleptik faollik ortadi.

Fenotiazin hosilalari havo kislороди va yorug‘lik nuri tasirida oson oksidlanib rangli birikmalar hosil qiladi.

Masalan, yorug‘lik tasirida aminazin va etmazin qorayadi, propazin kuk-yashil tus oladi.

CHinligini aniqlash. 1. Oksidlanish reaksiysi. Turli oksidlovchilar tasirida fenotiazin xosilalari rangli birikmalar xosil qiladi.

Masalan, bromli suv qo‘shib isitilganda propazin qo‘ng‘ir-qizil, aminazin och-sariq, etaperazin to‘q-qizil, fторfenazin-pushti, etmozin binafsha, etatsizin och-binafsha rang hosil qiladi.

Ish №1. Fenotiazin hosilalari guruhiga kiruvchi dori moddalarning chinligini aniqlashda farmakopeyaviy nazorat usullarini tanishtirish

Tekshiriluvchi material: Diprazin substansiyasi tahlili

Reaktivlar:

1.Bromnaya voda

2.95% spirit

3.Suyultirilgan nitrat kislotasi

4.Natriy gidroksid eritmasi

Jihozlar:

1. Konussimon kolba

2. Pipetkalar

3. Filtr qog‘oz



Ishni bajarish bosqichlari

Tadbir	
1.	0.05 g preparat 10 ml suvda eritiladi
2.	Eritmaga 1 ml bromli suv qo'shiladi, olcha qizil rangli loyqa eritma hosil bo'ladi.
3.	0.05 g preparat probirkaga solinib, 3 ml 95% spirt, 1 ml suyultirilgan nitrat kislotosi qo'shiladi
4.	Eritma suv hammomida 5 daqiqa qizdirilganda eritma qizil rangga kiradi.
5.	0,01 g preparat 5 ml suvda eritiladi
6.	Eritmaga 0,5 ml natriy gidroksid eritmasi qo'shilganda oq rangli cho'kma hosil bo'ladi.
7.	5 daqiqadan so'ng eritma qog'oz filtr yordamida filtrlanib, filtratda xlorid ionlari aniqlanadi.

Nazorat savollari:

1. Farmakopeyaviy nazorat usullarining dori vositalarining sifatini ta'minlashda qo'llanilishi
2. Fenotiazin guruhi guruhiga kiruvchi dori vositalari tahlilining o'ziga xosligi
3. FM asosida fenotiazin guruhi guruhiga kiruvchi dori vositalari tahlili.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

5-laboratoriya mashg'uloti: Dori vositalari sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan reaktivlar, indikatorlar, jixozlar, asbob-uskunalar sifatini ta'minlash.

Ishdan maqsad: Etalon eritmalar, indikatorlar, titrlangan eritmalarning sifatini baxolash. Xlorid kislotosi, sulfat kislotosi, bariy xlorid, ammoniy oksalat, fenolftalein eritmasi, metil zarg'aldog'i, kalsiy va ammoniy saqlovchi etalon eritmalar sifatini baxolash.

Masalaning qo'yilishi: Talabalarga dori vositalari sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan reaktivlar, indikatorlar, jixozlar, asbob-uskunalar sifatini ta'minlashni o'rgatish.

Titrlangan eritmalar

Titrlangan eritma deb, hajmiy tahlilda titplash uchun qo'llaniladigan, aniq konsentratsiyaga ega bo'lgan eritmalariga aytiladi. Titrlangan eritmalarini (titrantni) konsentratsiyasi mol/l da ifodalanib, aniq moddalarga nisbatan titr bilan belgilanadi. Molyarli eritma konsentratsiyasi bir litr eritmadagi erigan moddaning mol miqdori bilan ifodalanadi (mol/litr).

1 ml eritmada erigan moddani grammardagi massasi g/ml bilan ifodalanib, eritmaning titri deyiladi.

1 ml titrantga ekvivalent bo‘lgan aniqlanuvchi moddaning grammalar bilan ifodalangan massasi, aniqlanuvchi moddaning titrant bo‘yicha titri deyiladi.

Aniqlanuvchi moddani titri, titrantning molyarligi, titrlash jarayonida boradigan kimyoviy jarayonning stexiometrik koeffitsiyentlari va aniqlanayotgan modda asosida hisoblanadi.

$$T = \frac{\Theta \cdot N}{1000}$$

Davlat Farmakopeyasining XI nashri talabiga ko‘ra titrlovchi eritmalar shartli ravishda molyar eritmalar, deb atalgani uchun yuqoridagi formulani quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$T = \frac{\Theta \cdot M}{1000}$$

Titrlangan eritmani tayyorlash usullari Davlat Farmakopeyasida keltirilgan bo‘lib, ularning titrini aniqlashning 2 hil usuli mavjud.

1. Bu usulda titrlangan eritmaning molyarligi, titrni aniqlovchi moddaning aniq miqdori bo‘yicha aniqlanadi:

$$M = \frac{a \cdot 1000}{\Theta \cdot V}$$

a -eritmaning titrini aniqlash uchun olingen moddaning gramm miqdori

E -modda ekvivalent massasining g/mol miqdori

V -moddani titrlash uchun sarf bo‘lgan titrant hajmi, ml

2. Titri aniqlanayotgan titrant bilan titri aniq bo‘lgan eritmani titrlash orqali aniqlanadi:

$$\frac{D_1}{D_2} < 0,879 \quad M = \frac{M_0 \cdot V_0}{V}$$

*M*₀ - titri aniq bo‘lgan eritmaning molyarligi

V- titri noma’lum bo‘lgan eritmaning hajmi

*V*₀ - titri aniq bo‘lgan eritmaning hajmi

Titrlangan eritmalar uchun ularni shartli molyarligiga bo‘lgan tuzatish koeffitsiyenti - *K* hisoblanadi.

$$K = \frac{M}{M_0}$$

formulada *M*₀ - titrlangan eritmaning talab etilgan shartli molyarligi, *M* - titrlangan eritmaning shartli molyarligi

Aytaylik, *M*₀=0,1 mol/l, *M*=0,102 mol/l bo‘lsin. U holda *K*=0,102/0,1=1,02 bo‘ladi.

Davlat Farmakopeysi talabiga ko‘ra, titrlangan eritmalarning tuzatish koeffitsiyenti 0,98-1,02 oralig‘ida bo‘lishi lozim. Agar *K* talab etilgan qiymatdan farq qilsa, titrlangan eritma quyultiriladi yoki suyultiriladi. Titrlangan eritmani suyultirish lozim bo‘lsa, u holda uning 1 litriga qo‘shiladigan suvning hajmi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$V=(K-1) \cdot 1000$$

formulada *K* - titrlangan eritmaning aniqlangan tuzatish koeffitsiyenti.

Titrlangan eritmaning 1 litrini quyultirish uchun kerak bo‘lgan moddaning gramm miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$v=(1-K) \cdot a$$

a-1 litr titrlangan eritmani tayyorlash uchun tortib olingen moddaning grammardagi miqdori

v-1 litr eritmani quyultirib, tuzatish koeffitsiyentini 1 ga yetkazish uchun qo‘shilishi lozim bo‘lgan moddaning miqdori

Titrimetrik usulda aniqlanuvchi moddaning foiz yoki gramm miqdori quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

a) to‘g‘ridan-to‘g‘ri titrlanganda

$$X_{\%} = \frac{V \cdot K \cdot T \cdot 100}{a} \quad \text{yoki} \quad X_{ep} = \frac{V \cdot K \cdot T \cdot P}{a}$$

b) qayta titrlanganda

$$X_{\%} = \frac{(V_1 \cdot K_1 - V_2 \cdot K_2) \cdot T \cdot 100}{a} \quad \text{yoki} \quad X_{ep} = \frac{(V_1 \cdot K_1 - V_2 \cdot K_2) \cdot T \cdot P}{a}$$

v) nazorat tajribasi o‘tkazilganda

$$X_{\%} = \frac{(V - V_H) \cdot T \cdot K \cdot 100}{a} \quad \text{yoki} \quad X_{ep} = \frac{(V_H - V) \cdot T \cdot K \cdot P}{a}$$

Bunda: V - titrlash uchun sarf bo‘lgan titrant hajmi

K - titrantning tuzatish koeffitsiyenti

T - aniqlanuvchi moddaning g/ml lardagi titri

V_1 - birinchi titrant hajmi

V_2 - ikkinchi titrant hajmi

K_1, K_2 - tuzatish koeffitsiyentlari

V_H - nazorat tajribasi uchun sarf bo‘lgan titrant hajmi


R - dori turining massasi

4.2. Suvli sharoitda kislotali-asosli titrlash usuli

1. Kislotalarni titrlash (Alkalimetrik usul)

Xlorid kislotaning miqdorini aniqlash

Xlorid kislota kuchli kislotalar guruhiba kirganligi uchun uning miqdorini aniqlash oddiy bo‘lib, kislotani ishqor bilan titrlashga asoslangan, indikator sifatida metil zarg‘aldog‘i (metiloranj) olinadi.



Aniqlash tartibi:

100 ml hajmli kolbaga 10 ml suv solib tortiladi, so‘ngra 3 ml xlorid kislota qo‘shib kolbaning og‘zi berkitilgach, qayta tortiladi. Metil zarg‘aldog‘i indikatoridan qo‘shib, eritma pushti rangdan qizil-sarg‘ish rangga o‘tguniga qadar 1 mol/l natriy gidroksid eritmasi bilan titrlanadi ($E=M.m.$). 1 ml 1 mol/l natriy gidroksid eritmasi 0,03646 g xlorid kislotaga to‘g‘ri keladi. Kislotaning foiz miqdori 24,8% dan kam, 25,2% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Xlorid kislotaning foiz miqdori quyidagi formula yordamida hisoblab topiladi:

$$X = \frac{V \cdot K \cdot T \cdot 100}{a}$$

V - titrlash uchun sarf bo‘lgan 1 mol/l natriy gidroksid eritmasining hajmi, ml

K - tuzatish koeffitsiyenti

T - xlorid kislotasining titri, 0,03646 g

a - tahlil uchun olingan xlorid kislotasining og‘irligi, g.

Indikatorning rang o‘zgartirish pH oralig‘i

Indikatorning nomi	Rang o‘zgarishi pH alig‘i	Rangning o‘zgarishi
Metil binafsharang	0,1-1,5	Sariq-yashil
Krezol qizili (purpurovyy)	1,2-2,8	Qizil-sariq
Timol ko‘ki	1,2-2,8	Qizil-sariq
Tropeolin OO	1,4-3,2	Qizil-sariq
Metil binafsharang	1,5-3,2	Yashil-binafsha
Dimetil sarig‘i	3,0-4,0	Qizil-sariq
Metil zarg‘aldog‘i	3,0-4,4	Qizil-sariq
Bromfenol ko‘ki	3,0-4,5	Sariq-binafsha-havorang
Kongo qizili	3,0-5,2	Ko‘k binafsha-qizil
Bromkrezol ko‘ki	3,8-5,4	Sariq-ko‘k

Metil qizili	4,2-6,2	Qizil-sariq
Lakmoid	4,0-6,4	Qizil-ko'k
Alizarin qizili S	3,7-5,2	Sariq-binafsha
Bromkrezol qizili (purpurovly)	5,2-6,8	Och sarg'ish-qizil binafsha
Bromtimol ko'ki (yoki yashili)	6,0-7,6	Sariq-ko'k
Neytral qizili	6,8-8,0	Qizil-sariq
Fenol qizili	6,8-8,4	Sariq-qizil
Krezol qizili	7,2-8,8	Sariq-qizil
□-naftolftalein	7,3-8,7	Sarg'ish-ko'k
Krezol qizili (purpurovly)	7,6-9,2	Sariq-binafsha
Timol ko'ki	8,0-9,6	Sariq-ko'k
Fenolftalein	8,2-10,0	Rangsiz-qizil
Timolftalein	9,3-10,5	Rangsiz-ko'k
Alizarin sarig'i R	10,1-12,1	Sariq-qizil zarg'aldoq
Malaxit yashili	11,4-13,0	Yashil-rangsiz
Indigokarmin	11,6-14,0	Ko'k-sariq

Keys

Levomitsetin dori moddasi tahlil qilish uchun sifatni taminlash bulimiga kelib tushdi. Uning DF talabiga javob berishini isbotlang.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablar va hal etish yo'llarini jadval asosida izohlang (individual va kichik guruhda).

Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo'llari

Laboratoriya ishlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choraları.

Kimyo laboratoriyalari faqatgina xavfsizlik texnikasi bilan tanishib maxsus jurnalga imzo qo'yan talabalarga kirib ishlashga ruxsat beriladi.

Laboratoriya ishiga tushishdan oldin talabalar texnika xavfsizligini tushungandan so'ng ruxsat berilishi lozim:

- laboratoriya tozalik va texnika xavfsizligiga rioya qilish shart;
- laboratoriya bir kishi ishlashi mumkin emas, xonada kamida ikki kishi ishlashi lozim;
- kimyoviy reaktivlar qadog'ida yozilgan ko'rsatmalar asosida saqlanishi shart;
- ishni tugatgandan so'ng ish joyini tozalash, kimyoviy qoldiqlarni neytrallash va idishlarni zararsizlantirish shart;
- kimyoviy reaktivlarning qoldig'ini, organik erituvchilar va suvli kimyoviy moddalar eritmasini rakovinaga to'kish mumkin emas. Bunday qoldiqlar maxsus idishlarga solinadi (shisha).

Laboratoriya ish joyida ovqatlanish va oziq ovqat maxsulotlarini saqlash man etiladi. Suv ichish va dori moddalarini mazasini tatib ko'rish man etiladi. Moddalarni xidini zaxarli emasligiga ishonch xosil qilingandan so'ng aniqlash mumkin. Laboratoriya ishini bajarayotganda **mikro usulni qo'llash tavsiya** etiladi.

Laboratoriya xar doim quyidagini esda saqlash lozim: neorganik birikmalar toksik xususiyatga ega bo'lganlari juda ko'p va bundan tashqari alangada portlash xususiyatiga ega. Laboratoriya paxta matoli xalatda bo'lish shart, ximoya ko'zoynagi bo'lishi shart. Zaxarli va o'yuvchi ishqor, kislota moddalar bilan ishlaganda ximoya qo'lqopidan foydalanish shart. Laboratoriya stollarida shaxsiy buyumlarni qo'yish, ustki kiyimlarni ilish va oyoq kiyimlarni qoldirish mumkin emas.

Eritmalarini qizdirish jarayonida probirkaning boshi devor tomonga qaratilishi lozim. Suvda yaxshi erimiydigan va probirkada ozroq suv qolganda eritma toshib uchishi extimoli mavjud. Organik modda qatlami ostidagi suv qaynab otish extimoli mavjud. Shuning uchun probirka bosh qismini iloji boricha xech kim yo'q tomonga qaratiladi.

Zaxarli xidli moddalar bilan ishlaganda xavo tortuvchi uskuna tagida ish bajarilishi lozim.

Ishqoriy er metallari, metallar va galogenlar bilan ishlagandan so'ng qoldig'i yo'qotilishi lozim. Kuydirilgan moddalar alangasini qum bilan uchirish lozim.

shisha idishlar toza yuvilib, quritilishi shart. Organik erituvchilar bilan tozalab yuvib, quritilishi shart.

Idishlarni quritish shkafida temperature $110-140^{\circ}\text{S}$ da quriguncha qoldiriladi va usha erda sovutiladi. Olovli spirtovka yoki elektroplitkada idishlarni quritish man etiladi.

Laboratoriya ishlarini o'tkazishda zarur asbob-uskunalar.

Laboratoriya ishini bajarish jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo'llaniladi: kolbalar, probirkalar, pipetkalar va analitik va texnik tarozilar.

Masala va mashqlar:

1. Argentometriyaning Folgard usuli bo'yicha tabletkadagi bromkamforani (Mr. 231,14) miqdoriy tahliliga ko'ra reaksiya tenglamasini keltiring.
2. Papaverin gidroxlorid tabletkalarini ($M=375.86$) suvsiz muhitda kislota-asos titrlash usulida miqdoriy tahlil reaksiya tenglamalarini keltiring

Nazorat savollari

1. Sinov markazlarini tashkil etish
2. Sinov markazining tashkiliy tuzilishi va xodimlari
3. Sifatni ta'minlash dasturi
4. Tadqiqot o'tqazish uchun mo'ljallangan xonalar
5. Sinaluvchi va standart ob'ektlarni qabul qilish, ishlov berish, namunalarni tanlab olish va saqlash
6. Standart operatsion protseduralar
7. Tadqiqot rejasi, tadqiqotni o'tkazish va olingan natijalari

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamонавиy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

6-Laboratoriya mashg‘uloti: Dori vositalarining sifatini ta’minlashda qo’llaniladigan fizikaviy tahlil usullariga qo‘yiladigan talablar

Mashg‘ulot maqsadi: Dori vositalarining sifatini ta’minlashda qo’llaniladigan fizikaviy tahlil usullariga qo‘yilagan talablar bilan talabalarni tanishtirish.

Mavzuni asoslash: Nazorat tahlil laboratoriylarida ko‘pgina jihoz va asbob-uskunalaridan foydalaniladi: oddiy (tarozilar, bug‘latuvchi asboblar) va murakkab kompyuetr tizimli va nazorati bilan birlgiligidagi asboblar.

Odatda asboblar dori vositasining sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etganligi sababli attestatsiya/kvalifikatsiyadan o‘tkaziladi Masalan, tayyor mahsulotni saqlash va tashishda belgilangan haroratni doimiy ta’minlash uchunsovutgich kameralar, omborxona, konteynerlar, yoki DV ishlab chiqarishda mikser va tabletka mashinasi kvalifikatsiya (validatsiya)dan o‘tishi kerak, chunki ushbu kurilmalar dori moddasi bilan bevosita kontaktda bo‘lib, ular bilan ishlashning noto‘g‘ri olib borilishi, DV xossalarning (komponentlar proporsiyasi, DM massasi, yot moddalarning aralashib qolishiga va boshqalarning) o‘zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, DV larini ishlab chiqarish jarayonining har bir tarkibiy qismi o‘zida nazorat jarayonlarini mujassamlashtirishi lozim, ya’ni har bir jarayon attestatsiya/kvalifikatsiya (validatsiya) dan o‘tkazilishi kerak.

Ularning sifatiga qo‘yilgan talablar WHO, ICH yo‘riqnomalari va AQSH Farmakopeyasida keltirilgan.

Asboblar to‘g‘ri ishlashi kerak. Ba’zi asboblar (tarozi, manometr, gigrometr va x.k.) uchun kalibrovka o‘tkazishning o‘zi etarli hisoblanadi va shu bilan ularni attestatsiya (validatsiya) qilish shart emas.

Murakkab asboblar uchun esa muayyan uslublar talab etiladi.

Asboblar attestatsiyasi (validatsiyasi) – asbobning o‘z vazifasiga mosligini rasmiylashtirilgan tasdig‘idir. «Attestatsiya» atamasi PMA tomonidan CSVS mputer system Validation Committee hamkorligida kiritilgan bo‘lib, o‘z ichiga IQ, OQ, PQ kabi tushunchalarni olgan. Keyinchalik, 1995 yilda tomonidan DQ atamasi ham kiritilgan.

Jihozlar kvalifikatsiyasida quyidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi: kvalifikatsiya o‘tkazish rejasi (master-plan), kvalifikatsiya o‘tkazish bayonnomasi (protokol), kvalifikatsiya o‘tkazish hisoboti (otchet).

Asboblar kategoriyalari

Asboblar attestatsiyasi har biri uchun o‘ziga xos bo‘lib ularning murakkabligiga bog‘liq. Uskulalarning eng sodda ko‘rinishi uchun faqat vizual ko‘rik va amalga oshirilgan ishlarni (asbobning nomlanishi, seriya raqami, ishlatalishga tushgan sanasi va boshqalar) rasmiylashtirish etarli bo‘ladi. Murakkab asboblar uchun esa attestatsiyaning hamma bosqichlarida kompleks ishlarni olib borish talab qilinadi.

A guruhi. O‘lchash yoki kalibrash funksiyalari bo‘limgan standart uskulalarni o‘z ichiga oladi (azot bug‘latkichlari, magnitli aralashtirgichlar, sentrifugalar). Bunday asboblarning attestatsiyasi vizual ravishda olib boriladi. Asbobning texnik xarakteristikalari uning tuzilishi bilan qat’iy aniqlangan.

V guruhi. Bu guruhga davriy kalibrovkani (tekshiruvni) talab qiluvchi standart nazorat-o‘lchov uskulalari kiradi. Bu asboblarning texnik xarakteristikalari ularning konstruksiysi bilan belgilanadi. Bunday uskulalarga tarozilar, optik mikroskoplar, suyulish nuqtasini aniqlash uchun mo‘ljallangan uskulalar, refraktometrlar, termometrlar, viskozimetrlar, uskulalarga esa mufel pechlari, muzlatgichlar va muzxonalar, suv hammomlari, nasoslari, suyultirgichlar va boshqalar kiradi.

Kalibrovka va attestatsiya (agar kerak bo‘lsa) ishlab chiqaruvchining ko‘rsatmasi asosida olib boriladi.

S guruhi o‘z ichiga analitik asboblarni va kompyuter orqali boshqariladigan tizimlarni oladi, shunda ishlatuvchining talablari spetsifik, nóstardant bo‘ladi, ularning bajarilishi har bir qo‘llash jarayoni uchun attestatsiya jarayoni bilan tasdiqlanadi. Bu asboblarni attestatsiyadan o‘tkazish uslubi ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilanib asbob komplekti ichiga kiritiladi. S guruhiga kiruvchi asboblar:

- atom-absorbsion spektrometrlar;
- differensial skaner qiluvchi kalorimetrlar;
- elektron mikroskoplar;
- mass-spektrometrlar;
- yuqori bosimda ishlovchi suyuqlik xromatograflari;
- gaz xromatograflari va boshqalar.

Asboblarning to‘liq ro‘yxati USP (1058)da keltirilgan.

Nº 1. Riboflavin dori moddasining tahlili asosida spektrofotometriya usuliga qo‘yilgan talablarni o‘rganish

Tekshiriluvchi material: Spektrofotometr

Reaktivlar:

1. 0,1 mol/l natriy ishqori eritmasi
2. sirka kislotasi

Jihozlar:

1. 100 mlli o‘lchov kolbasi
2. 250 mlli o‘lchov kolbasi .
- 2.10 ml pipetka
- 3.Filtr qog‘oz
- 4.Voronka
- 5.spektrofotometr

Ishni bajarish bosqichlari

No	TADBIR
1	0,03 g atrofida dori moddasini tortib olish.
2	Tortimni 1 ml sirka kislotasida va 250 ml suv bilan aralashmasida isitgan holda itish va belgisigacha suv bilan etkazish
3	YUqoridagi eritmadan 10 mllini 100 mlli o‘lchov kolbasiga solib ustiga 0,1 mol/l natriy ishqori eritmasidan 1,75 ml qo‘sib, eritmani belgisigacha suv bilan etkazish
4	Tayyorlangan eritmaning optik zichligini 267 nm to‘lqin uzunligida elektrofotometrda o‘lhash
5	O‘lhashlar 5 marta amalga oshiriladi va tahlil natijalari statistik qayta ishlanadi.
6	Olingan kiymatlarga asoslanib hisoblash va bayonnomda daftarin to‘ldirish



Nazorat savollari:

1. Dori vositalari sifatini ta’minlashda qo‘llaniladigan asboblar kvalifikatsiyasi
2. Analitik asboblarning dizayn kvalifikatsiyasi
3. O‘rnatalgan uskuna attestatsiyasi
4. Jixozlangan uskuna attestatsiyasi
5. Analitik asboblarni ekspluatatsiya qilish vaqtidagi kvalifikatsiyasi
6. O‘rnatalgan uskuna attestatsiyasi
7. Validatsiya nima?

8. Kvalifikatsiya nima?
9. Attestatsiya nima?
10. Asboblar kategoriyalari
11. Asboblar attestatsiyasini o'tkazish hujjatlari.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

7-laboratoriya mashg'uloti: Dori vositalarining sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan kimyoviy tahlil usulliga qo'yiladigan talablar

Mashg'ulot maqsadi: Dori vositalarining sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan kimyoviy tahlil usullariga qo'yiladigan talablarni o'rgatish.

Mavzuni asoslash: Farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida muhim bo'g'indan biri bu nazorat tahlil laboratoriyalari va ularda qo'llaniladigan tahlil usullari hisoblanadi. Tahlil usullari nafaqat materiallar, oraliq va tayyor mahsulotlar sifatini baholashda, balki tozalash jarayonlarini attestatsiya qilishda va boshqa xolatlarda ham qo'llaniladi.

Farmatsevtik vositalar yoki dori preparatlaridagi ayrim ingridient-lar uchun ularning saqlanish muddati davomidagi havfsizligi va samarador-ligini kafolatlovchi analitik nazorat usullari bo'lishi shart.

Aslida bunday nazorat dori preparatini ishlab chiqish vaqtida qabul qilinib, validatsiyadan o'tkazilgan usullarga binoan amalga oshiriladi. Bu esa sifat spetsifikatsiyasining farmatsevtik mahsulot tarkibidagi ta'sir etuvchi moddaning biologik tavsifini belgilash bilan bir qatorda sotuvga chiqarilgan tayyor dori vositalari uchun ham qo'llash mumkinligini kafolatlaydi. Preparatning biotibbiy ekspertizasi tugallangach, mahsulotning barcha keyingi turkumlarining sifati ushbu sertifikatsiyalar bo'yicha baxolanadi. Analitik validatsiyadan asosiy maqsad tanlab olingan analitik usul yordamida ishonarli va qaytariluvchan natijalar olishga erishishdan iboratdir. Usulning qo'llanish sharoiti va usulni qo'llashdan qo'zlangan maqsad aniq belgilab olinib, bu tamoyillar ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladigan barcha farmakopeyaviy va nofarmakopeyaviy usullarga tegishli bo'ladi.

Analitik usul turli sharoitlarda, turli xil asboblarda va turli xodimlar tomonidan bajarilganda bir xil natijalar berishi kerak. Buning uchun usulning o'zi unga qo'yilayotgan talablarga javob berishi, asoslangan va tasdiqlangan bo'lishi, asbob-uskunalar ko'zda tutilgan tartibda ishlashi, xodimlar o'z sohasini bilishi va vijdongan ishlashi lozim. SHuningdek, analitik usullar, jixoz va asbob-uskunalar attestatsiyadan (validatsiyadan) o'tgan, aynan ushbu usul hamda asbob-uskunalarni tekshirish imkonini beruvchi usulning ishlash qobiliyati baholangan bo'lishi kerak.

Analitik usullar va asbob-uskunalarни attestatsiyadan o'tkazish tartibi keskin farq qiladi.

Analitik usullar farmakopeyaviy va nofarmakopeyaviy usullarga bo'linadi.

Farmakopeyaviy usullar farmakopeyalarda keltirilgan bo'lib, ular turli davlatlarda turlichadir. Bugungi kunda farmakopeyaviy usullarga bir xil umumi yondashuv talab etilmoqda. Bunday yondashuvlar AQSH farmakopeyasi, Evropa farmakopeyasi, shuningdek WHO va ICH hujjatlarida keltirilgan.

Analitik usullarning ishlash qobiliyatini tekshirish

Analitik usullarning ishlash qobiliyatini tekshirish tartibi (verification procedure) USP (1226) da keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

- laboratoriyyada kerakli asbob-uskunaning mavjudligi, to‘g‘ri o‘rnatilgan, kalibrovka qilingan, ishga solingen va sozlangan;
 - xonalar yoki joylarning tozaligi, tahlil natijalariga halal bermasligi;
 - farmakopeyada keltirilgan reaktivlardan foydalanilgan;
 - usullar bo‘yicha hujjatlar;
 - ishning nazorati yo‘lga qo‘yilgan va olingan natijalarning ikkinchi shaxs tomonidan tasdiqlangan (o‘z ko‘zi bilan ko‘rib);
 - tahlil usuli bo‘yicha aniq va to‘g‘ri ishlayotgan va o‘rgatilgan xodimlar;
 - etalon materiallar bo‘yicha ishlash qobiliyatini tekshirilgan;
 - tahlil natijalari to‘g‘ri rasmiylashtirilgan bo‘lishi kerak.

Qayd etilgan ishlar bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Ba'zi xollarda usulning murakkabligiga yoki xodimlarning tayyorgarlik darajasi yoki tajribasi etarli bo'limganda qo'shimcha ishlar bajariladi yoki hammasi ham tekshirilavermaydi.

Analitik usullar attestatsiyasi (validatsiyasi)

Analitik usullar attestatsiyasi ushbu usulni ishlab chiqqan shaxs yoki korxona xodimlari tomonidan olib boriladi. Attestatsiya – bu usulning o‘rnatilgan talablarga mos kelishini tasdiqlashdir. Analitik usullarni attestatsiyadan o‘tkazish uchun qo‘yilgan umumiyl talablar WHO va ICH dasturlarida, xususiy talablar esa farmakopeya maqolalarida (monografiyalar) keltirilgan.

Dori vositasining sintez jarayoni, tayyor dori vositasi tarkibi va analitik usulga o'zgartirishlar kiritilganda takroriy attestatsiya o'tkaziladi.

Tayyor dori vositalari uchun foydalaniladigan analitik usullarni attestatsiyadan o'tkazish mezonlari

1-jadval

Faol ingri-entlar tahlili:	+	+	+	+	-	-	-	+
-yorug'likni itish								
-xromatografa	+	+	+	+	+	-	-	+

Analitik usullarga qo'yilgan talablar

Ayrim ingradient (dori moddasi yoki yordamchi modda) yoki dori shakli uchun spetsifikatsiyani asoslash uchun analitik usullar bo'yicha tavsiya etilgan har qanday ma'lumot uchta asosiy bo'limni o'z ichiga oladi.

1. Tadqiqot uchun tavsiya etilgan usul boshqa usullar bilan solishtirilib ko'rilgan bo'lishi kerak. Agar tavsiya etilayotgan usul o'zgacha bo'lsa ilmiy asoslab berilishi lozim. Amaldagi usul boshqa usulga almashtirilgan taqdirda, solishtirish ma'lumotlari qo'rsatiladi.

2. Usulning bayoni to'liq berilib, etarli malakaga ega bo'lgan xodim osonlik bilan bajara oladigan bo'lishi kerak. Talab etilayotgan reaktivlarni tayyorlash atroflicha yoritilgan yoki chop etilgan manbalarga ishora berilgan bo'lib, lozim bo'lgan standart namunalar xaqida to'la ma'lumot berilgan bo'lishi kerak. Usul analitik kimyoning barcha ma'lum bo'lgan tamoillariga asoslangan bo'lsa, natijalarni xisoblash formulalarini keltirish shart emas, ammo usul nisbatan murakkab xollarda xisoblash formulasi keltirilib, formulaga kirgan belgilarning tavsifi ko'rsatiladi.

3. Validatsiya ma'lumotlari qo'llanilayotgan ma'lum bir usulga tegishli bo'lgan har bir analitik tavsif, tajriba ma'lumotlari bilan muxokama qilinib mustaxkamlanadi. Dori preparatini ro'yxatga olish uchun tavsiya etilgan ma'lumotlar belgilangan farmakopeyaviy usullarni qo'llash natijasida olingen va bu farmakopeyaviy usullar avval tegishli tartibda validatsiyadan o'tkazilgan bo'lsa, validatsiyani tasdiqlovchi ma'lumotlar tavsiya etilmasa ham bo'ladi. Tadqiqot materiali dori shakli bo'lgan taqdirda olingen ma'lumotlarni tasdiqlovchi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Analitik usul bayonida quyidagilar bo'lishi kerak:

- namunalarni olish tartibi (namunaning xajmi va miqdori, namunani olish metodikasi, namunalar joylashtiriladigan konteynerlar, namunalarga dastlabki ishlov berish ko'rsatmalari va b.);

- kerak bo'lganda namunalarni ayrim saqlash sharoitlari;

- reagentlarga talablar;

- asbob-uskunalarning bayoni;

-asbob-uskunalarning ishslash qobiliyatini tekshirish uslubi (metodika);

- usulning ishslash qibiliyatini tekshirish uslubi (metodika);

- nazoratni olib borish sharoitiga talablar, reaksiyalarni olib borish sharoiti va ulardan foydalanish;

- ehtiyyotkorlik choralar;

Olingen natijalarga ishlov berish, kerak bo'lganda statistik usul, etalon namuna va materiallar ko'rsatiladi.

DF X, USP, EP xamda BP larda vodorod peroksidning suyultirilgan eritmasi — (Solutio hydrogenii pexoxydi diluta) kiritilgan va unga maxsus maqola bag'ishlangan.

Suyultirilgan vodorod peroksid ham rangsiz, tiniq hidsiz yoki bir oz yoqimli ozon hidli va kuchsiz kislota xossaga ega suyuqlik bo'lib, uning tarkibida 2,7—3,3 % vodorod peroksid bo'ladi. Uni konsentrangan preparatdagi vodorod peroksidning miqdorini hisobga olgan holda, ma'lum hajm suv bilan suyultirib tayyorlanadi.

Suyultirilgan vodorod peroksidning barqarorligini saqlab qolish uchun uning tarkibiga atsetanilid, hozirgi vaqtida esa, asosan 0,05 % miqdorida natriy benzoat tuzi qo'shiladi. Vodorod peroksid beqaror modda bo'lib, ayniqsa u yorug'lik harorat, turli oksidlovchi-qaytaruvchi moddalar hamda temir, mis, magniy kabi metallar ta'sirida tez parchalanib, o'zidan kislorod ajratib chiqaradi.

Vodorod peroksidningyuqori konsentratsiyali eritmasi g'oyat beqaror bo'lib, u portlash bilan parchalanishi mumkin.

Vodorod peroksid kimyoviy jihatdan oksidlovchi va qaytaruvchi xossalarga ega. U oksidlovchi sifatida reaksiyaga kirishganda suv va kislorodga parchalanadi. Aynan shu xossalaridan shu dori vositasining sifatini ta'minlash jarayonida alohida e'tibor qaratish lozim.

Ish № 1. Vodorod peroksidning 3% eritmasini tahlili

Tekshiriluvchi material: 3% vodorod peroksidi eritmasini kimyoviy usullarda tahlil qilish va validatsiyalash orqali uslubni baholish

Reaktivlar:

1. efir
2. kalyi bixromat eritmasi
3. suyultirilgan xlorid kislotasi
4. suyultirilgan sulfat kislotasi
5. 0,1 mol/l kalyi permanganat eritmasi

Jihozlar:

1. Konussimon kolba
2. 100 mlli o'lchov kolbasi
2. 10 ml pipetka
3. Filtr qog'oz
4. Voronka
5. Titrlash uchun byuretka



Ishni bajarish bosqichlar:

No	<i>TADBIR</i>
1.	1 ml preparatga 0,2 ml sulfat kislotasi, 2 ml efir, 2 ml kalyi bixromat eritmasi solib . oxshilab chayqatilganda efir qatlami ko'k rangga bo'yaladi.
2.	10 ml preparatni 100mlli o'lchov kolbasiga solib, suv bilan belgisigacha etkaziladi.
3.	YUqoridagi uslubda tayyorlangan suyultirilgan eritmadan 10 ml pipetka yordamida inib. 5 ml suyultirilgan sulfat kislotasi qo'shiladi.
4.	Eritma 0,1 mol/l li kalyi permanganat eritmasi bilan suyuqlik pushti rangga kirkuncha rylanadi. $T= 0,00170 \text{ g/ml}$.
5	Titrlash 5 marta o'tkazilib, tahlil uslubini baholash uchuntahlil natijalari statistik qayta hlanadi.
6.	Laboratoriya ishlari daftarida qo'yilgan talablarga binoan rasmiylashtirish.

Nazorat savollari:

1. Analitik usullarning ishslash qobiliyatini tekshirish

2. Analitik usullar attestatsiyasi (validatsiyasi)
3. Tahlil usullarining attestatsiyadan o‘tkazish tavsiflari
4. Balk formadagi kimyoviy substansiylar uchun foydalaniladigan analitik usullarni attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari
5. Tayyor dori vositalari uchun foydalaniladigan analitik usullarni attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari
6. Analitik usullarga qo‘yilgan talablar


Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quality assurance of pharmaceuticals : a compendium of guidelines and related materials.Vol. 2, Good manufacturing practices and inspection. – 2nd ed. 2010 y.
2. Tarmoq standarti TSt 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002.
3. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.
5. V.N. Abdullabekova, A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev “Dori vositalarini sifatini ta’minalash” o‘quv qo‘llanmasi, Toshkent, 2016y.
(Toshkent, 2016. Ro‘yxatga olish raqami №26-107.OO‘MTV ning 2016 y 22 yanvar 26-sonli buyrug‘i).


8-laboratoriya mashg’uloti: Dori vositalarini sifatini baholashda qo‘llaniladigan farmakopeyaviy usullar. Chinlikni aniqlashdagi xromogen reaksiyalar. (rangli reaksiyalar)

Mashg’ulot maqsadi: Talabalarga chinlikni aniqlashdagi xromogen reaksiyalarni bajarish orqali sifatini ta’minalashni o‘rgatish.

Mavzuni asoslash: Sulfanilamid preparatlarining chinligini aniqlashga doir adabiyotda keltirilgan ko‘p sonli xilma-xil reaksiyalardan farmatsevtika tahlilida asosan .azobo‘yoq hosil kilish, galloidlash, og‘ir metall tuzlari (mis, kobalt va b.q) bilan rangli birikmalar hosil kilish reaksiyalar, hamda ularni termik parchalash natijasida hosil bo‘ladigan mahsulotlarning xususiyati bo‘yicha va preparatlar tarkibidagi oltingugurtni aniqlash reaksiyalaridan foydalaniladi. Bu reaksiyalar sulfanilamidlardagi S₄ holatdagi aromatik amino-NN₂ guruhi S₁ holatdagi sulfamid guruhi, benzol halqasidagi S₃ va S₅ holatdagi vodorodlarning o‘rin almashtirish qobiliyati va boshqa xossalariiga asoslangan. Azobo‘yoq hosil qilish reaksiyasi barcha sulfanilamid preparatlari chinligini aniqlashda umumiylashtirish reaksiya sifatida Davlat farmakopeyasiga kiritilgan. Bu reaksiya odatdagicha sulfanilamid preparatlaridagi aromatik amino guruhni kislotali muhitda natriy nitrit bilan diazotirlab, diazoniy tuziga o‘tkazish va keyinchalik uni β-naftolning natriy gidroksiddagi eritmasi ta’sirida qizil rangli azobo‘yoq hosil kilishga asoslangan.



Azobo'yoq hosil qilishda (Z-naftol o'rniiga boshqa fenol xarakteridagi birikmalar va M-(1-naftil)-etilendiamin gidroxlorid (I), N-fenil- α yoki β -naftilamin (II, III) olish mumkin.



S₄— holatdagi aminoguruhga turli radikallar birikkan sulfanilamid preparatlarini, jumladan eruvchan streptotsid, ftalazol va ftazinlarni azobo'yoq hosil qilish reaksiyasi bo'yicha aniqlashda, avval ularni suyultirilgan xlorid yoki sulfat kislotalari yordamida qizdirib, gidrolizlanadi.

Ish № 1: Papaverin gidroxlaridning chinligini rangli reaksiyalar asosida aniqlash orqali sifatini ta'minlash

Tekshiriluvchi material: Papaverin gidroxlorid

Reaktivlar:

1. nitrat kislota kons
2. sulfat kislota kons
3. atsetat natriy eritmasi

Jihozlar:

- 1 .Farfor idish
2. O'lchov probirka.
3. Filtr qog'oz



Ishni bajarish tartibi

Nº	Tadbir
1.	Farfor idishga 0.05g dori moddasi solinadi ,2 tomchi kons azot kislota o'shilganda sariq rang hosil bo'ladi.

2.	0.1g preparatga 1ml kons sulfat kislata qizdiriladi, binafsha rang hosil bo'ladi.
----	---

Nazorat savollari:

1. Dori vositalarining tahlilida qo'llaniladigan farmakopeyaviy usullar
2. Dori vositalarining tahlilida qo'llaniladigan nofarmakopeyaviy usullar
3. Dori vositalarining tahlilida qo'llaniladigan xromogen reaksiyalar. Misollar keltiring.
4. Azabo'yoq hosil bo'lish reaksiyasining kimyoviy tenlamasini yozing va mohiyatini tushuntiring.

Foydalanoladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

9-laboratoriya mashg'uloti: Dori vositalarini sifatini baholashda qo'llaniladigan farmakopeyaviy usullar. Chinlikni aniqlashdagi xromogen reaksiyalar. (cho'ktiruvchi reaksiyalar)

Mashg'ulot maqsadi: Talabalarga chinlikni aniqlashdagi cho'ktiruvchi reaksiyalarni bajarish orqali sifatini ta'minlashni o'rgatish.

Mavzuni asoslash: Magniy er po'stlog'ining 2,35 foizini tashkil qiladi. Tabiatda magniy birikmalar holida uchraydi. Ulardan magnezid — $MgCO_3$, dolomit — $MgCO_3 \cdot CaCO_3$, karnalit — $MgCl_2 \cdot K_2O \cdot 6N_2O$, kainit — $MgSO_4 \cdot KS_1 \cdot N_2O$, kizerit — $MgSO_4 \cdot H_2O$, talk $3MgO \cdot 4SiO_2 \cdot H_2O$, asbes — $CaO \cdot 3MgO \cdot SiO_2$ kabi mineral va silikatlar tabiatda keng tarqalgan. Fiziologik ta'siri jixatidan magniy ionlari bilan kalsiy ionlari bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ta'sirga ega. Masalan, organizmda magniy tuzlari bilan zaharlanganda narkoz yoki falaj keltirib chiqarsa, uni kalsiy tuzlari yordamida yo'qotish mumkin, aksincha, kalsiy tuzlaridan zaharlanganda magniy tuzlaridan foydalanoladi.

Magniy sulfatning 25% li sterillangan eritmasi tinchlantiruvchi, spazmalistik va tutqanokka qarshi dori sifatida 5—20 ml dan mushak orasiga yoki venaga yuboriladi. Uni 10—30 g dan surgi dori o'rnida ichish mumkin. Magniy preparatlari og'zi mahkam yopilgan idish-larda, havo namligi va karbonat angidridi ta'siridan extiyotlab saqlanadi.

№ 1: Magniy sulfat dori vositalarining chinligini cho'ktiruvchi reaksiyalar bilan aniqlash Tekshiriluvchi material: Magniy sulfatning 25% li eritmasi

Reaktivlar:

1. bariy xlorid eritmasi


Jihozlar:

- 1 . Probirkha
2. 1ml dagi o'lchamli pipetka.
3. Probirkali shtativ.



Ishni bajarish tartibi

Nº	Tadbir
1.	Probirkaga olinadi
2.	Probirkaga magniy sulfatning 1 ml eritmasiga 0.5ml bariy xlorid eritmasi olinadi
3.	Oq rangli cho'kma xosil bo'ladi



Nazorat savollari

1. Dori vositalarining sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan farmakopeyaviy usullar
2. Dori vositalarining sifatini ta'minlashda qo'llaniladigan nofarmakopeyaviy usullar
3. Dori vositalarining tahlilida qo'llaniladigan cho'ktiruvchi reaksiyalar. Misollar keltiring

Foydalaniadigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

10-laboratoriya mashg'uloti: Farmasevtik tahlilda buffer tizimlar.

Mashg'ulot maqsadi: Farmatsevtik tahlilda bufer tizimlarning qo'llanilishi bilan tanishtirish


Mavzuni asoslash: Kuchli kislota yoki kuchli asosning oz miqdori qo'shilganda rN qiymati deyarli o'zgarmaydigan eritmalar bufer eritmalar (bufer sistemalar) deb ataladi. Bufer eritma tarkibida bitta individual (toza) moda yoki moddalar aralashmasi bo'lishi mumkin. Individual (ayrim toza) moddalar bufer eritmalariga, masalan, kaliy gidroftalatning to'yingan eritmasi (25^0Sda rN=3,567), kaliy gidroftalatning suvdagi 0,05mol/l konsentratsiyali eritmasi (25^0Sda rN=4,008) natriy tetraborat (bura)ning suvdagi (0,05mol/l) eritmasi (25^0Sda rN=9,18 va 38^0Sda) rN=9,07) va x.k. Moddalar aralashmasidan iborat bufer sistemalarga (tizimlarga) quyidagi aralashmalarning suvli eritmalarini misol bo'ladi:

- Vodorod xlorid va glitsin:



(1,10-3,50 oralig'ida rNning berilgan qiymatini o'zgartirmasdan saqlaydi).

- Natriy gidroksid va kaliy gidroftalat



(4,0-6,20 oralig‘ida rNning berilgan qiymatini o‘zgartirmay saqlaydi)

- Kaliy digidrofosfat va natriy gidrofosfat





(4,80-8,00 oralig‘ida rNning berilgan qiymatini o‘zgartirmay saqlashi mumkin)

- Sirka kislota va natriy atsetat (atsetatli bufer)




(3,8-6,3 oralig‘ida rNning berilgan qiymatini o‘zgartirmay saqlay oladi)

pH qiymatini keng oralig‘ida $rN = 1,81 - 11,98$ uni o‘zgartirmay saqlay oladigan universal bufer tizimini ortofosfat, sirka, borat kislotalarning natriy gidroksid bilan aralashtirib tayyorlash mumkin. Ko‘p hollarda kuchsiz kislota va uning tuzi (masalan, chumoli kislota va natriy formiat $\text{NSOON} + \text{NSOONa}$ – formiatli bufer) yoki kuchsiz asos va uning tuzidan (masalan, ammiak va ammoniy xlorid $\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O} + \text{NH}_4\text{Cl}$) iborat bufer eritmalar ishlataladi. Eritma muhitini berilgan rN qiymatida o‘zgartirmasdan saqlaydigan bufer eritmani uning tarkibiy qismlarini hisoblangan miqdorlari aralashtirilib tayyorlanadi. Bufer tizimlarning ikki tipik turlarini ko‘rib chiqamiz: kuchsiz kislota va uning tuzidan iborat tizim hamda kuchsiz asos va uning tuzidan iborat tizim. Bunday tizimga sirka kislota SN_3SOON va uning tuzi natriy atsetat CH_3COONa aralashmasining suvli eritmasi – atsetatli bufer misol bo‘la oladi. Natriy atsetat (kuchli elektrolit bo‘lgani uchun) suvli eritmalarda ionlarga to‘liq ajralib ketadi, ammo sirka kislota (kuchsiz elektrolit bo‘lgani uchun) – kam ionlashadi:



Aralashmadagi ikkinchi muvozanat bir ismli atsetat ionlari ta’sirida chap tomonga keskin siljigan. Atsetatli bufer aralashmaning bufer ta’sirining mohiyati quyidagicha. Agar bufer aralashmaga kuchli kislotaning ozroq miqdori qo‘silsa, rN qiymatini keskin o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan vodorod N^+ ionlari atsetat ionlariga bog‘lanib deyarli dissotsilanmaydigan sirka kislotani hosil qiladi:



Natijada eritmadagi N^+ ionlar balansi (umumi muvozanat miqdori) o‘zgarmagani uchun eritmaning rN qiymati ham o‘zgarmaydi.

Agar atsetatli buferga ozroq ishqor qo‘silsa, ishqorning gidroksid ionlari sirka kislotaga birikishi $\text{OH}^- + \text{CH}_3\text{COON}^- = \text{CH}_3\text{COO}^- + \text{H}_2\text{O}$

natijasida eritmaning rN qiymati yana o‘zgarmay qoladi.

Atsetatli bufer eritmaning rN qiymatini hisoblaymiz. Sirka kislotasi dissotsiatsiyasining konsentratsion doimiysi:

$$K_a = \frac{[\text{H}_3\text{O}^+][\text{CH}_3\text{COO}^-]}{[\text{CH}_3\text{COOH}]}, \text{ bundan } [\text{H}_3\text{O}^+] = K_a \frac{[\text{CH}_3\text{COOH}]}{[\text{CH}_3\text{COO}^-]}$$

Sirka kislotaning dissotsiatsiya darajasi $\alpha \ll 1$ bo‘lgani uchun, sirka kislotasining muvozanat konsentratsiyasi uning dastlabki konsentratsiyasi s(SN_3SOON)ga teng, atsetat ionlarini muvozanat konsentratsiyasi $[\text{CH}_3\text{COO}^-]$ natriy atsetat umumi konsentratsiyasi s(CH_3COONa)ga teng:

$$[\text{SN}_3\text{SOON}] = s(\text{SN}_3\text{SOON}), [\text{SN}_3\text{SOO}^-] = s(\text{CH}_3\text{COONa})$$

Unda:

$$[\text{H}_3\text{O}^+] = K_a \frac{c(\text{CH}_3\text{COOH})}{c(\text{CH}_3\text{COONa})}$$

Tenglikni logarifmlab -1 ga ko‘paytiramiz:

$$-\lg [\text{H}_3\text{O}^+] = -\lg K_a - \lg \frac{c(\text{CH}_3\text{COOH})}{c(\text{CH}_3\text{COONa})}$$

Kursatkichlarga o‘tib, quyidagini xosil qilamiz:


$$pH = pK_a + \lg \frac{c(\text{CH}_3\text{COOH})}{c(\text{CH}_3\text{COONa})}$$

Umumi holda, bir asosli kuchsiz kislota (NV) va uning tuzlari KatV (Kat – bir zaryadli kation) dan iborat bufer sistema uchun quyidagi formulani yozish mumkin:


$$pH = pK_a + p \frac{C_a}{C_e} \quad (5.21)$$

tenglikdagi K_a – NV kislotaning dissotsiatsiya doimiysi, S_a va S_v tegishlicha NV kislota va uning KatV tuzi konsentratsiyalari.


Kuchsiz ko‘p asosli kislota va uning tuzidan iborat bufer sistemalar uchun ham aynan shunday fikrlar joiz. Ammiak va ammoniy xloridning suvdagi eritmasidan tarkib topgan ammiakli bufer aralashmani ko‘rib chiqamiz:



Ammoniy xloridi kuchli eletkrolit sifatida ionlarga yo‘liq ajraladi:




Ammiakning suvdagi eritmasi esa kuchsiz eletkrolit bo‘lgani sababli juda oz dissotsilanadi:




Agar ammiakli bufer aralashmaga ozgina kuchli kislota qo‘shilsa, eritmaning muhitini keskin o‘zgartirishi kerak bo‘lgan vodorod ionlari ammiak ionlanishidan hosil bo‘lgan gidroksil guruhlari bilan birikadi. Muvozanatdagi gidroksil ionlarini kamayishi suvli ammiakni dissotsiatsiyasini ortishi (muvozanatning o‘ngga siljishi) hisobiga muvozanatning yangi holati qaror topadi. Natijada bufer aralashmaning rN qiymati deyarli o‘zgarmaydi.

Agar ammiakli buferga ozgina ishqor qo‘shilsa, ishqorning gidroksil guruhlari ammoniy kationi bilan birikib, ayni sharoitda deyarli ionlashmaydigan kuchsiz elektrolit $\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$ hosil qiladi:



Shuning uchun ayni sharoitda eritmaning rN qiymati deyarli o‘zgarmaydi.

Ammiakli bufer aralashma rN qiymatini hisoblaymiz:



Muvozanatning konsentratsion doimiysi:

$$K_e = \frac{[\text{NH}_4^+] [\text{OH}^-]}{[\text{NH}_3]} \quad [\text{OH}^-] = K_e \frac{[\text{NH}_3]}{[\text{NH}_4^+]}$$

, bundan

Dissotsiatsiya darajasi juda kichik $\alpha \ll 1$ bo‘lgani uchun ammiakning muvozanatdagi konsentratsiyasi $[\text{NH}_3]$ uning dastlabki konsentratsiyasiga s (NH_3), ammoniy kationlarining muvozanatdagi konsentrsiyasi $[\text{NH}_4^+]$ esa taqriban ammoniy xlorid tuzining dastlabki konsentratsiyasiga s (NH_4Cl) teng:

$$[\text{NH}_3] \approx c(\text{NH}_3), [\text{NH}_4^+] \approx c(\text{NH}_4\text{Cl})$$

Unda gidroksil ionlarining muvozanatdagi konsentratsiyasi

$$[\text{OH}^-] = K_{\text{vs}}((\text{NH}_3)/c(\text{NH}_4\text{Cl}))$$

Ifodani logarifmlab, -1 ga ko‘paytirgach,

$$-\lg [\text{OH}^-] = -\lg K_e - \lg \frac{c(\text{NH}_3)}{c(\text{NH}_4\text{Cl})}$$

ko‘rsatkichlarda ifodalansa,

$$p\text{OH} = pK_e + p \frac{c(\text{NH}_3)}{c(\text{NH}_4\text{Cl})}$$

(5.7) ifodasini hisobga olib,

$$pH = 14 - p\text{OH} = 14 - pK_e - p \frac{c(\text{NH}_3)}{c(\text{NH}_4\text{Cl})}$$

Umumiy holda bir asosli kuchsiz asos V va uning tuzi BAn (An^- anion) dan tarkib topgan bufer aralashma uchun quyidagi formulani

$$pH = 14 - rK_v - r(S_v/S_a) \quad (5.22)$$

yozish mumkin, tenglamadagi rK_v – bir kislotali kuchsiz asosning (V) asoslik doimiysi, S_v va S_a tegishlicha kuchsiz asos V va uning tuzi VAn dastlabki konsentrasiyasi. Bir litr bufer eritma rN qiymatini bir birlikka o‘zgartirish uchun qo‘shiladigan kuchli kislota yoki kuchli asosning miqdori

bufer sig‘im deb ataladi.Davlat Farmakopeyasi XI nashrida (1 chiqarilishi 1987y) bufer sig‘imi quyidagicha ta’riflangan: «Bir litr eritmaga uning muhiti bir rN birligiga o‘zgarguncha qo‘shilgan kuchli asos (V)ning gramm ekvivalent miqdori eritmaning bufer sig‘imi (β) deyiladi ($\beta = \frac{d\text{B}}{dp\text{H}} \approx \frac{\Delta D}{\Delta \text{pH}}$).Bufer eritma tayyorlash uchun ishlataladigan distillangan suvning rN=5,8-7,0 oralig‘da bo‘lishi kerak. Kuchsiz kislota va uning tuzi eritmalaridan tarkib topgan bufer tizimning taqribiy bufer sig‘imini (suyultirilmagan eritmalarida) quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$\beta = 2,03 \frac{(C_a + C_e) K_a [H_3O^+]}{(K_a [H_3O^+])^2} \quad (5.23)$$

tenglikda S_a va S_v bufer aralashmadagi kuchsiz kislota (S_a) va uning tuzi (S_v) konsentratsiyalari; K_a – kislotaning dissotsiatsiya doimiysi, $[N_3O^+]$ – kuchli asos qo‘shilgunga qadar bufer aralashmadagi vodorod ioni konsentratsiyasi. Bufer eritmalar, qon, limfa va boshqa rN qiymatlari o‘zgarmasligi zarur bo‘lgan suyuqliklar muhitini doimiy saqlashda, binobarin tirik organizm xayot faoliyatini muvofiqlashtirish uchun ahamiyati g‘oyatda katta. Masalan, tegishli buferlar yordamida qonimizning rN qiymati doimiy 7,4 ga teng holda saqlanadi. Sifat va miqdoriy tahlilda ham eritmaning muhiti o‘zgarmasdan saqlanishi zarur bo‘lgan xollarda bufer eritmalaridan foydalanoladi. Masalan, ba’zi kationlarni (magniy Mg^{2+} , kalsiy Ca^{2+} , qo‘rg‘oshin Rb^{2+} va x.z.) kompleksonometrik aniqlash usulida ammiakli bufer ishlataladi.

Tekshiriluvchi material: Magniy sulfatning 25% li eritmasi

Reaktivlar:


1. ammiakli bufer
2. erioxrom qora (indikator)
3. Trilon B 0.05 mol


Jihozlar:

- 1 . O‘lchov probirkta
2. titrlash kolbasi
3. byuretka
4. tarozi

Ishni bajarish tartibi

Nº	Tadbir
1.	O‘lchov kolbasi olinadi
2.	5ml magniy eritmasini o‘lchov kolbasiga solinadi
3.	10ml suv, 5ml ammiakli bufer qo‘shiladi
4.	0.1g erixrom qora indikator qo‘shiladi
5.	Trilon B eritmasi bilan titrlanadi





I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.

3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.

4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

11-laboratoriya mashg'uloti: Faol farmasevtik substansiyalar sifatini ta'minlash. Sulgin substansiyasi tahlili

Mashg'ulot maqsadi: Talabalarga faol substansiyalar sifatini nazorat qilish orqali oxirgi mahsulotning sifatini ta'minlashni o'rgatish.

Mavzuni asoslash: Ko'pgina xorijiy davlatlarda substansiyalarga tayyor mahsulotlarni olishda foydalaniladigan yordamchi moddalar kabi xom-ashyo sifatida qaraladi. Ularni ba'zi xorijiy manbalarda faol ingridientlar deb atalmoqda. Bunga tibbiyot amaliyotida sanoatda ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalarining (95% gacha) hamda dorixonalarda ekstemporal tayyorlanadigan dori vositalarining (5% gacha) ishlatilayotganligi, shuning hisobiga substansiyalardan dori vositasi sifatida kam foydalanilayotganligi sabab bo'lmoqda. Shuning hisobiga substansiyalarning sifatiga e'tibor kamayib ketdi. Substansiyalarning sifatiga javobgarlik asosan tayyor dori vositalarini ishlab chiqarayotgan ishlab chiqaruvchilar zimmasiga yuklatilgan. Farmatsevtik mahsulot ishlab chiqaruvchilar turli yo'llar bilan olingan substansiyalarning fizik-kimyoviy va texnologik (yot aralashmalar, polimorfizm, kristallar ko'rinishi va b.) xususiyatlarini

o‘rganish yuzasidan izlanishlar olib bormoqdalar. Olingan natijalar asosida spetsifikatsiyalar tuzib chiqiladi.

Bugungi kunda substansiyalarning sifatiga qo‘yilayotgan talablar tayyor dori vositasining sifatiga qo‘yilayotgan talablar bilan bir qatorda oshib bormoqda: miqdori 0,1% dan ortiq bo‘lgan barcha organik yot moddalarni identifikasiyalash, o‘ta havfli aralashmalarni aniqlash, erituvchilar qoldig‘i, radionukleotidlar, og‘ir metallar va b. miqdorini aniqlash, shuningdek tahlil usullarni takomillashtirish, validatsiyalash, standart namunalardan foydalanish va h.k. Xorijda substansiylar tayyor dori vositalari kabi ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi. Ko‘pgina davlatlarda tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan substansiylar (listed) ro‘yxati mavjud. Ular o‘zi emas balki boshqa preparatlar tarkibiga kiritilgan holda ro‘yxatdan o‘tkaziladi. SHu bilan birgalikda, sanoati yuqori darajada rivojlangan davlatlarda ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talab etilayotgan hujjatlar tarkibida faol ingridientlarning sifat spetsifikatsiyasi, olinish manbai, olinish texnologiyasi, kirish nazorati kabi ma’lumotlar talab etiladi. Ko‘pincha tayyor dori vositasini ishlab chiqaruvchi korxona substansiyalarni sotib oladi. Bunda nazorat organiga substansiyalarni ishlab chiqaruvchi ta’minlovchi etishmayotgan hujjatlarni (drug master file-dori preparati uchun asosiy dos’e) taqdim etadi. Shu kabi hujjatlar yordamchi moddalar, yorliqlovchi mahsulotlar uchun ham tavsiya etiladi. eng qizig‘i shundaki bunday hujjatlar muvofiqlashtiruvchi organlar tomonidan tekshirilmaydi va tasdiqlanmaydi. Ammo ular ishlab chiqarish korxonalarga litsenziya berish va inspeksiya qilish turli industrial davlatlarda turlicha olib boriladi. Ba’zi davlatlarda (AQSH) litsenziya berilmaydi, lekin doimiy inspeksiya qilinadi. Ba’zi evropa davlatlarida (Finlyandiya, Angliya, Italiya) ham litsenziya beriladi, ham inspeksiya qilinadi. Sifatini nazorat qilish qoidalari turli davlatlarda turlicha, masalan AQSH da namunalar olish va ularni tekshirish shart, ayniqsa agar ular chet davlatlarida ishlab chiqarilgan bo‘lsa, Evropa davlatlarida esa xususiy laboratoriylar tomonidan substansiylar tanlab tekshiriladi.


Farmatsevtik ishlab chiqarishning 6 ta tizimi mavjud:

- xomashyo;
- joy va jihoz;
- ishlab chiqarish;
- tahlil laboratoriyasi;
- qadoqlash.


Mazkur mahsulotni ishlab chiqaruvchi davogar uning dozasi, shakli va texnologiyasi aynan ushbu preparat uchun yaroqli ekanligi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berishi kerak. Bunda faol farmatsevtik ingridient (FFI) haqida, to‘ldiruvchilar, qadoq va ishlab chiqarish to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Mazkur vositalar mahsulotning sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va natijada nazorat strategiyasini belgilab beradi.

p – Aminobenzoy kislota va uning hosilalari


Paraaminobenzoy kislota mikroorganizmlar sintezida qatnashuvchi foli kislotaning tarkibiy qismiga kiradi. Uning efirlari anestezin va novokain maxalliy og‘riq qoldiruvchi moddalar sifatida qo‘llanadi.



Anestezin



Kokain




Novokain

Anestezin bilan novokainning anestetiklik hossasi kokainnikidan kamroq, lekin ular ko'nikib qolish xolatini chaqirmaydi.

Yuqorida aytilgandek, p – aminobenzoy kislota mikroorganizmlar o'sishida ishtirok etadigan foliy kislota tarkibiga kiradi. Bu kislota etishmovchiligi yoki yo'qligida mikroorganizmlar haloq bo'ladi.

Sulfanil kislotaning amidi (sulfanilamid) streptotsid deyiladi va antibakterial xususiyatga ega bo'lgan sulfanilamid preparatlaring boshlovchisi xisoblanadi. U avvaliga bo'yoq moddalar sintezlanganda oraliq modda sifatida ajratib olinib, 1935 yilda uning antibakterial xususiyati aniqlangan.



Sulfanilamid (streptotsid)

Almashingan sulfanilamid

R- geteroxalqali o'rnbosar

Barcha sulfanilamidlar o'z tarkibida sulfamid SO_2NH_2 guruxini tutadi. Bu guruxni boshqa bir guruxga almashtirish moddaning antibakterial xususiyati yo'qolib ketishiga olib keladi. Almashtirganda ham faqat sulfamid guruxidagi bitta vodorodni boshqa bir uglevodorod radikaliga (ko'pincha geteroxalqalarga) almashtiriladi.

Para- holatdagi aminoguruxni ham almashtirib bo'lmaydi, benzol xalqasiga esa o'rnbosarlar kiritib bo'lmaydi, chunki ular birikmaning antibakteriallik xususiyatini kamaytiradi. Qisqa muddat ta'sir kiluvchi sulfanilamid prepa-ratlarning qonda maksimal qonsentratsiyasi 8 soatga etmasdanoq 50% ga kamayadi va 16 soat muddat ichida esa qabul qilingan miqdorning 50% siydk orqali chiqib ketadi. Davolashning boshlang'ich davrida bu guruh preparatlarning bir kunlik dozasi 4—6 g ni tashkil qilib, har 6 soatda qabul qilinadi.

O'rta va uzoq muddatli ta'sir kiluvchi preparatlarning qonda maksimal qonsentratsiyasi 8—16 va 24—48 soatda 50% kamayadi, qolgan 50% esa siydk orqali 16—24 va 24—56 soat ichida chiqib ketadi. O'rta muddatli tasir qiluvchi preparatlar bilan davolashning boshlang'ich bir kunlik doza 1—2 g bo'lib, uni har 8—12 soat davomida, uzoq muddat ta'sir ko'rsatuvchi

preparatlarping bir kunlik boshlang‘ich dozasi esa 1—0,5 g bo‘lib, uni har 24 soatda bir marta qabul qilinadi.

O‘ta uzoq muddat ta’sir kiluvchi sulfanilamid preparatlar, jumladan sulfalen organizmdan boshqa sulfanilamidlarga nisbatan sekin chiqib ketadi va uning qondagi maksimal qonsentratsiyasi 7 kun davomida saqlanib turadi. SHuning uchun har 7 kunda bir marta 1,5—2 g miqdorda qabul qilinadi. Uzok, va o‘ta uzok muddat ta’sir etuvchi sulfani-lamid preparatlar, odatda depo — sulfanilamidlar yoki prolongir xossali (ta’siri uzaytirilgan) sulfanilamidlar deyiladi.

Barcha sulfanilamid preparatlar p-aminobenzol sulfamid hosilasi bo‘lib, ularni kimyoviy tuzilishi jihatdan quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Sulfanilamidning S_4 holatdagi MN_2 guruh vodorodini turli radikallarga almashinilgan preparatlari (eruvchan streptotsid).

2. Sulfanilamidning S_1 holatdagi sulfamid $\text{S}=\text{NH}_2$ guruhidagi vodorodni turli radikallarga almashinilgan preparatlari (sulfatsil, uro-sulfan, sulgin, norsulfazol, sulfapiridazin, sulfadimetoksin, sulfalen, sulfametoksazol).

3. Sulfanilamidning S_1 holatdagi sulfamid $\text{S}=\text{NH}_2$ va S_4 holatdagi NN_2 guruhidagi vodorodlarning turli radikallarga almashinilgan preparatlari (ftalazol, ftazin).

4. Sulfanilamidning S_4 holatdagi NN_2 guruhini hisobga azobc $\text{S}=\text{NH}_2$ ilingan va S_1 — sulmid guruh vodorodning turli radikallarga almashinishida O gan preparatlar (salazosulfapiridazin, salazodimetoksin va boshqalar).

Nº 1. Sulgin substansiyasining chinligini aniqlash orqali sifatini ta’minlash

Tekshiriluvchi material: Sulgin substansiyasi

Reaktivlar:

- 1.0,1 mol/l natriy ishqori
2. fenolftalein
3. suyultirilgan xlorid kislotasi
4. 0,1 mol/l li natriy nitrit eritmasi
- 5.kristallik binafsha

Jihozlar:

1. Probirkali shtativ
2. Tomizgichlar



Ishni bajarish bosqichlari

Nº	Tadbir
1.	Modda birlamchi aomatik aminlarga xos reaksiyalarni beradi
2.	0,1 g quruq moddani probirkaga solib, gaz gorelkasida qizdiriladi, natijada qizil-nafsha rangli qotishma hosil bo‘ladi
3.	0,1 g moddaga 3 ml 0,1 mol/l natriy ishqori eritmasidan qo‘shib, 1-2 minut ayqatib eritiladi va 1-2 tomchi fenolftalein qo‘shilganda qizil rang hosil bo‘ladi
4.	0,25 g modda 9 aniq tortim) olib, 10 ml suvda eritiladi

5.	Eritmaga 10 ml suyultirilgan xlorid kislotasi qo'shiladi
6.	Eritma tropeolin indikatori ishtirokida nitritometrik usulda titrlanadi.
7.	Kuzatilgan natijalarini, reaksiya tenglamalarini va xulosalarni daftarga yozish

Tajribani qadamma-qadam bajarilishi



Probirka olinib
xosil bo'ladi

rangli eritma xosil bo'ladi
Nazorat savollari

1. Substansiyalar sifatiga ta'sir etuvchi omillarni keltiring.
2. Farmatsevtik ishlab chiqish nima?
3. Dori preparatini ishlab chiqish jarayonida inobatga olinishi kerak bo'lgan jihatlarni aytинг.
4. Dori vositalarining havfsizligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni aytинг.
5. Dori vositalari faolligiga ta'sir etuvchi sifat ko'rsatkichlarini aytинг.
6. Substansiyalar tarkibida uchraydigan yot aralashmalar nima?
7. Substansiyalar sifatini baholashda qo'llaniladigan tahlil usullarini tushuntiring.
8. Substansiyalarning polimorfizmi nima?
9. Substansiyalarning biologik tahlil usullarini tushuntiring.

Foydalanimadigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

12-laboratoriya mashg'uloti: Faol farmasevtik substansiyalar sifatini ta'minlash. Yurak glikozidlari guruhiga kirgan substansiya tahlili

Mashg'ulot maqsadi: Talabalarga yurak glikozidlari guruhiga kiruvchi faol substansiyalar sifatini nazorat qilish orqali oxirgi mahsulotning sifatini ta'minlashni o'rgatish.

Mavzuni asoslash: Bugungi kunda DV 90% xorijdan keltirilayotgan substansiyalar ishlab chiqarilmoqda (asosan, Xitoy va Hindiston davlatlari). Ma'lumki, DV sifati substansiyaning sifati bilan uzviy bog'liqdir. Substansiyalarning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu zarralar shakli va kattaligi, ularning polimorf xususiyatidir. Substansiyalarning kristallari katta, kichik va amorf

bo‘lishi mumkin. Moddalarning amorf ko‘rinishi kristallik turiga qaraganda rivojlangan yuzaga ega, shuning uchun ular havo kislorodi yoki namlik ta’siri natijasida tezlik bilan destruksiyaga uchraydi. USP substansiyalarning kristallik holatini mikroskop yordamida aniqlash usuli keltirilgan (97 monografiya). RF da esa u “Tasvirlanishi” ko‘rsatkichining ichiga kiritilgan va faqat ma’lumot uchun keltirilgan. Substansiyalarning polimorfligi ularning farmako-texnologik, biofarmatsevtik xususiyatlari va turg‘unligiga ta’sir ko‘rsatadi. Polimorf moddalar turlicha farmakologik faoliyka ega. Polimorfizm molekular massasi 350 dan kam va suvda kam eriydigan moddalarga xos. Masalan, karbomazalin, rimantadin gidroxlorid, indometatsin va b. Substansiyalarning ushbu holati rentgenostruktur va difraktometriya tahlil usullarida, shuningdek erish haroratini aniqlash yordamida amalga oshirniladi. Hozirda 140 taga yaqin moddalar uchun polimorfizm xosligi aniqlangan (indometacin, nimodipin, fenobarbital, pentobarbital, tetratsiklin gidroxlorid va b.). ISH Q6A da polimorflik xususiyatiga eag bo‘lgan substansiyalar uchun talablar keltirilgan. Unga ko‘ra agar dori moddasi uchun polimorflik aniqlangan bo‘lsa (elektron mikroskopiya, differensial skanerlash kolorimetriya usuli, termooptik tahlil, IQ-spektroskopiya, rentgenostruktur tahlil usullari yordamida), u holda ularning farqlari (eruvchanlik, erish harorati, turg‘unligi bo‘yicha) belgilangan va havfsizlik, faoliy va boshqa farmakologik xossalari o‘rganilgan bo‘ladi. Substansiyalarning polimorfligini nazorat qilishda “yot moddalar”, “eruvchanlik”, “moddalar turg‘unligin o‘rganish” usullaridan foydalilaniladi. Ma’lumki, tabletkalarni ishlab chiqarishda ta’sir etuvchi va yordamchi moddalarning sochiluvchanligi, to‘kiladigan massasi, presslanishi kabi ko‘rsatkichlar aniqlanadi. Bu ko‘rsatkichlar ularning zarralari kattaligi va dispersligi bilan bog‘liqdir. Masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri presslash usuli uchun izometrik shaklga ega bo‘lgan kristallar eng maqbul hisoblanadi. Aminalon tabletkalari uchun kristallar kichik bo‘lishi kerak. Glibenklamid uchun esa mikronizirlangan kristallar to‘g‘ri keladi. Xuddi shu holat atsetilsaltsil kislotasi uchun ham xos ekan, bunda uning qo‘srimcha xossasi kamayib farmakologik faolligi kuchayadi. Etambutol gidroxlorid (suvda yaxshi eriydi) va rifampitsin (suvda kam eriydi) shamcha va surtma tarkibidan ajralib chiqishiga zarralar kattaligi 65–90 mkm oralig‘ida bo‘lishi kerak. Agar zarralar kattaligi moddaning eruvchanligi, turg‘unligi, va biologik samaradorligiga ta’sir ko‘rsatib, mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasining kritik ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblansa, uni MH tarkibigi kiritish zarur. Moddalar dispersligi elash, mikroskopiya, zarralarning lazer analizatori, lazer difraktometriya usullari yordamida aniqlanadi.

Ish № 1: Strofantin K dori moddasini tahlilini o‘tkazish orqali sifatini ta’minlash

Tekshiriluvchi material: Strofantin K dori moddasini tahlili

Reaktivlar:

- 1.kons. sulfat kislotasi
- 2.sirka angidridi
- 3.natriy gidroksid eritmasi
- 4.95% spirt
- 5.nitroprussid natriy eritmasi

Jihozlar:

1. Probirkali shtativ.
2. Tomizgichlar.
3. Spirt lampasi



Ishni bajarish bosqichlari

Nº	Tadbir
----	--------

1	Probirka olinadi
2	1-2 mg preparat 1 ml sirka angidridida eritiladi.
3	Eritmaga 1 ml kons. sulfat kislotasi qo'shiladi
4	Sirka angidridining qatlami yashil rangga bo'yaganligi kuzatiladi.
5	1-2 mg preparatga 1 ml 95% spirt qo'shiladi.
6	1 ml nitroprussid natriy eritmasi, 1-2 tomchi natriy gidroksid eritmasi qo'shilganda qizil ng hosil bo'lganligi kuzatiladi
7	1-2 mg preparatga 2-3 tomchi kons. Sulfat kislotasi qo'shilganda yashil rang hosil bo'ladi.
8	Kuzatilgan natijalar va xulosalarni daftarga yozish



Nazorat savollari

1. Gistamin (depressor moddalar) ni aniqlash
2. Pirogenlik va bakterial endotoksinlarni aniqlash
3. Mikrobiologik tozalikni aniqlash
4. Substansiyalarning havfsizligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar va ularning tahlili
5. Organik erituvchilar qoldig'i ni aniqlash
6. Og'ir metallarning substansiyadagi ruxsat etilgan me'yorlari
7. Og'ir metallar me'yorini aniqlash va o'rnatish mezonlari

Foydalanimadigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

13-14-laboratoriya mashg'uloti: Vitaminlar guruhiba kirgan substansiyalar va dori vositalari tahlili

Mashg'ulot maqsadi: talabalarga vitaminlar guruhiba kiruvchi faol substansiyalar sifatini nazorat qilish orqali oxirgi mahsulotning sifatini ta'minlashni o'rgatish.

Mavzuni asoslash: Ko'pgina substansiyalar xiral moddalar hisoblanadi. Ularning ratsemat yoki enantiomerlari mavjud bo'lib, faqat bittasi DV tarkibiga kiritilgan.

Ratsematlarning farmakologik faolligi past, bitta enantiomer saqlagan DV kichik dozalarda chiqariladi (amlodipin besilat – levamlodipin, omeprazol – ezomeprazol va b.). EF da agar ham

ratsemat ham enantiomer ruxsat etilgan bo'lsa, ratsemat monografiyasiga "burish burchagi" ("testlar") hamda "identifikatlash" bo'limida esa kerakli havola beriladi. Agar faqat enantiomer berilgan bo'lsa, unda "identifikatlash" bo'limida "burish burchagi" yoki "enantiomer tozalik" testiga havola etiladi. Xiral birikmalar xiral suyuqlik xromatografiysi usuli yordamida aniqlanadi.

Substansiyalarning yana bir sifat ko'rsatkichlaridan biri bu ularning tozaligi (kimyoviy va mikrobiologik).

Kimyoviy yot moddalar (YOM) quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- organik (sintez va substansiyalar texnologiyasi bilan bog'liq bo'lган, parchalanish mahsulotlari):

- noorganik (sulfatlar, xloridlar);
- erituvchilar qoldig'i.

Agar ushbu test bilan organik YOM ni aniqlash imkonni bo'lmasa, u holda boshqa spetsefik test yordamida naiqlanadi.

EF va ISH Q6A da yo'riqnomalarida YOM ularning zaharliyligi, farmakologik faolligi, kunlik maksimal dozasi, qabul qilish davomiyligiga qarab kiritiladi. Agar YOM miqdori belgilangan me'yordan yuqori bo'lsa, uni nazorat etish talab etiladi. Agar uning miqdori $>0,10\%$ va kunlik maksimal dozasi $>1,0 \text{ mg}$ bo'lsa, u faqat identifikatsiya qilinadi.

Agar YOM miqdori belgilangan $>0,15\%$ yoki kunlik maksimal dozasi $>1,0 \text{ mg}$ bo'lsa, unda u faqat kvalifikatsiya qilinadi, ya'ni YOM ning biologik havfsizligi yoki belgilangan me'yordagi YOM larning profilini belgilovchi umumiy zaharliylik, genotoksik sinovlar, klinik muhim qo'shimcha ta'sirlari to'g'risida ma'lumotlar olinadi va baholanadi.

Noorganik yot moddalar substansiyalarning kimyoviy sintezi jarayonida foydalanilgan kuchli ishqor va kislotalar, katalizatorlar, jihozlarning elementlari, boshlang'ich mahsulot, reaktivlar, filtr materiallarning qoldiqlari va b.

Ushbu yot moddalar (xloridlar, sulfatlar) o'zi zaharli emas, ammo ularni aniqlash substansiyalarning tozaligini belgilaydi. Agar kationlarni individual aniqlash ehtiyoji bo'lmasa, unda "sulfatlari kul" (0,1% dan oshmasligi kerak) sinovi o'tkaziladi. Ba'zida kationlarni zaharli bo'langanlari sababli aniqlash talab etiladi "og'ir metallar" ko'rsatkichi qo'rg'oshin, qalay, vismut, kadmiy, kumush, mis, molibden, vanadiy, ruteniy, platina, palladiy va b. Ularni aniqlash usuli rangli cho'kmalarni (sulfidlar) hosil bo'lishiga asoslangan.

Agar DV 30 kundan kam bo'lgan muddatda qo'llanilsa, YOM ning yuqori me'yori belgilanadi. DV ni ishlab chiqarish jarayonida YOM lar yo'qligi isbotlangan bo'lsa, u holda doimiy tanlab o'tkaziladigan nazoratga almashtirilishi mumkin. Mazkur holatda DV ning 6 ta tajriba seriyasi yoki ketma-ketlikda ishlab chiqarilgan 3 ta sanoat seriyasi tarkibidagi YOM miqdori belgilangan me'yorning 30% dan oshmasligi to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etiladi.

Organik erituvchilar qoldig'i. Ushbu YOM me'yori organik erituvchilarning zaharliligi, har kundagi ruxsat etilgan miqdori, DV ning maksimal kunlik dozasi va davolinishning davomiyligi bilan aniqlanadi. Agar erituvchi 2 sinfga mansub bo'lib, undan foydalanish DM ni tozalash jarayonigacha ko'zda tutilgan bo'lsa va uning yo'qligi isbotlansa, erituvchi qoldig'ini nazorat qilish talab etilmaydi.

Odatda, substansiya xorijdan olinadi va uning ishlab chiqarilishi nazorat etilmaydi, shu sababli foydalanilgan barcha 1-va 2-sinf erituvchilari qoldig'ini nazorat qilish (gaz xromatografiysi) me'yoriy hujjatga kiritilishi shart. Dori moddalarning sifat ko'rsatkichlarini va/yoki havfsizligini kimyoviy, fizikaviy yoki fizik - kimyoviy usullar bilan bir qatorda biologik tahlil usullaridan ham foydalaniladi.

№1. Tiamin bromid substansiyasini tahlilini o'tkazish orqali sifatini ta'minlash

Tekshiriluvchi material: Tiamin bromid substansiyasi

Reaktivlar:

1. ferrotsianid kaliy

2. natriy ishqori
3. butil spirti

Jihozlar:

- 1 . Probirka
2. O‘lchov probirka
3. Kolba



Ishni bajarish tartibi

Nº	Tadbir
1.	Probirka olinadi
2.	Kolbaga 0.05g tiamin bromid solib, 25ml suvda eritiladi
3.	5ml eritmaga 1ml ferritsianid kaliy, 1ml natriy ishqor va 5ml butil spirti bo‘shiladi.
4.	Ultrabinafsha nurlarda eritmaning yuqori qatlamida ko‘k flyuoressensiya psil bo‘ladi.



Nazorat savollari

1. Vitaminlar deb qanday birikmalarga aytildi ?
2. Vitaminlarning tasniflanishi qanday ?
3. Vitaminlar guruhiga kiruvchi dori vositalarining hayotiy siklida sifatini tahminlash qanday amalgalash oshiriladi?

Foydalanimadigan adabiyotlar ro’yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minlash. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

15-16- laboratoriya mashg’uloti: Alkaloidlar guruhiga kirgan substansiylar va dori vositalari tahlili

Mashg’ulot maqsadi: talabalarga alkaloidlar guruhiga kiruvchi faol substansiylar sifatini nazorat qilish orqali oxirgi mahsulotning sifatini ta’minlashni o‘rgatish.

Mavzuni asoslash: Substansiyalarning havfsizligiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar va ularning tahlili o‘tkazish uchun qator usullardan foydalaniлади. Biologik tahlillar qo‘yilgan maqsadga qarab 2 sinfga ajratiladi:

- dori moddalar havfsizligini baholash uchun qo‘llaniladigan usullar;
- dori moddalarning biologik yoki farmakologik faolligini aniqlash usullari.

Birinchi guruh usullar umumiy farmakopeya maqolalarida keltirilgan bo‘lib, ular asosan dori moddalarning havfsizligini nazorat qilishda qo‘llaniladi.

Ikkinci guruh usullar esa har bir dori modda uchun individual bo‘lib, uning xususiy farmakologik xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi va dori moddaning miqdori uning (standart moddalardan foydalanib) faolligiga qarab baholanadi.

Mikrobiologik tozalik. Sterillik. Ushbu ko‘rsatkich substansiya steril dori shaklini olish uchun qo‘llanilganda tekshiriladi.

Ko‘pgina substansiyalar (neyrotrop, antidepressan, sedativ, antigistamin, gipotenziv va b.) mikrobiologik tozalikni tekshirish jarayonida antimikrob xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ularning antimikrob xususiyatlari test-shtammlarda o‘rganilishi shart, mikrobiologik tozalikni tekshirish jarayonida ularning antimikrob xususiyatini neytrallash lozim.

ICH yo‘riqnomasida “mikrobiologik tozalik” ko‘rsatkichini spetsifikatsiya tarkibiga kiritish, substansianing har bir seriyasini testdan o‘tkazish yoki tanlab nazorat qilishning “echim daraxti” usuli keltirilgan. Bungi kunda barcha chetdan kirib kelayotgan substansiyalarning mikrobiologik tozaligini tekshirish majburiydir.

Pirogenlik va bakterial endotoksinlar. Mazkur sinovlar parenteral (ineksiya uchun va infuzion) preparatlari yoki ularni tayyorlashga mo‘ljallangan substansiyalar uchun majburiy farmakopeyaviy test hisoblanadi va dori vositalining sifati hamda tegishli havfsizligini ta‘minlaydi. Sinov natijalari hattoki farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarining texnologik madaniyatining darajasini belgilaydi va undan texnologik jihozlar, shuningdek ba’zi tibbiyot texnikasining tozaligini tekshirishda foydalaniladi.

Pirogen moddalar yok pirogenlar bu – tashqaridan kirgan yoki organizmda hosil bo‘lgan bezgak yoki isitmani chaqiruvchi moddalardir. “Pirogen” – grekcha so‘z bo‘lib, “pyretos” – harorat, “pyros” – olov ma’nosini bildiradi. Bu ibora ilk bor 1876 - yil chirigan go‘shtdan olingan moddaga nisbatan qo‘llanilgan. 1923-yil ushu modda bakterial kelib chiqishga (bakterial endotoksinlar, kimyoiy jihatdan protein kompleksi - lipopolisaxaridlar) egaligi ekanligi va u qon tizimiga tushganda isitmani chaqirishi aniqlangan. Bakterial endotoksinlar mikroorganizmlarning hayoti va parchalanishidan hosil bo‘lib, ularning ta’siri juda kuchli, haroratning ko‘tarilib ketishiga hatto 10–9 ham etarlidir. Ushbu moddalar nafaqat isitma chaqiradi, balki organizmning immun tizimini ham ishdan chiqaradi.

Pirogenlikni aniqlash uchun quyonlardan foydalaniladi. Mazkur test ko‘pgina farmakopeyalarning tarkibiga kiritilgan. Ammo ushu usulning kamchiliklari bor, masalan:

- faqat sifat o‘zgarishlari (ruxsat beriladi yoki yo‘q), hayvonlarning holatiga bog‘liq;
- quyonlarda pirogenlarga individual sezgirlik mavjud, bu sezgir lik vaqtga qarab o‘zgarishi mumkin;

ba’zi inek’sion dori vositalari, texnologik jihozlar va materiallarning pirogenligini aniqlash mumkin emas: radiofarmatsevtik preparatlari, spetsifik haroratni ko‘taruvchi (vaksinalar, platsenta preparatlari, metilen ko‘ki va b.) yoki tushiruvchi (kalsiy glyukonat, kortikosteroidlar, neyroleptiklar va b.) preparatlari, hayvonlar fiziologik holatini o‘zgartirib yuboradigan preparatlari (narkoz uchun, tinchlantiruvchi va sedativ vositalar, yurak glikozidlari va b.) organizm sezgirligiga ta’sir etuvchi preparatlari va b.

Hozirda pirogenlikni aniqlashda yuqorida qayd etilgan usul bilan bir qatorda “bakterial endotoksinlar” testidan foydalilmoxda. Ushbu usul bakterial endotoksinlarni qonni ivishini chaqirishiga asoslangan.

LAL (Limulus Amebocyte Lysates)–test (gel–tromb test). Gramm-manfiy bakterial endotoksinlar (lipopolisaxaridlar) miqdorini aniqlash. LAL–test hozirgi kunda dori moddalarning pirogenligini aniqlashda eng ishonarli, kelajagi bor usul bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu usul yuqori sezgirlikka egaligi, oddiyligi, ishonchliligi, qaytaruvchanligi bilan katta ahamiyatga ega. Bunda sinovlar qisqa vaqt ichida bajariladi. Bu esa uning arzonligini ko‘rsatadi, shuningdek inektion dori moddalarni

ishlab chiqarishda pirogenligini bosqichma-bosqich nazorat etishga imkon beradi.

Amyobalar lizatining endotoksinlar bilan beradigan reaksiyasi 1964-yilda AQSH da aniqlangan bo‘lib, u amyobotsit *Limulus polyphemus* (qadimgi dengiz hayvoni-mechexvost) lizati va endotoksin o‘rtasidagi reaksiyaga asoslangan. *Limulus polyphemus* qon tomirlari ichiga bakteriyalarning kiritilishi qonning ivishiga va uning natijasida hayvonning o‘limiga olib kelgan. Reaksiya natijasida endotoksin lizatning loyqalanishiga olib keladi va gel hosil qiladi. Ilk bor bu test 1980-yilda AQSH ning XX Farmakopeyasiga “bakterial endotoksinlarni aniqlash” nomi bilan kiritilgan. LAL-test – tekshirilayotgan eritma tarkibidagi endotoksin miqdorini aniqlashga imkon beradi. Buning uchun noma’lum miqdorda endotoksin saqlagan eritmaning LAL-reaktiv bilan hosil qilgan reaksiyasi solishtiriladi. Konsentratsiya 1 ml (TB/ml) endotoksin birligida o‘lchanadi. LAL-test yana suvda kam eriydigan birikmalarning pirogenligini tekshirishda, farmatsevtik moddalarni tayyorlash, eritmalar, xom- ashyolarni validatsiyalash, standart (konsentratsiyasi aniq bo‘lgan) endotoksin eritmasi bilan hosil qilgan reaksiyasi bilan farmatsevtika ishlab chiqarishda, shuningdek bosqichli nazorat uchun ishlatiladi. Ushbu usulning kamchiliklaridan biri bu gramm-musbat bakterial endotoksinlar va nobakterial pirogen moddalarni aniqlash imkon yo‘qligidir.

Nafaqat DV balki substansiylar tarkibidagi pirogen moddalarni aniqlash zarur. Sababi ba’zi pirogen moddalar issiqlikka chidamli bo‘lib, ularni yuqori haroratda inaktivatsiya qilish kerak. Ammo steril DV ishlab chiqarishda bunday haroratni qo‘llab bo‘lmaydi. SHuningdek, ba’zi bakterial pirogenlar 2500C haroratda bosim ostida 30 minut davomida inaktivatsiyaga uchraydi. Ko‘pgina endotoksinlar kataklari 0,22 mkm membranali filtrlar orqali o‘tib ketadi.

Agar klinikagacha bo‘lgan sinovlar yordamida substansiyaning apirogenligini va ishlab chiqarish jarayonida nobakterial priogenlar bilan ifloslanmasligi isbotlangan bo‘lsa, u holda uning sifati LAL test usulida nazorat etiladi. Bu ma’lumotlar qayd etish dosesida keltirilgan bo‘lishi zarur. Me’yoriy hujjatlarda faqat bitta test: yoki pirogenlik, yoki bakterial endotoksinlarga o‘tkaziladi. “Anomal zaharliliylik” – belgilangan tartibda ruxsat etilgan zaharlilik me’yordan oshib ketish darajadir. DV ning sifati yomonlashganda anomal zaharlilik kuzatiladi. Bu ko‘rsatkichni aniqlashda sichqonlardan foydalilaniladi. Anomal zaharlilik 2 xil holatda kuzatilishi mumkin: fiziko-kimyoviy yo‘l bilan nazorat etiladigan va etilmaydigan. Birinchi holatda ta’sir etuvchi modda miqdorining oshib ketishi, texnologik yot moddalar, zaharli erituvchilar qoldiqlari, dori vositasini noto‘g‘ri saqlaganda hosil bo‘luvchi zaharli yoki noma’lum yot moddlar. Odatta, anomal zaharlilik qon, inson yoki hayvon a’zolari yoki to‘qimalardan, mikroorganizmlar yoki ularning hayoti davomida paydo bo‘luvchi mahsulotlar, dorivor o‘siliklardan olingan va parenteral DV olish uchun mo‘ljallangan substansiylarda tekshiriladi.

Shuningdek, DV ni ishlab chiqarish jarayonining GMP talablari asosida olib borilmagan taqdirda ushbu ko‘rsatkich aniqlanishi lozim.

Gistamin (depressor moddalar) ni aniqlash. Bu ko‘rsatkich faqat qon tomirlari ichiga yuboriladigan substansiylarda bemorlarning dori vositasini qabul qilganida arterial bosimni tushib ketishining oldini olish maqsadida aniqlanadi (ishlab chiqarish jarayonida bexosdan dori vositas tarkibida gipotenziv (depressor) modda hosil bo‘lishi ehtimoli).

Bunday hollarda hayvon va inson to‘qimalardan yoki mirobiologik sintez yo‘li bilan olingan organopreparatlar (antibiotiklar) ayniqsa havfli hisoblanadi. Ular tarkibida yuqori faol depressiv moddalar – gistamin, bradikinin, peptidlar va b. bo‘lishi mumkin. Masalan, platsenta ekstraktlari, antibiotiklar va b.

Gistaminga o‘xshash ta’sirni aniqlash dengiz cho‘chqasining ajratib olingan ichagida (gistamin) (1-usul) – *in vitro* olib boriladi. *in vitro* (2-usul) mushuklarda (depressor moddalar) 1-usulda olingan natijalarni to‘ldirish uchun olib boriladi.

Saqlanish muddati (3 yildan kam bo'lgan) 20% ga o'tib ketgan va muddati (3 yildan ko'p bo'lgan) 70% ga qolgan substansiyalardan DV ni ishlab chiqarishda foydalanishga ruxsat etilgan. Ammo xalqaro tajribaga ko'ra, faqatgina turg'un bo'lman, biologik/biotexnologik yo'l bilan olingan substansiylar va antibiotiklarning saqlanish muddati o'rnatiladi. Boshqa vaqtarda qayta nazorat davri (re-test period) belgilanadi. Agar u to'g'ri belgilangan tartibda saqlangan bo'lsa, bu davr ichida spetsifikatsiyada keltirilgan ko'rsatkichlar saqlanish jarayonida o'zgarmasligi kerak va bu substansiya DV ishlab chiqarishda ishlatilishi mumkin. Belgilangan davr o'tgandan so'ng substansiya MH talablari asosida to sifati yaroqsiz bo'lguniga qadar qayta tekshiriladi. Agar qayta nazorat davri o'rnatilgan bo'lsa, u holda ishlab chiqaruvchi substansianing sifatini har doim ham foydalanishdan oldin tekshirishi shart emas.

Nº 1. Papaverin gidroxloridning chinligini rangli reaksiyalar asosida aniqlash orqali sifatini ta'minlash

Tekshiriluvchi material: Papaverin gidroxlorid

Reaktivlar:

4. nitrat kislota kons
5. sulfat kislota kons
6. atsetat natriy eritmasi

Jihozlar:

- 1 .Farfor idish
2. O'chov probirka.
3. Filtr qog'oz



Ishni bajarish tartibi

Nº	Tadbir
1.	Farfor idishga 0.05g dori moddasi solinadi ,2 tomchi kons azot kislota shilganda sariq rang hosil bo'ladi.
2.	0.1g preparatga 1ml kons sulfat kislota qo'shib qizdiriladi, binafsha rang psil bo'ladi.



Nazorat savollari:

1. Alkaloidlar deb qanday birikmalarga aytildi ?
2. Alkaloidlarning tasniflanishi qanday ?
3. Alkaloidlar guruhiiga kiruvchi dori vositalarining hayotiy siklida sifatini tahminlash qanday amalgalash oshiriladi?

Foydalaniadigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

17- laboratoriya mashg’uloti: Standart operatsion jarayonlar (soj) ning dori vositalarini sifatini ta’minlashdagi ahamiyati

Ishdan maqsad: Farmatsevtik taxlil usullari uchun standart operatsion jarayonlar (SOJ) tuzish haqidagi bilimlarni rivojlantirish.

Masalaning qo‘yilishi: Farmatsevtik taxlil usullari uchun standart operatsion jarayonlar (SOJ) tuzish haqidagi bilimlarni rivojlantirish borasida olib boriladigan vazifalarni yoritib berish

Ishni bajarish uchun namuna

Magniy sulfatning 20% li yoki 25% li inyekzion eritmasi

Tarkibi: Magniy sulfat 200g yoki 250g

Inyekzion suv: 1000 ml gacha

Eritma filtirlanib, 5,10, 30, ml li neytral shishidan tayyorlangan ampulalarga solib , kavsharlangan avtoklavda 30 daqiqa davomida 100°C haroratda sterillanadi .

Tasvirlanishi : Rangsiz tiniq suyuqlik .

Chinligini aniqlash: 1 ml eritma bilan 10 ml gacha suyultirilib , magniy va sulfat ionlariga sifat reaksiysi qilinadi.

Magniy ioni: 1 ml eritmaga 1 ml ammoniy xlorid, 1 ml ammiak va 0,5 ml natriy fosfat eritmasi tomizilsa, suyultirilgan mineral kislotalarda eruvchi cho’kma xosil bo’ladi .

Sulfat ioni: 1 ml eritmaga 0,5 ml bariy xlorid eritmasidan tomizilsa . suyultirilgan mineral kislotalarda erimaydigan ok, rangli chukma xrsil buladi.

Miqdorini aniqlash.

I. Komplekszonometrik usul.

5 ml eritma 250 ml xajmli o’lchov kolbasida suv bilan suyultirilgach uning 10 ml ga 10 ml suv , 5 ml ammiakli bufer eritmasi, 0,1 g kislotali xrom qora indikator aralashmasi ko’shib, 0,05 mol Trilon B eritmasi bilan binafsha rangdan ko’k ranggacha titrlanadi. 1 ml 0,05 mol Trilon B eritmasi 0,01232 g. Magniy sulfatga mos kelib , uning 1 ml inyekzion eritmadagi miqdori 0,194-0,206 g yoki 0,242-0,258 g bo’lishi kerak.

$$X = \frac{V \cdot K \cdot T \cdot 250}{5 \cdot 10} = V \cdot K \cdot T \cdot 5$$

II. Refraktometrik usul,

Eritmaning 20° dagi nur sindirish kursatgichi aniqlanib, xisoblash formulasi va refraktometrik jadvalni interpolyatsiyalash orkali 1 ml preparatdagi magniy sulfatning gramm mikdori xisoblanadi

$$X = \frac{n - n_0}{F \cdot 100} \quad F=0.0009$$

n_D^{20}	C%
1,3500	18,90
1,3510	20,00
1,3520	21,10

n_D^{20}	C%
1,3550	24,40
1,3560	25,60

Kalsiy xloridning 10%li inyekcion eritmasi

Tarkibi: Kalsiy xlorid 100 g

Inyekcion suv 1000 ml gacha

Eritma filtrlanib 5 ml va 10 ml xajmli neytral shishadan tayyorlangan ampulaparga quyib, avtoklavda 15 - 20 datsisa davomida 120 °S xaroratda yoki 30 daqqa davomida 100°Sda bug' yordamida sterillanadi.

Tasvirlanishi: Rangsiz tiniq suyuqlik.

Chinligini aniqlash: 1 ml eritma tozalangan suv bilan 10 ml gacha suyultirilgach kalsiyga va xloridlarga sifat reaksiyalari qilinadi.

Kalsiy ioni: 1) 1 ml eritmaga 1 ml ammoniy oksalat eritmasidan qo'shib chayqatiladi. Suyultirilgan sirka kislota va ammiak eritmasida erimay suyultirilgan mineral kislotalarda eruvchi oq cho'kma xosil bo'ladi

1) Eritma bilan xullangan grafit tayoqcha rangsiz alangani och qizil rangga o'tkazadi.

Xlorid ioni: 2 ml eritmaga 0,5 ml suyultirilgan nitrat kislota va 0,5 ml kumush nitrat eritmasi qo'shilsa oq oynasimon cho'kma xosil bo'lib, cho'kma ammiak eritmasida eriydi.

Miqdorini aniqlash: Kompleksonometrik usul.

10 ml eritma 100 ml xajmli o'lchov kolbasiga solib, belgisigacha suv bilan suyultiriladi (A eritma).

10 ml A eritma konik kolbaga solinib, unga 25 ml suv 5 ml ammiakli bufer eritma, 0,1 g kislotali xrom to'q ko'k indikator aralashmasi qo'shilib, 0,05 mol trilon B eritmasi bilan ko'k binafsha ranga qadar titrlanadi.

1 ml 0,05 mol trilon B eritmasi 0,01095 g kalsiy xloridga mos kelib, 1 ml dori preparatidagi uning miqdori 0,095-0,105 g bo'lishi kerak.

$$X = \frac{V \cdot T \cdot K \cdot 100}{10 \cdot 10} = \frac{V \cdot T \cdot K \cdot 100}{100}$$

Refraktometrik usul:

Dori turining nur sindirish ko'rsatgichi aniqlanib, xisoblash formulasi va refraktometrik jadvalni interalliyatsiyalash orqali 1 ml eritmadagi kalsiy xloridning gramm miqdori xisoblanadi.

1. Priborning tozaligiga ishoch hosil qilish.
2. Barcha qismlarining to'liqligiga ishonch hosil qilish.
3. Yorug'lik tushib turgan joyga stol ustiga joylashtirish.
4. Hona haroratini o'lchash. Prizmani olib bir necha tomchi distillangan subning nur sindirish ko'rsatkichini o'lchash.
5. Prizmalarni tozalab tekshiriluvchi eritmadan tomizish.
6. Tekshiriluvchi eritmadan nur sindirish ko'rsatkichini o'lchash.
5. Ishni bajarish davomiga haroratni nazjrat qilish.
6. Tegishli formula yordamida nur sindirish ko'rsatkichidan foydalanib tekshiriluvchi eritmaning konsentratsiyasini aniqlash.

n_D^{20}	C%
1,3420	8,00
1,3440	9,20
1,3450	10,10
1,3460	10,9

208

$$X = \frac{n - n_0}{F}; \quad n_D^{20} = 1,3330$$

F =

Guruhanlar uchun topshiriqlar.

I – gurux vazifasi

1 Kalsiy xlориднинг 10%ли инъекцияни еритмаси чинлиги ва мидорини аниqlаш. SOJ тузиш.

II – gurux vazifasi

2. Magniy sulfatning 20% ли ўзгириши 25% ли инъекцияни еритмаси чинлиги ва мидорини аниqlаш. SOJ тузиш.

Keys

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablar va hal etish yo‘llarini jadval asosida izohlang (individual va kichik guruhdagi).

Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo‘llari

Laboratoriya ishlarini o’tkazish qoidalari va xavfsizlik choralarini

Kimyo laboratoriyalari faqatgina xavfsizlik texnikasi bilan tanishib maxsus jurnalga imzo qo‘ygan talabalarga kirib ishlashga ruxsat beriladi.

Laboratoriya ishiga tushishdan oldin talabalar texnika xavfsizligini tushungandan so‘ng ruxsat berilishi lozim:

- laboratoriya tozalik va texnika xavfsizligiga rioya qilish shart;
- laboratoriya bir kishi ishlashi mumkin emas, xonada kamida ikki kishi ishlashi lozim;
- kimyoviy reaktivlar qadog‘ida yozilgan ko‘rsatmalar asosida saqlanishi shart;
- ishni tugatgandan so‘ng ish joyini tozalash, kimyoviy qoldiqlarni neytrallash va idishlarni zararsizlantirish shart;
- kimyoviy reaktivlarning qoldig‘ini, organik erituvchilar va suvli kimyoviy moddalar eritmasini rakovinaga to‘kish mumkin emas. Bunday qoldiqlar maxsus idishlarga solinadi (shisha).

Laboratoriya ish joyida ovqatlanish va oziq ovqat maxsulotlarini saqlash man etiladi. Suv ichish va dori moddalarini mazasini tatib ko‘rish man etiladi. Moddalarni xidini zaxarli emasligiga ishonch xosil qilingandan so‘ng aniqlash mumkin. Laboratoriya xar doim quyidagini esda saqlash lozim: neorganik birikmalar toksik xususiyatga ega bo‘lganlari juda ko‘p va bundan tashqari alangada portlash xususiyatiga ega. Laboratoriya paxta matoli xalatda bo‘lish shart, ximoya ko‘zoynagi bo‘lishi shart. Zaxarli va o‘yuvchi ishqor, kislota moddalarini bilan ishlaganda ximoya qo‘lqopidan foydalanish shart. Laboratoriya stollarida shaxsiy buyumlarni qo‘yish, ustki kiyimlarni ilish va oyoq kiyimlarni qoldirish mumkin emas.

Eritmalarni qizdirish jarayonida probirkaning boshi devor tomonga qaratilishi lozim. Suvda yaxshi erimiyydigan va probirkada ozroq suv qolganda eritma toshib uchishi extimoli mavjud. Organik modda qatlami ostidagi suv qaynab otish extimoli mavjud. SHuning uchun probirka bosh qismini iloji boricha xech kim yo‘q tomonga qaratiladi.

Zaxarli xidli moddalar bilan ishlaganda xavo tortuvchi uskuna tagida ish bajarilishi lozim.

Ishqoriy er metallari, metallar va galogenlar bilan ishlagandan so'ng qoldig'i yo'qotilishi lozim. Kuydirilgan moddalar alangasini qum bilan uchirish lozim.

Shisha idishlar toza yuvilib, quritilishi shart. Organik erituvchilar bilan tozalab yuvib, quritilishi shart.

Idishlarni quritish shkafida temperatura 110-140°C da quriguncha qoldiriladi va shu yerda sovutiladi. Olovli spirtovka yoki elektroplitkada idishlarni quritish man etiladi.

Laboratoriya ishlarini o'tkazishda zarur asbob-uskunalar.

Laboratoriya ishini bajarish jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo'llaniladi: kolbalar, probirkalar, pipetkalar va analitik va texnik tarozilar.

Masala va mashqlar:

1.Oksafenamidni miqdorini Keldal usulida aniqlanganida 12,8 ml 0,1M xlorid kislotasi sarf bo'ldi. Oksafenamidni tahlil uchun olingan gramm miqdorini va titrini hisoblab topib, foiz miqdorini aniqlang. M.m=229,24, K=1,0090.

2.0,2508 g nikotin kislotasining dietilamidi miqdorini azotga nisbatan aniqlangan. Sarf bo'lган 0,1M xlorid kislotasini hajmini hisoblang. M.m=178,24, K=0,9890.

3.Metionin miqdorini azotga nisbatan tahlil qilinganida 6,85 ml 0,1M xlorid kislotasi sarf bo'ldi. Tahlil uchun olingan moddaning ekvivalentini, titrini, gramm miqdorini aniqlang. M.m=149,21, K=0,9905.

Nazorat savollari:

1.Dori vositalarining olinish jarayonida bosqichlar bo'yicha bajariladigan sifat nazoratida qo'llaniladigan zamonaviy usullar.

2.Spektrofometrik usulining dori vositalari tahlilida qo'llanilishi. Nazariy asoslari, hisoblash formulalari.

3.Refraktometrik usulning dori vositalari tahlilida qo'llanilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.«Dori vositalari sifat standartlarining asosiy qoidalari» Tst-42-01-2002

2.Davlat farmakopeyasining amaldagi nashrlari

3.Me'yoriy hujjatlar nusxalari

4.O'zR «Standartlash to'g'risidagi qonuni» 1993 yil 28 dekabr

5.O'zR «Dori vositalari va farmatsevtik faoliyati haqidagi qonun» 1997 yil 25 aprel

6.O'zR farmatsevtika faoliyati 2003, 2001 yy, I-III t.

7.Kasakin I.Vnedrenie standartov GMP i ISO.Remedium.2003g. YAnvar-Fevral. 82-83s.

8.Pleteneva T.V. i dr. Znachenie novykh mejdunarodnykh standartov v gosudarstvennykh sistemakh upravleniya kachestvom lekarstvennykh sredstv. Farmatsevtika jurnali, №3, 2003. 31-31b.

9.Arzamashev A.P. Osobennosti sistemy standartizatsii substansi v usloviyah tyinochnoy ekonomiki. Remedium.2006g. Sentyabr 57-59s


10.O'zbekiston Respublikasi SSV 2000 y 21.04.195 buyrugIshdan maqsad: Farmatsevtik taxlil usullari uchun standart operatsion jarayonlar (SOJ) tuzish haqidagi bilimlarni rivojlantirish.

18- laboratoriya mashg'uloti: Dori vositalarining hayotiy siklida sifatini ta'minlash

Ishdan maqsad: Dori vositalarining hayotiy siklida sifatini ta'minlash dolzarb masalalari. Sifat darajasining oshirilishi.

Masalaning qo'yilishi: Talabalarni dori vositalarining hayotiy siklida sifatini ta'minlashni o'rgatadi.

Papaverin gidroxlorid tabletkaları
Tabulettae Papaverini hydrochloridi 0,04



Tasvirlanishi: Oq rangli tabletka. Tashqi ko‘rinishi DF XI nashri 154 betda keltirilgan talablarga javob berishi kerak.

Chinligi 1. Miqdoriy tahlil uchun tayyorlangan filtratdan 5 ml olib (100 ml li) hajmi 100 ml bo‘lgan o‘lchov kolbasiga solinadi va 0,01 M xlorid kislotasi eritmasi bilan belgisiga keltiriladi. Olingan eritma ultrabinafsha spektrda 230-270 nm to‘lqin uzunligi oralig‘ida ko‘rliganda 251 ± 2 nm yuqori yutish ko‘rsatkichiga ega.

2. Miqdoriy tahlil uchun tayyorlangan eritmaning filtratidan 20 ml olib 50 ml xajmli o‘lchov kolbasiga solinadi. 0,01 M xlorid eritmasi bilan belgisigacha etkaziladi. Eritma ultrabinafsha spektrda 270-350 nm to‘lqin uzunligi oraligida tekshiriladi. 285 va 309 ± 2 nm to‘lqin uzunligida yuqori ko‘rsatkichiga ega.

3. 0,1 gr maydalangan tabletkaning kukuni farfor chashkaga o‘tkaziladi. 0,1 ml kons. HNO_3 kislotasi bilan namlanadi va suv xammomida qizdirilganda zarg‘aldoq rang xosil buladi. (papaverin)

4. Tabletkaning 0,2 gr maydalangan kukuniga 3 ml suv, 1 ml ammiak eritmasi qo‘shiladi va filtrlanadi. Filtrat xlorid ioniga xos reaksiyani beradi. (DF XI , 1- 159 bet).

O‘rtacha massasini aniqlash, parchalanuvchanligi va boshqa talablar.

Eruvchanligi.

Papaverin gidroxlorid eritmasi tarkibidagi modda miqdori (x) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$X = \frac{D_1 x 900 \times 25 \times a \times 5 \times 5 \times 100}{D_o \times 2 \times 250 \times 50 \times 25 \times 0,04} = \frac{D_1 \times 2250 \times a}{D_o}$$

Bunda, D_1 – nazorat eritmasining optik zichligi (V eritma);

D_o - standart eritmaning optik zichligi;

a - standart namunaning aniq tortmasi, gr.

45 min. o‘tgandan so‘ng tabletkadan eritmaga o‘tgan papaverin gidroxloridning miqdori 80 % dan kam bo‘lmasligi kerak.

Dozalar bir xilligi

Yot aralashmalari.

Mikrobiologik tozaligi.

Miqdoriy tahlili. 0,17g maydalangan tabletka kukuni olinib, (aniq tortma) 250 ml hajmli o‘lchov kolbasida 0,01 M xlorid kislota eritmasi bilan eritiladi va belgisiga keltiriladi. Eritma filtrlanib birinchi 10-15 ml tashlab yuboriladi. Keyin 10 ml filtrat hajmi 50 ml bo‘lgan kolbaga solinadi va 0,01M xlorid kislota eritmasi bilan belgisigacha keltiriladi. Olingan eritmaning optik zichligi 310 nm to‘lqin uzunligida katlam qalinligi 10 mm bo‘lgan kyuveta SF da aniqlanadi. Guvoh eritmasi sifatida 0,01 M xlorid kislota eritmasidan foydalaniladi. Bir vaqtning o‘zida papaverin gidroxloridning standarti (B eritma) namunasining optik zichligi aniqlanadi. 1 ta tabletka tarkibida papaverin gidroxloridning gramm miqdori (x) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$X = \frac{D_1 x 0,00002 \times 250 \times 50 \times b}{D_o \times 10 \times a} = \frac{D_1 \times 0,025 \times b}{D_o \times a}$$

Bunda, D_1 – tekshirilgan eritmaning optik zichligi ;

- D_o - standart namuna papaverin (B eritma) gidroxloridning
optik zichligi;
a - tortmaning gramm miqdori, gr;
b - tabletkaning o‘rtacha og‘irligi, gr.

Saqlanishi: B ro‘yxat bo‘yicha, yorug‘lik tushmaydigan joyda .

YAroqlilik muddati: 5 yil.

Ishlatilishi: spazmolitik vosita.

Keys

Askorbin kislotasi moddasi berilgan. Shu moddaga izoh bering. Moddaning tozaligini aniqlash usullarini kursating. Modda miqdorini aniqlang.

<i>moddaga izoh</i>	<i>tozaligini aniqlash usullari</i>	<i>miqdorini aniqlash usullari</i>	<i>usul aniqligi</i>

Guruhrular uchun topshiriqlar.

I – gurux vazifasi

1. Dori vositalarining tahlilida qo‘llaniladigan farmakopeyaviy usullar
2. Dori vositalarining tahlilida qo‘llaniladigan nofarmakopeyaviy usullar

II – gurux vazifasi

3. Analitik usullarning ishlash qobiliyatini tekshirish
4. Analitik usullar attestatsiyasi (validatsiyasi)

III – gurux vazifasi

5. Tahlil usullarining attestatsiyadan o‘tkazish tavsiflari
6. Balk formadagi kimyoviy substansiylar uchun foydalilaniladigan analitik usullarni attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari

Laboratoriya ishlarini o‘tkazish qoidalari va xavfsizlik choralarini

Kimyo laboratoriyalariga faqatgina xavfsizlik texnikasi bilan tanishib maxsus jurnalga imzo qo‘ygan talabalarga kirib ishlashga ruxsat beriladi.

Laboratoriya ishiga tushishdan oldin talabalar texnika xavfsizligini tushungandan so‘ng ruxsat berilishi lozim:

- laboratoriyyada tozalik va texnika xavfsizligiga rioya qilish shart;
- laboratoriyyada bir kishi ishlashi mumkin emas, xonada kamida ikki kishi ishlashi lozim;
- kimyoviy reaktivlar qadog‘ida yozilgan ko‘rsatmalar asosida saqlanishi shart;
- ishni tugatgandan so‘ng ish joyini tozalash, kimyoviy qoldiqlarni neytrallash va idishlarni zararsizlantirish shart;
- kimyoviy reaktivlarning qoldig‘ini, organik erituvchilar va suvli kimyoviy moddalar eritmasini rakovinaga to‘kish mumkin emas. Bunday qoldiqlar maxsus idishlarga solinadi (shisha).

Laboratoriya ish joyida ovqatlanish va oziq ovqat maxsulotlarini saqlash man etiladi. Suv ichish va dori moddalarini mazasini tatib ko‘rish man etiladi. Moddalarni xidini zaxarli emasligiga ishonch xosil qilingandan so‘ng aniqlash mumkin. Laboratoriya ishini bajarayotganda **mikro usulni qo‘llash tavsiya** etiladi.

Laboratoriya xar doim quyidagini esda saqlash lozim: neorganik birikmalar toksik xususiyatga ega bo'lganlari juda ko'p va bundan tashqari alangada portlash xususiyatiga ega. Laboratoriya paxta matoli xalatda bo'lish shart, ximoya ko'zoynagi bo'lishi shart. Zaxarli va o'yuvchi ishqor, kislota moddalari bilan ishlaganda ximoya qo'lqopidan foydalanish shart. Laboratoriya stollarida shaxsiy buyumlarni qo'yish, ustki kiyimlarni ilish va oyoq kiyimlarni qoldirish mumkin emas.

Eritmalarni qizdirish jarayonida probirkaning boshi devor tomonga qaratilishi lozim. Suvda yaxshi erimiydigan va probirkada ozroq suv qolganda eritma toshib uchishi extimoli mavjud. Organik modda qatlami ostidagi suv qaynab otilish extimoli mavjud. SHuning uchun probirkaga bosh qismini iloji boricha xech kim yo'q tomonga qaratiladi.

Zaxarli xidli moddalar bilan ishlaganda xavo tortuvchi uskuna tagida ish bajarilishi lozim.

Ishqoriy er metallari, metallar va galogenlar bilan ishlagandan so'ng qoldig'i yo'qotilishi lozim. Kuydirilgan moddalar alangasini qum bilan uchirish lozim.

SHisha idishlar toza yuvilib, quritilishi shart. Organik erituvchilar bilan tozalab yuvib, quritilishi shart.

Idishlarni quritish shkafida temperature 110-140S da quriguncha qoldiriladi va usha erda sovutiladi. Olovli spirtovka yoki elektroplitkada idishlarni quritish man etiladi.

Laboratoriya ishlarini o'tkazishda zarur asbob-uskunalar.

Laboratoriya ishini bajarish jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo'llaniladi: kolbalar, probirkalar, pipetkalar va analistik va texnik tarozilar.

Masala va mashqlar

1. Xinin sulfatning quruq modddagi nisbatan solishtirma nur burish burchagini hisoblab toping, agar 3% li 0,1 mol/l xlorid kislotadagi eritmasining nur burish burchagi - 7,8° teng. Quritishdagi xinin sulfatning massa yo'qotishi - 3,7% ni tashkil qildi.

2. Tetratsiklin hosilasi bo'lgan dori moddasining solishtirma nur burish ko'rsatkichi orqali chinligini aniqlang, agar 0,25 g tahlil qilinayotgan moddaning 25 ml 0,01 mol/l xlorid kislotadagi eritmasining nur burish burchagi -2,68° teng, kyuveta qalinligi 10 sm ga teng. Quritishdagi massa yo'qotishi 2,0 % tashkil qiladi.

Nazorat savollari

1. Dori vositalarining tahlilida qo'llaniladigan farmakopeyaviy usullar
2. Dori vositalarining tahlilida qo'llaniladigan nofarmakopeyaviy usullar
3. Dori vositalarining hayotiy sikkida sifatini ta'minlash
4. Papaverin gidroxlorid tabletkalari tahlili

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamонавиъ тahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

19- Laboratoriya mashg‘uloti: Dori vositalarini olishda foydalaniladigan xom-ashyo sifatini baholash

Ishdan maqsad: Na`matak mevalari tahlilini bajarish orqali dorivor o’simlik xom ashyosi asosida olingen dori vositalari sifatini nazorat qilishning o`ziga xos jihatlarini o`zlashtirish texnologiyalardan foydalanishini rivojlantirish.

Masalaning qo‘yilishi: Na`matak mevalari tahlilini Davlat Farmakopeyasi talablari asosida bajarish.

Ishni bajarish uchun namuna Na`matak (shipovnik) mevalari *Fructus Rozae*

Son ko‘rsatkichlari.

Askorbin kislotasi 0,2% dan kam; namligi 15% dan ko‘p; umumiy kuli 3% dan ko‘p; na`matakning qoraygan, turli o‘zgarishlarga uchragan bo‘laklari, shuningdek diametri 3 mm bo‘lgan elakdan o‘tadigan qismlari 3% dan ko‘p; organik yot moddalar 0,5 dan ko‘p; mineral yot moddalar 0,5% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Na`matak mevasi tarkibidagi askorbin kislotasi miqdorini aniqlash

Na`matakning tozalangan mevasidan tarozida 10 g (tozalanmagan mevadan 20 g) tortib olib, chinni havonchaga solinadi. Ustiga 5 g shisha bo‘lakchalardan hamda 300 ml suv (ozginadan bo‘lib-bo‘lib qo‘shiladi) solib, yaxshilab eziladi va 10 minutga qo‘yib qo‘yiladi. So‘ng aralashtirib, filtrlanadi. 100 ml hajmli konussimon kolbaga 1 ml filtratdan solib, unga 1 ml xlorid kislotaning 2% li eritmasidan va 13 ml suv qo‘shiladi hamda tez-tez chayqatib turib, 1 minut ichida o‘chmaydigan pushtirang hosil bo‘lgunga qadar, 2,6-dixlorfenolindofenolyat natriyning 0,001M eritmasi bilan titrlanadi. 1 ml 2,6-dixlorfenolindofenolyat natriy 0,000088 g askorbin kislotasiga to‘g‘ri keladi.

Askorbin kislotaning mutloq quritilgan mahsulotga nisbatan % miqdori (X) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$X = \frac{V * 0,000088 * 300 * 100 * 100}{m * 1 * (100 - W)}$$

Bunda: V – titrlash uchun sarf bo‘lgan 0,001M 2,6-dixlorfenolindofenolyat natriy eritmasining miqdori, ml;

m – tahlil uchun olingen mahsulotning miqdori, g;

W – mahsulotning foizda ifodalangan namligi.

Askorbin kislotasining bir necha (3-5) kristali (aniq tortma) 50 ml 2% sulfat kislotasi eritmasida eritiladi; 5 ml tayyorlangan eritma 2,6-dixlorfenolindofenolyat natriy eritmasi bilan mikrobyuretkadan pushti ranggacha titrlanadi.

Boshqa 5 ml askorbin kislotasining eritmasi kaliy yodidning bir necha kristali (2 mg atrofida) ishtirokida 0,001 mol/l kaliy yodat eritmasi bilan havo ranggacha titrlanadi (kraxmal indikatori ishtirokida).

Mavzuni o`zlashtirishda “CHARXPALAK” treningidan foydalaniladi

AQLIY HUJUM UCHUN SAVOLLAR

1. Dorivor o’simlik xom ashyosi va fitopreparatlarning xozirgi kundagi axamiyati
2. Dorivor o’simlik xom ashyosi taxlili
3. Sanoatda ishlab chiqariladigan fitopreparatlar taxlilining o’ziga xos tomonlari
4. Dorivor o’simlik xom ashyosi va fitopreparatlar taxlilining xozirgi kundagi muammolari

Guruqlar uchun topshiriqlar.

I – guruh vazifikasi

1. Dorivor o’simlik xom ashyosi va fitopreparatlarning xozirgi kundagi axamiyati
2. Sanoatda ishlab chiqariladigan fitopreparatlar taxlilining o’ziga xos tomonlari

II – guruh vazifikasi

1. Dorivor o’simlik xom ashyosi taxlili

2.Dorivor o'simlik xom ashyosi va fitopreparatlar taxlilining xozirgi kundagi muammolari

III – guruh vazifasi

1. Tahlil natijalarini o'rtacha arifmetik qiymatini topish formulasini va mohiyatini misollarda tushuntiring?

2. Ayrim aniqlashdagi standart chetlanish formulasini yozing. Bu kattalik tahlildagi qanday xatoliklarni aniqlash imkoniyatini beradi? Misollar keltiring.

«CHARXPALAK» TRENINGI

№	Dorivor o'simlikxom-ashyosi va fitopreparatlar taxlil kursatkichlari	Turli xil alomatlar		
		Mazmuni	Aniqlash formularsi	Axamiyati
1	Zichlik			
2	Namlik			
3	Kuruk koldik			
4	Ekstraktiv moddalar			
5	Spirt mikdori			

Keys

Berilgan 100,0 g o'simlik xomashyosidan alkaloidlar yig'indisining efirli qismi 0,12 g, xloroformli qismi 0,30 g bo'lsa, xom ashyo namligining 8,3% ligini hisobga olgan holda, alkaloidlar yig'indisining foiz miqdorini toping.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

Keysdagি muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablar va hal etish yo'llarini jadval asosida izohlang (individual va kichik guruhda).

Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo'llari

Laboratoriya ishlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choraları.

Kimyo laboratoriyalariga faqatgina xavfsizlik texnikasi bilan tanishib maxsus jurnalga imzo qo'ygan talabalarga kirib ishlashga ruxsat beriladi.

Laboratoriya ishiga tushishdan oldin talabalar texnika xavfsizligini tushungandan so'ng ruxsat berilishi lozim:

- laboratoriya tozalik va texnika xavfsizligiga rioya qilish shart;
- laboratoriya bir kishi ishlashi mumkin emas, xonada kamida ikki kishi ishlashi lozim;
- kimyoviy reaktivlar qadog'ida yozilgan ko'rsatmalar asosida saqlanishi shart;
- ishni tugatgandan so'ng ish joyini tozalash, kimyoviy qoldiqlarni neytrallash va idishlarni zararsizlantirish shart;
- kimyoviy reaktivlarning qoldig'ini, organik erituvchilar va suvli kimyoviy moddalar eritmasini rakovinaga to'kish mumkin emas. Bunday qoldiqlar maxsus idishlarga solinadi (shisha).

Laboratoriya ish joyida ovqatlanish va oziq ovqat maxsulotlarini saqlash man etiladi. Suv ichish va dori moddalarini mazasini tatib ko'rish man etiladi. Moddalarni xidini zaxarli emasligiga ishonch xosil qilingandan so'ng aniqlash mumkin. Laboratoriya ishini bajarayotganda **mikro usulni qo'llash tavsiya** etiladi.

Laboratoriya xar doim quyidagini esda saqlash lozim: neorganik birikmalar toksik xususiyatga ega bo‘lganlari juda ko‘p va bundan tashqari alangada portlash xususiyatiga ega. Laboratoriya paxta matoli xalatda bo‘lish shart, ximoya ko‘zoynagi bo‘lishi shart. Zaxarli va o‘yuvchi ishqor, kislota moddalari bilan ishlaganda ximoya qo‘lqopidan foydalanish shart. Laboratoriya stollarida shaxsiy buyumlarni qo‘yish, ustki kiyimlarni ilish va oyoq kiyimlarni qoldirish mumkin emas.

Eritmalarni qizdirish jarayonida probirkaning boshi devor tomonga qaratilishi lozim. Suvda yaxshi erimiydigan va probirkada ozroq suv qolganda eritma toshib uchishi extimoli mavjud. Organik modda qatlami ostidagi suv qaynab otlish extimoli mavjud. Shuning uchun probirka bosh qismini iloji boricha xech kim yo‘q tomonga qaratiladi.

Zaxarli xidli moddalari bilan ishlaganda xavo tortuvchi uskuna tagida ish bajarilishi lozim.

Ishqoriy er metallari, metallar va galogenlar bilan ishlagandan so‘ng qoldig‘i yo‘qotilishi lozim. Kuydirilgan moddalari alangasini qum bilan uchirish lozim.

Shisha idishlar toza yuvilib, quritilishi shart. Organik erituvchilar bilan tozalab yuvib, quritilishi shart.

Idishlarni quritish shkafida temperature 110-140⁰S da quriguncha qoldiriladi va usha erda sovutiladi. Olovli spirtovka yoki elektroplitkada idishlarni quritish man etiladi.

Laboratoriya ishlarini o‘tkazishda zarur asbob-uskunalar.

Laboratoriya ishini bajarish jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo’llaniladi: kolbalar, probirkalar, pipetkalar va analistik tarozilar.

Masala va mashqlar:

1. Gentamitsin sulfat solishtirma nur burish burchagi ko‘rsatkichi bo‘yicha farmakopeya maqolasi talabga javob berishini aniqlang, agar 1% li eritmasining nur burish burchagi kyuvetaning qalinligi 20 sm bo‘lganida +2,12° teng (+107° dan +121) ° gacha bo‘lishi kerak.

2. 0,25% li ampitsillinning natriyli tuzini 0,02 mol/l gidroftalat kaliydag‘i eritmasini solishtirma nur burish ko‘rsatkichini toping. Agar nur burish burchagi kyuvetaning qalinligi 20 sm da +1,38 teng bo‘lsa. Olingan natijani farmakopeya maqolasi talabiga binoan baholang (+258° dan 287° gacha bo‘lishi kerak)

3. Kamforani solishtirma nur burish burchagi bo‘yicha chinligini aniqlang, agar 10 % tahlil qilinayotgan muddaning 95% etanoldagi eritmasi kyuveta qalinligi 20 sm da -7,8° teng bo‘lsa. Pixta moyi tarkibidagi chapga buruvchi kamforaning solishtirma nur burish burchagining qiymati -39° dan -44° gacha, skipidar tarkibidagi ratsemat xolidagi kamforaning esa -1,° dan +1,0° gacha.

Nazorat savollari

1. Qanday dori darmonlarga fitopreparatlar deyiladi?
2. Fitopreparatlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Xlorid kislotada erimaydigan kulni aniqlashni bayon eting?
4. O‘simlik xomashyosi tarkibidagi kanday moddalari gravimetrik usul bilan aniqlanadi?

Misollar keltiring

5. Dorivor o‘simlik xomashyosining maydalanganligi darajasini aniqlash usulini tushuntiring
6. Na’matak mevalari tarkibidagi askorbin kislotasini chinligi va miqdorini aniqlash reaksiya tenglamalarini yozing.
7. Dorivor o‘simlik xomashyosi tarkibidagi oshlovchi moddalari miqdori qanday aniqlanadi?

Foydalilanidigan adabiyotlar ro’yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minlash. 2017.

2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

20 - Laboratoriya mashg'uloti: Tabiiy xom ashyodan tayyorlangan dori vositalari sifatini ta'minlash. Dori vositalari sifatini ta'minlash bosqichlari arslonquyruq nastoykasi tahlili misolida

Ishdan maqsad: Arslonquyruq nastoykasi tahlilini bajarish orqali dorivor o'simlik xom ashyosi asosida olingen dori vositalari sifatini nazorat qilishning o'ziga xos jihatlarini o'zlashtirish texnologiyalardan foydalanishini rivojlantirish.

Masalaning qo'yilishi: Arslonquyruq nastoykasi tahlilini Davlat Farmakopeyasi talablari asosida bajarish

Arslonkuyruk nastoykasi Tinctura Leonure

Tasvirlanishi. Yashil – kungir rangli, achchik mazaga va o'ziga xos xushbuy xidga ega bo'lgan suyklik.

Chinligi. 1 ml nastoykaga 0,5 ml 2% li vanilinning spirtli eritmasi va 7 tomchi kontsentrlangan sulfat kislotadan kushib suvli xammomda 30 sek davomida qizdiriladi; kizil rang xosil bo'ladi (iridoidlar):

Probirkaga 1 ml streptotsidning sulfat kislotadagi 0,5% li eritmasidan, 2 ml 0,2% natriy nitrit eritmasidan kushib 2 min davomida chaykatiladi. Sunga 1,5 ml nastoykadan va 1 ml 10% li natriy gidroksidi eritmasidan qo'shiladi; zargaldok rang xosil bo'ladi (flavonoidlar).

Spirt miqdori. 64% dan kam bo'lmasligi kerak.

Zichligi 0,858 dan 0,948 gacha bo'lishi kerak (GF SSSR XI, выр. 1, 24 б., 1 usul).

Kuruk koldik. 1,4% dan kam bo'lmasligi kerak.

Ogil metallar. 0,001% dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Miqdoriy taxtil. Flavonoidlar miqdori SF usulda rutinga nisbatan aniqlanadi.

Flavonoidlar yig'indisining rutinga nisbatan xisoblangandagi miqdori quyidagi formula yordamida xisoblanadi:

$$X = \frac{a \cdot V_2 \cdot D_1 \cdot 100}{V_0 \cdot D_0 \cdot V_1}$$

Bu erda: a – rutin - standart namunasining ogirligi, g;

V₀ – ISN eritmasining umumiy xajmi, ml;

V₁ – tindirmaning eritma tayyorlash uchun olingen xajmi, ml;

V₂ – ISN eritmasining alikvot xajmi, ml;


D₀ – ISN ishchi eritmasining optik zichligi;

D₁ – tekshiriluvchi eritmaning optik zichligi.

Flavonoidlar yig'indisining miqdori 1% dan kam bo'lmasligi kerak.

VENNA DIAGRAMMASI





- * **VENNA DIAGRAMMASI**- 2-3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi.
- Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- Diagramma Venna tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida kichik guruhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to'ldiradilar.
- Juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar
- Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki (XX) yoki uch (XXX) doiralar uchun umumiy

Olingan bilimlarni tekshirish uchun savollar

1. Qanday dori darmonlarga fitopreparatlar deyiladi?
2. Fitopreparatlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Xlorid kislotada erimaydigan kulni aniqlashni bayon eting?
4. O'simlik xomashyosi tarkibidagi kanday moddalar gravimetrik usul bilan aniqlanadi?

Misollar keltiring

5. Dorivor o'simlik xomashyosining maydalanganligi darajasini aniqlash usulini tushuntiring
6. Arslonquyruq nastoykasi tarkibidagi ta'sir qiluvchi moddaning chinligi va miqdorini aniqlash reaksiya tenglamalarini yozing.
7. Dorivor o'simlik xomashyosi tarkibidagi oshlovchi moddalar miqdori qanday aniqlanadi?

Laboratoriya ishlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralari.

Kimyo laboratoriyalariga faqatgina xavfsizlik texnikasi bilan tanishib maxsus jurnalga imzo qo'yan talabalargina kirib ishlashga ruxsat beriladi.

Laboratoriya ishiga tushishdan oldin talabalar texnika xavfsizligini tushungandan so'ng ruxsat berilishi lozim:

- laboratoriyada tozalik va texnika xavfsizligiga rioya qilish shart;
- laboratoriyada bir kishi ishlashi mumkin emas, xonada kamida ikki kishi ishlashi lozim;
- kimyoviy reaktivlar qadog'ida yozilgan ko'rsatmalar asosida saqlanishi shart;
- isjni tugatgandan so'ng ish joyini tozalash, kimyoviy qoldiqlarni neytrallash va idishlarni zararsizlantirish shart;

· kamyoviy reaktivlarning qoldig‘ini, organik erituvchilar va suvli kamyoviy moddalar eritmasini rakinaga to‘kish mumkin emas. Bunday qoldiqlar maxsus idishlarga solinadi (shisha).

Laboratoriya ish joyida ovqatlanish va oziq ovqat maxsulotlarini saqlash man etiladi. Suv ichish va dori moddalarini mazasini tatib ko‘rish man etiladi. Moddalarni xidini zaxarli emasligiga ishonch xosil qilingandan so‘ng aniqlash mumkin. Laboratoriya ishini bajarayotganda **mikro usulni qo‘llash tavsiya** etiladi.

Laboratoriya xar doim quyidagini esda saqlash lozim: neorganik birikmalar toksik xususiyatga ega bo‘lganlari juda ko‘p va bundan tashqari alangada portlash xususiyatiga ega. Laboratoriya paxta matoli xalatda bo‘lish shart, ximoya ko‘zoynagi bo‘lishi shart. Zaxarli va o‘yuvchi ishqor, kislota moddalar bilan ishlaganda ximoya qo‘lqopidan foydalanish shart. Laboratoriya stollarida shaxsiy buyumlarni qo‘yish, ustki kiyimlarni ilish va oyoq kiyimlarni qoldirish mumkin emas.

Eritmalarni qizdirish jarayonida probirkaning boshi devor tomonga qaratilishi lozim. Suvda yaxshi erimiydigan va probirkada ozroq suv qolganda eritma toshib uchishi extimoli mavjud. Organik modda qatlami ostidagi suv qaynab otilish extimoli mavjud. SHuning uchun probirka bosh qismini iloja boricha xech kim yo‘q tomonga qaratiladi.

Zaxarli xidli moddalar bilan ishlaganda xavo tortuvchi uskuna tagida ish bajarilishi lozim.

Ishqoriy er metallari, metallar va galogenlar bilan ishlagandan so‘ng qoldig‘i yo‘qotilishi lozim. Kuydirilgan moddalar alangasini qum bilan uchirish lozim.

SHisha idishlar toza yuvilib, quritilishi shart. Organik erituvchilar bilan tozalab yuvib, quritilishi shart.

Idishlarni quritish shkafida temperature $110\text{-}140^{\circ}\text{S}$ da quriguncha qoldiriladi va usha erda sovutiladi. Olovli spirtovka yoki elektroplitkada idishlarni quritish man etiladi.

Laboratoriya ishlarini o’tkazishda zarur asbob-uskunalar.

Laboratoriya ishini bajarish jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo‘llaniladi: kolbalar, probirkalar, pipetkalar va analistik va texnik tarozilar.

Masala va mashqlar:

1. Gentamitsin sulfat solishtirma nur burish burchagi ko‘rsatkichi bo‘yicha farmakopeya maqolasi talabga javob berishini aniqlang, agar 1% li eritmasining nur burish burchagi kyuvetaning qalinligi 20 sm bo‘lganida $+2,12^{\circ}$ teng ($+107^{\circ}$ dan $+121^{\circ}$) gacha bo‘lishi kerak.

2. 0,25% li ampitsillinning natriyli tuzini 0,02 mol/l gidroftalat kaliydagи eritmasini solishtirma nur burish ko‘rsatkichini toping. Agar nur burish burchagi kyuvetaning qalinligi 20 sm da $+1,38^{\circ}$ teng bo‘lsa. Olingan natijani farmakopeya maqolasi talabiga binoan baholang ($+258^{\circ}$ dan 287° gacha bo‘lishi kerak)

3. Kamforani solishtirma nur burish burchagi bo‘yicha chinligini aniqlang, agar 10 % tahlil qilinayotgan moddaning 95% etanoldagi eritmasi kyuveta qalinligi 20 sm da $-7,8^{\circ}$ teng bo‘lsa. Pixta moyi tarkibidagi chapga buruvchi kamforaning solishtirma nur burish burchagining qiymati -39° dan -44° gacha, skipidar tarkibidagi ratsemat xolidagi kamforaning esa -1° dan $+1,0^{\circ}$ gacha.

Nazorat savollari

1. Qanday dori darmonlarga fitopreparatlar deyiladi?
 2. Fitopreparatlarning qanday turlarini bilasiz?
 3. Xlorid kislotada erimaydigan kulni aniqlashni bayon eting?
 4. O‘simglik xomashyosi tarkibidagi kanday moddalar gravimetrik usul bilan aniqlanadi?
- Misollar keltiring
5. Dorivor o‘simglik xomashyosining maydalanganligi darajasini aniqlash usulini tushuntiring

6. Arslonquyruq nastoykasi tarkibidagi ta'sir qiluvchi moddaning chinligi va miqdorini aniqlash reaksiya tenglamalarini yozing.

7. Dorivor o'simlik xomashyosi tarkibidagi oshlovchi moddalar miqdori qanday aniqlanadi?

Foydalanimadigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.

2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.

3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.

4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

21-Laboratoriya mashg'uloti: Steril dori turlarini ishlab chiqarishda sifatini ta'minlash. Tozalangan suv tahlili

Ishdan maqsad: Steril dori turlarini ishlab chiqarishda sifatini ta'minlash. Novokain, kalsiy glyukonat sifatiga quyilgan talablar. In'eksion dori turlarining nomi, preparatning nomi, tarkibi, sterillash va quyish sharoiti, chinligi, tinikligi, rangliligi, pH muxiti yoki kislotaliligi, ishqoriligi, zichligi, qovushqoqligi, osmolyarligi, yot aralashmalar (o'xshash birikmalar), qadoqni to'ldirish xajmi, sterilligi, miqdoriy tahlili, qadoqlash, «Tashilishi», «Saqlanishi», «Yaroqlilik muddati».

Masalaning qo'yilishi: Talabalarga steril dori turlarini ishlab chiqarishda sifatini ta'minlash usullarini o'rgatish.

In'eksion eritmalarning idishlardagi xajmi nominal xajmdan ko'p bo'lishi kerak. (1-jadval)

1-jadval

Idishlardagi in'eksion eritmalarning hajmi

Nominal xajm, ml	To'ldirish xajm, ml		To'ldirishni nazorat qilish uchun olingan idishlar soni, ta
	Quyushqoq bo'limgan eritmalar	Quyushqoq (vyazkie) eritmalar	
1,0	1,10	1,15	20
2,0	2,15	2,25	20
5,0	5,30	5,50	20
10,0	10,50	10,70	10
20,0	20,60	20,90	10
50,0	51,0	51,50	5
50,0 dan ko'p	nominaldan 2% ga ko'p	nominaldan 3% ga ko'p	

Xajmi 50 ml gacha bo'lgan idishlarda to'ldirilish kalibrlangan shprits yordamida, 50 ml va undan ko'p bo'lganda – kalibrlangan silindrлarda $20\pm2^{\circ}\text{S}$ haroratda aniqlanadi.

Eritmalar xajmi nominal xajmdan kam bo'lmasligi kerak. Parenteral dori vositalari umumiy yoki xususiy maqolalarda keltirilgan usullarda sterilizatsiya qilinadi (sterilizatsiya DF XI , 2 jild 187 b zaxarlilik 182 b va pirogenli (183 b)).

shuningdek, bunday dori vositalari mexanik aralashmalarga tekshiruvdan o'tishi kerak.

Quruq parenteral dori vositalarining o'rtacha og'irligi tekshiriladi. Bunda 20 ta ochilgan idishlar 0,001g aniqlikda alohida-alohida og'irliklari o'chanadi, idish ichidagi dori moddasi suv yoki

maqolada keltirilgan erituvchi yordamida yuviladi, 100-105 °S haroratda 1 soat davomida quritiladi. Idishlar va boshqa vositalarining qopqog'i bilan birgalikda yana og'irligi o'lchanadi. So'ngra 20 ta idishning o'rtacha og'irligi va har bir idishdagi dori moddaning og'irligi hisoblanadi.

Har bir idishdagi og'irlilik o'rtacha og'irlikdan jadvalda keltirilgan chetlanishlarga mos kelishi va bu chetlanishlar ±15% dan oshmasligi kerak.

2- jadval

Bitta idishdagi modda og'irligining chetlanishi

Idishdagi modda mikdori, g	Yo'l qo'yilgan chetlanish, %
0,1 va undan kam	±10,0
0,1 dan ko'p va 0,3 dan kam	±7,5
0,3 va undan ko'p	±5,0

Agar 2 ta idishdagi modda og'irligidagi chetlanish jadvaldagiga mos kelmasayu, lekin ±15% dan oshmasa, unda tekshiruvlar yana 40 ta idishlarda olib boriladi. Bunda topilgan chetlanishlar jadvaldagidan bittasi ham katta bo'lmashigi kerak.

20 ta idishdagi moddaning o'rtacha og'irlidagi chetlanishi xususiy maqolada keltirilgan nominal miqdorga nisbatan ±5% gacha bo'lishi kerak. 0,05 g va undan kam og'irlikda dori moddasini saqlaydigan in'eksiya uchun quruq steril dori vositalari va suspenziyalar dozalar bir xilligiga tekshiriladi.

Tekshirishlar 10 ta idishlarda alohida-alohida xususiy maqolada keltirilgan miqdoriy tahlil usullari yordamida olib boriladi. Idishlardagi dori modda miqdori nominaldan ±15% gacha chetlanishi mumkin. Agar har bir idishdan chetlanish ±15% oshib ketsayu, lekin ±25% gacha bo'lsa, unda tekshiruvlar qo'shimcha yana 20 ta idishlarda olib boriladi. Bunda har bir idishdagi modda miqdordagi chetlanish ±15% dan oshmasligi kerak.

Suspenziyalar uchun qatlamlar ajralishi vaqtin tekshiriladi. Bunda agar xususiy maqolalarda boshqa yo'riqlar ko'rsatilmagan bo'lsa, suspenziyalar chayqatib bo'lgandan so'ng qatlamlarning ajralish vaqtin 5 minutdan kam bo'lmashigi kerak. Suspenziyalar 0840 sonli igna shpritsga osongina o'tish kerak.

Tozalangan suv-aqua purificata

Tashqi ko'rinishi. Rangsiz, tiniq, xidsiz va ta'msiz suyuqlik.

PH. 5.0 dan 7.0 gacha. 100 ml suvgaga 0,3 ml kaliy xloridni to'yingan eritmasi solinadi.

Aralashtirib potensiometrik usulda PH aniqlanadi.(DF 11 1tom 113 bet)

Nitrat va Nitritlar. 5 ml suvgaga 1 ml yangi tayyorlagan difenilamin qo'shiladi. Havo rang hosil bo'lmashigi kerak

Xloridlar. 10 ml suvgaga 0,5 ml Nitrat kislota 0,5 ml kumush Nitrat qo'shib 5 minut tindiriladi. Eritma tiniq bo'lishi kerak.

Sulfatlar. 10 ml suvgaga 0,5 ml suyiltirilgan xlorid kislota va 1 ml bariy xlorid qo'shib aralashtiriladi. Eritma tiniq bo'lishi kerak.

Kalsiy. 10 ml suvgaga 1ml dan ammoniy xlorid, ammiak eritmasi va ammoniy oksalat solib aralashtiriladi. 10 minut tindiriladi.eritma tiniq bo'lishi kerak.

Og'ir metallar. 10 ml suvgaga 1ml sirkaga kislota 2tomchi natriy sulfid qo'shib 1 minut tindiriladi. Oq fonda qurollanmagan ko'z bilan ko'rganda eritma rangsiz bo'lishi kerak.

Saqlanishi. Yangi tayyorlab ishlataladi yoki suvni tarkibini ozgartirmaydigan, mikrobiologik va tashqi tasirdan himoya qiluvchi yopiq idishlarda 3 kungacha saqlash mumkin.

Keys

Berilgan tozalangan suv tahlili.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

Keysdagi muammoni keltirib chiqqagan asosiy sabablar va hal etish yo'llarini jadval asosida izohlang (individual va kichik guruhda).

Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo'llari

Laboratoriya ishlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralar.

Kimyo laboratoriyalariga faqatgina xavfsizlik texnikasi bilan tanishib maxsus jurnalga imzo qo'yan talabalarga kirib ishlashga ruxsat beriladi.

Laboratoriya ishiga tushishdan oldin talabalar texnika xavfsizligini tushungandan so'ng ruxsat berilishi lozim:

- laboratoriyyada tozalik va texnika xavfsizligiga rioya qilish shart;
- laboratoriyyada bir kishi ishlashi mumkin emas, xonada kamida ikki kishi ishlashi lozim;
- kimyoviy reaktivlar qadog'ida yozilgan ko'rsatmalar asosida saqlanishi shart;
- ishni tugatgandan so'ng ish joyini tozalash, kimyoviy qoldiqlarni neytrallash va idishlarni zararsizlantirish shart;
- kimyoviy reaktivlarning qoldig'ini, organik erituvchilar va suvli kimyoviy moddalar eritmasini rakovinaga to'kish mumkin emas. Bunday qoldiqlar maxsus idishlarga solinadi (shisha).

Laboratoriya ish joyida ovqatlanish va oziq ovqat maxsulotlarini saqlash man etiladi. Suv ichish va dori moddalarini mazasini tatib ko'rish man etiladi. Moddalarni xidini zaxarli emasligiga ishonch xosil qilingandan so'ng aniqlash mumkin. Laboratoriya ishini bajarayotganda **mikro usulni qo'llash tavsiya** etiladi.

Laboratoriyyada xar doim quyidagini esda saqlash lozim: neorganik birikmalar toksik xususiyatga ega bo'lganlari juda ko'p va bundan tashqari alangada portlash xususiyatiga ega. Laboratoriyyada paxta matoli xalatda bo'lish shart, ximoya ko'zoynagi bo'lishi shart. Zaxarli va o'yuvchi ishqor, kislota moddalar bilan ishlaganda ximoya qo'lqopidan foydalanish shart. Laboratoriya stollarida shaxsiy buyumlarni qo'yish, ustki kiyimlarni ilish va oyoq kiyimlarni qoldirish mumkin emas.

Eritmalarni qizdirish jarayonida probirkaning boshi devor tomonga qaratilishi lozim. Suvda yaxshi erimiydigan va probirkada ozroq suv qolganda eritma toshib uchishi extimoli mavjud. Organik modda qatlami ostidagi suv qaynab otilish extimoli mavjud. Shuning uchun probirka bosh qismini iloji boricha xech kim yo'q tomonga qaratiladi.

Zaxarli xidli moddalar bilan ishlaganda xavo tortuvchi uskuna tagida ish bajarilishi lozim.

Ishqoriy er metallari, metallar va galogenlar bilan ishlagandan so'ng qoldig'i yo'qotilishi lozim. Kuydirilgan moddalar alangasini qum bilan uchirish lozim.

shisha idishlar toza yuvilib, quritilishi shart. Organik erituvchilar bilan tozalab yuvib, quritilishi shart.

Idishlarni quritish shkafida temperature 110-140⁰S da quriguncha qoldiriladi va usha erda sovutiladi. Olovli spirtovka yoki elektroplitkada idishlarni quritish man etiladi.

Laboratoriya ishlarini o'tkazishda zarur asbob-uskunalar.

Laboratoriya ishini bajarish jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo'llaniladi: kolbalar, probirkalar, pipetkalar va analistik va texnik tarozilar.

Masala va mashqlar:

1. 5,0 ml mikstura tarkibidagi efedrin gidroxloridni titrlash uchun (Mr.201,7) Fayans usulida 2,25 ml (V_3) 0,02 mol/l kumush nitrat sarf bo‘ldi ($K=0,98$)

2. Tahlil qilinayotgan levomitsetin namunasi farmakopeya maqolasi talabiga solishtirma nur yutish ko‘rsatkichi bo‘yicha javob berishini aniqlang (278 nm to‘lqin uzunligida 290-305 nm), agarda 0,002% suvli eritmasining optik zichligi kyuvetaning qalinligining 10 mm da 0,605 teng bo‘lsa.

Nazorat savollari

1. Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayonida sifatini ta’minlash
2. Ishlab chiqarish jarayonining kontaminatsiyasi
3. Steril mahsulotlarni ishlab chiqarish zonalari
4. Toza joylarning sinflanishi
5. Steril dori vositalarini ishlab chiqarishiga qo‘yilgan talablar
6. Parenteral dori vositalari turlari
7. In’eksion dori shakllari spetsifikatsiyasi
8. In’eksiya uchun ishlatiladigan quruq dori shakllariga qo‘yilgan talablar

Foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minlash. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamонави тahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

22-laboratoriya mashg’uloti: Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayonida sifatini ta’minlash. Ko‘z tomchilari dori preparatlarining sifatini ta’minlash

Ishdan maqsad: Dori moddasi (ko‘z tomchilari)ning nomi, preparatning nomi, tarkibi, sterillash va quyish sharoiti, chinligi, tinikligi, rangliligi, pH muxiti yoki kislotaliligi, ishqoriligi, zichligi, qovushqoqligi, osmolyarligi, yot aralashmalar (o‘xhash birikmalar), qadoqni to’ldirish xajmi, sterilligi, miqdori tahlili, qadoqlash, «Tashilishi», «Saqlanishi», «Yaroqlilik muddati»

Masalaning qo‘yilishi: Talabalarni dori vositalari sifatini ta’minlash bosqichlarini mukammal o’zlashtirishlariga erishishdan iborat.

Ishni bajarish uchun namuna “Insert” metodi

Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

- o‘qituvchi mashg’ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi;

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“-” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo’lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Ko‘z tomchilari

Ko‘z tomchilari bu ko‘zga tomizishga mo‘ljallangan dori shakli bo‘lib, ko‘z yoshiga izotonik bo‘lishi kerak.

Ko‘z tomchilari ishlab chiqarishda steril erituvchilar: tozalangan suv, izotonik bufer eritmalar, moylar va boshqalar ishlatiladi.

Stabilizator, konservant, prolangator va boshqa yordamchi moddalar: NaCl. Na₂SO₄ . Na₂S₂O₃, H₃BO₃, askorbin kislotasi, selluloza xosilalari ishlatiladi. Ko‘z tomchilari sterilikka, mexanik moddalar yo‘qligiga tekshirildadi. Ishlatiladigan usullar xususiy maqolalarda keltirilgan bo‘ladi.

*20%li Sulfatsil-natriy ko‘z
tomchilari*

SOLUTIO SULFACILII NATRII 20 %

FM 42-0087196801

Tarkibi:

Sulfatsil natriy (FM 42-2714-90)	-200g
Natriy tiosulfat (FM 42-2871-98)	-1,0g
Xlorid kislotasi 1 M (DF XI, 2jild, 78b)	- pH 7,7 – 8,0 gacha
Tozalangan suv (FM 42-2619-97)	- 1 l gacha

Tavsiflanishi: Rangsiz yoki bir oz rangli tiniq suyuqlik.

Chinligi: Preparat birlamchi aromatik aminlarga xos sariq-zarg‘aldoq rangli cho‘kma hosil qiladi. (DF XI, 1jild, 159 b)

1 ml preparatga 1 ml mis sulfat eritmasidan qo‘shilganda havo – yashil rang hosil qiladi, keyinchalik bu rang o‘zgaradi.

Preparat natriyga xos B reaksiyasini beradi (DF XI, 1 jild, 159 b).

Tiniqligi: Preparat tiniq bo‘lishi kerak (DF XI, 1 jild, 198b).

Rangliligi: Prepartning rangi №6b ranglilik etalonining rangidan oshmasligi kerak (DF XI, 1 jild, 194 b).

pH. 7,5 dan 8,7 gacha (potensiometrik, DF XI, 1 jild., 113 b)

Nominal xajm. Tyubikdagi shakli uchun xajm 1,3 ml dan kam bo‘lmasligi kerak . Xajm 2,0 yoki 5,0 ml li shpritslarda o‘lchanadi (shprits o‘lchamlari 0,1ml bo‘lishi kerak).

Flakondagi shakli uchun 5ml ±5%.

Mexanik yot aralashmalar.

Preparat RDI 42-504-00 talablariga javob berishi kerak.

Sterilligi: preparat sterill bo‘lishi kerak. Sinovlar membranalı filtrlash usulida olib boriladi. (DF XI, 2 jild, 187b).

Yot moddalar: 1 ml preparatga 4 ml suv qo‘shiladi. 0,01 ml hosil bo‘lgan eritmadan (400 mkg) olib Silikagel [60 F 254 yoki PTSX – PA – UF (7,5 X 15 sm)] plastikalarining start chizig‘igacha tomiziladi. YOniga 0,01ml (20mkg), 0,005 ml (10mkg), 0,0025 (5 mkg) 0,2% li guvox sulfatsil natriy va 0,01 ml (20mkg) 0,2% li streptotsidning guvox andoza moddasining eritmasidan tomiziladi. Plastinka havoda quritiladi, 10:5:5:2 nisbatdagi N – butanol -95% li etanol – suv – konsentrangan ammiak eritmasidan tashkil topgan aralashma bilan to‘yintirilgan xromatografik kameraga joylashtiriladi va xromatografiyalanadi. Qo‘zg‘alanuvchan faza start chizig‘idan 10 sm gacha ko‘tarilganda, plastinka kamerada olinib, 100-105⁰ S haroratda 10 min davomida quritiladi, sovutiladi va 4-dimetilaminobenzaldegidning 2% li eritmasi bilan purkaladi. Bunda xromatogrammada hosil bo‘lgan dog‘ning kattaligi va rangi streptotsidning guvox andoza moddasi (SGAM) nikidan oshmasligi kerak (5% dan oshmasligi).

Miqdoriy tahlil.

1 ml preparat xajmi 25 ml bo‘lgan kolbaga solinadi, ustiga 10 ml suyultirilgan xlorid kislotasidan qo‘shib aralashma xajmi 80 mlgacha suv bilan etkaziladi. Kolba yopiladi va aralashtiriladi. Aralashma 0-10⁰ S gacha sovutiladi va astalik bilan 0,15 – 0,20 ml tropeolin 00 yoki neytral qizili indikatori ishtirokida titrlanadi (“ nitritometriya” usuli). Bir vaqtning o‘zida nazorat tajribasi o‘tkaziladi.

1 ml 0,1m natriy nitrit eritmasi 0,02542 g C₈N₉N₂ NaO₃S • N₂O ga to‘g‘ri keladi. Uning miqdori 19,4 dan 20,6% gacha bo‘lishi kerak.

Saqlanishi: 15⁰S dan yuqori bo‘lmagan haroratida yorug‘lik tushmaydigan (tyubiklar uchun), 25⁰S dan yuqori bo‘lmagan, yorug‘lik tushmaydigan joylarda (flakondagi dori turi uchun) saqlanadi.

YAroqlilik muddati 2 yil.

Ishlatilishi: mikrobga qarshi vosita.

Keys

0,25%li rux-sulfat ko‘z tomchilari tahlil qilindi.

<i>moddaga izoh</i>	<i>tozaligini aniqlash usullari</i>	<i>miqdorini aniqlash usullari</i>	<i>usul aniqligi</i>

Guruhalr uchun topshiriqlar.

I – gurux vazifasi

1. Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayonida sifatini ta’minlash

II – gurux vazifasi

2. Ishlab chiqarish jarayonining kontaminatsiyasi

III – gurux vazifasi

3. Steril mahsulotlarni ishlab chiqarish zonalari

Laboratoriya ishlarini o‘tkazish qoidalari va xavfsizlik choraları.

Kimyo laboratoriylariga faqatgina xavfsizlik texnikasi bilan tanishib maxsus jurnalga imzo qo‘yan talabalargina kirib ishlashga ruxsat beriladi.

Laboratoriya ishiga tushishdan oldin talabalar texnika xavfsizligini tushungandan so‘ng ruxsat berilishi lozim:

- laboratoriyada tozalik va texnika xavfsizligiga rioya qilish shart;
- laboratoriyada bir kishi ishlashi mumkin emas, xonada kamida ikki kishi ishlashi lozim;
- kimyoviy reaktivlar qadog‘ida yozilgan ko‘rsatmalar asosida saqlanishi shart;
- ishni tugatgandan so‘ng ish joyini tozalash, kimyoviy qoldiqlarni neytrallash va idishlarni zararsizlantirish shart;
- kimyoviy reaktivlarning qoldig‘ini, organik erituvchilar va suvli kimyoviy moddalar eritmasini rakovinaga to‘kish mumkin emas. Bunday qoldiqlar maxsus idishlarga solinadi (shisha).

Laboratoriya ish joyida ovqatlanish va oziq ovqat maxsulotlarini saqlash man etiladi. Suv ichish va dori moddalarini mazasini tatib ko‘rish man etiladi. Moddalarni xidini zaxarli emasligiga ishonch xosil qilingandan so‘ng aniqlash mumkin. Laboratoriya ishini bajarayotganda **mikro usulni qo‘llash tavsiya** etiladi.

Laboratoriyada xar doim quyidagini esda saqlash lozim: neorganik birikmalar toksik xususiyatga ega bo‘lganlari juda ko‘p va bundan tashqari alangada portlash xususiyatiga ega. Laboratoriyada paxta matoli xalatda bo‘lish shart, ximoya ko‘zoynagi bo‘lishi shart. Zaxarli va o‘yuvchi ishqor, kislota moddalar bilan ishlaganda ximoya qo‘lqopidan foydalanish shart. Laboratoriya stollarida shaxsiy buyumlarni qo‘yish, ustki kiyimlarni ilish va oyoq kiyimlarni qoldirish mumkin emas.

Eritmalarni qizdirish jarayonida probirkaning boshi devor tomonga qaratilishi lozim. Suvda yaxshi erimiyyidigan va probirkada ozroq suv qolganda eritma toshib uchishi extimoli mavjud. Organik modda qatlami ostidagi suv qaynab otilish extimoli mavjud. SHuning uchun probirka bosh qismini iloji boricha xech kim yo‘q tomonga qaratiladi.

Zaxarli xidli moddalar bilan ishlaganda xavo tortuvchi uskuna tagida ish bajarilishi lozim.

Ishqoriy er metallari, metallar va galogenlar bilan ishlagandan so‘ng qoldig‘i yo‘qotilishi lozim. Kuydirilgan moddalar alangasini qum bilan uchirish lozim.

Shisha idishlar toza yuvilib, quritilishi shart. Organik erituvchilar bilan tozalab yuvib, quritilishi shart.

Idishlarni quritish shkafida temperature 110-140S da quriguncha qoldiriladi va usha erda sovutiladi. Olovli spirtovka yoki elektroplitkada idishlarni quritish man etiladi.

Laboratoriya ishlarini o’tkazishda zarur asbob-uskunalar.

Laboratoriya ishini bajarish jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo‘llaniladi: kolbalar, probirkalar, pipetkalar va analitik va texnik tarozilar.

Masala va mashqlar

1. Digitoksnini quruq moddaga nisbatan hisoblaganda, uning solishtirma nur burish ko‘rsatkichini toping, agar 0,25 g digitoksnini 25 ml xloroformda eritib, kyuveta qalinligi 20 sm da o‘lchanganda nur burish burchagi +0,44° teng. Tahlil qilinayotgan digitoksin namunasining quritishda og‘irlilik yo‘qotishi 1,0 % ni tashkil qiladi.
2. 0,5% kortizon atsetatning atsetondagi eritmasining nur burish burchak intervalini toping, agar solishtiirma nur burish burchagining farmakopeya maqolasi talabiga binoan +178 dan 194° gacha bo‘lishi kerak. Kyuveta qalinligi – 20 sm.

Nazorat savollari

1. Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayonida sifatini ta’minlash
2. Ishlab chiqarish jarayonining kontaminatsiyasi
3. Steril mahsulotlarni ishlab chiqarish zonalari

4. Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayonida sifatini ta'minlash.
5. Ko'z tomchilari dori preparatlarining sifatini ta'minlash

Foydalanimadigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 "Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari" Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo'jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

23- laboratoriya mashg'uloti: Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayonida sifatini ta'minlash. In'eksion eritmalar sifatini ta'minlash

Ishdan maqsad: Steril dori turlarini ishlab chiqarishda sifatini ta'minlash. Novokain, kalsiy glyukonat sifatiga quyilgan talablar. In'eksion dori turlarining nomi, preparatning nomi, tarkibi, sterillash va quyish sharoiti, chinligi, tinikligi, rangliligi, pH muxiti yoki kislotaliligi, ishqoriligi, zichligi, qovushqoqligi, osmolyarligi, yot aralashmalar (o'xshash birikmalar), qadoqni to'ldirish xajmi, sterilligi, miqdoriy tahlili, qadoqlash, «Tashilishi», «Saqlanishi», «Yaroqlilik muddati».

Masalaning qo'yilishi: Talabalarga steril dori turlarini ishlab chiqarishda sifatini ta'minlash usullarini o'rgatish.

Xajmi 50 ml gacha bo'lgan idishlarda to'ldirilish kalibrlangan shprits yordamida, 50 ml va undan ko'p bo'lganda – kalibrlangan silindrarda $20\pm2^{\circ}\text{S}$ haroratda aniqlanadi.

Eritmalar xajmi nominal xajmdan kam bo'lmasligi kerak. Parenteral dori vositalari umumiy yoki xususiy maqolalarda keltirilgan usullarda sterilizatsiya qilinadi (sterilizatsiya DF XI , 2 jild 187 b zaxarlilik 182 b va pirogenli (183 b)).

shuningdek, bunday dori vositalari mexanik aralashmalarga tekshiruvdan o'tishi kerak.

Quruq parenteral dori vositalarining o'rtacha og'irligi tekshiriladi. Bunda 20 ta ochilgan idishlar 0,001g aniqlikda alohida-alohida og'irliklari o'chanadi, idish ichidagi dori moddasi suv yoki maqolada keltirilgan erituvchi yordamida yuviladi, $100-105^{\circ}\text{S}$ haroratda 1 soat davomida quritiladi. Idishlar va boshqa vositalarining qopqog'i bilan birgalikda yana og'irligi o'chanadi. So'ngra 20 ta idishning o'rtacha og'irligi va har bir idishdagi dori moddaning og'irligi hisoblanadi.

Har bir idishdagi og'irlilik o'rtacha og'irlikdan jadvalda keltirilgan chetlanishlarga mos kelishi va bu chetlanishlar $\pm 15\%$ dan oshmasligi kerak.

2- jadval

Bitta idishdagi modda og'irligining chetlanishi

Idishdagi modda mikdori, g	Yo'l qo'yilgan chetlanish, %
0,1 va undan kam	$\pm 10,0$
0,1 dan ko'p va 0,3 dan kam	$\pm 7,5$
0,3 va undan ko'p	$\pm 5,0$

Agar 2 ta idishdagi modda og'irligidagi chetlanish jadvaldagiga mos kelmasayu, lekin $\pm 15\%$ dan oshmasa, unda tekshiruvlar yana 40 ta idishlarda olib boriladi. Bunda topilgan chetlanishlar jadvaldagidan bittasi ham katta bo'lmasligi kerak.

20 ta idishdagi moddaning o'rtacha og'irlikdagi chetlanishi xususiy maqolada keltirilgan nominal miqdorga nisbatan $\pm 5\%$ gacha bo'lishi kerak. 0,05 g va undan kam og'irlikda dori

moddasini saqlaydigan in'eksiya uchun quruq steril dori vositalari va suspenziyalar dozalar bir xilligiga tekshiriladi.

Tekshirishlar 10 ta idishlarda alohida-alohida xususiy maqolada keltirilgan miqdoriy tahlil usullari yordamida olib boriladi. Idishlardagi dori modda miqdori nominaldan $\pm 15\%$ gacha chetlanishi mumkin. Agar har bir idishdan chetlanish $\pm 15\%$ oshib ketsayu, lekin $\pm 25\%$ gacha bo'lsa, unda tekshiruvlar qo'shimcha yana 20 ta idishlarda olib boriladi. Bunda har bir idishdagi modda miqdordagi chetlanish $\pm 15\%$ dan oshmasligi kerak.

Suspenziyalar uchun qatlamlar ajralishi vaqtin tekshiriladi. Bunda agar xususiy maqolalarda boshqa yo'riqlar ko'rsatilmagan bo'lsa, suspenziyalar chayqatib bo'lgandan so'ng qatlamlarning ajralish vaqtini 5 minutdan kam bo'lmasligi kerak. Suspenziyalar 0840 sonli igna shpritsga osongina o'tish kerak.

**Natriy tiosulfatning 30% li in'eksiya uchun
eritmasi**
Solutio Natrii thiosulfatis 30% pro injectionibus

Tarkibi:

Natriy tiosulfat - 300 g

(FS 42 – 2871 - 98)

Natriy gidrokarbonat - 20 g


(GF X, st. 430; GOST 4201-79; x2)

In'eksiya uchun suv - 1 l gacha

(FS 42 – 2620 - 97)

Tavsiflanishi. Tiniq rangsiz suyuqlik.

Chinligi.



Preparat natriyga xos B reaksiyasini beradi (DF XI, 1 jild 159 b)

Tiniqligi.

Rangliligi.

pH. 7,8 dan 8,4 gacha bo'lishi kerak

Ishqoriyligi.

Nominal xajmi

Mexanik aralashmalar.


Yot moddalar.

Sterilligi.

Pirogenligi.

Miqdoriy tahlil. 10 ml preparat xajmi 250ml bo'lgan o'lchov kolbasiga solinadi, xajmi Yangi qaynatib sovutilgan suv bilan belgisigacha etkaziladi.

Hosil bo'lgan eritmadan 25ml olib yodning 0,1M eritmasi bilan titrlanadi (indikator kraxmal).



1ml 0,1 M yod eritmasi 0,02482g $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ga to'g'ri keladi. 1 ml da 0,291 - 0,309 g $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ bo'lishi kerak.

Saqlanish: 5 yil xona haroratida yorug'lik tushmaydigan joyda.

Dezinfeksiya uchun vosita.


**Magniy sulfatning 20% yoki 25% li in'eksiya uchun eritmasi.
Solutio Magnesii Sulfatis 20% aut 25% pro injectionibus**

Tarkibi:

Magniy sulfat. – 200 g yoki 250g
(DFX, 383 yoki GOST 4523-77, “x.ch” «ch.g.a»)
In'eksiya uchun suv - 1 l gacha
(FS 42 – 2620 -89)

Tasvirlanishi. Tiniq ransiz suqlik.

Chinligi.



Tiniqligi

Rangliligi.

pH 6,2 dan 8

Nominal xajmi.

Mexanik yot moddalar

Pirogenligi.

Saqlanishi. Xona haroratida

Yaroqlilik muddati 3 yilgacha.

Ishlatilishi. Tinchlantiruvchi, spazmolitik, yumshatuvchi vosita.

Keys

Berilgan magniy sulfat 10%, 20 % eritmalleri. Eritmasini foiz miqdorini toping.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

Keysdag'i muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablar va hal etish yo'llarini jadval asosida izohlang (individual va kichik guruhda).

Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo'llari

Laboratoriya ishlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralarini

Kimyo laboratoriyalari faqatgina xavfsizlik texnikasi bilan tanishib maxsus jurnalga imzo qo'ygan talabalarga kirib ishlashga ruxsat beriladi.

Laboratoriya ishiga tushishdan oldin talabalar texnika xavfsizligini tushungandan so'ng ruxsat berilishi lozim:

- laboratoriyyada tozalik va texnika xavfsizligiga rioya qilish shart;
- laboratoriyyada bir kishi ishlashi mumkin emas, xonada kamida ikki kishi ishlashi lozim;
- kimyoviy reaktivlar qadog'ida yozilgan ko'rsatmalar asosida saqlanishi shart;
- ishni tugatgandan so'ng ish joyini tozalash, kimyoviy qoldiqlarni neytrallash va idishlarni zararsizlantirish shart;
- kimyoviy reaktivlarning qoldig'ini, organik erituvchilar va suvli kimyoviy moddalar eritmasini rakovinaga to'kish mumkin emas. Bunday qoldiqlar maxsus idishlarga solinadi (shisha).

Laboratoriya ish joyida ovqatlanish va oziq ovqat maxsulotlarini saqlash man etiladi. Suv ichish va dori moddalarini mazasini tatib ko'rish man etiladi. Moddalarni xidini zaxarli emasligiga ishonch xosil qilingandan so'ng aniqlash mumkin. Laboratoriya ishini bajarayotganda **mikro usulni qo'llash tavsiya** etiladi.

Laboratoriyada xar doim quyidagini esda saqlash lozim: neorganik birikmalar toksik xususiyatga ega bo'lganlari juda ko'p va bundan tashqari alangada portlash xususiyatiga ega. Laboratoriyada paxta matoli xalatda bo'lish shart, ximoya ko'zoynagi bo'lishi shart. Zaxarli va o'yuvchi ishqor, kislota moddalari bilan ishlaganda ximoya qo'lqopidan foydalanish shart. Laboratoriya stollarida shaxsiy buyumlarni qo'yish, ustki kiyimlarni ilish va oyoq kiyimlarni goldirish mumkin emas.

Eritmalarni qizdirish jarayonida probirkaning boshi devor tomonga qaratilishi lozim. Suvda yaxshi erimiydigan va probirkada ozroq suv qolganda eritma toshib uchishi extimoli mavjud. Organik modda qatlami ostidagi suv qaynab otlish extimoli mavjud. Shuning uchun probirkaga bosh qismini iloji boricha xech kim yo'q tomonga qaratiladi.

Zaxarli xidli moddalar bilan ishlaganda xavo tortuvchi uskuna tagida ish bajarilishi lozim.

Ishqoriy er metallari, metallar va galogenlar bilan ishlagandan so'ng qoldig'i yo'qotilishi lozim. Kuydirilgan moddalar alangasini qum bilan uchirish lozim.

shisha idishlar toza yuvilib, quritilishi shart. Organik erituvchilar bilan tozalab yuvib, quritilishi shart.

Idishlarni quritish shkafida temperature $110-140^{\circ}\text{S}$ da quriguncha qoldiriladi va usha erda sovutiladi. Olovli spirtovka yoki elektroplitkada idishlarni quritish man etiladi.

Laboratoriya ishlarini o'tkazishda zarur asbob-uskunalar.

Laboratoriya ishini bajarish jarayonida quyidagi asbob uskunalar qo'llaniladi: kolbalar, probirkalar, pipetkalar va analistik va texnik tarozilar.

Masala va mashqlar:

1. 5,0 ml mikstura tarkibidagi efedrin gidroxloridni titrlash uchun (Mr.201,7) Fayans usulida 2,25 ml (V_3) 0,02 mol/l kumush nitrat sarf bo'ldi ($K=0,98$)
2. Tahlil qilinayotgan levomitsetin namunasi farmakopeya maqolasi talabiga solishtirma nur yutish ko'rsatkichi bo'yicha javob berishini aniqlang (278 nm to'lqin uzunligida 290-305 nm), agarda 0,002% suvli eritmasining optik zichligi kyuvetaning qalinligining 10 mm da 0,605 teng bo'lsa.

Nazorat savollari

1. Steril dori vositalarini ishlab chiqarish jarayonida sifatini ta'minlash
2. Ishlab chiqarish jarayonining kontaminatsiyasi
3. Steril mahsulotlarni ishlab chiqarish zonalari
4. Toza joylarning sinflanishi
5. Steril dori vositalarini ishlab chiqarishiga qo'yilgan talablar
6. Parenteral dori vositalari turlari
7. In'eksion dori shakllari spetsifikatsiyasi
8. In'eksiya uchun ishlatiladigan quruq dori shakllariga qo'yilgan talablar

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo'jaev - Dori vositalari sifatini ta'minlash. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.

3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.

4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

24- laboratoriya mashg’uloti: Dori vositalarini ishlab chiqarishda boshlang’ich materiallari va qadoqlov vositalari

Ishdan maqsad: O‘zbekiston Respublikasida dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi (MH loyixasi, aniqlashtirish xati, tahlil usulining metrologik xususiyatlari, dori vositasining olinishi haqida qisqacha ma’lumot, patent formulyari, klinik sinovlar natijalari va xakozo. Dori vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ularni sotish uchun litsenziyani olish CTD formati.

Masalaning qo‘yilishi: Talabalarni dori vositalarini ishlab chiqarishda boshlangich materiallari va qadoqlov vositalari sifatini taminlashdaniborat.

Paracetamol tabletkalari

Tabulettae paracetamoli 0.2 aut 0.5

FM 42-3659-98

GFX, st 506 o‘rniga


Bitta tabletka tarkibi:


Paracetamol (FS 42-3292-96)	- 0,20000 g	- 0,50000g
Kartoshka kraxmali (Gost 7699-78)	- 0,01018g	- 0,02545g
Stearin kislotoshi (GOST 9419-78)	- 0,00174g	- 0,00435g
Kraxmal patokasi (GOST 5194 -91)	- 0,00700g	- 0,01750g
Jelatin (GOST 11293-89, oziq - ovqat)	- 0,00108g	- 0,00270g

Tasvirlanishi. Oq yoki biroz pushti rangdagi faska va riskli tekis silindrsimon tabletkalar. Ular tashqi ko‘rinishi bo‘yicha DF XI,1 va 2jildida 154 betdagi talablarga javob berishi kerak.

Tabletkalarning o‘rtacha og‘irligi. Tabletkalarning o‘rtacha og‘irligi 0,22 g yoki 0,55g. 0,2 g og‘irlilikdagi tabletkalar uchun ruhsat etilgan chetlanishlar $\pm 7,5\%$, 0,5 g tabletkalar uchun $\pm 5,0\%$ Aniqlash uslubi DF XI ning 2 jild, 154 b keltirilgan.

Chinligi. Paracetamol chinligini indofenol hosil qilish reaksiyasi bo‘yicha aniqlash Davlat farmakopeyasida asosiy reaksiya sifatida keltirilgan





Mikrobiologik tozaligi.

Miqdoriy tahlil 0,045 g (aniq tortma) atrofidagi maydalangan tabletkalar xajmi 100 ml bo‘lgan o‘lchov kolbasida 60 ml suvda eritiladi, 10 minut aralashtiriladi, belgisigacha suv bilan etkaziladi va aralashtiriladi.

Eritma o‘rtacha zichlikdagi filtr qog‘oz orqali filtrlanadi. Birinchi 20 ml filtrat tashlab yuboriladi, keyingi 1 ml 50 mlgacha suv bilan o‘lchov kolbasida suyultiriladi va aralashtiriladi. hosil bo‘lgan eritmaning optik zichligi 243 nm tulqin uzunligida qatlam qalinligi 10 mm bo‘lgan kyuvetalarda o‘lchanadi.

Bir vaqtning o‘zida “eruvchanlik” bo‘limida keltirilgan uslubda tayyorlangan paratsetamolning ishchi andoza na’munasi eritmasining optik zichligi o‘lchanadi. Taqqoslovchi eritma - suv.

Bitta tabletkadagi paratsetamolning grammdagi miqdori quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$X = \frac{D_1 \cdot A_0 \cdot V}{D_0 \cdot A_1},$$

bu erda D_1 - tekshiriluvchi eritmaning optik zichligi;
 D_0 - paratsetamoling IAH eritmasining optik zichligi
 A_1 - preparatning og‘irligi, g;
 A_0 - paratsetamol IAN ning og‘irligi, g ;
 V -tabletkalarning o‘rtacha og‘irligi, g.

$C_6H_9NO_2$ (paratsetamolning) miqdori bitta tabletkaning o‘rtacha og‘irligiga nisbatan 0,190 dan 0,210 gacha yoki 0,475 dan to 0,525 gacha bo‘lishi kerak.

Saqlanishi. B ro‘yxati. YOrug‘lik tushmaydigan joyda.

Yaroqlilik muddati 3 yil.

Ishlatilishi. Istma tushiruvchi, og‘riq qoldiruvchi vosita.

Keys

Parasetamol tabletkalari vaqtincha farmakopeya maqolalari asosida sifatini nazorat qiling. Moddaning tozaligini aniqlash usullarini kursating. Modda miqdorini aniqlang.

<i>moddaga izoh</i>	<i>tozaligini aniqlash usullari</i>	<i>miqdorini aniqlash usullari</i>	<i>usul aniqligi</i>

Guruhrar uchun topshiriqlar.

I – gurux vazifasi

2. Tabletka sifatiga qo‘yilgan talablar.

III – gurux vazifasi

1.Kapsula sifatiga qo‘yilgan talablar.

Laboratoriya ishlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralar.

Kimyo laboratoriyalariga faqatgina xavfsizlik texnikasi bilan tanishib maxsus jurnalga imzo qo‘ygan talabalargina kirib ishlashga ruxsat beriladi.

Laboratoriya ishiga tushishdan oldin talabalar texnika xavfsizligini tushungandan so‘ng ruxsat berilishi lozim:

- laboratoriyyada tozalik va texnika xavfsizligiga rioya qilish shart;
- laboratoriyyada bir kishi ishlashi mumkin emas, xonada kamida ikki kishi ishlashi lozim;
- kimyoviy reaktivlar qadog‘ida yozilgan ko‘rsatmalar asosida saqlanishi shart;
- ishni tugatgandan so‘ng ish joyini tozalash, kimyoviy qoldiqlarni neytrallash va idishlarni zararsizlantirish shart;
- kimyoviy reaktivlarning qoldig‘ini, organik erituvchilar va suvli kimyoviy moddalar eritmasini rakovinaga to‘kish mumkin emas. Bunday qoldiqlar maxsus idishlarga solinadi (shisha).

Laboratoriya ish joyida ovqatlanish va oziq ovqat maxsulotlarini saqlash man etiladi. Suv ichish va dori moddalarini mazasini tatib ko‘rish man etiladi. Moddalarni xidini zaxarli emasligiga ishonch xosil qilingandan so‘ng aniqlash mumkin. Laboratoriya ishini bajarayotganda **mikro usulni qo‘llash tavsiya** etiladi.

Laboratoriyyada xar doim quydagini esda saqlash lozim: neorganik birikmalar toksik xususiyatga ega bo‘lganlari juda ko‘p va bundan tashqari alangada portlash xususiyatiga ega. Laboratoriyyada paxta matoli xalatda bo‘lish shart, ximoya ko‘zoynagi bo‘lishi shart. Zaxarli va o‘yuvchi ishqor, kislota moddalari bilan ishlaganda ximoya qo‘lqopidan foydalanish shart. Laboratoriya stollarida shaxsiy buyumlarni qo‘yish, ustki kiyimlarni ilish va oyoq kiyimlarni qoldirish mumkin emas.

Eritmalarni qizdirish jarayonida probirkaning boshi devor tomonga qaratilishi lozim. Suvda yaxshi erimiydigan va probirkada ozroq suv qolganda eritma toshib uchishi extimoli mavjud. Organik modda qatlami ostidagi suv qaynab otilish extimoli mavjud. SHuning uchun probirka bosh qismini iloji boricha xech kim yo‘q tomonga qaratiladi.

Zaxarli xidli moddalar bilan ishlaganda xavo tortuvchi uskuna tagida ish bajarilishi lozim.

Ishqoriy er z. Kuydirilgan moddalar alangasini qum bilan uchirish lozim.

SHisha idishlar toza yuvilib, quritilishi shart. Organik erituvchilar bilan tozalab yuvib, quritilishi shart.

Idishlarni quritish shkafida temperature 110-140S da quriguncha qoldiriladi va usha erda sovutiladi. Olovli spirtovka yoki elektroplitkada idishlarni quritish man etiladi.

Laboratoriya ishlarini o'tkazishda zarur asbob-uskunalar.

Laboratoriya ishini bajarish jarayonida quydagi asbob uskunalar qo‘llaniladi: kolbalar, probirkalar, pipetkalar va analistik va texnik tarozilar.

Masala va mashqlar

1. . 95% li etanoldagi levomitsetning 5% li eritmasining nur burish burchagining oralig‘ini topping, agar solishtirma nur burish burchagining farmakopeya maqolasi talabiga binoan +15° dan +20° gacha.

2. Kamfaraning solishtirma nur burish burchagini toping, agar 50 ml 95% li etanoldagi eritmasi kyuveta qalinligi 10 sm bo‘lganida nur burish burchagi +13,2° teng.

Nazorat savollari

1. Dori vositalarini ishlab chiqarishda boshlang‘ich materiallar
2. Dori vositalarini ishlab chiqarishda qadoqlow materiallari
3. Namuna olish va tahlil qilish tartibi
4. Kirish nazoratini o‘tkazish tartibi
5. Spetsifikatsiyalar


Foydalilaniladigan adabiyotlar ro’yxati

1. V.N.Abdullabekova, Q.A. Ubaydullaev va A.N.Yunusxo’jaev - Dori vositalari sifatini ta’minlash. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati, (prof. A.N. Yunusxodjaev taxriri ostida), I, II kitob, Toshkent, 2001. III kitob 2003.-187 b.
3. Tarmoq standarti Tst 42-01: 2002 “Dori vositalari sifati standartlari asosiy qoidalari” Toshkent, 2002-60b.
4. A.N. Yunusxo’jaev, Q.A. Ubaydullaev va b. Dori vositalarining zamonaviy tahlil usullari Toshkent. 2010.-639 b.

25-Laboratoriya mashg‘uloti: Dori vositalarini sifatini ta’minlashda qo‘llaniladigan tahlil usullari

Ishdan maqsad: Kimyoviy va fizikaviy tahlil usullarini baholash (chiziqliligi, sezgirligi, qaytaruvchanligi, xatoligi). Vodorod peroksid eritmasining tahlil usulini baxolash.

Masalaning qo‘yilishi: Talabalarga dori vositalarining sifatini ta’minlashda qo‘llaniladigan tahlil usullariga qo‘yiladigan talablarini o‘rgatish.



Aniqlash taribi:

100 ml hajmli o‘lchov kolbasiga 10 ml 3% li vodorod peroksid eritmasidan solib, suv bilan belgisigacha suyultiriladi. Eritmadan 10 ml iga 5 ml suyultirilgan sulfat kislota qo‘sib, 0,1 mol/l kaliy permanganat bilan och-qizil rang hosil bo‘lguniga qadar titrlanadi.

$E=M.m/2$, 1 ml 0,1 mol kaliy permanganat 0,001701 g vodorod peroksidga mos kelib, uning eritmadagi miqdori 2,7-3,3% bo‘lishi kerak. hisoblash formulasi:

$$X = \frac{V \cdot K \cdot T \cdot 100 \cdot 100}{V_1 \cdot 10}$$

V - 0,1 mol/l kaliy permanganatning hajmi


V_1 - tahlil uchun olingan vodorod peroksidning ml miqdori

K - titrantning tuzatish koefitsiyenti

T - vodorod peroksidning 0,1 mol/l kaliy permanganat bo‘yicha titri, g/ml larda

Natriy benzoatning miqdorini aniqlash

